

1030769
38

М. Lafasov, Е. Xoliqov,
D. Qodirova

JAHON TARIXI 9



M. LAFASOV, E. XOLIQOV, D. QODIROVA

JAHON TARIXI

(1870—1914- YILLAR)

9- sinf

Ikkinchi nashr

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining
Respublika Ta'lim Markazi umumta'lim maktablarining
9- sinflari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etgan*

TOSHKENT
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI XALQ MEROSI NASIHIYOTI
2004

63.3(0)

L15

Lafasov M. va boshq.

Jahon tarixi (1870—1914 yillar): 9- sinflar uchun o'quv qo'llanma/M. Lafasov, E. Xoliqov, D. Qodirova/. Mas'ul muharrir: G. A. Hidoyatov.— T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004.— 352 b.

1.1,2 Muallifdosh.

BBK 63.3(0)53

Mas'ul muharrir:

Tarix fanlari doktori, professor G. A. HIDOYATOV.

Taqrizchilar:


*Tarix fanlari doktori, professor R. FARMONOV,
Tarix fanlari nomzodi, dotsent R. G'AFUROVA,
Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi 8- o'rta maktabning oliy
toifali o'qituvchisi U. JO'RAEV,
Toshkent shahridagi 25- maktabning oliy toifali
o'qituvchisi M. VOHIDOVA.*

10 30469
392

L 4306020600-484 — 2004
M361(04)-2004

ISBN 5-86484-020-3

© Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004- yil.



KIRISH

Aziz o'quvchilar!

Siz o'rta umumta'lim maktabining oxirgi, IX sinfiga qadam qo'ydingiz. Maktabni bitirganingizdan so'ng sizni akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji kutmoqda. Siz «Jahon tarixi» bo'yicha XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davr haqida bilim oldingiz. Endi jahon tarixining eng qiziqarli, shu bilan birga eng murakkab davrini o'rganasiz. Chunki bu qisqa davr, ya'ni XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrning asosiy belgisi — ishlab chiqarishda monopolistik kapitalizm hukmron bo'lib qoldi, turli xil sindikatlar, kartellar yuzaga keldi, ishlab chiqarish markazlashdi, xorijga kapital chiqarish boshlandi. Bir qator davlatlar oldingi 100 yillarda erisha olmagan taraqqiyotga erishdilar. Dunyoni butunlay qaytadan bo'lib olishga zamin tayyorlandi.

Esda tuting! Bozor iqtisodiyoti jamiyati taraqqiyotiga xos bo'lgan bunday o'zgarishlarni hozirda bizning mamlakatimiz o'z boshidan kechirmoqda. Xo'jalik taraqqiyotining tarixiy tajribalaridan bugungi kunda foydalanish, yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslik mamlakatimizda buyuk jamiyat qurishni va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashimizni tezlashtiradi. Shu sababli respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov «Biz turli mamlakatlar iqtisodiyotining o'ziga xos taraqqiyotini katta diqqat-e'tibor bilan o'rganamiz, jahon amaliyoti va jahon tafakkurida to'plangan eng yaxshi tajribalarni o'zimizda qo'llashni or bilmaymiz, aksincha, bunday intilishni har jihatdan rag'batlantiramiz», deb ta'kidladilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jamiyat taraqqiyoti oldingi davrlarga nisbatan nihoyatda tezlashdi. Qo'lingizdagi ushbu o'quv qo'llanma «Jahon tarixi»ning XIX asrning 70- yillaridan 1914- yilgacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi.

Aynan shu davrdan boshlab dunyo davlatlarida ishlab chiqarishda yangi monopolistik birlashmalar hukmronlik qila boshladi va taraqqiyotda ilgari ketgan mamlakatlar o'z hududlarini yangi mustamlakalar hisobiga kengaytirdilar.

Iqtisodiyotda erkin raqobat kuchayib, tovar ishlab chiqarish yanada tezlashdi. Endi qator mamlakatlar chet ellarga mablag'lar qo'yib, u yerlarda zavod va fabrikalar qurib, katta foyda ola boshladilar. Natijada dunyo bozorlari ham bo'lib olina boshladi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dunyo taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari mavjud edi.

Birinchidan, bu davrga kelib «erkin» kapitalizm oldingiga nisbatan o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu yuqori cho'qqi siyosiy adabiyotlarda «imperializm» deb ataladi.

Imperializm — kapitalizm jamiyatining kurtagidan o'sib chiqqan yangi taraqqiyot davridir yoki «erkin» kapitalizmning monopolistik kapitalizmga o'tishidir. Monopoliyalarning vujudga kelishi bilan ishlab chiqarishning muhim tarmoqlarida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Masalan, 1870- yillardan 1900- yillargacha jahon mamlakatlarida po'lat ishlab chiqarish 520 ming tonnadan 28 mln. 300 ming tonnaga yetgan bo'lsa, XX asr boshida dunyoda bir necha yil ichida ko'mir qazib chiqarish — 65 foizga, cho'yan eritish — 70 foizga, po'lat ishlab chiqarish 3 martaga ko'paydi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishdagi taraqqiyot barcha mamlakatlarda bir xil bo'lmadi. Bu yillardagi katta o'zgarishlar «yosh», lekin tez rivojlanayotgan mamlakatlar — Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya ulushiga to'g'ri keldi. Bu mamlakatlar o'z davrining buyuk olimlari Bessemer va Martenlar fanda yaratgan yangiliklardan unumli foydalandilar.

Ayniqsa, Tomas tomonidan fosfor olish jarayonini soddalashtirish Germaniya sanoatining gullab-yashnashiga katta imkoniyatlar yaratdi. Chunki Germaniya fosfor rudalarining asosiy makoni edi.

Ishlab chiqarish mustamlakalarda va okean ortidagi mamlakatlarda ayniqsa tez o'sdi. Bular orasida rivojlangan yangi davlatlar paydo bo'ldi (Yaponiya). Butun dunyo monopolistlarining kurashi kuchaydi. Mustamlakalardagi, okean ortidagi juda serdaromad korxonalaridan moliya kapitalining oladigan xiroji oshdi. Bu «o'lja» taqsim qilinganda uning katta qis-

mi ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sish sur'ati jihatidan doimo birinchi o'rinda turadigan mamlakatlar qo'liga tegib qoldi.

1- jadval

№	Davlatlarning nomi	1890- y.	1913- y.
		uzunligi (ming km)	uzunligi (ming km)
1.	Amerika Qoshma Shtatlari	268	413
2.	Britaniya imperiyasi	107	208
3.	Rossiya	32	208
4.	Germaniya	43	68
5.	Fransiya	41	63
	Jami:	491	830

Jami temir yo'llarning 80 foizga yaqini 5 ta eng yirik davlat qo'lida to'plandi (1- jadval). Ammo bu temir yo'llarga egalikning konsentratsiyalashuvi yanada beqiyos darajada ortiqdir, chunki Amerika, Rossiya va boshqa joylardagi temir yo'l aksiya va obligatsiyalarining juda ko'piga, masalan, Angliya va Fransiya millionerlari ega bo'ldilar.

Angliya o'z mustamlakalari tufayli «o'z» temir yo'llarini 100 ming kilometr, ya'ni Germaniyaga nisbatan to'rt marta oshirdi. Holbuki, Germaniya ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'sishi bu vaqt ichida nafaqat Fransiya va Rossiya, balki hatto Angliyanikidan ham mislsiz darajada tez borganligi hammaga ma'lum. 1892- yilda Angliya 6,8 million tonna cho'yan ishlab chiqargani holda, Germaniya 4,9 million tonna cho'yan ishlab chiqargan edi; 1912- yilda Angliya 9,0 million tonna, Germaniya esa 17,6 million tonna ishlab chiqardi, ya'ni Germaniya Angliyadan juda ilgari ketdi.

Uchinchidan, kapitalning konsentratsiyalashuvi 1900- yildan keyin yuqori sur'atlar bilan tezlashib ketdi. 1900- yildan avval elektr sanoatida sakkiz yoki etti «guruh» bor edi, shu bilan birga bularning har biri bir necha jamiyattan iborat

bo'lib (hammasi 28 ta edi), bularning har birining orqasida 2 tadan 11 tagacha bank turar edi. 1908—1912- yillarga kelib bu guruhlarining hammasi qo'shilib, bitta katta guruh bo'ldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshiga kelib Germaniyada «Umumiy elektr jamiyati» barpo bo'ldi. Bu tashkilot 175—200 ta jamiyat ustidan («sherikchilik» tizimi bo'yicha) hukmron bo'lib, taxminan 1,5 milliard markadan iborat umumiy kapitalga egalik qildi.

Bu jamiyatning chet ellardagi bevosita vakolatxonalarining o'zi 34 ta, bularning 12 tasi aksionerlik jamiyatlari bo'lib, 10 dan ortiq davlatga tarqalgan edi. 1904- yilda nemis elektr sanoatining chet ellarga solgan kapitali 233 million marka bo'lib, asosiy qismi Rossiyada edi. «Umumiy elektr jamiyati» kabel va izolyatorlardan tortib avtomobil va uchish apparatlarigacha juda turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqaruvchi «kombinatlashgan» yirik bir korxonaga edi. Ammo kapitalning Yevropada bo'layotgan konsentratsiyasi ayni vaqtda Amerikada bo'layotgan konsentratsiyaning tarkibiy qismi edi.

Chunki Amerikada ham «Umumiy elektr kompaniyasi» allaqachonlar tuzilib bo'lgan edi. Boshqacha so'z bilan aytganda, dunyoda 2 ta elektr davlati — Amerika va Germaniya davlati tashkil topdi. Vaqt o'tishi bilan bu ikki elektr davlati bir-biri bilan umumiy masalalarni hal qilishda «til topishdi». Hatto, xalqaro bitimlar ham tuzishdi. 1907- yilda Amerika va Germaniya elektr trestlari o'rtasida Yer yuzini bo'lib olish yuzasidan tuzilgan bitim fikrimizga yorqin dalildir.

«Umumiy elektr kompaniyasi» Qo'shma Shtatlar bilan Kanadani «oldi», «Umumiy elektr jamiyati»ga Germaniya, Avstriya, Rossiya, Gollandiya, Daniya, Shveysariya, Turkiya, Bolqon davlatlari «tegdi». Sanoatning yangi tarmoqlariga va hali rasman taqsim qilinmagan «yangi» mamlakatlarga ildiz otib kiruvchi sho'ba korxonalari to'g'risida maxsus, albatta, maxfiy shartnomalar tuzildi. Ixtiro va tajribalar o'zaro almashib turiladigan bo'ldi.

Kapitalistlarning monopolistik ittifoqlari, kartellar, sindikatlar, trestlar dastlab ichki bozorni bo'lishib, shu mamlakatdagi ishlab chiqarishni, ozmi-ko'pmi darajada o'z qo'llariga oldilar. Ammo erkin ishlab chiqarish sharoitida ichki bozor,

albatta tashqi bozor bilan bog'liq bo'ladi. Bu tizim jahon bozorini allaqachon yaratgan edi. Chetga kapital chiqarish o'sib borgan sari va eng yirik monopolistik ittifoqlarning chet el va mustamlakalar bilan aloqalari va ta'sir doiralari har tomonlama kengayib borgan sari ish «tabiiy sur'atda» ular o'rtasida jahon miqyosida kelishuvlar bo'lish tomoniga, xalqaro kartellar tuzish tomoniga qarab bordi.

Bu — kapital va ishlab chiqarishning butun dunyoda konsentratsiyalashuvining yangi va bundan ilgariyalariga qaraganda beqiyos darajada baland bosqichi edi.

To'rtinchidan, bu davrda dunyo miqyosida juda katta harbiy ittifoqlar yuzaga keldi. 1871- yildagi Frankfurt sulhi Prussiya va Fransiya o'rtasidagi emas, balki Yevropada xalqaro munosabatlarni butunlay o'zgartirib yubordi. Prussiya urushda g'olib mamlakat sifatida vaziyatdan foydalanib, Avstriya-Vengriya va Rossiya bilan yaqinlashib, Fransiyaning yakkalab qo'yib, Yevropada g'egemonlikka intilardi. Fransiya ham o'z navbatida chorizm bilan «til topib», tezda armiyani tiklab, Germaniyaga qarshi hal qiluvchi janglarga tayyorgarlik ko'rardi.

Germaniya, Avstriya-Vengriya va Rossiya «Muqaddas ittifoq» tuzishga kirishdi. Bu ittifoqqa 1873- yilda asos solingan bo'lib, u «Uch imperator ittifoqi» deb ataldi. Bu «Ittifoq» Fransiyaning boshqa mamlakatlardan ajratib, iqtisodiy va diplomatik qamal qilishga urindi. Shu bilan birga Rossiya Fransiyaning Germaniyaga qarshi kuch sifatida ushlab turishga harakat qildi. Rossiya hukumati Avstriya-Vengriyaning Germaniya bilan yaqinligidan, Fransiya — Prussiya qarama-qarshiliklaridan ham ustalik bilan foydalanishga harakat qildi. Rossiya — Angliya raqobatining bosh «tuguni» O'rta Osiyo edi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, XIX asrning 70- yillariga kelib, Rossiya O'rta Osiyo yerlarini birin-ketin ishg'ol qilib, bu yerda Turkiston general-gubernatorligini tuzdi. Qo'qon xonligi butunlay tugatildi, Xiva xonligi, Buxoro amirligi chorizmning mustamlakasiga (vassaliga) aylandi. Bu vaziyatda Angliya talvasaga tushib qoldi. Angliya Hindistonda «Rossiya xavfi» tushunchalarini o'ylab chiqardi. Shunday qilib, XIX asrning 70- yillarida Angliya — Rossiya raqobati kuchayib, o'zaro kelishmovchiliklar jiddiy tus oldi. 1878- yilda Angliya

Afg'onistonga qarshi urush boshlagan bo'lsa, 1880- yilda Rossiya Turkmanistonga hujum qildi.

1882- yilda Germaniya — Avstriya-Vengriya va Italiya davlatlari ishtirokida «Uchlar ittifoqi» yuzaga kelgan bo'lsa, 1907- yili Angliya — Fransiya — Rossiya Antanta harbiy blokini tuzdilar.

Beshinchidan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yer yuzi asosan bir qator rivojlangan davlatlar tomonidan bo'lib olindi va mustamlakachilik tizimi to'la shakllandi.

Oltinchidan, bu davrda yangi tipdagi qator sotsialistik partiyalar vujudga keldi, ular jamiyatda qarama-qarshiliklarning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Albatta, bu voqealarning izchil bayoni o'quv qo'llanmada batafsil yoritilgan. Eng muhimi, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi geopolitik o'zgarishlarni chuqur o'rganish va olingan bilimlar asosida umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirish hamda bugungi kundagi dolzarb masalalarni yechishga yo'l topishga harakat qilish, eng muhim xulosalardan mamlakat manfaati yo'lida foydalana bilish lozim bo'ladi. Mavzularni o'rganishda voqealarni sinchiklab mushohada qilishga, keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, erkin fikr yuritishga va xulosalar chiqarishga harakat qilib, tarixiy tajribadan bugungi kunda qanday foydalanish mumkinligi haqida o'ylab ko'ring.

Fikrlang! XIX asr oxiri va XX asr oxiridagi ishlab chiqarish birlashmalarini o'zaro solishtiring. Farqi bormi?

BIRINCHI BO'LIM

YEVROPA VA AMERIKA DAVLATLARI

1- b o b. FRANSIYA XIX ASRNING OXIRI VA XX ASRNING BOSHLARIDA

1- §. Fransiya — Prussiya urushi va uning yakunlari

Fransiya — Prussiya urushi arafasida ikkala mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Urushning sabablari

XIX asrning 50—60- yillarida Fransiyada yirik kapital hukmronlik qilib, davlat tepasida *Napoleon III* o'tirardi. U 1851- yil 2- dekabrda o'tkazilgan davlat to'ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga chiqib olgandi. 1852- yilda Napoleon III o'zini imperator deb e'lon qildi. Ikkinchi imperiya deb atalgan bu davrda Fransiyada ishlab chiqarish tez rivojlandi. Sanoatda o'zgarishlar tugallanib, temir yo'l tarmoqlari ko'payib bordi. Katta-katta zavod va fabrikalar qurildi.

60- yillarning ikkinchi yarmida Napoleon III ning mavqeiga putur yetdi. Fransuz burjuaziyasi uning tashqi siyosat sohasidagi muvaffaqiyatsizliklarini, xususan Prussiyaning Germaniyani birlashtirishiga to'sqinlik qila olmaganligini kechira olmadi. 1860- yilda tuzilgan Angliya — Fransiya savdo shartnomasidan ham norozilik mavjud edi. Chunki shartnomaga ko'ra, Fransiyaqa ingliz tovarlarining kiritilishi, fransuz tovarlari bilan raqobatni kuchaytirgan edi.

Napoleon III hukumatidan norozilik oddiy xalq orasida ham kuchaygan edi. Bunga ishsizlik, qashshoqlik, oziq-ovqat mahsulotlari narxining to'xtovsiz oshib borishi sabab bo'lmoqda edi.

1869- yilda Luara havzasining shaxtyorlari ish tashladilar. 1870- yil yanvarida Parijda bo'lib o'tgan 200000 kishilik namoyish dahshatli tus oldi.

Napoleon III hukumati mamlakatda norozilik kuchayotganligini, o'z obro'-e'tiborining tushib borayotganligini nazarda tutib, Prussiyaga qarshi urush e'lon qildi. U shu yo'l bilan mamlakatdagi ahvolni o'nglab olishga qaror qildi. Hukumat Prussiyani tor-mor qilishni, Germaniyaning birlashishiga yo'l qo'ymaslikni, Reynning g'arbidagi nemis yerlarini bosib olishni va shu bilan o'z obro'-e'tiborini tiklashni o'ylardi.

Bismark Germaniyasi ham bir necha yillardan buyon Fransiya qarshi urushga tayyorlanib kelmoqda edi. Bismarkning maqsadi Germaniyada Prussiyaning hukmronligini mustahkamlashga to'siq bo'lgan Fransiyaning yengish, demokratik harakatlarni bostirish edi.

60- yillarning oxirida Prussiya Janubiy German davlatlarini o'z tomoniga og'dirib olishga, Avstriya-Vengriyani va chor Rossiyasini betaraf qilishga muvaffaq bo'lgan edi. Shunday qilib, har ikki tomon — Fransiya ham, Prussiya ham urushga intilmoqda, buning uchun bahona qidirmoqda edi.

Urush harakatlarining borishi va Sedan jangi

Fransiya va Prussiya hukumatlari o'rtasida Ispaniya qirolligining bo'shab qolgan taxtiga kimni qirol qilib qo'yish masalasida janjal chiqdi. Muzokaralar davomida Bismark Prussiya qiroli xatiga o'zgartirishlar kiritib, Fransiya hukumatini ataylab haqorat qildi (Bu tarixda «*Ems depeshasi*» deyiladi). Uning maqsadi shunday ig'vo bilan Fransiyaning urush boshlashga majbur qilish edi. Bismark muddaosiga erishdi.

1870- yil 19- iyulda Fransiya Prussiyaga qarshi urush e'lon qildi. Bismark urushni shunday ustalik bilan boshlab yubordiki, german xalqi nazarida Fransiya hujum qilgan davlat bo'lib qoldi. Germaniyaning Fransiya qarshi urushi dastlabki kunlarda nemislar uchun milliy-ozodlik urushi edi.

Fransiya hukumati urush boshlaganida o'z kuchlarini yetarli hisobga olmagan edi. Armiyada yagona rahbarlik yo'q edi. Qo'shin kerakli harbiy anjomlar bilan ta'minlanmagan, hatto urush harakatlarining xaritalari ham yetishmas edi.

Urushning birinchi kunlaridanoq Prussiya armiyasining ustunligi ma'lum bo'ldi. Prusslar o'z qo'shinlarini fransuzlarga qaraganda tezroq safarbar qilib, chegaraga oldinroq keltirib qo'ygandilar. Fransuz qo'shinlari mag'lubiyatga uchray boshladi. Prusslar 160 ming kishilik qo'shin bilan fransuz armiyalaridan birini (100 ming kishi) Mes qal'asida, 140 ming kishilik armiya bilan Fransiya imperatorining o'zi ham bo'lgan 90 ming kishilik ikkinchi qo'shinni esa Sedan qal'asi yonida qurshab oldilar. 1870- yil 2- sentabrdagi jangda Mak-Magon rahbarligidagi fransuz armiyasi mag'lub bo'lib, Sedan qal'asi qamalda qoldi. Garchi Mes qal'asi hali taslim bo'lmasada, Napoleon III vahimaga tushib, Sedan qal'asidagi mar-

kaziy minora ustida oq bayroq ko'tarishni buyurdi. Fransiya armiyasi 3 ming kishini talafot berib, imperator boshliq 82 ming askar, ofitser va generallari bilan nemislarga taslim bo'ldi. Bu sharmandali holat amalda Ikkinchi imperiya hokimiyatining tugatilishi edi.

1870- yil 4- sentabr davlat to'ntarishi

Sedan halokati to'g'risidagi xabar Parijning hukumat va parlament doiralari-ga 2- sentabr kechqurun yetib bordi.

Lekin yuz bergan mudhish haqiqatni eshitgan Parij xalqi 3- sentabrda g'alayon ko'tardi. Ko'chalarda namoyishlar boshlanib ketdi, xalq harakatining tashabbuskorlari *blankichilar** bo'ldilar. 4- sentabr ertalabdan boshlab poytaxt mehnatkashlari ko'chalarga chiqib, Respublika tuzishni talab qildilar.

Namoyishchilar qonun chiqaruvchi korpusning majlislar zaliga bostirib kirdilar. General *Troshyu* boshchiligida yangi hukumat tuzilib, *L. Gambetta* Ichki ishlar vaziri, *J. Favr* Tashqi ishlar vaziri lavozimini egalladi.

Fransiyada imperiyani ag'darib tashlagan va respublika tuzumi-ni o'rnatgan 1870- yil 4- sentabr davlat to'ntarishini Parij mehnatkashlari amalga oshirgan edilar. Bu to'ntarish mohiyatan yana yuqori sinflarga xizmat qildi.

Davlat to'ntarishi Fransiya — Prussiya urushining xarakterini ham o'zgartirib yubordi. Ikkinchi imperiya ag'darilib, Fransiya respublika deb e'lon qilingan paytdan e'tiboran Fransiya Germaniyaning birlashuviga qarshilik qilmay yoki unga tahdid solmay qo'ydi. Urush endi Germaniya uchun bosqinchilik urushiga, Fransiya respublikasi uchun esa adolatli, mudofaa urushiga aylandi.

Parijning taslim bo'lishi. Frankfurt sulhi

Sedan halokatidan keyin dastlabki kundayoq Prussiyaning yunkerlar va german yuqori tabaqalari qo'llab-quvvatlagan hukmron doiralari urushni

davom ettirishga va Fransiyadan juda bo'lmasa Elzas bilan Lotaringiyani tortib olishga intilayotganligi ma'lum bo'ldi. Urush Germaniya uchun mudofaa urushidan istilochilik urushiga aylanib ketdi. 19- sentabrda 320 ming kishilik armiya Parijni qurshab olib, uni qamal qildi. Muvaqqat hukumat qarshilik ko'rsatolmadi.

* **Lai Ogyust Blanki** (1805—1881) — ozodlik harakati ilhomchisi.

173 ming askar va ofitserga, behisob qurol-yarog' va o'q-doriga ega bo'lgan armiya jang qilmay, hatto qurshovdan chiqishga urinib ham ko'rmay, dushmanga taslim bo'ldi. Parijdagi hukumat ham xuddi ana shunday Vatanga xiyonat yo'ldan bordi. Jyul Favr yarash va sulh shartlari to'g'risida kelishib olish maqsadida 18—20- sentabrda Bismark bilan uchrashdi. Bu xabar xalqqa yetib bordi. Garchi o'shanda biron bitimga kelinmagan bo'lsa ham, Muvaqqat hukumat bir necha bor bayon qilganidek, milliy mudofaa to'g'risida g'am yemay, balki taslimchilik, millatga xiyonat siyosatini yurgizayotgani fransuz xalqiga ravshan bo'lib qoldi. Buning ustiga 29- oktabrda Marshal *Bazen* boshchiligida bir oyga yaqin qarshilik ko'rsatgan Mes qal'asi taslim bo'ldi. 6 ming ofitser va butun armiya nemislarga asir tushdi. 31- oktabrda Parij xalqi *O. Blanki, Delektyuz* va boshqa sotsialistlar tashabbusi bilan shahar Ratushasiga bostirib kirdi va hukumatni ag'darilgan deb e'lon qildi. Biroq, hukumat qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi.

Xalqning kuchayib ketgan vatanparvarlik ruhi fransuz yuqori tabaqalarini tashvishga solib qo'ydi. Ular ishchilar prussiyaliklarni tor-mor qilgandan so'ng qurolni hukumatga qarshi qaratadilar, deb qo'r qar edilar. Hukumat o'z xalqiga qarshi kurashish maqsadida prusslar bilan «til biriktirishga» qaror qildi. Xalq ommasi hukumatni tutgan bu yo'li uchun «Millatga xiyonat hukumati» deb atadi.

1871- yil 22- yanvarda bu hukumatni ag'darib tashlashga ikkinchi marotaba urinib ko'rildi. Ammo bu galgi urinish ham muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Qo'zg'olonchilarning ko'pchiligi qo'lga olinib, turmalarga tashlandi.

28- yanvarda Jyul Favr yarashishni iltimos qilish uchun Bismark huzuriga — Versalga jo'nadi. Bismark Parijning taslim bo'lishini, Milliy gvardiyadan tashqari, Parij portlari va gamizonini topshirishni shart qilib qo'ydi.

Fransiya uchun katta imkoniyatlar — harbiy va moddiy resurslar mavjudligiga qaramay, hukumat bu og'ir shartlarni qabul qildi. Hukumat 28- yanvarda xalqqa bildirmay Prussiyaga taslim bo'ldi va shu bilan yarashish to'g'risidagi shartnomani imzoladi.

1871- yil 8- fevralda shoshilinch ravishda Milliy majlisga saylov o'tkazildi. Yangi sulh shartnomasini tasdiqlagan Milliy majlisning 700 deputatidan 450 tasi monarxistlar edi. Bundan

foydalangan monarxistlar o'ta reaksioner *Ter* boshchiligida hukumat tuzishga erishdilar. 16- fevralda 73 yoshli *Ter* Parijning itoatsiz xalqidan o'ch olish va sulh shartlari to'g'risida kelishib olish maqsadida Bismark huzuriga jo'nadi.

26- fevralda dastlabki bitim imzolandi. 1- martda Bordoda bo'lib o'tgan Milliy majlis yig'ilishida 549 deputatdan 107 tasi bitimga qarshi chiqdi. Ular orasida *Viktor Gyugo*, *Leon Gambetta*, *Jorj Klemanso* ham bor edi. Germaniya Fransiyaning sanoati rivojlangan, strategik jihatdan muhim bo'lgan, ko'mir va temirga boy Elzas va Lotaringiya viloyatlarini egalladi. Bundan tashqari, mag'lub Fransiya hukumati Germaniyaga 5 milliard frank kontributsiya (tovon) to'lashi, kontributsiya to'langunga qadar Fransiyaning ancha qismi german qo'shinlari tomonidan bosib olingan holicha turadigan bo'ldi. Keyinroq, 1871- yil 10- may kuni Frankfurt-Maynda Germaniya bilan Fransiya o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. *Ter* hukumati Parijni o'z qarorgohi qilib olib, Germaniyaning hukmron doiralaridan qo'llab-quvvatlash haqida va'da oldi va inqilobiy harakatlarni bostirish uchun harbiy kuch to'play boshladi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning 60- yillari oxirida Fransiya va Prussiya hukmron doiralarini qanday sabab va bahonalar urush qilishga majbur etgan edi?
 2. Sedan yonidagi mag'lubiyatning sabablarini aytib bering. Fransiya uchun bu mag'lubiyatning siyosiy oqibati qanday bo'ldi?
 3. 1870- yil 4- sentabr davlat to'ntarishining sabablari va natijalarini tushuntirib bering.
 4. 1870- yil 4- sentabr davlat to'ntarishining mohiyati qanday? Fransiya respublika e'lon qilingandan keyin urushning xarakteri Fransiya va Germaniya uchun qanday o'zgardi?
 5. Xalq nima uchun hukumatni «millatga xiyonat hukumati» deb atadi?

Buni esda saqlang: Napolcon III, *Ter*, Mak-Magon, Marshal Bazan, L. Gambetta.

Bahs yuriting. Nega urushlar sodir bo'ladi? Urushsiz yashab bo'lmaydimi?

2- §. Fransiyada davlat to'ntarishi va uning oqibatlari

Mehnatkashlar ahvoli, ijtimoiy harakat

Milliy majlis avval Parijdan uzoq-
roqdagi Bordo shaharchasida yig'ilib
turdi, so'ngra o'z qarorgohini Versalga
ko'chirdi. Versalda Parij ishchilariga va Milliy gvardiyaga qarshi
kurashga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Mart oyining boshida poytaxtda
vaziyat nihoyatda keskinlashdi. Prussiyaga qarshi urushda
Fransiyaning mag'lub bo'lishi hukmron doira vakillariga qarshi,
mamlakatni himoya qilishni istamagan uquvsiz hukumatga qarshi
xalqning qahr-g'azabini keltirgan edi. Milliy majlisdagi reaksiya
kuchlar bundan xavfsirar edi. Parij qamal qilingan paytda yuz
bergan ocharchilik va muhtojlik, oziq-ovqat mahsulotlari
narxlarining oshib ketishi, korxonalarining yopib qo'yilganligi va
shahardagi 600 ming ishchidan 486 mingining ishsiz qolganligi
hamda o'rta tabaqaning xonavayron bo'lishi mehnatkash ommani
hukumatga qarshi harakatlarga undadi.

1871- yil fevralida ishchi batalonlari vakillaridan tuzilgan
Markaziy qo'mita xalqni hukumatga qarshi kurashga chaqirdi.

Ter hukumati inqilobiy harakatni tor-mor qilishni tez-
lashtirishga urinib, milliy gvardiyachilarga maosh to'lashni
to'xtatdi, uy-joy uchun to'lov vaqtini kechiktirishni bekor qildi,
demokratik ruhdagi gazetalarni taqiqladi va harakat rahbarlarini
qamay boshladi. Hukumat armiyaga Milliy gvardiyani qurol-
sizlantirishni buyurdi. Hukumatning bunday yo'l tutishi Parij ish-
chilarining qo'llariga qurol olishlariga turki bo'ldi.

1871- yil 18- martdagi to'ntarishning yetilishi

Fevral oyi o'rtalarida Parijda yangi
tashkilot — Milliy gvardiya Markaziy
qo'mitasi (keyinroq Milliy gvardiya
respublika federatsiyasi) uzil-kesil tashkil topdi. Bu Markaziy
qo'mita Milliy gvardiyaning ishchilar va poytaxtdagi boshqa
mehnatkashlardan tuzilgan 266 batalonidan 215 tasini
birlashtirgan edi. Hukumat Milliy gvardiyani tor-mor qilish uchun
barcha choralarni ko'rdi.

18- mart tungi soat 3 da Milliy gvardiya to'plari joylashgan
Monmartr tepaligida hukumat qo'shinlari paydo bo'ldi. Ular
to'satdan zarba berib, Milliy gvardiya artilleriyasini qo'lga

olish va itoatsiz shaharni qurolsizlantirish uchun Tarning buyrug'i bilan yuborilgan edi. Hukumat qo'shinlari poytaxtning xalq ommasi yashaydigan qismiga, Parij ishchilari mablag'iga yasalgan zambaraklarni olib ketish uchun jo'nadi. Qorong'ida ular zambaraklar yonida qorovul bo'lib turgan milliy gvardiyachilarga hujum qilib, bir necha kishini o'ldirdilar.

Non do'konida barvaqtroq navbat olishga shoshilinch borayotgan ishchi ayollar hukumat qo'shinlarining Monmart tepaligiga ko'tarilayotganini ko'rib, barchani «oyoqqa» turg'izdilar. Xalq to'plandi. Generallar o'z qo'shinlariga xalqni to'pga tutishni buyurdilar, lekin askarlar buyruqqa itoat etmadilar. Milliy gvardiya qismlari yetib keldi. Hukumat qo'shinlarining bir qismi xalq tomoniga o'tdi.

Xalq qurollangan milliy gvardiyachilar boshchiligida Monmart va Belvil tepaliklaridan tushib, markazga yo'l oldi. Ularga Sent-Antuan ishchilari qo'shildi. Hukumat ularga qarshi jandarmeriya eskadronlarini yubordi. Biroq, qo'zg'olonchilar jandarmeriya kuchlarini tor-mor etdilar. Kunduzi soat 2 ga borib qo'zg'olonchilar shaharning markaziy qismini, Orlean vokzalini va yana bir necha muhim joylarni qo'lga kiritdilar.

Ko'p o'tmay kazarmalar va hukumat binolari ham ishg'ol qilindi. Qo'zg'olonning bunday tus olishini kutmagan hukumat bir muncha vaqt Tashqi ishlar vazirligi binosida berkinib turdi. So'ngra yashirincha Versalga qochdi. U yerda inqilobiy Parijga qarshi kurashish uchun kuch to'plamoqchi bo'ldi. Kechga borib Milliy gvardiya poytaxtdagi barcha hukumat muassasalarini ishg'ol qildi. Ratusha binosi ustida g'oliblarning bayrog'i ko'tarildi. Parijda xalq hokimiyatni o'z qo'lga oldi. 1871- yil 18- mart tarixga xalq tomonidan amalga oshirilgan jahondagi birinchi davlat to'ntarishi bo'lib kirdi.

Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasining tuzilishi va uning dastlabki faoliyati

Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi Parij mehnatkashlarining 1- inqilobiy hukumati bo'ldi. Davlat organlariga ishchilar va ziyolilar, inqilobiy chiqishlarning qatnashchilari boshchilik qildilar.

Mehnatkashlarning eng zarur ehtiyojlarini qondirish uchun Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi 1 million frank ajratdi, qarzlarni va uy-joy haqlarini to'lashni kechiktirdi. Biroq, Mil-

liy gvardiya Markaziy qo'mitasi g'alabadan oxirigacha foydalana olmadi. Avvalo, Terning muntazam qo'shinini Parijdan olib ketilishiga to'sqinlik qilmadi, bundan tashqari, Ter o'z kuchlarini yig'ib olmasdan, aksilinqilobchilar uyasini yanchib tashlash uchun Milliy gvardiyani Versalga yubormadi. Ter hukumati inqilobiy Parijga qarshi kurashishga tayyorlanish uchun bu fursatdan foydalanib qoldi.

Reaksiyon kuchlar xalqqa va uning hokimiyat organlariga qarshi ochiqdan-ochiq xuruj qilishlariga qaramay, Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi ilgarigidek versalchilarga zarba bermadi. U asosan, tezroq Parij Kommunasiga saylov o'tkazish tashvishida bo'ldi. 26- martda Parij Kommunasi yig'ilishining a'zolari umumiy va to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan saylandilar. Saylov umumiy saylov huquqi asosida o'tkazildi. Saylovda asosan Parij mehnatkashlari qatnashdi. Kommuna Kengashiga 86 kishi saylandi, ulardan 21 kishi yuqori tabaqa vakillari bo'lib, ko'p o'tmay o'z vakolatlaridan voz kechdilar. 16- apreldagi qo'shimcha saylovda yana 17 ta yangi a'zo saylandi.

Kommuna Kengashi eski armiyaning tugatilganligi va butun xalq qurollantirilishini e'lon qildi. Xo'jayinlari Parijdan qochib ketgan korxonalar uning ishchilariga topshirildi. Bolalarni jinsidan qat'i nazar majburiy va bepul o'qitish joriy qilindi. Cherkov davlatdan ajratildi. Muzey va kutubxonalar ochildi.

28- martda yuz minglab parijliklar, Milliy gvardiya batalonlari, ishchilar, xotin-qizlar, bolalar bayroqlar ko'tarib, inqilobiy qo'shiqlar sadosi ostida Grev maydonini hamda unga yondosh ko'chalarni to'ldirib, Ratusha tomon yo'l oldilar. Bu yerda, Ratusha devorlari yonida Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasining a'zolari hokimiyatni tantanali sur'atda Kommuna qo'liga topshirdilar.

Parij Kommunasining g'alabasi

Parij Kommunasi xalqning, ishchilar va mehnatkashlar ommasining yangi tipdagi davlati edi. Ijtimoiy tarkibi jihatidan Kommuna Kengashi a'zolarining ko'pchiligi ishchi va ziyolilardan iborat edi. Kommuna Kengashi a'zolari tarkibida turli guruhlariga mansub odamlar ham bor edi. Son jihatidan kam bo'lsa ham, lekin eng faollardan biri blankichilar guruhi edi.

Kommuna Kengashiga ko'zga ko'ringan arboblardan «Qo'rqmas va oq ko'ngil ritsar» deb atalgan, 3- apreldagi hujum vaqti-da versalchilar tomonidan vahshiyona o'ldirilgan *Gyustav Flu-rans*, maorif komissari bo'lgan muhandis va vrach, adabiyot-shunos va «Marseleza» ijtimoiy gazetasi xodimi *Eduar Vay-yan*, Kommuna prokurori *Raul Rigo*, jurnalist va tarixchi *Tridon* va boshqalar kirgan edi. Kommuna generali *Emil Dyuval* ham blankichilarga yaqin kishilardan edi. Parij Kommu-nasining Kengashi Fransiyaning yangi hukumati sifatida ish olib bordi.


Kommuna Kengashi a'zolarining Umumiy majlisi oliy hokimiyat organi bo'lib qoldi. Hayotning o'zi va Konventning tarixiy tajribasi yangi qonunlarni Kommuna Kengashi a'zolarining o'zidan boshqa hech kim to'g'ri va tez amalga oshirolmashligini ko'rsatdi. Bu hukumat ham qonun chiqaruvchi, ham ijro etuvchi hokimiyatni o'zida birlashtirdi.

Kommuna Kengashi o'z a'zolaridan iborat 10 ta komissiya tuzdi. Bular moliya, harbiy, adliya, ijtimoiy xavfsizlik, maorif, tashqi aloqa va shu kabi sohalarni idora etishga rahbarlik qilib turardi.

Aprel oyi oxirlaridan boshlab komissiyalar tarkibidan de- legatlar deb atalgan vakillar ajratildi, ular inqilobiy xalq ho- kimiyatining vazirlari vazifasini bajardilar. Kommuna a'zolaridan Grussi bilan Arnu Tashqi ishlar vazirligiga yuborildi. Ishchi Teys pochta idorasiga rahbarlik qilib, uning ishlarini tartibga soldi. Ishchi Kamelina zarbxonaga rahbar qilib tayinlanib, tez orada zarbxona ishlarini yo'lga qo'yib yubordi.

Kommuna idora organlari va sudlarga xodimlar saylanib qo'yildi va shu bilan birga ishonchni oqlamagan davlat xizmatchilarini saylovchilar muddatidan ilgari vazifasidan bekor qilishlari mumkin degan qaror chiqarildi.

Kommuna davlat xizmatchilarining maoshi malakali ishchining o'rtacha ish haqiga baravar bo'lishi va davlat xizmatchisi qanday vazifada ishlamasin, baribir uning maoshi yiliga 6 ming frankdan oshmasligi kerak degan qaror chiqardi. Kommuna joriy etgan va amalga oshirgan choralarning barchasi xalq ommasining tashabbusi, ijtimoiy ijodkorligi natijasi edi.



Kommunaning ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlari va uning mohiyati

Kommuna o'zining butun faoliyatida xalq ommasining faol va qizg'in yordamiga suyanib ish ko'rdi. Versalchilar va nemislar aslida poytaxtni qamal qilib

olganligi tufayli muhtojlik hukm surib, oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligiga qaramay, Parij mehnatkashlari jo'shqin, faol ko'tarinki ruhda hayot kechirardilar.

Kommuna xalq ommasi talablarini bajara borib, ijtimoiy-iqtisodiy sohada mehnatkashlar ahvolini yengillashtirishga qaratilgan ba'zi choralarni amalga oshirdi.

Kommuna Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasining uy-joy haqini to'lash muddatini orqaga surish haqidagi Dekretini tasdiqladi va lombardga garovga qo'yilgan, 20 frankkacha baholanagan buyumlarni egalari qaytarib berish to'g'risidagi Dekretni kengaytirdi. Ishsizlarni ish bilan ta'minlash idorasi tuzildi.

Kommunaning mehnatkash aholi talablarini bajarishga katta ahamiyat berganligi tabiiydir. Shu maqsadda mehnat va ayirboshlash komissiyasi tuzildi. Komissiyaning a'zosi, amalda esa uning rahbari Leo Frankel ijtimoiy qonunchilik sohasida bu komissiyaning hali ko'p ish qilishi lozimligini yaxshi tushunardi.

Mehnat va ayirboshlash komissiyasi o'z faoliyatini Parij kasaba uyushmalari va boshqa ishchi tashkilotlari bilan yaqin aloqa bog'lab olib bordi. Komissiya majlislariga bu tashkilotlar o'z vakillarini yuborib turardilar.

Mehnat va ayirboshlash komissiyasi xo'jayinlari tashlab ketgan korxonalarini Kommuna qo'lga topshirib, ularda ishlab chiqarishni o'z rahbarligi ostida yo'lga qo'yish kerakligi to'g'risida tayyorlagan Dekretni Kommuna 16- aprelda tasdiqladi. Dekretda mashina, asboblardan ro'yxati, ish hujjatlari va shu kabilar tuzilib bo'lgandan keyin, sobiq egalari tashlab ketgan korxonalar «shu korxonalarda band bo'lgan ishchilarning kooperativ assotsiatsiyalariga topshirilishi lozim. Ular esa ishlab chiqarishni tezlik bilan yo'lga qo'yishlari kerak», deyilgan edi. Bu Dekretda Kommunaning iqtisodiy-ijtimoiy siyosati kelajakda qaysi yo'l bilan rivojlanishi lozimligi ko'rsatilgan edi.

Kommuna xususiy mulk bo'lib kelgan temir yo'l idoralarini o'z nazorati ostiga oldi hamda davlat buyurtmalarini bajaruvchi

puqratchilar va boshqa xususiy shaxslar ustidan qattiq nazorat o'ratdi.

Kommuna xalq maorifini rivojlantirish uchun juda ko'p ish qildi. U majburiy, bepul dunyoviy bilim o'rgatish tamoyilini e'lon qildi va bu tamoyilni amalga oshirish uchun dadil ishga kirishdi. Kommuna o'qituvchilarning moddiy va huquqiy ahvolini yaxshiladi va ularga ko'proq g'amxo'rlik ko'rsatdi. Kommuna bolalar bog'chalari ochish to'g'risida Dekret tayyorladi, muzey, kutubxona, teatrlar eshiklarini xalq uchun ochib, san'atni ommaga yaqinlashtirdi.

Fransiya madaniyatining mashhur arboblari: geograf olim Elizi Reklyu, rassom Kurbe, karikaturachi rassom Andre Jim, shoirlardan Ejen Pote, Jan Batist Kleman va boshqalar o'z iste'dodlarini xalqqa bag'ishladilar. Kommuna mehnatkashlarning barcha tabaqalarini faol ijtimoiy hayotga undar ekan, shu damgacha siyosiy hayotdan tamomila chetga surib qo'yilgan xotin-qizlarni ham ijtimoiy faollikka chaqirdi. Xalq orasidan chiqqan xotin-qizlar aka-uka va erlarining kundalik mehnatdagi xursandchilik va g'am-g'ussalarigagina emas, balki Versal aksilinqilobiga qarshi qurolli kurashdagi mashaqqat va qahramonliklariga ham sherik bo'ldilar. Parijning siyosiy hayotida xotin-qizlarning roli juda ham katta edi. Luiza Mishel, Natali Lemel, Elizaveta Dmitrieva (Tumanovskaya) Parijni himoya qilish va yaradorlarga yordam berish uchun Xotin-qizlar uyushmasi Markaziy qo'mitasini tuzdilar. Bu qo'mita shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va harbiy sohalarda ham katta rol o'ynadi.

Kommunaning dehqonlarga nisbatan siyosati

Dehqonlarning tutgan yo'li, mavqei kommunalar bilan aksilinqilobiy kuchlar o'rtasidagi kurashda hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Kommunarlar dehqonlar bilan ittifoq masalasi muhimligini unutmadilar. Dehqonlarga qarata bir qancha maqolalar yozgan mashhur arboblardan biri, yozuvchi ayol Andre Leo (Leonil Shanse) ishchi Parijning dehqonlar Fransiya-si bilan ittifoqi — «hayot-mamot masalasidir» degan juda haq gapni aytgan edi. Kommuna ikki marta dehqonlarga qarata maxsus xitobnoma chiqardi, bu xitobnomalarda ishchilar bilan dehqonlar manfaatli bir ekanligi va ularning birgalashib kurashuvi zarur ekanligi isbot qilib berilgan edi. Bu xitobnomalardan biri 100 ming nusxada bo-

silib, Parijni qurshab turgan dushman qo'shinlarining orqa tomoniga aerostatda tashlangan edi. Lekin bunday usul bilangina dehqonlarning qalbiga kirib borish mumkin emasligi tushunarli edi. Qamal qilingan Parij dehqonlardan tamomila uzilib qoldi, dehqonlarni burjua tashviqoti yolg'on va ishchilarga tuhmat gaplar bilan aldab yo'ldan ozdirdi.

Kommunaning viloyatlarda qo'llab-quvvatlanishi 18- martdagi Parij qo'zg'olonidan keyin yana bir qancha joyda qo'zg'olon boshlanib ketdi. 23- martda Marselda, 24- martda Lion, Narbon va Tuluzada Kommuna e'lon qilindi. 25- martda Perlinyanda ishchilarning qurolli qo'zg'oloni bo'ldi. 26- martda Krezo shahrida Kommuna e'lon qilindi. Xalq ommasi Sent-Etenn, Lion va boshqa shaharlarda ham hokimiyatni birmuncha vaqt o'z qo'lida saqlab turdi. Parij xalqining inqilobiy tashabbusini mamlakatning boshqa shaharlari mehnatkashlari ham qo'llab-quvvatladilar.

Kommunaning baynalmilatchiligi

Kommuna o'zining inqilobiy tajribasida, amaliyotida baynalmilatchilikning ajoyib namunalarini ko'rsatib berdi. Parij xalqi

oliy hokimiyat organi — Kommuna Kengashiga ajnabiylardan vengr Leo Frankelni, italyan Leonitti Garibaldini sayladi. Kommuna qo'shinlarida fransuzlar bilan polyaklar, ruslar, belgiyaliklar yonmayon turib jang qildilar. Inqilobchi polyaklardan Dombrovskiy va Vrublevskiyalar Kommuna qurolli kuchlarida oliy harbiy lavozimlarda xizmat qilishdi. Rus xotin-qizlaridan Elizaveta Dmitrieva bilan Anna Pustovoytova ham Xotin-qizlar ittifoqi Markaziy qo'mitasida qizg'in faoliyat ko'rsatib, versalchilarga qarshi jang qildilar.

Kommunada guruhbozlik

Xalqning barcha kuchlarini fuqarolar urushida yengib chiqishga safarbar etib,

unga rahbarlik qilishi lozim bo'lgan markazlashgan kuchli hokimiyat tuzishni hayotning o'zi ko'rsatmoqda edi. Prudonchilar buni tushunmaganlari ustiga Kommuna Kengashi ichida ko'pchilikka qarshi qattiq kurash ham boshlab yubordilar, bu bilan Kommunaning zaiflashuviga yo'l ochdilar. Bu ham yetmaganidek, 16- mayda, Kommunaning ahvoli juda ham tang bo'lib turgan bir paytda Kommuna Kengashining ozchilik hay'atidan bo'lgan 22 a'zosi o'zlarini Kommunadan chiqqan deb e'lon qildilar va bu haqda matbuot orqali bayonot berdilar. Ular ertasi kuniyoq yana

Kommunaga qaytdilar, lekin hamma tomondan dushman hujum qilib kelayotgan edi, janjallashish vaqti emasdi. Ammo prudonchilarning Kommunani «bo'lib» tashlashga qaratilgan bu qadami mudhish rol o'ynadi.

21- mayda xoinlik va jinoyatkorona beparvolik natijasida Sen-Klu darvozasi himoyasiz qoldi. Versalchilarning qo'shinlari ana shu darvozadan bemalol Parijga kirib keldilar. Versalchilarning shaharga kirganligini xalq faqat 22- may ertalab bildi. Barcha mehnatkash parijliklar — xotin-qizlar, erkaklar, keksalar, hatto bolalar inqilobni himoya qilishga otlandilar. Shahar barrikadalarga to'lib ketdi. Kommunachilar har bir ko'cha, har bir uyni mudofaa qildilar. Versalchilar to'plardan o'q uzib, binolarni vayron qildilar, shaharni yondirdilar, kommunarlarni, xotin-qizlarni, bolalarni sudsiz otib tashladilar. Jasadlarni oyoq osti qilib xo'rladilar. Kommunaning qo'lga tushgan yo'l boshchilaridan Varlen va boshqalarni versalchilar tahqirlab, azobladilar va otib tashladilar.

**Kommunaning yengilish
sabablari**

Kommuna hukmron tabaqani na siyosiy, na iqtisodiy jihatdan qurolsizlantira oldi. Qo'zg'olonning dastlabki kunlarida-

yoq Fransiya banki xalq qo'lga o'tib qoldi, bu bank yerto'lalarida 2 milliard frankdan ortiq pul, qimmatbaho qog'ozlar bor edi. Lekin Kommuna bankni o'z qo'lga olishga jur'at etmadi, holbuki, shunday qilganida muxolifatga qattiq zarba berilgan, Kommuna esa juda muhtoj bo'lib turgan paytda zarur mablag'ga ega bo'lgan bo'lardi. Kommuna o'z qarorini bajarmagan bank boshqaruvchisini haydab yubormadi, holbuki, shu bank versalchilarga katta miqdorda mablag' berib turdi. Kommuna bankdan faqat 16 million 690 ming frank pul olgan bo'lsa, Versal hukumati 257 million 630 ming frank oldi. Bu narsa Kommunaning eng katta xatolaridan edi.

Kommuna versalchilarga qarshi kurashda tashabbusni o'z qo'lidan chiqarib yuborib, qarshi hujumga o'tish uchun Terga zarur fursat berib qo'ydi. Bismark Versal hukumatining iltimosi bilan Kommunaga qarshi maxsus foydalanish uchun 40 ming fransuz askar va ofitserini asirlikdan bo'shatib yubordi. Versal hukumati aprel oyining boshlarida Bismark Germaniyasi yordami bilan Fransiyaning boshqa qismidan uzilib qolgan Parijga qarshi hujum boshladi.

Kommunarlar zo'r jasorat va qahramonlik bilan jang qildilar, lekin harbiy ishlar va harbiy harakatlarga rahbarlik yomon ahvolda edi. Kommuna qo'shinlarida intizom bo'sh edi, urush harakatlariga Harbiy komissiya ham, Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi ham rahbarlik qildi. Milliy gvardiyaga birin-ketin qo'mondonlik qilgan Klyuzere, Rossel, Deleklyuz zarur darajada rahbarlikni ta'minlay olmadilar, talantli va «ishning ko'zini biladigan» Dombrovskiy, Vrublevskiy singari lashkarboshilar esa urushda vaziyat qo'ldan chiqqandan keyingina mas'ul topshiriqlar oldilar.

Kommuna Kengashidagi ko'pchilik bilan ozchilik o'rtasidagi ichki kurash ham Parijni mudofaa qilishga salbiy ta'sir qildi. Haddan tashqari xavfli vaziyat va shiddatli fuqarolar urushi Parij xalqining hamma kuchlari, birinchi navbatda, rahbarlarning hamjihat bo'lishini talab qilardi. Shunga qaramay, ana shu sharoitda Kommuna Kengashidagi blankichi-yakobinchi ko'pchilik bilan prudonchi ozchilik juda ko'p kuch va e'tiborni o'zaro janjal va bahslarga sarfladilar. Kommuna Kengashidagi ko'pchilik 30- aprel — 1- mayda ozchilikning qat'i e'tiroziga qaramay, Kengashning 5 a'zosidan iborat Ijtimoiy najot qo'mitasi tuzish to'g'risida Dekret chiqartirib oldi. Bu qo'mita a'zolariga juda keng vakolatlar berilgan edi. Blankichilar bilan yakobinчилarning fikricha, bunday hokimiyat organining tuzilishi, 1793—1794- yillarda bo'lganidek, urushning borishida burilish bo'lishini ta'minlashi va Kommunani g'alabaga olib borishi lozim edi. Ko'pchilikning xatosi shundan iborat ediki, ular XVIII asrdagi fransuz inqilobining tashqi shakllarini simvol darajasiga ko'tarib, mazmuni jihatidan yangicha bo'lgan fuqarolar urushida shu shakllar takrorlanishi mumkin, deb xayol qilgan edilar.

27- mayda versalchilarning 130 ming kishilik armiyasi bir hafta davom etgan qattiq janglardan keyin kommunarlarning Templ atrofida va Per-Lashez qabristoni yonida qurgan so'nggi istehkomlarini mudofaa qilib turgan qahramonlarni qirib tashladi. Yakshanba kuni, 28- mayda Rampano ko'chasidagi so'nggi barrikada ham «yiqildi». Kommuna bostirildi va tor-mor qilindi.

Versalchilar 30 mingga yaqin kommunarni otib tashladilar, 50 ming kommunar qamoqqa olindi, bular orasida ming-

dan ortiq xotin-qiz va 650 bola bor edi. Parij Kommunasi hammasi bo'lib 72 kun umr ko'rdi. Bu narsa xalqning keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan, qurol kuchi bilan amalga oshirilgan davlat to'ntarishining uzoq yashay olmasligini ko'rsatdi.

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. 1871- yil 18- mart davlat to'ntarishini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar nimalardan iborat edi? Shu haqda so'zlab bering.
 2. 1871- yil 18- martdan keyingi kunlarda Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasining faoliyatida nimalar to'g'ri va nimalar xato bo'lganini aniqlang.
 3. 1871- yil 26- martdagi Kommuna Kengashiga bo'lgan saylov natijasi qanday bo'ldi?
 4. Kommunachilarning rahbarlari, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatlari haqida so'zlab bering.
 5. Parij Kommunasi nima sababdan tor-mor etildi? Bu hukumat kimlarning manfaatlarini ko'zlab ish yuritardi?
 6. Parij Kommunasi tarixda qanday iz qoldirdi? Saboqlar nimalardan iborat?

Bahs yuriting. Davlat to'ntarishlari va inqiloblar nega sodir bo'ladi?

3- §. XIX asrning oxirida Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyoti

Urush va davlat to'ntarishi iqtisodiy hayotga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1873- yildagi iqtisodiy inqiroz ham Fransiya juda katta zarar yetkazdi. Bu inqiroz sanoat, savdo va qishloq xo'jaligini qamrab oldi. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sekinlashib qoldi. XIX asr o'rtalarida sanoat ishlab chiqarishi hajmi jihatidan ikkinchi o'rinda (Angliyadan keyin) turgan Fransiya XIX asrning oxiriga borib to'rtinchi o'ringa, ayrim sanoat tarmoqlari bo'yicha esa undan ham keyingi o'ringa surilib ketdi. Fransiya sanoatning o'sish sur'atlari jihatidan AQSH, Germaniya, Rossiya va boshqa «yosh» kapitalistik mamlakatlardan juda orqada qolib ketdi.

Sanoat taraqqiyotining bunday sekinlashib qolishiga bir qator omillar, 1870—1871- yillardagi urushning mamlakat

xo'jaligiga katta miqdorda (13 mlrd. frank) zarar yetkazganligi, mamlakat Germaniyaga yirik o'lpon to'laganligi, shu bilan birga sanoati taraqqiy qilgan Elzas va Lotaringiyadan mahrum bo'lib qolganligi, ichki bozori cheklanib qolganligi, tabiiy boyliklari juda ozligi — ko'mirga juda kambag'alligi, temirning sifati pastligi sabab bo'lgan edi. Keyingi omillar ayniqsa og'ir industriyaga salbiy ta'sir qildi. Fransiya og'ir sanoati ko'mir va ma'lum vaqtgacha temirni ham chet davlatlardan keltirib turganidan qudratli energetika bazasi bo'lgan, sanoati rivojlangan mamlakatlar bilan qiyinchilik bilan raqobat qila olardi. Yirik ishlab chiqarish — temirchilik, mashinasozlik kabi sohalar bilan bir qatorda, Fransiyada o'rta va mayda sanoat ham saqlanib qolgan bo'lib, bu xo'jalikda katta o'rin tutardi. Ba'zi sanoat tarmoqlari uchun, masalan, «Parij buyumlari» bo'lgan zeb-ziyat buyumlari ishlab chiqarish uchun energetika bazasi ham, sanoatning texnik jihatdan yaxshi ta'minlanishi ham talab qilinmas edi. Bu buyumlarning «bozori chaqqon» bo'lganligining sababi shu ediki, mamlakat tashqarisida ham bunday buyumlarga talab katta edi.

Lekin Fransiyada mayda va o'rta korxonalar ko'p bo'lishiga qaramay, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va kapitalning markazlashish jarayoni tezlashib bordi. Bu hol industriyada o'sishga, monopolistik birlashmalarning tuzilishiga olib bordi. 70- yillarda ko'plab aksionerlik kompaniyalari paydo bo'ldi. 1876- yili juda qudratli Longvi metallurgiya sindikati vujudga keldi. Shneyder — Krepo harbiy sanoati kengaytirildi.

XIX asrning oxirlarida mamlakat qishloq xo'jaligida hamon aholining katta qismi band edi (1872- yilda 63,9 foiz, 1896- yilda 60,9 foiz). Shu bilan birga fransuz qishloq aholisining ko'pchiligini tashkil etuvchi mayda dehqonlar qo'lidagi yerlar butun yer maydonining taxminan 75 foizini tashkil qilardi.

Yirik moliyachilar va bankirlar ko'proq foyda olish payida bo'lib, kapitallarini chet mamlakatlarga chiqarishni afzal bilardilar. 70- yillarda fransuz kapitali Ispaniyada temir yo'llar qurilishiga sarflandi. 80- yillarning boshida yirik fransuz kapitallari Polsha ko'mir konlariga, Donbass, Krivoy Rog konlari tomon intilardi.

80—90- yillarda fransuz kapitali Turkiyaga, Avstriya-Vengriya, Janubiy Amerika mamlakatlariga qo'yila boshladi. Kapitalning tobora ko'proq qismi juda foydali foizlar to'lash sharti bilan chet el davlat zayomlari tariqasida investitsiya qilindi (ayniqsa, Rossiya olgan zayomlar hammadan ko'p edi). Bu bilan fransuz kapitalining eksport qilinishi ochiqdan-ochiq sudxo'rlik xususiyati kasb etib bordi. Bu narsa pirovardida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga to'sqinlik qildi, Fransiyada qaror topgan iqtisodiy tizim rivojiga xalaqit berdi. Fransiyaning iqtisodiy taraqqiyotidagi bu xususiyatlar uning ijtimoiy taraqqiyotini ham belgilab berardi. Monopolistik bosqichga qadam qo'yayotgan bu mamlakatda qudratli moliya, sanoat va zamindor guruh bilan bir qatorda, faol xalq ommasi, «o'rta tabaqalar» deb atalgan tabaqa katta o'rin tutardi. Aholi qatlamlarining bunday joylashganligi «Uchinchi respublika»da siyosiy kurashning rivojlanishiga ham ta'sir qilmay qolmadi. Fransiya'dagi iqtisodiy inqiroz faqat XX asr boshlaridagina yengib o'tildi.

Hokimiyat uchun kurash

Kommuna tor-mor keltirilgandan keyin Parij va viloyatlarda reaksiya avj olib ketdi. Kommuna jangchilarigina emas, kommunarlarga xayrixohlik qilgan deb shubha ostiga olinganlar ham qattiq ta'qib qilindi. Inqilobiy harakatga qarshi kurashuvchi bir qator tashkilotlar paydo bo'ldi.

Germaniya bilan sulh masalasini hal qilish uchungina va-kolat olgan Milliy majlis sulh shartnomasi imzolangandan keyin ham o'zboshimchalik bilan o'z faoliyatini davom ettiraverdi. Har biri taxtga o'z vakilini qo'yishga harakat qilgan uch monarxiyachi partiyaning Ta'sis majlisidagi o'zaro raqobati ularning monarxiyani tiklashga qaratilgan umumiy intilishini yo'qqa chiqardi va monarxiyachilar respublikaga vaqtincha rozi bo'lib turishga majbur bo'ldilar. Ana shunday sharoitda Kommunani yo'q qilgan, o'zi aytganiday, «eski monarxiyachi» Adolf Ter respublika Prezidenti lavozimiga juda mos odam edi.

Ter mamlakatda ashaddiy reaksiya tartibini joriy qildi, matbuot erkinligini cheklab qo'ydi. Milliy gvardiyani tarqatib yubordi. O'lpon to'lash uchun ikki marta zayom chiqarildi va belgilangan miqdordan juda ko'p qilib sotildi. Shu bilan birga gugurt, temir yo'l biletlari va boshqalarga «egri» soliqlar

solindi, bu soliqlar keng mehnatkashlar ommasining zarariga bo'ldi. Fransiya Germaniyaga o'lponni muddatidan ilgari to'lab bo'ldi. 1873- yil 16- sentabrda oxirgi german qo'shini Fransiya hududidan chiqib ketdi.

Milliy majlisda ozchilikni tashkil etgan respublikachilarni aholining ko'pchilik qismi qo'llab-quvvatlab kelayotgan edi. 1872—1873- yillardagi qo'shimcha saylovlarda respublikachilar katta g'alaba qozondilar; shu yillar mobaynida Milliy majlisga yangi saylangan 150 kishidan 128 tasi respublikachilar edi.

Xalqning monarxiyaga xohishi yo'qligini Ter tushunardi, shuning uchun ham u mazmunan reaksiyon bo'lgan hokimiyatning respublika tizimi tarafdori bo'lib qolishga majbur bo'ldi. Lekin respublikachilarning yutuqlaridan tashvishga tushib qolgan monarxiyachi Milliy majlis Terga mamlakatda «ma'naviy tartibni ta'min qilolmadi» degan ayb qo'ydi. 1873- yil 24- mayda Ter iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Milliy majlis Ter o'rniga marshal *Mak-Magonni* Prezident etib sayladi. U noshud siyosatchi, ashaddiy reaksiyoner va monarxiyachi, haddan tashqari johil bir odam edi. Mak-Magon «ma'naviy tartib»ni monarxiyaviy kayfiyatlarni kuchaytirib yuborish ma'nosida tushungan edi. Monarxiyachilar 1873- yil yozi oxirlaridan monarxiyani tiklashga tayyorgarlik ko'ra boshladilar.

Monarxiyani tiklashga ochiqdan-ochiq tayyorgarlik ko'rish mamlakatda keng qarshilik harakatining boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Respublikachilar bu kurashda o'zlarining butun kuchlarini birlashtirdilar.

Monarxiyachi Milliy majlis o'z mavqei va kelajak istiqbolini saqlab qolish uchun 1873- yil noyabrda Mak-Magonning vakolati muddatini 7 yil deb belgiladi. Monarxiyachilar Mak-Magon hokimiyatini saqlab qolib, boshqa bir yo'sinda o'z rejalarini amalga oshirishni mo'ljallab qo'ygan edilar.

1875- yil Konstitutsiyasi Vakolati allaqachon tugagan Milliy majlis Konstitutsiya tayyorlash bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi. Milliy majlis monarxiya o'rnatilganligi va respublikani xohlamaganligidan uzoq vaqt bir qarorga kela olmadi. Nihoyat, 1875- yil 30- yanvarda u deputat Vallonning respublika Prezidentini saylash tartibi va uning vakolat muddatini belgilagan tuzatishni, bittagina ko'p (352 ga qarshi 353) ovoz bilan tasdiqladi va shu orqali respubli-

kani e'tirof qildi. Respublika Prezidenti Deputatlar palatasi bilan Senatning qo'shma majlisida yetti yil muddatga saylanardi.

Prezident parlament oldida javobgar bo'lgan vazirlarni, oliy ma'muriy va harbiy amaldorlarni tayinlash, qurolli kuchlarga farmoyishlar berish, ajnabiy davlatlar bilan respublika nomidan munosabatlar o'rnatish, shuningdek urush e'lon qilish, sulh tuzish huquqiga ega edi. Umumiy avf e'lon qilish ham Prezident qo'lida edi. Deputatlar palatasi bilan Senatning qarorgohi etib Parij emas, balki Versal shahri belgilandi. Monarxiyachi Milliy majlis Konstitutsiyaning demokratik mazmunini cheklash uchun qo'ldan kelgan hamma choralarni ko'rdi. Respublikachilar 1875-yil Konstitutsiyasini ma'lum darajada yutuq deb bilib, uni keyinchalik qat'iy sur'atda demokratlashtirish lozim deb hisobladilar.

«Uchinchi respublika»- ning inqirozi

Konstitutsiyaga muvofiq, Fransiya parlament respublikasi bo'lib qoldi.

Bu «Uchinchi respublika» (Fransiyada «Birinchi respublika» 1797- yildan 1804- yilgacha, «Ikkinchi respublika» 1848- yildan 1852- yilgacha hukm surdi) deb atala boshladi. «Marseleza» Fransiyaning Milliy madhiyasi deb qabul qilindi. Bastiliya ozod etilgan kun — 14- iyul Milliy bayram kuni deb e'tirof qilindi. Konstitutsiyada Deputatlar palatasi umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanadi, deyilgan edi. Amalda esa bunday bo'lmadi. Xotin-qizlar saylov huquqiga ega emasdilar.

1876- yilgi saylovlarda Deputatlar palatasida respublikachilar, Senatda esa monarxiyachilar ko'pchilikni tashkil etdi. Respublikachilar safida bu vaqtda tabaqalanish yuz berdi. Yuqori doiralarda uch partiyaning ta'siri kuchaydi. Bu Ter rahbarlik qiluvchi eng konservativ guruh — «so'l markaz», Jyul Ferri va Jyul Simon boshliq respublika guruhi va Leon Gambetta boshliq «respublika ittifoqi» guruhlari edi. Gambetta respublikachilarning mashhur va nufuzli rahbari edi. Gambettaning radikal-demokratik talablardan voz kechganligi 70- yillarning oxirida respublikachilarning «o'ta so'l» guruhini vujudga keltirdi va keyinchalik uning negizida radikallar partiyasi tuzildi.

Mak-Magon Senatning yordamiga suyanib Deputatlar palatasini tarqatib yubordi va yangi saylov belgiladi. Saylov vaqti-

da hukumat tazyiq vositalarini ishga soldi. Respublikaning yashashi jiddiy xavf ostida qolgan edi. Barcha respublikachi guruhlar yana Gambetta rahbarligi ostida birlashdilar. Xalq respublikani qat'iy yoqlab chiqdi. 1876- yil yanvarida respublikachilar Senatga bo'lgan saylovlarda ham g'alaba qozonganlaridan keyin Mak-Magon kurash olib borishning behudaligiga ko'zi yetib, vakolati tugamasdan iste'fo berdi. «Mo'tadil» respublikachi *Jyul Grevi* Prezident qilib saylandi. 1877- yil oktabrdagi saylovlarda monarxiyachilarning barcha harakatlariga qaramasdan, respublikachilarning qo'li yana baland keldi.

Shunday qilib, monarxiyani tiklashga qaratilgan barcha urinishlar foyda bermadi. Lekin vazirlar Prezident tomonidan tayinlansa-da, parlament oldida javobgar edilar.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Fransiya sanoatining rivojlanish sur'atlari pasayib ketishiga nimalar asosiy sabab bo'ldi?
 2. Nima uchun fransuz mulkdorlarini sudxo'rlar deb ta'riflanadi?
 3. 1875- yilgi Konstitutsiyaning antidemokratik tomonlari nimalardan iborat?
 4. Fransiya mehnatkashlari mamlakatda respublika tuzumi o'rnatilishidan manfaatdor bo'lganligini aytib bering.
 5. Nima sababdan «Uchinchi respublika» inqirozga uchradi. Uning ijtimoiy va siyosiy oqibatlari qanday?

Erkin fikr yuriting: Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida tabiiy boyliklar qanday rol o'ynaydi? Intellektual salohiyat-chi?

4- §. Fransiyaning tashqi siyosati va ijtimoiy harakat

Bu davrga kelib Fransiya tashqi siyosati ancha zaiflashdi. Uning oldingi hukmronligiga barham berildi. Germaniyaning 1877- yili, Fransiya hujunga tayyorlanayotibdi, degan ig'vosi natijasida yana «urush xavfi» paydo bo'ldi. 1879- yilda Avstriya-Vengriya-Germaniya ittifoqining tuzilishi Fransiyaning xalqaro mavqeini yanada yomonlashtirdi. Shunga qaramay, Fransiyaning tashqi siyosati mustamlakalar zabt qilish va Germaniya bilan hamkorlikka qaratildi. 1881- yili hukumat o'z moliyaviy guruhlarini manfaatlarini ko'zlab

Tunisga harbiy ekspeditsiya uyushtirdi. 1881- yil 12- mayda Bordo shahrida tuzilgan «shartnoma»ga muvofiq, Fransiya Tunis ustidan o'z protektoratini o'rnatdi. Tunisning bosib olinishi mahalliy qabilalarning qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi, bunday qo'zg'olon Jazoirda ham bo'ldi.

Bismarkning Fransiyaning Tunisni zabt qilishga undab kelgan mo'ljali to'g'ri chiqdi, anneksiya natijasida Fransiya bilan Italiya o'rtasidagi munosabatlar birdaniga yomonlashib ketdi. 1882- yilda Italiya Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. Misr va Markaziy Afrikada Angliya bilan raqobatlashishi natijasida Fransiya xalqaro maydonda yakkalanib qoldi.

Fransiya hukmron doiralari 80-yillar boshidan qattiq turib o'tkazib kelayotgan mustamlakalarni zabt qilish siyosati tasodifiy emas edi. Mustamlakachilik ekspansiyasining kuchayishi Fransiyada sanoatni rivojlantirish sur'atlarining sekinligi va moliya kapitalining tez rivojlanib borayotganligi bilan bog'liq edi.

Mustamlakachilik agressiyasi

Fransiya 1883- yilda, juda noqulay tashqi siyosiy vaziyatda Shimoliy Vetnamni (Tonkinni) bosib olish uchun yangi mustamlakachilik urushini boshlab yubordi. Bundan ba'zi bir moliya guruhlar va ular bilan bog'liq bo'lgan respublikachilar, shu jumladan, Bosh vazir Jyul Ferrining o'zi ham manfaatdor edi. Tonkindagi harakatlar fransuzlar uchun noqulay sharoitda olib borildi, tropik kasalliklardan ko'plab askarlar halok bo'ldi. Mustamlakachilik ekspeditsiyasi Xitoyga qarshi urushga aylanib ketdi. 1885- yil martida Long-Song yonida fransuz qo'shinlari mag'lubiyatga uchradilar. 1891- yilda Gvineya, 1892- yilda Dagomeya, 1894—1896- yillarda Madagaskar bosib olindi.

«Mo'tadil» respublikachilarning mustamlakachilik siyosatini radikallar juda qattiq tanqid qildilar. Radikallar, ayniqsa, ularning boshlig'i J. Klemanso «mo'tadil» respublikachilarni ularning mustamlakachilik siyosati Fransiyaning Yevropadagi mavqeini zaiflashtirdi va Bismark «tegirmoniga suv qo'ydi», deb ayblab, mamlakatdagi o'z ta'sirlarini kuchaytirib oldilar.

Fransiya — Rossiya ittifoqi

1881- yilda Tunisning bosib olinishi natijasida Fransiya — Italiya o'rtasida nizoz kelib chiqdi. Italiya Tunisni Fran-

siyadan tortib olish maqsadida 1882- yili Avstriya-Vengriya va Germaniya ittifoqiga kirib, agressiv «Uchlar ittifoqi»ni to'ldirgan edi.

Germaniya Fransiya siyosiy jihatdan yakkalanib qolgani-dan foydalanib, «Uchinchi respublika»ga qarshi yangi urush boshlashga tayyor edi. Rossiyaning Fransiyaning qo'llab-quvvatlashi uni urush xavfidan qutqarib qoldi. Buning evaziga pulga muhoj chor Rossiyasi fransuz kapitalini ola boshladi. Bu vaqtda Fransiya bilan Rossiya manfaatlarining birligi, mustamlaka bosib olishda Angliya bilan raqobati ularni yaqinlashtirgan edi. Aytish kerakki, 1879—1883- yillarda tuzilgan va Germaniya boshchilik qilayotgan «Uchlar ittifoqi» Fransiya ham, Rossiyaga ham qarshi qaratilgan edi.

1887- yildan boshlab fransuz diplomatiyasi Rossiya bilan bitim tuzishga zo'r berib harakat qila boshladi. Biroq, Rossiya hukumati Fransiyaning bitim tuzish to'g'risidagi taklifini rad etib keldi.

Ijtimoiy harakat

Bu davrda ham mehnat ahlining ahvoli og'irligicha qolaverdi. Turli ishlab chiqarish sohaslarida ish kuni 10—12 soatdan 14—16 soatgacha borardi. Tirikchilik tobora o'g'irlashib borgan bo'lsa ham, ish haqi oshirilmadi. 1882- yili Fransiya iqtisodiy inqiroz boshlanib, 1885- yilgacha davom etdi. Ishchilarning ish tashlashlari va kurashning boshqa shakllari avj oldi.



Jyul Ged

1882- yilda Monsale-Min, Lion, Lill, Rube va boshqa shaharlarda yirik ish tashlashlar bo'ldi.

«Mo'tadil» respublikachilar hukumati qattiq choralar ko'ra boshladi. 1884- yili Anzen konlarida ish tashlaganlarga qarshi qo'shin yuborildi. 1886- yilda Dekazviladagi ish tashlash vaqtida hukumat yana ishchilarga qarshi qo'shin yubordi. 1880- yili muhojirlikdan qaytib kelgan kommunarlar — blankichilar o'z partiyalarini tuzdilar, bu

partiya rasman Markaziy inqilobiy qo'mita deb atalsada, aslida blankichilar partiyasi degan nom bilan atalaverdi. Partiya-ning yo'l boshchisi, Kommuna zamonida maorif komissari bo'lgan Eduar Vayyan ozodlik kurashiga astoydil sodiq kishi edi.

Ishchi partiyasi rasmiylashtirilgandan keyin oradan ko'p o'tmasdan uning saflarida keskin ichki kurash vujudga keldi. Partiyada ikki oqim: *Ged* va *Lafarg* rahbarligidagi inqilobiy oqim hamda Bruss va Malon rahbarligidagi mayda reformistik oqim tashkil topdi. Opportunistlar Jyul Ged boshchiligida ish tash-



Pol Lafarg

lashlarni qoralab, iqtisodiy masalalarni hal qilishni, demokratiya ozodligini, taraqqiyparvar islohotlarni, umumiy va majburiy ta'limni joriy qilishni talab qildilar.

Sotsialistik partiyaning asosan parlamentchilikdan iborat faoliyatidan qanoatlanmagan ishchilar anarxo-sindikalistlar ta'siriga berilib ketdilar. 90- yillarning oxirida Umummehnat konfederatsiyasida o'rnashib olgan yarim anarxistlar asta-sekin kurashning nazariy va amaliy usullarini ishlab chiqdilar. Bu tizim anarxo-sindikalizm nomini oldi. Anarxo-sindikalizm doktrinasi asosan Bakunin va Prudon g'oyalarning aralashmasidan iborat edi.

Anarxo-sindikalizm tarafdorlari siyosiy kurashning barcha turlarini rad etardilar. Ular stachka, bojkot, sabotajni bevosita harakatlarining amaliy usullari deb taklif qildilar, hokimiyat uchun kurashning demokratik usullariga qarshi chiqdilar.

Sotsialistik partiyalarning parlamentdan tashqari siyosiy kurash olib borish vositalarini pisand qilmayotganidan norozi bo'lgan inqilobiy kayfiyatdagi ishchilarning ko'pchiligi anarxo-sindikalizm harakati safiga o'ta boshladilar. Fransuz sindikat-

kasaba uyushmalarida a'zo bo'lganlarning soni 1900- yilda 492000 kishini tashkil qilgan bo'lsa, 1910- yilda 977000 ga yetdi.

1887- yilgi siyosiy tanglikdan keyin «Dreyfus ishi» J. Grevi o'rniga *Sadi Karno* (1887—1894) Prezident bo'ldi. Bulanjizm respublikaga xavf soldi. Mamlakatda Panama kanali aksionerlarining qallobliklari fosh etildi. Ziddiyatlar keskinlashib turgan bir vaziyatda yashirin kurashni demokratiya bilan reaksiya kuchlari o'rtasidagi ochiq jangga aylantirib yuborish uchun salgina bahona ham kifoya qilardi. 1894- yilda Sadi Karno o'ldirilgandan keyin Kazimir Pere oz vaqt hokimiyat tepasida turdi. Undan so'ng *Feliks For* (1895—1899) Prezident bo'ldi.

1894- yilda Harbiy sud Bosh shtab kapitani Alfred Dreyfusni Shayton oroliga umrbod qamoqqa hukm qildi. Alfred Dreyfus yahudiylardan bo'lib, fransuz armiyasining harbiy sirlarini Germaniyaga yetkazishda ayblangan edi. Dreyfusning jazoga tortilishidan reaksiya unsurlar shovinistik tashviqot uchun, Fransiyada respublikaga, demokratiyaga qarshi kurashda foydalandilar. Haqiqiy josus, vengr avantyuristi Estergazi o'rniga Dreyfusni ataylab jazoga tortgan edilar. Estergazi esa fransuz armiyasining ofitseri bo'lib olgan va aristokrat jamiyat doiralari unga panoh berib yurardilar. 1897- yilda bu ma'lumotlar matbuotga yetib bordi. 1898- yil yanvarida *Emil Zolya* respublika Prezidenti F. Forga yozgan maktubini e'lon qildi. Bu maktubda oliy harbiy amaldorlar, Bosh shtab va Harbiy sud begunoh kishini ataylab jazoga tortgani aytilgan edi. Mashhur yozuvchining maktubi portlagan bomba singari ta'sir qildi.

Reaksiya militaristik guruh Zolyaga qarshi hujum boshladi. Fransiyaga shon-shuhrat keltirgan yozuvchi sudga berildi. Uch hafta sud bo'lganidan keyin Zolya o'z vatanidan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Reaksiya millatchi bandalar Parij va boshqa shaharlar ko'chalarida demokratlarni va «Dreyfus ishi»ni qayta ko'rish tarafdorlarini urib, o'zboshimchalik qildilar. 1898- yilning kuzida yuqori doiralarning haqiqatni atayin soxtalashtirganligini tasdiqlovchi yangi dalillar topildi. Soxta guvoh o'ldirildi. Estergazi Fransiyadan qochdi.

1899- yil fevralda F. For to'satdan vafot etdi. «Mo'tadil» respublikachi *Emil Lube* (1899—1906) Prezident etib saylandi.

U «Dreyfus ishi»ni qayta ko'rish tarafdori edi. 1899- yil 2- iyunda yangi hukumat tuzildi, bu hukumat o'zini «respublikaga homiy hukumat» deb atadi, unga *Valdek-Russo* boshchilik qildi. Kommunanani «qonga botirgan» jallod, general Galife bu hukumatda harbiy ministr bo'lib qoldi, respublika tarixida birinchi marotaba sotsialist Mileran savdo va sanoat ministri qilib taklif etilgan edi. Mileran respublikani himoya qilish, islohotlar o'tkazish uchun harakat qilaman deb ta'kidladi.

Valdek-Russo hukumati demokratiya kuchlariga yarim-yoriton berish taktikasini ham qo'llab keldi. Dreyfusning gunohi kechirildi. Galifening armiyaga bergan buyrug'ida «mojaro tugatildi» deb e'lon qilingan edi.

Valdek-Russo, Mileran hukumati mamlakatda keskinlashib borayotgan siyosiy vaziyatni bir oz yumshatib, burjuaziyaning mamlakat siyosiy hayotidagi rahbarlik pozitsiyalari mustahkamlanib olishiga yordamlashdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning ikkinchi yarmida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli qanday edi?
 2. XIX asr 70- yillarining o'rtalarida Fransiya — Germaniya munosabatlari qanday bo'lgan? Bu davlatlarni xaritadan topib, ular o'rtasidagi munosabatlar haqida so'zlab bering.
 3. Fransiyaning Osiyo mamlakatlariga qilgan bosqinchilik harakatlari qanday oqibatlariga olib keldi?
 4. «Uchlar ittifoqi»ga qarshi Fransiya — Rossiya ittifoqining tuzilishi qanday maqsadlarni ko'zlardi?
 5. Fransiya tarixida Ged va Lafarg kimlarning manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatganlar?
 6. Opportunizm nima?
 7. Anarxo-sindikalizm Fransiya ijtimoiy-siyosiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?

Bu so'zlarning ma'nosini toping: Opportunizm, anarxo-sindikalizm, parlament, Umummehnat konfederatsiyasi, antisemit, bulanjizm.

Bu nomlarni esda tuting: Bakunin, Prudon, Ged, Lafarg, Dreyfus, Estergazi.

5- §. XX asr boshlarida Fransiya

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol

90- yillarning o'rtalaridan boshlab Fransiya sanoatida yuksalish boshlanib, u Birinchi jahon urushigacha davom etdi. Temir ruda qazib chiqarish 1900- yildagi 5,4 mln. tonnadan 1913- yilda 22 mln. tonnaga yetdi. Bu sohada Fransiya Germaniya, AQSH va Belgiyadan o'zib ketdi. Sanoatning yangi tarmoqlari — elektrotexnika, avtomobil, kimyo ancha rivojlandi. 1912- yilda aholining 40 foizi qishloq xo'jaligida, 36 foizi sanoatda band edi.

Fransiyaning 1909- yildagi eksportida tovarning qimmatligi jihatidan jun birinchi o'rinda, ip gazlama ikkinchi o'rinda, shoyi gazlama uchinchi o'rinda, fransuz vinolari to'rtinchi o'rinda turardi. Kimyo sanoatining mahsulotlari sakkizinchi va avtomobillar sotish to'qqizinchi o'rinda turardi, xolos.

Ammo ishlab chiqarishning konsentratsiyalashish darajasi jihatidan Fransiya AQSH va Germaniyadan orqada qolayotgan edi.

Fransiyada kredit-pul kapitali tez o'sib, katta qudratga ega bo'ldi. XX asr boshlarida u bir necha bank-moliya tizimi ustidan hukmron bo'lib qoldi. 1914- yilda banklarga qo'yilgan 11 mlrd. frank pulning 8 mlrdi 5 ta bankda to'plangan edi. Qog'oz pullar chiqarishni esa 4 ta bank — Lion kredit, Milliy hisoblash idorasi, Bosh jamiyat, Parij — Niderlandiya banki egallagan edi. Chetga kapital chiqarish bo'yicha Fransiya jahonda Angliyadan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Agar 1900- yilda chetga 487 mln. frank kapital chiqarilgan bo'lsa, 1914- yilga kelib bu raqam 1 mlrd. 329 mln. frankga yetdi.

Moliya kapitali Fransiya iqtisodiyotida asosiy o'rin tutib, mamlakatning siyosiy hayotiga katta ta'sir o'tkazdi. Moliya oligarxiyasining yuqori tabaqasi — de Vandeli, Shneyder, Lende, Malle, Vogyue, Rotshild va boshqalar birjani, mustamlakalar bilan bo'ladigan aloqani, transportni, matbuotni o'z qo'llarida tutib turdilar.

Hukumatning ichki siyosati. Fransiyada ijtimoiy harakat

Radikallarning eski siyosiy guruhlari 1901- yilda birlashib, respublikachi radikallar va radikal-sotsialistlar partiyasini tuzdilar.

1902- yildagi saylovda radikallar Deputatlar palatasida birin-

chi marta ko'p o'rin oldilar. Radikallar sotsialistlarning bir qismi bilan birgalikda «so'l blok» deb atalgan ittifoq, keyinchalik shu blokka tayanib, *Emil Komb* (1902 — 1905) boshchiligida hukumat ham tuzdilar.

Komb hukumati «Dreyfus ishi»dan saboq olib, armiyani eng reaksion monarxiyachi zobitlardan tozalash tayyorgarligini ko'rdi. Shu maqsadda zobitlar to'g'risida ma'lumotlar yig'ilib, maxfiy «ish»lar ochildi. «O'ng» partiyalar bundan norozi bo'lib, shovqin-suron ko'tardilar.

Komb hukumati 1905- yil yanvarida iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. «O'ng» radikal *Ruve* yangi hukumat tuzdi. Palatada «so'llar» ko'pchilik bo'lganligi sabab, Ruve cherkovni davlatdan ajratish to'g'risida E. Komb tayyorlagan qonun loyihasini to'xtatib qololmadi. Bu qonun loyihasi 1905- yil iyunda har ikkala palatada qabul qilindi va kuchga kirdi. Shu yili ikki yillik harbiy xizmat to'g'risidagi qonun ham qabul qilindi.

1905- yil martida Ruve hukumatni radikal *Sarrena* topshirdi. Sarren hukumati tarkibiga ko'zga ko'ringan «taraqqiyotchilar» Puankare va Bartu a'zo bo'lib kirgan edi. Hukumat tarkibida birinchi marta Jorj Klemanso Ichki ishlar vaziri etib tayinlandi.

1906- yilgi saylovlarda radikallardan parlamentga 250 ga yaqin deputat saylandi. Ushbu saylovlar mamlakatdagi ijtimoiy kayfiyat «so'lga burilganini» ko'rsatdi.

Vazirlar Kengashining yangi raisi, radikallar partiyasining boshlig'i Jorj Klemanso o'z hukumatining oldingi hamma hukumatlardan farqi borligini uqtirishga harakat qildi. «Dreyfus ishi» da nom chiqargan general Pikar harbiy vazirlikka rahbar bo'ldi. Dreyfus va Pikar bundan oldinroq, 1906- yilda batamom «oqlangan» edilar.

1907- yilda ijtimoiy harakat keskinlashdi. Parijda mart oyida elektr sanoati ishchilari ish tashladilar. Hukumat ularga qarshi qo'shin yubordi. Iyun oyida hukumat poyabzal sanoati ishchilarining chiqishini kuch bilan bostirdi. Yozda janubiy hududlardagi vino tayyorlovchi dehqonlar orasida harakat boshlandi. Tokzorlarga kasal tegib, uzum hosili nobud bo'lganligi dehqonlarga katta zarar yetkazdi. Natijada mamlakatda soxta, arzon vino ko'payishi ularni xonavayron qildi. Uzumchi dehqonlar ahvolni yaxshilashga hukumatning aralashuvini talab

qildilar. G'alayonlar bo'layotgan tumanlarga qo'shinlar yuborildi. Mahalliy aholidan iborat 17- polk dehqonlar tomoniga o'tdi. Hukumat katta qurolli qo'shin yuborib, bu polkni quroqsizlantirdi va harakatni bostirdi.

1908- yil yozida Parij atrofidagi Draveyli degan joyda yer qazuvchilar ish tashladilar. Hukumat bu harakatni kuch bilan bostirishga urindi. Ishchilardan bir qanchasi o'ldirildi va yarador qilindi. Binokorlar kasaba uyushmasi bunga javoban 30- iyunda binokor ishchilarning ommaviy norozilik namoyishini uyushtirdi.

1909- yil iyulida Klemanso hukumati iste'fo berdi. Mamlakat tepasiga «mustaqil sotsialist» *A. Brian* (1909—1911) keldi. Dastlab Brian hukumati mamlakatda osoyishtalik o'rnatish va barchani kelishtirishga urindi. Shu maqsadda «Ishchilar va dehqonlarga nafaqa tayinlash to'g'risida» qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, yollanma ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar va kam haq oladigan kishilar ixtiyoriy sug'urta qilinishi lozim edi. Ishchilar uchun 65 yoshdan nafaqa tayinlandi.

Lekin Brian ham mamlakatda «osoyishtalik» o'rnatishga olmadi.

1910- yil oktabr oyida temir yo'lchilarning ish tashlashlari boshlandi. Namoyishchilar ish haqini oshirishni va ish vaqtini kamaytirishni talab qildilar. Brian hukumati o'z «niqobini oldi», temir yo'llar harbiylashtirildi, namoyishchilar qo'mitasi qamoqqa olindi. Shundan so'ng Brian hukumatni qayta tuzdi va «o'ng» kuchlar ta'sirini kuchaytirdi. 1910- yil mayda navbatdagi saylovlar o'tkazildi. Bu saylovda «so'l» partiyalar yana ko'p ovoz olishga muvaffaq bo'ldilar.

1911- yili radikallardan *Monis* va *Kayo* tuzgan qisqa muddatli hukumatlar hokimiyat tepasiga chiqib olib, «o'ng» siyosat o'tkazdi. Monis hukumati Umummehnat konfederatsiyasi tayinlagan 1- may namoyishini taqiqladi. Shampandagi vinochi dehqonlar harakatini ham zo'rlik bilan bostirdi.

Puankarening ichki va tashqi siyosati

Xalqaro ahvol tobora keskinlashdi. Bir-biriga qarshi turgan qudratli davlatlar urushga faol tayyorlandilar. 1910- yil-

da Brian rahbarligida harbiy-dengiz floti qurishning katta dasturi qabul qilingan edi. Yirik burjuaziyaning «qattiqqo'l hokimiyat» tuzishga intilishi yanada kuchaydi. «O'ng» unsurlar Fransiya bilan

Germaniya munosabatlarining Marokash masalasida keskinlashuvidan foydalanib, millatchilikni avj oldirdilar. Germaniya bilan bitim tuzgan Kayo hukumatini «ojizlik»da ayblab, qattiq tanqid qildilar. 1912- yil yanvarida Kayo hukumati «quladi». *Raymon Puankare* hokimiyatni qoʻlga oldi.

Nufuzli moliya va sanoat doiralari bilan aloqador boʻlgan, advokat, korchalon Raymon Puankare 90- yillarning boshidayoq «qattiqqoʻl» hokim sifatida nom chiqargan edi.

Puankare oʻz hukumatini «taraqqiyotchilar» va sobiq «mustaqil sotsialistlar»dan iborat qilib tuzdi. «Mustaqil sotsialistlar» 1911- yilda partiyaning nomini oʻzgartirib, respublikachi sotsialistlar partiyasi (Brian, Mileran, Pol Bonkur) boʻlib qolgan edi. Brian Vazirlar Kengashi raisining oʻrinbosari, Mileran Harbiy vazir etib tayinlandilar.

1913- yil yanvarida Prezident saylovlari boʻldi. Unga ikkita nomzod: «oʻng» partiyalar va dvoryan doiralar vakili Puankare hamda radikallar vakili Pams nomzodi koʻrsatildi. Radikallar palatada koʻpchilik boʻlsa-da, Prezident qilib Puankare saylandi. Puankare mamlakat siyosiy hayotiga faol aralashdi va taʼsir oʻtkazdi. U mamlakat va palata «soʻl» kayfiyatda ekanligidan xavfsirab, reaksiyon yoʻlni keskin amalga oshirishdan xavotirlanib, hukumat tuzishni Brianga topshirdi.

Brian tuzgan (1913- yil yanvar — mart) ikkala hukumat ham «uzoq umr koʻrmadi». Brian hukumati harbiy xizmat muddatini ikki yildan uch yilga uzaytirishga va tinchlik davrida fransuz qoʻshinlari sonini 160000 ga kamayishni koʻzda tutgan edi. Loyiha palatada qabul qilindi va *Lui Bartu* boshliq «oʻng» hukumat (1913- yil mart, dekabr) tomonidan amalga oshirildi.

1913- yil dekabrda radikal-sotsialistlar Bartuning «oʻng» hukumatini agʻdardilar va *Dumerq* boshchiligida hukumat tuzdilar.

Hukumat daromad soligʻi toʻgʻrisidagi qonun loyihasini kuchga kiritishga intildi. Bu soliq reaksiyon kuchlarga katta zarar yetkazdi va ular 1914- yilgi saylovdan oldin Moliya vaziri Kayoga qarshi kurash boshladilar. Kayo isteʼfo berdi. 1914- yil mayida oʻtkazilgan saylovlarda «soʻl» partiyalar koʻp ovoz oldi. Puankare-



Jan Jores

ning topshirig'iga binoan, iyun-da radikallar va mustaqil sotsialistlardan iborat Vivian raisligida yangi hukumat tuzildi.

Fransuz xalqi va ishchilari Germaniyaga qarshi bo'lsalar-da, lekin urush bo'lishini xohlamas edilar. Puankare tashqi siyosati urushga qarab ketmoqda edi.

Sotsialistlar partiyasining rahbari *Jan Jores* urush xavfidan xalqni ogoh etar edi. Biroq, Fransiya dunyoni qayta bo'lib olish uchun boshlangan jahon urushi girdobiga tor-

tilgan edi. Jores 1914- yil 31- iyulda yaqinlashib kelayotgan jahon urushiga qarshi qizg'in nutqlari uchun yovuzlarcha o'ldirildi. Dafn marosimida parijsliklardan 10 minglab kishi qatnashdi.

Fransiya mustamlakachiligi. Siyosiy inqirozning yetilishi

Fransiya 90- yillarning boshlaridan o'zining mustamlakachilik ekspansiyasini boshladi.

1893- yilda fransuzlar Sahroi Kabirdagi Timbuktni zabt qildilar, shu yili Janubi-Sharqiy Osiyodagi Laos ustidan protektorat o'rnatdilar. 1897- yili Fransiya Uzoq Sharq ishlariga aralashishi natijasida Xitoyning Guanchjouvan tumanini bosib oldi. 90- yillarning oxiriga qadar Shimoliy Afrika va Sudanni qurol kuchi bilan bo'ysundirish davom etdi. Fashoda mojarosi munosabati bilan Fransiya va Germaniya o'rtasida urush chiqib ketishiga sal qolgan edi. Marokash ustidan 1912- yilda protektorat o'rnatildi. Marokashliklar qo'llariga qurol olib, fransuz bosqinchilariga qarshi kurashdilar. 1914- yilda Marokashda 100 ming fransuz jangchisi bor edi.

Respublikachilar o'zlarining dushmanlari — monarxiyachilar bilan yaqinlashishga imkon topdilar. Ikkalasi ham mustamlakalar egallash kayfiyatida bosqinchilik siyosatini qo'llab-quvvatladilar.

Iste'dodli notiq, sotsialist Joresning o'limi mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy holatni yanada og'irlashtirdi.

Bu davrda mamlakatda siyosiy inqiroz yetilib, «Puankare urushi» amalda o'z isbotini topmoqda edi. Fransiya hukumati dunyoning bo'linishida o'z «ulushini» olib qolishga shay edi. Ayniqsa, Germaniyadan qasos olishni ko'zlar edi.

Savol va topshiriqlar

?

1. XX asr boshida Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday edi?
2. XX asr boshida Fransiyaning ichki ahvoli qanday edi va bu vaqtda ijtimoiy harakatga hukumatning munosabati qanaqa bo'ldi?
3. 1908- yil yozida Draveylidagi ishchilarning ish tashlashlari haqida nimalarni bilasiz? Fransiya haqida ish tashlashlar haqida so'zlab bering.
4. Fransiya tarixida Puankarening hukumatni boshqarishi haqida gapirib bering. Uning ichki va tashqi siyosat yuritishdagi xatolari nimalardan iborat?
5. 1913- yil yanvaridagi Prezident saylovlari natijalari haqida so'zlab bering.
6. Birinchi jahon urushi arafasida Fransiyaning mustamlakachilik siyosati qay tariqa olib borildi?

Bu so'zlarning ma'nosini tushuntiring: Kapital chiqarish, radikal, taraqqiyotchilar, mustamlakachilik ekspansiyasi.

Bularni yodda tuting: E. Komb, Ruve, Sarren, Puankare, Bartu, Klemanso, Brian, Jan Jores.

Bahs yuriting: Fransuz mustamlakachiligi, umuman Yevropa mustamlakachiligi bilan Sho'ro mustamlakachiligining qanday farqi bor?

Bizning nazarimizda Fransiya — insoniyat ruhi ulug'vorligi va aql ziyosi ramzi, jahonga ko'plab atoqli arboblarning yetkazib bergan buyuk mamlakatidir. Fransiya faqat noyob madaniyat va nafis san'at mamlakati, yuksak ma'rifat, turmushning dono falsafasi, insonparvarlik bilan yo'g'rilgan adabiyot va she'riyat mamlakatigina emas. Bizning nazdimizda Fransiya jahonga ilk bor erkinlik, tenglik va birodarlik singari oliy maqsadlarni in'om etgan zamonaviy demokratiya vatani hamdir.

ISLOM KARIMOV

2- b o b. GERMANIYA XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA

6- §. Germaniyaning birlashtirilishi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti

Germaniyani birlashtirish- ning tugallanishi


Fransiya — Prussiya urushi davom etayotgan bir paytda, ya'ni 1871- yilning 18- yanvarida barcha german davlatlarining monarxlari Versalga to'planib, Prussiya qiroli *Vilgelm I* ni Germaniya imperatori deb e'lon qildilar. Ilgari Shimoliy German ittifoqiga kirgan davlatlarga yana to'rta Janubiy german davlati qo'shildi, bularning eng yirigi Bavariya edi. Shunday qilib, reaksiyon Prussiya monarxiyasi rahbarligida Germaniyaning birlashuvi tugallandi. Yagona va yaxlit Germaniya imperiyasi barpo qilindi.

1871- yilgi Imperiya Konstitutsiyasi

1871- yil aprelida Ta'sis reyxstagi umumgerman Konstitutsiyasini qabul qildi. Germaniya imperiyasi *ittifoqchilar** davlati bo'lib qoldi. Imperiya tarkibiga o'zining qiroli yoki knyaz sulolasi bilan 22 monarxiya va 3 erkin shahar: Lyubek, Bremen va Gamburg kirdi. Elzas va Lotaringiya imperiyaga hokim (*shtatgalter*) tomonidan idora qilinadigan «maxsus imperiya viloyati» bo'lib kirdi, bu hokimni imperatorning o'zi tayinlardi. Imperiyaga kirgan ayrim davlatlar o'z konstitutsiyalari, vakillik muassasalarini (*landtaglarini*) saqlab qoldilar. Davlat bajargan vazifalarning faqat ba'zi bir qismi — cherkov faoliyati, ma'rifiy ishlar, «to'g'ri» soliq solish, ma'muriyat ishlari ularning o'z qo'lida qoldirildi. Bavariya armiyani idora qilish uchun cheklangan huquqqa ega bo'lib qoldi. Imperiya Konstitutsiyasida ittifoqchi davlatlarda xalq vakolatini kengaytirish nazarda tutilmagan edi.

Konstitutsiyaga muvofiq, ittifoq miqyosida qonun chiqarish huquqiga ega bo'lgan umumimperiya hokimiyati Imperator va Imperiya kansleri qo'lida to'plangan edi. Imperiyaning oliy vakolatli muassasalari Ittifoq Kengashi (*Bundesrat*) bilan Reyxstag edi. Imperiya Konstitutsiyasi shunday tuzilgan ediki, unda yangidan birlashgan Germaniyada Prussiya gegemonligi mus-

* Oliy organ Ittifoq Kengashi (Bundesrat) va Reyxstag edi.



Germaniya imperiyasi oliy hokimiyat organlarining tuzilishi

tahkamlangan edi. Imperator imperiyadagi barcha qurolli kuchlarga Bosh qo'mondon bo'lib, o'zi urush e'lon qilar, sulh tuzar, xalqaro munosabatlarda Imperiya nomidan ish ko'rardi. Imperator o'z ixtiyori bilan Reyxstag va Ittifoq Kengashi sessiyalarini chaqirish, ochish, tarqatib yuborish yoki muddatini cho'zish huquqiga ega edi.

Germaniyaning birinchi Imperiya kansleri *Otto Bismark* edi. U davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo'lmagan Vilgelm I ni o'ziga tamomila bo'ysundirib olib, deyarli 20 yil davomida (1871—1890) mamlakatda cheksiz hokimlik qildi.


Reyxstag Konstitutsiyada ko'rsatilganidek, umumiy saylov huquqi asosida besh yil muddatga saylanardi. Lekin amalda saylov huquqi faqat nomigagina umumiy edi. Harbiy xizmatchilardan tashqari, 25 yoshga to'lgan erkaklarga saylov huquqidan foydalanardilar. Xotin-qizlar saylov huquqidan mahrum edilar. Qonun chiqarish tashabbusi Reyxstag qo'lida edi, lekin Ittifoq Kengashi va Imperator Reyxstag qarorlarini tasdiqlamaslikka huquqli bo'lganlaridan, Reyxstag tashabbusi e'tiborsiz qolardi.

Germaniyaning iqtisodiy taraqqiyoti

XIX asr o'rtalarida Germaniya asosan agrar davlat bo'lib, aholisining ko'pchiligi qishloqlarda va kichik shahar-chalarda yashardi. Mamlakatda bor-yo'g'i olti-yettitagina katta shahar bor edi, xolos.


XIX asr oxiriga kelib ahvol keskin o'zgardi. Germaniyaning ilgari dala va o'tloq bo'lib yotgan tumanlarida fabrikalar, zavodlar, ishchi qo'rg'onlari qurildi, mamlakatning har tomoniga temir yo'llar yotqizildi. Ko'chalari serqatnov, ko'p qavatli uylar bo'lgan yirik shaharlar qad ko'tardi.

Germaniya birlashtirilgandan so'ng mamlakatda yagona ichki bozor vujudga keldi. Sanoat rivoji ayniqsa tezlashdi. Bunga mamlakatda toshko'mir (Rur va Saar havzalarida) hamda temir rudasining Yuqori Sileziya va Fransiyadan tortib olingan Lotaringiyada zaxiralari ko'pligi yordam berdi. Fransiyadan olingan 5 milliard frankdan ortiq kontributsiya (tovon)ning asosiy qismi qurollanish uchun sarf qilindi. 90- yillar oxiridan zo'r berib harbiy sanoat rivojlantirildi, harbiy-dengiz floti qurish boshlandi. Sanoatning yangi tarmoqlari— elektrotexnika va kimyo sanoati ayniqsa tez rivojlandi. Kimyo sanoatida Germaniya jahonda birinchi



Rurdagi Krupp zavodining bessemer sexi

o'ringa chiqib oldi. Metall ishlab chiqarishda, to'qimachilik sanoatida kimyoni keng qo'llanish boshlandi. 70- yillarda Germaniya temir va po'lat ishlab chiqarish jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turgan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib AQSHdan so'ng ikkinchi o'ringa chiqib oldi. Sanoatda yuqori sifatli, volframli metallning



Kzezo zavodida to'plarni yig'ish

kashf qilinishi mashinasozlikda buyuk kashfiyot bo'ldi. Shu tufayli sanoatda mehnat unumdorligi bir necha marta oshdi, mashinasozlikda dastgohlarni ommaviy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishga, ya'ni ko'mir qazib chiqarish, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat ishlab chiqarish sohalariga bo'lib yuborishga olib keldi.

Yirik sanoat obyektlarini qurish va ishga tushirish katta mablag'larning konsentratsiyalashuvini taqozo qildi. Shuning uchun katta mablag' egalari birlashib, yirik korxonalar qurishni kelishib oldilar. Kapitalistlar mablag'ining qo'shilishi ularga katta miqdorda foyda olib keldi. Yirik monopolistik uyushmalarning eng birinchilari Germaniyada paydo bo'ldi. 1880- yillarga kelib Germaniyada 400 ga yaqin kartel tuzilib, ularga 12 ming korxonalar birlashgan edi. Bu davrga kelib Germaniya dunyo sanoat mahsulotining 60 foizidan ortig'ini ishlab chiqarar edi.

«Kultur kampf»

Bismarkning Germaniyani «prusslashtirish»ga qaratilgan siyosatiga qarshi katolik ruhoniylari «bosh ko'tarib» chiqishdi. Ular o'z mustaqilliklari va nufuzlarini saqlab qolishga intildilar. Katolik muxolifatga «Markaz» partiyasi boshchilik qildi.

Germaniyaning janubi-g'arbidagi davlatlarda yashovchi aholining ba'zi tabaqalari, og'ir milliy zulmga duchor qilingan polyaklar, Elzas va Lotaringiyadagi fransuz aholisi «prusslashtirish»ga qarshi kurashga qo'zg'aldilar. «Markaz» partiyasi bu xalqlarning manfaatlarini «himoya qiluvchi» bo'lib «bosh ko'tarib» chiqdi, chunki u shunday yo'l bilan o'z siyosiy mavqeini mustahkamlab olmoqchi edi.

Katoliklar «Markaz» partiyasining o'z markaziy matbuot organi — «Germaniya» gazetasi sahifalarida chiqishlari ko'pincha fransuz matbuotidagi chiqishlarga monand bo'lib tushardi. Shu sababli, Bismark «Markaz» partiyasini fransuz qasoschi doiralarning agenturasi deb bilardi. Bismark polyak-katolik ruhoniylarini ham shunday xavfli kishilar deb bilardi, buning sababi shu ediki, katolik ruhoniylarini *papa Piy IX* faol sur'atda qo'llab-quvvatlab turardi. Vatikandagi episkop Lidaxovskiy «Polsha qirollarining hokimi» deb hisoblanardi.

Bismark katoliklar cherkovi va «Markaz» partiyasining «o'jarligini sindirish uchun» 1872- yilda bir qonun chiqartirib oldi, bu qonunga muvofiq ruhoniylar maktablar ustidan nazorat qilish huquqidan mahrum etildi, ruhoniylarning siyosiy tashviqot olib borishi taqiqlandi. Shuningdek, ruhoniylar tayyorlash va ularni vazifalariga tayinlash ishlarini davlat o'z qo'liga oldi, oliy ruhoniylar hokimiyati cheklab qo'yildi va h. k. Nihoyat, nikoh, tug'ilish va vafot etganlik ro'yxatlari to'g'risida qonun chiqarildi, bu qonun cherkov huquqlarini bekor qildi, holbuki, bu huquqlar cherkovning ijtimoiy ta'sirini mustahkamlar va katta daromad manbai bo'lib xizmat qilardi.

Ruhoniylar bu qonunlarga bo'ysunmasliklarini e'lon qildilar. Papa Piy IX kurashga da'vat qildi. Bismark bunga javoban itoatdan bosh tortgan ruhoniylarni qamoqqa olib, ularni Germaniyadan surgun qildi. U g'urur bilan: «biz Kanossaga bormaymiz» dedi. U bunda german imperatori *Genrix IV* ning *papa Grigoriy VII* ga taslim bo'lganligini nazarda tutgan edi.

Bismarkning katoliklar cherkoviga qarshi bu kurashi «*kultur kampf*» (madaniyat uchun kurash) deb ataladi. Haqiqatda esa politsiyaning ruhoniylarga, cherkovga qarshi jazo choralari Germaniyada cherkov ta'sirini zaiflashtirish o'rniga, aksincha uning o'sishiga yordam berdi. Germaniyada katolik ruhoniylarning alamzadaligi va Rim katolik cherkovining kamsitilganligi katolik «Markaz» partiyasining obro'sini yanada oshirib yubordi. Reyxstagda bu partiya vakillarining soni ko'payib, 63 kishidan 91 kishiga yetdi.

Lekin Bismarkning «Markaz»ga qarshi kurashi uzoq davom etmadi: 1876- yilda antiklerikal qonunlar chiqarish to'xtatildi.

Bismark ishchilar harakatining o'sishini pruss yunkerlari hukmronligi uchun asosiy xavf deb bilib, politsiya zulmini kuchaytirdi, bu sohaga davlat apparatining butun kuchini ishga soldi, ishchilar harakatiga hujum qildi.

Sotsialistik harakat va favqulodda qonun

Sanoat rivojlanishi bilan birga ishchilar sinfi ham o'sdi va sotsialistik harakat kuchaydi. 1875- yilda eyzenaxchilar

bilan lassalchilar bir partiyaga, Germaniya sotsialistik ishchi partiyasiga birlashdilar. Aslida bu partiya Sotsial-demokratik partiya deb atalardi. Partiyaning kuchayishi hukmron doiralarni tashvishga solib qo'ydi. 1877- yilda Reyxstagga o'tkazilgan saylovda sotsialistlarning erishgan muvaffaqiyati ularni ayniqsa qattiq cho'chitib yubordi. 498 ming saylovchi sotsial-demokratlar uchun ovoz berdi. Natijada ular Reyxstagda 12 ta o'rinni egalladilar.

1878- yilda hukumat Reyxstagdan sotsialistlarga qarshi qonunni tasdiqlatib oldi, unga «favqulodda qonun» deb nom berildi. Qonunga bunday nom berilishining sababi, u sotsialistlarni favqulodda og'ir sharoitga solib qo'yib, partiya faoliyatini amalda taqiqlab qo'ygani edi.

«Favqulodda qonun» sotsialistik gazeta va jurnallar nashr etishni taqiqladi. Bunday ruhdagi adabiyotlarning hammasi musodara qilindi. Partiya xodimlarini qamoqqa olish va ko'p hollarda sud qilmasdan ma'muriy yo'l bilan surgun qilish boshlanib ketdi. Sotsialistlarning g'oyaviy ta'siri ostida bo'lgan kasaba uyushmalari va hatto, ishchilarning sport jamiyatlari ham yopildi.

Berlin, Gamburg, Leypsig, Shtutgart va boshqa yirik markazlarda «kichik qamal holati» joriy qilindi. «Favqulodda qonun» sotsial-demokratlar partiyasi vakillarini sarosimaga solib qo'ydi. Hatto, uning rahbarlari ham dastlabki vaqtlarda nima qilishlarini bilmay qoldilar. So'ngra esa partiyaning yashirin tashkilotlarini tuza boshladilar.

1888- yilda imperator Vilgelm I vafot etdi. Fridrix III ning 100 kunlik hukmronligidan keyin oldingi imperatorning 28 yoshli nevarasi *Vilgelm II* (1888—1918) taxtga o'tirdi. U faol siyosat yuritdi. Natijada Bismark bilan munosabati yomonlashdi. 1890- yil martida Bismark iste'fo berishga majbur bo'ldi. Ishchilarning qudratli harakati (1890- yilda 266 marta stachka bo'lib, ularda 38 ming 536 kishi qatnashgan edi) «qattiqqo'l kansler»ni «supurib

tashlash» imkonini yaratib berdi. Bismark «yiqitilgandan» keyin sotsialistlarga qarshi qaratilgan «favqulodda qonun» ham barbod bo'ldi. Bismarkning o'rniga pruss generali *Kapriivi* kansler qilib (1890—1894) tayinlandi. Vilgelm II Bismarkka qarshi kurashi vaqtida ishchilarga bergan ko'pdan-ko'p va'dalaridan juda oz qisminigina bajardi. 1891- yil iyunida yakshanba «dam olish kuni» qilib belgilandi, xotin-qizlar uchun 11 soatlik ish kuni joriy qilindi. Fabrika, zavodlarda 13 yoshdan kichik bo'lgan bolalarni ishlatish taqiqlandi.

Prussiyada 1891- yilda progressiv daromad solig'i joriy qilindi, bu soliq yer egalariidan ko'ra ko'proq moliya kapitali manfaatlariga xizmat qildi.

1894—1900- yillarda Imperiya kansleri lavozimini imperatorning qarindoshi bo'lgan katta yer egasi *X. Gogenloe* egalladi. Bu davrda kuchlarni birlashtirish siyosati olib borildi. Sotsialistlarga qarshi kurash avj oldi. Saksoniyada umumiy saylov bekor qilindi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Yevropa xaritasidan Germaniya imperiyasini toping va uning tarkibiga kiruvchi yirik davlatlarni aniqlang.
 2. Germaniya imperiyasining birlashish sabablarini so'zlab bering.
 3. Pruss yunkerlari Germaniya imperiyasida qanday hukmron bo'lib oldilar?
 4. Germaniya sanoatining tez rivojlanishiga sabab nima edi?
 5. Kapitalizmga xos qaysi hodisalar monopoliyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi?
 6. Kapitalistik monopoliya nima?
 7. 1871- yil qabul qilingan Imperiya konstitutsiyasining siyosiy ahamiyati haqida gapirib bering.
 8. «Kultur kampf» to'g'risida nimalarni bilasiz?

Bu so'zlarning ma'nosini aniqlang: Bundesrat, Reyxstag, yunker, favqulodda qonun, imperator, kansler, Ittifoq Kengashi.

Bu nomlarni yodda tuting: Vilgelm I, Bismark, Rur, Saar, Vilgelm II, Kapriivi, Gogenloe.

7- §. Germaniyaning tashqi siyosati

Germaniyaning Yevropadagi siyosati

Bismark Germaniyaning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. 1873- yilda Germaniya Rossiya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq to'g'risida shartnoma — «Uch imperator shartnomasi»ni tuzdi. Bismark 1875- yilda Fransiyani 1871- yildagiga nisbatan ham ko'proq qaramlikka olish va uni Germaniya vassali holiga tushirish uchun unga qarshi urush boshlashga tayyor turgan edi. Bismark yangidan vujudga kelgan fransuz armiyasini tortib olingan Elzas va Lotaringiya uchun qasos oluvchi armiya deb bilib, Fransiya hali batamom mustahkamlanib olmasdan, u bilan urush qilishga shoshilmoqda edi. Rossiya bilan Angliya Germaniyaning kuchayib ketishini istamas edilar, shu sababli Bismarkka Fransiyani yangidan tor-mor keltirishiga yo'l qo'ymasliklarini bildirib qo'ydilar. Germaniya chekindi.

Bismark ikki frontda urush qilishdan qo'rqardi. U «koalitsiyalar dahshati» tinchimni buzayapti, deb haqiga ko'chgan edi. U ayniqsa, Rossiya bilan urushishdan qo'rqardi. 1879- yilda Germaniya Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. Bismark Rossiyaning Fransiya bilan yaqinlashuviga xalaqit berish niyatida 1881- yili «Uch imperator ittifoqi»ni tiklashga muvaffaq bo'ldi. 1882- yilda Avstriya-Vengriya — Germaniya ittifoqiga qo'shimcha qilinib, Germaniya va Avstriya-Vengriyaning Italiya bilan ittifoqi tuzildi. Italiyaning ittifoqqa kirishiga sabab, Fransiya bilan munosabatlarining keskinlashuvi edi. Chunki Fransiya Italiya da'vo qilib yurgan Tunisni 1881- yilda bosib olgan edi. Avstriya-Vengriya imperiyasi esa bu vaqtda Bolqon yarimorolida Rossiya bilan raqobatlashmoqda edi. Shunday qilib, uchta teng maslakdosh kuchlar birlashib, 1882- yili harbiy ittifoq, «Uchlar ittifoqi»ni tuzishga erishdilar.

Endilikda Germaniya Fransiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan koalitsiyaga bosh bo'lib oldi. Bismark o'z siyosiy rejalarini amalga oshirish yo'lida Rossiyani asosiy g'ov deb bilar, qanday bo'lmasin, Rossiyaga zarar yetkazishni mo'ljallardi. Shu maqsadda Angliya bilan Turkiyani Rossiyaga qarshi gij-gijlay boshladi.

Bismark bir vaqtda ikki frontda, ya'ni ham Fransiya, ham

Rossiyaga qarshi kurashish oson emasligini anglardi. *Karl XII* va *Napoleon I* kabi mashhur sarkardalar ham Rossiyada mag'lubiyatga uchraganini yaxshi bilardi. U shuningdek, chorizm Rossiyaning taraqqiyotiga g'ov bo'layotganini ham tushunardi. Shuning uchun qulay payt kelganda Rossiyadagi reaksiyonchilarni qo'llab-quvvatlashga harakat qilardi. Uning ishini davom ettirgan Kaprivi Germaniyaning tashqi siyosatiga juda muhim o'zgarishlar kiritdi. Kaprivi sanoat egalari ostida Avstriya-Vengriya bilan savdo shartnomasi tuzdi. 1894 yili Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan ham shunday shartnomalar tuzildi. Mamlakatga qishloq xo'jalik mahsulotlari keltirishdan olinadigan bojlar birmuncha kamaytirildi. Kaprivi siyosati va ayniqsa, Rossiya bilan savdo shartnomasining tuzilishi yunkerlarni g'azablantirib yubordi. Ular nima bo'lsa ham, «liberal» kanslerni olib tashlashni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ydilar. 1893- yilda katta yer egalari tomonidan tuzilgan «Qishloq xo'jayinlari ittifoqi» syezdida yunkerlar Kaprivining «yangi» yo'lga qarshi norozilik bildirdilar. 1894- yilda Kaprivi iste'fo berdi.

1891- yilda shovinistik tashkilot — German ittifoqi tuzildi. «Qirol Prussiya ustida, Prussiya Germaniya ustida, Germaniya dunyo ustida» degan shior ilgari surildi.

Germaniyaning mustamlakachilik ekspansiyasi

Germaniya Yevropa urushiga tayyorlanish bilan bir vaqtda yirik german kapitalining talabiga ko'ra mustamlakalar bosib olishga ham kirishdi. 1882- yili

Bremen savdogarlari Afrikaning janubi-g'arbiy sohilidagi Angra — Peken buxtasiga keldilar. Ular 200 ta eski miltiq va 2000 marka badaliga yerli qabila boshlig'idan anchagina hududni sotib oldilar. Germaniya bu yerni 1884- yil aprelida o'z protektorati deb e'lon qildi. Afrikaga amaldorlar va soldatlar yuborildi. Ularning yangi yerlarni bosib olishga urinishi mahalliy xalqning qattiq qarshiligiga uchradi. Mustamlakachilar qurol ishlatdilar. Nemis qo'shinlari afrikaliklar manziliga to'satdan hujum qilib, aholini vahshiylarcha qirdilar.

1884- yil yozida Germaniya Afrikaning o'rta qismidagi Togo va Kamerun hududlarini, 1884- yil avgustda Gvineyaning shimoliy qismini va unga yondosh orollarni bosib oldi. 1885- yilda esa Afrikaning sharqiy qismidagi hududlarni va Zanzibar oro-

lini zabt etdi. Bu hudud «Germaniya Sharqiy Afrikasi» degan nom oldi.

XIX asrning 90- yillarida Germaniyaning tashqi siyosatida yangi davr boshlandi. German hukmron doiralari o'z hududlarini kengaytirish uchun urushga tayyorlana boshladilar. Imperator Vilgelm I davrida Bismark imperiya siyosatining to'la huquqli rahbari edi. Vilgelm I ning nabirasi Vilgelm II taxtga o'tirgach, ko'p narsa o'zgardi.

Vilgelm II Germaniya hukmron doiralari bosqinchilik siyosatining «jarchisi» va faol amalga oshiruvchisi bo'lib chiqdi. Sosial-demokratlarga qarshi kurashda Bismark usullarining muvaffaqiyatsizlikka uchraganligi, tashqi siyosatda, ayniqsa rus-german munosabatlarining yomonlashuvi Bismark siyosatiga qarshi kuchlarni yuzaga keltirdi. Qat'iyroq mustamlaka siyosati yurgizishni talab qilgan yirik burjuaziyaning harakati bilan 90- yillarning oxirida Xitoyning Szyaochjouvan ko'rfazi va Shandun yarim-orolining bir qismi bosib olindi. O'sha vaqtdayoq Germaniya Tinch okeandagi Karolina, Mariana orollarini va Samoa orolining bir qismini egallagan edi. Bundan oldin, 1885- yilda u Marshall orollarini qo'lga kiritgan edi.


1900- yilda Germaniya boshqa G'arb davlatlari bilan birga Xitoyda milliy ozodlik harakatini bostirishda ishtirok etdi. Xitoyda german jazo qo'shinlari general Valderze boshchiligida deyarli qurolsiz xitoyliklarga nisbatan mudhish yovuzliklar qilib, ayollar va bolalarni o'ldirdi. Imperator Vilgelm II Xitoyga qo'shin yuborar ekan, yuzsizlik bilan shafqat qilmaslikni, asir olmaslikni tavsiya qildi, «toki bundan buyon, hatto ming yildan keyin ham Xitoy nemisga o'la qarolmaydigan bo'lsin» dedi. Chunki Xitoyda nemis vakili Ketteler o'ldirilgan edi. 1895- yilda Shimoliy dengizni Boltiq dengizi bilan tutashtirgan Kil kanali ochildi. 1898- yilda Reyxstag harbiy flot qurishning keng dasturini qabul qildi.

Afrikada «bizni quruq qoldirishdi» deb hisoblagan german hukmron doiralari «qo'ldan ketganlarning» o'mini Yaqin Sharqda to'ldirmoqchi bo'ldi. Ular Sharqqa intilganlarida Kichik Osiyo, Suriya, Mesopotamiya va Falastinda joylashib olmoqchi edilar, chunki bu yerda dunyodagi eng boy neft konlari, g'alla va paxta xomashyosi bor edi. Nemis bankiri Simens tashabbusi bilan Berlinni Fors qo'ltig'i bilan bog'lovchi temir yo'l qurish rejasi tuzildi.

Germaniya Sharqqa, Turkiyaga, slavyan xalqlariga qarshi yurishni «Sharqqa yurish» shiorida ifodaladi. 1898 -yilda Vilgelm II «Hazrati Iso qabri»ni ziyorat qilish bahonasi bilan Falastinga bordi. U safar vaqtida Turkiya sultoni bilan uchrashib, reja bo'yicha Bosfordan Kichik Osiyo orqali Bag'dodga va undan Fors qo'ltig'igacha temir yo'l qurish to'g'risida kelishib oldi. Bu yo'l «Bag'dod temir yo'li» deb ataldi. 1903- yilda Turkiya bilan Germaniya o'rtasida bu to'g'rida yakunlovchi bitim imzolandi.

Angliya Germaniyaning Turkiyaga yaqinlashuvidan tashvishga tushib qoldi, chunki uning o'zi Arabiston bilan Mesopotamiyani

BAG'DOD TEMIR YO'LI



bosib olish niyatida edi. Bundan tashqari, nemislarning Fors qo'ltig'iga chiqishi Angliyaning Hindistondagi manfaatlarini xavf ostida qoldirardi. Angliya «Bag'dod temir yo'li»ning Fors qo'ltig'iga chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun 1901- yilda Quvayt ustidan protektorat e'lon qildi.

Nemis hukmron doiralari rejaları boshqa qudratli davlatlar — Fransiya va Rossiya o'rtasida keskin nizo chiqishiga sabab bo'ldi. Germaniya zo'r berib qurollanishni kuchaytirib yubordi. Armiya soni keskin ko'paytirildi. Reyxstag katta harbiy kemalar qurishga va suv osti floti uchun yangidan-yangi mablag'larni tasdiqlab turdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Nima uchun Germaniya bosqinchilik harakatlarini boshlab yubordi?
 2. «Uchlar ittifoqi»ni tuzishdan maqsad nima edi?
 3. Sotsialistlarga qarshi «Favqulodda qonun» chiqarishga sabab nima edi?
 4. Nima sababdan Bismark Rossiyaga qarshi urush ochishdan qo'rqardi?
 5. Germaniya imperiyasining o'taketgan tajovuzkorligining asosiy sababi nimada edi?
 6. Imperator Vilgelm II ning «Sharqqa yurish» boshlashdan maqsadi nima ekanligini aniqlang.
 7. «Bag'dod temir yo'li»ning iqtisodiy, siyosiy va strategik ahamiyati haqida so'zlab bering.

Bu so'zlarning ma'nosini aniqlang: «Uch imperator ittifoqi», Pangerman ittifoqi, Bag'dod temir yo'li.

Bu sanalarni esda tuting: 1873 — Uch imperator ittifoqi, 1882 — Avstriya-Vengriya — Germaniya — Italiya ittifoqi, 1891 — German ittifoqi, 1895 — Kil kanalining ochilishi.

Biz uchun mamlakatimizda Germaniyaning mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalari qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

Chunki ular tayyorlagan mahsulotning boshqalarnikidan farqi katta. Ular hech qaysi sohada bir kunlik mahsulot ishlab chiqarmaydi. Misol izlab uzoqqa borishning hojati yo'q. Ota-bobolarimiz o'tgan asrda Germaniyadan «Zinger» degan tikuv mashinalari olib kelishgan. Ba'zi xonadonlarimizda shu mashinalarni hozir ham ishlatishayapti.

Asrimiz boshidayoq «Simens» firmasi Toshkentdagi birinchi telefon stansiyasini barpo qilishda ishtirok etgan edi.

ISLOM KARIMOV


8- §. XX asr boshlarida Germaniyadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat

Iqtisodiy taraqqiyot Germaniyani birlashtirishning tugallanishi yagona ichki bozorni vujudga keltirdi. Sanoatning o'sishiga Germaniya Fransiyadan olgan 5 mlrd. frank kontributsiya (tovon) yordam berdi. Ko'p sonli korxonalar Germaniyadan oldinroq industrilashtirish yo'liga o'tgan davlatlardagiga qaraganda ancha mukammal, yuqori unumli eng yangi texnika bilan qurollantirildi. Sanoatning tez rivojlanishi hamda ishlab chiqarishning tobora yirikroq korxonalarda tezlik bilan to'planish jarayoni iqtisodiyotning eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Masalan, Germaniyada 1895- yilda har mingta sanoat korxonasidan 6 tasi yirik, ya'ni 50 dan ortiq ishchisi bo'lgan korxonalar edi.

1907- yilda Germaniyada 1000 va bundan ortiq ishchisi bo'lgan korxonalar 586 ta edi. Jami ishchilar sonining qariyb o'ndan bir qismi (1,38 mln.), jami bug' va elektr kuchlarining qariyb uchdan bir qismi shu yirik korxonalarda edi. Moliya kapitali va banklar bir hovuch eng yirik korxonalarning bunday ustunliklarini tag'in ham oshirib, millionlab mayda va o'rta korxonalarni bir necha yuz «millioner» moliyachilarga qaram qilib qo'ydi.

Germaniya qudratli industrial davlat bo'lib qoldi. Moliyaviy guruhlar yana ham ko'proq foyda olishga harakat qilib, o'z kapitalarini rivojlanayotgan sanoatga sola boshladilar.

Ko'mir qazib chiqarish, cho'yan va po'lat eritishning deyarli barchasini 4 ta monopoliya nazorat qilardi. Monopolistlarning



Berlindagi markaziy elektrostansiyaning mashina zali. 1890- yil

2 ta guruhi deyarli butun kimyo sanoatini, yana ikkitasi elektr sanoatini nazorat qilardi.

1914- yilga kelib Germaniya 1871- yilga qaraganda sanoat mahsulotlarini deyarli 7 barobar ko'p ishlab chiqarmoqda edi. Sanoat ishlab chiqarishning hajmi bo'yicha u Fransiyani orqada qoldirdi. XX asr boshlarida esa Angliyadan o'zib ketib, jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o'ringa chiqib oldi.

Qishloq xo'jaligida barcha haydov yerlarining 25 foiziga ega bo'lgan pomeshchiklar yollanma ishchi kuchidan, eng yangi mashinalar va o'g'itlardan foydalana boshladilar, kam yerli dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning yarim feodal usullaridan voz kechilib, zamonaviy munosabatlar joriy etildi.

XX asr boshlarida Germaniyadagi ishga yaroqli aholining asosiy qismi sanoatda band bo'lib, ishchilar sinfining ko'pchiligini tashkil etar edi. Mehnat unumdorligi 40 yil ichida deyarli ikki baravar oshdi. Lekin ish haqi bor-yo'g'i 15 foiz o'sdi. Umuman, yollanma mehnatchilar bilan yirik mulkdorlar o'rtasidagi har tomonlama ziddiyat chuqurlashib boraverdi.

Ijtimoiy harakat Monopolistik kapital hukmronligi ishchilarning ahvolini yanada yomonlashtirdi. Nemis ishchilarining ish haqi ingliz va Amerika ishchilarining ish haqidan ancha past edi. Germaniyada 1900 — 1903-yillarda yuz bergan iqtisodiy inqirozlar ishchilar ahvolini og'irlashtirdi va katta ishsizlikka sabab bo'ldi.

Germaniya ishchilarining korxonaga qarshi qattiq

kurashlari natijasida ish haqini bir qadar oshirishga va ish kunini bir oz kamaytirishga erishildi.

1900- yilda ish kuni 11—12 soat davom etgan bo'lsa, 1904—1914- yillarda ish kuni 9,5 soatga tushirildi. Eksploatatsiya kuchaytirildi. Ayniqsa, ayollar, o'smirlar va bolalar qattiq ezib ishlatilar edi. Ular erkaklarga qaraganda 30—50 foiz kam haq olardilar.

Ishchilar turmush sharoitining yomonlashuvi mamlakatda noroziliklarning o'sishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, 1905 — 1907- yillardagi Rossiyadagi inqilob nemis ishchilar harakatiga ta'sir etdi. Ish tashlash va boshqa noroziliklar kuchaydi.

Byulovning ichki siyosati 1900- yilda keksayib qolgan kansler Gogenloe (1894—1900) o'rnini *F. Byulov* (1900—1909) egalladi. U Prussiyada saylov tizimini demokratlashtirish haqidagi talabni qat'iy rad etdi. 1902- yilda yunkerlarga xushomad qilib, Reyxstag tasdig'idan yangi bojxona tarifini o'tkazib oldi. Bu tarif sotsial-demokratlar tomonidan «sudxo'rlik tarifi» deb ataldi. Joriy qilingan bojxona tarifi yunkerlarga yiliga kamida qo'shimcha ravishda 1250 mln. marka foyda keltirardi. Nemis mehnatkashlariga yirik pomeshchiklar foydasini ko'zlab yangi o'lpon solindi. Reaksion prusschilik ruhi Byulovning milliy siyosatida ayniqsa yorqinroq namoyon bo'ldi. Shlezvigda va Polsha viloyatlarida milliy maktablar yopib qo'yildi, muassasalarda va jamoat joylarida daniyaliklar va polyaklar tilida gaplashish taqiqlandi, shaharlar va qishloqlarning azaliy nomlari o'zgartirildi. Polyaklarning yerini majburan tortib olib, nemislarga berish haqida qonun chiqarildi. 1906- yilda 100.000 dan ortiq polyak bolalari norozilik sifatida maktablarga borishdan bosh tortdilar. Polyak o'quvchilarga qarshi qatag'on boshlandi. Elzas va Lotaringiyada qattiq tartib o'rnatildi, bu yerda nemis ma'murlari fransuzlarning milliy or-nomusini, madaniyatini tahqirladilar.

Byulov kanslerligi davrida ommaviy ijtimoiy harakatning yanada yuksalishidan xavotirlanish yunkerlar va yetakchi partiyalarni yanada yaqinlashtirdi.

Betman-Golvegning ichki va tashqi siyosati

Byulov iste'fosidan so'ng Imperiya kansleri qilib, prussiyalik amaldor *Betman-Golveg* (1909—1917) tayinlandi. Betman-Golveg kanslerligining dastlabki yillarida Reyxstagda

markazning konservatorlar bilan «qora-moviy bloki»ga tayanib ish ko'rdi. Bu reaksiya blok har qanday islohotlarning dushmani edi.

1907- yilgi rus-ingliz bitimi imzolanganidan so'ng ingliz, fransuz, rus polisiyasi vujudga keldi. Tashqi siyosiy vaziyat mutlaqo Germaniya foydasiga emas edi. Mamlakat ichidagi hukmron sinflar ham dahshatli voqealar arafasida turardi. Ichki ziddiyat tobora keskinlashayotgan va xalqaro ahvol jiddiy tus olayotgan bir paytda german hukmron doiralari yangi mustamlakalar bosib olish uchun ochiqdan-ochiq harakat boshladilar. 1911- yil yozida *ikkinchi Marokash janjali** boshlandi. Fransiya bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlar shunchalik keskinlashdiki, hatto urush xavfi paydo bo'ldi. Faqat Angliyaning do'q-po'piskasigina Germaniya hukumatini chekinishga majbur etdi.

Ikkinchi Marokash janjalidan keyin xalqaro ahvol yanada keskinlashdi. Kundan-kunga jahon urushi xavfi o'saverdi. Germaniya o'zining Antanta ittifoqidagi raqiblarini tor-mor etishga tayyorlana boshladi.

Ikkinchi Marokash janjalidan foydalangan hukumat Reyxstag orqali tinch davr uchun armiya tarkibini yangidan ko'paytirish haqidagi qonunni tasdiqlatib oldi. 1913- yilda rekrut



Drednout qurilishi

* 1905- yilda birinchi Marokash janjali bo'lib o'tgan edi.

kontingenti yana 29000 kishiga ko'paytirilib, ikkita yangi armiya korpusi tashkil qilindi. Shu bilan birga Reyxstag 8 ta linkordan iborat uchinchi eskadra tashkil etishga qaror qildi. Bu narsa dengiz kuchlari xarajatini 107 mln. markaga ko'paytirdi.

1914- yilda Germaniyaning drednoutlari soni 21 taga yetdi. Nemis suv osti floti, yangi qal'alar qurila boshlandi, eskilari ta'mirlandi, armiyani qurollantirish kuchaytirildi. Katta harbiy xarajatlarga mablag' topish uchun hukumat yangi soliqlar joriy qila boshladi.

Stachkachilik harakati va Sotsial-demokratik partiyadagi ahvol

Moliya oligarxiyasining zo'ravonligi sharoitida XX asr boshlaridan e'tiboran Germaniya sotsial-demokratlar partiyasi xalqning ahvolini yaxshilash, mamlakat

hayotini demokratlashtirish uchun reaksiya va militarizmga qarshi chiqishlarini kuchaytirdi. Partiya a'zolarining soni 1900- yildan 1913- yilgacha taxminan 3 baravar ko'payib, 1 mln. kishiga yetdi. GSDP ko'proq kasaba uyushmalari va kooperatorlarga tayanardi. 1912- yilda Reyxstagga bo'lgan saylovda saylovchilarning 34,8 foizi GSDPni yoqlab ovoz berdi. Reyxstagdagi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlaridagi sotsial-demokratlar soni ko'paydi.

1905- yilda mehnat sharoitini yaxshilashni talab qilgan eng yirik ish tashlash o'tkazildi. Rur konchilari ishtirokida 1906- yilda Gamburda mehnatkashlarning huquqlari cheklanishiga qarshi mamlakatda birinchi ommaviy-siyosiy ish tashlash bo'lib o'tdi. Saksoniya va Prussiyada namoyishchilarning politsiya bilan to'qnashuvlari yuz berdi. Ko'mir qazuvchilarning ommaviy ish tashlashi kengaydi. Qurolli kuchlarning ko'paytirilishiga va urush xavfiga qarshi butun mamlakat bo'ylab miting va stachkalarining qudratli to'liqini bo'lib o'tdi.

Inqirozning yetilishi

XX asrning dastlabki yillarida Germaniyada boshlangan ommaviy ishchilar harakati 1905- yilgi rus inqilobi ta'siri ostida yanada kuchayib, 1914- yilgi jahon urushiga qadar tugatildi. Nemis mehnatkashlari monarxiya asoratiga qarshi, demokratiyani kengaytirish, Prussiyada umumiy saylov huquqini joriy qilish uchun tobora keskinroq kurash olib bordilar. 1910- yil martida Berlinda ana shu talablarni qo'ygan katta namoyish bo'lib o'tdi. O'tliq politsiya namoyishchilarni qilich bilan chopa boshladi. Ishchilar bu kunni Prussiyaning «qonli yakshanba»si deb atadilar.

2- jadval

Sanoat taraqqiyotining asosiy ko'rsatkichlari
(mln. tonna hisobida)

Davlatlar	Toshko'mir qazib chiqarish			Cho'yan ishlab chiqarish			Po'lat eritish		
	1870-y.	1900-y.	1913-y.	1870-y.	1900-y.	1913-y.	1870-y.	1900-y.	1913-y.
Angliya	110	225	287	6,0	9,0	10,3	0,2	4,9	7,7
AQSH	29,7	240,8	508,9	1,7	13,8	31,0	0,07	10,2	31,3
Germaniya	37,91	143,8	277,4	1,66	8,5	19,3	0,25	6,6	18,3
Fransiya	15,8	33,4	40,8	2,2	2,7	5,2	0,13	1,6	4,7

3- jadval

Rivojlangan kapitalistik davlatlarning jahon sanoati ishlab chiqarishidagi ulushi
(foiz hisobida)

Yillar	Angliya	AQSH	Germaniya	Fransiya
1870	31,3	23,3	13,2	10,3
1896 – 1900	19,5	30,1	16,6	7,1
1913	14,0	35,8	15,9	6,4

Shu yili Germaniyaning Moabit rayonidagi «Kuper» ko'mir firmasi ishchilari soatbay to'lanadigan ish haqini oshirishni talab qilib ish tashladilar, ularni qo'shni fabrika va zavodlarning ishchilari qo'llab-quvvatladi. 1912- yil Rur viloyatidagi kon ishchilarining 250000 kishilik stachkasi bo'lib o'tdi. Ishchilar 8 soatlik ish kuni joriy qilishni, ish haqini oshirishni, xo'jayinlarining mehnat birjalarini tugatishni talab qildilar. Hukumat Rurni politsiya va jandarmlar bilan to'ldirib yubordi, to'qnashuvlarda ko'plab ishchilar o'ldirildi va yarador bo'ldi.

Elzas va Lotaringiyada zo'rlik bilan «germanlashtirish» aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. 1913- yil noyabrda, o'tkazib kelingan milliy kamsitish siyosati va pruss harbiylarining qo'polligi Elzasning Ka Sabern shahri aholisining g'azabiga sabab bo'ldi. Shahar qamal qilinib, elzasliklarni qamash keng avj oldi. Bu harakatlar umumgerman siyosiy inqiroziga o'sib o'tish darajasiga yetgan edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlarida Germaniyaning iqtisodiy ahvoli qanday edi?
 2. Ishchilarning ahvolini og'irlashtiradigan sabablar nimalardan iborat edi?
 3. XX asr boshlarida kansler lavozimida bo'lgan Byulov, Betman-Golveglarning ichki va tashqi siyosatdagi faoliyatlari haqida so'zlab bering.
 4. Germaniyada siyosiy inqirozning boshlanish sabablari nimada edi?
 5. Nima uchun Germaniyada XX asr boshlarida ish tashlashlar ko'paydi? Bu vaqtda sotsial-demokratlar qanday faoliyat ko'rsatdilar?
 6. Moliya oligarxiyasi nima?
 7. Kapitalistik davlatlarning sanoat taraqqiyotidagi raqobatini jadvallardan aniqlang va bu haqda so'zlab bering.
 8. Birinchi jahon urushi arafasida Germaniyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli qanday edi?

Bu so'zlarning ma'nosini aniqlang: industrial davlat, monopoliya, mehnat unumdorligi, ekspluatatsiya, Byulov shovinizmi, «qora-moviy blok», drednout, militarizm.

Bahs yuriting: Germaniyadagi XX asr boshlaridagi ish kuni bilan hozirgini taqqoslang. Ekspluatatsiya hozir bormi?

3- b o b. ANGLIYA XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA

9- §. XIX asr oxirida Angliyaning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti

Angliyaning iqtisodiy sohada orqada qolishi

XIX asrning 70- yillarida Angliyada *Gladston* boshchiligidagi hukumat (1864—1874) rahbarlik qilib, u Angliyaning jahonda yetakchiligi o'zgarmasdir, degan tamoyilga asoslanib tuzilgan edi. Bu davrda Angliya sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan boshqa mamlakatlardan hali ham ancha ustunligini saqlab qolgan edi. U Germaniya, AQSH, Fransiyaning uchalasi ishlab chiqargan metallardan ham ko'p metall eksport qilardi. Angliyaning iqtisodiy qudrati va mustamlaka bozorida foydalanishi boshqa mamlakatlar 1873—1874- yillarda boshidan kechirgan yangi inqirozning boshlanishini bir qadar orqaga cho'zishga imkon berdi. Garchi, 1874- yildan Angliyaning eksporti kamaya boshlagan, baholar bir qadar pasayib, ishsizlik ko'paygan bo'lsa ham, Angliyada inqiroz 1878—1879- yillarda ro'y berdi.

Lekin, 1878—1879- yillardagi inqiroz ketidan biron-bir kattaroq sanoat yuksalishi bo'lmasdan, 1882- yil oxiriga borib, Angliya iqtisodiyoti navbatdagi inqiroz girdobiga tortila boshladi.

Angliya iqtisodiyotida tez-tez takrorlanib turgan inqirozlar Angliyaning sanoat sohasidagi hukmronligiga chek qo'yilishini tezlashtirdi. AQSH 1886- yilda po'lat eritish jihatidan, 1890- yilda cho'yan ishlab chiqarish, 1892- yilda paxta yetishtirish, 1899- yilda ko'mir qazib chiqarish jihatidan Angliyadan o'zib ketdi. Qo'shma Shtatlar o'zining ichki bozorida Angliyani «siqib chiqardi». Germaniya esa tashqi bozorlardagi va hatto, ichki ingliz bozoridagi raqobatda unga zarbalar berdi. 20 yil mobaynida, ya'ni 80- yillardan tortib XX asr boshlarigacha Germaniya eksporti 41 foiz ko'paygan, AQSH dan eksport qilish esa ikki martadan ham ziyodroq oshgani holda, ingliz eksporti bor-yo'g'i



Qurilishdagi ishchilar

8 foiz ko'paydi. 1874—1880- yillardagi Dizraelining ikkinchi hukumati ham asosan lendlordlar, bankirlar va anglikan cherkovi manfaatlarini ifoda qildi. 1880—1885- yillarda yana hokimiyat tepasiga chiqqan Gladston ham bu siyosatni davom ettirdi.

XIX asming 70—90- yillarida uzoq davom etgan agrar inqiroz Angliyaga jiddiy ziyon yetkazdi. Angliyada qishloq xo'jalik mahsulotlari inqiroz yillarida o'rtta hisobda ikki baravar kamaydi. Bu mayda fermerlarning daromadini kamaytirdi, ko'pgina mayda va o'rtta fermerlarni xonavayron qildi. Shu bilan birga fermerlarning konsentratsiyalashish jarayoni kuchaydi, yangi agrotexnika usullari joriy qilindi, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ancha o'sdi. Chorak asr davomida qishloq xo'jaligi ishchilarining soni 150.000 ga kamaydi. Aholi qishloqdan shaharga «oqib» kela boshladi. Bu bilan qo'shimcha ish kuchi vujudga keldi. Ingliz kapitalizmi sanoat sohasidagi oldingi birinchiligidan mahrum bo'lgan bo'lsa ham, juda katta foyda olish imkoniyatini saqlab qoldi, chunki uning ko'pdan-ko'p mustamlakalaridagi juda katta bozor-

lar Angliya qo'ldida saqlanib qolgan edi. Angliyaning sanoat monopoliyasi asta-sekin qo'ldan ketgani bilan, u boshqa monopoliyalardan — jahon vositachilik savdosidan, sug'urta ishi, bank ishi, kemasozlik ishidagi monopoliyalaridan mahrum bo'lgani yo'q edi. Angliya burjuaziyasi bu «maxsus» monopoliyalarni avvalo o'zining mustamlaka imperiyasi tufayli uzoq vaqt saqlab turgan edi. Katta-katta mustamlakalar tufayli London «omborxonasi» va jahon moliya markazi rolini o'ynardi. Shu mustamlakalar tufayli Angliya kapitalini eksport qilish g'oyatda kuchayib ketdi. Angliyaning chet ellarga har yili o'rta hisobda chiqaradigan kapitali 70- yillarning oxirlarida 22 million funt sterling bo'lgan bo'lsa, 80- yillarning oxiriga kelib, 106 million funt sterlingga yetdi. Chetga chiqarilgan kapitaldan olinadigan daromad XIX asr oxirida Angliya to'lov balansining hal qiluvchi moddalaridan biri edi.

Angliyaning mustamlakachilik siyosati

XIX asrdan boshlab Angliya dunyoning barcha qit'alarida juda katta hududlarni bosib oldi va ularni o'z mustamlakasiga aylantirdi. 1870- yillarda Angliya mustamlakalarining aholisi 200 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib qariyb 370 mln. kishiga yetgan edi. Bu davrda bosib olingan hudud 20 mln. kv. km. dan 33 mln. kv. km ga yetdi. Mustamlakalardan keladigan daromadlar olinadigan foydaning katta qismini tashkil etardi.

Angliyaning eng ilg'or sanoat mamlakati sifatidagi mavqei-ning pasayishi uni yangi mustamlakalar bosib olishni kuchaytirishga undadi. 70- yillarda konservatorlar partiyasi mustamlaka yerlarni kengaytirishni asosiy vazifa deb e'lon qildi. *B. Dizraeli* boshchilik qilgan (1874—1880- yy.) konservatorlar hukumati Osiyoda Belujistonni bosib oldi va Afg'onistonni bo'ysundirishga urindi. Angliyaning maqsadlaridan biri Turkmanistonga va O'rta Osiyoning boshqa viloyatlariga suqulib kirish edi. Ammo uning bu niyatiga Rossiya to'sqinlik qilardi. Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar O'rta Osiyo masalasida, Turkiya va Bolqon yarimorolini o'z ta'siriga kiritish uchun kurash olib borishi tufayli g'oyat keskinlashdi.

1877—1878- yillardagi Rossiya — Turkiya urushi davrida Angliya hukumati avval boshdanoq Turkiya tomonida turdi. Rus qo'shinlari

Konstantinopolga yaqinlashib qolganida Dizraeli norozilik bildirdi va Rossiya Angliyaga urush xavfini solyapti degan bahona bilan ingliz flotini Dardanelga yubordi.

Angliya Avstriya-Vengriyaning Rossiyaga qarshi qaratilgan Bolqon pozitsiyalarini kuchaytirishga intilgan Bismark yordami bilan Berlin kongressida San-Stefano sulh shartnomasining slavyan xalqlari milliy ozodlik kurashi zarariga, Turkiya foydasiga qaytadan ko'rib chiqilishiga muvaffaq bo'ldi. Angliya buning «evaziga» Turkiyadan Kipr orolini talab qildi va uni 1876- yilda anneksiya qildi.

1878- yil kuzida konservatorlar hukumati Afg'onistonga qarshi mustamlaka urushi — Ikkinchi afg'on urushini boshlab yubordi. 1879- yil bahorida Afg'onistonni tutqunlikda saqlovchi *Gandamak shartnomasini* qabul qilishga majbur etdilar. Lekin Afg'onistonda xalq qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Kobuldagi ingliz rezidenti barcha xodimlari va qo'riqchilari bilan qirib taslandi.

Bu qo'zg'olon afg'onlarning mustamlakachilarga qarshi xalq urushiga aylandi. Biroq, 1880- yilda ingliz mustamlakachilarining «qo'li baland keldi».

1877- yilda Angliyaning Transvaal va Oranj respublikasini anneksiya qilganligi e'lon qilindi. Natijada burlar qo'zg'olon ko'tardilar. 1881- yilda zulus qabilalaridan Majub-Xilf yonidagi mag'lubiyatga uchrash inglizlarni Afrikani istilo qilishni bir-muncha vaqt kechiktirib turishga majbur qildi.

1879- yilda Dizraeli hukumati Janubiy Afrikada zuluslarga qarshi navbatdagi qirg'in tadbirlarini o'tkazdi.

Angliyaning afg'onlarga, burlarga qarshi olib borgan mustamlakachilik urushlaridagi mag'lubiyati konservatorlarning mavqeini bo'shashtirib yubordi va Dizraeli hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi. 1880- yilda hokimiyat Gladston boshliq liberallar qo'liga o'tdi. Liberallar konservatorlarni tashqi siyosatda «qimmatga tushgan avantyuristik yo'l»ni tutganligi uchun tanqid qildi va xalqqa tinchlik o'rnatishni, byudjetni tejashni va islohotlar o'tkazishni va'da berdi. Bular quruq va'dalar edi. Amalda ular bosqinchilik siyosatini davom ettirdilar.

1882- yilda Angliya Misrni bosib oldi. Bu mamlakatning bosib

olinishi Angliyaning Suvaysh kanali ustidan hukmronlik qilishida, uning Afrikada yangi mustamlakalarga ega bo'lishida hal qiluvchi rol o'ynadi.

«Ehromlar mamlakati»ga «xo'jayin» bo'lishga Fransiya ham intilardi. Natijada ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar keskinlashdi. Inglizlar Sharqiy Sudanni istilo qilish uchun janubga siljildilar. U yerda mahalliy arablarning qarshiligiga duch keldilar. 1885- yilda sudanliklar Xartumni ishg'ol qilgan inglizlarni qurshab olib, qirib tashladilar. Angliya faqatgina 1896—1898- yillarda, ya'ni konservatorlar hukumati davrida «Fashoda inqirozi»da g'olib chiqib, Sudanning sharqiy qismini bo'ysundira oldi.

Angliya 80—90- yillar ichida Janubiy Afrikani ham o'ziga bo'ysundirish uchun kurash olib bordi. Bu masalada S. Rods katta rol o'ynadi.

80- yillarda Transvaalda oltin koni topildi. Ingliz kapitalistlari olmos va oltin konlarini bosib olib, ulardan oltin qazib chiqarishga kirishdilar.

1886- yili hokimiyat tepasiga *Solsberi* boshliq konservativ hukumat chiqib oldi va bosqinchilik harakatlarini qo'llab-quvvatladi.

Bu davrda G'arbiy va Sharqiy Afrikada Nigeriya va Somalini zabt etish tamomlangan edi. Ulardan Angliyaga qoramol va yung keltirib turilardi. 1888- yili Shimoliy Borneo ustidan protektorat o'rnatildi. 1890- yilda S. Rods Kap koloniyasi ministri bo'ldi. U «Uch K» g'oyasini ilgari surdi. (Keyptaun — Qohira — Kalkutta temir yo'li loyihasi).

Shu yili Yangi Gvineyaning janubi-sharqiy qismi bosib olindi. Afrikada esa Keniya bilan Tanganika zabt etildi, 1890- yilda Uganda ishg'ol qilindi.

Solsberi hukumati imtiyozli mustamlaka savdo kompaniyalari tuzish, ularga aholi ustidan ma'muriy-siyosiy huquqlar berish siyosatini yangidan tikladi. Mustamlaka ekspansiyasini bunday niqoblash, ekspansiyaga xususiy tashabbus tusini berish qulay edi. Buning uchun hukumat bevosita javobgar bo'lmas edi. Solsberi hukumati 1892- yili liberallar hukumatiga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Inglizlar Misrdan to Yaxshi Umid burniga qadar Qohira—Keyptaun loyihasini burlarga taklif qildilar. Ammo ular bu loyi-

hani rad etdilar. Sesil Rods Misrdan Birmaga qadar Angliya mulkini vujudga keltirish uchun harakat qildi.

Angliya 1895- yilda mag'lubiyatga uchrab, 1899- yilda Bur respublikasiga qarshi agressiyasini yana boshlab yubordi. O'zini himoya qilgan Transvaal hukumati 1899- yil 9- oktyabrda Angliyaga qarshi urush e'lon qildi. 11- oktyabrda unga Oranj respublikasi qo'shildi. U yerda Gollandiya, Fransiya va Germaniyadan ko'chib borgan kishilarning avlodi — burlar hukmronlik qilar edi. Burlar tub joy aholini shafqatsiz ekspluatatsiya qilganliklari uchun ulardan yordam ololmadilar. Angliya hukumati ketma-ket mag'lubiyatdan so'ng burlarning 50 minglik qo'shiniga qarshi 500.000 kishilik qo'shin tushirdi. Ingliz qo'shini fermalarga o't qo'ydi, chorva mollari va ekinlarni ayovsiz nobud qildi. Ingliz qo'mondonligining buyrug'iga ko'ra burlardan 100.000 kishi (ko'pchiligi ayollar va bolalar edi) qamab qo'yildi. Ularning 40 foizi ochlik va kasallikdan nobud bo'ldi. 1902- yil bahorida burlar taslim bo'ldilar va 1- iyunda sulh tuzildi. Angliya butun Janubiy Afrikaning «xo'jayini»ga aylandi. Angliya Transvaal va Oranj respublikalariga o'zini-o'zi boshqarish (dominionlik) huquqini berdi. 1910- yilda Transvaal va Oranj respublikasi inglizlarning oldingi mustamlakalari — Kap koloniyasi va Natal bilan bitta federatsiya bo'lib birlashdi. Bu federatsiya Janubiy Afrika Ittifoqi degan nom oldi. Transvaal bosib olinganidan so'ng inglizlar oltin konlaridan yanada ko'proq foyda ola boshladilar.

Suvaysh kanali ochilgandan keyin Angliya Hindistonga boradigan qisqa yo'lga egalik qilib oldi va dengizda hukmronlikka ega bo'ldi. 1892- yilda hokimiyat tepasiga yana liberallar qaytib keldilar. Gladston o'zining to'rtinchi hukumatini tuzdi. U «hammabop» dastur qabul qilishga harakat qildi. Kon ishchilariga 8 soatlik ish kuni, irlandlarga gomrul, ishlab chiqarishda mayib bo'lganda to'lovni oshirishni va'da qildi. Lekin bular amalga oshmadi.

1894- yil Gladston vafotidan keyin hukumatga boshliq bo'lgan konservator *Rozberi* eski liberalizmga, ya'ni yuqoridagi yon berishlarga butunlay xotima berdi. Lekin bu hukumat uzoq «yashamadi». Solsberi boshchiligida konservativ hukumat (1895—1902) tuzildi va u o'zining eski siyosatini davom ettirdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Angliya va Germaniyaning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi sanoat taraqqiyotini bir-biriga taqqoslang.
 2. Angliya sanoati rivojlanishdan nima sababdan o'rqada qola boshladi?
 3. Angliya kapitalizmi taraqqiyoti o'ziga xos qanday xususiyatlarga ega edi?
 4. Angliyadagi kapital qaysi mamlakatlarga va ko'pincha qanday holatlarda chiqarildi?
 5. XIX asr oxirida Angliyani mustamlakalar bosib olishni kuchaytirishga undagan sabab nima edi?
 6. Angliya-burlar urushi qanday tugallandi?

Bu nomlarni yodda tuting va so'zlarning ma'nosini aniqlang: Gladston, Dizraeli, San-Stefano, Dardanell, Gandamak, Transvaal, Oranj respublikasi, Majub-Xill, konservator, liberal, «Ehromlar mamlakati», Bur respublikasi, «Uch K», gomrul.

Bahs yuriting: Nega aholi qishloqdan shaharga qarab «oqadi»? Teskarisi ham bo'ladimi? Bizda qanday?

10- §. Irlandiya masalasi va ijtimoiy harakat

Irlandiya muammosi Angliyaning ichki siyosatidagi keskin masalalardan biri Irlandiya muammosi edi. Irlandiyaning ijaraga yer olib kun ko'ruvchi dehqonlari nihoyatda muhtojlikda yashardilar. Chunki yerlarni XVII asrdayoq ingliz pomeshchiklari o'zlariniki qilib olgan edilar. Irlandiyada bir necha marta ocharchilik bo'lib, minglab irlandiyalik ochlikdan o'ldi. Ko'pchilik irlandiyaliklar tirikchilik ko'yida Amerikaga ko'chib ketdilar. Ochlik, o'lim va ko'chib ketish natijasida aholi 1851-yildagi 6,5 mln. kishidan 1900- yilga kelib 4,5 mln. kishiga kamayib ketdi.

60- yillarning oxirida Irlandiya masalasi yana siyosiy inqirozga aylandi. Irlandiyada *fenilarning** tor-mor keltirilishi mil-

* **Fenilar** — 1848- yilda tuzilgan «Feniks» jamiyati nomidan olingan.

liy harakatda irland burjuaziyasining gegemonlik roli ko'tarilishiga yordam berdi. Irlandlar harakati boshida olsterlik protestant pomeshchik Parnell paydo bo'ldi. 1875- yili Parnell ingliz parlamentiga deputat bo'lib olib, Irlandiyaga mustaqil idora qilish huquqi berilishini (gomrul) talab qildi. Shuningdek, u ijaraning mustahkam bo'lishi, ijara haqining insof bilan olinishi va ijaraga olingan yerning qo'ldan-qo'lga erkin o'tishini ko'zda tutuvchi agrar islohotni amalga oshirishni talab qilgan hamjamiyat — irland muxolifat guruhini o'z atrofiga birlashtirdi.

Parnell muxolifati 70- yillar oxirida nufuzli kuchga aylandi, bu vaqtda irland dehqonlarining «Yer-suv ligasi» (1879- yil) degan ommaviy tashkiloti shu muxolifatga tayanch bo'lib turgan edi. Saflarida 250 mingdan ortiq a'zosi bo'lgan bu tashkilotga ishchilar orasidan chiqqan Maykl Devid degan sobiq feni rahbarlik qilardi. Ijarachilarning yerdan haydalisiga javoban «Yer-suv ligasi» Irlandiyadagi ingliz pomeshchiklariga qarshi ommaviy terror boshlab yubordi: pomeshchiklarning uy-joylariga o't qo'yildi, ekinlari payhon qilindi. Kurashning lendlordlarga va pomeshchiklar yerdan haydab yuborgan ijarachilarning yerlarini ijaraga olishga jur'at etganlarga *boykot** qilish singari usullari juda keng rasm bo'lib ketdi.

«Irland inqirozi»ning yangidan paydo bo'lishi Angliya hukumatining ahvolini yana ham yomonlashtirib yubordi. Hukumatning taklifiga muvofiq parlament ikkita favqulodda qonun: «Xabeas korpus akt»ni bekor qilish va «Qurol-yarog' qidirib shubha bilan tintuv qilish uchun politsiyaga huquq berish to'g'risida» qonunlar qabul qildi. Gladston irlandlarga gomrul o'rniga «Yer-suv akti»ni (1881- yil) taklif qildi. Bunda 15 yil muhlatga renta miqdorini adolat bilan belgilaydigan va ijarachiga o'z yer uchastkasini boshqa bir shaxsga o'tkazish huquqini beradigan komissiya tuzilishi ko'zda tutilgan edi. Hukumat lendlordlar yerini sotib olish va uni irlandlarga sotish huquqiga ega bo'lib oldi. Bundan faqat pomeshchiklar manfaat ko'rardi: ular yerni juda foydali shartlar bilan davlatga sotardi-

* **Boykot** so'zi xuddi shu davrda paydo bo'lgan. 1880- yilda dehqonlar pomeshchik Ch. Boykot yerini ijaraga olishdan bosh tortishgan.

lar yoki qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi tobora kamayadigan sharoitda 15 yil muddatga renta olardilar.

Irland «Yer ligasi» bu qonunga javoban boykotni kuchaytirib, pomeshchiklarni qo'rqitish kampaniyasini boshlab yubordi. Parnell parlament va'da qilgan gomrulni talab qildi, irland deputatlari Irlandiyaga qarshi qaratilgan qonunlarni muhokama qilganda obstruksiya taktikasini ishlatdilar. Ular har bir ovozga qo'yishda palataning ovoz berishini talab qildilar, minbarga birin-ketin chiqib, har qanaqa masala yuzasidan bir necha soatlab nutq so'zladilar. Umumpalataning majlislarini surunkasiga 35—40 soatlab davom qildirishga majbur etdilar.

Gladston bularning hammasiga ta'qib bilan javob berdi. Umumpalata raisi (spiker)ga notiqalarning vaqtini o'z bilganicha cheklash huquqi berildi. Parnell qamoqqa olindi. «Yer ligasi» taqiqlab qo'yildi.

Angliya hukumatining bu xatti-harakatlari yonib turgan olovga yog' quyish bo'ldi, xolos. Irland dehqonlari Parnellning da'vati bilan ingliz pomeshchiklariga renta to'lashdan bosh tortdilar. Taqiqlangan «Yer ligasi» o'rniga «Xotin-qizlar yer ligasi» tuzildi, u bilan bir qatorda «Oy yog'dusi bahodirlari», «Oq o'g'lonlar», «Yengilmas botirlar» degan va shu kabi an'anaviy nom bilan millatchi jangovar irland tashkilotlari paydo bo'ldi.

Irlandiyada tinchlik o'rniga ochiqdan-ochiq fuqarolar urushi xavfi kuchaydi. Shundan keyin Angliya liberallari Parnell va uning tarafdorlariga kelishishni taklif qildilar. 1881- yil oktyabrida Parnell bilan tuzilgan bitimga muvofiq, irland ijarachi dehqonlari pomeshchiklarga renta to'lashni davom ettirishlari va boykotni to'xtatishlari, pomeshchiklar esa ijarachilarning boqimandalarini «kechib yuborishlari» lozim edi. Bu bitim bilan irland liberal burjuaziyasi Parnell qo'li bilan dehqonlar harakatiga — Irlandiyadagi ozodlik harakati negiziga xiyonat qildi. Bu bitim irland xalqining ahvoli fojiali ekanini yana bir marotaba namoyish qildi. Aytish kerakki, irland xalqi o'zining mustaqillik uchun kurashida izehil, qat'iy rahbarlikdan mahrum edi.

1882- yil bahorida Irlandiyada inqiroz yangi kuch bilan

boshlanib ketdi. Parnellning xoinligi Irlandiyadagi mayda terrorchi guruhlarini faollashtirib yubordi. 1882- yil 6- mayda Dublinda Irlandiya ishlari bo'yicha stats-sekretar va Irlandiya lord-hokimi o'ldirildi. Shundan keyin, inglizlar tomonidan ta'qib va politsiya terrori boshlanganligiga javoban, irland qishlog'ida yangi «agrar terror» to'lqini ko'tarildi, shu bilan birga irlandlar Angliyaning o'zida ham terrorchilik harakatlarini boshlab yubordilar.

Irlandiya masalasini hal qilishdagi ojjizlik Gladston hukumatining, u bilan birga umuman liberallar partiyasining obro'sini tushirib yubordi.

XIX asrning oxiridagi jahon agrar inqirozi natijasida ingliz lendlordlari Irlandiyadagi o'zlarining yer-mulklarini sotishga majbur bo'ldilar. Angliya hukumati Irlandiyani faqat agrar mamlakat holda saqlab qolish siyosatini o'tkazganiga qaramay, Irlandiyaning shimoliy viloyati Olsterda sanoat rivojlana bordi. Ozodlik kurashchilarining safi kengaydi, ishchilar harakati kuchaydi, kasaba uyushmalari tuzila boshladi. 1898- yili Irlandiya sotsialistlar partiyasi tuzildi. Partiyaning rahbari ziyoli Jeyms Konnoli mustaqil Irlandiya Respublikasi tuzish ishlarini o'rgana boshladi.

Ijtimoiy harakatning kuchayishi

70- yillar boshidagi iqtisodiy yuksalish ishchilarning o'z moddiy ahvollarini yaxshilash uchun kurash olib borishlariga qulay sharoit yaratib berdi. Bunda 9 soatlik ish kunini talab qilib chiqqan binokorlar tashabbuskorlik ko'rsatdilar. Ularning kurashidan natija chiqmadi, lekin 1871- yilda Angliyaning shimoli-sharqiy rayonlaridagi mashinasoz ishchilar kurash boshladilar. Ular dastlab tarqoq holda ish ko'rgan bo'lsalar ham, keyinchalik «9 soatlik ish kuni uchun kurash ittifoqi» tuzdilar. Angliya mashinasozligi uchun bozor konyunkturasi baland darajada turganligi, shimoli-sharqiy sohillardagi ishchilarning liberal rahbarlardan «yuz o'girayotganligi» ko'rina boshladi. Sotsial-demokratik federasiya (SDF)ning ayrim a'zolari ingliz ishchilarining ish tashlash kurashiga katta e'tibor berdilar. Ularning faoliyati natijasida 1887 yil oktyabrida Shimoliy Angliya sotsialistlar federatsiyasi (10 bo'limdan iborat) tuzildi, bu federatsiya bir ozdan keyin SDF ga qo'shildi. Lekin SDF rahbarligining stach-

ka kurashi masalasida hech qanday aniq yo'li yo'q edi. SDF ning ba'zi bir arboblari ish tashlashlarni zararli deb hisoblashardi. Go'yo ish tashlashlar «bo'lg'usi inqilob» kuchlarini sochib yuborarmish va ishchilarni zaiflashtirarmish. SDF tred-yunionga nisbatan sektantlik bilan munosabatda bo'lganligi tufayli o'z tashviqotchilarining yutuqlarini mustahkamlay olmadi.

1890- yili Angliyada Mustaqil ishchilar partiyasi paydo bo'ldi. 1892- yilgi saylovda Mustaqil ishchilar partiyasi tarafdorlari parlamentga uch nomzodini: Keyr Gardi, Jon Byorns va Vi-lyanskini o'tkazdilar. 90- yillarning ikkinchi yarmida ingliz burjuaziyasining mehnatkashlar chiqishlariga qarshi hujumi kuchaydi. Bu davrda ishchilar harakati mag'lubiyatga uchradi.

**Tred-yunionlar
(kasaba uyushmalari)**

80- yillarning oxirida Angliyada ish tashlashlar birdaniga kuchayib, bu kurashga dastlab uyushgan ishchilar: mashinasozlar, quruvchilar va to'qimachilik sanoatida turli kasblarda ishlovchilar, ko'mir qazuvchilar, po'lat quyuvchilar va mashinistlar tortildi. Bu kurash shotland kon ishchilarining katta-katta va uzoqqa cho'zilgan ish tashlashlari, ishchilarning mustaqil siyosat yurgizishi uchun tashviqotni kuchaytirishga juda qulay zamin yaratib berdi. Tred-yunionlar kongressi ichida muxolifat paydo bo'ldi, bu muxolifat eski kasaba uyushmalari arboblardan parlamentda 8 soatlik ish kunini qonun bilan mustahkamlash uchun kurash olib borishni talab qildi. Muxolifatga sotsial-demokratlar federatsiyasining a'zolari Tom Mann va Jon Byornslar boshchilik qildilar. Tred-yunionlarning 1890-yilda Liverpulda bo'lgan kongressida muxolifat tegishli qaror (rezolyutsiya) chiqartirishga muvaffaq bo'ldi.



Tom Mann

Ishchilar harakatida bosh-

langan burilishning asosiy jihati malakasiz ishchilarni ish tashlash kurashiga tortish va ularning tred-yunionlarga kirishini uyushtirishdan iborat bo'ldi. Ist-Enddagi (Londonning kambag'allar yashaydigan rayoni) gugurt fabrikasida ishchi ayollarning 1888-yilda bo'lgan ish tashlashi bu harakatni boshlab berdi. Bu harakatning muvaffaqiyatli bo'lishiga sabab shu ediki, ishchi ayollar tred-yunionlarga birlashgan edilar. 1899- yil boshida Ist-Enddagi gaz zavodida g'alayonlar boshlandi. 8 soatlik ish kuni talab qilgan gaz sanoati ishchilariga Tom Mann bilan Jon Byorns yordamga keldilar. Ular ishchilarni uyushish zarurligiga, o'z kasaba uyushmalarini tashkil qilishlari, tashviqot ishlarini boshqa gaz korxonalariga ko'chirish zarurligiga qarata talabnoma yozdilar (8 soatlik ish kuni, smenalar sonini kamaytirish va ish haqini oshirish to'g'risida). Uchta gaz kompaniyasi ishchilarning talabiga ko'nishga majbur bo'ldi. Ishchilar uyushqoqlik bilan harakat qilishning kuchini o'z ko'zlari bilan ko'rdilar. Gaz korxonalari ishchilari ittifoqi birdaniga obro' qozonib, uning soni ham oshib ketdi.

1889- yil avgustida London portida ishlovchi dokerlardan 10 ming kishi umumiy ish tashlash boshlab, qat'iy soatbay ish haqi to'lashni, ayniqsa ortiqcha vaqt uchun ish haqi to'lashni va ishchilarni ishga yollaganda aniqlangan eng kam ish soati belgilashni



Londondagi Tauer ko'prigi

talab qildilar. Bu ish tashlash jarayonida ishchilarning dastlabki tred-yunionlari orasida eng ko'p sonli bo'lgan London porti dokerlarining tred-yunioni tashkil qilindi. Boshqa kasbdagi ishchilar o'z fondlari bilan ish tashlovchilarga madad berib turdilar, chet eldagi ishchilar ham ularni qo'llab-quvvatladilar.

Yangi tred-yunionlarning eski tred-yunionlardan farqi shu ediki, ular tashkilot tuzilishining sexchilik tamoyilidan voz kechdilar, bir kor-

xonadagi yoki bir sanoat tarmog'idagi hamma ishchilarni o'z saflariga qabul qildilar. Shu bilan ular ishchilarni ishlab chiqarishga qarab birlashtirishga asos soldilar.

Tred-yunion a'zolarining umumiy soni 1888- yildan 1892- yilgacha teng baravar oshdi va 750 ming kishidan 1500 ming kishiga yetdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asr oxirida Angliyaning siyosiy tuzumi qanday edi?
 2. «Irlandiya masalasi»ning mohiyati nimadan iborat edi?
 3. Irlandlarning «Yer ligasi» qanday faoliyat ko'rsatdi? Ular ingliz hukumati oldiga qanday siyosiy talablar qo'ydilar?
 4. Irlandiyada 1882- yilda bo'lib o'tgan inglizlarga qarshi «agrar terror»ning faollari kimlar edi?
 5. XIX asrning 70- yillarida Irlandiya ishchilarining ahvoli qay darajada edi? Ular qanday siyosiy va ijtimoiy huquqlarga ega edilar?
 6. XIX asr 80- yillarining oxirida Angliyada yangidan paydo bo'lgan tred-yunionlar eski tred-yunionlardan faoliyatlarining qaysi jihati bilan farq qilardilar?

Bu so'zlarning ma'nosini aniqlang: Fenilar, boykot, obstruksiya, terror, sektantlik, tred-yunion.

Bahs yuriting: Nega Irlandiya hanuzgacha mustaqillikka erisholmadi?

11- §. XX asr boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot

XX asrning boshida Angliya jahondagi eng qudratli va eng boy davlatlardan biri bo'lib, hali ham jahon savdosida birinchi o'rinni egallar edi. Okeandagi kemalarning deyarli yarmi Britaniya imperiyasi bayrog'i ostida suzardi. London jahonning moliyaviy markazi bo'lib, Angliyaning funt sterlingi jahon savdosidagi hisob-kitob uchun ishlatiladigan pul hisoblanardi.

Angliya sanoati XX asrning dastlabki 15 yilida XIX asrning so'nggi 10 yilidagiga nisbatan tez rivojlandi. Sanoatning

yangi tarmoqlari — kimyo va elektrotexnika sanoatida ishlab chiqarish ayniqsa tez o'sdi. Chunonchi, 1900—1913- yillarda cho'yan eritish 14,5 foiz, ko'mir qazib chiqarish esa 30 foiz o'sdi.

Biroq, jahon iqtisodiy raqobatida Angliya AQSH va Germaniyadan orqada qolaverdi. Bu qoloqlikning sababi industrilashtirish yo'liga Angliyadan keyinroq kirgan AQSH va Germaniya o'z sanoatida eng yangi mashinalarga va ishlab chiqarishning eng ilg'or texnologiyasiga egaligida edi. Eski texnikani yangisi bilan almashtirish uchun ko'p miqdorda yangi kapital sarflash kerak edi, biroq ingliz burjuaziyasi o'z kapitalini boshqa davlatlarga ko'proq chiqarishni afzal bildi. 1910- yilda chet ellardagi ingliz kapitali qariyb 3,7 mlrd. funt sterlingga yetdi. Bu kapital Angliyaga juda katta daromadlar keltirardi. Chetdan kelayotgan daromadlar 1912- yilda 176 mln. funt sterlingni tashkil etdi. Angliya «sudxo'r mamlakat»ga aylanmoqda edi. Ingliz burjuaziyasi chetdan olayotgan foydani mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga emas, balki unumsiz xarajatlarga, o'z boyligini ko'paytirishga va maishatga sarfladi. Bu ingliz iqtisodiyoti taraqqiyotining sekinlashib borishiga sabab bo'ldi.

Birinchi jahon urushi arafasida Angliyada 12 ta yirik bank barcha bank kapitalining 70 foizini o'z qo'liga olgan edi. Shu tufayli bu banklar iqtisodiyotda va moliya sohasida hukmronlikni egallagan edi. Angliya harbiy ehtiyojlarga katta mablag' sarfladi, u XX asrning dastlabki 14 yili mobaynida uch baravar ko'paydi.

Yollanma ishchilar ahvoli Ingliz burjuaziyasi o'zining jahon bozoridagi monopol mavqeiga tayanib, malakali ishchilarga katta ish haqi to'lashi oqibatida ko'plab malakasiz ishchilarning ahvoli keskin yomonlashib bordi.

Ishchilar turmush darajasining pasayib ketishiga narxlarning oshirilishi sabab bo'ldi. O'sib borayotgan doimiy ishsizlik ham ishchilarning daromadini qisqartirib yubordi. Bu xalq ommasining qashshoqlanishini kuchaytirdi. Korxonaga egalari ishlab chiqarish xarajatlarini ishchilarni kamaytirish hisobiga to'ldirmoqchi bo'ldilar. 1898- yilda Sanoat parlamenti ittifoqi tuzilib, uning faoliyati ancha kengaydi.

1900- yili Janubiy Uelsda hukumatning temir yo'lchilarning ish tashlashi bilan kasaba uyushmalarga hujumi boshlandi. Temir

yo'l kompaniyasi temir yo'lchilarning kasaba uyushmalaridan kompaniya ko'rgan zararni qoplashni talab qildi. 1902- yili lordlar palatasi Taff vodiysidagi temir yo'l xo'jayinlarining foydasini ko'zlovchi qaror qabul qildi. Bu qaror ishchilar harakatining uyushgan kuchi — kasaba uyushmalarni tugatishga qaratilgan edi.

Kasaba uyushmalarning faollashganligi va son jihatdan o'sganligi ishchilar harakatida siljish yuz berganini ko'rsatdi. Tred-yunionlarga a'zo bo'lganlarning soni 1900- yilda 1.955.700 kishi bo'lgan bo'lsa, 1913- yilga kelib 3.987.100 kishiga yetdi.

Birinchi jahon urushigacha ishchilar ahvoli nochorligicha qolaverdi. Ishchilar mustamlakachilik siyosatiga va Angliyaning urushda ishtirokiga keskin qarshilik bildirdilar.

**Balfur va Kempbell-
Bannerman hukumatlari.
J. Chamberlen**

Angliyada kapitalizm konsentratsiyasi bilan mamlakat siyosiy hayotida reaksiya kuchaydi. Solsberining konservativ hukumatida (1895—1902) mustam-

lakalar vaziri lavozimiga *Jozef Chamberlen* tayinlandi. U xalq ommasini mustamlakalarga ega bo'lish ingliz mehnatkashlariga foydali degan fikrga ishontirishga urindi.

Konservatorlar hukumati 1900- yil sentabrida parlamentni tarqatib yubordi va burlarga qarshi urushni muvaffaqiyat bilan tamomlaymiz degan shior ostida o'tkazilgan saylovlarda g'alaba qozondi. Tred-yunionlarning 1900- yilda Sadderschilda bo'lgan kongressi Angliyaning Janubiy Afrikada olib borayotgan urushini qoraladi. Urush tamom bo'lgach ingliz burjuaziyasi saflarida kurash kuchayib ketdi. Yirik sanoatchilar chetdan keltirilayotgan tovarlarga katta miqdorda boj solig'i joriy etishni talab qildilar. Chet davlatlar raqobatini yo'qotish maqsadida *Jozef Chamberlen* boj ittifoqi tuzishni targ'ib qildi. Mamlakat sanoatchilari orasida jiddiy kelishmovchilik yuz berdi, to'qimachilik, kemasozlik, ko'mir sanoati tarmoqlarining sanoatchilari boj solig'iga qarshi chiqdilar. Bosh vazir Solsberi iste'fo berdi. 1902- yil iyulida uning o'rnini *Balfur* egalladi. *Balfur Chamberlen* g'oyasiga xayrixoh bo'lsa-da, uni amalga oshirishga botina olmadi.

Liberallarning taktikasi o'z samarasini berdi. 1906- yil dekabridagi parlament saylovlarida liberallar ko'p ovoz oldilar. Hokimiyat *Kempbell-Bannerman* boshchiligidagi liberallar qo'liga

o'tdi. 1906- yili hukumat ishchilar harakatining tazyiqi ostida Taff vodiysining ishi yuzasidan chiqarilgan qarorni parlament orqali bekor qildi. Shu bilan birga ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar bo'lgan taqdirda ishchilarga haq to'lash to'g'risidagi oldingi qonunning amal qilish doirasini kengaytirdi. 1908- yilda yer ostida ishlayotgan konchilar uchun 8 soatlik ish kuni joriy qilish to'g'risida qonun va keksa ishchilar uchun nafaqalar to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, 70 yoshga yetgan ishchilarga nafaqa beriladigan bo'ldi.

Keksa va kasal Bosh vazir Kempbell-Bannerman 1908- yilda iste'fo berdi. Uning o'rniga liberal *Askvit* hokimiyatni boshqardi. Liberallar hokimiyat tepasida 1916- yilgacha turdilar. Moliya vaziri lavozimini *Lloyd Jorj* egalladi. 1910- yildagi saylovlarda ham liberallar g'alaba qozondilar.

Angliyaning tashqi siyosati

Liberallarning mustamlakachilik siyosati konservatorlar siyosatining bevosita davomi edi. Mustamlakalarda ommaviy chiqishlar, milliy ozodlik harakati kuchaydi. Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakatiga qarshi kurashda liberallarning mustamlakachilik siyosati yaqqol bilindi. Angliyaning liberallar hukumati 1905—1911- yillardagi Erondagi inqilobni bostirdi, Xitoyda 1911- yilgi inqilobga qarshi chiqqan reaksiyon kuchlarni qo'llab-quvvatladi.

Hukumat ayniqsa, Hindiston xalqlarini shafqatsizlik bilan jazoladi. 1906- yilda Hindiston Milliy Kongressi partiyasi Hindistonga o'z-o'zini boshqarish huquqini berishni talab qildi. Uning da'vati bilan ingliz tovarlariga boykot e'lon qilindi. Bu ingliz kapitalistlariga katta zarar yetkazdi. Hind xalqiga qarshi terror siyosati kuchaytirildi. 1907- yilda Hindistonda yig'ilishlar va matbuotga qarshi qat'iy qonunlar qabul qilindi. Yig'ilish qatnashchilarini jazolash kuchaytirildi, politsiya terrori natijasida turmalar mahbuslarga to'ldi. Hukumat mahbuslarga nisbatan tanjosi joriy qildi. Biroq, Angliya hukumati jazolashlar bilan maqsadga erishib bo'lmagligini anglab, birmuncha «yon berdi». 1909- yilda Hindistondagi qonun chiqaruvchi kengashlarning tarkibi kengaytirildi. Hind burjuaziyasining vakillari kengash tarkibiga kiritildi. Angliyadan ko'chib borgan inglizlar joylashgan

mustamlakalarda — Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrikada mustahkamlanib olgan milliy burjuaziyaning tazyiqi ostida hukumat bu mustamlakalarga o'z-o'zini idora qilish huquqini berdi. Bunday huquqqa 1866- yilda Kanada erishgan edi. 1900- yilda Avstraliya, 1907- yilda Yangi Zelandiya, 1910- yilda Janubiy Afrika Ittifoqi dominionlik huquqini oldi.

Angliya dominionlarida mustaqillik g'oyalarining o'sganligi Britaniya imperiyasining ichki siyosati susayib qolganligidan dalolat berdi. Bozorlar va mustamlakalar uchun kuchli davlatlar o'rtasida raqobatning kuchayib ketganligi Angliyaning xalqaro ahvolini ancha yomonlashtirdi. Ayniqsa, Germaniya bilan Angliya ziddiyatlari kuchaydi. Yosh, tez rivojlanayotgan Germaniya qator hududlarga da'vo qilmoqda edi. Ikki davlat o'rtasida dengizda qurollanish bo'yicha poyga boshlandi. Angliya Germaniyaga qarshi boshqa davlatlar bilan «til topishga» harakat qildi. 1901- yilda Panama kanali masalasida AQSH ga «yon berdi» va AQSH — Kanada chegara masalalarini hal qildi. 1902- yilga kelib Yaponiya bilan shartnoma imzoladi va unga katta moliyaviy yordam ko'rsatdi. 1904- yili Angliya bilan Fransiya o'rtasida shartnoma tuzilib, u Antanta nomini oldi. Angliya va Fransiya Misr, Marokash bo'yicha kelishib oldilar. 1907- yil 31- avgustda Angliya — Rossiya bitimi tuzildi. O'rta Sharq va Erondagi ziddiyatlar hal qilindi. 1912- yilga kelib Angliya va Fransiya Yevropada urush xavfi ro'y bergan taqdirda maslahatlashib harakat qilishga kelishib oldilar.

Angliyada ijtimoiy harakat

Mamlakat ijtimoiy harakatida ikki yo'nalish — inqilobiy va opportunistik kuchlarning kurashi ommaviy harakatlar yuksalgan sharoitda kuchayib ketdi. 1905- yilning yozida mamlakatda ommaviy mitinglar to'loqini keng yoyildi. Ish tashlash harakati kuchaydi. 1905- yilda 93.000 ishchi ish tashlagan bo'lsa, 1906- yilda ularning soni 217.000 kishiga yetdi. 1907- yilda to'qimachilarning, temir yo'lchilar va mashinasozlarning ish tashlashi yuz berdi.

1910- yilda ish tashlashning yangi to'loqini boshlandi. Shu yil yozida shimoli-sharqiy tumanlardagi temir yo'lchilarning, Shotlandiyadagi kemasozlik korxonalarida ishchilarining, Lankashir to'qimachilarining, Janubiy Uels konchilarining ish tashlashlari bo'lib o'tdi. Bu chiqishlar shiddatli tus olib, ba'zan hukumat

qo'shini bilan qonli to'qnashuvlar yuz berdi. 1911- yilda dokerlar ish haqini oshirishni talab qildilar. Iyunda boshlangan kurash avgustda xo'jayinlar tomonidan talabni qondirish bilan yakunlandi va dokerlar o'z ishlariga qaytdilar. Biroq, avgustda temir yo'lchilar namoyishi vaqtida dokerlar yana ish tashladilar. Mamlakatdagi butun temir yo'l harakati va dengiz transporti to'xtab qoldi. Ichki ishlar vaziri U. Cherchill soldatlar yordami bilan transport harakatini tiklashga urindi. Biroq, Liverpoolda to'qnashuv yuz berdi. Hukumat «xolis» yo'l tutishni va'da qilgan bo'lsa-da, uni bajarmadi.

1912- yilda bo'lib o'tgan konchilarning zabastovkasi ingliz ishchilarining eng katta chiqishi bo'ldi. Ularga ko'mir qazuvchi ishchilar ko'maklashdilar. Bu harakatda har ikki tomondan 1 mln.dan ortiq ishchi ishtirok etdi. 1912- yildan so'ng to' urush boshlangunga qadar Angliyada ishchilar harakati o'sishi davom etdi. Ijtimoiy harakatning keng ko'lami va yanada yuksalishi natijasida ishchilar ommasi Liberallar partiyasidan tobora chekina boshladi. Tred-yunionlarning 1899- yilda Plimutda bo'lib o'tgan navbatdagi kongressi bundan buyon «parlament-ga tag'in ham ko'proq ishchi deputatlar o'tkazish yo'llari va vositalarini qidirish» maqsadida maxsus konferensiya chaqirishga qaror qildi.

Leyborizm. Lloyd Jorj 1900- yilda Londonda chaqirilgan maxsus konferensiya ishchi deputatlarni parlamentga saylashni tashkil etmoq uchun ishchi vakillari qo'mitasini tuzdi. 1905- yilda qo'mitaning nomi o'zgartirilib, unga ishchilar — Leyboristlar partiyasi deb nom berildi. Leyboristlar 1905- yilgi parlament saylovida 29 deputatni parlament a'zoligiga kiritdilar.

Leyboristlar partiyasi tuzilganligi mamlakat ijtimoiy harakatida muhim rol o'ynadi. Biroq, yangi tashkilot ishchilar sinfining umidini oqlay olmadi. Rahbarlik Makdonold kabi bu harakatdan «uzoq» kishilarning qo'liga o'tib qoldi. Ular Leyboristlar partiyasining faoliyatini parlamentning tor doiralari bilan cheklab qo'ydilar. Barcha muhim masalalarda ular liberallarni quvvatlar edilar. Endilikda amalda liberallarning «so'l» qanoti bo'lib qoldilar.

Liberallar partiyasida ta'siri kuchli bo'lgan va Askvit hukumatida moliya vaziri lavozimini egallagan Lloyd Jorj liberallar

hukumatining ishchilarga oid siyosatini o'tkazishning tashabbuskori edi. U Leyboristlar partiyasining tuzilishini liberallar hukumatining xatosi deb hisobladi. Kambag'al o'qituvchi oilasida tug'ilgan, etikdo'z tog'asi tomonidan tarbiyalangan Lloyd Jorj ingliz-burlar urushi xususida hukumat siyosatini tanqid qilib, mamlakatga tanilgan edi.

1909- yilda Lloyd Jorj budjet loyihasini parlament tasdig'iga kiritdi. Bu loyihada qurollanish, ayniqsa dengiz qurolli kuchlarini rivojlantirish xarajatlarini ancha ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Hukumat ko'chmas mulkka solinadigan «to'g'ri» soliqlarni va meros mulkka solinadigan soliqlarni ko'paytirib, «egri» soliqlarni ancha oshirib yubordi. «Egri» soliqlarning «og'irligi» esa xalq zimmasiga tushdi. Lloyd Jorj xalq ommasi diqqatini o'zi tomonga tortish va «egri» soliqlarni ko'paytirishni qabul qildirish hamda o'zining siyosiy obro'sini oshirish uchun demagogik jarayonni avj oldirdi. Go'yoki, «tekinxo'r boylar»ga hujum boshladi va ularning «surbet»ligini fosh qildi. Lloyd Jorj taqdim etgan 1909- yil budjetini umumpalata tasdiqladi. Biroq, lordlar palatasi muhokama qilib, uni rad etdi. 1910- yil aprelida yangi umumpalata Lloyd Jorj budjetini ikkinchi marta qabul qildi. Lordlar palatasi yana rad etdi. Lekin 1911- yilga kelib Askvit lordlar palatasini budjetni qabul qilishga ko'ndirdi.

1911- yilgi parlament islohoti

Qirol Eduard vafot etganligi va *Georg V* taxtga o'tirganligi munosabati bilan 1910- yil mayida har ikkala partiya —

liberallar va konservatorlar o'zaro yarashdilar va kelishib ishlashga intildilar. 1910- yil dekabrda yangi saylovlar bo'ldi, lekin saylovlar umumpalataidagi kuchlar nisbatini o'zgartirmadi.

1911- yil mayida umumpalata parlamentni isloh qilish to'g'risidagi billni qabul qildi. Liberallar hukumati boshlig'i Askvit (1908—1916) lordlarning qarshiligini yengish uchun yuqori palatada yangi qonunni yoqlab ko'pchilik ovoz berishini ta'minlaydigan miqdorda yangi lordlar tayinlash to'g'risida Qirolidan rozilik oldi. Lordlar bu xavfni ko'rib chekinishga va islohot to'g'risidagi billni tasdiqlashga qaror qildilar. Shu bilan bill qabul qilindi hamda *Georg V* uni imzoladi. Yangi qonun lordlar palatasining huquqlarini cheklab qo'ydi. Bundan buyon

umumpalitada qabul qilingan bill, agar shu palataning uch sessiyasida qabul qilingan bo'lsa, lordlar palatasi ma'qullamaganiga qaramay, qonun kuchini olaveradigan bo'ldi. Yangi qonun lordlar palatasini moliya masalalarini hal qilishdan ham chetlashtirib qo'ydi. Parlamentning ishlash muddatini 5 yil qilib belgiladi va deputatlarga maosh joriy qildi.

Shunday qilib, konservatorlarning tayanchi bo'lgan lordlar palatasiga qarshi liberallar olib borgan shiddatli kurash islohot bilan tugallandi. Lekin liberallar yuqori palatani demokratiyadan va ishchilar harakatidan himoya qiladigan qalqon deb, uni yo'qotishga jur'at etmadilar.

**Irlandiyadagi ahvol,
siyosiy inqirozning
yetilishi**

Liberallar o'z o'rindoshlari konservatorlarning yo'lini tutib, Irlandiyada shafqatsiz zulm siyosatini o'tkaza boshladilar. Angliya hukumati Irlandiyani

faqat agrar jamiyat holida saqlab qolish siyosatini o'tkazganligiga qaramay, Irlandiyaning shimolida, Olsterda sanoat rivojlana boshladi. Ishchilar harakati o'sdi, kasaba uyushmalari tuzildi.

1911- yilda Irlandiya temir yo'lichilarining katta ish tashlashi yuz berdi. Bu ish tashlashga Irlandiyada transportchilarning 1908- yilda tuzilgan kasaba uyushmasi boshchilik qildi. Shiddatli tus olgan kurash davomida ishchilar fuqaro kuchlarning qurolli guruhlarini tuzdilar. Dublin tramvaychilarining 1913- yildagi ish tashlashlari ham shiddatli tus oldi. Irlandiya ishchilarining boshqa guruhlari ham bu ish tashlashlarga qo'shildilar.

Irlandiya hukmron doiralari ingliz kapitalistlari bilan ittifoq tuzib, xalq harakatiga qarshi chiqdilar, politsiyaning yordamidan foydalandilar. Ish tashlashlar davomida Irlandiya kapitalistlarining Irlandiya ishchilariga eng yovuz dushman ekanligi yaqqol ko'rindi.

Kuchayib ketgan xalq harakatidan qo'rqqan Irlandiya milliy burjuaziyasi Angliya hukmronligiga qarshi kurashni to'xtatdi va siyosiy talablardan voz kechdi. Ular Irlandiyaga muxtoriyat berilishini talab qilish bilan cheklandilar. Irlandiya burjuaziyasining savdo-sanoat doiralari manfaatini ko'zlovchi guruhi Irlandiyaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan birmuncha keskin talablar qo'ydi. Ushbu guruhning rahbari Griffit 1905- yili «Shin feyn» («Biz o'zimiz») partiyasini tashkil etdi. U mustaqil Irlandiya

parlamenti tuzish, Irlandiyani iqtisodiy jihatdan darhol ozod qilish yuzasidan tashviqot boshlab yubordi. Feynchilar Angliyani «yon berishga» majbur etish uchun ingliz tovarlarini boykot qilish shiorini ko'tarib chiqdilar.

Konservatorlar Irlandiyada yashovchi inglizlardan jangovar guruhlar tuza boshladilar. O'z navbatida irlandiyaliklar mustaqillik uchun kurashga qo'zg'alib, qurollana boshladilar. Irlandiya fuqarolar urushi arafasida turardi.

1914- yilning yozida irlandiyaliklar bilan inglizlar o'rtasida birinchi jang bo'ldi.

Angliyada ish tashlash harakatining kuchayib ketganligi, Irlandiyada fuqarolar urushi yaqinlashayotganligi, Angliya — Germaniya munosabatlarining keskinlashuvi — bularning hammasi Angliyada siyosiy inqiroz boshlanganligini ko'rsatardi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asrning boshlarida Angliyaning iqtisodiyoti qanday sharoitlarda keskin o'sishga erishdi?
 2. XX asr boshlarida Angliyada sanoatning qanday yangi tarmoqlari tashkil etildi?
 3. XX asr boshlarida ingliz yollanma ishchilarining yashash shart-sharoitlari, turmush darajasi qay ahvolda edi?
 4. Angliyadagi tez-tez hukumat o'zgarishining asl mohiyati nimada edi? Bu o'zgarishlar nima bilan yakunlanardi? Shular haqida so'zlab bering.
 5. Liberallar hukumatining tashqi siyosati konservatorlar tashqi siyosatidan qaysi tomonlari bilan farq qilardi? Bu vaqtda Angliya hukumati tashqi siyosatda qanday pozitsiyada bo'ldi?
 6. Leyborizm nima? Bu harakatning yo'l boshchilari haqida gapirib bering.
 7. 1911- yilda o'tkazilgan parlament islohotining natijalari qanday bo'ldi?
 8. Nima uchun Irlandiyada ijtimoiy-iqtisodiy ahvol og'irlashib bordi?
 9. Birinchi jahon urushi arafasida Angliyaning ichki va tashqi siyosati qanday edi?

Bu raqamlarni esda tuting: 1912- yilda chetdan daromad 176 mln. f. s. bo'ldi. Nafaqa 70 yoshdan deb belgilandi.

Bu nomlarni eslab qoling: Balfur, Kempbell-Bannerman, Jozef Chamberlen, Askvit, Lloyd Jorj.

Erkin fikr yuriting: 70 yoshdan nafaqa belgilash to'g'rimi, noto'g'rimi?

4- b o b. AQSH XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA

12- §. XIX asrning oxirida AQSH ning iqtisodiy ahvoli

Iqtisodiy taraqqiyot

Amerika Qo'shma Shtatlarida qul-chilikning tugatilishi, quldorlik latifundiyalarining bekor qilinishi, unumdor yerlarning, foydali qazilma boyliklarning ko'pligi, sersuv daryolar va poyonsiz o'rmonlar, eng yangi texnologiya mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining nihoyatda tezlashuviga sabab bo'ldi. XIX asrning oxirgi o'ttiz yili AQSH tarixida taraqqiyotning yuksakligi va juda muhim iqtisodiy va siyosiy voqealar bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Agar 1860- yili AQSH mahsulot hajmi jihatidan dunyoda 4-o'rinda turgan bo'lsa, 1894- yilga kelib birinchi o'ringa chiqib oldi. 1894- yilda AQSH sanoat mahsuloti hajmi G'arbiy Yevropadagi barcha mamlakatlar mahsulotining yarmiga teng va Buyuk Britaniyadagidan ikki baravar ortiq edi. 1900- yilda AQSH temir yo'llarining uzunligi 193 ming milga yetdi. Bu G'arbiy Yevropadagi hamma mamlakatlardagi temir yo'llaridan ham ortiq edi. AQSH fuqarolar urushining oxiriga qadar iqtisodiy jihatdan Yevropaning mustamlakasi bo'lib kelgan bo'lsa, XIX asr oxiriga borib yuksak darajada rivojlangan industrial-agrar mamlakatga aylandi.

1873- yildagi inqirozdan keyin sanoat nihoyatda tez rivojlandi. Mamlakatda ko'pdan-ko'p trestlar paydo bo'ldi. 1859- yildan 1899- yilgacha o'tgan davr mobaynida korxonalar soni taxminan uch martadan ko'proq, ishchilar soni 4 marta, ishlab chiqarilgan mahsulot 7 marta oshdi, ishga solingan kapital summasi esa salkam 10 marta ko'paydi. Ayniqsa, sharqiy shtatlarda sanoat tez o'sib bordi. 1890- yilga borib, bu shtatlarda har birining kapitali 1 million dollardan ortiq bo'lgan 450 ga yaqin korxonalar bor edi.



Nyu-Yorkning ko'rfaz tomondan ko'rinishi

1870- yilda D. Rokfeller tomonidan tashkil qilingan «Standard oyl» kompaniyasi 1882- yilda qayta qurildi va 14 ta kompaniyani birlashtiruvchi birinchi yirik trest «Standard oyl» tashkil etildi. «Standard oyl» trestidan keyin bir qancha boshqa yirik monopoliyalar paydo bo'ldi — Amerika paxta moyi tresti, Milliy zig'ir moyi tresti, Qand-shakar tresti, Tamaki tresti va hokazolar shular jumlasidandir. Bankir Morgan juda katta kapitalni o'z qo'lidagi to'pladi.

Sanoat tarmoqlari birin-ketin bir guruh sarmoyadorlar qo'liga o'tib bordi, ular bu sanoat tarmoqlari ustidan nazorat ishlarini batamom o'z qo'llariga olish uchun har qanday hiyla-nayrang, muttahamliklardan tortinmasdan hammasini ishga soldilar. 1890-yil ma'lumotlariga ko'ra, 1 foiz kapitalistlar qo'lidagi boylik 99 foiz aholi qo'lidagi boylikdan ko'p edi.

AQSH da kapitalizmning tez o'sishiga boy tabiiy resurslarning, avvalo ko'mir, temir, o'rmon, neft va misning mavjudligi, shuningdek, qo'shimcha arzon ish kuchi manbaining doimo mavjud bo'lganligi ham imkon berdi.

AQSH da keng bozorning vujudga keltirilishi taraqqiyot uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Birinchi navbatda bunga qishloq xo'jaligida taraqqiyotning «amerikacha yo'li» g'alaba qilganligi,

G'arbning tezlik bilan mustamlaka qilinganligi, shu bilan birga zo'r g'ayrat bilan temir yo'llari qurilganligi va dunyoning turli burchaklaridan immigratsiya natijasida aholining tez ko'payishi ham yordam berdi.

AQSH da sanoatning o'sishida Yevropa kapitali ham muhim rol o'ynadi. 1880- yillarda Yevropa davlatlari AQSH ga 2 mlrd. dollar kapital qo'ygan bo'lsa, 1890- yilda bu raqam 3 mlrd. dollarga yetdi. AQSHda XIX asrning keyingi 30 yili ichida barcha sarmoya tinch qurilishga sarflandi.

Janubdagi o'zgarishlar Janubda Fuqarolar urushidan keyin katta o'zgarishlar yuz berdi. Qulchilik tugatildi. Aholi faollashdi. Bu yerda 1870- yilga qadar barcha «isyonkor» shtatlarda negrlarga ovoz berish huquqini ta'minlash va Konstitutsiyaga kiritilgan 14- tuzatishni tasdiqlash yuzasidan «konventlar» (syezdlar) o'tkazildi. 1870- yilda Konstitutsiyaga kiritilgan 15- tuzatish ham qabul qilindi. Bu tuzatishda « irqi, terisining rangi yoki ilgarigi qullik holatini bahona qilib» saylovlarda ishtirok qilishni har qanaqasiga cheklash bekor qilingan edi. Shtatlarning hokimiyatlari va Federal Kongressga kongressmenlar va senatorlar saylandi. Janubdagi boshqarish tartibi o'zgargan shtatlardagi yangi hukumatlarning xarakterli tomoni shu ediki, ularda negrlar ham qatnashardi. Aslida Janubda Federal hukumat topshirig'i bilan bu yerga kelgan shimollik respublikachi amaldorlar bilan ozod qilingan negrlar bloki vujudga kelgan edi. Yangi tipdagi hukumatlarda qatnashgan negrlar juda ishchanlik ko'rsatdilar. Bu hukumatlarning faoliyati taraqqiyparvar xarakterda edi. Ular adolatli soliq tizimini joriy qildilar, irqiy kamsitish qonunlarini bekor qildilar, mahalliy hokimiyat organlarini demokratlashtirdilar va keng maorif tizimini hamda keksalar, nogironlar va yetim-yesirlar uchun xayriya jamiyatlari tashkil qildilar.

Kongress 1872- yildayoq Janubdagi sobiq isyonchilarga umumiy avf berish to'g'risida qonun qabul qilgan edi. Isyon rahbarlaridan hammasi bo'lib 500 kishiga davlat vazifalarida ishlash taqiqlangan edi. Bu hol plantatorlarning eski tartiblarini tiklash uchun kurash olib borishini osonlashtirdi. Janubda «Ku-kluks-klan» singari terrorchi tashkilotlar yana «bosh ko'tardi». Ziyoli xodimlardan o'ch olish va «Linch sudlari» oddiy hodisa bo'lib qoldi.

Irqiyl xurofotlar bilan «zaharlangan» oq tanli kambag'allar o'rtasida keng ravishda millatchilik tashviqoti olib borildi. Radikal respublikachilar asta-sekin yakka qo'yildi. Terror tufayli negrlar ovoz berish imkoniyatidan mahrum bo'lgan edilar.

Ana shu siyosat natijasida Janub negrlar uchun «turma» bo'lib qoldi. 1876- yilgi Prezident saylovlari oldidan faqat ikki janubiy shtat: Janubiy Karolina va Luiziana shtatlari radikal respublikachilar qo'li ostida qoldi. Lekin bu shtatlarda ham reaksiyon demokratlar hokimiyat uchun kurashib, o'z hukumatlarini tuzib oldilar.

Ikki partiyali tizim 1876- yilgi saylov kampaniyasi burjua partiyalarda ro'y bergan o'zgarishlarni ochib tashladi. Respublikachilar partiyasidan o'rta qatlam elementlari siqib chiqarilib, u yirik sanoatchilar va moliyachilar partiyasiga aylanib ketdi. Bu partiya yuqori proteksion tariflarni yoqlab chiqdi va: «Baland narx — baland ish haqi, past narx — past ish haqi» degan shior bilan xalqni aldab keldi.

Demokratik partiya urush vaqtida «yegan» zarbalaridan o'zini tez «o'nglab» olib, yirik yer egalari, boy fermerlar, Janub burjuaziyasi va Shimol sanoatchilari, moliyachilar manfaatini himoya qiluvchi partiya bo'lib qoldi. Har ikkala partiya ham mayda burjuaziyaga, ishchilarga o'z ta'sirini o'tkazish uchun kurash olib bordi. Lekin ishlab chiqarish yanada o'sib, ijtimoiy harakat rivojlanib borgan sari bu partiyalar o'rtasidagi farq asta-sekin yo'qolib bordi. Ikkala partiya tashkilotlarida ham «bosslar», muayyan monopolistik guruhlar manfaatini ko'zlab ishlovchi malakali siyosatchilar hukmronlik rolini o'ynadi.

Amerika burjuaziyasi ikki partiyali tizimdan ustalik bilan foydalanib keldi. Agar hokimiyat tepasida respublikachilar turgan bo'lsa, demokratlar hukumatni «tanqid qilib», o'zlarini xalq manfaatlarini himoya qiluvchilar qilib ko'rsatib, norozilarning katta qismini o'z tomonlariga og'dirib olardilar. Demokratlar g'alaba qilgan taqdirda muxolifatchi partiya rolini respublikachilar o'ynardilar. Shu tariqa partiyalardan har gal bittasi norozilarni o'ziga og'dirib turadigan markaz bo'lardi, bu narsa uchinchi, haqiqiy xalq partiyasi tuzish yo'lida jiddiy to'siq bo'lib keldi.

U. Grant prezidentligi davrida (1868—1876) ko'plab

davlat organlarida o'g'irlik, poraxo'rlik, qalloblik avj olganligi ma'lum bo'ldi. Birgina Tvid shaykasi Nyu-Yorkda 100 mln. dollarni o'g'irladi. Davlat apparatida nopoklik avjiga chiqdi va xalqning prezidentdan ixlosi qaytdi.

1876- yilgi saylov kampaniyasida respublikachilar prezidentlikka Fuqarolar urushining qatnashchisi, advokat Xeys nomzodini, demokratlar Tilden nomzodini qo'yishdi. Demokratik partiya muxolifatda bo'lganligidan davlat apparatidagi poraxo'rlikni fosh qildi, demokratik islohotlar o'tkazishni va'da qildi, Janubdan qo'shinlarni uzil-kesil olib chiqib ketishni talab qildi va h. k. Saylov natijalari janjalli bo'lib chiqdi. Mamlakatda juda tang vaziyat vujudga keldi. Janjalning oldini olish uchun Kongress komissiyasi tuzildi, bu komissiya hamma janjalli ovozlarni Xeysga berib, uni prezidentlikka saylangan deb topdi. Bunday nayrang shuning uchun kerak bo'ldiki, Xeys Shimoldagi burjuaziyaning vakili sifatida negrlar, shuningdek, ishchilar va mehnatkash fermerlar hisobidan xalqdan yashirin ravishda Janub plantatorlari bilan bitim tuzdi. Xeys janublik plantatorlarga «men saylansam, Janubda hamma harbiy rejim qoldiqlarini yo'q qilaman va sizlarga to'la hokimiyat berishga kafilman» deb va'da qilgan edi. *R. Xeys* mamlakatni 1877—1881- yillarda idora qildi.

Davlat xizmatchilari o'z lavozimlaridan shaxsiy boylik orttirishga tirishardilar. Kim saylovda yaxshi xizmat qilsa, davlat mansablari beriladigan bo'ldi. Shu sababli yangi prezident saylanganda mansab so'rovchilar ko'paydi va ular orasida nifoq ham kelib chiqdi. 1881-yilgi saylovda g'olib chiqqan *D. Garfild* o'z lavozimida 4 oy turmasdan mansab so'rovchilar tomonidan otib o'ldirildi. Uning o'rnini vitse-prezident *Ch. Artur* egalladi (1881—1884) va «mukofotlash tizimi»ni bekor qildi.

1883- yilda soliq tizimi qayta ko'rib, tamaki va spirtidan tashqari tovarlarga soliq kamaytirildi. Ayni paytda chetdan keltiriladigan tovarlarga soliqni 20—25 foizga kamaytirish masalasi demokrat *S. Klivlend* (1885—1889) davrida ham amalga oshmadi. Respublikachi *B. Garrison* (1889—1893) prezidentligi davrida yangi boj solig'ining joriy qilinishi ichki norozilikka sabab bo'ldi. *S. Klivlend* (1893—1897) bu soliqni qayta ko'rib chiqdi. Lekin respublikachi *U. Mak-Kinli* (1897—1901) davrida yuqori boj solig'i yana joriy etildi.

G'arbga siljish

Muhojirlarning G'arbga tomon «oqib» kelishi tobora kuchaydi. Missisipidan g'arbda joylashgan hudud aholisi 1870- yildan 1890- yilgacha 6.787.000 kishiga yetdi. Yangi shtatlar tuzildi, bu shtatlar mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim rol o'ynaydigan bo'ldi. O'rta va Uzoq G'arb muhim qishloq xo'jalik markazigina emas, balki sanoat markazi ham bo'lib qoldi.

Ko'plab bo'sh yerlarning mavjudligi ortiqcha aholiga najot qidirishga imkon berdi. O'z ahvolidan norozi bo'lgan sanoat ishchilarining bir qismi G'arbga jo'nab ketdi, chunki u yerlarda fermerlik qilish mumkin edi. AQSH da faqat XIX asr oxirlaridagina G'arbda doimiy sanoat mahalliy kadrlari tarkib topganligining sababi ham shunda. Tez orada G'arb AQSH iqtisodida alohida rol o'ynay boshladi.

XIX asrning so'nggi 10 yilligida sanoat taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarildi. Sanoatning yiriklashuvi kuchaydi. Masalan, 1880- yilda qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqaradigan 1934 ta zavod bor edi. 1900- yilga kelib ular yiriklashib, 600 tagacha kamaydi. Lekin ularning kapitali 2,5 —3 baravar ortdi. Po'lat quyish hajmi uchdan birga ko'paydi. Sanoat korxonalari soni 208 mingdan ortib, ularning kapitali 9 mln. dollarga yaqinlashdi.

Qishloq xo'jaligi yangi-yangi yerlar hisobiga kengayib, mahsulot yetishtirish yildan-yilga oshib bordi. Bu narsa qishloq xo'jaligida taraqqiyotning «amerikacha yo'li» bo'lib tarixga kirdi. XIX asr oxirida mamlakatning 60 foizdan ko'proq aholisi qishloqlarda yashar edi.

AQSH da G'arbiy Yevropadagiga o'xshash qirol xonadoni ham, Sharq mamlakatlaridagidek yirik zamindor aristokratiya ham, katta-katta yer-mulkka egalik qilgan ruhoniylar ham yo'q edi. Mamlakat butun yer maydonining yarmidan ko'pi hali ham hukumat qo'lida edi. Hukumat bu yerlarni sanoat egalari va bankirlarga arzonga berib turardi.

Yerli hindu qabilalari qo'lidagi yerlar bosib olinib, yer haqi to'lanmadi, bu ham kapitalning to'planishi va sanoatni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratdi.

Savol va topshiriqlar

- ? 1. Fuqarolar urushidan so'ng AQSH iqtisodiy jihatdan nima uchun tez rivojlandi?

2. AQSH da ikki partiyalilik tizim xususiyatini aytib bering.
3. «Standard oyl» kompaniyasi faoliyati haqida nimalar bilasiz? U kimlarning manfaatiga xizmat qilardi?
4. 70- yillarda negrlarning turmush sharoitida qanday o'zgarishlar bo'ldi? Ularga hukumat tomonidan qanday imtiyozlar berildi?
5. 1883- yilda soliq tizimida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
6. AQSH sanoati XIX asrning so'nggi 10 yilligida qanday imkoniyatlar hisobiga yangi bosqichga ko'tarildi?
7. «Amerikacha yo'l» nima?

Bu nomlarni esda tuting: D. Rokfeller, «Standard oyl», G. Morgan, U. Grant, Xeys, Klivlend, Garrison, Mak-Kinli.

Bu so'zlar ustida bahs yuriting: «Baland narx — baland ish haqi, past narx — past ish haqi».

13- §. Ijtimoiy harakat va tashqi siyosat

Ijtimoiy harakatning rivojlanishi

Sanoatning tez rivojlanishi yerli hindu qabilalaridan tortib olingan katta-katta yerlarni mumkin qadar tezroq o'zlashtirishga intilish, Sharqdagi shtatlarni Tinch okean sohilidagi hududlar bilan qo'shishning iqtisodiy va siyosiy zarurligi, G'arb-dagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini, sanoati rivojlangan shtatlardagi sanoat mollarini bozorga chiqarish uchun ko'plab temir yo'llarning qurilishi aholi sonining yildan-yilga o'sib borishini tezlashtirdi. Sanoat korxonalarining ko'payishi ishchilar sonining ortishiga olib keldi. Yevropa va Osiyodan «baxt» qidirib kelganlar bu yerda mashaqqatli mehnatga duch keldilar. Barcha mehnat kishilari kabi ishchilar mehnat sharoitlarining juda og'irligi, ish kunining haddan tashqari uzunligi va mehnatni muhofaza qiluvchi qonunlarning mutlaqo yo'qligidan qattiq norozilik bildirdilar.

Hukmron doiralar va mulkdorlar 1873- yilgi inqirozdan ishchilarning turmush darajasini pasaytirish uchun foydalandilar. Sanoatning ko'p tarmoqlarida ish haqi kamaytirildi. Kasaba uyushmalari zaiflashtirildi. Milliy ishchilar ittifoqi 6—7 yil «umr»

ko'rgandan keyin 1873- yilda tarqalib ketdi. Ishchi tashkilotlari juda og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan edi. Hukmron doiralar ishchilar harakatini turli yo'llar bilan «bo'g'ishga» intildi. Burjuaziya terror usullaridan foydalanayotganligiga qaramay, sanoatning bir qancha asosiy tarmoqlarida, masalan, po'lat quyish, ko'mir qazib chiqarish va shu kabilarda milliy kasaba uyushmalari paydo bo'ldi. Boshlanib ketgan ish tashlashlar juda keng tus olib, ko'pincha qurolli to'qnashuvlarga aylanib ketardi. Emigrant irland ishchilarining faoliyati tufayli ko'mir qazib chiqariladigan rayonlarda «Qadimiy gubernianlar (irlandlar) ordeni» degan yashirin tashkilot tuzildi. Ko'mir qazib chiqariladigan deyarli barcha joylarda bu tashkilotning bo'limlari paydo bo'ldi, ularning soni 6000 ga yetdi.

Kompaniyalarning ish haqini kamaytirish niyatiga qarshi 1877- yilda temir yo'lichilarning ish tashlashi boshlanib ketdi va 17 shtatga tarqaldi. Mamlakatdagi barcha temir yo'l markazlari ularni qo'llab-quvvatladi va AQSH tarixida umummilliy ish tashlashga aylanib ketdi. Armiya, politsiya va burjuaziyadan chiqqan ko'ngillilar ish tashlovchilarga qarshi qo'yildi. Bu kurash «kichik» fuqarolar urushiga aylandi. To'qnashuvlarda bir necha o'nlab ishchilar halok bo'ldi. Pittsburgda ishchilar hukumat qo'shinlarini tor-mor keltirdilar va 7 kun shahar ishchilar qo'lida qoldi. Sent-Luisda ham ishchilar hukumat ustidan g'alaba qilib, 2 haftagacha hokimiyatni qo'llarida tutib turdilar. Nyu-York, Ogayo, Indiana, Illinoys shtatlarida qurolli to'qnashuvlar bo'ldi. Temir yo'lichilarning ish tashlashi mamlakat ijtimoiy hayotini larzaga keltirdi. Ular qahramonlik ko'rsatganlariga qaramay hukumat qo'shinlarining siquvi ostida chekindilar. Lekin ishchilar harakatining keyingi chiqishlariga katta ta'sir ko'rsatdilar.

Chikagodagi voqealar 80- yillarda ommaviy ishchilar harakati: ish tashlashlar, namoyishlar va boykotlar yangidan yuksalib ketdi, bu davrdagi ishchilar harakati 8 soatlik ish kunini talab qilish atrofida avj olib bordi. 1886- yil 1 maydagi umumiy ish tashlashlarga 350.000 dan ortiq ishchi tortilgan edi. 200.000 ga yaqin ishchi 8 soatlik ish kuniga muvaffaq bo'ldi. Lekin bundan keyingi 2 yil davomida bu kurash natijalari yo'qqa chiqarildi va faqat 15.777 ishchi 8 soatlik ish kunini saqlab qoldi, xolos.



Tramvaychilarning ish tashlashi. Nyu-York. 1886- yil

8 soatlik ish kuni uchun boshlangan harakat Chikagoda juda ham keskin tus oldi. Bu yerdagi kasaba uyushmalari markaziy birlashmasi boshida Parsons, Shpis, Filden, Engel va Shvab singari mashhur rahbarlar turardi. Ular 80.000 ishchini kurashga chaqirdilar.

1886- yil 3- mayda Chikago shahrida, Senno maydonida bo'lgan ommaviy miting vaqtida politsiya ish tashlaganlarga qarab o'q uzdi, natijada 6 kishi o'ldirildi va ko'p kishi yarador bo'ldi. Darg'azab bo'lgan Chikago ishchilari 4- mayda shu xunrezlikka qarshi norozilik bildirib, ommaviy miting tashkil qildilar. Qurolli politsiya otryadlari ishchilarga qarshi yuborildi. Sudning qaroriga muvofiq, 1887- yil 11- noyabrda ommaviy harakat rahbarlaridan 4 kishi — Parsons, Fisher, Engel va Shpislar dorga osildi. Ular o'limga qahramonlik bilan tik qaradilar. Shpis oxirgi so'zida «Shunday zamon keladiki, bizning sukunatimiz nutqlarimizdan ham o'tkirroq bo'ladi» degan edi.

Shu o'n yillikda ijtimoiy harakatda 1869- yilda tuzilgan, tikuvchilar tashkil etgan «Mehnat ritsarlari» ordeni katta rol o'ynadi. 9 yil yashirin faoliyat ko'rsatgan bu orden 1878- yilda ochiq

ishlashga o'tdi. Ularning maqsadi tinch yo'l bilan jamiyatni yaxshilash edi. XIX asr oxiriga kelib ijtimoiy harakatga rahbarlik 1881- yilda Pittsburgda tuzilgan «Qo'shma Shtatlar va Kanada uyushgan tred-yunionlari va ishchi ittifoqi federatsiyasi»ga o'tdi. 1886- yilda u Amerika Mehnat Federatsiyasi degan nom oldi va Gompers 1883- yildan 1924- yilgacha unga raislik qildi. Fermerlar 1867- yilda Grenjerlar (ferma) tashkilotini tuzdilar.

**AQSH ning agressiv
tashqi siyosati.
Militarizm**

O'z mamlakatining juda katta resurslarini va Rossiyadan sotib olingan Alyaskani (1868- y.) o'zlashtirish bilan band bo'lgan AQSH sarmoyadorlari mus-

tamlakalar va o'z ta'sir doiralari qo'lga kiritishga boshqa Yevropa mamlakatlaridan kechroq kirishdilar. Ularning e'tibori Karib havzasi va Tinch okean mamlakatlariga qaratildi.

Bu yo'ldagi birinchi qadam Tinch okeanning markazida, Osiyoga olib boradigan strategik jihatdan muhim bo'lgan dengiz yo'llari kesishgan joydagi Gavayi orollarini 1898- yilda bosib olishdan iborat bo'ldi.

XIX asr oxiriga borib, AQSH kapitalistlari Meksika va Markaziy Amerika mamlakatlaridan ancha manfaatdor bo'lib qolgan edilar. AQSH Lotin Amerikasi mamlakatlarida hukmron bo'lib olish uchun kurashib, riyokorlik bilan barcha Amerika mamlakatlarining manfaatlari bitta degan g'oyani targ'ib qilib keldi. 1889- yilda AQSH Davlat departamenti tashabbusi bilan Vashingtonda birinchi Panamerika konferensiyasi bo'ldi. Lotin Amerikasi mamlakatlarining delegatlari AQSHdan qo'rqqanligi va unga ishonchsizlik ko'zi bilan qaraganligi, AQSHning Amerika davlatlari bojxona bitimini tuzishga qaratilgan harakatini yo'qqa chiqardi. O'zaro qulayliklar tug'dirish masalasida ham umumiy bitimga kelinmadi. Birinchi Panamerika konferensiyasining birdan-bir aniq natijasi xalqaro Amerika respublikalari syezdi degan assotsiatsiya tuzishdan iborat bo'ldi. AQSH ning G'arbiy yarimshardagi mamlakatlar ustidan tanho hukmronlik qilishga qaratilgan bosqinchilik siyosati shu tariqa paydo bo'ldi.

80- yillarda Venesuela bilan Britaniya Gvineyasi o'rtasidagi ziddiyat juda kuchayib ketganda AQSH «Monro doktrinasi»ga tayanib, bu janjalni bartaraf qilishda o'zi vositachilik qilmoqchi

bo'lganligini Angliyaga taklif qildi. Bu janjalni hal qilish 1895 yilgacha natija bermadi. 1895- yil 20- iyunda AQSH Davlat kotibi *Richard Olni* Venesuela to'g'risida Angliyaga juda qat'iy maktub yubordi. Olni AQSH ning bu janjalga aralashishga haqqi bor, deb qattiq turdi va Venesuela chegarasi masalasini «xolis hakam» hukmiga topshirish to'g'risida ma'lum bir qaror qabul qilishni Angliyadan qat'iy talab qildi.

Janubiy Afrika xususidagi Angliya — Germaniya ziddiyati, Uzoq Sharqda Angliya — Rossiya munosabatlarining keskinlashuvi Angliyani AQSH ga yaqinlashtirdi. 1899- yili Venesuela masalasi hal qilindi.

1866—1867 va 1871- yillarda AQSH Koreyaga teng huquqli bo'lmagan shartnomani qabul qilish va Koreya portlarini savdo uchun ochib qo'yishga majbur etishga harakat qildi. Biroq, faqat 1882- yildagina Koreyaga teng bo'lmagan shartnomani imzolatishga muvaffaq bo'ldi, yaponlar uchun ochiq bo'lgan uchta port AQSH savdosi uchun ochib berildi. Koreyaga Amerika kapitali kirib kela boshladi. Ko'p o'tmay Samoa orollari ham qo'lga kiritildi.

Ispaniya — Amerika urushi. AQSH ning jahonda hukmronlik uchun kurashi

XIX asrning oxirida AQSH nihoyatda qudratli davlatga aylandi. Hokimiyat tepasida mahkam o'rtnashib olgan guruhlar hukmronlik qilish bilan qanoatlanmay qoldilar. AQSH jahonni hu-

dudiy jihatdan bo'lib olishdan ancha kechikkanligi sababli puturdan ketgan Ispaniya monarxiyasidan mustamlakalarni tortib olishni mo'ljalladi. Ispaniyaga qarashli Kuba oroli Amerika kapitalistlarining havasini keltirardi, chunki AQSH uning iqtisodiga ancha kapital sarflagan edi. AQSH Ispaniyaga qarshi urushga tayyorlana boshladi. AQSH Kubadagi milliy ozodlik qo'zg'olonidan va Ispaniyaning boshqa mustamlakasi — Filippin orollarida Ispaniya hukmronligiga qarshi olib borilgan kurashdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga qaror qildi. AQSH hukumati Ispaniyaga mamlakatdagi jamoatchilik fikri to'g'risida riyokorona notalar yubordi. AQSH fuqarolarining manfaatini himoya qilish bahonasi ostida Kuba sohillariga 15- fevral kechasi Amerika harbiy kemasi yuborildi. Bu harbiy kema Gavana reydidagi turgan joyda noma'lum sababga ko'ra portlab ketdi. Natijada 268 kishi halok

bo'ldi, 100 ga yaqini yarador bo'ldi. AQSH hukumati bo'lgan hodisada aybni ispanlarga qo'ydi. AQSH Kongressi 1898- yil aprel oyida Ispaniyaga urush e'lon qildi. Bu dunyoni qaytadan bo'lib olish boshlangan birinchi urush edi. Urush atigi 3 oy davom etdi va Ispaniya monarxiyasining kuchsizligini va ichidan chiriganligini ko'rsatdi. Ispaniya tez yengildi va sulh so'rashga majbur bo'ldi. 1898- yilning oxirida Parijda imzolangan sulh shartnomasiga binoan AQSH Puerto-Riko va Guam orollarini oldi. Kubaga talonchilikdan iborat shartnoma zo'rlab qabul qildirildi va u AQSH-ga qaram bo'lib qoldi. AQSH Ispaniyaga Filippin uchun 20 mln. dollar pul berdi. Bundan tashqari, Ispaniya Kuba oroliga bo'lgan o'zining barcha da'volaridan voz kechdi. Qog'ozdagina mustaqillik olgan Kuba respublika bo'lib qoldi va AQSH protektorati ostiga o'tdi.

Gavayi orollari batamom anneksiya qilib olinganligi, Ispaniya bilan bo'lgan urush natijalari yuzasidan 1898- yil 12- avgustda birlashgan rezolyutsiya qabul qilindi. Bu rezolyutsiyada Gavayi orollari AQSH hududining bir qismi tariqasida anneksiya qilinganligi, bojlar bekor qilinganligi va Gavayi orollaridagi xitoylarning AQSH ga kelishi taqiqlanganligi aytilgan edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. AQSH da 70—80- yillarda ijtimoiy harakatning o'sish sabablari nimada edi?
 2. 1886- yil 1—3- mayda Chikago shahrida qanday voqealar sodir bo'ldi?
 3. Militarizm nima?
 4. XIX asrning 70—90- yillarida negrlarning ahvoli qanday edi?
 5. XIX asr oxirida AQSH agressiv tashqi siyosatining kuchayishiga sabab nima edi?
 6. Nima sababdan Ispaniya — Amerika urushi yuz berdi?

Bu shaharlarni xaritadan toping, qanday voqealar bo'lganini so'zlang: Pittsburg, Sent-Luis, Chikago, Gavana.

Bu so'zlarning asl ma'nosini tushuntiring: Panamerika, protektorat, anneksiya.

Biz Arlington qabristonini ziyorat qilish, noma'lum askar hamda Qo'shma Shtatlar sharafi va mustaqilligi uchun jonini qurbon qilgan barcha kishilarning ruhini yod etish sharafiga muyassar bo'ldik. Bu qabristondagi vaziyat va marosimning o'zi juda ulkan ehtiromga loyiq bo'lib, halok bo'lganlar xotirasiga juda yuksak e'tibor va g'amxo'rlikdan dalolat ekanini alohida qayd etishni istar edim.

ISLOM KARIMOV

14- §. XX asr boshlarida AQSH ning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Iqtisodiy o'sish

XX asr boshlarida mamlakatda kapitalning konsentratsiyalashuvi va bank kapitali bilan sanoat kapitalining qo'shilib ketishi davom etdi. Korxonalar soni 1899—1914- yillarda 208 mingdan 275 mingtaga, ishchilar soni 4713000 dan 7036000 ga yetdi. AQSH sanoat ishlab chiqarish hajmi jihatidan Yevropa davlatlarini orqada qoldirdi. Sanoat mahsulotining qiymati 1909- yilda 20 mlrd. dollardan oshdi. Bu Buyuk Britaniya sanoat mahsulotlari qiymatidan 2,5 baravar, Germaniyadagidan 2 baravar ortiq edi. Birinchi jahon urushi davrida AQSH da qazib chiqarilayotgan toshko'mirning, ishlab chiqarilayotgan cho'yan va po'latning miqdori Angliya, Fransiya va Germaniya erishgan jami miqdorga teng edi. Sanoatning barcha tarmoqlari bo'yicha AQSH jahonda birinchi o'ringa chiqib, ishlab chiqarishning deyarli barcha tarmoqlarida trestlar tashkil etildi. Po'lat, neft, mis, elektr va shu kabi sanoat tarmoqlari «qirollari»ning qudratli sulolalari vujudga keldi.

1901- yilda Morgan I milliard dollarlik kapitalga ega bo'lgan, Qo'shma Shtatlarning po'lat korporatsiyasi deb atalgan katta trestni tashkil qildi. Kokslanadigan ko'mir konlari joylashgan 5000 akrdan ko'proq yer, ming milyadan ko'proq temir yo'l, 100 dan ortiq daryo kemalari shu trestning qo'lida edi.

Rokfellerlarning «Standard oyl» tresti jami neft mahsulotlarining 90 foizini, 70000 km neft quvurini, okeanlarda qatnaydigan yuzlab paroxodlarni o'z qo'lga oldi. Trest neftni egalaganidan so'ng gaz va elektr sanoatini, «Anakonda» mis kon-

sernini, rux-qo'rg'oshin zavodlarini o'ziga bo'ysundirishga kirishdi.

1903- yilda Morgan va Rokfellerlarning ikkita eng katta banki temir yo'l, sug'urta kompaniyasi va boshqa kompaniyalarning 22 mlrd. dollardan ko'proq kapitali bo'lgan 112 ta bankni nazorat qiladigan bo'ldi. 1914- yilga kelib aholining 2 foizi milliy boylikning 60 foiziga ega bo'lib qoldi. Lekin XX asr boshida AQSH chetga tovar va kapital chiqarishda Angliya, Fransiya va Germaniyadan orqada qolmoqda edi.

T. Ruzveltning ichki siyosati

Ikkinchi marta saylangan Mak-Kinli 1901- yil 4- martda prezidentlik vazifasini bajarishga kirishdi. Mak-Kinli 6- sentabrda Buffaloga borib, Panamerika ko'rgazmasini ko'rayotgan vaqtida bir anarxist unga suiqasd qildi. 14- sentabrda Mak-Kinli vafot etdi. Konstitutsiyaga muvofiq, vitse-prezident *Teodor Ruzvelt* yangi saylovlar o'tkazilguncha prezidentlik vazifasini bajarishga kirishdi. Ashaddiy ekspansiyachi Ruzvelt faol tashqi siyosat o'tkazishga, AQSH qurolli kuchlarini ko'paytirishga, ayniqsa, katta harbiy dengiz floti qurishga kirishdi. Ruzvelt AQSH hukmron doiralarning vakili edi, shuning uchun faqat G'arbiy yarimsharda emas, balki butun dunyoda AQSHning hukmron bo'lishini orzu qilardi.

Monopoliyalarning zulmiga qarshi xalq ommasining noroziligi tobora kuchayayotgan sharoitda AQSH yirik burjuaziyasi T. Ruzveltdек o'z manfaatlarini himoya qiluvchi boshqa bir kishini topishi qiyin edi. Amerikalik muallif A. Lendberg bu haqda quyidagilarni yozdi: «Mak-Kinli o'rmini Ruzvelt egallaganligi ko'p jihatdan qaraganda magnatlar uchun xudoning marhamati bo'ldi». Chunki yangi prezidentning quruq so'zdan iborat radikalizmi ijtimoiy norozilik to'lqiniga g'ov bo'lib turishi lozim edi. Ruzvelt monopolistlarning manfaatlarini muhofaza qilish uchun nuqul demagogiyadan iborat nutqlar so'zlardi va muxolifatning talabini oz-moz qondiradigan tadbirlarni amalga oshirardi. Davlat apparatining barcha bo'g'inlarida avj olib ketgan poraxo'rlik bir guruh yozuvchi-publitsistlar tomonidan fosh qilib tashlandi. Chunonchi, Ida Tarbell bir qancha maqolalar e'lon qilib, ularda «Standard oyl» trestining o'z raqiblarini yo'qotish, mamlakat tabiiy boyliklarini bosib olish va sud organlarini sotib olish uchun

qo'llayotgan usullarini oshkor qildi. B. Lauson mis trestining jinoiy faoliyatini fosh qiluvchi «Quturgan mablag'lar» sarlavhali maqola e'lon qildi. Jek London, Epton Sinkler, Teodor Drayzer va boshqalarning asarlarida mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy hayotining salbiy jihatlari qattiq tanqid qilindi.

Taraqqiyparvar siyosiy arboblarning bir guruhi islohotlar o'tkazish uchun targ'ibot olib bordi. Bu guruh markazdagi va joylardagi hukumat apparatini demokratlashtirishni, ayollar va bolalar mehnatini ekspluatatsiya qilishni cheklaydigan qonunlar qabul qilishni, temir yo'llar va banklarni davlat qo'lga o'tkazishni talab qildi.

Burjua islohotchilaridan iborat muxolifat bilan bir qatorda ijtimoiy harakat saflarida ham muxolifat kuchayaverdi. Amerika Mehnat Federatsiyasi ichidagi «so'l qanot» o'z faoliyatini kuchaytirib yubordi. 1900 — 1901- yillarda Sotsialistik partiya maydonga chiqdi. 1905- yildan ijtimoiy harakatda yalpi «jonlanish» boshlandi.

Teodor Ruzvelt o'zining ichki siyosatida mana shularning hammasini hisobga olmasligi mumkin emas edi. Monopoliyalarning zulmi natijasida vujudga kelayotgan qiyinchiliklardan ommaning e'tiborini chalg'itishga urinayotgan Ruzvelt trestlarning «yomon jihatlari»ni cheklaydigan tadbirlar o'tkazishni taklif qildi. Trestlarning ba'zi rahbarlari sud javobgarligiga tortildi. Biroq, mana shunday kurash olib borilgan bo'lsa ham, trest rahbariyati ozgina jarima to'lash bilan qutulib qolaverdi. Trestlarning o'sishi davom qildi va ular mustahkamlanaverdi.

1904- yil oxirida Ruzvelt yana prezidentlikka saylandi. Ruzvelt o'zining bu saylanishini o'zi olib borayotgan siyosatning ma'qullanishi va uni davom ettirishga rag'batlantirish deb bildi. Moliya oligarxiyasi Ruzvelt faoliyatini haqiqatan ma'qullamoqda edi. Po'lat trestining boshlig'i Morgan o'tkazilgan saylov kampaniyasiga Ruzvelt foydasiga 150 ming dollar sarfladi.

1906- yil iyunida Xepborn qonuni qabul qilindi. Bu qonun temir yo'llar faoliyatini tartibga solib turuvchi shtatlararo komissiyaning vakolatlarini birmuncha kengaytirdi. Endi bu komissiyaga odilona va oqilona tariflar belgilash, temir yo'l magnatlarining shu tariflarga amal qilishini kuzatib turish vakolati berildi, lekin kompaniyalarning huquqi saqlanib qoldi. Tajriba

yangi qonunning samarasiz ekanligini ko'rsatdi, temir yo'l kompaniyalari vakolatlarini suiiste'mol qilishlarini avvalgidek davom ettiraverdi.

Navbatdagi saylovlarda hokimiyat tepasiga kelgan *Vilyam Go-ward Taft* (1908—1912) T. Ruzvelt siyosatini davom ettirib, yirik monopolistlarga xizmat qildi.

AQSH da ijtimoiy harakat

Mamlakat iqtisodiyotida yirik monopoliyalar hukmronligining oshishi bilan pastki tabaqalarni ekspluatatsiya qilish kuchaydi. Korxonalarda «tinkani quritadigan» turli usullar qo'llanilib, ishchining butun kuchi shafqatsiz ravishda «so'rib» olinar va ishchi umrini qisqartirardi. Xavfsizlik texnikasi yaxshi joriy qilinmagan bir sharoitda mehnat qilish baxtsiz hodisalar ro'y berishiga sabab bo'lardi. Baxtsiz hodisalar tufayli har yili o'rtacha 75.000 ishchi o'lib ketardi.

XX asrning birinchi o'n yilligida o'rtacha ish haqi 21 foiz ko'paydi. Lekin mehnat ahlining turmush darajasi pasayib boraverdi. Chunki bu davrda turmush kechirish 51 foiz qimmatlashdi. Ishchi kvartallarida huquqsizlik hukm surar, mehnat ahli ertangi kunga tashvish bilan qarardi. Umuman malakasiz va kam malakali ishchilar orasida jangovarlik kayfiyati kuchaydi, uyushishga mayl o'sdi. *Bill Xeyvud* (1869—1928), *Yujin Debs* (1855—1926) va *Uilyam Foster* (1881—1961) Amerika ishchilar harakatida katta rol o'ynadilar.

Oldin kon qazuvchisi bo'lib ishlagan Bill Xeyvud kon ishchilarining va boshqa kasbdagilarning ish tashlash harakatiga rahbarlik qildi. Yujin Debs temir yo'lichilarning jangovar tashkilotiga rahbarlik qilib, 90- yillarda yuz bergan eng yirik ish tashlashlarda ishtirok etdi.

1905—1914- yillarda ish tashlashlar sanoatning eng muhim tarmoqlaridagi ishchilar orasiga yoyildi. 1900—1913- yillarda har yili 500.000 ishchi ish tashlagan bo'lsa, 1914- yilda ish tashlaganlarning soni 1 mln. dan oshib ketdi.

Korxonalar egalari va hukumat Amerika Mehnat Federatsiyasi rahbarlarini qo'lga olib, ishchilar harakatini bostirish uchun eng qattiq choralarni ko'rdilar, kasaba uyushmalarga ig'vogarlar yuborilib turildi. Do'q qilish uchun «qora ro'yxatlar», yollangan guruhlar, politsiya va harbiy kuchlar ishga solindi.

1913- yil sentabrda 12 ming korxonada kon ishchilari chidab

bo'lmaydigan og'ir mehnat sharoitiga qarshi ish tashladilar. Ishchilar 8 soatlik ish kuni joriy qilinishini va ish haqini 10 foiz oshirishni talab qildilar.

Sotqin qurolli guruhlar va hukumat qo'shinlari ish tashlaganlarga qarshi qurolli hujum boshladi. Konchilar qarshilik ko'rsatishga majbur bo'ldilar.

1914- yil ko'klamda butun Kolorado harbiy holatda deb e'lon qilindi. 20 aprelda ishchilar lagerlari o'qqa tutildi. Ishchilarning ko'pchiligi o'ldirildi va yarador bo'ldi. Ma'murlar ish tashlovchilarning rahbarlarini otib tashladilar va ishchi-konchilar majburan konlarga qaytarildi.

Negrlarning ahvoli

Negrlar alohida vagonlarda yurar, ularning bolalari oq tanli bolalar bilan birga o'qiyolmas edi. Qarzdor negrlar qamoqqa olinishi va qarzidan qutilishi uchun istagan kishiga kontrakt qilib berilishi mumkin edi. Janubiy shtatlarda negrlar saylov huquqidan mahrum edilar. Yirik shaharlarda alohida negr kvartallari mavjud bo'lib, aholi oq tanlilar tomonidan har tomonlama kamsitilardi.

AQSHning Lotin Amerikasidagi siyosati. Panama kanali. Panamerika ittifoqi

AQSH Karib dengizi havzasida agressiv siyosat olib bordi. Aholisi ilgariidan milliy ozodlik kurashi tajribasiga ega bo'lgan Kuba 1898- yilda mustaqil respublika deb rasman e'lon qilindi. Aslida esa Amerika hukmron doiralari Kubani AQSH ning mustamlakasiga aylantirdilar. 1903- yilda AQSH Kubaga majburan shartnoma qabul qildirib, uning ruxsatisiz bironta davlat bilan ittifoq tuzish yoki o'zining ichki siyosatiga birorta o'zgarish kiritish huquqidan mahrum etdi.

1907- yilda AQSH San-Domingoni teng bo'lmagan shartnoma tuzishga majbur qildi. Bu shartnomaga muvofiq San-Domingo boj solig'i va moliyasi ustidan nazorat qilish AQSH qo'liga o'tdi. AQSH o'zining moliyaviy nazoratini o'rnatib olgach, mamlakatning ichki siyosatiga ochiqdan-ochiq aralashaverdi.

AQSH ning Meksikaga sarflagan kapitali 1911- yil oxirida 1,5 mlrd. dollarga yetdi. Shaxtalarning 78 foizi, metallurgiya korxonalarining 72 foizi, neftning 58 foizi, kauchuk ishlab chiqaruvchi korxonalarining 68 foizi AQSH monopolistlarining qo'liga o'tdi.

AQSH Gvatemala, Kosta-Rika va Nikaraguaga asoratli zayomlar berdi. Bu zayomlarni berish vaqtida qo'yilgan shartlar Amerika moliyachilari va sanoatchilarining manfaatlarini himoya qilish uchun bu davlatlarning ichki ishlariga aralashishga AQSH ni to'la haqli qilib qo'ydi.

AQSH iqtisodiy, diplomatik va harbiy tazyiq o'tkazish usullarini asta-sekin ishlatib, Markaziy Amerika mamlakatlarini o'zining yarim mustamlakasiga aylantirdi. Natijada bu davlatlar AQSH sanoatiga xomashyo yetkazib beruvchi monokulturali agrar mamlakatlarga aylanib bordi.

AQSH Gavayi va Filippin orollarini bosib olganligi hamda Tinch okean mamlakatlari bilan savdo-sotiq kuchayganligi sababli Tinch va Atlantika okeanlarini birlashtiruvchi kanal qurish masalasi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Panama kanalini qurayotgan va bankrotga uchragan Fransiya-dan aksionerlik jamiyatining hamma aksiyalarini AQSH arzon-garovga sotib oldi. Kanal Kolumbiya hududida edi. Endilikda kanal qurish va undan foydalanish huquqiga Amerika to'la ravishda ega bo'ldi. Biroq, Kolumbiya Senati AQSH ning bu talonchiligiga qarshilik qildi. 1903- yil 3- noyabrda Panamada Kolumbiyaga qarshi isyon boshlandi. AQSH tomonidan uyushtirilgan isyonni AQSH Prezidenti Ruzvelt quvvatladi. Amerikaning yordami bilan qo'zg'olonchilar g'alaba qozondilar. Panama mustaqil respublika deb e'lon qilindi. AQSH darhol Panama Respublikasining «mustaqilligini» tan oldi, yaqinda tuzilgan Panama hukumati AQSH bilan kanal qazish, temir yo'llar qurish va Panama kanali bo'yida istehkomlar qurish uchun Amerikaga juda keng huquqlar bergan shartnomani imzoladi. Buning evaziga Panama 10 mln. dollar oldi va yiliga 250 ming dollar renta olib turadigan bo'ldi. AQSH Panama kanali qurilishiga e'tiborini kuchaytirdi. Qurilish 10 yil davom etib, 1914-yilda tugallandi.

Kanal AQSH ning Atlantika okeani sohillaridan Tinch okean sohillariga boradigan dengiz yo'lini ancha qisqartirib, AQSH uchun strategik va iqtisodiy jihatdan juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. AQSHning Lotin Amerikasini o'z ta'siriga olishga qaratilgan «panamerika» siyosati AQSH manfaatlariga to'la xizmat qildi. 1910-yilda Buenos-Ayresda o'tkazilgan IV Panamerika konferentsiyasida Amerika Respublikalari ittifoqi tashkiloti Panamerika ittifoqi deb

nomlandi va AQSH manfaatini uchun niqob bo'ldi. Bu siyosat asosida iqtisodiy nochor mamlakatlarga nisbatan «dollar diplomatiyasi» ishga solindi. «Yordam berish» niqobi ostida sotib olish, davlat to'ntarishlari uyushtirish oddiy holga aylanib qoldi.

Lotin Amerikasi davlatlarini o'ziga bo'ysundirish uchun boshqa davlatlarga qarshi kurashda AQSH «Monro doktrinasi»ga tayanib ish olib bordi. Bu doktrinani Teodor Ruzvelt AQSH manfaatlariga moslab talqin qilib bergan edi. AQSH «Monro doktrinasi»ga asoslanib Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan Yevropa davlatlari o'rtasidagi nizolarni bartaraf qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi va «Amerika mamlakatlaridan birontasida tartibsizliklar doimiy tus olgan taqdirda» va mana shunday tartibsizliklar natijasida kutilmagan voqealar ro'y bergan holda xalqaro politsiya rolini bajarish «AQSH ning burchidir», deb Ruzvelt ochiqdan-ochiq aytgan edi. Shu tariqa o'rnatilgan «yo'g'on kaltak» siyosati AQSH ni «G'arbiy yarimsharning politsiyasi»ga aylantirib yubordi hamda AQSH moliya va sanoat kapitalining Lotin Amerikasi mamlakatlariga bostirib kirishini osonlashtirdi.

AQSH Lotin Amerikasi mamlakatlariga qarz berib, ularni iqtisodiy va siyosiy jihatdan asoratga soldi. Shuning uchun ham bu siyosatni «dollar diplomatiyasi» deb atadilar. Dollar yordam bermagan taqdirda AQSH «yo'g'on kaltak» siyosatiga, ya'ni kuchsiz va kichik xalqlarning ichki ishlariga qurol kuchi bilan ochiqdan-ochiq aralashish yo'liga o'tardi.

**«Ochiq eshiklar
va teng imkoniyatlar»
doktrinasi**

AQSH XX asr boshlarida Xitoyga ekspansiya qilishni kuchaytirib yubordi. Biroq, yirik davlatlar Xitoyni o'z ta'sir doiralari kiritib bo'lganliklari sababli

AQSHga o'z tovarlarini shu «ta'sir doiralari»ga olib kirishga, so'ngra o'zining hukmronligini o'rnatishga imkon beradigan doktrina topish zarur bo'lib qoldi.

1899- yil sentabrda AQSH Davlat kotibi Xeyning Angliya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya va Italiyaga yuborgan ayni bir mazmundagi notalarida targ'ib qilingan «Ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar» siyosatiga xuddi shu g'oya asos qilib olindi.

AQSH Xitoydagi mavjud «ta'sir doiralari»ni tan olishdan voz

kechmadi, lekin Amerika tovarlari uchun shu «ta'sir doiralari»ni ochiq qilib qo'yishni, ya'ni savdo-sotiq erkinligini va «teng imkoniyatlar» siyosatini saqlab qolishni talab qildi. Buning uchun Xitoydan AQSH, Yaponiya, Angliya, Rossiya va boshqa davlatlar savdo qilish uchun hech qanday imtiyozlar olmasligi zarur edi. AQSH bu imtiyozlarni Amerika kapitalining Xitoyga suqulib kirishiga va Osiyoda o'zining cheksiz hukmronligini o'rnatish rejalari amalga oshirilishiga g'ov deb bildi.

**Vilson hukumatining
ichki va tashqi siyosati**

1912- yildagi Prezident saylovlari siyosiy kurash keskinlashgan vaziyatda o'tdi. Respublikachilar partiyasida ham,

Demokratlar partiyasida ham o'zini «taraqqiyotchi» deb atagan muxolifat paydo bo'ldi.

Saylovlarda «taraqqiyparvar partiya» T. Ruzveltni prezidentlikka nomzod qilib ko'rsatdi. Uning saylovoldi dasturida saylov tizimini demokratlashtirish, tabiiy boyliklarni muhofaza qilish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, trestlar ustidan nazorat o'rnatish, xotin-qizlarga saylov huquqini berish, 8 soatlik ish kuni joriy qilish, bolalar mehnatini taqiqlash kabi talablar qo'yilgan edi.

Respublikachilar yana Govard Taft nomzodini ko'rsatdilar. Demokratlar Prinston universitetining rektori, tarix va huquq professori Vudro Vilsonni, Sotsialistik partiya esa Yujin Debs nomzodini taklif etdi.

Respublikachilar partiyasidagi kelishmovchiliklar saylovlarda demokrat V. Vilsonning g'alaba qozonishiga yordam berdi.

Vilson islohotlar o'tkazib, bir qancha qonunlar qabul qildi. Xususan, Birinchi jahon urushi arafasida u bojxona tariflari to'g'risida yangi qonun — Unlervud qonunini qabul qildi. Qonunga ko'ra tarif stavkasi 10 foizga kamaytirildi, daromadning oshib borishiga qarab qo'shimcha soliq solinadigan bo'ldi.

Oldin ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchi majlislari tomonidan saylanadigan senatorlar endi xalqning ovoz berishi bilan saylanadigan bo'ldi.

1913- yili zaxira banklarning federal tizimi to'g'risida qonun qabul qilindi. Unga muvofiq mahalliy banklarning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Zaxira bank tashkil qilindi.

1914- yilda Kongress Kleytonning trestlarga qarshi qonunini qabul qildi. Unda ish tashlash davrida yetkazilgan zararni trestlar kasaba uyushmalardan talab qilolmasligi ko'rsatilgan edi.

Prezident Vilson o'zidan oldingi prezidentlar kabi AQSH ning jahonga hukmron bo'lishini orzu qilardi. Vilson bunday yozgan edi: «Yangi davr arafasida turibmiz, bu davrda biz amerikaliklar butun dunyoni boshqarishimiz kerak». Shunday qilib, V. Vilson yirik monopolistlarga sadoqat bilan xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. AQSH sanoatida XIX asrning 70- yillariga nisbatan XX asr boshlarida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
 2. AQSH siyosiy partiyalari o'zaro muxolifatda kimlarning manfaati uchun kurash olib borishdi?
 3. Prezidentlar Mak-Kinli va T. Ruzveltning davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatdagi faoliyatlarining qanday farqli tomonlari bor?
 4. XX asr boshlarida ishchilar harakatiga kimlar yo'l boshchilik qilgan? Ular haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
 5. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida negrlarning ahvoli qanday edi?
 6. AQSH ning Kuba Respublikasi bilan tuzgan shartnomasining mazmunini tahlil qiling.
 7. «Dollar diplomatiyasi» va «Yo'g'on kaltak» siyosati qaysi davlatlarga nisbatan qo'llanildi?
 8. AQSH agressiyasining eng muhim yo'nalishlarini ta'riflab bering.
 9. Birinchi jahon urushi arafasida AQSH ning ichki va tashqi siyosati qanday edi?
 10. AQSH tarixi haqida qanday badiiy asarlar o'qigansiz? Ular haqida tafsilotlar bering.

Ushbu monopolistik birlashmalar rivoji haqida erkin fikr yuriting: nega ular shuncha boylikni o'z qo'liga kiritdi? Sababi nima? «Po'lat korporatsiyasi», «Standard oyl» va boshqalar.

Ida Tarbell, E. Sinkler, T. Drayzer asarlarini o'qing va muhokama qiling.

Bu terminlarning ma'nosi haqida fikr yuriting: «Yo'g'on kaltak», «dollar diplomatiyasi», «ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar», doktrina.

5- b o b. LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA

15- §. Lotin Amerikasi mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti

Umumiy tavsif

Lotin Amerikasidagi siyosiy jihatdan mustaqil bo'lgan davlatlarning tashkil topish jarayoni 1870- yilga kelib asosan tugallangan edi. Argentina, Meksika, Chili, Urugvay, Venesuela va Kolumbiya Ispaniya hamda Portugaliya zulmiga qarshi uzoq vaqt o'z mustaqilliklarini saqlash va monarxiyani ag'darib tashlash uchun kurashdilar. Bu davlatlar milliy jihatdan ma'lum darajada birlashishga va mustahkamlanib olishga erishdilar.

Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligida XIX asrning oxirgi choragida sanoat taraqqiyoti endigina boshlangan edi. Ularning iqtisodiyotida kapitalistik munosabatlar bilan bir qatorda qulchilik qoldiqlari va hindularning sodda urug'-qabilachilik jamoalari ham mavjud edi. Bu mamlakatlarning asriy qoloqligidan Angliya, Fransiya, AQSH va Germaniya kabi davlatlarning yirik monopolistlari foydalanib qoldilar. XIX asrning oxirlariga kelib Lotin Amerikasi mamlakatlari amalda yarim mustamlakalarga aylangan edi.

Iqtisodiyotda chet el kapitalining hukmronlik qilishi ularning aholisini asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga muhtoj qilib qo'ydi. 1875- yilga qadar iqlim va tuproq sharoitlari qulay bo'lgan Braziliya, Kolumbiya, Peru, Boliviya va boshqa mamlakatlarda bug'doy ham, javdar ham, sholi ham ekilmas edi.

Lotin Amerikasining qishloq xo'jaligida ko'p tarqalgan narsa bu qarz asorati tufayli dehqon va batraklarni qul qilish yoki majburan qullarcha ishlatish edi.

Lotin Amerikasining barcha mamlakatlarida pomeschchiklar va cherkov diktaturasi rejimi hukm surardi. Hukmron sinflarning yuqori tabaqalari va chet el monopoliyalari xizmatida bo'lgan

diktatorlar hokimiyati cheklanmagan edi. Ular vahshiyona shafqatsizlik bilan idora qilar, o'zboshimchalik bilan konstitutsiyani o'zgartirar, milliy boyliklarni chet elliklarga sotar, davlat yerlarini talon-toroj qilish hisobiga boylik orttirardilar. Ularning hokimiyatni egallash uchun kurashlari doimo isyon, fitna, to'ntarishlar shaklida yuz berardi.

1873- yilgi Angliyadagi inqirozdan so'ng Lotin Amerikasiga ingliz kapitali to'xtovsiz oqib kelaverdi. Eng ko'p mablag' Argentinaga (857,7 mln. funt sterling), Braziliyaga (233,9 mln. funt sterling), Meksikaga (159 mln. funt sterling), Chiliga (63,9 mln. funt sterling) qo'yilgan edi. Asosiy mablag'lar portlarga olib boradigan temir yo'llar qurilishiga, portlar qurishga, banklarga hamda tropik o'simliklarni o'stirishga va go'sht sanoatiga sarflanardi.

XIX asr oxirida Lotin Amerikasiga AQSH kapitali ham kirib kela boshladi. 1897- yili AQSH Lotin Amerikasiga 250—300 mln. dollar kapital qo'ygan bo'lsa, 1913- yili bu kapital 1,5 mlrd. dollarga yetdi.

Ispaniya — Amerika urushi

1868—1878- yillarda Kuba xalqi qo'liga qurol olib, mustaqillik va ozodlik uchun mustamlakachilik zulmi va qullikka qarshi kurash olib bordi.

Partizan otryadlariga mulat Antonio Maseo va negr Merkado yo'l boshchilik qildilar. Kubaliklar kurash davomida ozodlik armiyasini tuzdilar. Ispaniya qo'zg'olonchilar bilan Sanxon sulhi tuzishga majbur bo'ldi va Kubada qulchilikni bekor qildi (1880- yil).

Puerto-Riko xalqi ham mustamlakachilar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, 1883- yili qulchilikning bekor qilinishiga erishdi. Endilikda Kubada, Puerto-Rikoda Ispaniyaning mavqei zaiflashgan edi. Bundan AQSH foydalanmoqchi bo'ldi. 1889- yilda AQSH uchinchi marta Ispaniyaga murojaat qilib, Kubani sotishni taklif qildi, lekin Ispaniya bu taklifini yana rad etdi. Bu taklifga Kuba vatanparvarlari ham qarshi chiqib, mamlakatning to'la mustaqilligi uchun kurashdilar. 1895- yili Kubada *Xose Marti* va *Maksimo Gomes* boshchiligida qo'zg'olon boshlandi. Uch yil davomida ispan mustamlakachilariga qarshi shiddatli kurash olib borildi. AQSH Ispaniya mustamlakachilarini bo'ysundirish maqsadida Kubadagi urushga aralashish uchun qulay payt poyladi.

1898- yil 25- aprelda Ispaniya bilan AQSH o'rtasida urush boshlanib ketdi. AQSH Ispaniya floti va armiyasini juda tez tor-mor qildi. Kubadagi milliy ozodlik harakatini bostirdi.

1898- yil dekabrda Parijda sulh shartnomasi imzolandi. Kuba «mustaqil» deb e'lon qilindi, biroq, amalda AQSH ning protektorati bo'lib qoldi. Kubaning Guantanamo gavani bilan birga hududining bir qismi AQSH ning doimiy harbiy dengiz bazasiga aylantirildi. Kuba Konstitutsiyasiga amerikalik senatorning taklifi bilan yangi modda — «Platt tuzatishi» kiritildi. Bunga ko'ra, AQSH Kubaning ichki ishlariga istagan paytda aralashish va uning tashqi siyosatini belgilash huquqini oldi.

Meksikada burjua inqilobi.

P. Dias diktaturasi

1872- yilning 18- iyulida Meksika Prezidenti *Benito Xuares* to'satdan vafot etdi. Prezidentlik lavozimini uning safdoshi *Sebastian Lerdo de Texada*

(1872—1876) egalladi. Lerdo de Texada Liberal partiyaning pomeshchiklar va cherkov bilan kelishishini istardi. Uning hukumati faqat tashqi siyosat sohasidagina Meksikaning milliy manfaatlarini himoya qilib, Xuares yo'lini davom ettirdi.

AQSH Meksikaning o'ziga chegaradosh shimoliy rayonlarida Amerika korxonalari va temir yo'llar qurish uchun Meksika hukumatidan ruxsat so'radi. Tabiiyki, Lerdo de Texada bu murojaatni rad etdi. Shakarqamish plantatsiyasi egasi, AQSH va mahalliy hukmron kuchlarga tayangan P. Dias 1876- yilda davlat to'ntarishi qilib, o'zini prezident deb e'lon qildi.

Porfirio Dias Meksika Prezidenti lavozimida 1911- yilgacha turdi, faqat 1880—1884- yillar o'rtasidagi davrdagina u prezidentlik qilmagan, bu davrda prezident kursisida Diasning o'zi ko'targan general *Manuel Gonsales* o'tirgan edi. Dias Meksikada yirik pomeshchiklar, bankirlar va yuqori tabaqa ruhoniylarning chet el kapitali qo'llab-quvvatlab turgan harbiy-politsiyachi diktaturasini o'rnatdi.

Dias diktaturasi davri Meksikani chet el monopoliyalarining yarim mustamlakasiga aylantirish davri bo'ldi. Chet el kapitali uning tabiiy boyliklarini, butun sanoat va savdoni o'z nazoratiga oldi.

Dias idora qilgan davrning oxiriga borib, AQSH ning Meksikaga qo'ygan kapitali 1 mlrd. dollardan oshib ketdi, holbuki, bu

vaqtda ingliz kapitali 350 mln. dollardan oshmas edi. AQSH Meksikaning neft konlarini o'z qo'liga oldi, kon-ruda sanoatida mustahkam o'mashib oldi va tashqi savdoning 90 foizini o'z nazoratiga bo'ysundirdi. Neft, ko'mir, kumush, mis, oltin qazib chiqarishning deyarli hammasi Amerika va ingliz kapitalistlari qo'lida edi. Sanoatda Meksika kapitalining hissasi nihoyatda kam edi.

Ingliz — amerika kapitalistlari Meksika hududining 16,2 foizini egallab olgan edilar. 1910- yilda ajnabiylardan faqat 269 kishi 32 mln. gektar yerga egalik qilardi.

1907- yilda AQSH da boshlangan iqtisodiy inqiroz Meksikaga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi va tashqi savdoni keskin qisqartirib yubordi. 1909- yili Meksikada hosil bo'lmadi.

Bir qator shtatlarda dehqonlar ocharchilikdan jafoga chekayotgan va o'layotgan bir paytda pomeshchiklarning omborlariga g'alla sig'may qolgan edi. Dehqonlar g'alayoni kuchaya-verdi. Ular pomeshchiklar qo'rg'oniga hujum qilar, o't qo'yar, yerlarni bo'lib olardilar. Meksika janubidagi Morelos shtatida dehqonlar g'alayoni ayniqsa katta bo'ldi, bu yerda *Emiliano Sapata*



Emiliano Sapata

(1877—1919) guruhi harakat qilardi. 1909- yil sentabrida Sapata dehqonlarni himoya qilish xuntasi tuzdi, uning shiori «Yer va ozodlik» degan chaqiriqdan iborat edi.

Diktaturadan norozilik burjuaziya orasida ham o'sib bordi, ular pomeshchiklar hokimiyatini cheklashni talab qildilar. Cho'yan quyuvchi zavod va paxta plantasiyalarining egasi bo'lgan *Fransisko Madero* muxolifatga «bosh» bo'ldi. 1908- yilda u siyosiy broshyura nashr qilib, unda konstitutsiyaga muvofiq, qonuniy saylov yo'li bilan hokimiyatni almashtirish zarurligini

isbot qildi. 1910- yil iyulida Meksikada prezidentlikka saylovlar bo'ldi. Diasni prezidentlikka qayta saylashga qarshi turgan ko'pchilik Madero atrofida birlashdi va «qayta saylashga qarshilar» partiyasi vujudga keldi.

1910- yil aprelida Mexikoda bu partiyaning syezdi bo'lib, unda milliy sanoatni himoya qilish va konstitutsiyaviy erkinliklar berish talab qilib chiqildi. Prezidentlikka saylovda Madero o'z nomzodini qo'ydi. Uning tarafdorlari Prezident saroyi oldida katta miting uyushtirdilar. Saylov oqibatlaridan qo'rqqan P. Dias Maderoni San-Luis-Potosi shahridagi turmaga tashladi.

Saylovlar tinch o'tib, odatdagidek, Dias yana «g'alaba qozondi». Oradan biroz vaqt o'tgach turmadan bo'shatilgan Madero AQSH-ga qochdi va 1910- yil 15- oktabrda u yerda «San-Luis-Potosi rejasi» deb atalgan o'z dasturini e'lon qildi. U saylovlarning soxtaligini oshkor qilib, o'zini qonuniy prezident deb e'lon qildi. Diktatura davrida hindulardan g'ayriqonuniy tortib olingan yerlarni qaytarib berishga va'da qildi. «San-Luis-Potosi rejasi» xalqni qo'zg'olonga chaqirdi. 1911- yil 10- mayda Maderoni yoqlagan guruhlar AQSH ga chegaradosh Xuaris shaharchasini qattiq hamla bilan egalladilar va Maderoga o'z tarafdorlari bilan Meksikaga kirishga yordam berdilar. 1911- yil 24- mayda Mexikoda ishchilar, talabalarning Diasning iste'fo berishini talab qilgan katta namoyishi bo'lib o'tdi. Ikki kundan so'ng Dias Meksikadan qochdi.

1911- yil 7- iyunda Madero poytaxtga kirib keldi. Madero prezidentlik lavozimiga erishgach, Dias «oyoq osti qilgan» 1857-yilgi liberal konstitutsiyaga sodiqlik to'g'risidagi quruq va'dadan nariga o'tmadi. U cherkovning reaksiyon tabaqa boshliqlari va pomeschiklar bilan kelishish yo'lini tutdi. Pomeschiklarning yerlarini tortib oluvchi dehqonlarga qarshi kurashdi, partizan otryadlarini qurolsizlantirib, tarqatib yuborish to'g'risida buyruq berdi. Pomeschiklarga qarashli yerlarning bir qismini haq to'lash evaziga dehqonlarga berishni va'da qildi. Biroq, bunga pomeschiklar qarshilik ko'rsatdilar va hukumat o'z va'dasini bajarmadi.

Dehqonlar harakatining markazi Morelos shtati edi. U yerda dehqonlar rahbari, iste'dodli sarkarda E. Sapata armiyasining asosiy qismlari joylashgan edi. Sapata Maderoning qurolli guruhlarini

tarqatish to'g'risidagi buyrug'iga bo'ysunmay, hukumat qo'shinlariga qarshi kurash boshladi. «Yer va ozodlik» shiori butun Meksikaga yoyildi.

1911- yil 28- noyabrda Sapata o'zining agrar dasturini — «Ayal rejasi»ni e'lon qildi. Bu reja hindulardan tortib olingan yerlarni qaytarib berish, barcha yerlarni musodara qilish va ularni yersiz dehqonlarga berishdan iborat edi.

Fransisko Vilya (1877—1923) rahbarligidagi Shimoldagi dehqonlar harakatining o'z dasturi yo'q edi, lekin «Yer va ozodlik» shiori hamma bayroqlarga yozilgan edi.

Madero hukumati eski taqiqlarni bekor qilib, ishchilarning kasaba uyushmalarini rag'batlantirdi, barcha joylarda kasaba uyushmalari va federatsiyalar tuzila boshladi.

Ish tashlash harakatlari kuchaya bordi. 1912- yilda 70 dan ortiq ish tashlash bo'lib o'tdi. Madero hukumati «yon berib», ish kunini 10 soatgacha cheklab qo'ydi va ishlab chiqarishda jarima tizimini bekor qildi. Ammo ishchilar 8 soatlik ish kuni joriy qilishni, o'z ahvollarini yaxshilashni qattiq talab qilaverdilar. Hukumat ishchilarni tinchitish uchun mehnat departamenti huzurida «Katta ishchi ligasi»ni tuzdi. Bu katolik ishchilar tashkiloti bo'lib, ishchilar unga ishonchsizlik bildirdilar.

Madero hukumati chet el kapitalini cheklamoqchi va milliy iqtisodiyotni himoya qilmoqchi bo'ldi. Maderoning «yon bosish»



Fransisko Vilya va uning safdoshlari

va kelishuvchilik siyosati nafaqat mehnatkashlarni, balki reaksiyani ham qanoatlantirmadi. Uni har ikkala tomon qat'iyatsizlikda aybladi.

Meksika neftini ekspluatatsiya qilayotgan AQSH Maderoning milliy siyosatiga «dushmanlik ko'zi bilan» qaradi va diktator Diasning maslakdoshi *general Uertani* Maderoga qarshi gij-gijlay boshladi. AQSH ning qo'llashidan ruhlangan Uerta davlat to'ntarishi qilib, Maderoni otib tashladi va Meksikada AQSH monopoliyalariga tayangan pomeschchiklar va cherkov diktaturasini tikladi.

Uerta diktaturasi (1913- yil fevral — 1914- yil iyul) Meksikadagi ahvolni yanada og'irlashtirdi. Faqat oddiy xalq emas, balki milliy burjuaziya va burjualashgan pomeschchiklarning bir qismi ham Uertaga qarshi chiqdi. Kaula shtatining gubernatori, yirik chorvador pomeschchik *Karransa* Uertaga qarshi qo'zg'olon ko'tarishga va konstitutsiyani himoya qilishga chaqirdi. Mamlakatda fuqarolar urushi avj oldi. Shunday qaltis paytda AQSH o'z flotini Meksikaga yubordi. Flot Meksikaning asosiy porti bo'lgan Verakrus shahrini egalladi. Bu holat fuqarolar urushini yanada kuchaytirib yubordi.

Turli kuchlar birlashib, general Uerta diktaturasini ag'darib tashladilar.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Lotin Amerikasining etnik va ijtimoiy tarkibini ta'riflab bering.
 2. Lotin Amerikasi davlatlarining taraqqiyoti nima uchun Yevropaga nisbatan zaif edi?
 3. Lotin Amerikasi tub joy xalqlarining ahvoli qanday edi?
 4. Lotin Amerikasi mehnatkashlarining ekspluatatorlarga qarshi olib borgan kurashi qanday xususiyatga ega edi?
 5. Lotin Amerikasining mustaqil davlatlari qanday qilib qaram davlatlarga aylantirilar edi?
 6. Ispaniya — Amerika urushida taraflar qanday manfaatlarni ko'zlardilar?
 7. Meksikadagi inqilobning natijalari xalq uchun nima berdi yoki xalq bundan qanday talafot ko'rdi?
 8. Dias diktaturasi — prezidentligi AQSH prezidentlarining siyosiy faoliyatlaridan nimasi bilan farq qiladi?

Bu nomlarni yodda saqlang: Antonio Maseo, Merkado, Lerdo de Texada, P. Dias, Maksimo Gomes, Xose Marti, Emiliano Sapata, Madero, San-Luis-Potosi, Fransisko Vilya, Uerta, Karransa.

16- §. Braziliya, Argentina va Markaziy Amerika davlatlari

Braziliyada qulchilikning bekor qilinishi

Braziliya va Argentina Janubiy Amerikadagi yirik davlatlardan bo'lib, ulardagi ahvol boshqa davlatlarga ham xos edi. Braziliya aholisi 15 mln. bo'lib,

eng qoloq mamlakatlardan edi. Braziliyada qullik, qashshoqlik, jaholat va huquqsizlik keng avj olgan edi. Qullarni sotadigan bozorlar, o'z oilasiga, o'z uyiga ega bo'lish huquqidan mahrum bo'lgan kishilarni sotish, zahmatkash qulni nazoratchilar tomonidan qamchilab ishlatish 70 — 80- yillarda odatiy hol edi. Bu mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga asosiy g'ov edi.

70—80- yillarda Minas-Jerays, Seara Amazonas va Riu-Grandi-du-Norti viloyatlarida qullar qo'zg'oloni bo'lib o'tdi. Eng so'nggi yirik qo'zg'olonlardan biri Riu-Grandi-du-Norti viloyatida Bonifasio degan qulning rahbarligi ostida shakarqamish plantatsiyalarida ko'tarilgan qullar qo'zg'oloni bo'ldi. Qullar o'zlarining negr respublikalarini e'lon qildilar va Bonifasioni uning prezidenti qilib sayladilar. Respublikaning asosiy vazifasi qullarni ozod qilish, deb hisoblagan Bonifasio viloyat poytaxti Natal shahriga yurish boshladi. Biroq, imperator qo'shinlari yo'lda unga yetib oldi va tor-mor qildi.

Negrlar ozodlik kurashining kuchayishi va abolitsionistik harakatning kengayishi 1871- yil 18- sentabridagi «Tug'ilgandan boshlab ozod qilish» qonunining chiqarilishiga yordam berdi. Qul ayollardan tug'ilgan bolalar erkin bo'lib qoldi. Ko'p o'tmay, 60 yoshga to'lgan qullar ozod qilindi.

Qullar tez-tez o'z quldorlaridan o'rmon va tog'larga qochib ketar, ozod negrlar qullar bilan o'zaro yordam tashkilotlari tuzar, pul yig'ar va haq to'lab qullarni ozod qilar edilar.

Negr Andres Rebusaz Braziliyaning ko'zga ko'ringan muhandisi va Rio-de-Janeyrodagi qulchilikka qarshi bo'lgan

konferensiyaning tashkilotchisi edi. 1883- yilda u do'sti, publitsist Joze va Patrosino bilan birga odamlarni qullikdan ozodlikka chaqiruvchi «Ozodlik manifesti»ni yozdi.

Burjualashgan plantatorlar abolitsionistik harakatni quvvatladilar. Eng yirik plantator Antonio Predo o'z qullarini ozod qilib yubordi, u saroy vaziri bo'lgach, hamma qullarni ozod qilish haqida taklif kiritdi. Kasalligi uchun Yevropada yashayotgan mamlakat hukmdori *Pedru II* o'rnida vaqtincha turgan regent-malika Izabel 1888- yil 13- mayda Braziliyada qullarni ozod qilish haqidagi «Oltin qonun» nomi bilan mashhur qonunga qo'l qo'ydi. Mamlakatda bu paytda 750 ming qul bor edi.

Qulchilikning bekor qilinishidan faqat xalq ommasi, savdogar yoki kapitalistlargina emas, balki eksport uchun ko'plab tovar ishlab chiqargan plantatorlar ham manfaatdor edilar.

70- yillardan boshlab Braziliyada sanoatning milliy tarmoqlari: to'qimachilik, ko'nehilik, tamaki, go'sht, vino sanoatlari taraqqiy eta boshladi. Braziliya tovarlari — kofe, paxta, kauchukni eksport uchun yetishtirish tez o'sib bordi. 1903- yilga kelib Braziliyada 143 ta to'qimachilik fabrikasi bor edi.

Qulchilikni bekor qilish harakati ayni vaqtda monarxiyaga ham qarshi qaratilgan edi. Monarxiyaga qarshi kayfiyatlar, ayniqsa armiyada kuchli edi. Ilg'or zobitlar qulchilikni bekor qilish harakatida faol qatnashdilar.

Qulchilik bekor qilingach, respublika uchun kurash kuchayib ketdi. Respublikachilar orasida ikki oqim: radikal va konservativ oqimlar aniq bo'lib qoldi.

1889- yil 14- iyulda, Bastiliya olinganligining 100 yilligi kunida Rio-de-Janeyroda respublika tarafdorlarining katta namoyishi bo'lib o'tdi. Namoyishda talabalar, hunarmandlar, savdogarlar va shaharliklar qatnashdilar. Politsiya namoyishni tarqatishga urinib ko'rdi va uning boshliqlarini turmaga tashladi.

Bu namoyishdan armiyada marshal *Deodoru de Fonseka* rahbarligida isyon ko'targan respublikachilar foydalandilar. 1889- yil 19- noyabrda Pedru II taxtdan voz kechib, ingliz kemasida Portugaliyaga jo'nab qoldi. Hokimiyat harbiylar qo'liga o'tdi. Deodoru de Fonseka boshchiligidagi hukumat Respublika e'lon

qildi. Braziliya 1891- yilda qabul qilingan yangi respublika konstitutsiyasiga binoan Braziliya Qo'shma Shtatlari deb ataladigan bo'ldi. U 20 ta shtatdan va respublikaning markazi Rio-de-Janeyro federal okrugidan iborat edi. Konstitutsiyaga ko'ra, imtiyozlar bekor qilindi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi e'lon qilindi.

XX asr boshlarida marshallar — Deodoru de Fonseka va *Floreano Peyshatu* parlamentni tarqatib yuborib, mamlakatni diktatorlik usuli bilan idora qila boshladilar, mamlakatning iqtisodiy ahvoli og'ir ekanligidan ingliz, fransuz, german va Shimoliy Amerika hukmron doiralari foydalandilar. Ular sanoatning hal qiluvchi tarmoqlarini egallab oldilar. 1910- yilda chet el kapitali 3 mlrd. dollarga yetdi. Flot va armiyada oddiy askarlarning ahvoli ham nihoyatda og'ir edi. Ular hukumatdan tan jazosini bekor etishni talab qildilar, ta'qiblarga qaramay maqsadlariga erishdilar.

Braziliyaning sanoati juda sekin taraqqiy etdi. 1907- yilgi hisob bo'yicha mamlakatda 150841 ishchisi bo'lgan atigi 3250 sanoat korxonasi bor edi. Korxonalarning ko'pi ishlovchilar soni 20 ta dan oshmagan fabrikalar edi. Mamlakatda malakali ishchilar deyarli yo'q edi.

Argentinadagi ahvol

1870 yilda Argentinaning katta hududida hammasi bo'lib 2 mln. aholi yashardi.

Uzoq davom etgan ichki kurash, Paragvay bilan olib borilgan vayronagarchilik urushi (1870- yil martida) endigina tugagan, mamlakat xarob holda edi. 1871- yilning boshida Argentinada sariq, bezgak epidemiyasi tarqaldi, natijada Buenos-Ayresning o'zida 13.000 kishi o'ldi, iqtisodiy hayot deyarli to'xtab qoldi.

Federalistlar (viloyatlarga keng muxtoriyat berish tarafdorlari)ning liberal doirasi vakili bo'lgan *Sarmiento* hukumati (1868—1874) ichki ahvolni barqarorlashtirishda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. 1872- yilda Buenos-Ayresda milliy bank ochildi. Hukumat immigrantrlar kelishiga sharoit yaratdi. Sarmiento prezidentligi davrida Argentinaga 300.000 kishi ko'chib kelgan edi. Yevropadan kelgan kolonistlar imtiyozli shartlar bilan davlatdan yer olardilar. Uning davrida ko'plab shaharlar, yo'llar qurilib, kengaytirildi, maorif va fan tez rivojlana boshladi. 1873- yilda Argentinada fuqarolik kodeksi qabul qilinib, shu vaqtgacha sud

muassasalarida hukm surib kelgan o'zboshimchalik va tartibsizliklarga chek qo'yildi. Cherkovning maorif va madaniyat sohasidagi ta'siri ham cheklab qo'yildi. Katolik maktablarining ko'pi yopildi va ularning o'rniga dunyoviy maktablar ochildi. Buenos-Ayresda piyoda askarlar va harbiy dengiz maktabi ochilib, harbiy ta'limga asos solindi.

Sarmentoning izdoshlari bo'lgan prezidentlar — *Avelyaneda* (1874—1880), *Roka* (1880—1886) va *Xuares* (1886—1890) davrida reaksiyon kuchlar yana bosh ko'tarib chiqdilar. Hatto, Avelyaneda hukumatiga ta'sir o'tkazib, uni o'zlariga bo'ysundirdilar. Roka esa hokimiyatni pomeshchiklar manfaatini ko'zlab boshqardi va ikki marta prezidentlikka saylandi. Uning davri davlat yerlarini talon-toroj qilish, tub aholi bo'lgan hindularni shafqatsizlik bilan qirish va ularning yerlarini tortib olish davri bo'ldi.

1876- yili immigratsiya va kolonizatsiya to'g'risida qonun qabul qilindi. Qonunga ko'ra, hali aholi band qilmagan davlat yerlari 80 gektardan oshmaydigan uchastkalarga bo'linib, monopolistlarga sotiladigan bo'ldi. Bundan faqat katta puldorlar foydalandilar va yerlarni arzonga sotib olib, chorvachilik xo'jaliklari tashkil etdilar.

Hindularni yerlaridan haydab, ularni butunlay qirish jarayoni avj oldi. Hukumat hindularga qarshi 1872, 1878, 1879 va 1886-yillarda katta harbiy ekspeditsiyalar yubordi. Hindularning hosildor yerlari tortib olinib, zobitlar va askarlarga bepul bo'lib berildi. Askarlar o'z yerlarini boylarga sotardilar.

Mamlakatda tovar dehqonchiligi va chorvachiligi nihoyatda tez rivojlandi. 1870- yilda ekin maydonlari 1 mln. gektarga yetmagan bo'lsa, 1895- yilda 4,9 mln. gektarga, 1908- yilda esa 16,3 mln. gektarga yetdi. Argentina 1875- yilda chetdan bug'doy sotib olishni to'xtatdi. 90- yillarda esa bug'doy eksport qilish bo'yicha dunyoda eng yirik davlatga aylandi.

Chorvachilik va qishloq xo'jaligi hamma sohalardan tez rivojlandi. Go'sht eksport qilish yil sayin o'sdi. 1895- yilda 21,7 mln., 1908- yilda qariyb 30 mln. bosh qoramol bor edi. Qo'ylar soni 1870- yili 40 mln. bo'lgan bo'lsa, 1895- yilga kelib 78 mln. dan oshdi.

Go'sht va don yetishtirishning o'sishi bilan birga oziq-ovqat sanoatining yangi tarmoqlari — qand, vino, spirt ishlab chi-

qaradigan tarmoqlar paydo bo'ldi. Fabrikalar 2 tadan 10 tagacha ishchi bo'lgan yarim kustar korxonalar edi. 1887- yilda Buenos-Ayresda 42.321 ishchiga ega bo'lgan 10.349 fabrika mavjud edi. 1895- yili fabrikalar soni 8.439 taga qisqardi. Ishchilar soni 73 ming kishiga yetib, fabrikalar yirik korxonalarga aylantirildi.

Argentina aholisi immigrantlar hisobiga ko'paydi. 1870- yildan 1900- yilgacha mamlakatga 2 mln. dan ortiq kishi ko'chib keldi. 1889—1890- yillarda qimmatchilik va mehnat sharoitining og'irligi tufayli port ishchilari, temir yo'lichilar, novvoylar, duradgorlar va boshqa ishchilar ish tashladilar. Namoyishchilar 8 soatlik ish kunini talab qildilar. 1895- yilda Sotsialistik partiya tuzildi. Partiya 8 soatlik ish kuni, diniy ta'limni bekor qilish, yagona soliq joriy qilish, kasaba uyushmalarni birlashtirish va namoyishlarga ruxsat uchun kurash olib bordi. 18 yoshga to'lgan erkak fuqarolarga (ruhoniy va harbiylardan tashqari) umumiy saylov huquqini berish to'g'risida qonun chiqardi.

Iqtisodiy jihatdan Argentina urush arafasida Lotin Amerikasidagi eng ilg'or davlat edi. Urush yillarida Argentina betaraflikka rioya qilib, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini eksport qiluvchi yirik mamlakat bo'lib qoldi. Bug'doy eksport qilish yiliga 15—20 mln. sentnerga yetdi. Makkajo'xori eksport qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Argentinadan Yevropaga ko'plab go'sht va go'sht mahsulotlari yetkazib berilardi. To'qimachilik, oyna, sement, metall ishlovchi va kemasozlik sanoatlari tez rivojlandi. Angliyaning 1914- yilda Argentinaga qo'ygan kapitali qariyb 1,5 mlrd. dollarga yetdi. Argentina tashqi savdosi ham ingliz monopolistlari nazorati ostida edi.

Markaziy Amerika davlatlaridagi ahvol

Markaziy Amerika davlatlarining 1870- yildan 1914- yilgacha davom etgan yarim asrga yaqin tarixining xususiyati shundaki, u yerda ichki janjallar, to'ntarishlar va o'zaro urushlar bo'lib turdi. Bular bir-biriga dushman bo'lgan guruhlar kurashining oqibati edi.

Davlatlar o'rtasidagi janjal ularning ichki ishlariga AQSH hukumatining aralashuvi tufayli yanada kuchayib ketdi. AQSH monopolistlari bu kichik respublikalardagi xalqlarni bir-biriga dushman qilib qo'yar, bir hukmron guruhni ikkinchisiga qarshi

gij-gijlar va Markaziy Amerika xalqlarini asoratga solish uchun shu yo'sinda o'zlariga yo'l ochardilar.

Markaziy Amerikaning boshqa mamlakatlariga qaraganda, Gvatemala va Kosta-Rika nisbatan osoyishtalik sharoitida taraqqiy etdi. *Rufuno Barrios* (1873—1885) Gvatemalaning mustaqilligiga asos soldi. U «qattiqqo'l» diktator sifatida mamlakatdagi tez-tez bo'lib turgan to'ntarishlarni yo'qotdi. U eksport uchun tovar ishlab chiqarish maqsadida xo'jalikni taraqqiy ettirgan burjualashgan pomeshchiklarga tayanib diniy ordenlarni tugatdi. Lekin uning butun Markaziy Amerikani o'z hukmronligi ostida birlashtirmoqchi bo'lganligi oqibatida o'zaro janjallar yana boshlanib ketdi. Hokimiyat yirik pomeshchik *Estrada Cabrera* (1898—1920) qo'liga o'tdi. Uning davrida ichki kurashlar natijasida «holdan toygan» Gvatemala AQSH ga juda ham qaram bo'lib qoldi.

Gonduras, Salvador va Nikaragua o'zaro janjal va tortishuvlardan so'ng 1895—1896- yillarga yagona davlat — Buyuk Markaziy Amerika Respublikasi bo'lib birlashdilar. Uch davlat ittifoqida rahbarlik rolini Nikaragua diktatori *Selaya* (1883—1909) o'ynadi. U AQSH ning bu mamlakatlarga qilgan ekspansiyasiga birmuncha qarshilik ko'rsatdi. AQSH monopoliyalari bu mamlakatlardagi klerikal-feodal guruhlariga tayanib, Buyuk Markaziy Amerika Respublikasini tarqatib yubordilar. 1907- yili ular Nikaragua bilan Gonduras o'rtasida harbiy janjal uyushtirdilar. Bu janjaldagi ular Selayani aybladilar va Nikaraguadagi uning dushmanlariga yordam berib, uni «ag'darib» tashladilar. Xalq bundan norozi bo'ldi va qo'zg'olon boshladi. Selaya tarafdorlariga qarshi kurashish bahonasi bilan AQSH Nikaraguaga dengiz piyoda askarlarini olib kirdi va bu mamlakatni Brayyan Chimorre shartnomasiga qo'l qo'yishga (1914- yil avgust) majbur qildi. Shartnomaga muvofiq, Nikaragua hududining bir qismi kanal qurish uchun AQSH ga berildi.

AQSH Gaiti bilan Dominikana Respublikasi o'rtasida bo'lib turgan o'zaro janjallardan ham foydalanib qoldi. 1907- yili AQSH Dominikana Respublikasiga o'z soliq to'plovchilari va nazoratchilarini yubordi.

1914- yil avgustida Panama kanali ochilgach, kanal zonasida Amerika gubernatori o'ziga bo'ysunadigan yirik harbiy

kuchlar bilan Markaziy Amerika mamlakatlariga xavf solib turdi.

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. XIX asrning ikkinchi yarmida Braziliya, Argentina va Markaziy Amerika mamlakatlarining ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli qanday edi?
 2. Braziliyada qulchilikning bekor qilinishi Markaziy va Lotin Amerikasi mamlakatlariga qanday ta'sir ko'rsatdi?
 3. Xaritadan Gvatemala, Kosta-Rika va Argentinani toping. Ularning iqtisodiy hayotidagi boshqa davlatlardan farqli tomonlarni tushuntiring.
 4. Panama respublikasi qanday sharoitda «mustaqillik»ka erishdi? Bu «mustaqillik» to'g'risida so'zlab bering.
 5. Latifundiyachi pomeshchiklar chet el kapitali bilan tuzgan ittifoqning negizlarini ochib bering.
 6. Birinchi jahon urushi arafasida Lotin Amerikasining iqtisodiy va siyosiy ahvoli qanday edi?

Bu nomlarni xaritadan toping va nima bo'lganini so'zlang:
 Minas-Jerays, Seara Amazonas, Riu-Grandi-du-Norti, Natal, San-Paulu, Buenos-Ayres.

Bu raqamlar ustida bahs yuriting: Argentina 15—20 mln. sentner bug'doy eksport qilardi.

Makkajo'xori eksport qilish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turardi. Nega? 15- § dagi materiallar bilan solishtiring.

6- b o b. ROSSIYA XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA

17- §. XIX asrning oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti

Xalq xo'jaligining rivojlanishi


XIX asrning oxirlarida yuz bergan jahon agrar inqirozi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir etgan bo'lsa-da, mamlakat xalq xo'jaligi 80—90- yillarda yana asta-sekin rivojlana boshladi. Og'ir

sanoat tezlik bilan ilgariladi. Mayda sanoat ishlab chiqarish va manufaktura o'sa bordi. Temir yo'llarning uzunligi oshib bordi.

Sanoat o'zgarishi tugallangan edi, binobarin, bu vaqtda mexanizatsiyalashgan fabrika ishlab chiqarishining xalq xo'jaligidagi salmog'i 60—70- yillardagiga qaraganda ancha baland edi. Chet el kapitali mamlakatga juda tez va ko'plab kira boshladi. Ishchilar soni o'sdi. Sanoatning rivojlanishi bo'yicha 80—90-yillarni ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 1881—1892- yillarni, ikkinchi bosqich 1893—1900- yillarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda qishloq xo'jaligi jahon agrar inqirozidan katta zarar ko'rgan edi. 1891—1892- yillarda ocharchilik yuz berdi. Temir yo'l qurilishi qisqarib ketdi. Biroq, og'ir sanoat o'sdi. Donetsk havzasi va Krivoy Rog o'rtasida bunyod qilingan temir yo'l metallurgiyaning rivojlanishiga yordam berdi.

Ikkinchi bosqichda Rossiya tarixida katta sanoat yuksalishi yuz berdi. Sanoatning barcha tarmoqlari, ayniqsa, og'ir sanoat o'sdi. 90- yillarda mamlakat xo'jaligiga ko'plab chet el kapitali jalb qilinganligi ham iqtisodiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu



Putilov zavodining turbina sexi

davrda bank kapitalining roli oshib ketdi. 90- yillardagi sanoat yuksalishi davri umuman olganda Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy tarixida yangi davrni boshlab berdi.

80—90- yillarda shuningdek, qishloq xo'jaligi ham taraqqiy etdi. G'alla narxining pasayishi to'xtadi. Qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ikkita xususiyati bor edi.

Birinchidan, qishloq xo'jaligining rivojlanishi «prusscha yo'l»dan borayotgan edi. Ikkinchidan, bu yillarda dunyo bozorida g'alla narxining pasayib borishi Rossiya qishloq xo'jaligiga qattiq ta'sir ko'rsatgan edi.

70- yillarning oxirlaridan to 90- yillargacha Yevropa qishloq xo'jaligining ahvoli tarixiy va iqtisodiy adabiyotlarda XIX asr oxirlaridagi agrar inqiroz deb nom olgan edi. Bu inqiroz asosan g'alla narxining pasayishida ko'ringan edi. Dunyo bozorida g'alla narxining pasayishi 70-yillarning ikkinchi yarmida boshlanib 90-yillarning o'rtalarigacha davom etdi. Yigirma yil ichida g'alla narxi taxminan ikki barobar pasaydi.

Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chetga chiqarish o'sa bordi. Biroq, g'alla asosiy chetga chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsuloti bo'lib qolaverdi. Agar 1876—1880- yillarda chetga 291 mln. rubllik 277 mln. pud g'alla, 56 mln. rubllik 10 mln. pud zig'ir chiqarilgan bo'lsa, 1896—1900- yillarda 323 mln. rubllik 444 mln. pud g'alla, 51 mln. rubllik 13 mln. pud zig'ir chiqarildi.

Hukumat chetga ko'proq g'alla chiqarishni qo'llab-quvvatlardi, chunki buni chet ellar bilan savdo-sotiq ishida balansni saqlashning asosiy vositalaridan biri deb bilardi. 80-yillarning oxiri — 90-yillarning boshlarida moliya vaziri bo'lgan I. A. Vishnegradskiy: «O'zimiz kamroq yesak ham, chetga chiqaraylik», degan edi.

80—90-yillarda Qozog'iston cho'llariga asosan rus va ukrain dehqonlari ko'chib kela boshlaganligi tufayli dehqonchilik rivojlandi. Yerli aholining ham ekin maydonlari kengaydi. Ammo ko'chmanchi chorvachilik hali ham Qozog'istonda asosiy o'rin tutar edi. 1909- yil ma'lumotiga qaraganda, bu yerdagi aholining to'rt dan uch qismini ko'chmanchilar tashkil etardi. Chor Rossiyasi istilosi O'rta Osiyo qishloq xo'jaligiga albatta o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymadi. 80- yillarda O'rta Osiyodan Rossiyaga chiqariladigan paxta hali uncha ko'p emas edi, ammo 1900- yilda O'rta Osiyo paxtasi

(Buxoro va Xivada yetishtirilgan paxta bilan birga) Rossiya fabrikalarida ishlatiladigan paxtaning 36 foizini tashkil etardi.

80—90- yillarda bir qancha tarmoqlardagi mayda korxonalar manufakturaga aylana bordi. Mayda sanoat XIX asr oxirlariga borib beradigan mahsulotning qiymati jihatidan yirik sanoatdan keyingi o'rinda tursa ham, o'zida band bo'lgan ishchilar soni jihatidan undan ustun turardi. 70- yillarning oxirida sanoat jiddiy yuksalish darajasiga yetmasdan 1882—1886- yillardagi uzoq muddatga cho'zilgan depressiyaga (turg'unlikka) uchradi.

1893- yilda qaytadan boshlangan sanoat yuksalishi o'n yillikning oxirigacha davom etdi. Bu yuksalish mamlakat ichida kapital jamg'arishning o'sishi, ayniqsa hukumatning temir yo'l qurilishiga g'oyat katta mablag' sarflashi hamda katta hajmda chet el kapitalining kirishi natijasida yuz berdi.

Yuksalish yillarida ishlab chiqarishning qanday sur'atlar bilan o'sganligini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin: (million rubl hisobida):

4- jadval

Yillar	Donbass- da ko'mir qazib chiqarish	Neft qazib chiqa- rish	Cho'yan eritish			Paxta- ni qayta ish- lash	Mashi- nalar ishlab chiqarish
			ja- mi	shu jumladan			
				Janub- da	Ural- da		
1892	218	296	64	17	31	10	54
1900	672	631	177	92	50	16	160

Rossiya qisqa vaqt davomida (1898—1901- yillar) neft qazib chiqarishda AQSH dan o'zib ketib, dunyoda birinchi o'rinni egalladi. Chet elga asosan kerosin chiqarilardi.

Yuksalish yillarida cho'yan eritish salkam uch barobar oshdi. Bunga asosan Rossiyaning janubida metall eritishni 5 barobardan ziyodroq ko'paytirilishi sabab bo'ldi. Janub 1895- yildayoq Uraldan o'zib ketdi. 1900- yilda esa Janubda eritilgan cho'yan Uralda eritilgan cho'yandan ikki barobar ortiq edi.

Sanoat yuksalishi yillarida Rossiyaning butun dunyo qora metallurgiyasidagi salmog'i ancha o'sdi, chunonchi, 1900- yilda cho'yan eritishda Rossiyaning hissasi 7,1 foizni tashkil etdi. Metall eritishda Rossiya dunyoda to'rtinchi o'rini egalladi — Fransiyadan o'zib, Germaniyadan keyingi o'ringa chiqdi. Metall iste'mol qilishda temir yo'llarga talabning o'sishi juda katta rol o'ynadi. Ammo Rossiyada jon boshiga metall iste'mol qilish Germaniyadagiga qaraganda besh barobar kam edi.

Sanoat yuksalishi yillarida mashinasozlik juda taraqqiy etdi. 80-yillarda mashinasozlik ko'mir qazib chiqarish va metallurgiyaga nisbatan ancha tez o'sib borgan edi. 90- yillardagi yuksalish davrida ham uning rivojlanish sur'ati past bo'lmadi. Parovoz va vagonlar ishlab chiqaradigan eski zavodlar o'z ishlarini jadallashtirib yubordi.

90- yillarda qishloq xo'jalik mashinasozligi katta qadam tashladi. Ammo shu bilan birga chet mamlakatlardan qishloq xo'jalik mashinalari keltirish ham ancha ko'paydi.

Sanoat uchun asbob-uskunalar ishlab chiqarish ishlari olg'a qarab siljidi, ammo mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar rus sanoati ehtiyojining taxminan yarmini ta'min etardi, xolos. Qolgan asbob-uskunalar chet eldan keltirilardi. Peterburg mashinasozlikning yetakchi markazi bo'lib qolaverdi. Rossiya mashinasozligida Ukrainaning salmog'i juda oshdi.

90- yillarda iste'mol buyumlari ishlab chiqarish og'ir sanoatdan ko'ra sekinroq sur'at bilan o'sdi. Ammo sanoatning bu tarmoqlari ham umuman ancha taraqqiy topdi. 1892- yili butun dunyodagi ip gazlama dug'alarining 44 foizi Rossiyada (Polshani ham qo'shganda) edi.

90- yillarning oxirlariga kelganda Rossiya dug'alarning soni jihatidan Germaniya va Fransiyaga tenglashdi, ishlab chiqarish hajmi jihatidan esa ulardan o'tib ham ketdi, chunki Germaniya va Fransiyada bir smenada ishlanar, Rossiyadagi juda ko'pchilik fabrikalarda esa kunduzi ham, kechasi ham ish tinmas edi.

Bu davr Rossiya tarixida uning xalq xo'jaligiga chet el kapitali eng ko'p sarf qilingan davr bo'ldi. Buning sababi shuki, bu vaqtda G'arbiy Yevropada ortiqcha kapital ko'p bo'lib, Rossiyadan ko'proq foyda olardi. Bu davr ichida Rossiya xalq xo'jaligiga solin-

gan chet el kapitali deyarli to'rt barobar o'sdi va XX asr boshiga kelib, mavjud ma'lumotlarga qaraganda, 911 million rublga yetdi. Chet el kapitali ayniqsa, Fransiya bilan Belgiyadan juda ko'p miqdorda kirib keldi. Shuningdek, ingliz va german kapitalistlari ham anchagina kapital sarfladilar.

Chet el kapitali asosan og'ir sanoatga, ayniqsa Janubning ko'mir, metallurgiya, neft sanoatlariga va mashinasozlikka sarf etildi. Rossiyada mineral yoqilg'i bilan ishlaydigan va mamlakatning metallga bo'lgan ehtiyojini to'la qondira oladigan metallurgiya sanoati vujudga keltirildi. Sanoat va transport uchun zarur bo'lgan mineral yoqilg'i bazasi ham shu davrda yaratildi.

Har bir mamlakat sanoatida bo'lgani singari Rossiya sanoatida ham ishlab chiqarishning yiriklashish jarayoni yuz berdi. Bu jarayon, ayniqsa, ip-gazlama sanoati va Janubdagi qora metallurgiya singari texnik jihatdan yaxshi jihozlangan korxonalarda juda kuchayib ketdi. Rossiyada sanoatning yuqori darajada konsratsiyalashishi ishlab chiqarishning turli tarmoqlarida bir xil bo'lmadi.

Ishlab chiqarish konsratsiyasining o'sishi korxonalar aksiyali shaklining keskin rivojlanishiga sabab bo'lib, katta-katta fabrika va zavodlar qurish hamda ularni ishga solish uchun kapital yetishmay qolgan edi.

Rossiyada korxonaga egalari birinchi Sindikat bitimlari 80-yillarning boshida paydo bo'la boshladi. 1882- yilda rels ishlab chiqarish bitimi, 1886- yilda mix ishlab chiqarish bitimi tuzildi. Odatda bunday bitimlar ishlab chiqariladigan bu buyumlarni davlatga yetkazib berish vaqtida ularning narxini oshirish maqsadida tuzilardi. Qand va neft sanoatidagi sindikatlar ancha kuchli edi. Qand sindikati 1887- yilda tuzilgan bo'lib, 1892—1893- yillarda butun qand zavodlarining 92 foizini o'z ichiga olgan edi. Sindikat bitimlari qand narxini oshirish maqsadida har bir zavodning har yili ichki bozorda sotish uchun qancha qand ishlab chiqarishi lozimligini belgilab berardi. Agar zavod belgilangan miqdordan ortiqcha mahsulot ishlab chiqarsa, bu «ortiqcha» mahsulotni bitimga muvofiq chet elga chiqarib sotishga majbur edi, aks holda juda katta jarima to'lashi lozim bo'lardi. Sindikatning paydo bo'lishi

qandning narxini birdaniga keskin oshirib yubordi. Bu sindikat 1895- yilda tarqalib ketdi.

Shunday qilib, 80—90- yillarda Rossiyada sindikatlar ko'p bo'lmay, monopoliyalar o'z taraqqiyotlarining eng dastlabki bosqichida edi.

Rossiyada ijtimoiy harakat va ijtimoiy fikrlarning rivojlanishi

Mamlakatda bozor munosabatlarining tez o'sib borishi natijasida yuz bergan ijtimoiy taraqqiyot jarayoni dvoryanlarning iqtisodiy ahvoriga putur yetkazdi.

Pomeshchiklar olgan vikup (ssudalar)

tezda sarf bo'lib ketdi. Dvoryanlar qo'lida hali saqlanib qolgan yer mulklari yuzasidan ularning qarzdorligi ham ko'payib bordi. Kambag'allashayotgan dvoryanlar islohotgacha hukm surib kelgan tartiblarga qaytish bilan najot topmoqchi bo'lardilar. Dvoryanlar monarxiya tartibining asosiy tayanchi bo'lib qolaverdilar. Rossiya monarxiyasi esa hali ham feodal-dvoryanlar davlati edi.

Korxonalarda ish kuni o'rta hisobda 12—13 soat, to'qimachilik sanoatida esa 13—14 soat va undan ham ko'p vaqt davom etar edi. Masalan, Moskva gubernyasida uchta sanoat uezdining fabrika va zavodlarida 80- yillarning o'rtalarida o'tkazilgan tekshirish ma'lumotlariga qaraganda, bu korxonalarining o'ndan bir qismidagina ish kuni 12 soatdan kam, uchdan bir (29 foiz) qismida 12—12,5 soat, deyarli yarmida (44 foiz) 13—13,5 soat, nihoyat, hamma fabrika va zavodlarning oltidan bir qismida 14 soat va undan ham ko'p bo'lib, 18 soatgacha yetar edi. Ish kuni 90-yillarning oxirlarigacha, ya'ni hukumat uni qonun bilan cheklashga majbur bo'lgunga qadar ana shunday uzaytirilganligicha qolaverdi.

Bundan tashqari, sarmoyador fabrika do'koni ochish yo'li bilan ishchini asoratga solardi. Fabrikaga yollangan ishchi, xo'jayin do'konida o'lchovdan ham, tarozidan ham «urib» qolishlariga, tovarning bahosi esa bozor bahosidan ancha yuqori va sifati juda yomon bo'lishiga qaramay, ana shu do'kondan nasiyaga olishga majbur edi. Do'kon korxonaga egalari uchun ishchilarni qo'shimcha ekspluatatsiya qilish va o'z foydalarini ko'paytirish vositasi edi.

Kavkazorti, Qozog'iston va O'rta Osiyoda ishchilar ayniqsa og'ir va huquqsiz ahvolda edilar: ular odatda malaka talab qilmaydigan ishlarni bajarar va ancha kam haq olar edilar. Fabrika ishi ishchini mashinaning oddiy «murovat»iga aylantirib qo'ygan edi.

Bu davrda ijtimoiy harakat o'sdi. G. V. Plexanov va uning «Mehnatni ozod qilish» guruhi Rossiyadagi ijtimoiy harakatning «pioneri» bo'ldi. U tuzgan bu guruh, rus ijtimoiy fikrining yangi yo'nalishini shakllantirdi.

«Mehnatni ozod qilish» guruhi bilan deyarli bir vaqtda, lekin undan mustaqil ravishda Peterburgda ham sotsial-demokratik guruh vujudga keldi. Bu guruhni Bolgariyadan Peterburg universitetida ta'lim olish uchun kelgan Dmitriy Blagoev tashkil qildi. P. V. Tochisskiy tashkil qilgan va Peterburgda 1885—1888- yillarda ish olib borgan boshqa bir guruh ham mavjud edi. 1883- yilda Peterburgda avvalgilarga qaraganda ancha katta bo'lgan sotsial-demokratik guruh tashkil topdi, bu guruh Brusnev guruhi edi. Shuningdek, 80- yillarda va 90- yillarning boshlarida milliy-ijtimoiy harakat Ukraina, Boltiqbo'yi, Kavkazorti, Povolje, O'rta Osiyoda ham rivojlandi. O'rta Osiyoda vujudga kelgan bunday harakat jadidchilik edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asming 60—70- yillardagi iqtisodiy taraqqiyot, 80—90- yillardagi iqtisodiy taraqqiyotdan nimasi bilan farq qiladi?
 2. Qaysi sanoat tarmoqlari orqali Rossiyaning eksporti kengaydi?
 3. Rossiyada chet el kapitali qaysi davlatlar hisobiga ortib bordi?
 4. Sindikat bitimlari nima? Izohlab bering.
 5. 1882—1893- yillarda ishlab chiqarilgan qand miqdorining ko'payishi qanday iqtisodiy qiyinchiliklar tug'dirdi?
 6. XIX asrning 70—80- yillarida qanday ijtimoiy-siyosiy harakatlar faoliyat ko'rsatdi? Ular hukumatdan nimalarni talab qilishardi?
 7. Rus ishchilar harakatining Yevropa ishchilar harakatidan farqli tomonlari haqida so'zlab bering.
 8. 80—90- yillardagi milliy harakat hukumat oldiga qanday ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy talablar qo'ydi?

Bu haqda erkin fikr yuriting: Qishloq xo'jaligi rivojlanishining «prusscha yo'li». 1900- yilda O'rta Osiyo paxtasi Rossiyada ishlatiladigan paxtaning 36 foizini tashkil qilardi.

1901- yilda Rossiya neft qazib chiqarishda AQSH dan o'zib ketib, dunyoda birinchi o'ringa chiqdi.

Rossiya sindikatlari xususiyatlari.

18- §. Rossiyaning tashqi siyosati. Rus-yapon urushi

G'arb bilan munosabatlar XIX asr oxirida Rossiyaning G'arb davlatlari bilan munosabatlari ancha yomonlashdi. Rossiyaning tashqi siyosatdagi obro'siga putur yetgan va harbiy qudrati zaiflashgan edi. Xalqaro munosabatlarda, Yevropa siyosati masalalarini hal etishda Rossiyaning roli pasaya boshladi. Rossiyaning diplomatik mag'lubiyati Bolqon yarimorolidagi ustunlikdan mahrum bo'lish demak edi. Qora dengizning daxlsiz qilinishi mamlakat janubini dushman hamlasi xavfidan himoyasiz qoldirdi va shu bilan birga dvoryanlar hamda sanoat doiralarini ochiq dengizga chiqish yo'llarini qo'lga kiritish maqsadida istilochilikni amalga oshirish imkoniyatidan mahrum qilib qo'ydi.

Rus diplomatiyasi yangi sharoitda o'zining ish usullarini takomillashtira boshladi. U sof diplomatik vositalardan foydalanish bilan birga jamoatchilikning yordamiga suyanishga urinar, matbuot orqali Rossiya va boshqa davlatlarning jamoatchiligi fikriga murojaat qilardi.

Parij kongressida Avstriya bilan Fransiya o'rtasida bir qadar ziddiyat borligi va shu bilan birga Fransiyaning Rossiya bilan yaqinlashishga mayli borligi aniq bo'ldi. Sulh tuzilgandan keyin Fransiyaning Rossiya bilan do'stona munosabatda bo'lishga intilishi yanada kuchaydi.

Qora dengiz va Bolqon masalasi Rossiya — Turkiya munosabatlaridagi ziddiyatlarning bosh sababi edi. Serbiya — Turkiya urushi (1876—1877) tugab, 1877- yil fevralida Turkiya bilan tuzilgan sulh shartnomasiga Serbiya qo'l qo'ydi. Chernogoriya esa urushni davom ettirdi. Mart oyida G'arb davlatlari Rossiyaning tashabbusi bilan Turkiyaga armiyada demobilizasiya va islohotlar o'tkazishni taklif qildilar. Rossiya aynan bir vaqtda demobilizasiya o'tkazish haqida muzokara boshlash uchun Peterburgga Turkiyadan o'z vakillarini yuborishni so'radi. Ammo Turkiya bu taklifni rad qildi. 1877-yilning 12- aprelida Aleksandr II Turkiyaga qarshi urush e'lon qilish haqidagi manifestga qo'l qo'ydi.

Ruslar may va iyun oylari ichida ko'rgan qat'iy tadbirlari (minali katerlar hujumi, qirg'oqlarga to'plar o'rnatish va minalar qo'yib to'siq qilish) bilan turklarning kuchli Dunay flotining harakatini bo'shashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Rus qo'shinlari

15- iyunga o'tar kechasi Zimnisa-Sistavo yonida Dunay daryosini kechib o'tdilar. Turklar qo'l ostlaridagi korpusni Chernogoriyadan Adrionopolga ko'chirdilar.

Ruslar Dunayni kechib o'tib, uchta asosiy otryadga bo'lindilar. General I. V. Gurkoning bolgar ko'ngilli lashkarlarini ham o'z ichiga olgan oldingi otryadiga Bolqondan oshib, turk armiyasining orqa tomoniga xiyla ichkari kirib borish vazifasi yuklatildi. Bu otryad tarkibiga kirgan bolgar lashkarlarining asosiy qismini 1876- yil aprel qo'zg'olonida qatnashgan va keyinchalik Bolgariyadan Bessarabiyaga qochib kelgan bolgarlar tashkil etardi, ular 7500 kishidan iborat edi.

Plevna va Shipka uchun bo'lgan janglar ayniqsa shiddatli bo'ldi. 28- noyabrda Usmon posho qamaldagi Plevnadan yorib chiqishga urinib ko'rdi. Bu urinish boshda muvaffaqiyatli chiqqan bo'lsa-da, lekin keyinchalik uning qo'shinlari uloqtirib tashlandi. Usmon posho 43 ming turk soldat va ofitseri bilan taslim bo'ldi.

Dekabr oyida Turkiyaning ahvoli og'irlashdi. 2- dekabrda Serbiya unga qarshi urush boshladi. Chernogoriyaliklar bir qancha muvaffaqiyatga erishdilar va 23- dekabrda Sofiyani ishg'ol qildilar.

1876- yil yanvarida butun front bo'ylab rus qo'shinlarining umumiy hujumi boshlandi. Gurko otryadi 5—6 yanvarda Adrionopol yonidagi janglarda turklarning Sulaymon posho qo'mondonligi ostidagi asosiy kuchlarini tor-mor qildi, 8-yanvarda esa Skobelev qo'l ostidagi ilg'or otryad Adrionopolni ishg'ol qildi. Qarshilik ko'rsatish uchun kuchi qolmagan Turkiya sulh so'rashga majbur bo'ldi.

Ruslar shuningdek, turklarga qarshi Kavkazda ham kurash olib bordilar. 7- yanvarda ruslarning Bosh qo'mondoni qarorgohiga turk vakillari keldilar. 19- yanvar kuni yarash ahdi imzolaniib, sulh to'g'risida muzokaralar boshlandi.

Yarash ahdi tuzilgandan keyin rus armiyasi Istanbulga qarab yurishda davom etdi. Bu esa Turkiyaning bosib olinishidan xavotirlangan Angliya bilan Avstriya-Vengriyani tashvishga soldi. Ular yanvar oyida rus-turk sulh shartlarini Yevropa davlatlari konferensiyasi muhokamasiga qo'yilishini talab qildilar. 3- fevralda ingliz floti Dardanell bo'g'ozidan o'tib, Marmar dengiziga kirdi. Ingliz hukumati agar rus qo'shinlari Istanbulga kiradigan bo'lsa, diplomatik munosabatlarni uzamiz deb do'q qildi.

Podsho hukumati qiyin ahvolda qoldi. O'zining bazalaridan ajralib qolgan armiya qurol-yarog', kiyim-kechak va poyabzal ta'minotida tanqislik sezardi. Og'ir sharoitlarda o'tgan urush natijasida yuqumli kasalliklar avj oldi. Nihoyat, 1878- yil 19- fevralda *San-Stefanoda* sulh shartnomasiga qo'l qo'yildi. San-Stefano sulh shartnomasi Bolqon yarimorolining siyosiy xaritasini tubdan o'zgartirdi. Turkiya hukmronligi ostidagi ko'plab xalqlar ozodlikka erishdilar.

1878- yil iyunda Berlinda Yevropa davlatlarining kongressi ochildi. Bir oy davom etgan keskin tortishuvlardan keyin kelishuvlarga muvofiq Bolqon xalqlarining mustaqilligi tan olindi.

Rossiyaning Uzoq Sharqdagi siyosati ham turli maqsadlarga yo'naltirilgan edi. Qrim urushi Uzoq Sharqni mudofaa qilish va unda jiddiyroq mustahkamlanib olish zarurligini ko'rsatdi. Rus savdo-sanoat doiralari ham Uzoq Sharqning qo'lga kiritilishidan manfaatdor edilar. Amurbo'yi va Primore tuprog'i Xitoy hududiga kirar edi. Ammo unda Xitoy aholisi deyarli yo'q edi. Amurbo'yi bilan Ussuri o'lkasini bosib olganligi munosabati bilan Rossiya uchun bu o'lkalarni mudofaa qilishda Saxalin g'oyat muhim o'rin kasb etgan edi. Bu davrda Rossiya bilan Yaponiya yaxshi munosabatda edilar. Rossiya AQSH, Angliya, Fransiyaning Yaponiyaga qarshi qaratilgan harbiy ekspeditsiyalarida ishtirok etmadi. 1872- yilda Yaponiyaga doimiy vakil tayinlanib, unga Yaponiya bilan bo'ladigan munosabatlarda bu mamlakatning ichki ishlariga mutlaqo aralashmaslik haqida ko'rsatma berilgan edi. Yapon hukumati 1875- yilda Fransiya bilan Germaniya o'rtasida urush xavfi paydo bo'lganligidan va Rossiyaning Uzoq Sharqda zaifligidan foydalanib, Janubiy Saxalinga bo'lgan da'vosidan voz kechish sharti bilan Kuril orollarini Yaponiyaga berish to'g'risida shartnoma (1875- yil 25- aprel Peterburg shartnomasi) tuzishga muvaffaq bo'ldi.

O'рта Osiyo masalasidagi qarama-qarshiliklar 70- yillarda rus hukumati bilan ingliz hukumati o'rtasida O'рта Osiyodagi ta'sir doiralarini aniqlash uchun muzokaralar boshlandi va 1873- yili bitim tuzish bilan yakunlandi. Bunga muvofiq, Rossiya Afg'onistonni o'z ta'siridan tashqari deb topdi. Angliya esa Xivani da'vo qilmaydigan bo'ldi. Bu bitim O'рта Osiyodagi kurashni vaqtincha susaytirdi, ammo Qo'qon

xonligining Rossiyaga qo'shib olinishi inglizlar siyosatini faollashtirib yubordi va rus-ingliz munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi. Bu narsa, chunonchi, 1878- yilda boshlangan ingliz-afg'on urushida va «Sharq inqirozi» davomida Angliyaning Rossiyaga nisbatan dushmanlik siyosatini olib borganligida namoyon bo'ldi.

1878- yilda Angliya Afg'oniston ustiga bosqinchilik harakatlari boshladi. Afg'on qo'shinlari inglizlarning qattiq zarbalaridan katta talafot ko'rdilar. Afg'oniston amiri *Sheralixon* mamlakatning shimoliy hududlariga qarab qochdi. Sheralixonning merosxo'ri Hirot hukmdori *Yoqubxon* Gandamak shartnomasiga qo'l qo'yishga majbur bo'ldi va shu bilan Rossiyaning mustamlakasi bo'lgan Buxoro va Xiva kabi barcha huquqlardan mahrum bo'lib qoldi.

Bunday mustamlakachilik siyosatidan norozi bo'lgan afg'on xalqi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olon natijasida Afg'onistonning Kobul shahrida joylashgan ingliz harbiy qarorgohi vayron qilindi. Shunday voqealar yuz berayotgan bir paytda Turkiston general-gubernatori N. Kaufman 1856- yildan Toshkent shahrida yashab, rus hukumati homiyligida bo'lgan Sheralixonning jiyani Abdurahmonni Afg'onistonga jo'natdi. Uni yuborishdan maqsad ingliz qo'shinlariga qarshi kurashda undan foydalanish edi. Rahbarsiz qolgan afg'on xalqi uning atrofida birlashdi. Ammo afg'on xalqi uning rus manfaatlarini himoya etayotganligini anglab yetmagan edi. 1880- yilda *Abdurahmon* boshchiligidagi qo'zg'olonchilar inglizlar ustidan g'alaba qozondilar. Shundan so'nggina ingliz hukumati Abdurahmonni Afg'oniston amiri deb tan oldi.

Afg'oniston masalasida ana shunday aralashuvdan so'ng o'zining strategik maqsadlariga erishgan Rossiya Turkmaniston hududini bosib olishga kirishdi. 1880- yil iyul oyida Rossiya qo'shinlari general Skobelev boshchiligidagi Turkmaniston tomon yurish boshladi. Bu yurish tarixda o'zining butun mazmun-mohiyati bilan «qora iz» qoldirdi. 1881- yil 1- yanvardagi shiddatli janglardan keyin Ko'ktepa qal'asi chor qo'shinlari tomonidan qo'lga kiritildi. Turkman xalqi o'z mustaqilligini saqlab qolish yo'lida qahramonona, jonini ayamadan kurashdi. Lekin turkman qabilalari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar ularga yagona kuch bo'lib kurashish imkonini bermadi. Bunday vaziyatdan rus

diplomatiyasi tezkorlik va uddaburonlik bilan foydalanib, Skobelevning harbiy bosqinchilik yurishlarini tezlashtirish va tugallash yo'lini tutdi.

1881- yil 9- dekabrda Tehronda fors-turkman chegarasi to'g'risidagi maxfiy bitim imzolanib, bunda Rossiya tarkibiga yangidan kiritilgan hudud chegaralari aniqlandi. Bu hududlar hozirda Turkmaniston va Eron chegaralari bo'lib hisoblanadi. Shu yili Rossiya va Xitoyning Turkiston general-gubernatorligi va Xitoy o'rtasida chegara chizig'ini o'tkazish bo'yicha shartnoma imzolandi.

1884- yili Rossiya Marini egallab, Kushkaga chiqdi. 1885- yil 26- martda Kushkada afg'on harbiy qismlari mag'lubiyatga uchradi. Rossiya Kushkani bosib olib, asosiy punkt — Hirot va Qandahorni qo'lga kiritdi. Shundan so'ng Angliya va Rossiya o'rtasidagi Afg'onistonning taqdiri va uning chegarasini belgilash masalasi kun tartibiga qo'yildi. 1885—1887- yillarda bu masala rus-ingliz komissiyasi tomonidan hal etildi. 1891- yili Rossiyaning tasarrufiga kirgan O'rta Osiyo hududi va Afg'oniston o'rtasidagi chegara Pomirdan o'tkazildi. Bu bitim O'rta Osiyo masalasi bilan bog'liq Angliya va Rossiya o'rtasidagi kelishmovchilikni tugatdi. Lekin shunga qaramasdan ziddiyatlar, manfaatlar to'qnashuvi saqlanib qoldi. O'rta Osiyodagi o'zaro manfaatlarni tartibga solish va munosabatlardagi «sovuqlikni» yo'qotish maqsadida Rossiya va Angliya bu yerdagi o'z ta'sir doiralarini bo'lib olishga qaratilgan konvensiyani imzoladilar. Chunki bu paytda ikkala davlat uchun ham Yevropada Germaniya xavf tug'dirayotgan edi. Shu bois, Rossiya va Angliya O'rta Osiyo masalasini vaqtinchalik to'xtatib, kuchayib borayotgan Germaniya davlati bilan siyosat maydonida kurash boshladilar.

Rossiyaning chekka o'lkalaridagi siyosati

XIX asming oxirgi choragida rus hukmron doiralarning zulmi ayniqsa ko'p millatli Rossiya xalqlari yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushdi. Milliy chekka o'lkalarda hukumat avvalo ilgari vaqtlardan beri saqlanib qolgan mustaqil muassasalarni yo'q qila boshladi, bu bilan ham kifoyalanmay, qat'iy «ruslashtirish» siyosatini olib bordi. Polsha podsholigi, Finlyandiya va Boltiqbo'yi o'lkalari, O'rta Osiyo ana shu siyosat ta'siri ostida qoldilar. Polsha podsholigi va uning imperiyadan mustaqil bo'lgan eng so'nggi muassasalari (Polsha banki va boshqalar) tugatildi, rasmiy

hujjatlarda uni Polsha podsholigi deb atash yo'qola borib, u faqat «Vislabo'yi o'lkasi» bo'lib qoldi, maktablarigina emas, butun ma'muriy tashkilotlarning eng quyi qismlarigacha «ruslashtirildi», bu jarayon xususiy jamiyatlar va muassasalar ichiga ham kirib bordi. Shuningdek, Finlyandiya pochtasining mustaqilligi ham tugatildi. 1899- yil manifestida «Umumimperiya qonunlari» majburiy ekanligi e'lon qilindi, bu hol Finlyandiyaning konstitutsiyaviy tuzumini buzish degan gap edi. Boltiqbo'yidagi ma'muriyat, sud va maktablarda nemis tili o'rniga rus tili joriy qilindi. Milliy zulm madaniyat va din sohasida ayniqsa og'ir iz qoldirdi. Bu zulm madaniyat sohasida dastavval maktablarni va ijtimoiy hayotning boshqa tomonlarini «ruslashtirish»dan iborat bo'ldi. Ukrain tilini ta'qib qilish davom ettirildi, bu siyosat Rossiyaga mustamlaka bo'lgan boshqa o'lkalarda ham olib borildi, jumladan O'rta Osiyoda ham. Chor Rossiyasi mustamlakalarni yanada kengaytirish, ko'proq hududlarga ega bo'lishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Umuman, kapitalistik davlatlarning barchasi ham mustamlaka yerlarni kengaytirishdan manfaatdor edi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida xalqaro maydonda kuchlarning yangicha joylashishi sodir bo'ldi. Ilgari iqtisodiy jihatdan ilg'or bo'lgan davlatlar — Angliya va Fransiya birmuncha yosh davlatlar — Germaniya, AQSH va Yaponiya tomonidan asta-sekin qisib qo'yila boshladi.

Dunyo bozorlarini taqsimlab olish va mustamlakalarni qaytadan bo'lish uchun kurashda eng yirik monopolistik davlatlarning manfaatlari to'qnashib qoldi va bir-biri bilan chirmashib ketdi. Monopolistik davlatlar Xitoy va Koreya hisobiga o'z mavqelarini kuchaytirishga intilar hamda boshqa davlatlarning kuchayishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilardilar. Angliya, Yaponiya va AQSH Rossiya bu yerdan juda ko'p ulush oldi, deb hisoblar va uni Manjuriyadan siqib chiqarishga harakat qilardilar. Rossiya — Yaponiya munosabatlaridagi ziddiyatlar ham Xitoy, Manjuriya tufayli kuchaydi. Yaponiya bu masalada Angliya bilan ittifoq tuzishga intildi va 1902- yil 30- yanvarda bitim imzolandi. Bu bitimga muvofiq, Angliya va Yaponiya har qanday sharoitda bir-biriga yordam berishga kelishib oldilar. Bundan tashqari, ular AQSH dan ham manfaatdor edilar.

Rossiya — Yaponiya oʻrtasida 1903- yil 30- iyunda Tokioda muzokaralar boshlandi. Bu muzokaralarning diqqat-markazida Manjuriya toʻgʻrisidagi masala turardi.

Rus-yapon urushi

Urush xavfi tobora ravshanroq koʻrina boshlagan sari, chor hukumati yon berish, shu jumladan, Manjuriya masalasida ham yon berish yoʻlini tutdi. Chor hukumati Yaponiyaning va boshqa davlatlarning Manjuriya boʻyicha Xitoy bilan tuzgan shartnomasini tan olishga rozilik bildirdi. Lekin yaponlar ruslarning murosa tomon intilishini tan olmay, urushni tezroq boshlash maqsadida edilar. 1904- yil 24- yanvarda muzokaralarni toʻxtatib, urush eʼlon qilmasdan jang boshladilar.

Rus-yapon urushi Rossiya bilan Yaponiya oʻrtasidagi, shuningdek, Yaponiyaning Rossiyaga qarshi urushini oʻzlari uchun manfaatli deb hisoblagan boshqa davlatlar oʻrtasidagi ziddiyatlarning keskinlashib ketishi natijasida boʻldi. Bu urush oʻz xarakteriga koʻra har ikki tomondan ham adolatsiz urush edi. Bu urush shuningdek, xomashyo manbalari va bozorlar uchun, Xitoyni taqsimlash uchun kurash olib borgan davlatlar oʻrtasidagi ziddiyatlar natijasida boshlangan urush ham edi.

Urush Xitoy va Koreya hududida avj olib ketdi. Yaponiya oʻzining asosiy kuchlarini Vladivostokka va Rossiyaning Uzoq Sharqdagi chekka oʻlkasiga qarshi qaratishga botina olmadi. Birinchi zarba Rossiyaning Tinch okeanda, Port-Arturda joylashgan flotiga berildi. Chor Rossiyasi urushga yaxshi tayyorlanmagan edi. Urush boshlarida Uzoq Sharqda hammasi boʻlib 100 mingga yaqin askar bor edi, xolos. Qoʻshinlar tarqoq holda boʻlib, Port-Artur va Vladivostok garnizonlarida taxminan bittadan diviziya bor edi. Yaponiya ham iqtisodiy jihatdan zaif davlat edi, biroq Angliya va AQSH yordamida u urushga yaxshi tayyorgarlik koʻrdi.

1904- yil 27- yanvarga oʻtar kechasi yapon harbiy kemalari Port-Arturning tashqi reydidagi yetarli darajada qoʻriqlanmay turgan rus kemalariga toʻsatdan hujum qilib, ikki bronenosets va bitta kreyserni portlatdilar. Ertasi kuni ertalab yapon flotining asosiy kuchlari admiral Togo qoʻmondonligida eskadra va shaharni bombardimon qildi. Xuddi oʻsha kuni yapon kemalarining boshqa bir otryadi Chemulpoga yaqin kelib, u yerdagi rus kemalariga hujum qildi.

1904- yil 17- iyulda Port-Artur qalʼasi uchun bevosita kurash

boshlandi. Bu kurash 157 kun davom etdi. Qal'aning quruqlikdagi mudofaasiga general R. I. Kondratenko rahbarlik qildi.

3- avgustda yaponlar qal'ani bo'shatishni talab qildilar. Rad javobidan keyin yaponlar hamla boshladilar. Lekin bu barbod bo'ldi. Bu birinchi hamla edi. 6- sentabrda general Nogi ikkinchi hamlani boshladi. 9- sentabrda shiddatli janglardan keyin hujum to'xtatildi.

Yapon qo'shinlari Port-Artur ostonalari muvaffaqiyatsizlikka uchragan bir vaqtda, ular Manjuriyaning Shoxe daryosidagi jangda yangi yutuqlarga erishdilar. Port-Arturga 17- oktabrda uchinchi, 13- noyabrda to'rtinchi hujum boshlandi. Janglar shiddatli tarzda bordi. Kuchlar teng emas edi. 22- noyabr kechqurun yaponlar Visokaya tog'ini bosib oldilar. Port-Artur mudofaasining bosh tashkilotchisi R. I. Kondratenko bir guruh ofitserlar bilan birga 2- dekabrda halok bo'ldi.

20- dekabrda qal'a yaponlarga taslim bo'ldi. Qal'a garnizonining umumiy talafoti o'lganlar va daraksiz ketganlar bo'lib, 17 ming kishini tashkil qildi. Port-Arturning qo'ldan ketishi urushning hal qiluvchi davri bo'ldi. Yaponlar Port-Artur yonidagi Nogi armiyasi hisobiga kuchayib, 1905- yil fevralda Mukdenga hujum boshladilar. Har ikki tomonning kuchlari teng edi. Lekin bu jangda ruslar mag'lubiyatga uchradilar. Chor hukumati mag'lubiyatga uchrashi aniq bo'lishiga qaramay, bunday holga ko'nikkisi kelmadi va Tinch okeandagi 2- eskadraga so'nggi umidini bog'ladi. Bu eskadra vitse-admiral Rojdestvenskiy qo'mondonligi ostida edi.

1905- yil 14- mayda rus floti Koreya bo'g'oziga kirdi. Jang boshlandi. Jangning birinchi soatlaridanoq ruslarning mag'lubiyati boshlandi. 15- mayda esa jang yapon floti g'alabasi bilan yakunlandi. Ruslarning Susima yonidagi mag'lubiyatidan butun dunyo xabar topdi. Mamlakat ichida esa norozilik chiqishlari boshlandi.

Urush vaqtida Rossiyaning tashqi siyosiy ahvoli nihoyatda yomonlashib ketdi. Chor hukumati Germaniya bilan yanada yaqinlashishga intildi. 1904- yilning oktabrida Rossiya, Angliya baliq ovlovchi kemasini yanglishib, yaponlarniki deb portlatgan edi. Bundan ikki mamlakat munosabatlariga «sovuqchilik» tushdi.

Chorizm siyosiy jihatdan zaiflashganligi va harbiy mu-

vaffaqiyatsizliklarga uchraganligi tufayli Rossiya — Fransiya ittifoqi Fransiya uchun o'z ahamiyatini birmuncha yo'qotib qo'ygan edi.

Ana shunday bir vaziyatda Fransiya bilan Angliya «til topishdilar». 1904- yil 8- aprelda ular o'rtasida «samimiy kelishuv» (Antanta) degan bitim tuzildi. Bu bitim asosiy janjalli masalalarni hal qildi va Afrikadagi ta'sir doiralari tartibga soldi.

1905- yil mayda Nikolay II Amerika elchisini qabul qildi. Elchi AQSH Prezidenti T. Ruzveltning Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida sulh muzokaralarini boshlash to'g'risidagi takliflarini yetkazdi. Sulh tuzish to'g'risidagi muzokaralar Portsmutda (AQSH) olib borildi.

1905- yil 23- avgustda sulh imzolandi. Rossiya Koreyadagi ta'siridan mahrum bo'ldi va uni iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan Yaponiya manfaatlari doirasi deb e'tirof qildi, o'zining Port-Artur va Dalniy hamda bu joylarda bo'lgan barcha mol-mulkini ijaraga berish huquqidan batamom voz kechdi, Xuanchenzi stansiyasi bilan (Sharqiy Xitoy temir yo'lida) Port-Artur o'rtasidagi temir yo'lni barcha parovoz va vagonlari, toshko'mir konlari bilan birga Tokioga berdi. Yaponiya Saxalinning 50° shimoliy kenglikkacha bo'lgan janubiy qismini ham oldi. Yaponiyaning baliq ovlash to'g'risidagi talablari maxsus bitim bilan tartibga solindi. Rossiya katta miqdorda o'lpon to'ladi.

Savol va topshiriqlar

?

1. Rossiya tashqi siyosatda ko'proq qaysi davlatlarga tayanar edi?
2. 1877—1878- yillardagi rus-turk urushi tomonlarning qay biriga manfaatli bo'ldi?
3. Uzoq Sharq masalasi haqida nimalarni bilasiz? Rossiya — Yaponiya munosabatlari bu vaqtda qanday edi?
4. Nima sababdan Rossiya Angliya bilan O'rta Osiyo uchun kurash olib bordi? Rossiya uchun O'rta Osiyo qanday vazifani o'tashi mo'ljallangan edi?
5. Qanday to'siq ingliz bosqinchilarini O'rta Osiyo hududiga bostirib kirishiga xalal berdi?
6. XIX asrning oxirgi choragida Rossiya chekka o'lkalarga qanday munosabatda bo'ldi?
7. Rus-yapon urushi qanday yakunlandi? Tomonlarning qay biri uchun u bosqinchilik, qay biri uchun vatan himoyasi uchun kurash bo'ldi?

Bu nomlarni esda tuting: Aleksandr II, I. V. Gurko, Skobelev, Usmon posho, Sulaymon posho, San-Stefano, Sheralixon, Yoqubxon, N. Kaufman, Kushka, Manjuriya, Port-Artur, Vladivostok, Togo, R. Kondratenko, Dalniy, Mukden.

19- §. XX asr boshlarida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Iqtisodiy taraqqiyot XX asr boshlariga kelib monopolistik birlashmalar tashkil topish jarayoni kuchaydi, bu birlashmalar xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlarini o'z ichiga oldi va mamlakat xo'jalik hayotining asoslaridan biriga aylandi. Rossiya Janubining qora metallurgiyasida bu yillarda «Prodmet» degan yirik monopolistik tashkilot qaror topdi, bu tashkilot amalda bir qancha sindikatlarning birlashmasidan iborat bo'lib, metallurgiya sanoatining eng asosiy mahsulot turlari: sortli temir va tunuka, balkalar, relslar va boshqa shu kabilar savdosini monopoliya qilib olgan edi. Metallurgiya zavodlarining faqat ayrim xil mahsulotlari savdosinigina o'z qo'liga olgan monopolistik birlashmalar, masalan, «Truboprodaja», «Krovlya» sindikatlari kabi monopolistik birlashmalar vujudga keldi. Rangli metallurgiyada mis prokati zavodlari sindikatlari (1903- y.) bilan «Med» jamiyati (1907- y.) hal qiluvchi mavqeni egallab oldi. Ko'mir sanoatida «Produgol» sindikati vujudga keldi. Neft sanoatida «Nobel-mazut» karteli katta mavqega ega bo'ldi. Temir rudasi sanoatida «Prodrud» sindikati tarkib topdi (1907- y.) Mashinasozlik sanoatida «Proparovoz» (1901- y.), «Prodvagon» kabi monopolistik birlashmalar mavjud edi.

1909- yil 1- yanvarida Rossiyada 45 sanoat tarmog'ida 140 ta monopolistik birlashma bor edi. Bu monopolistik birlashmalar ichida sindikatlar alohida o'rin tutardi. Bu sindikatlarning eng yirigi «Prodmet» va «Produgol» jamiyatlari edi.

Rossiyada sanoat yuksala boshlashi bilan chet el kapitalistlari yana qaytadan rus sanoati korxonalarining aksiyalarini ham sotib ola boshladilar, buni mablag' beradigan maxsus

jamiyatlar tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirdilar. Shunday jamiyatlardan biri — Londonda 1908- yili ta'sis etilgan «Lena Goldfields» jamiyati Lena oltin sanoati shirkatining paylarini qo'lga kiritib olgan edi.

Birinchi jahon urushi arafasida Rossiya xalq xo'jaligiga chet el kapitalining kirib kelishida ayniqsa muhim rol o'ynagan muassasa rus banklari edi. Rus sanoatiga qo'yilgan chet el kapitallari orasida fransuz kapitali birinchi o'rinda turar edi. Angliya kapitali urush boshlanishi oldida ikkinchi o'ringa chiqdi (rus sanoatiga qo'yilgan barcha chet el kapitalining 24 foizi). Angliya kapitali neft, oltin, Uralning tog'-kon sanoatida katta rol o'ynadi. Rus sanoatiga qo'yilgan chet el kapitali orasida uchinchi o'rinda Germaniya kapitali bo'lib, hamma chet el kapitalining 20 foizga yaqinini tashkil etardi. Rus sanoatining hal qiluvchi tarmoqlari bo'lgan kon sanoati va metallsozlik sanoatida chet el kapitali eng ko'p ishtirok etardi.

Rossiyaning agrar tizimi va yer egaligida krepostnoylik qoldiqlari hukm surgan, millionlab dehqonlar qashshoq, huquqsiz va savodsiz bo'lgan bir sharoitda kapitalizm taraqqiy qilib bordi.

Kapitalistik taraqqiyotning xususiyatlaridan biri qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining yanada ixtisoslashuvi bo'ldi. Don xo'jaligi rayonlarida asosan savdoga yetishtiriladigan g'alla monokulturasi hukmronlik qilardi. Ukrainaning janubi, Shimoliy Kavkaz, Zavolje va G'arbiy Sibir uchun bunday monokultura bug'doy bo'lib qoldi.

Dehqonchilikning tovar mahsulot yetishtirishi birmuncha tezroq o'sib bordi, buning sababi dehqonlarning yangi-yangi ommasi bozor munosabatlariga tortilayotganligida edi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tovar muomalasiga kirishining o'sishiga transport va aloqa vositalarining yanada taraqqiy qilishi ham yordam berdi.

**Rossiyada 1905—1907-
yillardagi inqilobiy
harakat**

Bu inqilobiy harakatning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni burjua-demokratik ruhda bo'lib, uning asosiy vazifasi mamlakat iqtisodi va siyosiy tizimidagi

barcha monarxistik, krepostnoylik qoldiqlarini tugatishdan iborat edi. XX asr boshlarida Peterburg shahrida 250 mingga yaqin sanoat ishchisi bor edi. Ijtimoiy harakat 1904- yilning

kuzida «jonlana» boshladi. Uzluksiz ro'y berib turgan miting va ish tashlashlar Rossiya — Yaponiya urushi davrida kuchayib ketgan iqtisodiy inqiroz tufayli xalq ahvolidning yomonlashib borayotganligiga berilayotgan javob edi.

Pop Gapon “Sankt-Peterburg shahrining rus fabrika-zavod ishchilari yig'ini” degan tashkilot tuzdi, shahar tumanlarida bu tashkilotning bo'limlari bor edi. Bu bo'limlar go'yo politsiyadan mustaqil ravishda ish olib borar edi. Gapon xalq ommasida monarxistik xom xayollar tug'dirishga harakat qilar va hukumat ishchilarning iqtisodiy talablarini qabul qiladi, deb ularni ishontirmoqchi bo'lar edi. Unga ko'pgina ishchilar ergashdilar.

1905- yil 3- yanvarida Putilov zavodi ishchilari Gapon tashkilotiga mansub bo'lgan to'rt ishchining ishdan bo'shatilishiga qarshi norozilik bildirib ish tashladilar. Putilovchilar sakkiz soatlik ish kuni joriy qilish, ish haqini oshirish, korxonaga egalari bilan bo'ladigan barcha bahsli masalalarni hal qilish uchun saylov yo'li bilan tuziladigan doimiy ishchi komissiyasi tashkil etish talablarini ko'tarib chiqdilar. Shahardagi eng yirik korxonalarning ishchilari putilovchilarni qo'llab-quvvatladilar, 8- yanvardan boshlab esa ish tashlash umumiy tus oldi.

Ish tashlash kunlarida Gapon podshoga iltimosnoma (petytsiya)ning dastlabki matnini tuzdi va u ishchilarning yig'ilishlarida keng muhokama qilindi. Iltimosnomaga Ta'sis majlisini chaqirish, demokratik erkinliklar berish, xalqqa qarshi urushni to'xtatish va boshqalar to'g'risida siyosiy talablar kiritildi.

Chor hukumati tinch namoyish bo'lishini oldindan bilar, bunga qarshi tayyorgarlik ko'rib qo'ygan ham edi. 9- yanvar, yakshanba kuni shaharning turli burchaklarida 250 ming kishidan ko'proq, bayramdagidek kiyingan ishchilar o'z xotinlari va bolalari bilan Saroy maydoni tomon yo'l oldilar. Ishchilar qon to'kilishiga ishonmas edilar, lekin qo'shinlar ularni o'qqa tutdilar; piyoda va otliq askarlar xalq ommasiga qarshi hujumga tashlandi. Turli joylarda ommani yoppasiga otishlar bo'ldi. Shu kuni Peterburgdagi kasalxonalarga 5 mingga yaqin yarador keltirildi. Ishchilar nihoyatda qattiq g'azablандilar.

«Qonli yakshanba» Rossiyada inqilobning boshlanishi bo'ldi. 9- yanvardagi o'qqa tutish faqat ilg'or ishchilarnigina emas, balki siyosiy jihatdan qoloq bo'lgan millionlab ommani ham chorizmga qarshi kurashga qo'zg'atdi.

Peterburgdagi «qonli» voqealarga javoban Moskva, Riga, Varshava, Boku va boshqa shaharlarning ishchilari ish tashladilar, namoyishlar boshlandi.

Ishchilarning eng ongli va uyushgan qismi bo'lgan metallistlar kurashning oldingi safida bordilar. 1905- yilning birinchi chora-gida bo'lib o'tgan barcha ish tashlashlarda qatnashganlarning to'rtidan uch qismi metallistlar edi. Rossiyaning milliy o'lkalaridagi mehnatkash xalq ham kurashga qo'zg'aldi. Bu harakatlarga demokratik ziyolilar va mayda burjuaziyaning keng tabaqalari ham qo'shildilar.

Mamlakatda dehqonlar kurashi bilan bir qatorda qishloq xo'jalik ishchilarining ham ommaviy chiqishlari boshlandi. 1905- yilning bahoridayoq Boltiqbo'yi va Polshaning qishloq tumanlarida qishloq xo'jaligi ishchilarining chiqishlari bo'lib o'tdi. 1- maydagi ish tashlashlar va namoyishlar davomida ko'plab to'qnashuvlar yuz berdi.

1905- yil 12- mayda Ivanovo-Voznesensk shahrida yirik ish tashlash bo'lib o'tdi. Unda 8 soatlik ish kuni, demokratik erkinliklar, Ta'sis majlisi kabi talablar o'rta tashlandi. Ish tashlashga rahbarlik qilish uchun 151 deputatdan iborat vakillar Kengashi saylandi. Bu Kengash majlislar erkinligini mustaqil tartibda amalga oshirdi, inqilobiy tartib o'rnatdi, ish tashlagan ishchilarga va ularning oilalariga yordam uyushtirdi. Kengashning ishchi mili-tsiyasi va saylangan sudi bor edi.

Rus-yapon urushi davridagi Susima fojiasidan keyin soldat va matroslar orasida inqilobiy kayfiyat ayniqsa kuchaydi.

1905- yil yozida Qora dengiz flotining sotsial-demokratik tashkiloti — «Sevastopol matroslar markazi» qo'zg'olon ko'tarishga tayyorlandi. Qo'zg'olon Qora dengiz eskadrasining mashqlar o'tkazish vaqtiga mo'ljallandi. Lekin, 14- iyunda «Knaz Potyomkin Tavricheskiy» bronenosetsida stixiyali yuz bergan qo'zg'olon belgilangan rejani buzib qo'ydi. Matroslar kemani egallab oldilar. To'qnashuvda qo'zg'olon rahbarlaridan biri matros G. N. Vaku-lenchuk halok bo'ldi.

14- iyun kuni kechqurun «Potyomkin» Odessaga keldi. Bu vaqtda shaharda ish tashlash harakati kuchayib, dastlabki barrikadalar kurashiga aylangan edi. Biroq, qo'zg'olon boshliqlarining sarosimaga tushib qolganligidan va Odessa garnizonining ikkilanib qolishidan shaharda hokimiyatni batamom qo'lga olish uchun foydalanilmadi. 18- iyunda «Potyomkin» Qora dengiz eskadrasini kutib olish uchun portdan chiqdi. Eskadruga kemani qurolsizlantirish to'g'risida topshiriq berilgan edi, ammo matroslar kemani o'qqa tutishdan bosh tortdilar. «Potyomkin»ga «Georgiy Pobedonosets» bronenosetsi qo'shildi, lekin u xoin botsman tomonidan atayin sayozlikka o'tqazib qo'yildi. «Potyomkin» og'ir ahvolda Ruminiya tomon yo'l oldi va 25- iyunda rumin ma'murlariga taslim bo'ldi.

Rossiya sanoat shaharlarida, mustamlaka o'lkalarning ko'plab yerida umumiy harakatlar boshlanib ketdi. Moskvadagi sentabr ish tashlashi, butun Rossiya oktabr siyosiy ish tashlashlari ayniqsa uyushqoqlik bilan o'tkazildi. Oktabr ish tashlashi natijasida Nikolay II aholiga demokratik erkinliklar, vijdon erkinligi, so'z erkinligi, ittifoqlar tuzish va yig'ilishlar erkinligi «berilishi» va qonun chiqaruvchi Duma chaqirilishi to'g'risida Manifest chiqardi.

Oktabr ish tashlashi qizigan bir paytda Piter ishchilari mamlakatda birinchi bo'lib o'zlarining ishchi deputatlari Kengashini tuzdilar. Noyabr — dekabr oylarida Tver, Kostroma, Samara, Saratov, Yekaterinburg, Novorossiysk, Rostov-Don, Bokuda shunday Kengashlar tashkil qilindi.

Inqilobiy harakat yuksalib borayotgan bir sharoitda mazlum xalqlarning o'z milliy ozodligi uchun kurashi ommaviy tus oldi. Xalq ommasi milliy zulmni yo'qotishni, maktablarda o'z ona tilida o'qitishni, madaniyat va tilni taraqqiy ettirish uchun erkinliklar berilishini talab qildi.

Armiya va flot chorizmga qarshi kurashga tobora faolroq tortildi, 26—27- oktabrda Kronshtadtda matroslar va soldatlarning stixiyali qo'zg'oloni bo'ldi. Qo'zg'olon tor-mor qilindi. 1500 matros va bir necha yuz soldat harbiy-dala sudiga berildi. Lekin Peterburg ishchilarining Kronshtadtda qo'zg'olon ko'targanlami himoya qilib birdamlik bilan ish tashlashi qo'zg'olon ishtirokchilarini o'lim jazosidan qutqarib qoldi.

Xalqning talabi bilan 1905- yil dekabrda yangi saylovlar

to'g'risidagi qonun chiqdi. Unga ko'ra, yer egalari 2 ming kishidan, ishchilar 90 ming kishidan bitta vakil yuborardilar. Davlat Dumasida hukmron sinf vakillarining ustunligi ta'minlangan edi. Qonunga ko'ra xotin-qizlar, soldatlar, matroslar, o'quvchilar, yersiz dehqonlar va batraklar saylov huquqidan mahrum qilingan edilar.

1906- yil 27- aprelda I Davlat Dumasi o'z ishini boshladi. Unda 448 deputat qatnashdi. «So'l» partiyalar Dumani bojkot qilishi natijasida saylovda kadetlar g'alaba qozondilar.

Duma faoliyatidagi asosiy masala agrar masala bo'ldi. 1906- yil 9- iyulda podsho Dumani tarqatish to'g'risida Manifest qabul qildi, 9- noyabrda esa agrar inqilob va dehqonlarni ko'chirish haqida Farmon chiqardi.

1907- yil yanvarda Dumaga yangi saylov bo'lib o'tdi. Uning yangi tarkibiga 516 deputat saylandi. 20- fevralda II Davlat Dumasi ish boshladi. Agrar masala asosiy masala bo'lib qolaverdi.

1907- yil bahorida Dumadagi sotsial-demokratik fraksiyaning taqdiri hal bo'ldi. Agrar masalani hal qilishga erishish niyati «puchga chiqqan» Stolipin 1907- yil 3- iyunga o'tar kechasi sotsial-demokratik fraksiyani davlat to'ntarishi qilishga tayyorlik ko'rishda ayblab, qamoqqa oldi. Duma tarqatib yuborildi. 1907- yil yoziga kelib inqilobiy harakat bostirildi. Mamlakatda «Stolipin reaksiyasi» nomini olgan rejim hukm suraboshladi, bu rejim uning asosiy ilhomchilaridan biri — Vazirlar Kengashining Raisi Stolipin nomi bilan atalgan edi.

1907- yil 3- iyunda joriy qilingan yangi saylov tizimi ishchi, dehqonlar, soldat, matroslar, xotin-qizlarga berilgan huquqlarni keskin cheklab qo'ydi. Bundan tashqari, Rossiyaning Yevropa qismidagi 53 gubernasida saylovchi vakillar sonini pomeschchiklar va yirik burjuaziya foydasiga qat'iy tarzda qayta taqsimladi. Yirik pomeschchiklar barcha saylovchi vakillarning 49,4 foiziga ega bo'ldilar. Rossiyaning milliy chekka o'lkalaridagi, jumladan O'rta Osiyo, Yoqutistondagi barcha xalqlar, Astraxan va Stavropol gubernalaridagi ko'chmanchilar hamda Zabaykaledagi rus bo'lmagan xalqlar Dumaga vakillar yuborishdan tamomila mahrum qilindilar. III Duma 1907- yil 1- noyabrda ochildi va Dumada hukumatning chinakam hukmronligini saqlab qoldi.

Stolipin agrar islohoti Bu davrga kelib mamlakatda agrar islohot boshlandi.

Stolipin agrar siyosatining tarkibiy qismlari dehqonlar va bank siyosati, boshqa joylarga ko'chirish, yer tuzilishi va boshqa tadbirlardan iborat edi.

Chorizimning ko'chirish siyosati ham inqilobiy harakatdan oldingi davrga nisbatan o'zgardi. Hukumat ko'chirishni cheklash siyosatidan dehqonlarni Sibirga, Uzoq Sharqqa, O'rta Osiyo va boshqa joylarga ko'plab ko'chirish siyosatiga o'tdi. Bu siyosatdan kuzatilgan maqsad Markazda yer tanqisligini yengillashtirishdan, milliy chekka o'lkalarga ko'chib borgan ruslardan «ruslashtirish» siyosati va rus bo'lmagan xalqlarni bo'ysundirib turishda ommaviy baza sifatida foydalanishdan iborat edi.

Keyinchalik podsho Davlat Kengashi qabul qilgan qonun loyihasini tasdiqladi va bu qonun tasdiqlanish vaqtiga ko'ra, 1910- yil 14- iyun qonuni deb atala boshladi. Ushbu qonunning bevosita davomi tariqasida 1911- yilning mayida yer tuzilishi to'g'risida qonun qabul qilindi.

1906- yil 9- noyabridagi Farmon va 1910- yil 14- iyun qonuni 10 yil davomida amalga oshirildi va xalqning boshiga ko'p ofatlar keltirdi.

Chorizimning aholini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish siyosati vaziyatni keskinlashtirdi. Chorizim bu siyosati bilan bir necha maqsadni ko'zlagan edi. 1906- yilda boshqa joylarga ko'chirilganlarning soni 141 ming kishini, 1907- yilda 427 ming kishini tashkil qildi. 1908- yili eng ko'p, ya'ni 665 ming kishi ko'chirildi. Shundan so'ng keskin pasayish boshlandi. 1910- yildan boshlab qayta ko'chish to'liqini nihoyatda avj olib ketdi. Agar 1905–1908- yillarda qayta ko'chib kelganlar 10 foizni, 1909- yilda 13 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1910- yilda qayta ko'chib kelganlarning soni 36 foizga yetdi. 1911- yilda esa ularning soni barcha ko'chirilganlarning yarmidan oshib ketdi. Bu hol chorizimning boshqa joylarga ko'chirish siyosatiga bog'lagan barcha umidlarining barbod bo'lganligini ko'rsatdi.

Bu siyosat barbod bo'lganligining ikkita asosiy sababi bor edi. Birinchi sababi shu ediki, asosan Sibirga, Uzoq Sharqqa va boshqa joylarga yaxshiroq hayot kechirishga umid bog'lagan kambag'al dehqonlar ko'chgan edi. Ular yerlari va mol-mulklarini sotib

qo'lg'a kiritgan, shuningdek, xazinadan yordamga berilgan ozgina pullarini yo'l xarajatiga sarfladilar, yangi joyda esa mol-mulk olish uchun mablag'lari qolmadi. Aldangan, xarob bo'lgan kishilarning bir qismi eskidan o'sha joylarda yashovchi boylar asoratiga tushdi, ko'chirilganlarning ko'p qismi esa mushkul ahvolda qolib, nafrat-g'azabga to'lib, o'zlarining tug'ilib o'sgan joylariga qaytib bora boshladilar.

Ikkinchi sababi esa aholini ko'chirish ishining jinoyatkorona tashkil qilinganida edi. Ko'p hollarda xo'jalik uchun noqulay uchastkalar ajratildi, ssudalar kam miqdorda berildi, ko'chish yuk ortiladigan vagonlarda sanitariya jihatdan talabga javob bermaydigan holda amalga oshirildi.

Natijada xonadonlar ko'chirilgan joylarda vaziyat iqtisodiy va siyosiy jihatdan keskinlashdi. Bu joylar asosan eng ko'p krepostnoylik qoldiqlari saqlanib qolgan dehqonchilik markazlari edi. Ikkinchi tomondan, bu siyosat Qozog'iston va O'rta Osiyodagi yerli aholiga qarashli eng yaxshi yerlarning talanishiga va yerli xalqlarning yeri yomon bo'lgan yangi tumanlarga surib chiqarilishiga sabab bo'ldi. Stolipin agrar islohoti qishloq xo'jaligida kapitalizmning taraqqiyotini kuchaytirdi.

Rossiyaning tashqi siyosati

1907–1914- yillardagi xalqaro vaziyatning xususiyati shundan iborat bo'ldi-ki, mehnat bilan kapital o'rtasidagi, rivojlangan davlatlar bilan ularning mustamlakalari va kapitalistik davlatlar o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar keskinlashib ketdi.

Yaponiya bilan bo'lgan urushda chorizmning mag'lubiyatga uchraganligi uning Uzoq Sharqdagi bosqinchilik rejalarini barbod qildi va Rossiyaning Eron, Afg'oniston va Turkiyadagi ta'sirini kamaytirdi. Rossiya o'zining xalqaro mavqeidan mahrum bo'lish xavfini tug'dirgan yakkalanib qolish darajasiga tushib qolmaslik uchun Yevropadagi bir-biriga dushman bloklardan biriga albatta qo'shilmog'i shart bo'lib qolgan edi.

Chor hukumati Angliya bilan bitimga kelishdan oldin Yaponiya—Rossiya o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilib olmoqchi edi. Yaponiya hukmron doiralari Rossiya bilan sulh ertaroq tuzildi deb hisoblar, Uzoq Sharqda Rossiya hisobiga yangi hududlar bosib olishni istar edi. Lekin Yaponiya hukumatining qo'yayotgan

talablari bitimga kelish yoʻlidagi asosiy toʻsiq boʻlib, bu talablar Portsmut shartnomasi doirasidan ancha chetga chiqib ketgan edi. Yaponiya, jumladan Amur va Sungarida oʻz kemalarining bemalol qatnash huquqini, Sibirga imtiyozli huquqlar bilan tovarlar keltirishni, Rossiyaning Uzoq Sharq sohillarida amalda cheklanmagan tarzda, erkin surʼatda baliq ovlash huquqini talab qilar edi. 1907- yil 15- iyulda Rossiya — Yaponiya savdo shartnomasi va baliq ovlash toʻgʻrisida konvensiya, oradan bir kun oʻtgach, 17- iyulda umumiy siyosiy masalalar yuzasidan ham bitim imzolandi.

1907- yil 18- avgustda Peterburgda Rossiya bilan Angliya oʻrtasida ularning Eron, Afgʻoniston va Tibetdagi manfaatlari doiralari chegaralarini belgilash toʻgʻrisida bitim imzolandi. Eronning rus va ingliz sarmoyadorlari uchun «raqobat maydoni» hisoblangan «betaraf» zonasi ochiq qoldirildi. Bu zonada mulklarni ijaraga olish masalasida har ikki davlat ham teng huquqqa ega boʻldi. Rossiya bilan Angliya Eronning daromad manbalarini nazorat ostiga olish toʻgʻrisida kelishib oldilar.

Angliya Afgʻonistonning faqat oʻz nazorati ostida boʻlishligiga erishdi. Shu bilan bir vaqtda Angliya Afgʻonistonda «Rossiyaga tahdid soladigan» tadbirlar koʻrilishiga yoʻl qoʻymaslik majburiyatini oldi. Savdo-sotiq sohasida rus savdogarlarining ingliz va hind savdogarlari bilan teng huquqli boʻlishi tamoyili qabul qilindi. Buning evaziga Rossiya Afgʻoniston bilan boʻladigan siyosiy aloqalarni faqat Britaniya hukumatining vositachiligi orqali olib borish majburiyatini oldi. Chor hukumati Angliyaning Afgʻoniston ustidan protektoratini amalda eʼtirof etish bilan Oʻrta Osiyodagi oʻzining strategik mavqecini ancha zaiflashtirib qoʻydi.

Davlat Dumasining 1908- yil 27- fevraldagi majlisida Tashqi ishlar vaziri Izvolskiyning Angliya—Rossiya bitimi imzolanganligi toʻgʻrisidagi bayonotidan faqat oshkora germanparastlargina norozi boʻldilar.

Angliya—Rossiya bitimidan koʻzlangan maqsadlardan biri Osiyo xalqlarining oʻsib borayotgan ozodlik harakatiga qarshi va eng avvalo, Eron inqilobiga qarshi kurashmoq uchun ingliz va rus kuchlarini birlashtirish edi. Bu bitim Yevropaning bir-biriga qarama-qarshi turgan ikkita harbiy-siyosiy blokka — «Antanta»ga (Rossiya — Fransiya — Angliya) va «Uchlar ittifoqi»ga (Germaniya — Avst-

riya-Vengriya — Italiya) bo'linishini tugalladi va binobarin, Birinchi jahon urushiga olib boradigan yo'ldagi «muhim» bosqich bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlaridagi Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti haqida so'zlab bering.
 2. Rossiyada faoliyat ko'rsatgan sindikatlar haqida nimalarni bilasiz, ular G'arbiy Yevropa davlatlari sindikatlaridan nimasi bilan farq qilardi?
 3. Kartel bilan sindikatning bir-biridan farqi to'g'risida so'zlab bering.
 4. 1905—1907- yillardagi rus inqilobining asosiy sabablari nimalardan iborat?
 5. Stolipin agrar islohoti va uning mohiyati nimalardan iborat?
 6. Chorizmning agrar siyosati haqida gapiring.
 7. XX asr boshlarida Rossiyaning tashqi siyosati qanday edi?
 8. Bir-biriga qarama-qarshi bloklar va ularning vujudga kelish sabablari to'g'risida gapirib bering.

Ushbu jamiyatlar haqida fikr yuriting: «Prodmet», «Truboprodaja», «Krovlya», «Med», «Produgol», «Nobel-mazut», «Lena Goldfilds».

Bu raqamlarni yodda tuting: 1905- yil 9- yanvar, 1905 - yil 12- may, 1905- yil 14- iyun, 1906- yil 27- aprel, 1907- yil 20- fevral, 1910- yil 14- iyun. Rossiyada inqilobiy harakat nega shu darajada keng yoyildi?

7- b o b. JANUBI-SHARQIY VA MARKAZIY YEVROPA XALQLARI XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA

20- §. XIX asrning oxirida Avstriya-Vengriya

Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti

XIX asrning so'nggi choragida Avstriya-Vengriya Yevropadagi eng qoloq mamlakatlardan biri edi. Mamlakatda eski tuzum qoldiqlarining saqlanib qolganligi ilg'or Yevropa mamlakatlariga nisbatan sanoat taraqqiyoti sur'atlarining sekinlashuviga olib bordi.

90- yillarda shahar aholisi butun Avstriya-Vengriya aholi-

sining faqat uchdan birini tashkil qilardi. Hatto, imperiyaning eng rivojlangan qismi bo'lgan Avstriyada ham shahar aholisidan qishloq aholisi ko'p edi. Vengriya esa ko'proq agrar mamlakatligicha qolaverdi. Imperiya qishloq xo'jaligining rivojlanishi ilgaridek davom qildi, ya'ni dehqonlar ustidan pomeschiklar hukmronligi saqlanib qolaverdi.

Avstriya-Vengriyaning turli viloyatlarida kapitalizmning rivojlanishi notekis bordi. Chexiya bilan Quyi Avstriya sanoat jihatidan ko'proq rivojlandi, Galitsiya, Bukovina va boshqa bir qancha viloyatlar rivojlanish jihatidan juda orqada qolib bordi.

70—90- yillarda Chexiya sanoatida cho'yan eritish hal qiluvchi o'rinda turar va imperiyada olingan umumiy cho'yaning 86 foizini tashkil qilardi. Temir yo'l qurilishi tez sur'atlar bilan bordi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari: lavlagidan qand ishlash, vino tayyorlash tarmoqlari mamlakat iqtisodida katta rol o'ynay boshladi. Chexiya imperiya to'qimachilik sanoatining ham markazi edi. Mamlakatdagi 134 ta yirik ip-gazlama fabrikasidan 67 tasi Chexiyada edi. Chexiya Gabsburglar imperiyasining sanoat jihatidan eng rivojlangan qismiga aylanib qoldi.

1867- yilda tuzilgan Avstriya-Vengriya bitimi Vengriyaning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi uchun ma'lum darajada turtki bo'ldi. Vengriya ko'miri bazasida sanoatning metallurgiya va metall ishlash tarmoqlari rivojlana boshladi. Lekin Vengriyaning asosiy sanoat tarmog'i oziq-ovqat sanoati bo'lib qolaverdi. 1898- yilda Vengriyaning un tortish, vino tayyorlash, qand va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yuzasidan imperiyadagi hissasi 47,3 foiz bo'ldi. Avstriya iqtisodi ko'proq chet el kapitaliga qaram edi. Chet el kapitali mamlakat sanoatining eng muhim tarmoqlaridagi kattagina ulushni o'z qo'liga kiritib olgan edi. *Auersperg* hukumati (1871—1879) bir qator islohotlar o'tkazdi. Fuqaro nikohi joriy qilindi, ruhoniylar muallimlik huquqidan mahrum etildi.

Tashqi siyosat

Avstriya-Vengriyaning XIX asrning so'nggi choragida olib borgan tashqi siyosati Germaniya bilan tobora ko'proq yaqinlashish siyosati bo'ldi.

Fransiya — Prussiya urushi davrida imperator *Frans Iosif*, shuningdek Avstriya aristokratiyasi hali ham 1866- yil mag'lu-

biyati uchun o'ch olish orzusida yurardilar. Ular Fransiya bilan Prussiya o'rtasidagi qurolli to'qnashuvda qatnashmoqchi edilar. Lekin chuqur ichki ziddiyatlar va chor Rossiyasining qarshiligi tufayli Avstriya-Vengriya betaraflikni saqlashga majbur bo'ldi.

1873- yilda Avstriya-Vengriya Germaniya va Rossiya bilan «Uch imperator ittifoqi» degan bitim tuzdi. 1876- yil 6- iyulda Rossiya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasida yangi bitim tuzildi, bu bitimda ruslar bilan turklar o'rtasida urush chiqib qolgan taqdirda, Avstriya-Vengriyaning Rossiyaga do'stona betaraflik yo'lida turishi belgilangan edi. Avstriya betaraf turishi evaziga Xorvatiyaning bir qismini va Bosniyaning ba'zi bir chegara viloyatlarini olishi lozim edi. 1878- yildagi Berlin kongressida Avstriya hukumati Bosniya va Gersegovinani istilo qilishga Yevropa davlatlarining roziligini oldi.

Bosniya va Gersegovinaning istilo qilinishi Avstriya-Vengriyaning Rossiya bilan munosabatlarini yomonlashtirib qo'ydi. Bolqonda bosqinchilik siyosatining kuchayishi va Avstriya — Rossiya munosabatlarining yomonlashganligi Avstriya-Vengriyaning Germaniya bilan yaqinlashuviga sabab bo'ldi.

Italiya Tunis tufayli Fransiya bilan janjallashib qolgandan keyin Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi, natijada agresiv «Uchlar ittifoqi» paydo bo'ldi. Keyinchalik Avstriya-Vengriyaning Ruminiya bilan yangi ahd tuzishi, Avstriya-Vengriyaning Bolgariyada faol siyosat yurgizishi, Avstriya-Vengriya va Germaniya tarafida bo'lgan Ferdinand Koburgskiyning bolgar knazi qilib tayinlanishi Avstriya-Vengriya va Germaniyaning Rossiya bilan munosabatlarini birdaniga yomonlashtirib yubordi va «Uch imperator ittifoqi»ning tugatilishiga olib keldi.

**Bolqondagi
bosqinchilik harakati,
Germaniya bilan
munosabat**

1877—1878- yillardagi Rossiya — Turkiya urushining muhim natijasi bolgar davlatining tiklanishi va Serbiya, Chernogoriya hamda Ruminiyaning turklar asoratidan uzil-kesil ozod etilishi bo'ldi.

Angliya Bolqon xalqlarini Turkiyaga bo'ysundirish bilan Usmoniylarga o'z ta'sirini o'tkazish siyosatini ilgari surdi va Rossiyaning Bolqondagi ta'sirini zaiflashtirishga intildi. Bolqon

mamlakatlari esa ozodlikni mustahkamlashga harakat qildilar. Biroq, bu harakatlar Angliya va Avstriya-Vengriya imperiyasi manfaatlariga zid edi. Ularning tashabbusi bilan San-Stefano shartnomasini qayta ko'rib chiqish maqsadida 1878- yil 13- iyulda Berlinda xalqaro kongress chaqirildi. Angliya bilan Avstriya-Vengriya Bolgariyaning janubiy chegarasi Bolqon tizma tog'laridan nariga o'tmasin deb oldindan kelishib oldilar. San-Stefano sulh shartnomasi Berlin kongressida o'zgartirildi.

Bolgariyada rus qo'shinlarining bo'lish muddati 2 yildan 9 oyga tushirildi. Bolgariya Turkiyadan G'arbiy Yevropa davlatlariga o'tuvchi chet el mollari uchun boj olish huquqidan mahrum etildi. Chernogoriyaning dengiz sohili nazorati Avstriya-Vengriya qo'liga o'tdi.

Bolqon davlatlari uchun olib borilgan kurashda Rossiyaga qarshi Avstriya-Vengriya imperiyasi Germaniya imperiyasi bilan yaqinlashishga intildi. Bu narsa 1879- yil 7- oktabrda asosan Rossiyaga qarshi qaratilgan yashirin Avstriya-Vengriya va Germaniya bitimining imzolanishi bilan mustahkamlandi.

Taaffe hukumatining siyosati

Avstriya-Vengriyada sinfiy va milliy ziddiyatlar kuchayib, imperiya hukmron doiralari o'taketgan reaksiyon davri boshlandi. Avstriya-Vengriyada sinfiy va milliy ziddiyatlar kuchayib, imperiya hukmron doiralari o'taketgan reaksiyon davri boshlandi. Frans Iosifning shaxsiy do'sti, graf *Eduard Taaffe* vazirligi davrida (1879- yil avgust — 1893- yil noyabr) Avstriyada reaksiyon siyosat ayniqsa zo'r kuch bilan namoyon bo'ldi. Eduard Taaffening siyosiy dasturi demokratik harakatga qarshi kurashni maqsad qilib qo'ygandi, buning uchun u demagogiya va ishchilar sinfiga tilyog'lamalilik qilish usullarini qo'llab, ijtimoiy qonunchilik sohalarida oz-moz «yon berib» turdi. Aslida esa feodal-klerikallar blokini tuzdi. Bu blok «Temir halqa» degan tashkilotga suyanardi. Bu tashkilot o'taketgan klerikal namoyanda bo'lgan Groxolskiy boshliq polyaklar klubidan, Riger boshliq cheklar klubidan, hamma millatdan bo'lgan tarafdorlarni birlashtirgan, o'taketgan konservator va klerikal Gogenvart guruhidan tashkil topgan edi. Bu blok ishtirokchilari o'z talablarida qattiq turib, koalitsiyadan chiqamiz deb, do'q qilardilar. Taaffe bo'lsa, turli masalalarda «yon bosib», ularning «ko'nglini topish» payida bo'lardi. Ana shu ayyorlik siyosati «mo'tadil norozilik» vaziyatini vujudga keltirdi. Taaffening

muddaosi ham shu edi. Taaffe vazirligi davri mamlakatda nisbatan siyosiy osoyishtalik davri bo'lgan edi.

Avstriyadagi partiyaviy kurash ikki yangi partiya — pangermanlar va xristian sotsialistlar partiyasining tuzilishiga olib keldi. Pangerman partiyasi Avstriya-Vengriya va Germaniyani birlashtirishga harakat qildi. Bu partiya tarafdorlari Avstriya slavyan xalqlarining o'sib borayotgan milliy ozodlik harakatini o'z kuchi bilan bartaraf qila olmaydi, deb hisoblardilar. Pangermanchilar dasturiga slavyanlarga qarshi kurashish, «irqlar sofligi» g'oyasini targ'ib qilish, kayzer Germaniyasiga bo'ysunish asos qilib olingan edi.

Ko'proq avstriyalik katoliklardan iborat bo'lgan xristian sotsialistik partiyaga o'taketgan reaksioner Lyueger boshchilik qildi. Bu partiyaning arboblari «Buyuk Germaniya» g'oyasini sinfiy tinchlikni targ'ib qilish, barcha ijtimoiy janjallarni «inoqlik va muhabbat ruhida» hal qilishga da'vat qilish va antisemitizmni targ'ib qilish bilan olib borardilar.

Pangermanchilarning ta'siri kuchayib ketganligiga qaramay, Taaffe ba'zi bir masalalarda chexlarning talabini bajarishga majbur bo'lgan edi. 1880- yili Chexiya sud va ma'muriyat ishlari uchun ikki til joriy qilingan edi. Rasmiy yozishmalar nemis tilida olib borilardi. Lekin barcha ma'muriy organlar qaysi tilda so'rov tushgan bo'lsa, aholiga shu tilda javob berishga majbur edilar. 1882-yildan boshlab Praga universitetida nemis va chex tillarida dars beriladigan bo'ldi hamda chex Seymiga va delegatsiyalarga chexlardan olinadigan vakillarning soni ko'paytirildi. Bu «yon berishlar» Chexiya burjuaziyasini ma'lum darajada qanoatlantirgan edi.

Lekin bundan keyingi o'n yillikda Chexiyada milliy kurash yanada katta kuch bilan boshlanib ketdi.

Slavyanlar milliy ozodlik harakatining o'sishi

Qarama-qarshi ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi to'xtovsiz kurash mamlakatning bundan keyingi iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qilib keldi. Avstriya-Vengriya imperiyasini tuzish to'g'risidagi 1867- yil bitimidan keyin avstriyaliklar millat sifatida tarkib topdi. Garchi imperiya aholisining katta qismi (50 million aholining 30 millioni) o'z huquqlari uchun

qahramonona kurashgan slavyan xalqlari bo'lsa ham, avstris millati ikki davlatdan iborat yagona monarxiyada hukmron bo'lib qoldi.

Chexiya yerlarida milliy kurash birmuncha keng quloqch bo'ydi. Chexiyaning iqtisodiy jihatdan tez rivojlanishi chex burjuaziyasi faoliyatining o'sishiga ta'sir qildi. Chexiyani muxtoriyatdan tamomila mahrum qilgan 1867- yil konstitutsiyasi, Vena hukmron doiralarning «markazlashtirish» siyosati Chexiya yerlarida juda qattiq norozilik harakatlariga sabab bo'ldi. Chexiyadagi milliy harakatda ikki oqim — dvoryanlarga «ko'z tikkan» Riger boshliq keksa chexlar partiyasi bo'lgan «o'ng» qanot va savdo-sanoat burjuaziyasining manfaatlarini himoya qilgan Sladkovskiy boshliq bo'lgan yosh chexlar partiyasining «o'ng» qanoti paydo bo'ldi.

Chex muxolifati parlamentga deputatlar yuborishdan «bosh tortib», Vengriyaga berilgani singari Chexiyaga ham siyosiy huquqlar berilishini talab qildi. Hukumat bunga javoban ta'qib choralarini kuchaytirib yubordi. 1868- yil 7- oktabrda Chexiyada qamal holati joriy qilindi. Lekin bunday usullar imperiyadagi liberal rejimning obro'sini ketkazdiyu, ammo chex muxolifatini «sindira» olmadi. Barcha shaharlarda mitinglar o'tkazildi. Bu mitinglarda monarxiyani o'zgartirishni talab etgan rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Chexlarning milliy harakati bilan bir qatorda polyak muxolifati ham katta rol o'ynadi. Bu muxolifat maktablarda polyak tilini joriy qilishni, mamlakatni boshqarishda ma'muriyat tashkil qilishni talab qildi.

Galisiyadagi ukrain aholisi ham milliy zulm ostida edi. Avstriya hukumati Galisiyadagi hukmron sinflar bilan bitim tuzib, o'lkani idora qilishda ularga rahbarlik rolini berdi. Ukrain dehqonlari, kosiblari va ziyolilari tobora kuchayayotgan zulmga qarshi kurashdilar, norozilik namoyishlari uyushtirdilar.

Bu davrda ba'zi arboblardan ko'p millatli imperiyada ahvolni mo'tadillashtirish uchun madaniy-milliy muxtoriyat, ya'ni har bir millatga madaniy belgilariga qarab muxtoriyat berish masalasini ilgari surdilar. 1867- yilgi bitimdan so'ng Vengriyada keskin siyosiy kurash boshlanib ketdi. Avstriya-Vengriya bitimi Vengriyaning o'z ichida siyosiy mustaqillikni qonunlashtirgan bo'lsa ham, lekin aslida ikkala davlatda ham Avstriya hukmronligi o'rnatilgan edi.

Vengriyada 1868- yil 30- noyabrda «Millatlar haqida» qonun qabul qilinib, unga ko'ra Vengriya hududida yashovchi slavyan xalqlari bilan ruminlar siyosiy huquqlardan mahrum qilindilar. Keyinchalik chiqarilgan qarorlar natijasida boshlang'ich va o'rta maktablarda venger tili joriy etildi.

XIX asrning so'nggi o'n yillarida milliy zulm yanada kuchaydi. Zakarpatedagi ukrain aholisi «vengerlashtirildi». Milliy zulmga qarshi ukrainlar kurash boshladilar. Ular Avstriya monarxiyasidan milliy mustaqillikni qat'iy talab qildilar.

Xorvatiya ham Vengriya zulmi ostida edi. 1868- yilda tuzilgan bitimga muvofiq, xorvatlarga ma'lum «yon berishlar» bo'ldi. Lekin zulm davom etaverdi. Xorvatiya budjetining 56 foizi Vengriya foydasiga chegirib olinib, faqat 44 foizi Xorvatiyaga qoldirilardi. Xorvatiya doimo harbiy yoki favqulodda holatda turar, xalq noroziligi qattiq ta'qiblar bilan shafqatsiz bostirildilar.

Slovakiya ham vengerlar zulmi ostida edi. 1867- yil bitimidan so'ng Slovakiyada zo'r berib «vengerlashtirish» kuchaytirildi. «Matitsa» nomli siyosiy-milliy ittifoq «yopib» qo'yildi. Slovak maktablari bekitildi. Slovakiyada katolik cherkovining slovak cherkovi bilan venger cherkovlarini birlashtirishga qaratilgan harakati kuchaytirildi.

Ijtimoiy harakat

70—80- yillarda keskinlikning kuchayishi ijtimoiy harakatning yanada o'sishiga olib keldi. 1869- yil 13- dekabrda Venada ishchilar ommaviy namoyish uyushtirib, parlament binosi tomon yo'l oldilar. Ular uyushmalar va majlislar erkinligini, muntazam armiyani tarqatib yuborib, uning o'rniga barchaning qurollanishini talab qildilar. Bu namoyishning alohida ahamiyati shundan iborat ediki, u birinchi marta turli millat ishchilarini birlashtirdi. Praga, Budapesht va boshqa shaharlarda bu namoyishning ta'siri juda katta bo'ldi.

Shunga qaramay, 13- dekabrda ommaviy namoyish Avstriya ishchilarining korxonaga egalari va hukmdorlar ta'qibi ostida qolishiga sabab bo'ldi. 1870- yilda Avstriya ishchilar harakatining rahbarlari davlatga xiyonat qilishda ayblanib, sud javobgarligiga tortildilar. Ularning hammasi uzoq muddatli qamoqqa hukm qilindi.

1884- yilda Taaffe Bismarkdan o'rnak olib, ishchilar harakatiga

qarshi kurash maqsadida «favqulodda qonun» chiqardi. Bu qonunga muvofiq, ishchilarni ta'qib qilish va polisiya terrori kuchaytirildi. 80- yillarning oxiriga kelib ishchi uyushmalari tarqatib yuborildi, ishchi gazetalari bekitildi, majlislar o'tkazish qat'iy man qilindi. Ammo hamma joyda ishchilar harakati o'sib bordi. 60- yillarda Umumiy ishchilar ittifoqi paydo bo'ldi, bu ittifoq ijtimoiy talablardan tashqari, milliy mustaqillik uchun kurash vazifalarini ham o'rtaga qo'ydi.

Gaynfeld dasturi

80- yillarning oxirida Avstriya ishchilar harakatida burilish bo'ldi. Gaynfeldda bo'lgan syezdda (1888- yil dekabr — 1889- yil yanvar) ishchi tashkilotlar birlashib, Avstriya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi.

Syezdda qabul qilingan dasturda siyosiy erkinliklar, parlamentning umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanishi, cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish talabi o'rtaga qo'yilgan, baynalmilalchilik, barcha millat va irqning teng huquqli bo'lishi himoya qilingan edi. Gaynfeld syezdi iqtisodiy talablar: ish kunini qisqartirish, ishchilar mehnatini himoya qilish, kasaba uyushmalari tashkil qilishdan iborat keng dasturni ilgari surdi.

Avstriya sotsial-demokratik partiyasini tuzgan kishi va uning rahbari *Viktor Adler* edi. Viktor Adler o'zining siyosiy faoliyatini burjua radikal tarqasida boshlab, keyinchalik ishchilar harakatining mashhur arbobi bo'lib qolgan edi.

Viktor Adler umumiy saylov huquqini qo'lga kiritishni Avstriya ishchilar harakatining eng muhim vazifasi deb hisoblardi. Ishchilar harakatining shu davrdagi bosqichi uchun bu vazifa to'g'ri edi. Umumiy saylov huquqini qo'lga kiritish va davlat apparatini demokratlashtirish shiorlari ishchilar ommasi orasida eng mashhur shiorlar bo'lib qoldi, ularni ommaviy yo'sinda harakat qilishga ilhomlantirdi.

1893- yil 9- iyulda Venada umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqini talab qilgan 50 ming kishilik juda katta namoyish bo'ldi. Ishchilar Ratushani egallab oldilar, u harakatning markazi bo'lib qoldi. Taaffe hukumati saylov islohoti loyihasini muhokamaga qo'yishga majbur bo'ldi, bu loyiha 1896- yilda qonunga aylandi.

**Vengriya
sotsial-demokratiyasi**

1890- yil 7—8- dekabrda bo'lib o'tgan Ta'sis syezdidagi Vengriya sotsial-demokratik partiyasi tuzildi. Bu partiyaning tuzilishida metallist ishchi Pal Engelman juda katta rol o'ynadi. Syezddagi partiyaning «Prinsiplar deklaratsiyasi» degan dasturi qabul qilindi. Bu dasturda ekspluatatsiyaga qarshi, ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish uchun kurash zarurligi to'g'ri ko'rsatilib, ishchilar sinfini ozod qilish ishchilarning o'z ishi deb ta'kidlab o'tilgan edi.

Vengriya sotsial-demokratik partiyasi Engelman rahbarligi ostida ommaviy kasaba uyushma harakatini rivojlantirish uchun ko'p ish qildi. Bu partiya ishchi tashkilotlarini tuzdi, millionlab ekspluatatsiya qilinuvchilarning turmush sharoiti va siyosiy huquqlarini yaxshilash uchun kurash olib bordi, majlis va mitinglar erkinligi uchun, umumiy saylov huquqi uchun kurashdi, ishchilar bilan dehqonlar ittifoqini tuzishga harakat qildi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asming oxirida Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti qay ahvolda edi?
 2. Avstriya-Vengriya hukumati tashqi siyosatda ko'proq qaysi davlatga tayanardi?
 3. 1873- yilda Avstriya-Vengriya qaysi davlatlar bilan siyosiy bitim tuzdi va bu bitim qanday yakun topdi?
 4. 1877—1878- yillardagi rus-turk urushi qaysi slavyan davlatlarining tiklanishi va obod bo'lishiga sabab bo'ldi?
 5. Nima sababdan rus-turk urushi Bolqon davlatlari uchun ozodlik urushi bo'lgan?
 6. Avstriyada Taaffe hukumati Chexiya xalqlarining qanday talablarini bajarishga majbur bo'ldi?
 7. XIX asming so'nggi choragida Chexiya va Slovakiyada milliy ozodlik harakati nima uchun o'sib bordi? Vengriyada-chi?
 8. Gaynfeld dasturi haqida so'zlab bering.

Bu nomlarni yodda tuting: Gabsburglar, Galitsiya, Bukovina, Frans Iosif, «Uchlar ittifoqi», Ferdinand Koburgskiy, «Uch imperator ittifoqi», Chernogoriya, Taaffe, «Temir halqa», Lyueger, Riger, Sladkovskiy, Gaynfeld, Viktor Adler, Pal Engelman.

21- §. XX asrning boshlarida Avstriya-Vengriya

Avstriya-Vengriyaning iqtisodiy taraqqiyoti

XX asrning boshlarida Avstriya-Vengriya o'zining iqtisodiy rivojlanishida ilg'or mamlakatlardan ancha orqada edi. 1905–1907- yillarda AQSH da aholi jon boshiga 4,87 tonna, Germaniyada 3,86 tonna ko'mir qazib chiqarilgan bo'lsa, Avstriya-Vengriyada 0,8 tonna ko'mir qazib chiqarilgan edi. Xuddi o'sha yillar AQSH-da aholi jon boshiga 350 kg cho'yan, Germaniyada 168,7 kg cho'yan eritilgan edi.

Shunga qaramasdan, mamlakatning industrial rayonlari — Quyi Avstriya va Chexiyada ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va monopoliyalarning vujudga kelish jarayoni jadallik bilan bordi. Yirik korxonalar soni ortib bordi, 25 yil mobaynida (1885–1910-yillar) aksiyali jamiyatlarning soni 350 tadan 587 taga yetdi va ularning kapitallari ham ko'payib bordi. Bu jarayon konchilik sanoatida yaqqol namoyon bo'ldi: 1912- yilga kelib Sisleytaniyaning o'zida 200 ta kartel vujudga kelgan edi.

XX asr boshlariga kelib ssuda kapitali asosan Venadagi bir necha yirik bankda: Milliy bankda, «Kreditanshtalt», «Bodenkreditanshtalt» nomli banklarda va Vena banklari birlashmasida to'plangan edi. Mamlakatning xo'jalik hayotida ham, siyosiy hayotida ham moliya oligarxiyasining ta'siri kuchayib bordi.

Biroq, bu davrda Avstriya-Vengriyaning chet elga qaramligi kuchaydi. Bunga Yevropa davlatlariga nisbatan ancha zaif iqtisodiy rivojlanganlik sabab bo'ldi. Fransiya, Belgiya, Germaniya banklari zayom berish, sanoatga mablag'lar solish bilan Avstriyani o'z kapitallari bilan to'ldirib yuborgan edi. Ayniqsa, bu sohada german kapitali ustunlikka erishgan edi. Avstriya-Vengriya sanoatining metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va shu kabi tarmoqlari Germaniya firmalari tomonidan moliyaviy jihatdan ta'minlanib turar edi. Germaniya moliya magnatlari Galitsiyadagi neft konlarini ishlatardi. Buning uchun nemis banki kapitallari ishga solingan edi. Avstriya-Vengriyaning elektrotexnika ishlab chiqarishiga german monopoliyalari — «Simens-Galsko» va «Umumiy elektr kom-paniyasi» boshchilik qilardi. Nemis kapitalining to'qimachilik va oynasozlik korxonalarida mavqei baland edi. U Vengriya va

Dalmasiyadagi kon sanoatini o'z nazoratiga oldi. Shimoliy Chexiya konlarida o'z ta'sirini kuchaytirdi. Hatto, nemis kapitali qishloq xo'jaligiga «suqilib» kirgan edi. Avstriyaning 200.000 gektar yeri nemis pomeshchiklariga tegishli edi.

Chet el kapitaliga qaramlik Avstriya-Vengriya moliyachilariga o'z kapitallarini monarxiyaning iqtisodiy jihatdan eng qoloq viloyatlari: Galitsiya, Xorvatiya, Slovakiya, Bosniya va Gersegovinaga olib borib sarflashga xalaqit bermadi. Avstriya kapitali mablag'lari-ga shu yerlarning o'zidan xom ashyo, neft va ruda olib ishlaydi-gan sanoat korxonalari vujudga keltirildi. Bu korxonalardan kelgan katta foyda Avstriya-Vengriya sanoatchilari va bankirlarini boyitdi. Rivojlanishda orqada qolgan viloyatlar xom ashyo yetkazib beradigan yarim mustamlakalarga aylantirildi.

**Milliy ozodlik harakati.
Chexiyadagi iqtisodiy
va ijtimoiy ahvol**

XX asr boshlarida Avstriya-Vengriyada milliy ziddiyatlarning tobora kuchayish jarayoni davom etdi. Ezilgan slavyan xalqlarining milliy ozodlik kurashi avj

ola bordi. Bu esa imperiya tuprog'ida yashovchi millatlarning intilishlarini e'tiborga olmay kelgan hukumatning siyosatiga javob bo'ldi. Gabsburglar monarxiyasi avvalgicha «xalqlar turmasi» edi.

1890- yilgi Vena kelishuvining barbod bo'lishi va Chexiyada xalq harakatining o'sib borishi munosabati bilan *Badeni* hukumati (1895—1897) Chexiya va Moraviyadagi davlat idorasi yozishmalarida chex tili bilan nemis tilini bab-baravar yurgizish huquqi to'g'risida 1897- yil aprel oyida qaror chiqarishga majbur bo'ldi. Hukumatning bu ishi Chexiya bilan Moraviya-dagi nemis burjuaziyasi bilan talabalarning qattiq noroziligi va namoyishlariga sabab bo'ldi. Chexlar qo'lga kiritgan ozgina siyosiy huquqlarni nemis burjuaziyasi bilan talabalar o'z imtiyozlarini batamom yo'qotish, deb bildilar. Avstriya Reyxstagida nemis deputatlari norozilik bildirib, Badenining iste'fo berishini talab qildilar. Chexiya va Moraviyada chex tashkilotlariga qarashli binolar vayron etildi, chex vatanparvarlari ta'qib ostiga olindi.

Badenining vorisi Gauch til to'g'risidagi qonunni bekor qilganidan so'ng, o'z navbatida chex deputatlari parlamentda norozilik bildirib, shovqin ko'tardilar. Bu ahvol parlamentning ishini juda og'irlashtirib yubordi.

Kerber kabineti (1900–1904) Chexiyani chex va nemis tillarida so'zlashadigan tumanlarga bo'lish yo'li bilan chex-nemis bitimi tuzmoqchi bo'ldi. Biroq, chexlar bu urinishni rad etdilar. Yosh chexlar Chexiya bilan Moraviyada tillar tengligini talab qilib chiqdilar, Kerber hukumati tomonidan bu talabga e'tibor berilmaganligi sababli noroziliklar yangidan boshlanib ketdi. Parlament ishi batamom izdan chiqdi. Kerber hukumati biror-bir natijaga erisha olmagach, iste'fo berishga majbur bo'ldi. Galitsiyada polyaklar harakati faollashdi. Avstriya hukmronligiga keskin qarshi bo'lgan va Polshani qaytadan tiklashni talab qilgan yangi polyak milliy-demokratik partiyasi tuzildi. Galitsiyaning ichkarisida polyaklar bilan ukrainlar o'rtasidagi kurash keskinlashib ketdi.

Slavyan xalqlarining milliy kurashi bilan bir vaqtda, Italiyaning Tirol viloyati ham Avstriya zo'ravonligiga qarshi harakatga qo'shilgan edi.

XX asr boshlariga kelib Avstriya bilan Vengriya o'rtasida keskin ziddiyatlar vujudga keldi. Vengriya Seymi venger armiyasi kontingentining ko'paytirilishini va mustaqil bo'lishini, shuningdek, Vengriya bojxonasini Avstriya bojxonasidan alohida qilib ajratib chiqarishni talab qildi. Bu talablarning amalga oshirilishi uchun olib borilgan kurashga Seymdagi muxolifat bloki boshchilik qildi. Bu blokda «Mustaqillik partiyasi» rahbarlik rolini o'ynadi, u o'rta mulkdor dvoryanlar va ziyolilar katta qismining manfaatlarini ifodalardi. Mayda burjuaziyaning, o'quvchi yoshlar va ishchilarning keng ommasi kurashga qo'shilgan edi. Muxolifat blokining g'oyat katta faollik ko'rsatishiga qaramay, u o'z talablarini bajartirishning uddasidan chiqa olmadi. Avstriya hukumati jazo berish yo'liga o'tib oldi.

Xorvat-venger munosabatlari ham keskinlashdi. Xorvat xalqining haq-huquqdan mahrum etilganligi uning doimo noroziligiga sabab bo'ldi va bu norozilik vengerlarga qarshi chiqishlarda o'z ifodasini topdi. XX asr boshlarida Xorvatiya xalqi uzluksiz sur'atda yomon ahvolda yashab kelardi.

Kapitalizm sharoitida chex yerlari Avstriya-Vengriya monarxiyasining iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan qismiga aylandi. Xorvatiya burjuaziyasining mavqei mustahkamlandi. Ezilgan xalq ommasining milliy ozodlikka intilishi o'sib bordi.

Umumiy saylov uchun kurash 1905- yil 15- sentabrda Budapeshtda 150 ming kishilik namoyish o'qqa tutilib, «Qizil juma» nomi bilan tarixga kirdi. Ular umumiy saylovni talab qilgan edilar. 1905- yil noyabr boshlarida Venada ishchilarning saylov huquqini isloh qilishni talab etgan ommaviy namoyishlari boshlanib ketdi. Ayrim joylarda bu namoyishlar politsiya va hukumat harbiy bo'linmalari bilan qurolli to'qnashuvlarga aylandi. 28- noyabrda Venada bo'lgan namoyishda 250.000 kishi qatnashdi. Shundan so'ng Pragada barrikada kurashi bo'ldi. Chexiya temir yo'lehtilarining umumiy ish tashlashi imperiyaning xo'jalik faoliyatini izdan chiqardi.

1905- yil 4- noyabrda *Gauch* hukumati (1904–1906) umumiy saylov huquqi joriy qilish uchun rozilik berishga majbur bo'ldi. Biroq, uning Reyxstag tomonidan qonuniy tasdiqlanishi 1907- yil fevraligicha cho'zildi. Erkaklarga 24 yoshdan boshlab saylov huquqi berildi. Xotin-qizlarga ovoz berish huquqi berilmadi. Slavyan xalqlariga nemis aholisiga qaraganda ancha kam o'rin berildi, ya'ni milliy vakolat masalalarida oldindan davom etib kelgan nomuvofiqlik saqlanib qolaverdi.

1905- yili Vengriyada 345 marta umumiy ish tashlash yuz berdi, ularda 58 mingdan ortiq ishchi qatnashdi. 1906- yildagi ish tashlashlarda qatnashchilarning soni yanada ko'paydi. Ish tashlovchilarga metallistlar va binokorlar boshchilik qilishi, umumiy saylov huquqi joriy qilish talablari ilgari surildi.

1907- yili saylov qonuni loyihasi e'lon qilindi, bu qonun loyihasiga ko'ra badavlat fuqarolarga ikki va uch marotaba ovoz berish huquqi joriy qilinib, kambag'al aholining 65 foizi ovoz berish huquqidan mahrum etildi. Ushbu loyiha katta norozilikka sabab bo'lib, 1907- yil noyabrida yangi «Qizil juma» bo'lishi bilan yakunlandi.

Lekin Vengriya ishchilar sinfining faolligiga qaramay, keyingi yillardagi harakatlar mag'lubiyatga uchradi.

Bosniya va Gersegovinada ozodlik harakati XX asr boshlarida Avstriya-Vengriyaning tashqi siyosati tobora agressiv xarakter kasb eta bordi. Avstriya-Vengriyaning asosiy intilishlari Bolqon mamlakatlarini bosib olishga qaratilgan edi. Hukmron doiralar fikriga ko'ra, slavyan xalqlarining milliy ozodlik harakatini bostira oladigan va Avstriya-Vengriya

monarxiyasini yemirilishdan saqlab qola oladigan, shuningdek o'z mamlakatida g'olibona urush olib boradigan kuchlar «Harbiy partiya» tashkiloti atrofida birlashgan edilar. Taxt vorisi Frans Ferdinand bu partiya boshchilik qilar edi. Avstriya-Vengriya armiyasi Bosh shtabining boshlig'i feldmarshal Konrad fon Getsendorf Frans Ferdinandning «o'ng qo'li» hisoblanar edi.

1908- yilning 5- oktabrida Bosniya bilan Gersegovinaning bosib olinishi Avstriya-Vengriya bosqinchilik siyosatining Bolqondagi birinchi bosqichi edi.

Bosniya bilan Gersegovinaning bosib olinishi jiddiy xalqaro tanglikka, bir tomondan, Avstriya-Vengriya bilan ikkinchi tomondan, Rossiya va Serbiya o'rtasidagi munosabatlarning ancha keskinlashib ketishiga sabab bo'ldi.

1912—1913- yillarda, Birinchi va Ikkinchi Bolqon urushlari davrida Avstriya-Vengriyada Serbiyaga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rika boshlandi. 1912- yil oxiriga kelib bu tayyorgarlik ayniqsa kuchaydi. Harbiy partiya Serbiyadan o'ch olmoqchi, Avstriya-Vengriyaning Bolqondagi mavqeini mustahkamlamoqchi va slavyanlarning milliy harakatini bostirmoqchi bo'ldi.

Avstriya hukmron doiralari uzoq ikkilanishlardan keyin Serbiyaga hujum qilishni kechiktirishga majbur bo'ldilar. Bunga Rossyaning urushga kirish xavfi sabab bo'lgan edi. O'sha vaqtda Vena va Berlinda jahon urushini boshlab yuborish masalasi hali hal qilinmagan edi. Biroq, 1913- yilda Ikkinchi Bolqon urushining boshlanishi bilan Bolqon davlatlarining mavqei zaiflashib qoldi. Ikki Bolqon urushi natijasida Bolqon davlatlari o'rtasidagi munosabatlar ham haddan tashqari keskinlashgan edi.

Siyosiy inqirozning yetilishi. «Triallizm» rejalari

Birinchi jahon urushi arafasida ko'p millatli Avstriya-Vengriyada slavyan xalqlarining milliy ozodlik kurashi to'xtamadi. Bosniya bilan Gersegovina

Avstriya-Vengriya monarxiyasiga qo'shib olinganidan va bu viloyatlarda Avstriya zulmi kuchayganidan keyin bu harakat ayniqsa zo'raydi. Serbiya barcha slavyan kuchlarini safarbar qilish markazi bo'lib qoldi. Xorvatiya, Bosniya, Gersegovina xalqlari Serbiyani janubiy slavyanlarning yagona davlatini tuzish tashabbuskori deb qarardilar.

Semigradiyada va Transilvaniyada ruminlarning ozodlik harakati keng quloch yoydi, bu harakat «vengerlashtirish» siyo-

satiga, ya'ni mavjud milliy maktablarni, gazetalar va shu kabilarni taqiqlash siyosatiga qarshi qaratilgan edi.

Ukrain xalqining milliy ozodlik kurashi kuchayib bordi. Sharqiy Galitsiyada bu kurash polyak shlyaxtasi zulmiga hamda Gabsburglar hukmronligiga qarshi, Karpatorti Ukrainasida esa venger magnatlariga va Vengriyada hukm surgan milliy zulmga qarshi qaratilgan edi.

Hukumat slavyan viloyatlarining monarxiya tarkibidan ajralib chiqishidan qo'rqib, yangidan-yangi jazo, ta'qib choralari qo'llash yo'liga o'tib oldi. Bu jazo, ta'qib choralari ishchi va dehqonlar harakatiga qarshi, shuningdek, slavyan xalqlarining milliy ozodlik kurashiga qarshi qaratilgan edi. 1911- yilda Avstriya ma'murlari G'arbiy Ukrainaning sanoat markazi bo'lgan Drogobich shahrida ukrain ishchilari bilan dehqonlariga qarshi sud tashkil qildi, natijada ayblanganlarning ko'pchiligi uzoq muddatli turma jazosiga hukm qilindi. Davlatga xiyonatda ayblangan ukrainlardan 180 kishi ustidan 1913- yilning dekabrda Chernovisida ikkinchi sud uyushtirildi.

Xorvatiya milliy ozodlik harakatining yangidan kuchaya boshlashiga Vengriya hukumati 1912- yilning boshlarida Xorvatiya Seymini tarqatib yuborish va amaldagi konstitutsiyani to'xtatib qo'yish bilan javob berdi. Xorvatiyada Vengriya noibining cheklanmagan hokimiyati qaror topdi.

Avstriya-Vengriya monarxiyasiga kirgan xalqlarning milliy ozodlik kurashi bilan bir qatorda, Avstriyaning o'zida ham ijtimoiy harakat kuchayib bordi.

1912- yili Avstriya-Vengriyada og'ir iqtisodiy inqiroz boshlandi. Yirik sanoat va savdo korxonalari «sindi». Birjalarda «vahima ko'tarildi». Sanoatning bir qancha tarmoqlarida ishlab chiqarish kamayib ketdi. Bolqon urushlari oqibatida Avstriya-Vengriyadan Bolqon mamlakatlariga eksportning keskin sur'atda kamayishi iqtisodiy inqirozni chuqurlashtirib yubordi. Urushning xalqlar boshiga kulfat ekanligi ko'rindi.

Inqiroz oqibatida ishchilar bilan dehqonlar ommasining turmush darajasi yomonlashdi, milliy zulm kuchaydi. Ish tashlash harakatining yuksalishi mamlakatda ijtimoiy ziddiyatlarning chuqurlashib borayotganligini ko'rsatdi. 1913- yili Avstriyada 438 ta ish tashlash o'tkazilib, ularda qariyb 40 ming kishi qatnashdi.

Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashishi ta'siri ostida xalq ichida «inqilobiylashish» jarayoni ro'y bera boshlagan bir vaqtda, Avstriya sotsial-demokratiyasining rahbarlari oshkora «og'machilik» yo'liga tobora ko'proq o'ta bordilar. Bu narsa kasaba uyushmalari tashkil qilishdagi bir tomonlamalikning, yangi «mahalliychilik»ning kuchayishida, baynalmilalchilik tamoyillaridan voz kechishda, monarxiyaga qarshi qat'iy kurash olib borishdan bosh tortishda namoyon bo'ldi.

Urush arafasida Vengriyada ham ommaviy harakat kuchaydi. Vengriyaning hukmron doiralari Avstriyaning agressiv siyosatida faol qatnashdilar. Shu maqsadda armiya qaytadan tuzildi va bo'lajak urushga tayyorgarlik ko'rildi. Bu siyosat mayda burjuaziya va ishchilar orasida muxolifatning kuchayishiga sabab bo'ldi. Dyula Yusta boshchiligidagi «Mustaqillik» partiyasining «so'l» guruhi sotsial-demokratik partiya bilan birlashdi. 1911- yil iyulida ishchilar harakatining dushmani, ashaddiy reaksioner Ishtvan Tissaning Budapeshtda Quyi palata raisi lavozimiga tayinlanishiga qarshi birlashgan norozilik mitingi uyushtirildi. 1912- yil 23- mayda Budapeshtda juda katta namoyish bo'lib, bu namoyish reaksiyaga, milliy zulmga qarshi, urushga tayyorgarlik ko'rilishiga qarshi yalpi norozilik ish tashlashiga aylandi. Budapesht barrikadalarga to'lib ketdi. Faqat kunning oxiriga borib ishchilar polisiyaning ancha ustun bo'lgan kuchlariga bardosh bera olmay chekinishga majbur bo'ldilar. Sotsial-demokratiya rahbarlari harakatga boshchilik qilishdan bosh tortdilar va uni barbod etdilar. Ijtimoiy va milliy kurashning keskinlashuvi bilan Avstriya-Vengriya imperiyasi chuqur inqiroz davriga kirdi. Avstriya-Vengriyadagi bir qancha siyosat arboblari «trializm»ni talab qilib chiqdilar. Bu talab Vengriyani va slavyan yerlarini teng huquq asosida birlashtiradigan federatsiya tuzish demak edi. Frans Ferdinandning «Harbiy partiya»si «trializm» loyihalarini Gabsburglar imperiyasini mustahkamlash vositasi deb quvvatlab chiqqan bo'lsa-da, lekin Avstriya va Vengriyaning hukmron guruhi slavyan burjuaziyasi markazining kuchayib ketishidan qo'rqdi va «trializm» g'oyasini rad qildi.

Avstriya-Vengriya tashqi siyosatda Germaniyaga mutlaq qaram bo'lib qoldi. Avstriya-Vengriya urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. 1913- yilda mamlakatda qisman safarbarlik o'tkazildi. 1914- yil

martida Reyxstag tarqatib yuborildi, Hokimiyatga Shtyurgk «bosh» bo'lib qoldi. Ana shunday qaltis vaziyatda, 1914- yil 28- iyun- da Avstriyaning taxt vorisi Frans Ferdinandning o'ldirilishi Avstriya-Vengriya hukmron tabaqalarining urushni boshlab yuborishlari uchun bahona bo'ldi. Mamlakatda harbiy diktatura o'rnatildi.

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. XX asrning boshlarida Avstriya-Vengriyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti qanday bo'ldi?
 2. XX asrning boshlarida Sharqiy Yevropaning qaysi xalqlari milliy ozodlik uchun kurashni kuchaytirdilar?
 3. XX asr boshlarida Avstriya-Vengriyaga qaram bo'lgan davlatlarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoli haqida so'zlab bering.
 4. «Triyalizm» rejalari nima? Bu haqda fikr almashing.
 5. Avstriya zulmiga qarshi janubiy slavyan xalqlari qanday ittifoq tuzdilar?
 6. Og'ir siyosiy inqiroz yillarida Avstriya-Vengriya monarxiyasi qanday siyosat olib bordi?
 7. Birinchi jahon urushi arafasida Avstriya-Vengriya monarxiyasining urushga tayyorgarligi qanday edi?

Bu so'zlar ustida bahs yuriting: aksiyali jamiyat, kartel, kompromiss, «Qizil juma», «Harbiy partiya», «trializm».

Bu voqealarning sanalarini toping: Birinchi Bolqon urushi, Ikkinchi Bolqon urushi.

22- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Italiya

XIX asr oxirida Italiya birlashtirilgandan keyin uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Italiyaning milliy davlat bo'lib birlashtirilishi mamlakatda kapitalistik tuzumni barqaror qilish jarayonini tezlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Bu jarayon burjua-demokratik inqilobning tugallanmaganligi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos tarixiy vaziyatda davom etdi. Yangidan tuzilgan davlatga eski tuzumdan og'ir meros qolgan edi. Italiya agrar mamlakatligicha qolaverdi.

Italiyaning o'rtacha sanoat mahsuloti qiymati 1861—1870-yillarda bir milliard lirani tashkil qildi, holbuki, qishloq xo'jalik mahsulotlari qiymati 3 milliard lirani tashkil qilardi. Yerga asosan yirik zamindorlarning egalik qilishi saqlanib qolgan edi, buning ustiga yerdan foydalanishning qoloq shakllari hukm surardi. Pomeshchiklar yerining katta qismi mayda uchastkalarga bo'linib, juda og'ir shartlar bilan dehqonlarga ijaraga berilardi. Dehqonlar yerining salmog'i katta emas edi. Mulkdor dehqonlar juda ko'pchiligining bir gektardan oshmaydigan chek yeri bor edi.

Mamlakat oldida juda ko'plab moliyaviy muammolar turardi. 1870-yilda Italiyaning barcha qarzi 8300 mln. liraga yetdi. O'sib borayotgan xarajatlarni qoplash uchun «o'nglar» hukumati (*Lons*, 1869—1873, *Mingetti*, 1873—1876) davlat zayomlari chiqarishga, mamlakat ichidagi hamda tashqarisidagi kapital egalari yordam so'rab murojaat qilishga majbur bo'ldi. Buning natijasida davlatning sudxo'rlar va bank korchalonlariga qaramligi kuchaydi. Ular uchun davlat olgan qarz boyish manbai bo'lib qoldi. Mamlakatga fransuz kapitali ko'plab kirib kela boshladi.

Italiyaning davlat qarzi shiddat bilan ko'payib boraverdi, natijada «o'nglar» hukumati daromadlarni ko'paytirish yo'li bilan budjetni baravarlab turish maqsadida «juda qattiq tejash» siyosatini o'tkazishga majbur bo'ldi. Bu siyosatning «tig'i» asosan keng xalq ommasiga qarshi qaratilgan edi.

Mamlakat birlashtirilgandan keyingi yillardanoq davlat yordamida va chet el kapitaliga suyanib sekinlik bilan rivojlana boshladi. Temir yo'l qurilishi kengaytirildi. 1875-yilga borib temir yo'llarining uzunligi 7675 km ga yetdi.

Savdo floti qurish keng avj oldi. Bu sohani hukumat rag'batlantirib turdi, uning tonnaji 1862-yildagi 10.000 tonnadan 1877-yilda 1 mln. tonnaga yetdi. Bu esa Italiya savdo flotini dunyoda uchinchi o'ringa olib chiqqanligi bilan baholanadi.

1870—1880-yillarda ikki tunnel — Mon-Seni va Sen Gotard tunnellari qurildi, ular Italiyani Fransiya va Shveytsariya bilan bog'ladi hamda G'arbiy va Markaziy Yevropa davlatlari bilan savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

Shu bilan birga proteksionizm siyosati natijasida to'qimachilik (ayniqsa, ip-gazlama) sanoati korchalonlari, metallurgiya va mashinasozlik korxonalarining egalari, shuningdek yirik zamin-

dorlarning manfaatlarini ko'zlab, g'alla bo'jini juda oshirib yubordilar.

Mamlakatni industrilashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan bordi. XIX asr oxirida asosiy sanoat tarmoqlarida fabrika tizimi qaror topdi. Masalan, ip-gazlama sanoatida 2111 ming urchuq va 60 ming mexanik dastgoh bor edi. Qishloqlarda bor-yo'g'i 14 ming qo'l dastgohi saqlanib qolgan edi; ipakchilik sanoatida 2068 fabrika bo'lib, ularda 174 ming ishchi ishlardi.

Sanoat ishlab chiqarishini qishloq xo'jaligidan ajratish jarayoni tobora kuchayishi natijasida yangi mustaqil sanoat tarmoqlari — oziq-ovqat mahsulotlari, vinochilik, shuningdek, qishloq xo'jalik mashinalari va binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Mashinasozlik, metallurgiya sanoati, elektr energetikasi sohasida olg'a qarab yangi qadam qo'yildi. Shu yillar ichida Tern po'lat zavodlari (1887- yil), juda yirik «Montekatini» kon sanoati korxonalari (1889- yil) va boshqa ishlab chiqarish komplekslari paydo bo'ldi.

Yangi sanoat tarmoqlari aksiyali jamiyatlar tariqasida vujudga keldi. 1890- yildayoq 574 aksiyali jamiyat bo'lib, ularning kapitali 1935 million lira edi, bu kapitalning katta qismi (62 foizi) banklar qo'lida edi. XIX asr oxirida Kommersiya banki (1874- yil) va Italiya kredit banki (1895- yil) tuzildi. Bu banklarni tashkil qilishda Germaniya kapitali ishtirok qilgan edi. Undan oldin, 1880- yilda bevosita Vatikanga qaram bo'lgan Rim banki tashkil qilingan edi. Bu uch bankning sanoatga solgan kapitali 1895- yilda 1795 ming lira edi. 1887- yilda hokimiyatga kelgan *Franchesko Krispi* davrida bu ishlar yanada kuchaydi. U 1891—1893- yillarda *Rudini* va *Jolitti* hukumatlarini hisobga olmaganida mamlakatni 1896- yilgacha boshqardi.

XX asr boshlaridagi iqtisodiy ahvol

XX asrga kelib sanoatning rivojlanishi bilan bir qatorda, ko'pdan-ko'p o'rt va mayda sanoat korxonalari saqlanib qolgani holda ishlab chiqarish va kapitalning tobora tezlashib ketgan konsentratsiyalashish jarayoni davom etmoqda edi. Korxonalardan 95 foizining har qaysisida 10 kishidan ortiq ishchi bo'lmagan bir paytda, eng yirik zavodlardan 105 tasida 3—4 minglab ishchi ishlar edi. Sanoatning eng yangi texnika bilan jihozlangan yangi tarmoqlarida ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi keng

tus oldi. Monopolistik birlashmalar ham avvalo shu tarmoqlarda vujudga keldi. 1902- yilda choʻyan va poʻlat eritish karteli, keyinroq «Terni-Ilva» sindikati, 1904- yilda qand ishlab chiqarish karteli yuzaga keldi. 90- yillardayoq vujudga kelgan «Montekatini», «Pirelli», «Ansaldo», «Edison» kabi aksiyadorlik jamiyatlari va 1906- yilda tashkil topgan «Fiat» aksiyadorlik jamiyati kimyo sanoati, rezina sanoati, mashinasozlik, elektr sanoati, avtomobil sanoatida tezda ustun mavqeni egallab oldi. Lekin boshqa mamlakatlarga qaraganda, bu yerda sanoat taraqqiyoti ancha sekinlik bilan kechdi.

Birinchi jahon urushiga qadar Italiya agrar mamlakatligicha qolib, ishga yaroqli aholining koʻpchiligi qishloq xoʻjaligida band edi. Italiya qishlogʻining «prusscha yoʻl» bilan rivojlanishi eski tuzum sarqitlarini yoʻqotish u yoqda tursin, balki qoloq agrar munosabatlar bilan birga qoʻshilib ketdi. Dehqonlar ommasining yersizlanishi va qashshoqlanishi kuchaydi. 1911- yilgi maʼlumotlarga koʻra, qishloq xoʻjaligida ishlaydigan 9,1 mln. kishidan 50,6 foizi (4,6 mln.) yersiz dehqonlar, 25 foizi teng sherik boʻlib ishlagan ijarachilar, faqat 18,9 foizi mulkdor dehqonlardan iborat edi: mulkdor dehqonlarning oʻndan toʻqqiz qismi oʻrta hisobda 0,5 gektardan oshmaydigan kichik-kichik yer uchastkalariga egalik qilardi.

Italiyada ichki bozorning «torligi» kapitalistik industriyaning rivojlanishiga xalaqit berdi, sanoatlashtirish jarayonini sekinlashtirdi.

Italiya monopolistlari davlat yordamida «boj proteksionizmi» va yuqori baholar, ogʻir soliqlar solish, zulm, mehnatni shafqatsiz ekspluatasiya qilish, mamlakat janubini qullikka tushirish siyosatini amalga oshirib, ichki bozorni vahshiylarcha talash yoʻli bilan mustamlakalardan keladigan foyda oʻrnini toʻldirmoqchi boʻldilar. Shu bilan bir vaqtda ular demping usulini qoʻllab va yangi harbiy avantyuralarni tayyorlab, tashqi bozorlar va mustamlakalar bosib olishga tobora qatʼiyroq kirishdilar. Endigina vujudga kelgan italyan monopolistik kapitalizmi oʻzining hali zaif boʻlishiga qaramay, haddan ortiq ochkoʻzlik qildi va agressiv yoʻlga kira boshladi. Bu ahvol Italiya jamiyatidagi chuqur ichki ziddiyatlarni yanada keskinlashtirdi.

Emigratsiya

Janubiy Italiya og'ir ahvolga tushib qolgan edi. «Erkin savdo» davridayoq, arzon chet el kapitali raqobati Janubdagi manufaktura va xonaki ishlab chiqarishni halokatga mahkum qilgan edi. Proteksionizm bayrog'i ostida Shimol sanoat burjuaziyasi Janub bozorini qo'lga kiritish uchun kurash boshladi. Bu kurash Janubiy Italiyani «qaram hudud»ga aylantirdi, yirik yer egalari, sanoatchilar va banklar Janubni va orollarni vahshiyona ekspluatatsiya qila boshladilar.

1862–1896- yillarda sug'orish ishlariga davlat tomonidan sarf qilingan 457 million liradan Janubga faqat 3 million lira berildi, xolos.

«Agrar aholi»ning doimiy ortiqchaligi vujudga kelib, buning natijasida ommaviy emigratsiya yuz berdi. Janubdagi mehnatkash dehqonlar sanoatdan ish topolmay, tug'ilib o'sgan joylarini tashlab, Fransiyaga, Afrikaga (Tunisga), okean ortiga bosh olib ketdilar. 1872- yilda emigrantlar soni 95 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 1892–1901- yillarda har yili o'rtacha 307 ming kishi emigratsiyaga ketdi.

Ijtimoiy harakat

Mamlakat janubidagi norozilik qishloqni larzaga keltirdi. Dehqonlar ta'qiblarga qaramasdan yer uchun, jamoa yerlarining zo'rlik bilan tortib olinishi va yangi mulkdorlarning zulmiga qarshi kurashni davom ettirdilar. Bu kurash 1871- yilda keskin tus oldi. Dehqonlarning g'alayonlari Janubdagina bo'lmasdan, Shimolga ham yetib bordi. Mamlakatning birlashtirilishi dehqonlar bilan ishchilar o'rtasida ittifoqni vujudga keltirdi. Ular fabrikantlarning chidab bo'lmas zulmiga javoban ish tashlash harakatini keskin kuchaytirib yubordilar. 1871- yilda 64 ta, 1873- yilda esa 103 ta ish tashlash bo'lib o'tdi.

70- yillarning oxiriga borib Italiya ishchilar harakatining markazi Shimolga ko'cha boshladi. 1882–1885- yillarda Milanda Italiya ishchilar partiyasi tuzildi, bu partiya bir qator kasaba uyushmalarga suyangan bo'lib, ishchilarning iqtisodiy kurashini o'z faoliyatining asosi deb e'lon qildi. Natijada «Mehnat farzandlari ligasi» degan kasaba uyushma tipidagi birlashma paydo bo'ldiki, bu birlashma 1884- yilda Umummilliy federatsiyaga aylandi. 1885- yilda bu federatsiya Ishchilar partiyasiga qo'shilib ketdi. 1891- yilda dastlabki mehnat palatalari, shahar, qishloq, shuningdek viloyat-

dagi barcha kasaba uyushma aʼzolarini birlashtirgan tashkilotlar tuzildi. 1892- yilda Genuya sʼezdida Italiya mehnatkashlarining partiyasi tuzildi. 1895- yildan bu partiya Sotsialistik partiya deb ataldi.

XX asr boshlarida italyan ishchilarining ish haqi sanoatning ayrim tarmoqlarida bir oz oshirilgan boʻlsa-da, Angliya, Germaniya va Fransiyadagiga qaraganda ancha past edi. Ish kuni Shimolda 11 soatni, Janubda 12 soatni tashkil etardi. Xotin-qizlar bilan bolalar mehnati qattiq ekspluatatsiya qilinardi.

Soliqlarning gʻoyat ogʻirligi, uy-joy haqining yuqoriligi, narxlarning qimmatligi aholi turmush sharoitini pasaytirib yubordi. Savodsizlik oqibatida erkak saylovchilarning 40 foizi, Janubda 80 foizi saylov huquqidan mahrum etildi.

Mamlakatda ketma-ket ish tashlashlar yuz berdi. 1907- yilda ish tashlovchilar soni 575.630 kishiga yetdi. Ishchilar 10 soatlik ish kuni uchun, mehnat qonunchiligini kengaytirish uchun qattiq kurash olib bordilar.

Hukmdorlarning taʼqib qilishiga qaramay, Italiyaning hamma yerida ommaviy namoyishlar boshlanib ketdi. Neapol, Florentsiya, Livarnoda hukumat qoʻshinlari bilan xalq oʻrtasida toʻqnashuvlar boʻldi.

Italiyaning tashqi siyosati

1878- yildagi Berlin kongressi Italiyaning zaifligini, diplomatiya sohasida uning yakkalanib qolganligini koʻrsatdi.

Avstriya-Vengriyaning Bosniya va Gersegovinani istilo qilishiga qarshi Italiyaning bildirgan noroziliklari buyuk davlatlarga hech qanday taʼsir qilmadi. Italiya bilan Fransiya oʻrtasidagi munosabatlar tobora yomonlashib bordi, buning ustiga Vatikanning mojarolari qoʻshilib bu munosabatlarni yana ham murakkablashtirgan edi. Buning sababi Italiyada «irredentizm» harakatining kuchayganligida edi. Bu harakat Janubiy Tirol, Trento va Avstriya-Vengriya tarkibiga kirgan, lekin aholisi italyanlardan iborat boʻlgan yerlarni Italiya davlatiga berishni talab qilgan edi.

Fransiyaning Tunisni bosib olishi (1881- yil) Italiya hukmron doiralarning yangi tashqi siyosat yoʻliga oʻtishlarini tezlashtirdi. Lekin Italiya biron katta davlatning madadkorlik qilish toʻgʻrisidagi vaʼdasini olishi lozim edi. Shu sababli Italiya Germaniya bilan ittifoq tuzish payida boʻldi.

Avstriya bilan Italiya o'rtasida ziddiyatlar bo'lishiga qaramay, Italiyaning 1882- yilda «Uchlar ittifoqi»ga kirganligining asosiy sababi ham ana shunda edi.

Italiya ittifoqchilaridan, shuningdek, Afrikada fransuzlar ta'siriga qarshi kuch vujudga keltirishga intilgan Angliyadan madad olganidan keyin o'z armiyasini qayta qurollantirdi (uning sonini 430 ming kishiga yetkazdi) va birinchi harbiy avanturani boshlab yubordi. Italian qo'shinlari Assab shahriga, Qizil dengiz bo'yiga joylashib olib (1882- yil), Baylul buxtasini ishg'ol qildilar; Habashistonning ichkarisiga kirib borishga harakat qilgan Italiya qo'shinlari Dogali yonida (1887- yil) tor-mor keltirildi.

Afrikadagi mustamlakachilik agressiyasi

1887—1891- yillarda Italiyaning Afrikadagi yer-mulki kengayib, avval Somali (1889- yilda), keyinchalik Eriteriyani (1890- yilda) qo'lga kiritdi. Shu bilan birga Abissiniyaga qarshi yangi bosqinchilik harakatini boshladi. Italiya qo'shinlarining Adua yonida 1896- yilda mag'lubiyatga uchraganligi xalqqa ta'sir etdi. Ko'pgina italyan shaharlarida stixiyali tarzda «Yo'qolsin Krispi», «Afrikadan jo'nab qol» degan shiorlar ostida namoyishlar boshlanib ketdi. Parlament doiralarida ham norozilik kuchaydi. Deputatlar palatasi va Senatga kelgan rezolyutsiyalarda Krispi-ning hukumat tepasidan ketishi talab qilingan edi. Natijada 1896- yil 19- martda uning hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Undan keyin hokimiyatga kelgan *Rudini* (1896—1897), *Pellu* (1897—1900) hukumatlari mamlakatda ahvolni yaxshilashga harakat qildi. 1900- yilda anarxist Breshi tomonidan *qirol Umberto I* o'ldirilgandan keyin siyosiy ahvol yanada keskinlashdi.

Jolittining ichki siyosati

1901- yilda «so'l liberal» *Senardelli* boshliq hukumat tuzildi. Bu hukumatda parlament «so'l liberal» fraksiyasining rahbarlaridan biri bo'lgan *Jovanishi Jolitti* hal qiluvchi rol o'ynadi, oradan ikki yil o'tgach, Jolitti Bosh vazir lavozimini egalladi. Shu vaqtdan boshlab to Birinchi jahon urushi boshlangunga qadar Jolitti deyarli almashinmay (1903—1905, 1906—1909, 1911—1914- yillar) bir qancha kabinetlarga boshchilik qildi va Italiya burjuaziyasining yangi siyosiy yo'lini o'zida mujassamlashtirdi.

Jolitti liberal hukumatlari siyosatini sanoat, bank doiralari-ning manfaatlarini belgilab berdi. To'qimachilik, avvalo ip gazlama sanoati bilan bir qatorda, ishlab chiqarishning yangi tarmoqlariga davlat alohida homiylik ko'rsatdi. Sanoatning bu tarmoqlariga subsidiyalarning kattagina qismi ajratildi va davlatning qulay buyurtmalari bilan ta'minlandi. Sanoat taraqqiyotini rag'batlantirish uchun proteksionizm tizimi saqlab qolindi, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportiga ziyon yetkazdi, Janubdagi katta yer egalari-ning noroziligiga sabab bo'ldi. Sanoatchilarning manfaati yo'lida Germaniya, Avstriya-Vengriya, Shveysariya, Braziliya va boshqa mamlakatlar bilan yangi savdo bitimlari tuzildi va chet el kapitalining Italiyaga kirishi osonlashtirildi. Ichki bozorni kengaytirish muammosi Jolitti va uning safdoshlarining alohida e'tiborini qozondi. Chunonchi, ishchilarning ba'zi bir toifalari uchun ish haqini bir qadar oshirish siyosati ham shu vazifaga bo'ysundirilgan edi: «Sanoat taraqqiyoti tepasida,— degan edi Jolitti Deputatlar palatasida,— ish haqi yuqori bo'lgan mamlakatlar turadi».

Shuningdek, Jolitti Italiya bilan Fransiya o'rtasidagi keskin munosabatlarni bartaraf qilish uchun ijobiy qadam tashladi. 1902-yilda yangi bitim imzolandi. Bitimga ko'ra, tomonlar ikki davlatning biri boshqa davlatning hujumiga uchraydigan bo'lsa, o'zaro qat'iy betaraf bo'lish majburiyatini oldilar. 1906-yildagi Alxiseras konferensiyasida Italiya Fransiyani yoqladi.

1908-yili Italiya Bosniya va Gersegovinani Avstriya istilo qilishiga qat'iy norozilik bildirdi, natijada g'oyat keskin vaziyat yuzaga keldi. Avstriya Germaniyaning yordamiga «ko'z tutgach», Italiya bunga javoban 1909-yili Rossiya bilan Bolqon yarimorolidagi o'z manfaatlarini quvvatlovchi bitim tuzdi. Ikkala davlat Avstriya-Vengriyaning Bolqon mamlakatlariga suqulib kirishiga qat'iy qarshilik ko'rsatishga kelishib oldi. Ayni paytda Italiya Rossiyani «Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari masalasi»da quvvatlashga va'da berdi, bunga javoban Rossiya ham Italiyaning Tripolitaniya va Kirenaikadagi manfaatlariga shunday nazar bilan qarashga va'da berdi.

Italiya hukmron doiralari-nga Afrikadagi mustamlakalarni kengaytirish uchun diplomatik sharoit yaratib berildi.

Italiya burjuaziyasining eng reaksiyon guruhlari siyosiy yo'lni o'zgartirish uchun tobora qat'iyroq harakat boshlaganligi, idora qilishning ochiqdan-ochiq diktatorlik usullariga o'tishi munosabati bilan ichki siyosiy ahvol keskinlashdi. «Afrika avantyurasi»da «yutuqqa» erishilishi bu guruhlarni ruhlantirib yubordi, hukmron doiralarda «katta urush» tayyorlash rejaları o'rtaga tashlana boshladi.

**1911–1912- yillardagi
Italiya — Turkiya urushi**

Tripolitaniya bilan Kirenaika, ya'ni Usmoniy turk imperiyasining qo'li ostidagi hudud Italiya bosqinchilik harakatining asosiy ob'ekti hisoblanar edi. Bu viloyatlar iqtisodiy jihatdan ham, shuningdek, harbiy-strategik nuqtai nazardan ham Italiyaning e'tiborini o'ziga tortgan edi. Chunki bu viloyatlar Italiyaning O'rta dengizdagi mavqeini mustahkamlash va Afrikaning ichkarisiga yanada ko'proq kirib borish yo'lidagi kurashda tayanch punktlari hisoblanar edi.

1911- yilning yozida Agadir inqirozi tufayli yuzaga kelgan xalqaro vaziyatdan foydalangan Italiya (bu inqirozga Yevropadagi eng yirik davlatlar ham tortilgan edi) Turkiyaga ultimatum topshirdi. 1911- yil 29- sentabrda Italiya bilan Turkiya o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi.

Italiya urushni g'oyat shafqatsizlik bilan olib bordi. Italiya ekspeditsion armiyasi son jihatdan katta kuchga ega bo'lib, yangi texnika bilan qurollangan edi. Shunga qaramay, turklar qattiq va uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdilar. Italyanlar faqat dengiz sohil-larida mustahkamlanib olgan bo'lsalar-da, lekin quruqlikda bi-ror jiddiy g'alabani qo'lga kirita olmadilar, ular Afrikadagi muvaffaqiyatsizliklarining o'rnini to'ldirish niyatida o'z flot-lariga tayanib Dodekanes orolini bosib oldilar. Bolqon ittifoqi bilan urush qilish xavfi kuchayganligi sababli Turkiya sulh shart-nomasi tuzishga majbur bo'ldi. Lozanna sulh shartnomasiga muvofiq, Italiyaning Tripolitaniya va Kirenaikaga bo'lgan hu-quqlari tan olindi. 1912- yildan boshlab bu ikkala o'lka Italiya mustamlakasiga aylandi.

Mamlakat tashqi urushlarda g'alabaga erishishi uchun ichkarida «tartib va osoyishtalik» bo'lishi zarur edi. 1,5 mlrd. liraga tushgan Italiya — Turkiya urushi tugagandan keyin safi tez o'sgan millatchilar bosh ko'tardilar. Endi Jolitti ularning ko'zlagan maqsadlari uchun ish bermay qo'ygan edi. 1914- yil 14- martda

Qirol uning iste'fosini qabul qildi va yirik konservativ guruhlar-ning ishonchli kishisi *Salandra* hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Liberalizm davri tugadi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asming oxirida Italiya birlashtirilganidan so'ng uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday bo'ldi?
 2. Shimoliy Italiya bilan Janubiy Italiya qaysi jihatlari bilan ajralib turardi? Bu ikki hududni o'zaro taqqoslang.
 3. Proteksionizm nima?
 4. XIX asming oxirgi choragida Italiyada ijtimoiy harakatlarning ahvoli qanday edi?
 5. Italiya tashqi siyosatda qaysi davlatlarga tayanar edi?
 6. Mustamlakachi Italiyaning Afrikadagi hududi nima hisobiga kengayib bordi? Italiya nima uchun Afrika yerlariga tajovuz qildi?
 7. Jolittining ichki va tashqi siyosati boshqa hukumatlarikidan nimasi bilan farq qilardi?
 8. 1911—1912- yillardagi Italiya — Turkiya urushi qanday yakun topdi?
 9. Birinchi jahon urushi arafasida Italiyaning tutgan yo'li qanday bo'ldi?

Bu gaplarni sharhlab erkin fikr yuriting, bahslashing:
XIX asr oxirida Italiya savdo floti dunyoda uchinchi o'ringa chiqdi.

Demping nima?

Franchesko Krispi kim edi? «Fiat» haqida nimalarni bilasiz?

Ichki bozor industrlashtirishda qanday rol o'ynaydi?

Bolalar mehnatidan foydalanish qanday edi? «Bosfor va Dardanell bo'g'ozlari masalasi» nima?

23-§. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Bolqon davlatlari

**Bolqon
davlatlarining Turkiya
tomonidan ezilishi**

XIX asrning 70- yillariga kelganda janubiy slavyanlarning ko'pchiligi hamon chet el zulmi ostida ezilmoqda edi.

Faqat kichkina Chernogoriya va Serbiya knyazligini tashkil etgan serb yerlarining bir qismigina mustaqil edi. Janubiy slavyanlar — bolgarlar, makedoniyaliklar,

Bosniya va Gersegovina slavyanlari, serblarning katta qismi Turkiya hukmronligi ostida edi.

Xorvatlar, slovenlar, serblar viloyati (voevodasi) Gabsburglarning Avstriya-Vengriya monarxiyasi zulmi ostida edi. G'arbiy slavyanlar, cheklar, slovaklar, polyaklarning bir qismi ham Gabsburglar hukmronligi ostida edi. Polyaklarning ikkinchi qismi Germaniya zulmi ostida, yana bir qismi rus chorizmi hukmronligi ostida edi.

Chet el zulmi slavyan xalqlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga to'sqinlik qilardi. XIX asrning so'nggi choragida Turkiya zulmi ostida bo'lgan slavyanlar hamon og'ir ahvolda qolmoqda edilar. Slavyan xalqlari Turk imperiyasining eng huquqsiz qismi hisoblanardi.

Bolqonda milliy ozodlik harakati

XIX asrning 60- yillaridan boshlab Turkiya zulmiga qarshi Bolgariyada dehqonlarning va shahar aholisining manfaatlarini ifoda etgan yashirin inqilobiy-demokratik tashkilotlar ish ko'rar edi. Jasur bolgar inqilobchisi *Vasil Levskiy* mustaqil demokratik Bolgariya Respublikasini barpo etish rejalarini ilgari surdi. V. Levskiy barcha mazlum xalqlarni, shu jumladan, turk mehnatkashlarini ham turk hukmronlariga qarshi birgalikda kurash olib borishga chaqirdi. U Bolgariya hududida juda ko'p yashirin qo'zg'olonchi qo'mitalar tuzdi. V. Levskiy va uning maslakdoshlarining faoliyati bolgar xalqining milliy ongini o'stirdi. 1872-yilda V. Levskiy qatl etildi, lekin bu bilan ozodlik harakati pasaymadi. 1876- yil aprel oyida Bolgariyada qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olonchilarning bayroqlariga «Ozodlik yoki o'lim» shiori yozilgandi. Iste'dodli publitsist va shoir *Xristo Botev* (1848–1876) Bolgariya ozodlik harakatida yo'lboshchilik qildi. U janubiy slavyanlarning chetyalar deb nomlangan ozodlik otryadlaridan biriga rahbarlik qilardi. Uning asli kasbi o'qituvchilik edi. 1874-yildan boshlab Bolgariya inqilobiy markaziy qo'mitasining a'zosi Botev turklar bilan bo'lgan 1876- yil I- iyundagi jangda qahramonlarcha halok bo'ldi. U halok bo'lgan kun hozirda Bolgariyada Xotira kuni sifatida nishonlanadi.

1875- yil yozida slavyanlar yashaydigan ikki viloyat — Gersegovina va Bosniyada Turkiya hukmronligiga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlandi. Bu qo'zg'olon bolgar xalqining ko'p-

dan yetilib kelayotgan ozodlik kurashining boshlanishiga turtki berdi.

1876- yil aprelida Bolgariyaning katta qismini usmoniy-larga qarshi qo'zg'olon qamrab oldi. Bolgar xalqining kurashi juda og'ir kechdi, kuchlar teng emas edi. 30.000 ga yaqin bolgar qilichdan o'tkazildi, ko'plab qishloqlarga o't qo'yilib, kultepaga aylantirildi. Turkiya imperiyasining hamma hududlarida slavyan aholini qirg'in qilish davom etdi.

Bu vahshiyliklar ko'plab mamlakatlar jamoatchiligini qattiq g'azablantirdi. Janubiy slavyanlar rus hukumatini o'z himoyachisi deb bilar edilar. Rus hukumati Bolqonda o'z mavqeini mustahkamlash uchun qo'zg'olonlardan foydalanishga qaror berdi va Bolqon slavyanlarini yoqlab chiqdi.

1877—1878- yillardagi Rossiya — Turkiya urushi. Yevropa davlatlarining Bolqondagi siyosati


Rus xalqi slavyanlarga xayrixoh edi. O'z maqsadlari yo'lida chor hukumati 1877- yil 24- aprelda Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Rus qo'shinlarining Bolqonda paydo bo'lishi slavyanlarning, ru-

minlarning va Bolqon yarimorolidagi boshqa mazlum xalqlarning ozodlik harakatini yangidan kuchaytirib yubordi.

Bolgar ko'ngillilari, rumin armiyasi, serblar va chernogoriyaliklar rus armiyasi bilan yonma-yon turib jang qildilar. Rus soldatlari va bolgar ko'ngillilari bir necha oy davomida Shipka uchun son jihatidan ustun bo'lgan turk qo'shinlariga qarshi qattiq jang qildilar. Shipka — Bolqon tog' tizmalaridagi dovon bo'lib, Bolqon yarimorolining janubiy qismiga yo'l ochib berardi.

Rus armiyasi 1878- yilning yanvarida yalpi hujumga o'tdi, to'xtovsiz janglar bilan og'ir sharoitda Bolqondan oshib o'tdi va Istanbulga yaqinlashdi. O'z mag'lubiyatini anglagan Turkiya sultoni sulh so'radi.

1878- yil 8- martda Istanbul yaqinidagi San-Stefano qishlog'ida Rossiya va Turkiya o'rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq, Chernogoriyaning mustaqilligi tan olindi. Serbiya bilan Ruminiya batamom mustaqil deb e'lon qilindi. Chunki Serbiya bilan Ruminiya oldin Turkiyaga tobe edi. Bu davlatning chegaralari ancha kengaytirildi. Garchi rasmiy jihatdan Bolgariya Turkiyaga qaram bo'lsa-da, Turkiya bolgar davlatining tuzilishiga rozilik bildirdi.



San-Stefano sulh shartnomasining imzolanishi

Angliya San-Stefano sulh shartnomasini o'z manfaatlariga tahdid deb bildi va Rossiya — Turkiya urushi natijalari xususida qat'iy norozilik bildirdi.

Urushda zaiflashib qolgan Rossiya Angliyaning siquviga bardosh bera olmay, 1878- yil 30- mayda Angliya shartlari asosida bitim tuzishga majbur bo'ldi. Bitimda «Bolgariyaning janubiy chegarasi Egey dengizidan uzoqlashtirilishi, G'arbdagi hududlarining qisqartirilishi, Bolgariya hududi bo'linishi» kabi fikrlar o'z ifodasini topgan edi.

Bolqon xalqlarining Rossiya — Turkiya urushida erishgan ozodligi va muvaffaqiyatlari nafaqat Angliya qarshiligiga, balki Avstriya-Vengriya va Germaniyaning ham keskin noroziligiga duch keldi.

Yevropa davlatlarining Turkiya bilan tuzgan barcha teng huquqli bo'lmagan shartnomalari Bolgariyaga ham tatbiq qilindi.

Bolgariyaning qayta tiklanishi

Yangi vujudga kelgan Bolgariyaning davlat tuzumi 1878- yil aprelida Tirnovo Ta'sis majlisi tomonidan qabul qilingan Bolgar knazligi konstitutsiyasida (Tirnovo konstitutsiyasida)

uzil-kesil rasmiylashtirilgan edi. Konstitutsiya loyihasini muhokama qilish vaqtida Ta'sis majlisida ikki siyosiy oqim — konservatorlar oqimi bilan liberallar oqimi borligi ma'lum bo'ldi. Liberallarning «qo'li baland keldi». Tirnovo konstitutsiyasining uzil-kesil qabul qilingan matniga muvofiq, Bolgariya knazligi xalqdan vakil saylanadigan, meros bo'lib qoladigan konstitutsiyaviy monarxiya deb e'lon qilindi. Umumiy, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadigan Xalq majlisi ta'sis qilindi. Xalq majlisi qonun chiqarish va ijrochi hokimiyat ustidan nazorat qilish huquqiga ega edi. Konstitutsiyada siyosiy huquqlar hamda demokratik erkinliklar, xususiy mulk huquqi daxlsiz deb e'lon qilingan edi.

Buyuk Xalq majlisi Bolgariya taxtiga pruss ofitseri, rus imperatritsasining jiyani Aleksandr Battenbergni saylagan edi, uni rus imperatori Aleksandr II tavsiya qilgan va Yevropaning buyuk davlatlari buni ma'qullagan edi.

Knaz Battenberg taxtga o'tirganidan boshlaboq Tirnovo konstitutsiyasiga xilof ish qila boshladi. U Xalq majlisi bilan hisoblashmadi, o'z siyosatida konservatorlar partiyasiga suyandi. Konservatorlar roziligi bilan Battenberg 1881- yil 27- aprelda Tirnovo konstitutsiyasini bekor qilib, diktatorlik idora usulini o'rnatdi.

Lekin Bolgariyadagi rus vakillari Battenberg va konservatorlarning Bolgariyani, uni ozod qilgan Rossiyadan ajratib olishga va Bolgariyani G'arb davlatlariga yaqinlashtirishga bo'lgan harakatlarini tezda fahmlashdi. Bu ayniqsa, Bolgariya armiyasida rus zobitlari o'rniga nemis zobitlarining qo'yilishida, mamlakatni nemis kolonistlariga to'ldirib yuborishda, Bolgariyani Rossiya bilan emas, balki G'arb bilan temir yo'llar orqali bog'lash borasidagi Battenbergning siyosatida yaqqol sezildi. 1883- yildan boshlab rus hukumati knaz Battenbergni «Rossiyaning dushmani» deb bildi.

Shundan keyin Battenberg bolgar xalqini o'ziga «og'dirib» olish uchun 1885- yil sentabrda Tirnovo konstitutsiyasini tiklashga qaror qildi. Shu maqsadda Battenberg 1885- yilda Sharqiy Rumeliyada (Janubiy Bolgariya) boshlangan xalq qo'zg'olonidan foydalandi va Shimoliy Bolgariya bilan Janubiy Bolgariyaning yangidan qo'shilganini e'lon qildi. Rus hukumati Bolgariyadagi barcha rus zobitlarini chaqirib oldi. Serbiya qiroli *Milan Bol-*

gariyaning yangidan qo‘shilishini «Bolqondagi muvozanatning buzilishi» deb bildi va 1885- yil 14- noyabrda serb armiyasi urush e‘lon qilmasdan Bolgariya tuprog‘iga bostirib kirdi. Bolgariya Turkiya chegarasidagi o‘z armiyasini g‘arbga keltirdi. Slivnisa yonida (Sofiyadan 30 km narida) serb armiyasi yengildi. Pirot yonidagi jangda esa butunlay tor-mor etildi. Shundan so‘ng Serbiya bilan sulh tuzildi.

Bu g‘alaba yangidan birlashgan Bolgariya mavqeini mustahkamladi. 1886- yil martida Sharqiy Rumeliya masalasi hal etildi. Sharqiy Rumeliyaga bolgar knazi general-gubernator qilib tayinlandi. Lekin Rossiya o‘z pozitsiyasida turdi. Bolgariyada «Bolgariya Rossiyasiz yashay olmaydi» degan shior ostida ijtimoiy harakat boshlandi. Bir guruh oliy zobitlar «til birlashtirib», 1886- yil 9- avgustga o‘tar kechasi knaz Battenbergni taxtdan voz kechishga majbur qildilar va uni darhol chet elga jo‘natdilar. Lekin Xalq majlisining raisi *Stefan Stambolov* rahbarligidagi Bolgariya burjuaziyasining yuqori tabaqalari Plovdivdagi harbiy qismlarga suyanib, Battenbergni taxtdan tushirishda qatnashganlarni qamoqqa oldilar. Bolgariyaga qaytgan Battenberg Rossiya podshosi *Aleksandr III* dan hayiqib, taxtdan voz kechdi (25- avgustda) va hokimiyatni Stefan Stambolov boshliq Kengash qo‘liga topshirdi. 1886- yil noyabrda Rossiya bilan Bolgariya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar uzildi. 1887- yil avgustda Xalq majlisi nemis shahzodasi *Ferdinand Koburgskiy*ni Bolgariya podshosi etib sayladi. Uning nomzodini Avstriya-Vengriya tavsiya qilgan edi. Buni esa Angliya, Germaniya va Turkiya quvvatladilar.

Hukumatga S. Stambolov boshchilik qildi. U Rossiyaga qarshi siyosat yuritdi. Xalqning noroziligi ostida 1894- yil mayida S. Stambolov iste‘fo berdi, 1896- yilda Rossiya Bolgariya bilan diplomatik munosabatlarni tikladi. Ayni paytda Bolgariyaning tashqi va ichki ahvoli ancha yaxshilandi.

XX asrning birinchi o‘n yilida Bolgariya sanoatida kapitalning konsentratsiyalashuvi kuchaydi, aksiyadorlik jamiyatlari soni oshdi. Bolgariyada dastlabki aksiyadorlik jamiyatlari XIX asrning 90-yillari oxirida paydo bo‘ldi. 1912- yilda bunday jamiyatlarning soni 172 ta bo‘lib, ulardagi kapital 136 mil-

lion lev edi. Iqtisodiy hayotda banklar katta rol o'ynay boshladi.

1905- yildan keyin Bolgariyada dastlabki monopolistik birlashmalar vujudga kela boshladi. Tegirmon tresti, Sliven to'qimachilik sanoatchilarining karteli tashkil etildi. 1910–1911- yillarda pivo zavodlari egalari, shaxta egalari va Gabrovo to'qimachilik fabrikantlarining kartellari tuzildi. 1910- yilda tamaki fabrika egalari tresti paydo bo'ldi, bu trestga 80 fabrikant kirdi. Trestning kapitali 4 million levni tashkil qildi. XX asrga kelib Bolgariyaning siyosiy hayotida ko'p partiyalilik tashkil topdi.

1901- yilning boshlaridagi saylovda Demokratik partiya bilan Taraqqiyparvar-liberal partiya g'alaba qozondi. *Petko Karavelov* boshliq koalitsion hukumat tuzildi. 1901- yil dekabrda esa *Stoyan Danev* boshliq Taraqqiyparvar-liberal partiyaning bir partiyali hukumati tuzildi. Bu hukumat Parij banklaridan 106 million lev qarz oldi. Tashqi siyosatda u Rossiyaga suyanar, bu esa podshoga yoqmas edi.

Milliy-liberal partiyaning idora qilish davri juda qattiq reaksiya davri bo'ldi, shuning uchun Bolgariya tarixida bu idora qilish «ikkinchi stambolovchilar rejimi» deb ataladi.

«Stambolovchilar» siyosati ishchi va dehqonlardagina emas, balki ziyolilar va talabalarda ham norozilik tug'dirdi. Sofiya teatrining tantanali ochilish marosimi vaqtida (1907- yil 3- yanvar) talabalar Ferdinandni hushtak chalib masxara qildilar. Bunga javoban hukumat Sofiya universitetini yopishga, talabalar bilan professorlarni esa Sofiyadan badarg'a qilish to'g'risida buyruq berdi.

1907- yil 26- fevralda o'sha vaqtda Bosh vazir bo'lgan Petkov xizmatdan bo'shatilgan bir amaldor tomonidan o'ldirildi. Ferdinand Koburgskiy mamlakatdagi keskin siyosiy vaziyatni yumshatish maqsadida hukumatni o'zgartirdi. 1908- yil yanvarida Demokratik partiya rahbari *Aleksandr Malinov* boshliq hukumat tuzildi.

Tesnyaklar faoliyati 1903- yili Sofiyada tesnyaklar (jips sotsialistlar) partiyasi tashkil etildi. Tesnyaklar partiyasi va kasaba uyushmalari ommaviy-siyosiy ish tashlashlar uyushtira boshladilar. Bolgariyada 1906- yil yozida Pernikda konchilarning birinchi umumiy siyosiy ish tashlashi yuz

berdi. 1906- yil oxirida va 1907- yil boshlarida temir yo'lichilar-ning umumiy ish tashlashi bo'lib o'tdi. Bu kurashda tesnyaklar partiyasining siyosiy ta'siri o'sib bordi, u munitsipalitetlarga saylovlarda tobora ko'proq ovoz ola boshladi. Tesnyaklar 1910- yili Samokovda, 1911- yili esa Slivenda o'zini-o'zi idora qiladigan shahar boshqarmasida ko'pchilik ovoz oldilar.

Bolgariyaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi.
Bolgariyaning tashqi siyosati

1908- yili, Avstriya-Vengriya Bosniya bilan Gersegovinani bosib olmoqchi bo'lganida bolgar hukumati Bolgariyani Turkiyadan mustaqil deb e'lon qilishda Avstriya-Vengriyadan yordam oldi. 1908- yil oktabrida Tirnovoda Ferdinand Bolgariyaning mustaqilligi to'g'risida manifest, o'zini esa Bolgariyaning podshosi deb e'lon qildi. Bolgariya bilan Turkiyaning o'zaro munosabatlari Rossiya yordamida uzil-kesil tartibga solindi.

Bolgar burjuaziyasining bir qismi o'zining bosqinchilik siyosatini amalga oshirishda Rossyaning yordamidan foydalanishga harakat qildi. Lekin Ferdinandning Avstriya-Vengriya va Germaniya bilan «mahkam bog'langanligi» Rossiya hukumatiga ayon edi. 1912- yil oktabrida boshlangan Birinchi Bolqon urushi bolgar burjuaziyasining bosqinchilik maqsadlariga qaramasdan, taraqqiyparvar xususiyatlarga ega edi. Chunki Turkiya zulmidan ozod qilingan slavyan viloyatlari — Makedoniya va Frakiyada mavjud tuzum tugatildi. Alban xalqi mustaqillikka erishdi va Alban davlati barpo etildi.

1913- yil 29- iyunda boshlangan Ikkinchi Bolqon urushining natijasi Bolgariyaning bundan buyongi tashqi siyosat yo'lini belgiladi. 1913- yil 4- iyulda Danevning «rusparast» hukumati o'rniga liberallarning uchta partiyasidan *Radoslavov* boshchiligida tuzilgan «germanparast» hukumati keldi. Bu hukumat Bolgariyaning «milliy vazifalari»ni «Uchlar ittifoqi»ga kirgan davlatlar yordamida hal qilish yo'lini izlamoqchi ekanligini bildirdi. Radoslavov hukumatining amaliy faoliyati bu bayonotning to'g'ri ekanligini tasdiqladi.

Serbiyaning ozod qilinishi.
Milan Obrenovich

XIX asrning 60-yillaridayoq serblar hududidan turk qo'shinlari chiqarib yuborilganidan keyin Serbiyaning Turkiya imperiyasiga qaramligi nomigagina bo'lib qolgan edi. 70-yillarda Serbiyaning tashqi siyosatidagi asosiy vazifa hanuz Turkiya

qo'l ostida bo'lgan serb yerlarini yagona Serbiya davlatiga birlashtirishdan iborat bo'ldi.

Shu sababli 1875- yil yozida Bosniya bilan Gersegovinada qo'zg'olon boshlanganda, Chernogoriya singari, Serbiya ham bu qo'zg'olonga har jihatdan yordam berdi. 1876- yil yozida esa Turkiyaga urush e'lon qildi. Lekin Serbiya bu urushda mag'lubiyatga uchradi va yil oxirida Turkiya bilan yarashishga majbur bo'ldi. 1877- yil dekabrda rus qo'shinlari muvaffaqiyatli hujum olib borayotgan bir paytda Serbiya yana Turkiyaga qarshi urushga kirdi. Serbiya qo'shinlari Nish va uning janub hamda g'arbdagi tumanlarini ishg'ol qildi. Berlin kongressida G'arb davlatlari Serbiyaga nisbatan dushmanlik pozitsiyasida turdilar. Serbiyaning Bosniya, Gersegovina va Serbiya-Nov-Pazar to'g'risidagi da'volari qondirilmadi. Bosniya bilan Gersegovina Avstriya-Vengriyaga bo'ysundirildi. Novi-Pazar esa Turkiya qo'lida qoldi. Serbiya Nish okrugini o'z qo'lida saqlab qoldi. San-Stefano sulh shartnomasiga ko'ra, Bolgariya tarkibiga kiritilgan Pirotda va Vranskiy okruglari ham Serbiyaga berildi.

Berlin kongressi San-Stefano shartnomasida e'lon qilingan Serbiyaning Turkiyadan mustaqilligini tasdiqladi, lekin Serbiya zimmasiga chet el tovarlaridan tranzit boj olmaslik majburiyatini va yangidan qo'lga kiritilgan hududlarga nisbatan Turkiyaning chet davlatlar oldidagi qarz va majburiyatlarini yukladi.

Chernogoriya bilan Serbiyaning birlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun ular o'rtasidagi Novi-Pazar Turkiya qo'lida qoldirildi va u yerga Avstriya qo'shinlari kiritildi.

1881- yilda knaz *Milan Obrenovich* Avstriya-Vengriya bilan yashirin konvensiya tuzdi. Avstriya Obrenovichni quvvatlab turish evaziga Serbiya, Bosniya, Gersegovinadan va Novi-Pazar okrugidan voz kechadigan bo'ldi. Serbiya Avstriya-Vengriya roziligisiz boshqa davlatlar bilan siyosiy shartnomalar tuzolmas, o'z hududiga chet el qo'shinlarini kiritmas edi. 1899- yili ushbu shartnomaning muddati cho'zilib, Chernogoriyaga qarshi qaratilgan yangi moddalar bilan to'ldirildi.

Milan Obrenovich o'z hokimiyatini mustahkamlash niyatida 1882- yil 6- martda Serbiyani qirollik deb e'lon qildi. Lekin bu amalga oshmadi. Radikal partiya eng ommaviy va nufuzli partiya bo'lib, mamlakatda demokratik islohotlar o'tkazilishini

va Rossiya bilan do'stona munosabatlar o'rnatilishini talab qildi.

Serbiyada 1888- yilda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiyada hukumatning parlament oldida siyosiy jihatdan javobgar bo'lishi belgilandi, shuningdek huquq va erkinliklar e'lon qilindi, yashirin ovoz berish tartibi joriy qilindi. Parlament (Skupshina)ga qonun chiqarishda tashabbus ko'rsatish huquqi berildi. Lekin saylov senzi saqlanib qoldi, xotin-qizlar saylov huquqidan mahrum bo'lib qolaverdilar.

**Ruminiya, Chernogoriya
va Albaniyaning ahvoli**

1866- yili Ruminiyada yuz bergan reaksiyon to'ntarishdan so'ng 1871- yilgacha o'nta hukumat almashdi. Rumin pomeshchiklari va yirik burjuaziya vakillarining Fransiya bilan hamkorlikni to'xtatib, Avstriya-Vengriya va Germaniyaga yaqinlashishga intilishi xalqning keskin noroziligiga sabab bo'ldi.

Korol I davlat apparatini mustahkamlash maqsadida *L. Katarjiu* boshliq yangi hukumat tuzdi, bu hukumat Ruminiyada diktatura rejimini o'rnatdi.

Katarjiu hukumatining iqtisodiy siyosati, shuningdek, turklarga qaramlikdan uzil-kesil ozod bo'lish masalasiga beparvolik bilan qaralganligi. Bolqon mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilmaganligi xalq noroziligiga sabab bo'ldi. 1876- yilda hukumat iste'fo berishga majbur bo'ldi.

Hokimiyat tepasiga *I. Bratianu* (1876—1888) hukumati keldi. Ichki siyosatda I. Bratianu o'zidan oldingi konservatorlar singari reaksiyani davom ettirdi.

Ruminiya iqtisodiy jihatdan G'arb davlatlariga, birinchi navbatda, Avstriya-Vengriyaga juda qaram edi. Bu hol turklar hukmronligiga qarshi kurashda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Ruminiya G'arb davlatlarining Turkiyaga nisbatan yurgizayotgan siyosatini qo'llab-quvvatlab, slavyanlarning turk zulmiga qarshi 1875—1876- yillarda olib borgan kurashi davrida qat'iy betaraflikka amal qilib keldi. Lekin Rossiyaning Turkiyaga qarshi urushi rumin xalqining ozodlikka intilishi kuchayishiga sabab bo'ldi.

1877- yil aprelida Rossiya bilan bitim tuzildi. Bu bitimga muvofiq, rus qo'shinlarining Ruminiya tuprog'idan bemalol o'tib

ketishiga yo'l qo'yildi, transport, ta'minot va shu kabi masalalarda yordam berishga va'da qilindi.

Shundan so'ng, 1877- yil 21- mayda Ruminiya o'zini Turkiyadan mustaqil deb e'lon qildi va Turkiyaga boj to'lashni to'xtatdi. Rossiyadan boshqa buyuk davlatlardan birortasi—Avstriya-Vengriya ham, Angliya, Germaniya, Fransiya va hatto Turkiya ham Ruminiyaning mustaqilligini tan olmadi.

XIX asrning oxirida Ruminiyada sanoat taraqqiyoti tezlashdi, oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik, yog'och ishlash, neft sanoati kabi tarmoqlar o'sdi. Biroq, XX asrning boshlarida rumin sanoatida nemis, ingliz, fransuz kapitalining mavqei yuqori edi.

Ruminiya ikki palatali parlamentga — Senat va Deputatlar palatasiga ega bo'lgan konstitusion qirollik edi. 1900- yilda hokimiyat tepasiga *P. Karp*ning konservativ hukumati keldi. Bu hukumat iste'mol mollariga «egri» soliqlarni oshirdi va chet el kapitalidan yanada ko'proq foydalanishga yordam berdi. 1901—1904- yillarda hokimiyatni liberallar hukumati boshqardi. 1904- yil dekabrda Konservatorlar partiyasining rahbari *Kantakuzino* yangi hukumat tuzishga erishdi.

Qishloqlarda inqilobiy harakat yuksaldi. 1907- yil 15- fevralda Ruminiyaning shimolidagi Botoshani uezdiga qarashli 3 ta qishloq dehqonlari butun atrofdagi aholining ochlikdan qirilishiga sabab bo'lgan yirik ijarachining yer-mulkini yakson qildilar.

1908—1912- yillar davomida bir qancha qonunlar qabul qilinib, ularga ko'ra dehqonlar mayda yer uchastkalarini ijaraga olish va sotib olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak edi. Bu qonunlardan faqat «quloqlar» foydalandilar, xolos.

Birinchi jahon urushi boshlarida hukmron tabaqa orasida Ruminiya qaysi davlatlar tomonida bo'lishi kerakligi masalasida yetarli birlik yo'q edi.

Chernogoriya

Turkiya Chernogoriyaning ichki ishlariga tez-tez aralashib turdi. Shu sababli 1875- yil yozida Bosniya bilan Gersegovinada boshlangan qo'zg'olonga Chernogoriya Serbiya bilan birgalikda faol yordam berdi. Chernogoriya 1876- yilda Serbiya bilan ittifoqlikda Turkiyaga qarshi urush boshladi. Biroq, urushda Serbiya Turkiya bilan yarashdi, lekin Chernogoriya Rossiya — Turkiya urushi tamom bo'lguniga qadar

Turkiyaga qarshi urushni davom ettirdi. San-Stefano sulh shart-nomasiga ko'ra, Chernogoriya Turkiyadan tamomila mustaqil bo'lib oldi, uning hududi 10 ming kv. km ga oshdi.

1876—1878- yillardagi ozodlik urushi tamom bo'lganidan keyin Chernogoriyada ko'p asrlar mobaynida birinchi marta tinch rivojlanish davri boshlandi. 80—90-yillar davomida mamlakatda muhim ichki islohotlar amalga oshirildi.

Chernogoriya knazi Nikolayning o'tkazgan islohotlari (1860—1918- yillar) patriarxal-urug'chilik munosabatlari qoldiqlari saqlanib qolgan ijtimoiy tuzumdan bozor munosabatlari hukmron bo'lgan yangi ijtimoiy tuzumga o'tish jarayoni taqozosi bilan o'tkazilgan islohotlar edi. Bu islohotlar Chernogoriya hukm-dorlarining markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun olib borgan kurashlarining tugallanishi edi.

XIX asr oxirlarida Chernogoriyada paydo bo'la boshlagan sanoat korxonalari italyan va avstriyalik bankirlar hamda korxonaga egalarning nazorati ostiga tushib qoldi. 1903- yili Italiya «Anonim jamiyati» Chernogoriyada tamaki ishlab chiqarish va sotishni, temir yo'llar qurish va paroxodchilikni tashkil etishni monopoliya qilib olish, tabiat boyliklarini va arzon ish kuchlarini cheksiz ekspluatatsiya qilish huquqiga ega bo'ldi. Chernogoriya eksportining 50 foizdan ortiqrog'i Avstriya-Vengriyaga chiqarildi. Chet el kapitali hukmronligi xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qildi. 1903- yildan 1907- yilgacha tamaki plantatsiyalari taxminan besh marta kamaydi. XX asr boshlarida Katta Podgorisdagi tamaki hamda yog'ochsozlik fabrikalari va konserva zavodlari Italiya va Avstriya kapitalining nazoratiga o'tdi. Chernogoriyaning 1906- yildagina o'z tangasini zarb qila boshlagani ham mamlakat iqtisodiy rivojlanishining past darajada bo'lganligini ko'rsatardi.

Albaniya

XIX asrning 70-yillarida Albaniyada ham feodal munosabatlar hukm surardi. Dehqonlar ham mahalliy feodallar tomonidan, ham Turkiya hukmronligi tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinardi. Turk zulmi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilardi. Ayni zamonda Albaniyaning tashqi savdosi va moliyasiga chet el kapitalining kirib kelishi kuchayib bordi.

1877—1878- yillardagi Rossiya — Turkiya urushi vaqtida

Chernogoriya Albaniyaning shimoli-sharqiy tumanlari — Xoti va Grudani bosib olgan edi. 1878- yil bahorida bu tumanlarning aholisi Chernogoriyaga qarshi kurash boshladi.

1878- yil 10- iyunda alban feodallari (bayrakdorlar), savdo burjuaziyasi va ziyolilar vakillarining Prizrenda to'plangan syezdida «Prizren ligasi» (ittifoqi) tuzildi.

Alban milliy jamiyatlarining vatanparvarlik faoliyatini xalq ommasi keng qo'llab-quvvatladi. Dibrdagi (1888- yil) va Elbasandagi (1897- yil) katta xalq qo'zg'olonlari milliy til va milliy maktab uchun kurash shiorlarini ilgari surdi.

Barcha yo'nalishlarning namoyandalari Albaniyani taqsimlab olish rejalarini tuzayotgan chet el davlatlarining alban ishlariga aralashayotganligiga qat'iylik bilan qarshi chiqdilar. Hatto, Bolgariyada chiqayotgan «Kalendari kombiar» («Milliy kalendar») degan «mo'tadil» jurnal ham albanlarni o'z taqdirini mustaqil ravishda hal qilishga chaqirar edi. Bu jurnalda 1902- yili bosilib chiqqan maqolalardan birida: «Biz «uyquda yotibmiz», bu vaqtda esa bizning ustimizda savdolashmoqdalar» — deb yozilgan edi.

1912- yil 28- noyabrda Albaniyaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi katta ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy bir qadam edi. Chunki Albaniyaning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi turklarning qariyb besh asr davom etgan hukmronligi tugaganligini bildirar edi. Yosh davlat oldida kechiktirib bo'lmaydigan va juda tez hal qilish talab etilayotgan muammolar, agrar masala va hokimiyat masalasi turar edi. Lekin *Ismoil Kamol* hukumati ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishlar o'tkazmadi. Feodallardan va «mo'tadil» kayfiyatdagi burjuaziya vakillaridan tashkil topgan bu hukumat xalqqa emas, balki ulug' davlatlarga tayanib ish ko'rishga intildi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning ikkinchi yarmida Bolqon xalqlarining ahvoli qay darajada edi?
 2. Slavyan xalqlarining besh asrdan buyon Turkiya asoratida bo'lishiga sabab nimalarda edi?
 3. Rossiyaning 1878- yilda Turkiya ustidan qozongan g'alabasining Bolqon xalqlari taraqqiyoti uchun ahamiyatini ochib bering.
 4. XIX asrning oxiri va XX asr boshlaridagi Bolgariya, Chernogoriya, Albaniya, Serbiya va Ruminiyaning taraqqiyotini taqqoslang.

5. Bolgariya Turkiya zulmidan ozod qilingach, bu mamlakatda qanday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi?
6. XX asr boshlarida Serbiya iqtisodiyoti sust taraqqiy etganligining sabablari nimada edi?
7. Bolqon xalqlarini usmoniylar zulmidan ozod qilish qachon va qanday tugallandi?
8. Tesnyaklar kimlar? Bu harakatdan qanday maqsad ko'zlangan edi?
9. Birinchi va Ikkinchi Bolqon urushlari qaysi davlatlar o'rtasida bo'ldi, u qanday yakunlandi?
10. Birinchi jahon urushi arafasida Janubi-Sharqiy slavyan davlatlarining siyosiy ahvoli qanday edi?

Bu nomlarni yodda tuting: Vasil Levskiy, Xristo Botev, San-Stefano, Tirnovo, Aleksandr Battenberg, Ferdinand Koburgskiy, Shipka, Sharqiy Rumeliya, S.Stambolov, M. Obrenovich, Novi-Pazar, Korol I, Katarjiu, Bratianu, P. Karp, Nikolay, Katta Podgaris, Prizren, Dibr, Elbasan, Ismoil Kamol.

IKKINCHI BO'LIM.

OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

8- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA YAPONIYA

24-§. XIX asrning oxirida Yaponiya

Mamlakatda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi

XIX asrning so'nggi choragi Yaponiya tarixida an'anaviy feodal mulkchilik bilan yangi, bozor munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish davri bo'ldi. Bu davr Yaponiya yangi tarixining ikkinchi bosqichi bo'lib, 1868—1878- yillardagi kapitalistik ruhdagi islohotlardan boshlandi. 1867—1868- yillarda bo'lib o'tgan davlat to'ntarishi *Tokugava* syogunligi va imperator qo'sh hokimiyatchiligini tugatgan, Yaponiya imperatori yakka hukmdorga aylangan edi. Shimoldagi yirik yer egalari eski feodal tartiblarni saqlash uchun kurash boshladilar. Tub o'zgarishlar tarafdori bo'lgan Janubiy Yaponiya hokimligi bu kurashda yengib chiqdi. Tokugava xonadoni qo'lida bo'lgan syogunlik boshqaruvi barham topdi.

1878—1900- yillar Yaponiyada sanoat yuksalishi davri bo'ldi. Bu davr ikki bosqichga — monopoliyalashuvgacha va monopolistik kapitalizm bosqichlariga bo'linadi. Xususan, XX asr boshlarida Yaponiyada rivojlanishning o'ziga xos harbiy-feodal imperiya ko'rinishi vujudga keldi.

1868—1878- yillarda Yaponiya hukumati yangilandi. Mamlakatda «Meydzi islohotlari» deb atalgan bir qator jiddiy iqtisodiy islohotlar o'tkazildi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga to'sqinlik qiluvchi qonun va tartiblar bekor qilindi. Yangi hukumat boshlig'i *Arisugava* Yaponiyada bozor munosabatlari taraqqiyoti tarafdori edi. 15 yoshli yangi imperator *Musixito* parlamentga o'xshash Davlat Kengashi tashkil qilishga va'da berdi. O'sha vaqtga qadar Yevropaning ilg'or davlatlariga, ularning Yaponiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalariga qarshi siyosat hukmron edi. Arisugava hukumati Yaponiyani Yevropa bilan «yaqinlashtirish» siyosatini boshlab berdi.

Ayrim-ayrim hokimliklar chegaralaridagi bojxonalar va boshqa to'siqlar olib tashlandi. Bu tadbir mamlakat miqyosida savdo-iqtisodiy aloqalarga yo'l ochdi. Yo'llarda dehqonlarning shaharga qochib ketishiga qarshi, ularni tutib joyiga qaytarish uchun qo'yilgan poyloqchilik manzillari tugatildi. Chunki sanoat qishloqdan ishchi kuchi «oqib» kelishidan manfaatdor edi. Bu tadbirlar Yaponiyada ichki bozorning, sanoat tarmoqlarining rivojiga xizmat qila boshladi. 1869- yilda «to'rt tabaqa» haqidagi qonun bekor qilindi. Feodal zamindor samuray, dehqon, hunarmand va savdogar tabaqalar rasman teng huquqli deb e'lon qilindi. 1871- yili huquqsiz (pariyalar) quyi tabaqa haqidagi qonun bekor qilindi. Barcha tabaqa vakillari kasb tanlashda erkin, tadbirkorlik ishlariga haqli bo'lishdi.

Mamlakatda alohida feodal mulklar tizimi, hokimliklar tugatilib, 75 ta viloyat tuzildi. Natijada markazlashgan hukumat boshqaruvi yuzaga keldi. 1872- yilda yalpi harbiy xizmat haqida qonun qabul qilindi.


1877- yilda haqiqiy harbiy xizmatda bo'lmaganlar uchun qilich taqib yurish bekor qilindi. Bu narsa samuraylarning izzat-nafsigaga tegdi va Saygo Takamori boshchiligida qo'zg'olon bo'ldi. Ammo bu harakat bostirildi. 1871—1878 -yillarda qishloq xo'jaligi sohasida islohotlar o'tkazilib, yerni erkin oldi-sotdi qilish, istagan turdagi ekinlarni ekishga ruxsat berildi. Hosildan hissa ko'rinishdagi soliq pul solig'i bilan almashdi. Yerning mayda bo'laklarga bo'linib ketishiga qarshi qonun chiqarildi.

Islohotlar qanchalik ilg'or ruhda bo'lmasin, ular yirik yer egalari, sanoatchilarga xizmat qildi. Yangi sanoat korxonalarida va qishloq xo'jaligida oddiy mehnat ahlining ahvoli og'irligicha qoldi.

Sanoatni rivojlantirishda davlatning roli

Sharoit qanchalik og'ir bo'lmasin, Yaponiyada kapitalistik munosabatlar tez rivojlana boshladi. Yaponiya kapitalizmi

Yevropa tajribalaridan Sharqda birinchi bo'lib foydalandi. Yevropada uzoq vaqt davomida yuzaga keltirilgan ilg'or sanoat texnikasini Yaponiya tayyor holda olar edi. Bu sohada Yaponiyaga Germaniya, Angliya, Fransiya kabi yirik kapitalistik davlatlar yordam berishdan manfaatdor edilar. Yaponiya davlati esa kapitalistik ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish uchun homiylik qilish yo'lidan bordi.



To'qimachilik fabrikasi

Birinchi galda Yaponiyada to'qimachilik sanoati tez rivojlandi. 1890- yillarda u barcha sanoat tarmoqlarining 45 foizini tashkil etdi. 1868—1885- yillarda 1300 sanoat korxonasi qurildi. Ular dastlab badavlat sanoatchilarga ijaraga berildi. Keyinroq esa sanoat korxonalari o'z narxining yarmiga, hatto 10—15 foiziga xususiy qilib sotiladigan bo'ldi. Natijada puldor bank egalari Misui va Misubisi, Sumitomo, Yasuda, Furukava, Kawasaki, Tanaka, Asano kabi bank egalari yirik sanoat korxonalarining egalari aylandilar. Yaponiya sanoat va kapital sohalarida o'sha davrdagi Rossiyadan o'n barobar tezroq rivojlanmoqda edi. Yapon kapitalizmi ko'proq bank kapitalizmi tusini oldi. Sanoat markazlashuvi va ixtisoslashuvidan ko'ra bank sarmoyalarining markazlashuvi tezroq bordi. Islohotlar davri, sanoat yangilanish jarayoni kapital jamg'arish bilan barobar davom etmoqda edi. Mablag'larni savdo, transport va banklarga solish ko'proq foydali bo'lib qoldi. Chunki hali kapital bilan ishonchli ta'minlanmagan

sanoatga pul qarz berish katta daromad berar edi. Lekin Yaponiyada kapitalizm taraqqiyoti G'arb davlatlariga nisbatan ancha orqada edi.

Ozodlik va xalq harakatlari. Xalq ommasining ahvoli

Yaponiyada yangi islohotlar tezkorlik bilan ro'y berdi. Lekin an'anaviy munosabatlar hali katta ta'sirga ega edi.

Shunga qaramay, sanoat rivoji o'z natijasini ko'rsata boshladi. Kapitalizm taraqqiyoti dehqonlarning yerdan ajralishi bilan birgalikda bordi. 1883- yilda 33 ming dehqon yerdan ajralgan bo'lsa, 1885- yilga kelib bu raqam 108 mingga yetdi. Natijada ular shaharga ketib, yollanma ishchilarga aylandilar. Ishchilar ma'lum ijtimoiy qatlam bo'lib shakllandilar. Sanoat egalari yangicha, ilg'or ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yib, mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa boshladilar. Sanoat korxonalarining soni yildan-yilga ko'payib bordi. Agar 1868—1877- yillarda 489 ta yangi korxonona qurilgan bo'lsa, 1878—1885- yillarda 800 ta yangi sanoat korxonasi foydalanishga topshirildi. Bu jarayon iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda sanoatda ishlaydigan mehnat ahlini himoya qiladigan qonun va amaliy vositalar yo'qligi sababli qattiq ekspluatatsiya, mehnatkashlarni ezish hisobiga davom etdi. Ishchilar ish haqining juda pastligi, ish vaqtining 15—18 soat davom etishi, korxonona qonunchiligi, texnika xavfsizligi uchun javobgarlikning yo'qligi, bolalar va ayollar mehnatidan beshafqat foydalanish — bular Yaponiyaning yangi davr taraqqiyotiga xos belgilar edi. Buning ustiga yapon ishchilari va mehnatkashlarining turmush ahvoli og'ir edi. Ular na siyosiy, na ijtimoiy huquqlardan foydalanar edilar. Bunday sharoit albatta noroziliklarga sabab bo'lar edi.

Dastlab ijtimoiy harakatlar bir korxonona doirasidan chetga chiqmagan bo'lsa ham, tashkiliy jihatdan maxsus rejalashtirilmagan, har turli beixtiyor norozilik ko'rinishida edi. Lekin 1881—1896- yillar orasida yapon mehnatkashlarining bir qator kasaba uyushmalari: suvoqchilar, matbaachilar (bosmaxona ishchilari), temirchilar, temiryo'lichilar, toshyo'narlar, yer qazuvchilar va boshqa kasb tashkilotlari paydo bo'ldi. Bularga baliqchilar, hammol (yuk tashuvchilar), rikshalar (aravalarda odam tashuvchilar) qo'shilishdi. Lekin bu uyushmalarning dastlab

maqsadlari noaniq va rejasiz edi. Masalan, baliqchilar motorli qayiqlarda baliq ovlashni man qilishni, rikshalar esa tramvayning shaharlarga olib kelinishiga qarshi edilar. Yapon ishchilarining ijtimoiy uyushmalari kasaba tashkilotlari darajasiga yetolmadi. Ular hali hunarmandlarning o'zaro jamoatchilik hamkorligi, uyushmasi kabi ish ko'rar edi. Shunga qaramay, ularning ishga yollanishida vositachilar aralashuviga, nazoratchilar zulmiga, ish vaqtining cho'zilishiga, ish haqining kamayishiga qarshi harakatlari ba'zan ozmi-ko'pmi ta'sirga ega edi.

Yaponiyaning XIX asr oxiridagi hayotida turli ijtimoiy g'oyalar mavjud edi. An'anaviy yapon jamiyatining ruhiy xususiyatlari, buddizm g'oyalari bilan bir qatorda ba'zi ilg'or g'oyalar ham paydo bo'la boshladi. Bular ba'zi hollarda partiyalar tuzilishiga ham asos bo'ldi. Masalan, «Sharq sotsialistik partiyasi» (1882- y.), «Sharq ozodlik partiyasi», «Ijtimoiy muammolarni o'rganish jamiyati» kabilar.

Ijtimoiy harakatning ikkinchi «qanotida» ilg'or fikrli burjuaziya vakillari, yoki ular manfaatini ifodalovchi oqim turgan edi. Ular 1872—1882- yillarda vakolatli parlament tuzumi o'rnatish uchun kurashdilar. Hukumat 1878- yilda prefektura (viloyat)larda mahalliy o'z-o'zini boshqaruvni joriy qilishga majbur bo'ldi. 1881- yilda Imperator parlament tuzishga va'da berdi.

1889- yil Konstitutsiyasi Iqtisodiy islohotlar burjuaziyaning o'sishiga va siyosiy jihatdan kuchayishiga sabab bo'ldi. Burjuaziya davlatga rahbarlikni o'z qo'liga olishni da'vo qila boshladi. Mamlakatda imperatorning mutloq hokimiyatini cheklaydigan konstitutsiya joriy qilish uchun harakat kuchaydi.

Hukumat biroz «yon berishga» qaror qildi. Nihoyat, 1889-yil 11- fevralda Prussiya konstitutsiyasi namunasi asosida tuzilgan konstitutsiya yuzaga keldi. Mamlakatda ikki palatadan: yuqori (perlar) va quyi palatadan (vakillar) iborat parlament tuzildi. Parlamentning yuqori palatasi a'zolaridan bir qismi zodagonlardan va Imperator tayinlaydigan shaxslardan iborat bo'lsa, bir qismi mulkdorlardan 7 yilga saylanib qo'yilar, quyi palatasi esa 4 yilga saylov orqali saylanardi. Saylov huquqiga Yaponiyaning 1 foiz aholisi ega edi.

Konstitutsiya Imperatorning mavjud barcha huquqlarini nafaqat

saqlab qoldi, balki unga yanada keng huquqlar berdi. Masalan, u parlamentni chaqirish, ochish, tarqatib yuborish, qonunlar o'rniga oliy farmonlar chiqarish, qo'shinlarning Oliy Bosh qo'mondoni bo'lish, urush e'lon qilish, sulh tuzish kabi huquqlarni o'zida saqlab qoldi. Konstitutsiyaga ko'ra, Vazirlar Kengashi faqat Imperatorga hisobot berardi. Imperator xonadoni vakillaridan iborat davlatmandlar perlar palatasida asosiy ko'pchilikni tashkil qilardi. Fuqaro huquqlari sohasida bu konstitutsiya g'oyat kuchsiz edi. Parlamentning barcha qarorlari Imperator huzuridagi Yashirin kengashdan o'tishi zarur edi. Saylov huquqi pul senzi bilan, saylovchilar yoshi esa 25 yosh qilib belgilandi.

Albatta, Yaponiyadek qoloq, feodal an'analarga boy mamlakatda konstitutsiya qabul qilinishi katta voqea bo'ldi. Lekin u jamiyatning barcha a'zolari manfaatiga xizmat qilolmadi.

Yaponiyaning tashqi siyosati. Koreya va Xitoyga qarshi bosqinchilik siyosati

Kapitalistik taraqqiyot yo'liga kirishi bilan Yaponiyaning tashqi harbiy rejalari paydo bo'ldi. Harbiy zavodlar qurish, ko'plab qurol-aslahalar ishlab chiqarish boshlandi. 1870- yillarda

yapon ichki bozori juda «tor» edi. Shuning uchun sanoat uchun xom ashyo va tashqi bozor kerak edi.

Yaponiyaning bosqinchilik maqsadlari Koreya, Xitoy, Tinch okean havzasiga qaratildi. Bir guruh samuraylar hech kechiktirmay urush boshlash tarafdori bo'ldilar. Ular hukumatga ta'sir etish uchun isyon ko'tardilar. Saygo Takamori tomonidan ko'tarilgan isyon Sasumada ko'p qon to'kilishiga sabab bo'ldi. Hukumat samuraylar nafaqasini bekor qilib, ularga bir yo'la tovon puli belgiladi. Tovon pul yoki zayom obligatsiyalari bilan beriladigan bo'ldi. Samuraylarning qilich taqib yurishi taqiqlandi. Ana shular isyon ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Samuray isyonlari hukumat qarorlariga ta'sir ko'rsatdi. Yaponiya bosqinchilik urushlari yo'liga kirdi. 1874- yili Tayvan oroliga yurish bo'ldi. Lekin yaponlar uchun bu yurish omadsiz bo'ldi. 1872—1879- yillarda Yaponiya Xitoyning noroziligiga qaramay Ryukyu orolini bosib oldi. AQSH 1875- yilda Yaponiyani tan olib, unga mustamlakachilik ishlarida «madad qo'li»ni cho'zdi. 1875- yilda Yaponiya Janubiy Saxalin hisobiga Kuril orollarini Rossiyadan ajratib, o'ziga qo'shib oldi.

1875- yil sentabr oyida Yaponiya Koreyaga hujum qildi va Kanxva orolini bosib oldi. 1876-yili Koreya bilan uni kamsituvchi bitim tuzildi. Yaponlar uchun Koreya «ochiq» mamlakat deb eʼlon qilindi. Yapon mollari bojsiz sotiladigan boʻldi. Mamlakat portlari Yaponiya uchun «ochib qoʻyildi». Shu yoʻl bilan Koreya Xitoy taʼsiridan ajratib olindi.

1894—1895- yillardagi Yaponiya-Xitoy urushi

Yaponiya — Xitoy munosabatlaridagi ziddiyat 1894—1895- yillarda urushga olib keldi. 1893-yili yapon qoʻshinlari Koreyaga bostirib kirdi. Dehqonlarning Tonxak qoʻzgʻolonini bostirish bunga bahona boʻldi. 1894-yil iyulida Yaponiya Seulda saroy toʻntarishi qilib, yaponparast hukumat tuzdi va poytaxt garnizonini qurolsizlantirdi.

1894- yil avgustida yapon-xitoy urushi boshlandi, Xitoy harbiy flotining transport kemalari choʻktirildi, shu bilan parallel ravishda yapon qoʻshinlari urush eʼlon qilmasdan Koreyada turgan Xitoy harbiy qismlariga hujum qildilar. 1894- yil Xitoy qoʻshinlari E. Chjichao boshchiligida Pxenyan yonida magʻlubiyatga uchradi.

1893—1894- YILLARDA KOREYADA DEHQONLAR QOʻZGʻOLONI



Bu narsa g'oyat katta, lekin zaif mamlakat bo'lgan Xitoyning geografik jihatdan yaqinligi va raqobat qiluvchi yirik davlatlarning uzoqdaligidan foydalanib, Uzoq Sharqda ustunlikka ega bo'lishga yo'l ochdi. Yaponiyaning zamonaviy qurollar bilan ta'minlangan harbiy kuchlari ham quruqlikdan, ham dengizdan hujum uyushtirib, Xitoy harbiy qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. 1895-yil 17- aprelda Simonoseki sulhi tuzildi. Xitoy Koreyaning mustaqilligini tan oldi, Lyaodunni, Tayvanni, Penxu (Peskador) orollarini Yaponiyaga berdi. Shuningdek, Yaponiyaga katta miqdorda tovon to'lashga majbur etildi.

Teng bo'lmagan shartnomaga ko'ra, Yaponiya o'z savdosi uchun Xitoyni «ochib» qo'yish, Xitoy hududida yangi sanoat korxonalarini qurish va ulardan foydalanish huquqini oldi.

Yaponiya - Xitoy urushi Yaponiyani monopolistik kapitalizm yo'liga olib kirdi. Uzoq Sharqda uning harakatlari erkinlashdi. Shu bilan birga G'arb davlatlari bilan Yaponiya o'rtasida noteng iqtisodiy bitimlarning bekor qilinishiga olib keldi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. 1867—1868- yillarda Davlat to'ntarishi haqida so'zlab bering.
 2. XIX asr oxirida Yaponiya iqtisodiyotida yuz bergan o'zgarishlarni ta'riflab bering.
 3. Yaponiyada kapitalizmning rivojlanishiga nimalar yordam berdi va nimalar to'sqinlik qildi?
 4. Kasaba uyushmalarining faoliyati haqida gapirib bering.
 5. XIX asr oxirida Yaponiya aholisining ahvoli qanday edi?
 6. 1889- yilda qabul qilingan Konstitutsiya Yaponiyada qanday o'zgarishlar yasadi?
 7. Konstitutsiyaga binoan Yaponiyadagi oliy hokimiyat organlari qanday tuzilgan edi?
 8. Tashqi siyosatda Yaponiyaning erishgan yutuqlari haqida so'zlab bering.
 9. Yaponiyaning Xitoy va Koreyaga uyushtirgan hujumlari xitoy va koreys xalqlarining boshiga qanday kulfatlar yog'dirdi?

Bu so'zlarni sharhlang va davrga taqqoslab erkin fikr yuriting: «Meydzi islohotlari», Saygo Takamori qo'zg'oloni, 1889- yil Konstitutsiyasi, Simonoseki sulhi.

25-§. XX asrning boshlarida Yaponiya

Yaponiya taraqqiyotining xususiyatlari

Bu davrda Yaponiyada monopolistik kapitalizm feodal-monarxistik qoldiqlar bilan chirmashib ketdi. Bu jihatdan Yaponiya Rossiyaga o'xshab ketadi, chunki pomeshchiklar va monarxiya aloqalari juda kuchaygan edi. Ko'pgina yapon konsermlari feodalizm davrida tashkil topgan savdo-sudxo'rlik guruhlaridan «o'sib» chiqdi. Yapon burjuaziyasi mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilishning kapitalizmga xos bo'lgan usullari, ya'ni bolalar va xotin-qizlarni yarim turma shaklidagi yotoqxonalariga joylashtirib, ular mehnatidan foydalanishni davom ettirdi.

Angliya, Fransiya, AQSH dan farqli o'laroq, Yaponiyada hokimiyat burjuaziya qo'lida bo'lmay, balki pomeshchik-burjuaziya bloki qo'lida edi. Bu narsa ishlab chiqarishda davlat rolini kuchaytirdi.

Yaponiya Xitoydan kontributsiya tariqasida olgan katta miqdordagi tovon pulini armiya va flotni kuchaytirishga sarfladi. Harbiy buyurtmalar yuzasidan qilingan hisob-kitoblar natijasida bu mablag'lar yirik sanoatga va temir yo'llarga sarflanadigan bo'ldi.

Yaponiya hukumati og'ir industriyani rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. 1900—1913- yillarda sanoat ishlab chiqarishi AQSH da 85 foiz, Germaniyada 54 foiz, Fransiya da 51 foiz, Angliyada 25 foiz o'sgan bo'lsa, Yaponiyada 181 foizga o'sdi. U ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Italiyadan o'zib ketib, Fransiya ga yaqinlashdi. Mamlakatda sanoat, savdo-sotiq va banklar konsentratsiyalashib, imperia-listik monopoliyalar vujudga keldi.

Ilgarigidek pomeshchik yer egaligi va dehqonlarning asoratli ahvoli saqlanib qolaverdi. Ota-onalar o'z bolalarini fabrikalarda ishlatish uchun sotishar edi. Qashshoqlashib borayotgan yapon dehqonlari va shahar ishchilarining bir qismi Yaponiya sanoati tovarlarini sotib ololmas edi. Yapon imperialistlari mol sotiladigan yangi bozorlar uchun kurash olib borib, bosqinchilik siyosati yuzgizdilar.

Siyosiy reaksiyaning kuchayishi. Yaponiyaning tashqi siyosati

Mamlakat aholisining turmush sharoiti og'irlashib boraverdi. Yapon hukumati aholi to'g'risida hech qanday g'amxo'rlik qilmay, o'z e'tiborini zo'r berib qurol-

lanishga qaratdi. Yaponiya Uzoq Sharqda o'z mavqeini tiklash uchun reaksiya siyosat olib borishdan qaytmadi, Yaponiyaning Uzoq Sharqda kuchli davlatga aylana borishi G'arb mamlakatlari-ning mustamlakachilik siyosatida muhim burilishlarga sabab bo'ldi. AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya o'zlarining Uzoq Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyodagi siyosatlarida Yaponiya bilan ittifoqdosh bo'lishni o'ylab qoldilar. Rossiya esa o'zining Uzoq Sharqdagi manfaatlarini himoya qilish bahonasida Yaponiyaga qarshi harakatlar boshladi.

Yaponiyada Rossiya bilan urush boshlash, Manjuriya va Koreyadan uni «quvib chiqarish» tarafdorlari ko'p edi. Rossiyada ham yaponlarning «adabini berib qo'yish» tarafdorlari kam emas edi.

1895- yili Xitoy bilan urushda yengib chiqqan Yaponiya 10 yillik qurollanish dasturini qabul qildi. Bundan maqsad Rossiyaga qarshi urush boshlash edi. Harbiy sanoat tez o'sa boshladi. Metallurgiya zavodi qurildi (Yavata shahri), 1894—1903- yillarda temir yo'llar 2,8 barobar ko'paydi, kema qurish besh barobar, tashqi savdo hajmi 3,5 barobar, sanoatda ishchi o'rni 326 mingga ko'paydi.

Yaponiya xalqaro miqyosda zo'r berib diplomatik muzokaralar olib bordi. Masalan, 1902- yili Angliya bilan 5 yillik bitim tuzib, Xitoyda Angliya-Yaponiya manfaatlarini belgilab oldi. 1902- yil bitimi bosqinchilik bitimi edi. AQSH bo'lajak urushda Yaponiyani quvvatlashini bildirdi va Germaniya, Fransiyaning ham shunga chaqirdi. Shunday qilib, muqarrar bo'lib qolgan urushda Rossiya yolg'izlatib qo'yildi.

1903- yil iyul oyida Yaponiya Rossiya bilan muzokaralar boshlab, Koreyada uning erishgan muvaffaqiyatlarini tan olishni talab qildi. Buning evaziga Rossiya Manjuriyada temir yo'llar qurish huquqini oladigan bo'ldi. Qator masalalarda bitimga kelish ataylab chalkash yo'lga solindi. Nihoyat, Yaponiya o'z maqsadlariga yaqinroq yo'l tutib, 1904- yil 5- fevralda Rossiya bilan diplomatik aloqani uzdi. Qo'shin va flotga esa Imperator nomidan yashirin xat yo'llab, Rossiya Yaponiyaga xavf solmoqda deb tushuntirildi.

Rus-yapon urushi

Yapon kemalari 1904- yil fevralda Port-Artur va Chemulpo portlaridagi rus kemalariga to'satdan hujum qildi. «Varyag» kreyseri cho'ktirildi.

di. «Korees» kemasi portlatildi. Shu bilan rus-yapon urushi boshlandi. Koreya qirg'oqlariga, Port-Arturga, Lyaodunga to'rt yapon armiyasi tushirildi. Ruslar Lyaodun yonida chekindilar. Mukden (1905- yil fevral — mart) operatsiyasida rus qo'shinlari son jihatdan ko'p bo'lishiga qaramay, qo'mondonlarning uquvsizligi tufayli yengildi. Ruslar Boltiq dengizidan Rojdestvenskiy-Nebogatov eskadrasini Yaponiyaga jo'natdilar. Bu reja xato edi. Chunki, eskadra kemalarining tezligi yapon kemalarinikidan kam, bronyasi (zirhlari) esa yupqa edi. Buning ustiga yaponlar eskadraning yo'lga chiqqanini bilishar, unga qarshi zarur kuchlarni yig'ib, tayyorlab qo'yishgan edi. Susima dengiz jangida bu rus eskadrasini muqarrar halokatga uchradi (1905- yil 27—28- may).

Rossiya urushda uzil-kesil yengildi. Buning sabablari ko'p edi. Eng muhimi, Rus davlati XX asr boshlarida ulkan hududlarni birlashtirib olgan, iqtisodiy qoloq va mo'rt tuzilgan bir davlat edi. Yaponiya esa o'z zamonining ilg'or harbiy sanoatini, ilg'or texnikasini o'zida to'plagan, bosqinchilikni shior qilib olgan davlatga aylangan edi.

1905- yil 9—29 avgust kunlari Rossiya bilan Yaponiya o'rtasida AQSH Prezidenti T. Ruzvelt vositachiligida AQSHning Portsmut shahrida sulh muzokaralari bo'ldi. Rossiyadan Saxalin orolining bir qismini Yaponiyaga berish va Yaponiyaga 1,2 mlrd. ien tovon to'lash talab qilindi. Lekin rus qo'mondonligi bunga ko'nmadi, faqat Saxalinning bir qismini Yaponiyaga berishga rozi bo'ldi. Bu Yaponiya diplomatiyasi va AQSH Prezidenti uchun kutilganidan ham katta muvaffaqiyat edi. Gap shundaki, agar muzokaralar to'xtab, urush davom etadigan bo'lsa, Yaponiyaning uni davom ettirishga kuchi va imkoniyatlari etmas edi. Rus imperatori Nikolay II hamda uning Portsmut sulh muzokaralaridagi vakili baron Vitte AQSH Prezidentining nayranglaridan vahimaga tushib qolishgan edi. Bitimga ko'ra, Koreya Yaponiyaga o'tdi. Xitoy Sharq temir yo'lining janubiy qismi to'liq Yaponiyaga topshirildi. Port-Artur «ijara»ga yaponlarga berildi. Rossiyaning Oxota dengizi qirg'oq bo'ylarida yaponlar baliq ovlash huquqini olishdi. Saxalinning 50- paralleldan janubi ham Yaponiyaga tegdi. Yaponiya Rossiyaning Tinch okeanga chiqish yo'llarini berkitib, urushdan yanada «zo'rroq» bo'lib chiqdi. Qurollanishni, mustamlakachilik rejalarini yanada kuchaytirdi.

Koreyaning istilo qilinishi

Rossiya — Yaponiya urushi dunyoni hududiy jihatdan qaytadan bo'lib olish uchun eng yirik kapitalistik davlatlar tomonidan qilingan dastlabki bosqinchilik urushlardan biri edi.

Rus-yapon urushida Rossiya mag'lubiyatga uchragach, 1905-yil 5- sentabrda Portsmouth (AQSH) da sulh shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, Rossiya Koreya va Janubiy Manjuriyada Yaponiyaning hukmronligini tan oldi. Bundan foydalangan Yaponiya o'zining harbiy kuchlarini Koreyaga kiritdi.

Rossiya homiyligidan mahrum etilgan Koreyada Yaponiyaga qarshi qo'zg'olon boshlandi. Biroq, yapon bosqinchilari qo'zg'olonni zudlik bilan bostirishga erishdilar. 1910- yilda Yaponiya Koreyaning istilo qilinganligini rasman e'lon qildi. Yaponiya hukumatining talabi bilan Koreya imperatori o'zining butun hokimiyatini «abadiy va batamom» Yaponiyaga topshirdi. Koreyada ma'muriy mansablarning barchasini yaponlar egallab oldilar. Yapon mustamlakachilari Koreyaga kirib kela boshladilar. Koreys xalqining milliy madaniyati poymol qilindi. Maktablarda koreys tilida o'qitish taqiqlandi. Koreyada qurilayotgan yapon sanoat korxonalarida koreyslar qattiq ekspluatatsiya qilinardi. Yapon bosqinchilari «qilich bilan chopish» rejimini o'matdilar. Har qanday norozilik chiqishlarida o'nlab, yuzlab koreyslar qirilar, chopilar edi. Butun mamlakatda Yaponiya hukmronligi o'z kuchini ko'rsata boshladi.

Ijtimoiy harakat

Yaponiya endilikda barcha e'tiborni Xitoyga qaratgan edi. Chunki Yevropa davlatlari va AQSHning Xitoy boyliklaridan foydalanishi uni ham Xitoy mulklaridan foydalanishga undar edi. Rossiya bilan urush davomida Yaponiya qiyin moliyaviy ahvolda qoldi. Soliqlar miqdori to'rt barobar oshdi. Oziq-ovqat mahsulotlariga soliqlar miqdori mamlakat soliq yig'implarining 56 foizini tashkil etdi. Bu aholining turmushi og'irligini ko'rsatar edi. O'zining qiyin moliyaviy ahvolini Yaponiya Tayvanni, Koreyani talash hisobiga yaxshilashga urindi. Angliya, AQSH dan olingan tashqi qarzlar ham urushdan keyingi qiyinchilikka sabab bo'ldi.

1907—1908- yillardagi iqtisodiy inqirozdan keyin Yaponiya

sanoatga mablagʻ solishni yanada kengaytirdi. 1905—1912- yillarda bu mablagʻ 3,8 milliard ienga yetdi. Shundan 63 foizi yangi korxonalar qurishga ishlatildi. Shunday qilib, sanoat qurilishning surʻati boʻyicha Yaponiya ilgʻor kapitalistik mamlakatlardan oʻzib ketdi. Umuman, Yaponiya XX asrning dastlabki oʻn yilida sanoatda jiddiy sifat oʻzgarishlariga erishdi. Metallurgiya, mashinasozlik kabi muhim tarmoqlar asosan davlat ixtiyorida boʻldi. Kapital konsentratsiyasi tezlashdi. Ammo sanoat konsentratsiyasi sekin bormoqda edi.

Iqtisodiy ahvolning ogʻirligi, sanoat va qishloq xoʻjaligida mehnatkash ommani haddan ziyod ezib ishlatish maʼlum ijtimoiy harakatlarga sabab boʻldi. Kotoku rahbarligidagi sotsialistlar harakati yapon burjua-pomeshchik monarxiyasini tashvishga soldi. Kotoku va uning 12 safdoshi igʻvo bilan qamalib, sud qilindi va osib oʻldirildi. Lekin mamlakatda ijtimoiy harakat davom etdi. Masalan, 1912- yilda Sudzuki millioner Subiava mablagʻi yordamida islohotchilik gʻoyalarini targʻib qiluvchi «Doʻstlik jamiyati» nomli jamiyat tuzdi. Kasaba uyushmalari harakati ham qisman iqtisodiy oʻzgarishlar talab qilish bilan cheklanuvchi yoʻl tutdi. Lekin tub ijtimoiy oʻzgarishlar tarafdori boʻlgan Katayama Sen umumiy saylov huquqi uchun kurashdi. Ijtimoiy harakatlar Yaponiyada Birinchi jahon urushi arafasida yanada kuchaydi.

Bu davrga kelib Yaponiyaning AQSH va Angliya bilan munosabatlari yomonlashdi. Chunki Yaponiya Uzoq Sharqda «xavfli raqib»ga aylangan edi. Rossiya bilan Moʻgʻuliston va Manjuriyada «taʼsir zonalari»ni boʻlib olish haqidagi bitimlar (1907—1912) Uzoq Sharqdagi kuchlar nisbatini Yaponiya foydasiga keskin ravishda oʻzgartirib yubordi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlarida Yaponiyaning iqtisodiy taraqqiyoti qanday edi?
 2. XX asr boshlarida Yaponiyada sanoatning qaysi tarmoqlari kengaytirildi?
 3. Yapon hukumati Xitoydan olgan tovon pulini qaysi sohaga sarfladi?
 4. Nima sababdan XX asr boshida Yaponiyada reaksiya kuchaydi?
 5. Yaponiya qanday tashqi siyosat yurgizdi? Yapon kapitalistlarining maqsadi AQSH va Yevropa davlatlari kapitalistlarining maqsadidan nimasi bilan farq qilardi?

6. Rus-yapon urushi qanday yakunlandi? Rossiyaning mag'lubiyatga uchrash sabablarini ko'rsating.
7. Yaponiyada XX asr boshlarida ishchilarning ahvoli qanday edi?
8. 1910- yilda Koreyaning istilo qilinishi koreys xalqi uchun qanday oqibatlar olib keldi?
9. Jahon urushi arafasida Yaponiyaning tutgan pozitsiyasi va uning urushga kirishdan ko'zlagan maqsadlari nimada edi?

Bahs yuriting: Pomeshchik-burjuaziya bloki hukmron bo'lgan mamlakatda davlat ishlab chiqarishda asosiy rol o'ynaydimi?

AQSH nega Rossiya — Yaponiya urushida yarash bitimiga vositachilik qildi?

9- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA XITOIY

26- §. XIX asrning oxirida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

**XIX asrning oxirida
Xitoyning yarim mustam-
lakaga aylantirilishi**

XIX asrning oxirida Xitoy qoloq, yarim feodal davlat bo'lib, uni manjur sulolasiga mansub imperatorlar boshqarardilar. Yerning asosiy qismi zamindor boylar qo'lida edi. Ko'pchilik dehqonlar zamindorlardan yerni ijaraga olar, yer haqini pul bilan yoki hosil hisobidan to'lab qutular edilar. Yeri bor dehqonlar ham mavjud bo'lsa-da, ular juda kam edi.

Dehqonlar shaharga ish qidirib kelardilar, lekin har doim ham ish topilmas edi, chunki Xitoy sanoati juda sekin taraqqiy etayotgan edi.

XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning boshida mamlakatda kapitalistik korxonalar: ko'mir shaxtalari, to'qimachilik korxonalari vujudga kelib, rivojlana boshladi. Dastlabki temir yo'llar qurildi. Iqtisodiy aloqalar kengaydi. Yirik shaharlar barpo etildi. Ishchilar soni ko'paydi. Sanoat paydo bo'lishi bilan milliy burjuaziya ham paydo bo'la boshladi. Xitoy burjuaziyasining ko'pchiligi kompartorlar, ya'ni chet el kapitali bilan ichki bozor o'rtasida vosi-

tachilik qilar edi. Ular chet el firmalarining agentlari bo'lib, xorijliklar bilan birgalikda mamlakatni ekspluatatsiya qilar, chetdan keltirilgan tovarlarni sotish va arzon xomashyo sotib olish hisobiga boyib borardilar.

Pulga muhtoj bo'lgan Sin sulolasi chet davlatlar bilan asoratli shartnomalar tuzar va milliy manfaatlariga xilof ravishda ularga «yon» berardi. 70-yillardayoq ajnabiylar Xitoyning 26 portiga bemalol kiradigan, Xitoy portlarida o'zlarini hech kim nazorat qilmaydigan xo'jayinlardek ish yuritardilar.

Temir yo'llar qurilishi xorijliklar tasarrufida edi. Ko'mir shaxtalarining, konlarining katta qismi ham ularning ixtiyorida edi. Xitoy chet davlatlarning xomashyo bazasiga aylanib qoldi. Hatto, chet elliklar katta shaharlarda o'z rayonlarini tashkil etib, Xitoy ma'murlarini mensimasdan mustaqil ish yuritardilar.

Xitoyning Yaponiya bilan 1894—1895- yillardagi urushda mag'lubiyatga uchrashi chet ellik monopolistlarning Xitoyni yanada ko'proq talashlari, asoratga solishlariga sabab bo'ldi. 1897- yilda nemis bosqinchilari Szyaochjouvan ko'rfazini bosib oldilar va Shandun viloyatini o'z ta'sir doiralari qirg'ig'iga kiritdilar. Fransiya Suamechjuvan ko'rfazini egalladi va Yunnan viloyatida hukmronlik ta'sirini o'tkaza boshladi. Rossiya Port-Arturni, Angliya Veyxay portini bosib oldi. Eng boy hudud — Yanszi daryosi havzasi Angliyaning ta'sir doirasiga tushib qoldi. Fuszyan viloyatida yapon bosqinchilari hukmron bo'lib oldilar. Xitoydagi har qanday qurilish yoki o'zgarishlar bosqinchilar tomonidan nazorat qilinardi. Shunday qilib, Xitoy yarim mustamlakaga aylana boshladi.

Bosqinchilar tomonidan Xitoy milliy boyliklarining talanishi xalq ommasining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. 1897- yil tumanlarda dehqonlarning xo'jayinlarga qarshi g'alayonlari boshlandi, bu g'alayonlar 1898—1899- yillarda mamlakatning turli viloyatlariga tarqaldi.

Feodallarga qarshi g'alayonlar chet el monopolistlariga qaratilgan edi. Dehqonlar harakati, ayniqsa nemis bosqinchilari tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinayotgan Shandun viloyatida juda katta g'alayonga sabab bo'ldi. Nemis bosqinchilarining o'zboshimchaligi xalq noroziligini keltirib chiqardi. Shandunda yashirin jamiyatlar



Yangi yilning kutib olinishi. XIX asrning ikkinchi yarmi. Xitoy

tuzilib, jangovar otryadlar tashkil qilindi. Ular «tinchlik va adolat» shiori ostida kurashib, *«ixetuan»* (musht) otryadlari nomini oldilar. Jangovar otryadlar bosqinchilarga hujumlar uyushtirar va ularning hayotini tahlikaga solib turardilar. Ixetuanchilar chet el bosqinchilariga qarshi ochiq kurashga oʻtdilar.

Xitoyda sanoat taraqqiyotining boshlanishi va uning xususiyatlari.

Xalq harakatlari.

XIX asrning oxirida Xitoyda ilk sanoat munosabatlari paydo boʻla boshladi. Eski yer mulkchiligi tizimining yemirilishi tezlashdi. 1872- yilda Li Xunchjan yirik paroxod kompaniyasini tashkil qildi. 1878- yilda Kaylan koʻmir boshqarmasi tuzildi. 1881- yilda Shimoliy Xitoyda birinchi temir yoʻl ishga tushirildi. 1895- yilda Shanxayda yirik toʻqqimachilik fabrikasi ishga tushirildi. 1897- yilda 600 ga yaqin chet el firmalari mavjud edi. Lekin sanoat korxonalarining oʻsishi va koʻpayishi sust bordi. Xitoy, Yaponiya, AQSH, Angliya singari yirik kapitalistik davlatlarga qaram yarim mustamlakaga aylandi. Mamlakat ichida jamiyatning kambagʻal, qashshoq qatlamlari bilan boyib borayotgan burjuaziya va eski anʼanaviy zamindorlik hukmronligi uchun kurashayotgan yer egalari oʻrtasida ziddiyat kuchayib bordi.

Yevropaning savdodagi hissasi 1890- yilda 40 mln. lyanga teng



Sholi ekish

bo'ldi. Import eksportdan ancha ko'p edi. Bu mamlakatning qaramligi belgisi edi.

Xitoy bilan Angliya o'rtasida 1876- yili tuzilgan konvensiya Xitoyni yanada asoratga soldi. Konvensiya Angliyaga Xitoyning 10 dan ortiq portiga erkin kirish, qator viloyatlarda o'z foydasiga imtiyozli savdo qilish huquqini berdi.

1880- yillarda Fransiyaning Vetnamni bosib olishi tufayli Fransiya — Xitoy munosabatlari yomonlashdi. 1884- yili Xitoy Markaziy Vetnam ustidan rasmiy hukmronligidan voz kechdi va u yerda fransuz protektoratini tan oldi. Lekin Shimoliy Vetnam (Tonkin) viloyati fransuzlarga qarshi kurashni davom ettirdi. Xitoy partizanlari yordam berib turdilar. Fransiya buni bahona qilib, Xitoyga qarshi urush ochdi. 22 ta Xitoy harbiy kemasi cho'ktirildi. Xitoy xalqidagi baland ruh, milliy shakllanish jarayoni Sin imperatori sulolasida vahima uyg'otdi. Bundan cho'chigan Xitoy hukumati Fransiya bilan shoshilinch bitim tuzdi. G'olibona urushni mag'lub sifatida yakunlab, Fransiya qator masalalarda «yon berdi».

Xitoyning Fransiya bilan urushda yengilganidan foydalangan Angliya 1886- yil 1- yanvarda Birmaga qarshi urush e'lon qildi. Tez orada Birma Angliya mustamlakasiga aylandi.

Yaponiya Xitoyga nisbatan bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga kirishdi. 1872- yili Ryukyu orolini, 1874- yili Tayvanni bosib olishga harakat qildi. Tayvandagi urushda AQSH harbiy

kuchlari ishtirok etgani uchun bu orol amerikalik savdo-sanoatchilar uchun «ochiq» deb eʼlon qilindi.

1894—1895- yillarda Yaponiya-Xitoy urushi boʻlib oʻtdi. Yaponiyaning maqsadi Koreyani Xitoy taʼsiridan ajratib olish edi. Xitoy Koreyani yaponlar istilosidan himoya qila olmadi. Aksincha, unga «Gʻarb davlatlarini yordamga chaqirish»ni maslahat berdi. Bu Xitoyning Koreyadagi manfaatlariga kuchli zarba boʻldi.

1893- yilgi koreys dehqonlarining «*Tonxak*» (Sharq kurashi) yashirin jamiyat yetakchiligidagi qoʻzgʻolonini bostirish bahonasida Xitoy Koreyaga qoʻshin yuborgan edi. Yaponiya ham oʻz qoʻshinlarini shu bahona bilan Koreya hududiga kiritdi. 1894- yil iyul oyida Yaponiya urush harakatlarini Xitoyning oʻziga qarshi qaratdi. Urush eʼlon qilmay turib Xitoyning bir qancha kemalariga hujum qilib, choʻktirib yubordi. 1- avgust kuni urush rasmiy ravishda eʼlon qilindi. Avgust — noyabr oylari orasida Yaponiya Xitoyni Koreyadan «siqib chiqardi». Keyin esa Port-Artur (Lyuysun) portini bosib oldi. 1894- sentabrida Xitoy Shimoliy flotidan ajraldi. 1895- yil fevraligacha Shandun yarimorolidagi Veyxay portini ham yaponlar oldi. Nihoyat, 1895- yil 17- aprelda Yaponiyaning Simonoseki shahrida bitim tuzildi. Xitoy Tayvan, Lyaodun, Penxu orollarini Yaponiyaga berdi. Shashi, Syuychjou, Xanchjou, Chunsin portlarini «ochib» qoʻydi. Yaponiya Xitoyda istagan joyda xohlagan sanoat korxonasi qurish huquqini oldi. Bitimning Lyaodun orolini Yaponiyaga berish haqidagi bandiga Rossiya va boshqa davlatlar qarshi boʻlishdi. Bu hol Yaponiyani Rossiya chegaralariga juda yaqinlashtirib qoʻygan edi.

Xitoy endigina sanoatlashuv yoʻliga qadam qoʻyganda xorijiy davlatlar tomonidan talon-toroj qilinishi xalq ahvoliga ogʻir taʼsir koʻrsatdi. Xitoyni toʻgʻri taraqqiyot yoʻliga olib chiqish haqida turli ilgʻor ijtimoiy gʻoyalar shakllandi. Bularning hammasi yaxlit maʼnoda XIX asr oxirlarida Xitoyda islohotchilik harakati deb ataladi. Islohotchilar Xitoyning parchalanib ketish xavfini tushunar edilar. Eng xavfli dushmanlar — Yaponiya, Rossiya, Fransiya, Angliya va AQSHning nayranglarini fosh qilardilar. Harakat gʻoyaviy rahbarlaridan Kan Yu-vey, Lyan Si-Chao, Mey Min-Xualar manjur-sin hukmdorlar nomiga memorandumlar yozib,

islohotlar qilishni taklif etishdi. Shu davr ijtimoiy harakatlarida Sun Yat Senning o'rnini alohida edi. U Xitoyning inqilob yo'liga yetaklagan «rahnamo» edi. Sun Yat Senning «Xitoy uyg'onish jamiyati» nomli tashkiloti manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlab, Xitoyda demokratik milliy davlat tuzish uchun kurashar edi.

Yapon-Xitoy urushidagi mag'lubiyat islohotchilik harakatini yanada «jonlantirdi». 1897- yili Kan Yu-veyning beshinchi murojaatiga javoban nihoyat Imperator islohot haqida farmon berdi. Imperator farmoni bilan «100 kunlik islohotlar» davri boshlandi. Islohotlar Xitoyning kuchli, zamonaviy davlatga aylantirishga qaratilgan edi. Kan Yu-vey safdoshlari hukumatga kiritildi. Sanoat, transport, kon-xomashyo, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini davlat qo'lida to'plashga harakat qilindi. Ammo bular eskilik tarafdori bo'lgan yuqori tabaqa zarbasiga uchradi.

1898- yil 21- sentabrda islohotchilar dushmani Sisi boshliq to'lda davlat to'ntarishi qilib, barcha islohotlarni bekor qildi. Imperator *Tuan Syuy* qamab qo'yilib, irodasiz «qo'g'irchoq» podshoga aylantirildi. Islohotchilarning keng demokratik o'zgarishlar yo'liga chiqmaganliklari ularning mag'lubiyatiga sabab bo'ldi. Kan Yu-vey boshliq bu islohotchilar aslida imperator hokimiyatini saqlab, uning ishtirokida davlatni qayta tuzmoqchi edilar. Bu yo'l tub o'zgarishlarga olib borishi qiyin edi.

Xitoyda XIX asr oxiridagi ijtimoiy harakatda «*Ixetsyuan*» (uni «ixetuan» deb ham yuritiladi) yashirin tashkilotining o'rnini katta bo'ldi. Bu tashkilot tarixi XIX asrga, Xitoyning manjurlar bosib olgan davrga taqaladi. O'sha davrda «Baylyanszyao» («Oq nilufar») yashirin tashkiloti tuzilgan bo'lib, uning qanoti «*Ixetsyuan*» («Tinchlik va adolat uchun ko'tarilgan mushk») deb atalar edi.

«*Ixetsyuan*»lar «Manjur Sinlarini haydab chiqaramiz, chet elliklarni yo'qotamiz» shiori bilan ish ko'rardilar.

1899- yili *Ixetsyuan* harakati qo'zg'olon tusini oldi. Bu tarixda «boksyorlar qo'zg'oloni» ham deb nom olgan. Qo'zg'olon markazi Shandun, Chjili viloyatlari edi. Tyanszin rayonida qo'zg'olon alohida yutuqqa erishdi. *Ixetuan*lar Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish, Tayvanni Xitoyga birlashtirish kabi talablarni qo'ydilar, «Chet elliklar yo'qolsin, sotqin hokimlarning boshi chopilsin»

shiorlari bilan chiqdilar. Sin hukumati qo'zg'olonidan cho'chib qoldi. Chunki, ixtuanlar poytaxt va viloyatlarning qariyb yarmini qo'lda tutib turgan edilar. 1900- yili hukumat qo'zg'olonchilarga qarshi yuborgan qo'shin yengildi.

Qo'zg'olonchilarning yaxshi uyushgan otryadlari chet mamlakatlarning konsulxonalariga, savdogarlarga, missionerlarga hujum qilib, Pekinga yurish boshladilar. Lyuyshun yonida hukumat qo'shinlari tor-mor etildi. Pekinda ixtuanlarning hokimiyati o'rnatildi.


Ixtuanlar qo'zg'olonini chet el kapitalistik doiralari Xitoyga bostirib kirish uchun bahonaga aylantirdilar. 1900- yil 17- iyunda Xitoyning Dagu porti bosib olindi. Imperator *Guan Syuyning* xotini Sisi bosqinchilarga qarshi urush e'lon qilib, xalqni urushga ko'tarish o'rniga ixtuanlarga qarshi kurash boshlab yubordi. Ixtuanlar Pekinda chet el elchixonalarini o'rab oldilar. Germaniya elchisi va Yaponiya elchixonasining maslahatchisi o'ldirildi.

Sakkiz davlatning Xitoyga qarshi intervensiyasi Bu voqea Pekinga chet elliklar yurishi boshlanishiga bahona bo'ldi. Intervensiyada sakkiz davlat qatnashdi — Germaniya, Yaponiya, Italiya, Angliya, AQSH, Fransiya, Rossiya va Avstriya-Vengriya. Ularning har biri Xitoyda kattaroq ulushga ega bo'lish maqsadini ko'zlar edi.

Xitoyning markaziy va janubiy viloyatlari malika Sisi buyrug'iga itoat etmay chet elliklar uchun «ochib» berildi.

1900- yil iyul oyida chet el interventlari yalpi hujumga o'tdilar. Sisi hukumati ularga qarshi ixtuanlarni urushga soldi. Maqsad qo'zg'olonchilardan urush bahonasi bilan qutulib qolish edi. Xorijiy davlatlarning eng yangi harbiy texnika bilan qurollangan qo'shinlari birlashib, qo'zg'olonchilarga qarshi tashlandilar. Interventlar tinch aholini va qo'zg'olonchilarni shafqatsizlik bilan jazoladilar, shahar va qishloqlarni to'pga tutib yakson qildilar, xotin-qizlar, yosh bolalar va qariyalarni ham ayamadilar. Avgust oyida Pekin «qo'ldan ketdi». Xorijliklar shaharni va Imperator saroyini talon-toroj qildilar. Manjur Sin hukumati qochib ketdi. Chet elliklar oddiy xalqdan qasos ola boshladilar.

RIVOJLANGAN DAVLATLARNING XITOIDAGI TA'SIR DOIRALARI



AQSH ning Xitoydagi siyosati va «Key doktrinası»

AQSH monopolistlari 90- yillarda Xitoyga bostirib kirishni o'zlariga asosiy maqsad qilib oldilar. Biroq, boshqa yirik davlatlar Xitoyni o'z ta'sir doiralariга «taqsimlab» olganliklari uchun AQSH o'z tovarlarini ana shu «ta'sir doiralari»ga olib kirishga, so'ngra esa o'zining tanho hukmronligini o'rnatishga imkon beradigan doktrina topishi zarur edi.

1899- yilning sentabrida AQSH Davlat kotibi Xeyning Angliya, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Fransiya va Italiyaga

yuborgan bir mazmundagi notalarida targ'ib qilingan «ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar» siyosatiga ana shu g'oya asos qilib olindi hamda «Xey doktrinasi» deb nom oldi.

AQSH Xitoydagi mavjud «ta'sir doiralari»ni tan olishdan bosh tortmadi. Lekin AQSH tovarlari uchun ana shu ta'sir doiralari «eshigini ochiq» qilib qo'yishni, ya'ni savdo-sotiq erkinligini va teng imkoniyatlar prinsipini saqlab qolishni talab qildi. Bundan maqsad, Angliya, Rossiya, Yaponiya va boshqa davlatlar o'z tovarlari bilan savdo qilish uchun o'ziga hech qanday imtiyoz olmasligi kerak edi. O'zining iqtisodiy kuch-qudratiga ishongan Amerika kapitali Xitoydagi barcha raqiblarini yengishga umid bog'ladi.

Shunday bir sharoitda boshlanib ketgan «boksyorlar» qo'zg'olonini bostirish uchun sakkiz davlatning harbiy kuchlari birlashib, jazo ekspeditsiyasini tuzdilar. Shafqatsiz ekspluatatsiyaga qarshi ko'tarilgan shahar va qishloq kambag'allar ommasining bu qo'zg'olonini bostirishda AQSH faol qatnashdi. Sakkiz davlat Xitoyni asoratli shartnomani (1901- yil 7- sentabrda) imzolashga majbur qildi. Shartnomada qo'zg'olonda qatnashgan mansabdor shaxslarni qatl etish yoki surgun qilish talab etildi. Shartnomada shuningdek, Pekin bilan dengiz **sohili** o'rtasida yo'llarni muhofaza qilish uchun chet davlatlarga Xitoyda o'z qo'shinlarini saqlashga ruxsat berildi. Bundan tashqari, Xitoy chet el interventlariga 33 mln. dollar tovon to'lashga majbur etildi. Xitoyga qurol-aslaha kiritish taqiqlandi. Ajnabiylarning Xitoydagi imtiyozlari ko'paydi. Natijada Xitoy yanada himoyasiz bo'lib qoldi. Xar qanday chiqishlar shafqatsizlik bilan bostirildi.

Xorijiy bosqinchi kuchlarga qaratilgan «ixetuan» qo'zg'oloni natijasiz qolmadi. Mustamlakachilarni ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga majbur etdi.

Xitoydan olingan tovon pulining 25 mln. dollarini AQSH oladigan bo'ldi. 1907- yilda AQSH tovon miqdorini kamaytirib, 10.785.286 dollarga keltirishga rozi bo'ldi. Biroq, Xitoy hukumati Xitoydan AQSHga borib o'qiyotgan xitoylik talabalar uchun mo'ljallangan maxsus fondga shu pulni o'tkazib qo'yishi lozim edi. Bu Xitoy ziyolilarini «sotib olish» va ularni AQSHning maxsus josuslariga aylantirish tizimini o'rnatish uchun qilingan harakat edi.

AQSH Rossiyani o'zining Xitoydagi asosiy raqibi deb bilar,

shuning uchun Angliya kabi Yaponiyani Rossiyaga qarshi gij-gijlar edi.

Savol va topshiriqlar

?

1. Xitoyning XIX asr oxiridagi ahvoli haqida gapirib bering.
2. Xitoyning XIX asr oxirida chet el bosqinchi davlatlari yarim mustamlakasiga aylanishining sababi nimada edi?
3. Qanday sabablarga ko'ra Xitoyda kapitalistik rivojlanishning sanoat tizimiga o'tish jarayoni og'ir kechdi?
4. Xitoyda qanday kuchlar mamlakatni chet davlatlarning agrar, xomashyo manbaiga aylantirishga qarshi chiqdilar?
5. Xitoyga qarshi tashqi agressiyaning kuchayishiga sabab nima edi?
6. Xitoyda «Xey doktrinasi» qanday rol o'ynadi? AQSH bu doktrina bilan qanday maqsadlarni ko'zlagan edi?
7. Ixetuanlar qo'zg'oloni kimlarga qarshi ko'tarilgan edi? Qo'zg'olon haqida gapirib bering.
8. Bir yo'la sakkizta xorijiy davlatning Xitoyga qarshi intervensiya uyushtirishdan maqsadi nima edi?
9. Sun Yat Senning faoliyati haqida nimalar bilasiz?
10. Xorijiy davlatlar nima uchun Xitoyning ichki ishlariga tez-tez aralashib turar edi? Bu jarayonlarni tahlil qiling.

Bahs yuriting: Nega Xitoy yarim mustamlakaga aylandi? Kuchsizmidir? Xalq birligi qanday edi?

Bu nomlarni yodda saqlang: Sin, Szyaochjouvan, Yunnan, Veyxay, ixetuan, Tonkin, «Tonxak», Lyuyshun, Simonoseki, Kan Yu-vey, ixetsyuan, Sisi.

27- §. XX asrning boshlarida Xitoy

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol

XX asr boshlarida Xitoyda ijtimoiy ziddiyatlar kuchayib ketdi. Manjurlarning Sin sulolasi hukmronligi inqirozga yuz tutdi. Shoshilinch ko'rilgan islohot choralari jamiyat ahvolini tubdan yaxshilamadi. Xitoyda sanoat taraqqiyoti bilan unga to'siqqa aylangan yer mulkchiligiga xos qoloq ishlab chiqarish munosabatlari o'rtasida ziddiyat chuqurlashmokqda edi. Omma orasida manjurlar boshqaruviga qarshi harakat kuchaydi. 1904—

1905- yillardagi rus-yapon urushi, dunyodagi inqilobchilik harakati Xitoyga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Lekin bu harakat Xitoyning o'zida «siqib» tashlangan edi. Xorijiy davlatlar Xitoyda o'z mavqelarini mustahkamlab oldilar. Chet el kapitali ko'paydi. Chet elliklar Xitoydan juda ko'p foyda oldilar. Xitoy bozorlari chet el gazlamalari bilan to'lib ketdi. Xitoy milliy sanoati savdosi rivojlanishi ancha orqada qoldi. Shunday bo'lsa-da, XX asrning birinchi o'n yilligida 386 ta fabrika, shaxta, konlar ishga tushirildi. Xar yili 50 tadan ko'proq korxonalar ishga tushirilardi. Eksport 1901-yildan 1911- yilgacha 122 mln. dollardan 245 mln. dollarga o'sdi. Chet el kapitali 750 mln. dollardan 1650 mln. dollarga ko'paydi. 1900- yildan 1913- yilgacha xorij firmalari soni oshib, 2400 ga yetdi. Xitoyda yashovchi chet elliklarning soni 53 mingdan 165 mingga yetdi. Xorijiy davlatlar ichida Angliya tovar ayirboshlashda birinchi o'rinda (50 foiz) turar edi. 1914- yilga kelib Xitoy xorijiy davlatlardan 835 mln. dollar qarz bo'lib qoldi. Hali ishchilar sinfi katta kuchga aylanmagan bo'lsa ham, unga a'zolar soni tobora o'sib bordi. Qishloqlarda dehqonlar feodallar zulmi ostida jafodan chekardilar.

Inqilobiy harakatning boshlanishi. Sinxay qo'zg'oloni. Sichuan va Uchan qo'zg'olonilari

1905—1906- yillarda Xitoyda ijtimoiy harakat yanada kuchaydi. Konstitutsiya yaratishga urinishlar bo'ldi. Sin sulolasini saqlab, konstitutsion monarxiya hukumatini tuzish rejalari ishlandi. Sun Yat Sen tashkiloti konstitutsiyaviy

monarxiya haqidagi fikrlarni qoraladi. Sin sulolasini umuman yo'qotib, Respublika tuzish talabi qo'yildi. Bu chaqiriqlar manjurlarga qarshi harakatni yanada kuchaytirdi. Bu harakat, ayniqsa 1911- yili chet elliklardan Xankou — Sichuan, Xankou — Guanchjou temir yo'llari qurilishi uchun qarz olish haqida bitim tuzilgach, qurolli qarshilik tusini oldi.

Sichuanda bu harakat avjga chiqdi. Hukumat qo'shinlari qo'zg'olonchilarni o'qqa tutdi. Bu voqea mamlakatda norozilikni kuchaytirdi.

Xitoydagi ijtimoiy harakat manjurlar hokimiyatini tugatish maqsadlari bilan «Sinxay inqilobi» nomli voqealarga ulanib ketdi. Manjur ma'muriyatining qo'zg'olon harakati vakillarini qidirish, tutib qatl etish kabi choralarini xalqning sabr kosasini to'ldirdi.

**Muvaqqat Respublika
hukumatining tuzilishi**

Uchan shahrida askarlar yotog'ini tintuv qilishga kirgan manjur ma'muriyati tarafdorlarini askarlar tutib o'ldirdilar. Qurol-aslaha omborini bosib oldilar. Boshqa qo'shin qismlari ham ularga qo'shildi. Inqilobchilar 11 oktabrda Uchanni to'la qo'lga kiritdilar. Ular Respublika hukumati tuzdilar va barcha Xitoy viloyatlarini Respublika atrofida birlashishga chaqirdilar. Manjur sulolasi hukmronligi tugatilgani e'lon qilindi. Xunan, Shensi, Szyansu, Chjetszyan, Futszyan, Guandun, Guansi, Guychjou, Yunnan, Shanxay, Shandun va boshqa viloyatlar ham manjur sulolasiga itoatdan chiqdilar. Shunday qilib, «Sinxay inqilobi» qurolli qo'zg'olon yo'li bilan Xitoyda XVI asrdan boshlab hukm surgan manjurlar hokimiyatini ag'darib tashladi.

**Sun Yat Senning faoliyati
va uning Prezident
etib saylanishi**

Inqilobchi-demokrat *Sun Yat Sen* (1866—1925) Xitoydagi milliy ozodlik harakatining atoqli arbobi edi. U Guanchjou (Kanton) yaqinida dehqon oilasida tavallud topdi. Sun Yat Sen 90-yillarning boshida Gonkong (Syangan)da ingliz tibbiyot institutini tamomladi. Keyingi hayotini u siyosiy soha bilan bog'ladi.

Sun Yat Sen 1905- yil avgust oyida «Xitoy uyushmalari ittifoqi» (Tunminxay) degan siyosiy tashkilot tuzdi. Yirik shaharlarda bu ittifoqning yashirin bo'limlari ochildi. Bu ittifoq 1905-yil noyabrda «Minbao» (Xalq gazetasi)ni chiqara boshladi.

«Ittifoq» Sun Yat Sen rahbarligida keng dastur qabul qildi. Dasturda Sin monarxiyasini ag'darib tashlash, Xitoyda Respublika ta'sis etish va yerga egalik huquqini tenglashtirish, mustaqillikni tiklash, millatparvarlik, demokratiya va xalq farovonligi talab etilgan edi. Sun Yat Senning agrar dasturi yer olishga «tashna» bo'lgan dehqonlar ommasining orzu-tilaklarini ifoda etardi.

Sun Yat Sen ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sust taraqqiy etgan Xitoyda yerga egalik huquqini tenglashtirish yo'li bilan ijtimoiy adolatli tuzum yaratish mumkin, degan fikrda edi.

Sun Yat Sen muttasil ta'qib ostida bo'lgani uchun ham tez-tez Xitoydan chiqib ketishga majbur bo'lardi. U Yaponiya, AQSH, Angliya va boshqa mamlakatlarda muhojirlikda

bo'lib, ko'p sonli Xitoy muhojirlari orasidan o'ziga tarafdorlar jalb qildi.

1911- yil oxiriga kelib, Xitoyning barcha janubiy va markaziy viloyatlari qo'zg'olonchilarning ta'sirida edi. 1911- yil 25- dekabrda ko'p yillik muhojirlikdan so'ng Sun Yat Sen Xitoyga qaytib keldi. Uni xitoy xalqi xursandchilik bilan kutib oldi. 29- dekabrda Nankinda inqilobiy viloyatlar vakillaridan iborat Millat majlisi to'plandi. Millat majlisi Xitoyni Respublika deb e'lon qildi va muhojirlikdan qaytib kelgan Sun Yat Senni Xitoy Respublikasining vaqtincha Prezidenti qilib sayladi. 1912- yil 1- yanvardan Sun Yat Sen o'z Prezidentlik vazifasini bajarishga kirishdi. Millat majlisi vaqtincha qabul qilgan Konstitutsiyada barcha fuqarolarning tengligi va turli demokratik erkinliklar e'lon qilinsa-da, dehqonlarning orzu-tilaklarini ifoda etuvchi «yerga egalik qilishda teng huquqli bo'lish» shiori Konstitutsiyada ham, Millat majlisining ko'rgan chora-tadbirlarida ham o'z aksini topmadi. Lekin dehqonlar o'zlaricha tashabbus ko'rsatib, pomeshchiklarga ijara haqi to'lashdan bosh tortdilar. Chunki ko'pchilik viloyatlarning rahbarlari inqilobchi demokratlar emas, balki liberal kayfiyatdagi pomeshchiklar va burjuaziya vakillari edi. Ular «Birlashgan ittifoq»qa kirib, uning qarorlarini bajarmay, katta salbiy ta'sir ko'rsatdilar. Bundan tashqari, Sun Yat Senning ko'plab sodiq safdoshlari ham liberallar tomonga o'tib ketishdi. Sun Yat Senning o'zi ham ularning tazyiqi bilan o'z dasturining asosiy bandidan — «yerga egalik qilishda teng huquqli bo'lish» talabidan voz kechdi.

Yirik va qudratli davlatlarning Xitoyga munosabati. Yuan Shikay

Shanxayda 1911- yil dekabr oyining o'rtalarida Pekindagi imperator hukumatining boshlig'i Yuan Shikay vakillari bilan inqilobiy ruhdagi Janub

delegatsiyasi o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Unga ko'ra, Pekin hukumati inqilobchilarni umumiy avf etishni va mamlakatda konstitutsiyaviy tuzum o'rnatishni va'da qildi. Qo'zg'olonchi Janub vakillari Sin sulolasini ag'darib tashlashni va Respublika e'lon qilishni qat'iy talab qilishdi. Yevropa davlatlari va AQSH 20-dekabrda Shanxayda muzokaralar olib borayotgan vakillarga po'pisa

qilib, muzokaralarda zudlik bilan murosaga kelishni va fuqarolar urushini to'xtatishni taklif qildilar.

Chet el monopolistlari Xitoydagi o'zlarining moddiy manfaatlari va xavfsizligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish bahonasida o'z takliflarini bildirdilar. Ular diplomatik yo'l bilan aralashganlari holda o'z harbiy kemalarini ayni paytda Yanszi daryosiga kiritib, to'plarini inqilobiy Uchan va Xankou shaharlariga to'g'rilab qo'ydilar. Xorijlik bosqinchilar Xitoydagi inqilobni qurol kuchi bilan bostirish maqsadida o'z kuchlarini birlashtirishga erishgan edilar.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning Pekin hukumatini qo'llab-quvvatlashdan maqsadi Xitoyning ichki ishlariga o'z bilganicha aralashish edi. Biroq, bu Xitoyda umumiy norozilik mitinglari o'tkazilishiga sabab bo'ldi. Xitoyliklar mitinglarda chet el tovarlarini boykot qilish to'g'risida qarorlar qabul qildilar.

Liberallar Pekin hukumatining Bosh vaziri, reaksiyon general va yirik amaldor Yuan Shikay bilan bitim tuzdilar. U qat'iyatsiz amalparast edi.

Pekin saroy ahli unga monarxiyaning homiysi — xaloskori deb qarar edi. Yuan Shikay inqilobiy harakatning tazyiqi bilan 1912-yil 12- fevral kuni Sin sulolasining taxtdan voz kechishiga erishdi. Buning evaziga u liberallardan o'zini respublika Prezidenti qilib saylash haqidagi va'dani oldi. Yuan Shikay Nankinda hukumat tuzdi.

Bu paytda xorijiy davlatlar ham Xitoyning ichki ishlariga aralashib, Sun Yat Senning hukumat «tepasidan» ketishini ochiqdan-ochiq talab qildilar. Liberallar ham Sun Yat Senga oshkora tazyiq o'tkazib, prezidentlikdan Yuan Shikay hisobiga voz kechishni so'radilar. Chunki liberallar inqilobning yana davom etishini xohlamas edilar. Xorijiy davlatlar esa reaksiya kuchlarini quvvatlab turdilar va Xitoyga intervensiya uyushtirishga oshkora tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Xitoyga qarshi intervensiya xavfi ostida 1912- yil 1- aprelda Sun Yat Sen prezidentlik lavozimini Yuan Shikayga topshirishga majbur bo'ldi.

1911- yil inqilobining mag'lubiyati. Gomindan partiyasining tashkil topishi

Hokimiyat «tepasiga» kelgan *Yuan Shikay* demokratik erkinliklarni «oyoq osti» qilib, reaksiyon yo'lga kirdi. U avvalo, ishni inqilob qo'shinlarini butunlay qurolsizlantirishdan boshladi. Isyonkor

dehqonlar qishloqlariga jazo otryadlarini yuborib, inqilobchilarni ta'qib qila boshladi. Ishchilarning kasaba uyushmalari tarqatib yuborildi. Hukumatga qarshi tuzilgan har qanday guruh a'zolarining taqdiri o'lim bilan yakunlanardi. Mamlakatdan ilg'or fikrli kishilar yashirin chiqib keta boshladilar. Har bir qishloqda jazo ekspeditsiyasi ish ko'radigan bo'ldi. Reaksiya kuchaydi.

Ayni vaqtda «Birlashgan ittifoq» bilan liberal guruhlar qo'shilib 1912- yil avgustda Gomindan (Milliy partiya)ni tuzdilar. Partiya boshqaruvi raisligiga Sun Yat Sen saylandi. Gomindan Xitoy pomeshchiklarining hujumiga konstitutsiya ishlab chiqish va parlament chaqirish yo'li bilan xalaqit berishga urindi. Gomindan partiyasining dasturida demokratik talablar yo'q edi.

1912- yilda bo'lib o'tgan prezident saylovlarida Yuan Shikay reaksiya yo'liga o'tib, nomzodlarni kamsita boshladi. Konstitutsiyaga ko'ra, Gomindan partiyasi o'z hukumatini tuzishga haqli edi. Yuan Shikay Gomindanning prezidentlikka nomzod bo'lgan vakili Sun Szyao-Jenni yashirin qati ettirib yubordi.

«Ikkinchi inqilob». Diktaturaning o'rnatilishi. Siyosiy inqiroz

Mamlakatda terrorning kuchayishi Yuan Shikayning kimligini oshkor etdi. Aksilinqilobning g'alabasidan ruhlangan Yuan Shikay o'zini rivojlangan

xorijiy davlatlar qo'llab-quvvatlashi uchun harakat boshlab yubordi. Uning diktatura o'rnatishga bo'lgan birinchi qadami parlamentni tarqatib yuborish bo'ldi. So'ngra Millat majlisiga topila qilib, o'zini besh yil muddatga Prezident qilib saylashga majbur qildi. Aprelda Yuan Shikay rivojlangan monopolistik davlatlar bilan yangi asoratli qarz to'g'risida shartnoma imzoladi. Shundan so'ng xorijiy davlatlar Xitoy Respublikasini tan olganliklarini ma'lum qildilar. Xitoyning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi. Sun Yat Sen xitoy xalqini qo'zg'olon boshlashga undadi. 1913- yil yozida Xitoyning janubida hukumatning reaksiyon siyosatiga qarshi «Ikkinchi inqilobi» deb nomlangan qo'zg'olon boshlanib ketdi. Qo'zg'olonga Sun Yat Sen boshchilik qildi.

Biroq, kuchlar teng bo'lmaganligi, qo'zg'olonchilar zamonaviy qurollar bilan ta'minlanmaganliklari tufayli chet davlatlardan harbiy madad olgan hukumat qo'shinlari tomonidan «Ikkinchi inqilob» harakati tor-mor etildi.

1914- yil mart oyida Yuan Shikay Konstitutsiyaviy kengash haqirdi. Unda «Yangi Xitoy Konstitutsiyasi» qabul qilindi. To'plangan odamlar uning so'zini «ikki» qilmaydiganlar edi. Yuan Shikay Prezident sifatida cheklanmagan hokimiyatga ega bo'ldi. Harbiy diktatura o'rnatildi. Respublika boshqaruv organlari tugatildi. Bu hol amalda 1911- yil «Sinxay inqilobi»ning mag'lubiyati edi.

Yuan Shikay diktaturasi armiyaga va eski davlat ma'muriy idoralari vakillariga suvandi. Xalq noroziligi tobora o'saverdi. Sun Yat Sen Yaponiyaga ketib, u yerda «Xitoy inqilobiy partiyasi» (Chjun xua gemindan) tuzdi.

Boshlanib ketgan Birinchi jahon urushi Xitoyning Yaponiyaga qaramligini kuchaytirdi. Buning ustiga Yuan Shikayning xalqqa qarshi siyosati Xitoyda qator qo'zg'olonlarga sabab bo'ldi. Chunki, Yuan Shikay imperatorlik tojini kiyib, Xitoyda podsholik tuzumini o'rnatishni o'ylab qolgan edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlarida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi qanday omillar mavjud edi?
 2. Nima uchun Xitoyda XX asr boshlarida xalq qo'zg'olonlari ko'payib bordi?
 3. Mamlakatda manjurlarning Sin sulolasi nima sababdan inqirozga yuz tutdi?
 4. Xitoy tarixida Sun Yat Sen qanday faoliyatni amalga oshirdi? Uning Xitoy hukumatini boshqarishda qaysi sohalariga e'tibor qaratgani ahamiyatga molik?
 5. XX asr boshlarida yirik davlatlarning Xitoyga munosabati qanday bo'ldi?
 6. Nima uchun AQSH va Yevropa hukmron doiralari Xitoy va boshqa Osiyo davlatlarining manfaatiga zid munosabatda bo'lishdi?
 7. Gomindan partiyasi qanday sohalarida faoliyat ko'rsatdi? Hukumatning gomindanchilarga munosabati qanday bo'ldi?
 8. 1911—1913- yillardagi Xitoy inqilobini qanday baholash mumkin? Inqilobning mag'lub bo'lishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat edi?

Bu nomlarni yodda tuting. Sun Yat Sen, «Sinxay inqilobi», Yuan Shikay, Gomindan, Sun Szyao-Jen, Chjun xua gemindan.

10- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA HINDISTON


28- §. XIX asrning oxirida Hindiston

Mustamlakachilik zulmi va Hindiston xalqlarining ozodlik uchun kurashi

Hindistonning bu davr tarixi jahonda mustamlakachilik harakatining yangi bosqichi, Angliya tomonidan hind xalqini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi va milliy ozodlik harakatining umum Hindiston miqyosida keng tarqalishi bilan bog'liq kechdi.

Hindiston Buyuk Britaniyaning mustamlakasiga aylangan edi. Inglizlar Hindistonni vitse-qirol boshchiligidagi amaldorlar va politsiya apparati yordamida boshqarar edilar.

Ingliz mustamlakachilik istibdodi sharoitiga qaramay, Hindistonda ham sarmoyadorlikka asoslangan mahalliy ishlab chiqarish tizimi yuzaga kela boshladi. Yirik sanoat korxonalari qurishga kirishildi. 1886- yilda to'qimachilikning 95 ta fabrikasi bor edi. Konlar soni 1880—1900- yillarda 56 tadan 286 taga yetdi. Temir yo'l tarmoqlari 1900- yilda salkam 40.000 kmni tashkil qildi. Bu xomashyo tayyorlash va tashishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hindistonda sanoatni Angliya o'ziga qulay qilib joylashtirishga harakat qildi. Asosiy sanoat korxonalari dengiz bo'yi port shaharlari yaqinida edi. Maqsad Hindiston boyliklarini arzon va oson olib chiqib ketish edi. 1873- yildan 1883- yilgacha Hindiston bilan Angliya savdosi 60 foizga o'sdi. Hindiston ingliz burjuaziyasining kapital kiritish zonasiga aylanib qoldi. Ingliz banklaridan Hindistondagi boshqaruv apparati katta miqdorda zayomlar olib turdi. Bu summa 1856- yildagi 4 mln. funt sterlingdan 1900- yilga kelib 133 mln. funt sterlingga ko'tarildi. Britaniya banklari juda katta foiz olardilar. Sanoatga biryoqlama zo'r berish qishloq xo'jaligini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Dehqonchilikda agrotexnika madaniyati past edi. Mustamlakachilar harakati bilan ochilgan sug'orish inshootlari bor-yo'g'i 20 foiz yerni sug'orishga yetar edi. Bu daraja Boburiylar (1526—1858) davridagidan ham kam edi. Qishloqda eski feodal mulkchiligi, yarim qaram dehqonlarni ekspluatatsiya qilish davom etdi. Yerni 60—70 foiz hosilni to'lash sharti bilan dehqonlarga ijaraga berildi. Qarz hisobiga ishlab berishga majbur odamlar toifasi tobora ko'paya bordi.



Fillardan o'rmon kesish ishlarida foydalanish

Qishloq xo'jaligining eng serdaromad tarmoqlariga (choy, kanop, paxta) sarmoya solish katta foyda keltirar edi. Bu sohada ingliz ishbilarmonlari ishchilar yollar va ular qul deb atalar edi. Ularni ezishning barcha usullaridan foydalanilardi. Shunday qilib, Hindiston XIX asr oxirida dunyo bozoriga katta miqdorda sanoat va qishloq xo'jaligi mollari chiqara boshladi. Lekin olingan daromad ingliz mustamlakachilarini boyitdi, xolos. Mehnatkashlar ahvoli esa tobora yomonlashdi, Qishloq xo'jaligida monokultura vujudga keldi. Bengaliya kanop, Assam choy, Bombay va Markaziy Hindiston paxta, Panjob bug'doy yetishtirishga ixtisoslashdi. Lekin texnik ta'minotda hech narsa o'zgarmadi. Dehqon yanada qattiq ezildi. Zamindorlar, bank egalari, sudxo'rlar dehqonlarni qarzga botirib, oxirgi parcha nonini ham qoldirmas edi. 1870—1890- yillar davomida Hindistonda 20 martadan ko'p ocharchilik bo'lib, unda 18 million odam ochlikdan qirildi.

Bunday ahvol Hindistonda milliy ozodlik va ijtimoiy harakatlarga olib keldi. Dastlab Kalkutta, Bombay, Madras kabi shaharlarda bu harakat uch oqim bo'lib shakllandi. Jumladan, Bombayda burjua-zamindorlarning konservativ «Britaniya — Hindiston assotsiatsiyasi» tuzildi. So'ng nisbatan ilg'or g'oyalar bilan bog'liq (liberal) «Hindiston assotsiatsiyasi» paydo bo'ldi. Ilg'or (radikal)

oqimlar ham bor edi. Lekin bu harakatlar keng ommani yetaklashdan yiroq, zamindorlarga xizmat qilardi.

Dehqonlarning stixiyali harakatlari kuchaygan sari Britaniya mustamlakachilari Hindistondagi reaksiyon kuchlar—knazlar, pomeshchiklar, kompradorlar bilan yaqinlashib, musulmonlar bilan hindlar o'rtasida dushmanlik, nizo «urug'ini» socha boshladilar.

1870—1880- yillarda ingliz mustamlakachilariga, mahalliy zamindorlar va sudxo'rlar zulmiga qarshi dehqonlar qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Panjobda Baba Ram Singx boshliq yarim harbiy tashkilot qo'zg'olon ko'tardi. 1872—1873- yillarda Patna, Bogra, Sharqiy Bengaliya dehqonlari, 1875- yili Barod hokimligida, Puna, Ahmadnagar rayonlarida qo'zg'olon boshlandi.

1871- yil 1- yanvarda Angliya qirolichasi Viktoriya Hindiston qirolichasi deb e'lon qilindi. Bu tadbir reaksiya kuchlarini bir yerda to'plashga qaratilgan edi. Mustamlaka ma'murlari turli soliqlarni yanada oshirish, ochlarga yordam fondini qisqartirish, davlat xizmatchilariga beriladigan maoshlar miqdorini kamaytirish yo'lidan bordi. Yangi-yangi qo'zg'olon va g'alayonlar boshlandi. 1871- yili Bombay, Madras, Puna, Suratda ish tashlashlar, 1879- yili Marath dehqonlarining qo'zg'oloni bo'ldi. Uning boshlig'i *Vasudev Phadke* mustaqil Marath davlati tuzish shiorini qo'ydi. Bir yildan so'ng, 1880- yili inglizlar bu qo'zg'olonnii bostirishdi. Phadke osib o'ldirildi, 70 kishi badarg'a qilindi.

1877- yilda Dehlida qirolicha Viktoriyani Hindiston qirolichasi qilib ko'tarish marosimi bo'lib o'tdi. Hindistonning turli burchaklaridan kelgan knazlar Viktoriyaga sodiqlik haqida qasamyod qildilar. Bu narsa knazlar bilan ingliz mustamlakachilarini yaqinlashtirishi lozim edi.

1878- yilda ingliz ma'muriyati (endi vitse-qiroli deb atalardi) Hindistondagi milliy tillarda chiqadigan matbuot haqida qonun qabul qildi va bu qonun bo'yicha barcha gazetalar inglizlar nazoratiga o'tdi. Oradan bir yil o'tgach, o'qotar qurollarni saqlamaslik haqida akt qabul qilindi va barcha aholining o'qotar qurol saqlashi man qilindi. Ammo, bu narsa yovvoyi hayvonlar ko'p bo'lgan o'rmonlar yaqinida yashovchi dehqonlarning noroziligiga sabab bo'ldi.

Inglizlar shu bilan bir vaqtda o'zlarini mahalliy burjuaziyaga «yon berganday» qilib ko'rsatishga harakat qildilar. Shahar ma'muriyatiga boy hindlar saylansa-da, amalda hokimiyat shahar boshlig'i — ingliz qo'lida edi.

Ingliz vitse-qiroli Kerzon Hindistonda zo'rvonlik siyosati o'tkaza boshladi. 1883- yili u kumush rupiya pul zarb qilishni taqiqladi. Rupiyaning valyuta qiymatini sun'iy ravishda ko'tarib qo'yib, yangi qiymatga «mos» keluvchi oltin rupiya chiqardi. Shu yo'l bilan Hindistondagi tarixiy pul tizimiga barham berdi. Uning chet mamlakatlar bilan an'anaviy savdo aloqalariga zarba berdi. Hindistonni faqat Angliya orqali savdo qilishga majbur etdi.

Hindistonda milliy harakatning kuchayishi. «Hindiston Milliy kongressi» partiyasining tuzilishi

1885- yili Broche viloyatida Lakx boshchiligida qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Lakx inglizlar hukmronligiga barham berdi. Hindiston mustaqil podsholik deb e'lon qilindi. Inglizlar kuch bilan qo'zg'olonni

bostirib, Lakx va uning ikki safdoshini osib o'ldirishdi. 57 kishi surgun qilindi. Xalq harakatiga boshchilik qiladigan darajada kuchga ega bo'lgan, muayyan dasturi bor siyosiy partiya — Hindiston Milliy Kongressi 1885- yilda Bombay shahrida tuzildi. Keyinroq «Musulmonlar ligasi» ham tuzildi va shundan e'tiboran inglizlar hind-musulmon raqobatini kuchaytirib yubordilar. Unga Kalkuttada 1884- yili tuzilgan «Hindiston milliy ittifoqi» tashkiloti ham qo'shilib ketdi. Delegatlarning yarmi hind yuqori tabaqa ziyolilaridan bo'lsa, yarmi sanoatchilar, savdogarlar va katta yer egalari edi. O'sha davrda qabul qilingan Nizomda mamlakatda o'z-o'zini boshqarishda hindlar bilan inglizlarning tengligi aytilgan edi. Yana bir bandi Hindiston sanoatchilari manfaatlarini ko'zlab, chet eldan keltirilgan mollarga bojxona tarifi joriy qilishga bag'ishlandi.

Dastlabki vaqtlarda Hindiston Milliy Kongressiga ingliz mustamlaka ma'muriyati qarshilik qilmadi. Bunday munosabatni Angliyaning Hindistondagi vitse-qiroli lord Dafferin «Milliy kongress inqilobdan arzonroq» deb izohlagan edi. Chindan ham 1880- yillarda Hindistonda inqilobiy ruh kuchaygan edi. Xalq mustamlaka azobidan «to'ygan», hukmron doiralarning vaziyatni nazorat qilib turishi qiyin bo'lib qolgan edi. Shuning uchun Milliy Kongress partiyasi tuzilishiga inglizlar xayrixoh bo'lib, bu liberal

tashkilot vaziyatni yumshatib turadi, deb hisoblagan edi. Lekin ko'p o'tmay, inglizlar Kongress faoliyatiga to'sqinlik qila boshladilar. Uni turli vositalar bilan parchalab tashlashga urindilar.

Inglizlar o'ylagandek, Milliy Kongressning talablari dastlabki paytlarda juda ham mo'tadil edi. Bu talablar Britaniya hukmronligini saqlab qolgan holda, ba'zi islohotlar o'tkazishnigina ko'zda tutardi. Ya'ni chetdan keltiriladigan ip-gazlamalarga bojlarni belgilash, mahalliy vakillik muassasalarining huquqlarini kengaytirish, hindlarni boshqarish ishlariga jalb etish, texnik ta'limni uyushtirish va boshqalar edi.

Lekin mamlakatda kapitalistik munosabatlar rivojlanib borgan sari metropoliya bilan mustamlakalar o'rtasida kurash, qaramaqarshilik kuchayib bordi. Britaniya mustamlakachilari o'ylab topgan turli hiyla-nayranglar xalqning ongi o'sgan sari mustaqillikka intilish kuchayishi zarurligi qonuniyati oldida hech qanday «ish bermay qo'ydi». Bu hiyla-nayranglar mustamlakachilikning «umrini» ozgina cho'zdi, xolos.

Tilak va uning inqilobiy faoliyati

Dastlab Milliy Kongress ommaviy-ijtimoiy harakatning «boshida» turishga o'zida yetarli kuch topolmadi. Nihoyat,

1890- yillarda «Hindiston Milliy kongressi» partiyasida «so'l», ilg'or, ijtimoiy jihatdan xalqchil — radikal demokratik oqim shakllandi. Uning «boshida» *Bal Gangadxara Tilak* (1856—1920) turgan edi. Hindlarning marath qavmidan chiqqan, tildan, tarixdan va huquqdan oliy ta'lim olgan Tilak mustamlakachilik tizimi bilan kelishuvchan Milliy Kongressdan «yuz o'girdi». U hind xalqining milliy ongini uyg'otish, milliy g'ururini ko'tarish yo'lidan bordi, dinga, uning ommani uyushtiruvchi kuchiga katta baho berdi.

Yoshligida uning sevgan qahramonlari Garibaldi va Madzini edilar. Kollejni tugallash arafasida u o'zining barcha kuchini Vatanni ozod qilishga sarflashga qasamyod qildi. Tez orada u Puna shahrida mustaqil o'rta maktab tashkil qildi va vatanparvarlik g'oyalarini o'quvchilarga singdira boshladi. 1880- yilda Tilak Punada «Kesari» (Sher) gazetasini tashkil etdi, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib qildi. Ayniqsa, marathlar qahramoni chet elliklarga qarshi mardonavor kurash olib borgan Shivaji xotirasiga

bag'ishlab xalq bayramlari tashkil qildi. «Xudo Hindistonni xorijiy mamlakatlarga hech qachon hadya qilgan emas», — degan edi Tilak.

«Tilak harakati» katta ta'sirga ega bo'ldi. Tilak tarafdorlari ommada mustamlakachilarga nafratni tarbiyalashardi. Shundan xavfsiragan inglizlar 1897- yili Tilakni bir yarim yilga qamadilar. Lekin tez orada uni ozod qilishga majbur bo'ldilar. Bu paytga kelib ozodlik harakati jadal rivojlanish yo'liga kirgan edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Xitoy va Hindistondagi chet el mustamlakachilarining talonchilik siyosatini bir-biriga taqqoslang.
 2. Angliyaning Hindistondagi hukmronligi qanday oqibatlarga olib keldi?
 3. Hindistondagi milliy ozodlik kurashining harakatlantiruvchi kuchlarini ta'riflab bering.
 4. «Hindiston Milliy Kongressi» partiyasi qanday maqsadlar yo'lida tashkil topdi?
 5. Tilakning siyosiy faoliyati haqida so'zlab bering.
 6. Tilak faoliyatida Vatanni bosqinchilardan ozod qilish istagidan tashqari, yana qanday harakatlar sezilardi?

Bu nomlarni yodda tuting: Vitse-qirol, Baba Ram Singx, Viktoriya, Vasudev Phadke, Kerzon, Musulmonlar ligasi, Dafferin, Tilak, «Kesari».

Bahs yuriting: Monokultura iqtisodiyotda ijobiymi yoki salbiymi?

29- §. XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Iqtisodiy ahvol XX asr boshlarida Hindistonda kapitalizm yanada o'sdi. 1910- yilda kanop-tola fabrikalari soni ikki barobar ko'paydi. Paxta xomashyosi tayyorlash, surp mato to'qish korxonalarining 215 tasi hind kapitalistlari qo'lida edi. Sanoat ishchilari soni salkam 1 mln. edi.

Yangi ijtimoiy qatlam bo'lgan bu sinf saflari kengayib bordi. Angliya Hindistonni boshqarishni agentliklar va banklar qo'liga topshirib qo'ygan edi. Agentliklar ingliz kapitalini Hindistonda joylashtirishda dallollik qilar edi. Bu bilan xalqni ezuvchi yana bir «oraliq bo'g'in» hosil bo'ldi. Shunday yo'l bilan Angliya barcha ko'mir havzalari, kanop sanoati, choyzorlarni, transport, savdo va sug'urta jamiyatlarini o'z qo'liga to'plab oldi va butun Hindiston ishlab chiqarish tizimi ustidan nazorat o'rnatdi.

Bu davrda Angliyaning Sharqdagi mustamlakalari ichida Hindiston eng rivojlangani edi. Shu sababli bu yerda Angliya kapitali juda tez o'sib bordi. 1893—1907- yillarda temir yo'llar bo'yicha ingliz kapitali 56 foizga, xususiy kompaniyalarda 23, banklarda 95 foizgacha o'sdi. 1905- yilda Hindistonda 165 ta chet el aksionerlik kompaniyasi mavjud edi. Bu kompaniyalar mamlakatni taladi. Xalqning ahvoli og'irlashib bordi. 1896—1906- yillarda 10 mln. dan ortiq odam ochlikdan o'ldi. 1904- yilda 1 mln. odam vabodan qirildi. Xalq kurashi kuchaydi. 1899—1900- yillarda markaziy viloyatlarda dehqonlar qo'zg'oloni boshlandi. Inglizlar qo'zg'olonni kuch bilan bostirib, o'z manfaatlarini yo'lida yangidan-yangi qonunlar chiqardilar.

1901- yili Kerzon «Kon qonunlari» nomli hujjat e'lon qildi. Unga ko'ra, 20 fut chuqurlikdan boshlab barcha yer osti boyliklari inglizlar nazoratida qazib olinadigan bo'ldi. Bu Hindiston milliy boyliklarini talon-toroj qilish edi. XX asr boshlarida soliq siyosati yanada murakkablashdi. Yer solig'i ayniqsa og'ir edi. 44 mln. funt sterling soliq yig'imlaridan 37 mln. funt sterlingi mustamlaka ma'murlariga oylik va nafaqa tarzida hamda mustamlakachi politsiya uchun sarflanardi.

1905- yilgi Kerzon qonuni universitetlarga kirish pulini ikki barobarga oshirdi. Ulardagi huquq fakultetlari «yopib» qo'yildi. Universitetlarga demokratik ruhdagi, xalq manfaatini ko'zlovchi talabalarning kirishi butunlay taqiqlandi. Bu qonun irqchilik va milliy kamsitish ruhi bilan sug'orilgan edi. Kerzon qo'llagan tadbirlar demokratik ijtimoiy qatlamlar orasida mustamlakachilarga nisbatan nafratni yanada kuchaytirdi.

Bengaliyning bo'linishi Milliy ozodlik harakatini «bo'g'ishga» intilib ingliz mustamlakachilari 1905- yil oktabr oyida Bengaliyani ikki qismga bo'lib tashlashdi. Chunki Bengaliya Hindistonning mustamlakachilikka qarshi eng kuchli harakat markazlaridan biri edi. Bu tadbir aks ta'sirga ega bo'ldi. Hindistonda milliy ozodlik harakati yangidan kuchayib ketdi. Kalkuttada namoyish bo'lib, unda 100 ming kishi qatnashdi. Xalq «Salom senga, Vatanim — onam» («Bande mataram») qo'shig'i bilan chiqdi.

Norozilik chiqishlari birin-ketin mamlakatning katta qismini egalladi. Ingliz mollaridan «yuz o'girish» kabi o'z-o'zidan boshlanib ketgan harakat savdoda katta zararga aylana boshladi.

Inqilobiy harakatning boshlanishi. «Svaraj» va «Svadeshi» shiorlari. Tilak va uning inqilobiy faoliyati 1906- yil dekabrda «so'l» radikal oqim talabi bilan Hindiston Milliy Kongressi qo'shimcha qaror qabul qildi. «Svaraj» («O'z hokimiyatimiz»), «Svadeshi» («O'z ishlab chiqarishimiz»), «Ingliz mollariga boykot» xalq orasida katta e'tibor qozondi.

B. G. Tilak nafaqat ingliz mollaridan, balki ingliz boshqaruvidan ham voz kechishga chaqirdi. Boshqaruvni hindlashtirishga, mahalliy millatni fabrika va zavodlar qurishga chaqirdi. «Paysa fond» nomli mablag' jamg'armasi tuzdi. Hind sanoati mollarining ko'rgazmalarini tashkil qildi.

«Svaraj», «Svadeshi» dasturi ommaga katta ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy chiqishlar ko'paydi. 1905- yili hokimiyat tepasiga kelgan Angliya demokratlari hukumati Hindistonga qarshi siyosatni davom ettirdi. 1907- yili qurg'oqchilik tufayli ochlik, o'lat kasalligidan 1,5 mln. odam qirildi. Yangidan dehqon qo'zg'olonlari boshlanib ketdi va Bengal, Ravalpindi, Panjob kabi ko'plab viloyatlarga yoyildi.

1908- yili Bombay viloyatining Surat shahrida Hindiston Milliy kongressining qurultoyi bo'ldi. Unda «Svaraj», «Svadeshi» dasturidagi asosiy mazmuni — «o'z hokimiyatimiz» g'oyasini siqib chiqarib, «koloniya (mustamlaka) bo'lib qolaveraylik, lekin o'zimizni o'zimiz boshqaraylik» degan mazmunda uni buzib yuboruvchi yangi bayonot taklif qilindi.

«Mo'tadil» oqim buni qattiq himoya qilib turib oldi. Ilg'or radikal oqim esa (Tilak boshliq) «Svaraj»ning haqiqiy mazmuni

uchun kurashdi. «Radikal»lar zaldan haydab chiqarildi. Shunday qilib, HMK ikkiga bo'linib ketdi. Qurultoy mustamlakachilikka «yon bosuvchi» qaror qabul qildi. Asta-sekin boruvchi islohotlar yo'lini tanladi. Qurultoydan quvilgan Tilak boshliq «radikal»lar «Millatparvar partiya» tuzganliklari haqida bayonot e'lon qildilar. Ko'plab varaqalar nashr etib, butun hind xalqini ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashga chaqirdilar.

1908- yili Bombay temir yo'lichilari ish tashladilar. Martda Bombay, Kalkutta aloqa xodimlari ko'chaga chiqishdi, to'qimachilar ularni quvvatlashdi. Madras viloyati yirik voqealar maydoniga aylandi. Tinneveli shahrida «Svadeshi» harakati vakillarining qamalishi katta to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonchilarga oziq-ovqat yetkazib berish, yordam puli yig'ish kabilar tashkiliy jihatdan juda muhim rol o'ynadi.

**Tilakning sud qilinishi.
Bombaydagi umumiy ish
tashlash**

Ingliz ma'murlari yana hind vatanparvarlariga qarshi qahr-g'azab bilan tashlandilar. «Qonunga xilof» majlislar, matbuot haqida taqiqlovchi qonunlar

chiqarildi.

1908- yil 24- iyunda Tilak qamoqqa olindi. Uni sud qilishdi. Tilakning sudda so'zlagan nutqlari ingliz mustamlakachiligiga qarshi fosh qiluvchi ruhda edi. Tilak olti yilga katonga ishlariga hukm qilindi. Sudda maslahatchilarning fikriga quloq solib ham o'tirilmadi. Bunga qarshi Bombay mehnatkashlari «bosh ko'tardilar». Dokerlar ularga qo'shildi. 100 ming ishechi Tilakni ozod qilishni talab qilib, siyosiy ish tashlash e'lon qildi. Inglizlar xalq chiqishlarini «qonga botirdilar». Lekin Tilakka chiqarilgan hukmning katonga qismini qamoq jazosi bilan almashtirishga majbur bo'ldilar. Bombay va boshqa shaharlardagi mehnatkashlarning yalpi ijtimoiy chiqishlari Hindiston ozodligi uchun kurashda turli demokratik kuchlar o'rtasidagi uyushqoqlikni ko'rsatdi, milliy ozodlik yanada o'sib borayotganini yaqqol namoyish qildi.

**1906—1908- yillardagi
inqilobning mag'lubiyati**

Ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashga shahar va qishloqlardagi keng xalq ommasi qo'shildi. Aholi qurollana

boshladi.

Hindistonda milliy ozodlik kurashining kuchayishi Hindiston

Milliy Kongressidagi kelishuvchan unsurlarni va inglizlarni cho‘chitib yubordi. Chunki «o‘ng» unsurlar-liberallar Britaniya hukumatidan dominionlik — o‘z-o‘zini boshqarish huquqi berilishini talab qilishardi, xolos. Tilak va uning tarafdorlari esa xalq ommasining Hindistonni mustaqil davlatga aylantirish yo‘lidagi kurashi davom ettirilishini qat’iy turib talab qildilar.

Tilak va uning tarafdorlarini Panjobda ishchilar va dehqonlar qo‘llab-quvvatlab chiqdilar. Ravalpindida temir yo‘lchilar bir necha kun ish tashladilar.

Inqilobiy harakatning kengayib borishi Hindiston Milliy kongressi rahbarlarini cho‘chitib, ular qo‘zg‘olonchilarning chiqishlarini qoraladilar va ommaviy chiqishlarni to‘xtatishni talab qildilar. Ularning talabiga Tilak boshliq demokratlar qarshi chiqdilar. Bunga javoban ularni HMK safidan chiqarishdi. Ingliz ma‘murlari shafqatsiz qatag‘onni boshlab yubordilar. Ular hind zamindorlari, «oqsuyak» rajalari, liberallarning yordami hamda qo‘llab-quvvatlashi bilan ommaviy chiqishlarni bostirdi, ish tashlash harakatining rahbarlarini sud qilmasdan otishga hukm qila boshladilar. Shu yo‘l bilan Hindistondagi ozodlik harakatini bostirishga muvaffaq bo‘ldilar. Ingliz bosqinchilari Hindistonda diniy va milliy «adovat o‘ti»ni yoqib, hindlar bilan musulmonlar o‘rtasida nizo chiqarib, ularni bir-biriga qarshi gij-gijlar, shu orqali Hindistonning milliy boyliklarini tashib ketardilar va o‘z hukmronliklarini saqlab qolardilar.

Birinchi jahon urushi arafasida Hindiston

Hindistonning zamindor hukmron doiralari ingliz mustamlakachi ma‘muriyati bilan kelishib, 1909- yil noyabrda «Hindiston kengashlari haqida qonun» nomli hujjat qabul qildi. Qonun markaziy va mahalliy boshqaruv kengashlari a‘zolari sonini oshirish haqida edi. Qonun chiqaruvchi yirik viloyat kengashlarida saylanadigan ko‘pchilikni ta‘minlovchi yo‘l tutildi. Aholining esa faqat yarim foizigina saylov huquqini oldi. Saylovlar diniy jamoasiga qarab o‘tkaziladigan bo‘ldi, ya‘ni hindlar, musulmonlar alohida-alohida ovoz beradigan bo‘ldilar. Natijada, musulmon zamindor «oqsuyaklar» kengashlarda ko‘p o‘rin oladigan bo‘lib qoldilar. Bu «saylov o‘yini»dan maqsad hindlar va musulmonlar o‘rtasiga nifoq solish edi.

1910- yildan keyin Hindiston Angliyaning jahon urushi rejalarida muhim rol o'ynay boshladi. Lekin mamlakatda ichki siyosiy vaziyat g'oyat tangligicha qolmoqda edi. Inqilobiy harakatlar, milliy ozodlik to'liqlari mehnatkash ommaga deyarli hech narsa bermadi. Yana korxonalarda to'qnashuvlar kuchaydi. Hind milliy ozodlik harakatining yirik vakillari chet ellarga ketgan edi. Masalan, Yevropada B. R. Kama boshliq hind ijtimoiy harakati vakillari bo'lib, ular chet eldan turib Hindistonga, mazlum hind xalqiga imkon qadar yordam berishga intildilar.

1911- yili mustamlaka ma'muriyati ish kunini 12 soat bilan cheklash haqida qonun qabul qildi. Bu qonun yirik korxonalarni ko'zda tutgan bo'lib, millionlab mehnatkashlarni «chetlab» o'tdi. Chunki, Hindiston uchun mayda hunarmandchilik sexlari ti pidagi ishlab chiqarish xos edi.

1911- yili mehnatkashlarning harakatlaridan cho'chigan mustamlaka ma'murlari Kerzon tomonidan bo'lib tashlangan Bengaliyani birlashtirishga majbur bo'ldilar. Poytaxt xavfsizroq hudud-da joylashgan Dehliga ko'chirildi. Bu tadbir orqasida qator sabablar bor edi. Birinchidan, Kalkutta milliy ozodlik harakati markazi edi, ikkinchidan, shimoliy mintaqadagi musulmonlar Hindiston Milliy Kongressi ta'sirida edilar, uchinchidan, Germaniya musulmonlarning ingliz mustamlakachilariga qarshi ruhini turk islomparastlik kuchlari ta'sirida o'z foydasiga ishlatish harakati-da edi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, XX asr boshlarida Hindiston murakkab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Milliy ozodlik harakati katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ingliz mustamlakachilari esa mamlakatda sarmoyadorlik, sanoat va bozor munosabatlarini rivojlantirishdan butunlay o'zining manfaatlarini yo'lida foydalanishga harakat qildilar.

Hindiston Milliy Kongressi partiyasi va uning ilg'or qanoti shakllanishi ijtimoiy, milliy ozodlik harakatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu yillarda Hindistonning mustamlakachilarga qarshi o'ziga xos kurash usullariga asos solingan edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday edi?
 2. Nima sababdan Bengaliyaning bo'linishi sodir bo'ldi?
 3. Qanday sabablarga ko'ra HMK da bo'linish yuz berdi?

4. HMK «so'l» qanotining asosiy dasturi nimadan iborat edi? Ularga qanday tazyiqlar o'tkazildi?
5. Bombaydagi umumiy ish tashlashning sabablari haqida nimalar bilasiz?
6. Hindiston xalqlarining ozodlik kurashida demokratik kuchlar qanday rol o'ynadi?
7. Ingliz sanoat mollariga qarshi kurashuvchi «Svadeshi» harakatining ma'nosi nima?
8. Birinchi jahon urushi arafasida Hindistonning siyosiy ahvoli qanday edi?

Bu nomlarni yodda tuting: «Kon qonunlari», «Bande mataram», «Svaraj», «Svadeshi», boykot, B. R. Kama.

Bahs yuriting: Boykot mamlakatga foydalimi?

11- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA ERON VA AFG'ONISTON

30- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli


Eronning Angliya va Ros- siyaga qaramligining kuchayishi

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Eron dunyo sarmoyador davlatlarining yarim mustamlakasiga aylandi. Shoh tuzumi va mustamlakachilarning mamlakatga tazyiqi xalq ahvolini yanada og'irlashtirdi. Mamlakat ichkarisida noroziliklar kuchaydi.

Erondagi mustabid hokimiyat feodal-byurokratik qatlamlar, xalqni, ayniqsa mamlakat hududida yashovchi mayda elatlar — ozarbayjon, afg'on, turkman, kurd, arman va gruzinlarni shafqatsiz ezib kelayotgan viloyat hokimlari hamda urug'larning xonlariga tayanar edi. Eronda sanoatning burjualashuvi sust kechdi. Yer dehqonlarni ekspluatatsiya qilib kelayotgan mulkdorlar qo'lida edi. Shaharlarda yashovchi hunarmandlar va mayda savdogarlar kabi dehqonlar ham sudxo'rlar tomonidan qarzga botirilgandi.

Eron zamindorlari, savdogarlari va sudxo'rlari shoh hokimiyatini cheklab qo'yishni, o'z mulklarining daxlsiz bo'lishini,

XIX ASRNING OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA ERON VA TURKIYA



gubernatorlar va xonlar o'zboshimchaligiga barham berishni, eronlik sarmoyadorlarning huquqlarini chet ellik kapital egalari bilan teng qilib qo'yishni talab qildilar.

1856—1857- yillardagi Angliya — Eron urushidan keyin chet el kapitaliga yo'l ochildi. Kuchli mustamlakachi davlatlar turli qurilishlarga ruxsatnoma (konsessiya-ijara)lar olish, og'ir shartlar asosida qarzlarni berish yo'li bilan Eronni tobora qaram qila boshladilar. Eronga kapital chiqarish bo'yicha Angliya birinchi o'rinda edi. 1862—1872- yillarda telegraf qurish bo'yicha konsessiyalar, 1872-yili Eron neft konlaridan foydalanish konsessiyasi, tosh yo'l, temir yo'l qurish konsessiyalari, banklar, pochta ochish va boshqalar bo'yicha Angliya Eronga katta miqdorda qarz berdi. 1889- yili ingliz monopolisti Reyter Eronda «Shahanshahbank» ochishga erishdi. Shartga ko'ra, bank qog'oz pullar chiqarish va mamlakat

yer osti boyliklaridan erkin foydalanish huquqini oldi. Kapitalist Linya Korun daryosida kema qatnoviga, «Talbot» kompaniyasi tamaki ishlab chiqarish va sotishga konsessiya oldi. Boshqa bir kapitalist d'Arzi Erondagi barcha neft konlarini o'z qo'liga kiritdi. Eron inglizlardan 500 ming funt sterling qarz oldi. Jami bo'lib urush arafasida Eron Angliyadan 9,6 million funt sterling qarz edi. Eronni qaram qilishda Rossiya ham ishtirok etdi. Birinchi jahon urushi arafasida Eron Rossiyadan 164 million rubl qarz edi.

Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni ham kuchaytirdi. Ayniqsa, ruslarning shoh saroyiga ta'siri kuchli edi. Inglizlar esa boshqa yo'ldan bordilar. Ular Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Huziston xonlarini Markazga, shoh hukmronligiga qarshi gij-gijlab turdilar. Inglizlar Tehronni «chetlab o'tib», Janubiy Eron viloyatlari hokimlariga qarz, qurol-yarog'lar berib, Belujiston va Seiston viloyatlarini o'zlariga qaram qilib oldilar.

Milliy harakatning paydo bo'lishi. Ishchilar tabaqasining tashkil topishi

XX asr boshlarida Eron milliy va siyosiy mustaqilligini deyarli yo'qotgan edi. Qashshoqlik, dehqon xo'jaligining vayronligi, shahar mehnatkashlarining

og'ir ahvoli, o'lat, vabo kabi ofatlar xalqning «sabr kosasi»ni to'ldirdi. Xalq harakatida demokratik oqimlar vujudga kela boshladi. Ilg'or ziyolilar «Qonun», «Axtar», «Hikmat» va boshqa nomdagi gazetalar chiqarishdi. Eron yozuvchilari o'z asarlarida shohning beboshliklarini va boshqaruv tizimidagi boshboshdoqlikni qattiq tanqid qildilar. Ruhoniylar orasida islom saltanati g'oyasi, panislomchilik kayfiyati kuchli edi. Islomparastlik (fundamentalizm) harakati ham o'z kurash usullari va diniy tashviqotlar orqali xalq ommasini chet el mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashga birlashtirishni maqsad qilib qo'ygan edi. Bundan tashqari, shu davrda Eronda yashirin sotsial-demokratik tashkilotlar ham paydo bo'lgan edi. Ular shoh tuzumini ag'darib tashlashni targ'ib qildilar.

Bu harakatlarga Eron ishchilari boshechilik qildilar. Mamlakatda kapitalistik sanoat korxonalari qurilishi bilan birgalikda ishchilar sinfi vujudga kelgan edi. Mavjud mustabid tuzum va mamlakat amaldorlarining turli nayranglariga qarshi ishchilar faoliyati kengaydi. Lekin Eron ishchilar harakati umummilliy ijtimoiy harakatda hal qiluvchi kuchga ega bo'lmadi.

Xalq ommasining chet el-liklarga qarshi chiqishlari. 1905—1911- yillardagi Eron inqilobi

Ichki ijtimoiy ziddiyatlar, tashqi iqtisodiy va siyosiy siquvlar Eronda 1905- yili inqilobiy harakat boshlanishiga sabab bo'ldi. Ayni vaqtda Bokudagi neft konlaridan qaytib kelgan eronlik ishchilar

mamlakatdagi inqilobiy harakatga yordam ko'rsatdilar va unga quyidan bo'ladigan harakat tusini berdilar.

Mamlakat aholisi, mehnatkashlar, ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar va ayrim ziyolilar butun mamlakat sanoat tarmoqlariga xo'jayinlik qiluvchi rus-ingliz sarmoyadorlarini mamlakat hududidan chiqarib yuborishni shoh hukumatidan talab qilishdi. Shoh bunday talabni bajara olmas edi. Chunki u ruslar va inglizlarga ulkan qarzlar tufayli tobe edi.

Tehronda ommaviy namoyishlar boshlandi. Muqaddas masjid, qabriston, xonaqolarga kirib olib passiv qarshilik ko'rsatish ko'rinishidagi kurash taktikasi qo'llandi. Bu Eron diniy an'anasiga ko'ra best deyiladi. Bestda o'tirgan odamga qarshi jazo chorasi qo'llash mumkin emas, best joyi muqaddas hisoblanadi. Namoyishchilar eng yovuz amaldorlarni haydash, «adolatxona» tashkil qilish, belgiyalik Nausni ishdan bo'shatish kabi talablar qo'yishdi. Lekin ko'p o'tmay xalqqa qarshi jazo choralari boshlab yuborildi. 1905- yil oxirida Eronda inqilobga turtki bergan holat bu Tehron va boshqa shaharlardagi ommaviy xalq namoyishlarining boshlanib ketishidir. Namoyishchilar mamlakatda ijtimoiy islohotlar o'tkazishni, konstitutsiya qabul qilishni, mustabid shoh hukmronligini va chet el monopolistlariga berilgan imtiyozlarni cheklashni talab qildilar.

Mamlakatda umumiy ish tashlashlar avj oldi. Shoh hukumati ish tashlovchilardan shafqatsiz o'ch olishga kirishdi. Bunga javoban xalq qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Shoh qo'zg'olonchilarga qarshi o'z qurolli otryadlarini tashladi. Biroq, qo'shin xalqqa o'q uzishdan bosh tortdi. Liberal pomeschiklar, savdogarlar va ilg'or ziyolilar Eronda konstitutsiyaviy tuzum o'rnatish va parlament tuzishni hamda boshqa talablarni olg'a surdilar.

Inqilobning boshlanishi va uning birinchi davridagi xalq harakatlari

Xalqning talabi bilan 1906- yil 29-iyulda shoh amaldor *Ayn ud-Davlani* lavozimidan olib tashladi. 5- avgustda Konstitutsiya qabul qilish haqida farmon

eʼlon qilindi. Biroq, Farmon ijrosiz qoldi. Natijada xalq yana qoʻzgʻoldi. Tabrizda Eron tarixida birinchi parlament tashkiloti — Majlis tuzildi. Majlis amalda shohning xatti-harakatlari ustidan nazorat oʻrnatdi. Majlis Eron sotsial-demokratlari taʼsiri ostida edi. 9- sentabrda shoh xalq tazyiqi bilan Majlisga saylovlar oʻtkazish haqida Farmon berdi. Saylov ikki bosqichda ijtimoiy qatlamlar boʻyicha oʻtadigan boʻldi. Kojarlar (yaʼni shoh urugʻiga mansublar), ruhoniylar, savdogarlar, zamindorlar va dehqonlar, hunarmandlar — jami 6 ijtimoiy qatlam saylov huquqini oladigan boʻldi. Xotin-qizlar, shahar qashshoq tabaqalari, mayda hunar ahli va boshqalar saylov huquqidan mahrum boʻldilar.

1906- yil 7- oktabrda saylov oʻtkazildi. Birinchi Majlis tuzildi va oʻz yigʻilishini boshladi. 1906- yil 30- dekabr kuni shoh Muzaffariddin Konstitutsiyaning birinchi qismini tasdiqladi. Unga binoan shohga barcha qonunlarni tasdiqlash, budget qabul qilish, uning ijrosini nazorat qilish huquqi berildi. Chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlar Majlis roziligi bilan boʻladigan boʻldi va boshqa demokratik erkinliklar joriy qilindi.

1907- yil 8- yanvarda *shoh Muzaffariddin* vafot etdi. Oʻrniga mustabid tuzum tarafdori, yangilikka qarshi *Muhammad Alishoh* oʻtirdi va inqilobiy oʻzgarishlarga qarshi kurash boshladi. Yangi shoh Majlisga qatʼiy qarshi edi. Lekin Tabriz, Resht, Isfaxon, Tehron xalqi ommaviy gʻalayonga keldi. Shoh Eronda konstitutsiyaviy tartib joriy etishga majbur boʻldi. Shu bilan 1905—1907- yillardagi Eron inqilobining birinchi bosqichi tugadi.

Inqilobning ikkinchi davri. Anjumanlar, Konstitutsiya

1907—1911- yillar Eron inqilobining ikkinchi davri deyiladi. Ijtimoiy harakat xalq ommasining keng qatlamlarini qamrab olgan edi. Harakat endi asosan mustamlakachilarga qarshi qaratildi. Shahar kambagʻal qatlamlari ham oʻz talablari bilan chiqishdi. Umumiy harakatga dehqonlar ham, ishchilar ham qoʻshila boshladilar. Bu ijtimoiy harakat saflaridagi sifat oʻzgarishi edi.

Koʻpgina shaharlarda mahalliy anjumanlar tuzilib, shoh boshqaruv tizimi ustidan nazorat oʻrnata boshladi.

Ayniqsa, mujohidlar tashkiloti katta taʼsirga ega boʻldi. Ularning

talablari ijtimoiy, demokratik ruh bilan sugʻorilgan edi. Masalan, ular hammaga teng, yashirin saylov huquqi, soʻz erkinligi, jamiyatlar tuzish erkinligi, shaxs erkinligi, shoh yerlarini musodara qilish, ularni dehqonlarga taqsimlash, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy taʼlim joriy qilish va boshqalarni talab qildilar. Lekin mujohidlar orasida guruhlarga boʻlinish, terror yoʻlini yoqlovchi mayda oqimlar borligi umumiy ishga xalaqit berar edi.

Demokratik harakat taʼsiri ostida shoh zamindor zodagonlarning nafaqasini qisqartirdi, feodal zamonga xos boʻlgan unvonlarni bekor qildi, poraxoʻrlilik, taʼmagirlikka qarshi qonun va shu kabi muhim hujjatlarni eʼlon qildi.

Boy zamindor sarmoyadorlar Erondagi demokratik harakatdan qoʻrqib, anjumanlar, mujohidlar, fidoyilar va boshqa inqilobiy tashkilotlarga zarba berishga harakat qildilar. 1907- yil 1- aprelda Majlis viloyat anjumanlari haqidagi qonunni tasdiqladi. Bu bilan konstitutsiyaviy harakatni nazorat ostiga olish moʻljallangan edi. Demokratiyaga qarshi keskin choralar koʻrish boshlandi. Shoh chet eldan reaksion qarashlarga ega boʻlgan *Amin us-Sulton*ni chaqirib olib, uni ilgʻor fikrli sadr aʼzam *Moshir ud-Davlaning* oʻrniga qoʻydi. Arak, Qum, Maku, Hamadon, Tehron, Sheroz kabi shaharlarda demokratlarga qarshi jazo choralari koʻrildi. May oyida shoh konstitutsiyaga qoʻshimchalarni tasdiqlashdan bosh tortdi. Ommaviy norozilik yana avj oldi. 18- avgustda Amin us-Sulton fidoyi mujohidlardan biri tomonidan oʻldirildi. Shoh Eron konstitutsiyasining eng muhim demokratik mazmundagi moddalarini tasdiqlab imzo chekishga rozi boʻldi. Qonun oldida hamma teng, shaxs va mulk daxlsizligi, jamiyatlar tuzish, majlislar oʻtkazish, dunyoviy sud (shariat sudi bilan bir qatorda), qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi davlat organlarini ajratish kabi moddalar muhim ahamiyatga ega edi. Lekin shohning huquqlari ham katta edi. Shoh javobgarlikdan ozod shaxs, u Bosh qoʻmondon sifatida urush eʼlon qilish, sulh tuzish, vazirlarni tayinlash va boʻshatish kabi huquqlarga ega edi. Islom dinining shia mazhabi Davlat dini deb eʼlon qilindi. Shohning Konstitutsiya va qonunlarga sodiqlik haqida qasamyod qilishi qoida qilib qoʻyildi. Besh ulugʻ dindor (ulamo) qabul qilainayotgan qonunlarning shariatga muvofiqligi ustidan nazorat qilish uchun tayinlanadigan boʻldi.

1907- yilgi Angliya—Rossiya bitimi. Janubdagi qo'zg'olonlar

Jahon mustamlakachilik tizimi Eron-dagi inqilobiy o'zgarishlarga befarq qarab turmadi. Ularning barchasi Angliya, AQSH, Germaniya, Rossiya va boshqalar

Eronga nisbatan zo'rvonlik siyosati yuritdilar. 1907- yil 31- avgust bitimiga ko'ra, Kasri Shirin — Yazd — Zulfiqor — Bander Abbas — Kirmon — Birijand — Gazik chizig'idan janubga qarab ingliz ta'sir doirasi qilib bo'lib olindi. Oraliq yerlar (Tehron chizig'i bo'ylab) betaraf Eron deb ataldi.

Eron shohi demokratik kuchlarga qarshi, Majlis va anjumanlarni tarqatib yuborish uchun 1907- yil 2- dekabrda qo'shin to'pladi. 20 mingdan ortiq fidoyilar, mujohidlar, Majlis va anjuman a'zolari shoh harbiy qismlariga qarshi chiqdilar. Shoh qo'shinlari yengildi. Demokratik harakat yana butun mamlakat bo'ylab yoyildi. Inglizlar va ruslar yordamida 1908- yil 23- iyunda reaksiya aksilinqilobiy davlat to'ntarishi qildi. Rus kazak qo'shinlari Majlis binosini to'pga tutdi. Majlis a'zolari tutib qamaldi. Ba'zilar o'ldirildi. Majlis va anjumanlar tarqatib yuborildi. Demokratik matbuot taqiqlandi.

Majlis halokatga uchragach, inqilobiy harakat markazi Tabrizga ko'chdi. Shoh qo'shinlari Tabrizni ham bosib olishga urindi. Lekin foyda bermadi. Bu yerda qo'zg'olon boshlanib ketdi. 1908- yil oktabrda *Sattor* va *Bagir* boshliq qo'zg'olonchilar Tabrizdan shoh qismlarini haydab chiqardi. Morakan, Morand, Xoy, Solmas kabi shahar va qishloqlar qo'zg'olonga qo'shildi. 1909- yil yanvardan to' aprel oyigacha Tabriz shoh qo'shinlari qamalida qoldi. Ocharchilik boshlandi. Tashqi dunyodan uzib qo'yilgan Tabriz qo'zg'oloni yengildi. Lekin bu voqealar inqilobiy demokratik harakatga katta ta'sir ko'rsatdi. Qo'zg'olon Isfahon, Lar, Resht, Bushir, Ban-der-Abbos va boshqa shaharlarga tarqaldi. Tabrizga rus qo'shinlari tartib o'rnatish uchun tashlandi. Eron shohi tarafdorlari yordamga yetib keldilar. Lekin Tabriz anjumanini yopib qo'yishga, Sattor va Bagirlarni qamashga jur'at etmadilar.

Shohning taxtdan voz kechishi. Buyuk davlatlarning Erondagi siyosati

Tabriz qo'zg'oloni bostirilgani bilan shohga qarshi harakatlar to'xtamadi. 1909- yil iyul oyida Tehronda Muhammad Alishoh taxtdan tushirildi. O'r-

niga yosh o'g'li *Ahmad* shoh deb e'lon qilindi. Konstitutsiya (1906—1907- yillardagi) tiklandi. Vaqtli hukumat tuzildi. Unga G'ildondan kelgan fidoyi qo'zg'olonchilar sardori Sipohdor va janubdan baxtiyor qabilalari xonlaridan ko'proq vakillar kirdi. Chunki ayni shularning harbiy guruhlari shohni «yiqitishda» alohida xizmat qilishgan edi.

Sipohdor boshliq hukumat qiyin moliyaviy ahvolda edi. 1909-yil noyabrda ikkinchi Majlisga saylov o'tkazildi. Majlisning yangi tarkibida demokratik vakillar ancha kam edi. Kambag'al hunarmand, dehqonlar, xotin-qizlar kabi ijtimoiy qatlamlarni Majlis umuman qiziqitirmadi. Bu hol Eronda yangi siyosiy inqirozga sabab bo'ldi.

Sipohdor hukumati o'rniga *Mustafu al-Mamolik* hukumati tuzildi. U ham ijtimoiy harakatlarni to'xtatishga urindi. Tashqi siyosatda esa AQSH va Germaniyaga suyanib ish ko'rdi. Mustafu hukumati mamlakatdagi chuqur iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal qilolmadi. 1911- yil boshida Sipohdor hukumati yana «qaytib keldi». Tezda chet eldan qarz olish yo'liga kirildi. Angliyadan 1 million 250 ming funt sterling qarz olindi. 1911- yil may oyida AQSH dan M. Shuster moliya missiyasi Eronga keldi. Unga katta imkoniyat, vakolatlar berildi. Amalda M. Shuster Eron moliyaviy, iqtisodiy masalalarini to'liq o'z qo'liga to'plab oldi. U neft, temir yo'l konsessiyalarini AQSH ga o'tkazishga urindi. M. Shuster Eron inqilobiga xiyonat qilgan guruhlarga tayandi. Masalan, arman dashnoqlaridan Efrem Davidyans, baxtiyorlar xonlari, mustabid doiralar unga ko'maklashishdi. Hatto, M. Shuster shohga tobelikdan qutulish uchun o'zining maxfiy politsiyasini ham tuzdi. M. Shuster Rossiyani Eronda AQSH mustamlaka rejalari yo'lida asosiy to'siq deb bilardi. Buning uchun u Angliya va Rossiya o'rtasida nizo chiqarishga urindi. M. Shusterning faoliyati Eronga juda katta moddiy va ma'naviy zarar keltirdi.

Shunday sharoitda Muhammad Alishoh o'z hokimiyatini tiklashga urindi. Ruslar yordamida Kaspiydan o'tib, harbiy kuch yig'di. Ozarbayjonning ba'zi doiralari uni quvvatladilar. Kurdistondan uning akasi Solor ud-Davla yordamga shoshildi. Lekin bu reja amalga oshmadi. Xalq yana qo'zg'olonga o'tlanib, eski shohni mag'lubiyatga uchratdi. Muhammad Alishoh ikkinchi bor chet elga qochishga majbur bo'ldi.

Shohning muvaffaqiyatsiz urinishidan keyin Eron inqilobini bostirishga xalqaro reaksiya kuchlari kirishdi. Inglizlar janubga, ruslar Shimoliy Eronga qo'shin kiritdilar. Ichkarida esa dashnoqchi E. Davidiyans (u mamlakat politsiyasining boshlig'i edi hamda Amerika missiyasi – M. Shuster bilan hamkorlikda Eron xalqiga nisbatan katta xiyonatlar qilar edi) politsiya qismlari bir vaqtning o'zida inqilobiy Majlisga, hukumat kuchlariga qarshi hujumga o'tdi. 1911- yil dekabrda aksilinqilobiy davlat to'ntarishi o'tkazildi. Eron inqilobi bostirildi.

**1905—1911- yillardagi
Eron inqilobining
yengilishi va tarixiy
ahamiyati**

Eron inqilobi feodalizmga, chet el monopolistlarining mustamlakachilik siyosatiga qarshi burjua demokratik ruhdagi ijtimoiy harakat edi. Uni harakatlantiruvchi kuchlar asosan milliy burjuaziya, shahar mehnatkashlari, dehqonlar ommasi, batrak ishchi va boshqalar edi. Konstitutsion o'zgarishlar, Majlis tuzilishi kabilardan keyin yirik feodallar, ruhoniylar inqilobdan chetlashib, uning demokratik qatlamlariga nisbatan dushmanlik yo'liga kirdilar.

Erondagi 1905—1911- yillar inqilobi katta ijtimoiy hodisa, feodal-monarxiya tuzumidan konstitutsiyaviy monarxiyaga o'tish bosqichi bo'ldi. U demokratik kuchlarni birlashtirishga xizmat qildi.

Birinchi jahon urushi arafasida Eronning xorijga tobeligi yanada kuchaydi. 1912- yil fevralida 1907- yilgi Rossiya—Angliya (ta'sir zonalariga haqidagi) bitimini Eron tan oldi. Angliyadan 2 million funt sterling, Rossiyadan 14 million rubl qarz oldi. Angliyaga Eronda neft qidirishga ruxsat berildi va hokazo. Bular Eronning iqtisodiy emas, balki siyosiy sohada ham qaram holga solib qo'ydi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning oxirida Eronning yarim mustamlakaga aylanishining sabablari nimada edi?
 2. Eronning hukmron doiralari nima uchun ingliz, rus mustamlakachilari bilan aloqa o'rnatishga intildi?
 3. Yevropa davlatlariga nisbatan Osiyo mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar qanday sabablarga ko'ra sust rivojlandi? Eronda-chi?
 4. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday edi?

5. Ingliz monopolistlari Eron iqtisodida qanday rol o'ynadilar?
6. XX asr boshlarida nima uchun Eronning milliy va siyosiy mustaqilligi yo'qoldi? Milliy burjuaziya shoh boshqaruv tizimini nima sababdan tanqid qildi?
7. 1905—1911- yillardagi Eron inqilobida qatnashuvchi kuchlar qanday joylashganini ta'riflab bering. Inqilob Eronning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
8. Eronda qabul qilingan Konstitutsiya xalq uchun qanday samara berdi?
9. Eron hududini iqtisodiy va siyosiy jihatdan bo'lib olishda Angliya va Rossiya qanday bitim tuzishga erishdilar? Bu bitimning Eron uchun ahamiyati qanday bo'ldi?
10. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning siyosiy ahvoli qanday edi?

Bu nomlarni yodda tuting: Konsessiya, «Shaxan-shaxbank», Talbot, d'Arsi, best, Naus, Muzaffariddin, Moshir ud-Davla, Amin us-Sulton, Sipohdor, Mustaf o-Mamolik, Shuster, Davidyans, Muhammad Alishoh.

Bahs yuriting: Sharqdagi inqiloblarning G'arbdagi inqiloblardan farqi bormi?

31- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Afg'oniston

1870- yillarda Afg'oniston Rossiya bilan Angliya o'rtasida bahsga sabab bo'lgan mamlakat bo'lib qoldi. 1873- yili Angliya Hindiston—Afg'oniston chegarasida harbiy kuch yig'a boshladi. Afg'on amiri Sheralixon Rossiyadan yordam so'rab, elchi yubordi. Rossiya bunga javoban afg'on chegaralarida harbiy harakatlar qilayotgandek ko'rinadigan ish qildi. Kichik bir guruh rus askarlari qismini chegaraga yaqin joylashtirdi. Kobulga general Stoletov boshchiligida elchilik missiyasi yuborildi. Lekin u yerda Stoletov imzolagan «bitim» loyihasi tasdiqlanmadi. 1878- yildagi Turkiya — Rossiya urushidan keyin Angliya diplomatiyasi Berlinda bo'lib o'tgan sulh konferensiyasida Rossiyani «yolg'izlatib tashladi» va Afg'oniston bilan do'stlik shartnomasidan ham voz kechishga majbur qildi.

Ikkinchi ingliz-afg'on urushi va uning oqibat-lari

1878- yili *Sheralixon* ingliz missiyasini Kobul shahrida qabul qilishdan bosh tortdi. Angliyaga bu Afg'onistonga qarshi bosqinchilik urushi ochishga bahona

bo'ldi. *Sheralixon* o'lgach, taxtga o'g'li *Yoqubxon* o'tirdi. U inglizlar yordamida hokimiyatni saqlashga harakat qildi. Shu maqsadda inglizlar bilan 1879- yil may oyida *Gandamak* degan joyda bitim tuzdi. Afg'oniston amalda mustaqilligini yo'qotdi. Kobulda ingliz rezidensiyasi ochildi. Uning vazifasi afg'on amiri xatti-harakatlari hamda inglizlardan yuboriladigan qarzlar qanday sarflanayotgani ustidan nazorat qilish edi.


Amir *Yoqubxonning* taslimchilik siyosati ommani g'azablantirdi. 1879- yil avgust oyida Kobulda qo'zg'olon ko'tarildi. Shaharliklar ingliz rezidensiyasiga bostirib kirib, uni egalladilar. Inglizlar *Gandamak* bitimidan keyin qaytarib olib ketgan qo'shinlarini yana Afg'onistonga tashladilar. Amir *Yoqubxon* ularga asir tushdi. Afg'on qo'shinlari va xalq amirga bo'ysunmay qo'ydi. Inglizlar katta kuch bilan Kobulni qayta egalladilar. Xalqqa nisbatan jazo choralari ko'rildi. G'azablangan xalq partizanlik urushini boshlab yubordi.

Abdurahmonning hokimiyatga kelishi va uning ichki hamda tashqi siyosati

Sherpurda mustahkam o'mashib olgan qo'zg'olonchi qo'shin Kobulni o'rab oldi. Inglizlar tang ahvolda qoldi. 1880-yilning boshida Do'st Muhammadxonning nabirasi *Abdurahmon Shimoliy*

Afg'onistonda o'z hokimiyatini o'matdi. Xalqni «muqaddas jihad»ga boshlab, inglizlarni butunlay quvib chiqarishga chaqirdi. Vaziyat inglizlar uchun o'ta xavfli bo'lib qoldi. Inglizlar *Abdurahmon* bilan muzokaralar boshladilar. *Abdurahmonga* Kobul topshirildi. Shuningdek, *Abdurahmonning* «amirlar sulolasi»dan ekanligini tan oldilar. Lekin amir mamlakat manfaatlarini to'la himoya qila olmadi. Gap shundaki, Angliya berishi kerak bo'lgan qurol-yarog', pullar evaziga Afg'oniston Angliya hamda ingliz Hindistonidan boshqa biror chet mamlakat bilan diplomatik aloqa qilmasligi kerak edi. Bu shartlar Afg'onistonni siyosiy va iqtisodiy qaram o'lkaga aylantirdi. *Abdurahmon* faqat ichki siyosatdagina nisbatan mustaqillikni saqlab qolishga erishdi.

Angliya *Abdurahmon* bilan bitimlar tuzganda Qandahor



Kobuldagi bozor

viloyatini «mustaqil» qilib olib qoldi. Haqiqiy amir Sheralixonning o'g'li *Ayubxon* Qandahorga yurish boshladi. 1880- yil 27- iyul kuni Mayband qishlog'i yonida jang bo'ldi. Ingliz harbiy brigadasi yanchib tashlandi. Inglizlar yangi kuchlar bilan Ayubxonga hujum qildilar. Ayubxon Hirotga chekindi. Lekin aholining murosasizligi tufayli inglizlar Qandahorni tashlab chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Shunday qilib, Ikkinchi ingliz-afg'on urushi Angliyaning mag'lubiyati bilan tugadi.

1880- yili Abdurahmon Ayubxon qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratdi. Ayubxon chet elga qochib ketdi. Afg'onistonda Abdurahmonning to'liq hokimiyati o'rnatildi. Amir Abduraxmon (1880—1901- yillar) davrida Afg'oniston qiyin iqtisodiy-ijtimoiy ahvolda edi. Inglizlar bilan urushlar ishlab chiqarishni izdan chiqargan, Kobul va boshqa shaharlar vayron qilingan edi. Afg'onistonning geografik cheklanganligi, atrofidagi davlatlarning mustamlakalar ekani ham iqtisodiy jihatdan noqulay edi. Afg'on amiri mamlakatda «yopiq» siyosat olib bordi. Chet elliklar, ayniqsa yevropaliklarning mamlakatga kirishi taqiqlandi. Amir mamlakatni siyosiy birlashtirish uchun tarfakash guruhlar bilan kurash olib bordi. Ma'muriy politsiya apparati (boshqarmasi) tuzildi. Uning harakati bilan xazinaga soliqlar tushishi birmuncha yaxshilandi.

Karvon yo'llari xavfsizligi bir qadar ta'minlandi. Qaroqchilar shafqatsiz jazolanadigan bo'ldi — ularni temir qafaslarga solib, yo'l yoqasidagi ustunlarga osib qo'yilar edi. Diniy ulamoni o'z tarafida tutish uchun Abdurahmon ularga maosh belgiladi. Vaqf mulkini esa qisman davlatga o'tkazdi. Yagona pul birligi, og'irlik va uzunlik o'lchovlari joriy qilindi. Bu tadbirlar Afg'onistonda savdo-sotiq, ishlab chiqarish va hunarmandchilikni bir qadar «jonlantirdi». Dehqonlar ijara va chorakorlikda, batraklikda ishlar edilar. Yer solig'i va turli qo'shimcha yig'implarni to'lash qiyin edi. Uy hayvonlariga soliq ham og'ir edi. Abdurahmon afg'on bo'lmagan etnik guruhlariga nisbatan kamsitish siyosati olib bordi. O'zbeklar, turkmanlar, tojik, hazora va boshqa xalqlar qattiq ekspluatatsiya qilinadi, soliqlar «yuki»dan «o'nglana» olmas edilar. Lekin afg'on qabilalari ko'pincha amirga askar berish evaziga soliqlardan ozod qilinadi.

Dyurand bitimi

Afg'onistonning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi xalqaro ahvoli to'la ma'noda Rossiya va Angliyaning o'zaro munosabatlariga bog'liq edi. Amir Abdurahmon bu murakkab sharoitda ikki yirik mustamlakachi davlat kelishmovchiliklaridan ustalik bilan foydalandi. Inglizlar yordamida Kobulda kuchli harbiy istehkom va aslahaxona qurildi. Abdurahmon bu yordamlar bilan o'zining siyosiy mavqeini mustahkamlab, yerlarini shimolga, to Amudaryogacha kengaytirib oldi. 1887- yilgi afg'on-rus muzokaralarida turkmanlar yashaydigan joylarda chegara qat'iy belgilab olindi.

Shundan keyin Abdurahmon janubda, Hind daryosi bo'ylarida yashaydigan, lekin 1849- yilda inglizlarga bo'ysundirilgan afg'on qabilalarini o'z davlati atrofida birlashtirish harakatini boshlab yubordi. Bu qabilalar jangari bo'lib, inglizlarga ham, afg'on amirlariga ham bo'ysunmay kelishardi. Ular Angliya mustamlakachiligi kuchayib borgani sari o'z himoyachilari deb afg'on amirlariga ishonadigan bo'lishdi. Amir Abdurahmon o'zini ularning «diniy homiysi» qilib ko'rsatib, inglizlarga qarshi jihodga chorladi. Abdurahmonning janub qabilalari manfaatlari yo'lidagi kurashi Angliya bilan yangi urush xavfini tug'dirdi. Yangi urushdan cho'chigan Abdurahmon inglizlar bilan 1893- yilda bitim tuzib, janubdagi afg'on qabilalarining ko'pchiligi inglizlar

qaramog'ida, deb tan olishga majbur bo'ldi. Bu katta mag'lubiyat edi. Inglizlar bundan foydalanib, kelishilgan chiziqqa (muzokara olib borgan inglizlar vakili Dyurand nomi bilan atalgan Dyurand chizig'i) qo'shin yubordilar. Bunga javoban tog'lik afg'onlar qo'zg'olon ko'tardilar. Ko'plab afg'on qabilalari o'z mustaqil jamoa boshqaruvi tartiblarini saqlab qoldilar.

**Habibulloxon davrida
Afg'onistonning ichki va
tashqi siyosati**

1901- yili Abdurahmon vafot etdi. O'rniga o'g'li *Habibullo* amir bo'ldi. U otasi yo'lidan borib, afg'on qabilalarini birlashtirish siyosatini olib bordi. Ingliz-

larga qarshi kurashni davom ettirdi. Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatishga urindi.

Lekin Angliya bu urinishlarga qarshi kurashib, Afg'onistonni iqtisodiy qamal qilishni kuchaytirdi. 1904- yili Angliya Kobulga Den missiyasini yuborib, Afg'onistonga bitim taklif qildi. Unga ko'ra, tashqi savdo Angliya nazoratida bo'lishi, mamlakatda inglizlar temir yo'l qurishiga rozilik, ingliz fuqarolarining Afg'onistonga erkin kirib-chiqishiga ruxsat berilishi kabilar talab qilingan edi. 1907- yili shu masalalarda bitim imzolandi. Unga ko'ra, Afg'oniston Angliya manfaatlari mintaqasi deb e'lon qilindi, Rossiya uchun esa ba'zi savdo huquqlari berildi, xolos.

Afg'oniston XX asr boshida zavod va fabrikalari yo'q, qoloq davlat bo'lib qolmoqda edi. Soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi. O'g'rilik, mahsulotlarning omborlarda buzilishi va boshqalar katta zarar keltirardi. Lekin turli murakkabliklarga qaramay, Afg'onistonda ham ayrim iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Masalan, qishloq xo'jaligida ixtisoslashuv «kurtaklari» paydo bo'ldi. Shaharlarda aholi ko'paydi, afg'on savdogar ishbilarmonlari shakllana boshladi.

Boshqaruvda ham ayrim o'zgarishlar qilindi. Ma'muriy xodimlar, harbiy ofitserlar tayyorlovchi «Harbiya» bilim yurtlari tuzildi. Kitob chop etish ishi boshlandi. Birinchi matbuot organi «Siroj ul-axbori afg'oniya» (Afg'on xabarlari chirog'i) nomli gazeta chiqqa boshladi. Bularga Muhammad Tarziy rahbarlik qildi.

**Muhammad Tarziyning
ma'rifatchilik faoliyati**

Mamlakatda yangi g'oyalar, respublikachilik harakatlari paydo bo'ldi. Ayniqsa, «Yosh afg'onlar» maktab-mao-

rif, madaniyat, fan, texnika tarmoqlarini rivojlantirish g'oyasini olg'a surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo'lishini talab qildilar. Mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki boj to'lovlarini yo'qotish, qabilalar tengligiga erishish va ko'p masalalarda ilg'or qarashlarni ifoda etdilar, «Yosh afg'onlar» boshlig'i *Muhammad Tarziy* Habibulloxonning uchinchi o'g'li *Omonulloxonni* kuyov qilgan edi.

Islahotchilarning butun umidi shu Omonulloxonga qaratildi. Chunki u «yosh afg'onlar» ruhida tarbiyalangan edi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning ikkinchi yarmida Afg'oniston nima sababdan Angliya va Rossiya o'rtasida «talash» mamlakat bo'lib qoldi?
 2. Ikkinchi ingliz-afg'on urushi qanday natijalar bilan yakunlandi? Bu urushdan qaysi tomon ko'proq manfaat ko'rdi?
 3. Amir Abdurahmon taxtga o'tirgach ichki va tashqi siyosatda nimalarga erishdi hamda nimalarda yutqazdi?
 4. Inglizlar tomonidan imzolangan «Dyurand bitimi» Afg'oniston xalqi boshiga qanday kulfatlar yog'dirdi?
 5. Abdurahmon va Habibulloxon olib borgan ichki va tashqi siyosatning bir-biridan farqini so'zlab bering.
 6. XX asr boshlarida afg'on mamlakatida qanday ijtimoiy, ilmiy va ma'rifiy o'zgarishlar yuz berdi?
 7. Afg'onistonda qabul qilingan Konstitutsiya qanday samara berdi?
 8. Yirik davlatlar tomonidan Sharq mamlakatlarini xomashyo bazasiga aylantirishga urinishning sababi nimada edi?
 9. Birinchi jahon urushi boshlanganida Afg'oniston qanday pozitsiyada turdi?

Bu nomlarni yodda tuting: SHERALIXON, STOLETOV, YOQUBXON, GANDAMAK, ABDURAHMON, AYUBXON, MAYBAND, DYURAND, HABIBULLOXON, DEN, MUHAMMAD TARZIY.

Bahs yuriting: Nega Hindistonni yenggan Angliya Afg'onistonni yengolmadi?

12- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKIYA

32- §. XIX asrning oxirida Turkiya

Mamlakatning yarim mustamlakaga aylanishi XIX asrning 70- yillariga kelib Turkiya-ning rivojlangan xorijiy mamlakatlarga qaramligi juda kuchayib, uning chet ellardan olgan asoratli qarzlari nihoyatda ko'payib ketdi. Xorijiy mustamlakachilar o'z manfaatlarini yo'lida bu qaram mamlakatdan yanada ko'proq foyda olishga, turk reaksiyon guruhlari va komprador burjuaziya, shuningdek, turk bo'lmagan savdogarlar bilan «til birlashtirish»ga harakat qildilar.

Fransiya — Prussiya urushidan so'ng Turkiyaning xalqaro ahvoli nihoyatda murakkablashdi. Angliya va Fransiyaning Usmonli turk imperiyasiga qarashli yerlarni bosib olish uchun harakati yanada kuchaydi. Bu ishda Turkiya va Bolqon uchun kurashgan Germaniya ham, Rossiya va Avstriya-Vengriya ham o'z ulushlarini olishga harakat boshladilar.

Turkiya iqtisodiyotining asosini tashkil qilgan qishloq xo'jaligi nihoyatda orqada qolgan, qishloq xo'jalik texnikasi deyarli yo'q edi. Dehqonlar qo'l mehnatiga asoslangan qishloq xo'jaligida ekinlarning hosildorligi juda ham past bo'lib, dehqon zo'rg'a kun ko'rardi. Dehqonlar bu haqda shunday maqol to'qigan edilar: «Hosilning bir qismi dalada yo'q bo'ladi, bir qismini «sovuq uradi», bir qismini qushlar yeb ketadi, qolgani xudo xohlasa menga qoladi». Lekin bu qismi ham pomeshchik va soliq oluvchilarga ketardi. Anatoliyadagi ko'pgina viloyatlarning xo'jayinlari biron-ta dehqon uch yillik daromadiga teng bo'lgan qarzdandoli emas, deb tan olgan edilar.

Qishloq xo'jaligidagi «tushkunlik» birin-ketin ocharchilik yillarini olib keldi. Ayniqsa, 1873—1875- yillarda Kichik Osiyoning markaziy tumanlarida kuchli ocharchilik bo'lib, ko'p odam qirilib ketdi.

Bu davrga kelib shahar aholisining ham ahvoli og'irlashdi. Hunarmandchilik «tushkunlikka» uchradi. Eski tartiblar va xorijiy tovarlarning ko'pligi mamlakatda iqtisodiyotning taraqqiyotiga to'siq bo'ldi. Sulton rejimi o'zining moliyaviy ahvolini

yaخشilash uchun chet eldan qarz ola boshladi. 1870–1874- yillarda 3 mlrd. frankdan ortiq asoratli qarz olindi.

XIX asming 70- yillarida mamlakat inqiroz yoqasiga kelib qoldi. Xalqning noroziligi oshdi. Muhojirlikda bo'lgan «Yangi usmonlilar» faollashdilar. Ular chet elda gazetalar nashr qilib, varaqalar tarqatib, mamlakatda konstitutsiyaviy tuzum va islohotlar o'tkazishni talab qila boshladilar. Ularning bu g'oyalarini bir qator liberal kayfiyatdagi amaldorlar va ofitserlar qo'llab-quvvatladilar. Bu harakatga bir vaqtlar «Ulug' vazir» nomini olgan *Midxat posho* ham qo'shildi. «Yangi usmonlilar» va *Midxat posho* Turkiyaning liberal pomeshchiklari va «tug'ilib» kelayotgan burjuaziya manfaatlarini ifoda etardilar. Ular sulton rejimiga qarshi kurashdilar. *Midxat posho* Angliya bilan yaqinlashish tarafdori edi.

1871- yilda *Mahmud Nodim posho* Ulug' vazir etib tayinlandi. Mahmud Nodim vatanparvar kuchlarga qarshi hiyla ishlatdi. «Yangi usmonlilar»ga umumiy avf e'lon qilib, vatanlariga qaytishga ruxsat berdi. U politsiya nazoratidagi «yangi usmonlilar» xavfsizroq bo'ladi deb o'ylar edi. «Yangi usmonlilar» tezda o'z gazetalari chiqardilar va varaqalar tarqatdilar. *Abdulaziz* (1861–1876) va *Nodim posho* rejimini tanqid qildilar. 1873- yilda Istanbul teatrida *Nomiq Kamolning* vatanparvarlik ruhidagi dramasi qo'yildi. U yerda hukumatga qarshi namoyish bo'lib o'tdi. *Nomiq Kamol* va uning tarafdorlari qamoqqa olinib, gazetalari «yopildi». Lekin siyosatda barqarorlik bo'lmaganligi tufayli tez-tez hukumat almashuvlari bo'lib turdi. Mamlakatda ahvol kundan-kunga yomonlashib bordi.

1870–1880- yillarda Turkiya iqtisodiy inqiroz ichida qoldi. Chunki hukumat o'tkazgan islohotlar qoloq ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirishga qodir emas edi. Yangi boshqaruv doirasi burjuaziyada bo'lgani bilan o'zining avvalgi huquqlaridan kechmagan edi. Hokimiyat faqat davlat xazinasidagi kamomadni to'ldirish bilan shug'ullanardi. Viloyatlarda amalparastlik, poraxo'rlik, soliqlarni o'g'irlab, o'zlashtirish avjiga mindi. Qonunsizlik, o'zboshimchalik xalq ommasini og'ir ahvolga soldi. Hukumatning soliq siyosati kuchaydi.

Qishloq xo'jaligi mollari sun'iy arzon narxlarda olinar, dehqon

o'z mehnatidan manfaatdor emas edi. Viloyatlararo boj undirish tartibi ham savdo munosabatlariga to'siq bo'ldi. Hukumat buni bekor qilishga majbur bo'ldi. Lekin bu yo'qotish o'rnini qoplash uchun ashar solig'ini 25 foizga oshirib qo'ydi.

Sanoatda ham o'sish yo'q edi. Chunki sanoat uchun qishloq xo'jaligi xomashyo yetkazib berish ahvolidagi emas edi. Chet el sarmoyasi bozorni egallab olgan edi.

1874- yili chet el sarmoyadorlariga konlarni ishga solishga ruxsat beruvchi qonun qabul qilindi. Davlatning moliyaviy ahvoli halokat yoqasida edi. Tashqi qarz 5,5 milliard frankka yetdi. 1876- yili turk hukumati o'zining moliyaviy jihatdan «singanligini» e'lon qildi.

XIX asrning oxirida Usmoniylik imperiyasining inqirozi. Milliy zulmning kuchayishi

Bir vaqtlar qurol kuchi bilan birlashtirilgan, mustahkam iqtisodiy aloqalari bo'lmagan Usmoniylik imperiyasi yildan-yilga zaiflasha boshladi. Ishlab chiqarish past darajada bo'lgani uchun

iqtisodiy o'sish nihoyatda sekinlashdi. 1875- yilda qarz hisobiga sarflar 570,5 million frank bo'lgani holda, daromadlar 380 million frank bo'ldi. Davlat chet eldan olgan qarzini to'lashga, odamlarga maosh berishga qodir emas edi. Buning ustiga turk puli o'z qiymatini 30 foiz yo'qotib, narx-navo keskin ko'tarildi. Mamlakatda qo'zg'olonlar boshlanib ketdi.

Turk sultoni Abdulaziz hukumati mamlakatni og'ir ahvolga solib qo'ydi. Mamlakatda sulton hokimiyatini tugatish g'oyasi shakllandi. «Yangi usmonlilar» burjua-demokratik harakati kundankunga rivojlana boshladi. Ular tashkil etgan «Ibrat» nomli gazeta ilg'or demokratik g'oyalarni «tashuvchisi» bo'ldi. Bu g'oyalarni millatparvar ziyolilar qo'llab-quvvatladilar va «yangi usmonlilar» harakatida alohida o'rin tutdilar. Dastlab Turkiyadagi iqtisodiy, siyosiy inqiroz uchun Sulton Abdulaziz javobgar deb, uni taxtdan tushirish va o'rniga yaxshiroq sulton tayinlab, uning «soyasida» Konstitutsiya qabul qilish rejasini bo'yicha ish ko'rdi. 1876- yil 22- mayda qo'zg'olon boshlanib, 30- may kuni shayxul-islom fatvosi bilan Abdulaziz taxtdan tushirildi va bir necha kun o'tgach o'ldirildi. O'rniga islohotlar tarafdori *Murod V* taxtga o'tirdi.

Bolqonda harbiy-siyosiy vaziyat chigallashdi. Ijtimoiy harakat kengaydi. Chernogoriya va Serbiya Turkiyaga qarshi urush

eʻlon qildi. Lekin serblar jangda yengildilar. Rossiya Turkiya bilan slavyan xalqlari janjaliga xalqaro aralashuvni talab qildi.

1876- yilgi Konstitutsiya Murod V salomatligi tufayli taxtdan tushirildi. Oʻrniga xudbin, ayyor *Abdulhamid II* sulton boʻldi. 1876- yil 23- dekabrda Konstantinopolda konferensiya boʻlib, unda Turkiya Konstitutsiyasi eʻlon qilindi. Saylanadigan Deputatlar palatasi va tayinlanadigan Senat tuziladigan boʻldi. Konstitutsiyada xalqchilik unsurlari juda oz edi. Saylov huquqi masalasi ham cheklangan edi. Shunga qaramay, Turkiyaning ilk Konstitutsiyasi ilgʻor tarixiy hodisa edi. Uning asosida ijtimoiy taraqqiyot bir qadam olgʻa tashladi. 1877- yil 19-martda viloyat hokimlari va musulmon ruhoniylar vakillaridan iborat birinchi parlament toʻplandi. U 69 musulmon, 45 gʻayridin vakillardan iborat edi. Parlament sultonga tobelik ruhida ishladi.

Rus-turk urushi va uning oqibatlari

Turk qoʻshinlarining slavyan xalqlari qoʻzgʻolonlarini bostirishda vahshiyliklar qilishi Rossiya siyosatchilariga bahona boʻldi. Turkiyaga qarshi urushga tayyorgarlik boshlandi.



Konstitutsiyaning eʻlon qilinishi. Istanbul. 1876- yil 23- dekabr

Bunga qadar Rossiya xalqaro maydonda o'ziga qulay sharoit yaratib olish uchun kurashdi. Turkiya bilan Rossiya urushadigan bo'lsa, Avstriya-Vengriya betaraf turadigan bo'ldi. Buning evaziga Rossiya Avstriya-Vengriyaga Gersegovina va Bosniyani bosib olishga ruxsat berdi. 1877- yil martida Londonda buyuk davlatlar yig'ilib, Turkiyani xristian xalqlarini kamsitish siyosati olib borishda ayblab, ogohlantiruvchi bitim tuzishdi. Turkiya bu bitimga norozilik javobini berdi. Shundan keyin 1877- yil 4- aprel kuni Rossiya Turkiyaga qarshi urush e'lon qildi. Turk armiyasi katta talafotlar ko'rdi. Turkiya urushda yengildi. Sulton aybni parlamentga yuklab, uni tarqatib yubordi. Shu bilan Turkiya yana sultonning mutloq hokimiyati ostida qoldi.

Rossiya—Turkiya urushi natijalari San-Stefano shahrida imzolangan bitimda qayd etildi. Unga ko'ra, mustaqil Bolgariya davlati tuzilishi haqida kelishildi. Lekin Angliya Bolgariyani Egey dengiziga chiquvchi davlat bo'lishiga qarshi turdi. 1878- yil 4- iyunda Angliya Turkiya bilan «Himoyalani» bitimini tuzdi. Bu hujjatga ko'ra, u Kipr orolini vaqtincha foydalanishga oldi va Egey dengizida o'z nazoratini o'rnatdi.

1878- yil 13- iyunda Yevropa davlatlari va Rossiya Berlin konferensiyasida uchrashib, rus-turk bitimini qayta ko'rib chiqdilar.

Bir oydan so'ng «Berlin traktati» nomli hujjat imzolandi. Bolgariya davlati (Bolqon tog'idan shimolda), Chernogoriya, Serbiya, Ruminiya mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Bosniya va Gersegovina Avstriya-Vengriyaga berildi. Rossiya Ardagan, Kars, Botum shaharlarini oldi. Rossiyaga Turkiyaning katta miqdorda tovon to'lashi belgilab qo'yildi.

Konsessiyalar. XIX asrning oxirgi o'n yilliklarida Turkiya chet el davlatlariga yarim qaram holga tushib qoldi. Rasman Turkiya mustaqil davlat edi. Lekin aslida Angliya, Fransiya, Rossiya, Avstriya-Vengriya, Germaniya o'rtasida «kurash maydoniga» aylandi. 1881- yili Fransiya Tunisni (Turkiyaga qarar edi), Angliya 1882- yili Misrni bosib oldi. Fessaliya Gretsiyaga tegdi. Hududiy yo'qotishlardan tashqari, iqtisodiy qaramlik tobora chuqurlashib bordi. Masalan, Fransiya, Angliya, Germaniya, Avstriya banki va boshqalar Turkiyani qarzga «botirdilar». Chet el sarmoyadorlari

Turkiyada katta qurilishlar bo'yicha ruxsat — konsessiyalar olishar edi. Ayniqsa, nemislar bu sohada katta ulushga ega bo'ldilar. 1888-yili bo'lajak Bag'dod temir yo'li loyihasining Izmir — Anqara qismini qurish ularga tegdi. 1903- yili nemislar bu loyihani (Bag'dod orqali Fors qo'ltig'igacha temir yo'l qurish) to'la qo'lga kiritdilar. Turkiya bozorlari chet el mollari bilan to'ldirib tashlandi. Mamlakat sanoati butunlay izdan chiqdi. Chet el sarmoyasi esa monopolistlarga foyda keltiradigan tarzda ishlatildi. Turk xalqi manfaatlari hisobga olinmadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va milliy harakatning tug'ilishi. «Birlik va taraqqiyot» partiyasining tuzilishi

Abdulhamid II davri Turkiya tarixida «zulm davri» nomini olgan. U parlamentni tarqatib yuborgach, Konstitutsiya tarafdorlarini ham quvg'in qildi, ko'pini o'ldirib yubordi. Nomiq Kamol 1888- yili surgunda o'ldi. Midxat posho Toif shahriga surgun qilinib, ketidan

yuborilgan odam tomonidan bo'g'ib o'ldirildi. Mamlakat jaholat zulmida qoldi. Ko'p millatli Turkiyada milliy zulm, ijtimoiy norozilik kuchaydi. Uning ifodasini *Ali Shafqatbey*, *Ahmad Rizobey* kabi istiqloolchilar faoliyatida ko'rish mumkin. 1889- yili Istanbulda harbiy-medsina bilim yurti kursantlari yashirin «Birlik va taraqqiyot» tashkilotini tuzdilar. Ahmad Rizobeyning «Mashvarat» (kengash) gazetasi atrofida Parijda ilg'or turk muhojirlari to'planishdi. Ular 1891- yilda «Birlik va taraqqiyot» jamiyatini tuzishdi. Tashkilotning sho'balari butun Turkiya bo'ylab tarqaldi va mamlakatda konstitutsiyaviy rejim o'rnatish haqida tashviqot boshlandi. Sulton Abdulhamid II 1897- yili tashkilot ustidan sud uyushtirdi. 13 kishi o'limga, 69 kishi katorga ishlariga hukm qilindi. «Birlik va taraqqiyot» partiyasi a'zolari va shunga o'xshash siyosiy to'garakda ishtirok etganlar umumiy nom bilan «Yosh turklar» deb ataldi. «Yosh turklar» Turkiya tarixida juda katta «iz» qoldirdilar.

Savol va topshiriqlar

- ❓ 1. XIX asr oxirida Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanish sabablarini so'zlab bering.
2. Bolqon xalqlarining Turkiyaga qarshi kurashi qanday kechdi? Ular nimalarga erishdilar?

3. 1871- yildagi hukumat o'zgarishi turk vatanparvarlari faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
4. Nima uchun Turkiya XIX asming 70–80- yillarida iqtisodiy inqirozga uchradi?
5. Turkiya iqtisodiy inqiroz yillarida qaysi davlatlarga tayanib ish yuritdi?
6. 1876- yilgi Konstitutsiya xalqqa qanday manfaat keltirdi? Ushbu Turkiya Konstitutsiyasi boshqa Sharq davlatlari konstitutsiyasidan qaysi islohotlari bilan farq qilardi?
7. Rus-turk urushi nima bilan tugadi?
8. «Bag'dod temir yo'li»ning tarixiy ahamiyati nimada?

Bu nomlarni yodda tuting: Midxat posho, Mahmud Nodim, «Yangi usmonlilar», Abdulaziz, Nomiq Kamol, «Ibrat», Murod V, Bosniya, Gersegovina, Chernogoriya, San-Stefano, Ardagan, Kars, Botum, Bag'dod temir yo'li, Ali Shafqatbey, Ahmad Rizobey, «Birlik va taraqqiyot».

33- §. XX asr boshlarida Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli

Mamlakatdagi ichki ahvol

XX asr boshlariga kelib Turkiya rivojlangan davlatlarning yarim mustamlakasiligicha qolaverdi. Bu narsa mamlakatda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi bilan bir yo'nalishda ketdi. Lekin xorijiy monopolistlar tomonidan ekspluatatsiyaning kuchaytirilishi mamlakatda milliy ishlab chiqarishning asosiy to'sig'i edi. Xorijiy kapitalistlar zulmi Turkiyada ekspluatatsiya qoldiqlari bilan, shuningdek Abdulhamid II mutloq mustabid tuzumi bilan chambarchas bog'langan edi. Turkiyadagi haydaligan yerlarning 65 foizi katta yer egalariga va musulmon ruho-niylariga qarashli edi. Bu yerlarning katta qismi yersiz va kam yerli dehqonlarga ijaraga berilardi. Eski tuzum qoldiqlarining mavjudligi ichki bozorning «torligini» taqozo etar va mamlakatda kapitalistik sanoatning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

Usmonli turk imperiyasida inqilobiy harakat yetilishining o'ziga xos tomonlari bor edi. Turklar imperiya aholisining uchdan bir qismini tashkil etardilar. Mamlakatning turli viloyatlari

orasidagi iqtisodiy aloqalar sekin rivojlanmoqda edi. Turk adabiy tili imperiyada yashovchi barcha xalqlarga birday tushunarli emas edi.

Turkiyada paydo bo'lgan savdo burjuaziyasining (asosan komprador burjuaziya) ko'pchiligi turklardan bo'lmay, yunon va armanlardan iborat edi. Turk milliy burjuaziyasi XX asr boshlariga kelib shakllana boshladi, lekin hali zaif va kam sonli edi. Bu davrda tashkil topayotgan ishchilarning ham soni 40—50 ming kishidan oshmas, ular tarqoq holda joylashgan bo'lib, ularning orasida turk millatiga mansub kishilar kam edi.

Turkiyada milliy burjuaziyaning kuchsiz rivojlanganligi, fabrika sanoatining deyarli yo'qligi, milliy burjuaziyaning sudxo'rlik xarakteri va pomeshchik yer egaligi bilan bog'langanligi xalq ozodlik harakatida o'z ifodasini topdi. Milliy burjuaziya bu harakatga rahbarlik qilgan bo'lsa-da, ammo xorijiy monopolistlar hukmronligiga qarshi chiqmadi va dehqonlarning yer bo'yicha talablarini qo'llay olmadi. Ularning talablari asosan «Birlik va taraqqiyot» partiyasi dasturlarida aks etgan bo'lib, Turkiyada parlamentli konstitutsiyaviy monarxiya tuzumini o'rnatish va Abdulhamid II hokimiyatini ag'darishga qaratilgan edi, xolos.

Usmonli turk imperiyasidagi siyosiy harakatlar imperiya tarkibida milliy mustaqil davlatlar, jumladan Turkiya mustaqil davlatini tashkil etmasdan turib, taraqqiyot yo'liga chiqib olish mumkin emasligini ko'rsatdi. Turk milliy burjuaziyasi shovinistik yo'ldan borib, boshqa millatlarning taraqqiyparvar harakatini birlashtira olmadi.

Ana shunday bir sharoitda Rossiya va Eronda bo'layotgan inqilobiy voqealar Turkiyaga ham katta ta'sir ko'rsatdi. «Yosh turklar» asoschilaridan biri *Abdulla Javdat* o'z vatandoshlariga murojaat qilib, «Barcha ezilgan musulmon va musulmon bo'lmaganlar birlashingiz!» — deb xitob qildi.

«Yosh turklar» inqilobiy harakatining vujudga kelishi. Inqilobning boshlanishi va borishi

Mamlakatda aholining bir necha qatlamini o'z ichiga olgan bu istiqloqlchilik harakati «Yosh turklar» nomini olgan edi. «Yosh turklar»ning birinchi qurultoyi 1902- yili Parij shahrida bo'ldi.

Unda 1867- yili bekor qilingan konstitutsiyani tiklashga qaror qilindi. Ko'pgina boshqa masalalarda «Yosh turklar» bo'linib ketishdi.

«Yevropacha yoʻl»dan borish tarafdorlari «Markazdan qochish va shaxsiy tashabbus ligasi» tashkilotini tuzdilar, boshqa guruh «turkparastlik» va islomiy rivojlanish yoʻlini tutdi. Boʻlajak inqilobiy harakatlarning yoʻlboshchisi *Mustafo Otaturk* «Vatan» nomli tashkilot tuzdi. Tashkilot «Yosh turklar» harakatiga birlashib ketdi.

1907–1908- yillarda Turkiyada inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. Bu vaqtda Makedoniyada qoʻzgʻolon ketayotgan edi. Avstriya-Vengriya Makedoniyaning «tanobini tortib qoʻyish» uchun unga hujum qilmoqchi edi. Angliya va Rossiya german davlatlarining bunday yoʻl bilan Bolqonda kuchayib ketishiga yoʻl qoʻymaslikka kelishib olishdi. Sulton Abdulhamid II milliy ozodlik kurashchilariga qarshi hech qanday chora koʻrmadi. Xorijiy monopollarning daʼvolariga ham biror aytarli javob berishga oʻzlik qildi. Shu sharoitda «Yosh turklar» tashabbusni qoʻlga olishga qaror qildilar.

1908- yil 3- iyul kuni *Niyozbey* birinchi boʻlib harakat bayrogʻini koʻtardi. U «Birlik va taraqqiy» tashkiloti aʼzosi, harbiy garnizon qoʻmondoni edi. Sulton armiyasi Bosh shtabi aʼzosi *Anvarbey* uni quvvatlab, qoʻzgʻolon koʻtardi. Qoʻzgʻolonchilarni makedon, alban partizanlari ham quvvatlashdi. Sulton qoʻzgʻolonga qarshi hech narsa qila olmadi. 20- iyulda sultonga Konstitutsiyani tiklash talabi yozilgan telegramma yoʻllandi. Lekin sulton bu talabni bajarmadi.

Konstitutsiyaning tiklanishi

1908- yil 20- iyulda Monastir shahrida «Birlik va taraqqiy» partiyasi tantanali bir vaziyatda Konstitutsiya tiklanganligini eʼlon qildi va sultondan bu masalada farmon berishini talab qildi. Armiya «Yosh turklar» tomonida ekanligi Abdulhamidni choʻchitib qoʻydi. U 1908- yilning 24- iyul kuni «Iroda», yaʼni qarorini eʼlon qilib, Konstitutsiyani tikladi. Parlamentga saylov oʻtkazishni vaʼda qildi. 1908- yili Turkiya inqilobi gʻalaba qildi. Chunki u mamlakat taraqqiyotining eng muhim muammolarini ifodalagan edi. «Yosh turklar» hokimiyat tepasiga keldilar.

Inqilobda xalq ommasining talablari toʻla qondirilmadi. «Yosh turklar» inqilobning chuqurlashuvidan choʻchidilar. Boʻlib oʻtgan saylovlarda «Yosh turklar» 262 oʻrindan 150 tasini

egalladilar. Ammo bu ko'pchilik ovozdan parlamentda yaxshi foydalana olmadilar. Ular keng omma ehtiyojlarini, tub demokratik o'zgarishlar zarurligini chuqur tushunib yetmadilar.

1909- yilgi aksilinqilobiy isyon

«Yosh turklar» adliya, huquq, maorif sohalarida islohotlar o'tkazish yo'lidan bordilar. Ruhoniylar va ba'zi feodal

doiralar bunga qarshi edilar. 1909- yil 13- aprelda Davlat to'ntarishi bo'ldi. Abdulhamid taxtdan tushirildi. O'rniga *Mehmed V Rishod* taxtga o'tirdi. «Yosh turklar» hokimiyatni to'la qo'lga kiritdilar. 23-iyul Milliy ozodlik kuni deb e'lon qilindi.

«Yosh turklar» Konstitutsiyaga jiddiy o'zgarishlar kiritishdi. Parlament huquqlari kengaydi.

Ijtimoiy harakat doirasida ishchilarning dastlabki tashkilotlari paydo bo'ldi. Lekin bu ommaviy harakatga jiddiy ta'sir etmadi.

Buyuk davlatlarning Turkiya inqilobiga munosabatlari

«Yosh turklar» hokimiyat tepasiga keldi. Biroq, xalq ommasining talablari to'la qondirilmadi. Italiya Tripolitaniyani qaytarib oldi. Bularda «Yosh turklar»ni

ayblagan inglizlarga xayrixoh «Hurriyat va birdamlik» partiyasi 1912- yilda davlat to'ntarishi qildi. Turkiya Tripolitaniya va Kirenaika, Shimoliy Afrikadagi yerlarini Italiyaga topshirdi. Bu yerlar «Liviya» nomi ostida Italiyaning mustamlakasiga aylandi (Lozanna bitimi — 1912- yil 15- oktabr). Lekin Turkiya tinchlikka erisha olmadi. Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya, Gretsiya birgalikda Turkiyaga urush e'lon qildilar (Birinchii Bolqon urushi). Turkiyaning Makedoniya va Frakiyaga muxtoriyat bermagani urushga bahona bo'ldi. Urush Bolqon mamlakatlari foydasiga hal bo'ldi. Bolqon yerlari g'oliblar o'rtasida taqsimlandi. Albaniya mustaqil knazlik deb e'lon qilindi (1913- yil 29- iyun, London bitimi). Lekin Bolqon davlatlari o'zaro taqsimlashda kelisha olmay urush boshlab yuborishdi (Ikkinchi Bolqon urushi).

Vaziyatni nazorat qila olmagan «Hurriyat va birdamlik» hukumatini 1913- yil yanvarda Anvar posho isyon ko'tarib ag'darib tashladi. Yana hukumat tepasiga «Yosh turklar» keldi. Mamlakatda Germaniya ta'siri kuchaydi. 1913—1914- yildan «Yosh turklar» harakatiga qarshi kurash boshlandi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlarida Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday edi?
 2. Nima uchun boshqa mamlakatlarning milliy burjuaziyasiga nisbatan turk milliy burjuaziyasi sekinlik bilan shakllandi?
 3. 1908- yilgi «Yosh turklar» inqilobi qanday sabablar bilan boshlandi?
 4. 1876- yilgi Konstitutsiya turk xalqi uchun qanday imkoniyatlar yaratdi? Hukumatning bu Konstitutsiyaga qarshi chiqishdan maqsadi nima edi?
 5. 1908- yilda Konstitutsiyaning tiklanishi va 1909- yilgi aksilinqilobiy isyon boshlanishining asosiy sababi nimada edi?
 6. Qanday sabablarga ko'ra 1909- yilda aksilinqilobiy isyon yuz berdi? Bu isyon kimlarga qarshi qaratilgan edi?
 7. Turkiya inqilobiga Yevropa davlatlarining munosabati qanday edi?
 8. Birinchi jahon urushi arafasida Turkiya qanday pozitsiyada bo'ldi? Uning urushdagi ishtiroki qanday manfaatlarni ko'zladi?

Bu nomlarni yodda tuting: Abdulla Javdat, Mustafu Otaturk, «Vatan», Niyozbey, Anvarbey, «Iroda», Mehmed V, Tripolitaniya, Kirenaika, I Bolqon urushi, II Bolqon urushi, «Yosh turklar», Abdulhamid II.

Bahs yuriting: «Yosh turklar» inqilobi Turkiyaga nima berdi?

13- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA AFRIKA MAMLAKATLARI

34- §. Arab mamlakatlari

**Arab mamlakatlarining
ijtimoiy-iqtisodiy va
siyosiy ahvoli**

Afrikaning shimoliy qismida, Sahroi Kabirning janubiy chegarasiga qadar aholining ko'pchiligini arablar tashkil etardi. Bu hududda barbarlar, efioplar

va boshqa xalqlar ham yashardi.

XIX asrning 70- yillariga qadar Afrikaning shimoli va shimoli-sharqida, ya'ni arablar yashovchi hududlarda mutlaq podsholik tuzumlari hukm surardi. Ular orasida rasman Usmoniy turk

imperiyasi tarkibiga kirgan Misr, Tripolitaniya, Kirenaika(hozirgi Liviya) va Tunis Turkiya sultoniga amalda itoat etmasdilar.

Arablar dehqonchilik va chorvachilik bilan mashgʻul edilar. Ular omoch bilan yer haydab, ekin ekardilar, suv inshooti qurib, qaqroq yerlarga suv chiqarardilar. Arablar orasida tikuvchilik, temirchilik va kulolchilik kabi hunarmandchilik kasblari keng tarqalgan edi. Arablar ayniqsa, qilich, qalqon yasashda mohir edilar.

Suriya va Liviyaning yarim mustamlakaga aylantirilishi

Turkiya sultoni Abdulhamid II davri Suriyaning ahvoliga yomon taʼsir etdi. Ogʻir siyosiy-iqtisodiy ahvol xalqqa koʻp azob-uqubat keltirdi. Koʻplab suriyaliklar Vatanni tark etib, chet ellarga ketishga majbur boʻldilar. Turkiya hukmronligidan tashqari, Suriya Yevropa va AQSH imperialistlari zulmidan ham azob cheka boshladi. Bayrutdagi port inshootlari, temir yoʻl qurish ishlari, ipak tola fabrikasi, Bayrut elektrostansiyasi, Damashq suv taʼminoti, telegraf, telefon tarmoqlari, tamaki monopoliyasi, bular hammasi fransuz sarmoyadorlari qoʻlida edi. Suriyaga fransuzlar 1914- yilda 200 million frank kapital kiritgan edilar. Katta qaramlikka qaramay Suriyada XX asr boshlariga kelib kapitalistik munosabatlar yuzaga kela boshladi. Mahalliy sarmoyadorlar paydo boʻldi. Milliy ozodlik harakati boshlandi.

XIX asr oxirida Usmonli turk imperiyasining Afrikadagi yerlari Tripolitaniya va Kirenaikaning qirgʻoq boʻylari bilan cheklangan edi. Mamlakat ichkarisida esa *Muhammad bin Ali as-Senusiy al-Mahdiy* avlodlari — senusiylar knazligi hukmron edi. Knazlikning 145 viloyati bor edi. 1901 yilda Mahdiyning jiyani *Ahmad* hokimiyat tepasiga keldi. Ahmad 10 yil davomida fransuzlarning nayranglarini va harbiy daʼvolarini qaytarib turdi. Bu orada Italiya Tripolitaniyaga qoʻshin tortib kelmoqda edi. Uning maqsadi Shimoliy Afrikada «tayanch nuqta»ga ega boʻlish edi.

Suriya va Liviyadagi milliy ozodlik harakatlari

Suriya vatanparvarlari *Aziz al-Misriy* atrofida toʻplandilar. «Kaxtaniya» jamiyati tuzildi. Jamiyat Suriya-Usmonli turk qoʻsh davlati tuzishni talab qildi. Ammo bu yoʻl bilan milliy ozodlikka erishib boʻlmas edi. Yangi-yangi tashkilotlar, partiyalar paydo boʻldi. *Rafiq*

al-Azm «Lomarkaziya» tashkilotini tuzdi (bu tashkilot arab mamlakatlarini turk hukmronligidan ozod qilish yo'lini targ'ib qildi). 1911- yilda «Yosh arablar» jamiyati tuzildi. Uning «Fatat» nomli tashkiloti madaniy-oqartuv, targ'ibot ishlari bilan shug'ullandi. 1913- yili Parijda muhojirlikdagi «Arablar kongressi» tashkiloti tuzildi. Xuddi shu yili Aziz al-Misriy «Ahd» tashkilotini tuzdi.

Liviyada Ahmad kurashni davom ettirdi. Uning harbiy otryadlari bir qancha muhim rayonlarni egallab, italiyaliklardan «tozaladi». Al-Mahdiyning o'g'li *Idris* kurashga qo'shildi. U Liviyaning janubida o'z hukmronligini o'rnatdi. Italiyaliklar bilan bitim tuzib, hokimiyatiga rasmiy tus berdi. Lekin Idris bitimini Ahmad (Idrisning amakisi, al-Mahdiy o'lganda — 1901- yili Idris yosh bo'lgani uchun taxtga chiqqan edi) tan olmadi va liviyalik arablarning mustaqillik uchun kurashi yana ko'p yillar davom etdi.

Arabistonda Angliya ta'sirining kuchayishi, ozodlik harakatlari

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Yaman inglizlar qo'lida edi. Hijozda ingliz qo'shinlari turardi. Makka shariflari hokimiyati ham cheklangan

edi. 1908- yili Dimishq — Madina temir yo'li qurilishi tugallandi. «Yosh turklar» inqilobidan keyin Makkaga Hoshimiylar avlodi *Husayn* sharif qilib qo'yildi. Husayn Istanbul ko'rsatmalari asosida ish ko'rdi. U Adan va Yaman o'rtasida chegara o'tkazish bahonasi ostida Qizil dengiz bilan Fors qo'ltig'i rayonida va undan janubdagi arab yerlari ustidan to'la hukmron bo'lib oldi. Omanda inglizlarning mavqei kuchaydi. Sulton Maskati Angliyadan boshqa hech bir davlatni o'z yerlariga kiritmaslikka va'da berdi. Bu ham protektorat degan gap edi. 1899- yili Quvaytda davlat to'ntarishi bo'ldi. Yangi shayx Muborak inglizlar protektoratini qabul qildi. Germaniya Quvaytgacha temir yo'l qurish rejasi uchun kurashib, Angliyaning Quvaytga nisbatan alohida huquqlarini tan olmasligini bildirdi. Lekin Turkiya inglizlar do'q-po'pisalaridan qo'rqib, Quvaytdan voz kechdi. Bu hol Germaniyani biroz sabr qilishga majbur qildi. 1913- yil 19- iyulda imzolangan Angliya — Turkiya bitimiga ko'ra, Quvayt Turkiyaning «muxtorig' viloyati» deb belgilab qo'yildi. Lekin Turkiya Quvaytning ichki ishlariga aralashmasligi kerak edi.

Arabistondagi qo'zg'olon Arabiston yarimorolida xorijiy mam-lakatlarning zo'raonliklari milliy ozodlik kurashini kuchaytirib yubordi. 1891- yilda Yamanda *Zaydiylar* qo'zg'oloni boshlandi. Yaman qabilasi Sanoni egalladi. Turk generali *Fayziy* jazo yurishi qildi. 300 dan ortiq qishloq vayron qilindi. Fayziy chaqirib olinib, o'miga *Hiloliy* qo'mondon etib tayinlandi. Hiloliy «yumshoqroq» siyosat olib bordi. Lekin arablarning kurashi to'xtamadi. Yamanliklarning yangi imomi *Yahyo ibn Muhammad* 1904- yilda qo'zg'olon ko'tardi. U Sano shahrini topshirishni turk ma'murlaridan talab qildi. General Fayziy qo'shini yana qo'zg'olonchilarga qarshi yuborildi. Yamanliklar turk qo'shinlarini qirib tashlay boshladilar. Buning ustiga turk armiyasidagi arab askarlar jang qilishdan «bosh tortib», qo'zg'olonchilar tomoniga o'tib ketdilar. «Yosh turklar» hukumati ham qo'zg'olonni bostirishga erishmadi. Nihoyat, 1911- yilda *general Izzat* imom Yahyo bilan bitim tuzdi. Yahyo Turkiyaning arab sunniy musulmonlari ustidan hukmronligini tan oldi.

Turkiyaning Arabiston yarimorolidagi hukmronligiga vahhobiylar davlatining tiklanishi yanada kuchli zarba bo'ldi. 1902- yilda Saudiylar sulolasi vakili *Abdulaziz (ibn Saud)* vahhobiylar poytaxti bo'lgan Ar-Riyod shahrini bosib oldi va o'zini shoh deb e'lon qildi. Ibn Saud hukmronligi 1902- yildan 1953- yilgacha davom etdi. U dastlab Rashidiylarga, keyin esa turk hukmronligiga qarshi kurash olib bordi. Ibn Saud o'z kurashida turklarga qarshi kuchlarni birlashtirdi. Imperialistik davlatlar va Turkiya o'rtasidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalandi. Ko'chmanchi badaviylardan o'ziga tayanch politsiya kuchlari tuzdi. 1913- yili Ibn Saud Turkiya-ning Bolqon urushidagi og'ir ahvolidan foydalanib, Xosni o'ziga qo'shib oldi va dengizga chiqish imkoniga ega bo'ldi.

Misrning asoratga solini-shi. Misrda Orabibey boshchiligidagi ozodlik harakati

Misrning XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi tarixi Turkiya hukmronligidan ozod bo'lish va ingliz mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash bayrog'i ostida o'tgan o'zgarishlar davri bo'ldi. Misr arablari milliy ozodlik harakatining asosiy kuchlari quyi va o'rta unvonli harbiylar, sarmoyador savdo ahli, ruhoniylarning ilg'or qatlami, ziyolilar hamda qo'shinga askar sifatida olingan Misr dehqonlari — fallohlar edi. Xalq ommasi

ijtimoiy jihatdan yaxshi uyushmagan edi. Shu sababli armiya tashkiliy uyushgan kuch sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Musulmon ruhoniylardan al-Azhar madrasasida mudarris bo'lgan *Jamoliddin al-Afg'oniy* va uning shogirdlari milliy ozodlik harakatida katta obro' qozondilar. Ular barcha musulmonlarni mustamlakachilarga, Turkiya zulmiga qarshi birlashuvga, konstitutsiyaviy tuzum o'rnatilishiga, islom dinini zamon ruhida isloh qilish g'oyalariga amal qilishga chaqirdilar. 1871- yilda Jamoliddin al-Afg'oniy tomonidan «Hizb ul-Vatan» («Vatan» partiyasi) tuzildi. Bu partiya chet elliklarga qarshi «Vatan misrliklarniki» shiori ostida ish ko'rdi.

Uzoq muddat maosh olmagan ofitserlar ish haqlarini, yevropaliklarga tobe hukumatni ag'darishni talab qilishdi. Misming Turkiya tomonidan qo'yilgan hokimi — *Xadiv Ismoil* (Misrda davlat boshlig'i Xadiv deb atalardi) hukumatni o'z qo'liga oldi. «Vatan» partiyasi vakili *Sharif Bosh* vazir etib tayinlandi. Unga Konstitutsiya tuzish topshirildi. Misrdagi demokratik o'zgarishlardan cho'chigan Angliya, Fransiya, Germaniya Turkiyaga tazyiq qildilar. Turk sultoni 1879- yil 25- iyunda *Ismoilni* olib tashlab, o'rniga uning o'g'li *Tavfiqni* qo'ydi. Sharif tuzgan Konstitutsiyani Tavfiq rad etdi. Demokratik ozodlik harakati ancha to'sqinliklarga uchradi. 23-sentabrda Sharif iste'foga chiqdi va o'rniga *Riyoz posho* keldi. Lekin bu vaqtincha edi. 1881- yili vatanparvar Misr ofitserlarining rahbari *Ahmad Orabibey al-Husaymi* qamash haqida Farmon chiqdi. Lekin harbiy garnizon bunga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Reja yuzaga chiqmadi. Harbiy vazir *Mahmud Sami al-Barudiy* iste'foga chiqarildi. Uning ishdan bo'shatilishiga qarshi Ahmad Orabibey 4 ming qo'shin bilan hukumat saroyini o'rab olib, islohotlar o'tkazishni talab qildi. Riyoz posho iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. O'rniga Muhammad Sharif Bosh vazir bo'ldi. Butun Misr siyosiy kurashlar maydoniga aylandi. Yangi saylovlar o'tkazildi. 1866- yilgi saylov qonuniga muvofiq, mulk me'yori (senzi) qoidasiga amal qilindi. 82 deputatning barchasi eng boy-badavlat kishilardan iborat bo'lib chiqdi. Sharif Konstitutsiyasi yana rad etildi. Chunki bu Konstitutsiya ham demokratik ruhda emas edi. Masalan, unda «qonunlarni ijro etish Xadiv qo'lida qolsin, parlament Xadivga bo'ysunishi kerak» kabi qoidalar bor edi. «Vatan»chilar esa «Xadiv

parlament oldida javobgar bo'lsin», degan talabni qo'ydilar. Ahvol tanglashdi. Sharif iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Barudiy Bosh vazir, Ahmad Orabibey esa Harbiy vazir etib saylandi. 1882- yil 7- fevral kuni Xadiv yangi qonunga imzo chekdi. Unga ko'ra hukumat Deputatlar palatasiga bo'ysunadigan, parlament budjet ustidan nazorat qilish huquqini oldi, birorta qonun Deputatlar palatasi ruxsatisiz qabul qilinmaydigan bo'ldi. Bularning hammasi yangicha parlament tuzumiga o'tish yo'lidagi ulkan g'alaba edi.

Misrdagi milliy ozodlik harakatiga qarshi Angliya va Fransiya harbiy flotlari yetib keldi. Ular Misr hokimi va hukumatiga ultimatum yuborib, amaldagi hukumatni tarqatishni, Orabibeyni surgun qilishni talab qilishdi. Tavfiq hukumatni tarqatishga farmoyish berdi. Biroq, bu farmoyishga qarshi mamlakatda namoyishlar boshlanib ketdi.

Tavfiq Ahmad Orabibeyni vazifasiga tiklashga majbur bo'ldi. Xadiv va uning tarafdorlari bo'lgan yirik mulkdorlar, sobiq Bosh vazir Sharif va boshqalar Iskandariyaga qochib ketib, o'zlarini inglizlar qo'liga topshirdilar. Angliya Misrni yolg'iz o'zi bosib olishni niyat qilgan edi. Shuning uchun fransuzlar flotini qaytib ketishga majbur qildi. 1882- yil 11- iyul kuni inglizlar Iskandariyani to'plardan o'qqa tutdilar. Britaniya desanti shaharni egalladi. Ahmad Orabibey ishdan olinib, «isyonkor» deb e'lon qilindi. Bunga qarshi Ahmad Orabibey Qohirada oliy davlat organi vazifasidagi Muvaqqat kengash tuzdi. 60 ming kishilik qo'shin to'pladi. Murakkab vaziyatda Ahmad Orabibey ba'zi xatolarga yo'l qo'ydi. Shimolga kuch tashlab Sharqiy qirg'oq (Suvaysh tomon)ni himoya qilishga ulguradi. Orabibey Suvaysh kanalini «betaraf zona» deb hisoblovchi qonun borligi tufayli qat'iyatsizlik qildi. Bu



Suvaysh kanali

qonuni urush holatida buzib bo'lsa ham, Suvayshni himoya qilish kerak edi. Inglizlar bu bo'shanglikdan darhol foydalanib, 1882-yil 7- avgustda Suvayshni bosib oldilar. Ingliz qo'mondonligi Qohiraga yurish boshladi. 1882- yil sentabrda Misr qo'shinlari yengildi. Qo'zg'olonchilarning ko'pi qirib tashlandi, polkovnik Ahmad Orabibey umrbod Seylon oroliga surgun qilindi. Muvaqqat hukumat taslim bo'ldi. Shunday qilib, Misr inglizlar mustamlakasiga aylandi.

Angliya Misrda Usmonli turk imperiyasi hokimiyatini rasman tugatmadi. Misr xadivlari sulolasi, Vazirlar kengashi nomiga bo'lsa ham saqlandi. Misr tashqi qarzlarini to'lash bo'yicha Germaniya va Rossiya komissarliklari tuzildi. Moliya ustidan nazorat to'laligicha ingliz maslahatchilarga o'tdi.

1888- yil 29- dekabrda Istanbulda Suvaysh kanalidan foydalanish bo'yicha Angliya, Germaniya, Ispaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Fransiya davlatlari konvensiya imzoladilar. Unga ko'ra kanaldan barcha davlatlar xoh urush, xoh tinchlik paytida erkin foydalanish huquqini olishdi. Kanalni qo'riqlash vazifasi Misrga topshirildi.

Angliya Misrda «agent, Bosh konsul» lavozimiga ega o'z noibini tayinladi. 1883—1907- yillarda Kromer shu lavozimda edi. Misr armiyasi qayta tuzildi. Uning barcha oliy ofitserlari inglizlardan iborat edi. Misr politsiyasi ham shu tarzda yangilandi. Angliya noibidan tashqari, har bir vazirlik, hatto viloyat hokimlari qoshida ingliz nazoratchilari bor edi. Sug'orish inshootlarini inglizlar o'z qo'llariga oldilar.

Angliya Misrni talash, xalqini ekspluatatsiya qilishning turli yo'llarini ishga soldi. 1902- yili Asvon to'g'oni va suv ombori qurildi. Yil bo'yi sug'orish ishlari yo'lga qo'yildi. Paxtachilik o'sdi. Uzun tolali qimmatbaho Misr paxtasi yetishtirila boshlandi. Bu tadbirlar beryoqlamali bo'lib, sizot suvlarning hamda tuzlarning ko'tarilishiga olib keldi. Dehqonchilik qiyin ahvolda qoldi. Monokultura tufayli qishloq xo'jaligining paxtadan boshqa sohalari xonavayron bo'ldi. Shunga qaramay, Misrda mahalliy burjuaziya shakllanib, savdo va qishloq xo'jaligiga kapitalistik munosabatlar kirib kela boshladi.

1882- yildan keyin Misrda ijtimoiy harakatlar markazi dastlab bosqinchilarga qarshi siyosiy kurash yo'lini rad etuvchi ma'rifatparvar *Muhammad Abdo* atrofida to'plandi. U islom dinini

zamonaviylashtirish, Misr hayotini yevropalashtirish g'oyasini ilgari surdi. Ikkinchi oqim boshida esa *Mustafo Komil* turdi. Bu oqim mustamlaka tizimini yo'qotish, konstitutsiyaviy davlat talabi bilan chiqdi. Lekin keng xalq ommasiga suyanmagan bu harakat tor milliy burjuaziya va ziyolilar bilan cheklandi. *Ahmad Lutfi Sayid* boshliq oqim esa vatanparvarlik g'oyalari uchun kurashib, xalqning ongini ko'tarishga, qadimgi Misr madaniy merosini tiklashga harakat qildi. Uning fikrlari hozirga qadar hurmatga loyiq hisoblanadi.

Turli milliy ozodlik g'oyalari ommaga ta'sir ko'rsatdi. 1906- yili *Denshavay* qishlog'i dehqonlari inglizlarning zo'ravonligiga qarshi bosh ko'tardilar. Ularga qarshi qattiq jazo choralari ko'rilib, falohlardan to'rt kishi qatl etildi. «Denshavay voqealari» Misr xalqining milliy uyg'onishiga turtki bo'ldi. Ko'plab namoyishlar, g'alayonlar bo'ldi. 1906—1907- yillarda Kromer (agent, Bosh konsul) o'rnatgan va 1883- yildan boshlab hukm surgan mustamlaka tizimi larzaga keldi. Kromer Angliyaga chaqirib olindi.

Komil «Hizb ul-Vatan»ni («Vatan» partiyasi) tuzdi. 1907- yil dekabr oyida Qohirada «Milliy kongress» partiyasi tuzildi. Uning hujjatlarida Misming mustaqillik g'oyasi aks etgan edi. Ahmad Lutfi Sayid «Hizb al-Umma» nomli partiya tuzdi. Bu partiya yana o'z rahbarining ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan o'ralashib qoldi. Milliy ozodlik uchun kurashning faol tarafdori bo'lgan «Vatan» partiyasi inglizlar nazarida eng xavfli bo'lib chiqdi. Uni kuchsizlantirish uchun keskin choralar ko'rildi. «Vatan» partiyasi keng siyosiy kurash yo'lidan yakka terror yo'lga o'tib ketdi. 1910—1912- yillarda uning a'zolari bir qator reaksion vazirlarni o'ldirishdi. Bunga javoban tashkilotga hujum boshlandi. Uning faollari chet ellarga qochishga majbur bo'ldi. Partiyaning «Al-Liva» («Bayroq») gazetasi taqiqlandi.

Ammo ozodlik harakati boshqa ko'rinishlarda davom etdi. Xususan, 1913- yilda qonun chiqaruvchi Majlisga saylov bo'lib, uning minbaridan ochiq kurash uchun foydalanildi. Majlis vitse-prezidenti *Saad Zaglul* demokratik, milliy ozodlik ruhidagi deputatlarni o'z atrofida to'plab, Majlis nomidan ingliz hukmronligiga qarshi hujjatni o'tkazishga erishdi. Hujjatda inglizlarning mamlakatdan chiqib ketishlari talab qilingan edi. Bu ham o'sha davr uchun katta yutuq edi.

Savol va topshiriqlar

?

1. XIX asr boshlarida arab mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli qanday edi?
2. Nima uchun arab xalqlari usmoniyar hukmronligidan azob chekardi?
3. Afrikaning shimoli va shimoli-sharqida yashovchi arablar qanday qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirardilar?
4. Nima uchun arab hududlarida turklarning hukmronligiga qaramasdan AQSH va Yevropa mustamlakachilari suqulib kirishga intildilar?
5. XX asr boshlarida arab xalqlari mustamlakachilarga qarshi qanday nomlarda kurash olib bordilar?
6. Milliy ozodlik harakati yo'l boshchilaridan kimlarni bilasiz?
7. 1908- yilda Dimishq — Madina temir yo'li qanday maqsadlar va kimlarning manfaati uchun qurildi?
8. Mustamlakachilarning jabr-zulmi tufayli Arabistonda qanday norozilik harakatlari bo'ldi? Bu harakatlar nima bilan yakunlandi?
9. Misr boshqa Arab mamlakatlaridan nimasi bilan farq qilardi? Ahmad Orabibey boshchiligidagi ozodlik harakati kimlarga qarshi qaratilgan edi?
10. Birinchi jahon urushi arafasida Arab mamlakatlari siyosiy va iqtisodiy jihatdan qanday ahvolda edi?

Bu nomlarni yodda tuting: Tripolitaniya, Kirenaika, Muhammad al-Mahdiy, senusiylar, Aziz al-Misriy, «Kaxtaniya», Rafiq al-Azm, «Yosh arablar», «Fatat», «Lomarkaziya», «Arablar kongressi», «Ahd», Idris, «Arab inqilobi», «Dimishq protokoli» Husayn, Sulton Maskati, Zaydiylar, Fayziy, Yahyo ibn Muhammad, Jamoliddin al Afg'oniy, «Hizb ul-Vatan», Ismoil, Tavfiq, Xadiv, Ahmad Orabibey, Barudiy, Denshavay voqealari, Kromer.

35- §. Mahdiylar qo'zg'oloni va Sudanning Angliya tomonidan egallanishi

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Sharqiy Sudan Misr qaramog'ida edi. Yevropalik bosqinchilar xavf solgan 1881- yil mayida sudanliklarning yetakchisi *Muhammad Ahmad* xalqni Misr — Turkiya zulmiga hamda yevropaliklarga qarshi g'azotga — «muqaddas urush»ga chaqirdi. Muhammad Ahmad o'zini *mahdiy* deb e'lon

qildi. Uning ansorlari (yordamchilari) qo'zg'olonga da'vat qilishdi. Misr tomonidan qo'yilgan gubernator Rauf qat'iy chora ko'rolmadi. Uning Mahdiyini qamash uchun yuborgan 200 kishilik harbiy guruhi yo'q qilib tashlandi. Muhammad Ahmad boshchiligidagi Sudan ozodlik harakati 1881—1885- yillarni o'z ichiga oldi. Chorvador, dehqon, hunarmand, o'troq va ko'chmanchi xalq Mahdiy ortidan ergashdi. Ularning barchasiga tenglik va'da qilingan edi.

1882- yilda Xartumga Misr «Vatan» partiyasi hukumati nomidan *Abdul Qodir* general-gubernator bo'lib keldi. U mahdiylar harakatini bostirishga urindi. Lekin mag'lubiyatga uchradi. Bu orada inglizlar Misrni bosib oldilar. 1883- yil 5- noyabrda general Xiks boshliq ingliz qo'shini ham Sudan ansorlari tomonidan El-Obeyd yonida qirib tashlandi. Sudanliklar qo'zg'oloni Ko'k Nil daryosi bilan Qizil dengiz orasidagi hududlarga ham yoyildi. Bu yerda *Usmon Digna* boshliq qo'zg'olonchilar Misrning ingliz S. Beyker boshchiligidagi 10 ming kishilik qo'shinini tor-mor qildilar. 1884- yili inglizlar Sudanga o'z vakillari Gordonnini yuborishdi. U soliqlarni kamaytirish, qarzlarni ro'yxatini yo'q qilish, qarzini to'lolmay qamalganlarni ozod qilish kabi yolg'on va'dalar bilan sudan-



El-Obeyddagi mahdiylar qarargohi

liklarni aldamoqchi bo'ldi. Xalq unga ishonmadi. Ansorlar Barbarni bosib olishdi. Xartumga, Gordonga yordam uchun yuborilgan qo'shin ham ansorlar tomonidan yo'q qilindi. General Gordon o'ldirildi. Uolzli Misr chegarasiga chekindi. Sudan amalda xalq qo'zg'oloni bilan ozod qilindi.

1885- yildan boshlab Sudanda mustaqil mahdiylar davlati tuzildi. Qo'zg'olon rahbari mahdiy Muhammad Ahmad vafot etib, uning birinchi xalifi (xaliflari to'rtta edi) *Abdulloh* hokimiyatga keldi. Omdurman shahri poytaxt qilindi. Bir necha boshqarmalar tuzildi. Bularning ichida xazina boshqarmasi eng muhimi edi. Mamlakat viloyatlarga bo'lindi. 200 ming kishilik qo'shin davlatning asosiy tayanchi edi.

Qo'zg'olonni amalga oshirib, mustaqillikni ta'minlagan oddiy xalq tenglik orzusiga yetishmadi. Mustaqillik bosqichida mahdiylik harakati boylar va mustabid hukmdorlar foydasiga ishlay boshladi. Xalif Abdulloh qo'zg'olonga qadar oddiy bir fuqaro edi. 1885- yildan keyin u Sudanning eng boy kishisiga aylandi. Abdulloh o'zining baggara qabilasi odamlari uchun katta imtiyozlar yaratdi. Barcha oliy lavozimlar baggaraliklarda edi. Bu notenglik boshqa qabilalarni g'azablantirdi. Darfur shahri qo'zg'olon ko'tardi.

1887- yilda esa jaalin qabilasi «bosh ko'tardi». Abdulloh qo'zg'olonchilarni qattiq jazoladi. Ichki nizolar mahdiylarni kuchsizlantirdi. Inglizlarning Habashistonni Sudanga qarshi gij-gijlashlaridan 1885- yili ikki davlat o'rtasida urush boshlandi. Lekin inglizlar Habashistonga va'da qilgan Massava portini italiyaliklarga «ochib» bergach, habashlarning hokimi *Yo'xonni* kuchlarini Italiyaning bosqinchi kuchlariga qarshi tashladi. 1887- yil 16-yanvarda Adua yonida Italiya qo'shini tor-mor qilindi. Yo'xonni Abdullohga murojaat qilib, umumiy dushmanga qarshi birgalikda kurashga chaqirdi. Lekin Abdulloh Yo'xonning islomga o'tishini talab qilishi tufayli eng zarur bitim tuzilmay qoldi. Bu narsa inglizlarga «qo'l keldi». Habashiston — Sudan urushida ko'p qon to'kildi. 1889- yil mart oyida Habashiston imperatori Menelik sudanliklar foydasiga tuzilgan bitimni imzolashga majbur bo'ldi. 1889- yil avgustda Angliya Misr birlashgan qo'shinlari Sudan mahdiylarining 14 ming qo'shini ustidan g'alaba qildi. 1891- yilda Qizil dengiz bo'yida inglizlar mahdiylarni yana tor-mor qildilar. 1896- yili Angliya — Misr armiyasi general Kitchener boshchiligida

Sudanga qarshi asosiy kurashga otlandi. Mahdiylar yana Vatan ozodligi uchun kurash boshlashga majbur bo'lishdi. 1898- yili Kitchener Sharqiy Sudanning asosiy qismini bosib olishga erishdi. Bu orada Fransiya Afrikaning g'arbidan Marshan boshliq qo'shinni Sharqiy Sudanning Habashiston bilan chegaradosh bo'lgan janubiy qismini egallash uchun yubordi. Lekin bu qo'shin inglizlar bilan jangga kirishdan cho'chib, orqaga chekindi. Fransiya Sudanda Angliya hukmronligini tan oldi. 1899- yili Sudan Misr va Angliya qo'sh dominioni (kondominium) deb e'lon qilindi. Angliya bu bilan Misr qo'shinlaridan Sudanni nazorat qilishda foydalanishni, Misr budjeti hisobiga bu yangi mustamlaka xo'jaligini Buyuk Britaniya foydasiga qayta tuzishni ko'zda tutgan edi. Mahdiylar qo'shini 1899- yil 24- noyabrdagi Ayn jadid jangida tor-mor qilindi. Xalif Abdulloh halok bo'ldi. Usmon Digna taslim bo'ldi. 1902- yili so'nggi otryadlar Daf Alloh boshchiligida Darfur tog'lariga chekindi. 1904- yilgacha inglizlar Ekvatorial Sudangacha o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. Misr bilan Sudan, Uganda o'rtasida chegara belgilandi.

Liviyaning Italiya tomonidan bosib olinishi

1911- yil 28- sentabrda Italiya Liviyaga ochiqdan-ochiq bosqinchilik urushi boshladi. Turkiyaga berilgan ultimatum rad etilgach, 29- sentabr kuni urush e'lon qilindi. Turkiya qat'iy javob chorasi ko'rolmadi. 1911- yil 5- noyabr kuni Tripoli, Xoms, Tabruk, Bengazi, Derna kabi shaharlar bosib olinganligi, Tripolitaniya, Kirenaika shu kundan boshlab Italiya mulki ekani e'lon qilindi. Liviya xalqi italiyaliklarga qarshi kurash olib bordi. Turkiya Italiyaga Liviyani topshirish haqidagi bitimga 1912- yil 15- oktabrda Lozannada «qo'l» qo'ydi. 16- oktabrda turksultoni Tripoli va Kirenaikaga to'liq muxtoriyat berganini e'lon qildi. Ya'ni unga nisbatan hukmronlik da'volaridan voz kechdi. 17- oktabrda esa Italiya liviyaliklarni uning qo'shinlariga qarshi kurashganlari uchun «kechirdi» (umumiy avf e'lon qildi). Bu hujjat Tripoli va Kirenaika Italiya tomonidan bosib olinganligini rasmiylashtirdi va 1913- yil yanvardan boshlab bu davlat Liviya deb ataladi.

Fransiyaning Tunisni egallashi

1883- yil 8- iyun La-Mars (Tunis shahri yaqinida) bitimiga ko'ra Tunis ustidan Fransiya hokimiyatini ministr-

rezident amalga oshirar edi. Bu lavozimdagi hokimlar Tunis hukumati boshlig'i hamda Tashqi aloqalar vaziri edi. 1884- yildan Tunis moliyaviy ishlari ham ministr-rezident qo'lida o'tdi. Tunisning moliyaviy hukmronligi nomigagina saqlanib, bey qo'lida haqiqiy hokimiyat yo'q edi.

Tunis dehqonchilik yerlarini yevropaliklar (asosan fransuzlar) bosib olishga kirishdilar. 1 million 170 ming gektar yer yevropaliklar qo'lida edi. Zaytun, apelsin, tamaki, uzum yetishtirishda yerdan ajragan mahalliy aholi ishlardi.

Hamaslarga yerni ijaraga berish keng tarqaldi. Hamaslar yerni tashlab ketsa, qochsa, qamoq jazosi berilardi. Bu tartib 1910- yili bekor qilindi. Fransuzlar fosfat, temir, rux, qo'rg'oshin konlarini bosib oldilar. Tashqi savdoni to'liq nazorat qildilar.

1883- yildan Tunisda ijtimoiy harakatlar boshlandi. *Ali Bosh Xamba*, *Bashir Sfar* kabi ilg'or ziyolilar islomiy ma'rifat yo'lini targ'ib qildilar. *Abdul* esa Respublika partiyasi tuzib, mamlakatda mahalliy aholi va kelgindi yevropaliklar huquqini teng qilish, respublika tuzumi o'rnatish talabi bilan chiqdi. 1907- yilda mustamlaka ma'murlari Tunis Maslahat kongressiga mahalliy vakillar kirishiga ruxsat berdilar. Lekin bundan qanoatlanmagan Xamba va Sfar guruhleri birlashib, Tunis partiyasini tuzdilar. Bu «Yosh tunisliklar» partiyasi edi. Partiya Tunis ozodligi masalasini olg'a surish va Tunis — Jazoir davlati uchun kurashdi. 1912- yilning fevralida «Yosh tunisliklar» partiyasi jazolandi. Uning boshliqlari qamaldi va badarg'a qilindi. Tunis Fransiyaning qo'loq xomashyo bazasiga aylantirildi. Mamlakatdagi ijtimoiy kuchlar hali milliy ozodlik, siyosiy mustaqillik uchun kurashda yetarli uyushqoq emas edilar.

Jazoir Fransiya hukmronligi ostida

Mag'rib arab mamlakatlari ham XIX asr oxiri — XX asr boshlarida bevosita Italiya, Fransiya mustamlakasiga aylana bordilar. Jazoirda XIX asr oxirida 304 ming fransuz yashardi. Ular Fransiya parlamentiga deputatlar saylash huquqiga ega edilar. Bundan tashqari, yevropaliklar Jazoirni boshqarish, uning budjetini muhokama qilish kabi ishlarga tub aholi vakillarini yaqinlashtirmas edilar.

1880- yillarda Fransiya Sahroi Kabirni to'rt qismga bo'lib, u yerda o'ziga tegishli viloyatlar tuzdi. Barcha konlar, qishloq xo'jaligi fransuzlar qo'lida edi. Vinochilikda Jazoir Fransiya cheksiz foyda keltiruvchi makonga aylandi.



Jazoirlik to'quvchi ayollar

Hosildor yerlar fransuzlar qo'lida edi. Yersiz dehqonlar og'ir sharoitda ijarador bo'lib ishlardilar. Arab-barbar qabilalari milliy, irqiy kamsitildilar. Ko'pincha mahalliy arab musulmon jamoalarining «kommuna» lari tuzilib, ularda fransuzlar nazoratchilik qilardilar. Jamoa boshliqlari — kadilar esa mahalliy feodallar sifatida fransuz mustamlakachilarining tayanchi edi.

1905—1906- yillarda Jazoirida mustamlaka zulmiga qarshi kurash boshlandi. «Yosh jazoirliklar» tashkilotlari paydo bo'ldi. Ular jazoir xalqini jabr-zulmdan, kamsitilishdan xalos qilish yo'llarini qidir-dilar. Ulardan ikki asosiy oqim ajralib chiqdi. Biri jazoirliklar bilan yevropaliklarni huquqiy teng qilish, fransuz madaniyati va tilini o'zlashtirishga da'vat qilsa, ikkinchisi Jazoir davlati tuzish g'oyasi uchun kurashardi. 1912- yilda «Yosh Jazoir» partiyasi tuzildi. Sud ishlarida jazoirliklar uchun «mahalliy kodeks» nomli kamsituvchi tartibni bekor qilish, soliq olishda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish, xalq maorifini kengaytirish, arablar uchun saylanadigan lavozimlarni ko'paytirish kabi talablar qo'yildi. Shulardan ko'rinib turibdiki, Birinchi jahon urushi arafasida Jazoirida ijtimoiy harakatlarning siyosiy darajasi, uyushuvi u qadar kuchli emas edi.

Marokashning Fransiya tomonidan egallanishi

Marokash Yevropa davlatlarining mustamlaka taqsimotida Fransiya ixtiyoriga berildi. 1900- yili Italiya Fransiyaning

Marokashga bo'lgan «huquqlarini» tan oldi. Buning evaziga Italiya Tripolitaniya va Kirenaikaga daxldor «huquq»ga ega bo'ldi. 1904- yil bitimi (Antanta)ga muvofiq, Angliya ham Fransiya Marokashni bosib olish uchun «ruxsat» berdi.

Fransiya Marokashda «Ma'muriy, harbiy, moliyaviy islohotlar o'tkazish xavfsizligi»ni ta'minlash bahonasida yashirin bitim tuzdi. Unda «Marokashning hududiy yaxlitligi tan olindi», lekin amalda Marokashni «bo'lib» olishda bo'lajak chegaralar belgilandi.

1903—1904- yillari Marokash Fransiya, Angliya va Ispaniyadan 85 million frank qarz oldi. To'lov shartida Marokashning bojxonalari hisobiga keladigan daromadning 60 foizi kafil qilib belgilandi.

Fransiyaning Marokashga «kirib borishi» Germaniyaning qarshiligiga uchradi. Kayzer Vilgelm II Marokash bo'yicha konferensiya chaqirishni talab qildi va sulton *Abdul Aziz*ni «mutlaq mustaqil hukmdor» deb e'lon qildi. Fransiya qarshi urush boshlanishi mumkinligini bildirib, do'q-po'pisa qildi. Fransiya Germaniyaga Marokashning bir qismini «taklif» qildi. Lekin ko'proqqa umid bog'lagan Germaniya bunga ko'nmay, 1906- yilda xalqaro konferensiya chaqirishga erishdi. Konferensiyada Ispaniya, Rossiya, Angliya, Germaniyani «yakkalab» qo'yishdi. Bu Marokash masalasida Germaniya diplomatiyasining mag'lubiyati edi. Ispaniyaning *Abxiseras* shahrida 1906- yil 7- aprelda tuzilgan Aktga ko'ra Marokash «yaxlit suveren davlat» deb e'tirof etildi. Lekin «ochiq eshiklar» siyosatiga, yagona bojxona tarifi joriy qilishga, ya'ni Yevropa davlatlari uchun savdo qilishga bozorlarini ochib berishga majbur qilindi.

Fransiya Marokashga qarshi urush ochish uchun bahona qidirar edi. 1907- yili Marokash shahrida fransuz vrachi o'ldirildi. Fransiya zudlik bilan urush ochib, Ujda viloyatini bosib oldi. Kasablankada yevropaliklarga qarshi isyon ko'tarildi. 7- avgust kuni fransuz qo'shinlari shaharni egalladilar.

Marokash xalqi sulton Abdul Azizdan bosqinchilarga zarba berilmagani uchun norozi edi. Sultonning dushmanlari bo'l-mish ba'zi zamindor boylar uning ukasi *Abdul Hafiz*ni sulton qilib ko'tardilar. Bu yangi sulton «taslim bo'lish yo'li»dan borib, fransuzlarga barcha imkoniyatlarni yaratib berdi. Xalq, ayniqsa, arab-barbar qabilalari poytaxt Fes shahriga yurish qildilar. Abdul Hafiz fransuzlardan yordam so'radi. Bahonada fransuzlar Marokashning barcha asosiy shaharlarini bosib oldilar.

Iroq

XIX asr oxirida Iroqda yer mulkchiligi xususiyatlari o'zgarib, katta yer egalari jamoachi dehqonlarni emas, ijarachi dehqonlarni ekspluatatsiya qilishga o'ta boshladilar. Qishloq xo'jaligi natijada shaklidan tovar shakliga o'ta boshladi. Xurmo, bug'doy, arpa chetga chiqazila boshladi. Teri oshlash, paxta tozalash zavodlari paydo bo'ldi.

XIX asr oxirida Iroqda Germaniya va Angliya mustamlaka manfaatlari to'qnashdi. Germaniya «Bag'dod temir yo'li»ni qurish bahonasi bilan Iroqqa «kirib» keldi. Iroqdan neft qazib olishga egalik qilish tortishuvga aylandi. Uzoq janjaldan keyin ingliz-nemis qo'shma neft kompaniyasi tuzildi. Uning nomi «Turkish Petroleum kompani» edi, ya'ni Turkiyaning Iroq ustidan rasmiy hukmronligi hisobga olingan edi.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Iroqda ham milliy ozodlik harakati boshlandi. Shimolda kurdlar turklar hukmronligiga qarshi «bosh ko'tardilar». Minglab Iroq ziyolilari, ofitserlar ozodlik harakatida faol qatnashdilar.

Birinchi jahon urushi yillarida Angliya Iroqni bosib olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Antantaning yashirin kelishuviga binoan Iroqning janubi va markaziy qismi Angliya, Mosul viloyati Fransiyaga o'tishi kerak edi.

1914- yil oktabrda Angliya Iroqni bosib olishga kirishdi. Bu o'z o'rnida Angliyaning Turkiyaga qarshi jahon urushi doirasiga kirgan harakatlarining bir qismi edi.

Ispaniya ham Marokashda bir qancha rayonlarni bosib oldi. Germaniya Ekvatorial Afrikadagi ba'zi joylar evaziga Marokashga bo'lgan da'vosidan voz kechdi. Fransiya va Ispaniya Marokashda o'z protektoratlari chegaralarini belgilashga kirishdilar. Fransiya va Ispaniyaga qarshi kurash 20 yilga yaqin davom etdi.

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Sharqiy Sudan qaysi davlat ta'sirida edi?
 2. Sudanda boshlangan Mahdiylar qo'zg'oloni kimlarga qarshi qaratilgan edi? Qo'zg'olondan ko'zlangan maqsad qanday edi? Ular nimalarga erishdilar?
 3. Liviya qachon Italiya tomonidan bosib olindi? Italiyaning Liviyani egallashdan maqsadi nima edi?

4. Fransuz bosqinchilari Tunisni egallashda nimalarga e'tibor qaratdilar?
5. Fransuz istilochilarining Mag'rib arab mamlakatlarini mustamlakaga aylantirishdan maqsadlari nima edi?
6. Nima sababdan Iroqda ingliz-nemis manfaatlari to'qnashdi? Iroqning qanday tabiiy boyligi ularga katta daromad olish imkonini berdi?
7. Mag'rib arab mamlakatlari mustamlakachilarga qarshi qanday kurash olib bordilar? Uning oqibatlari qanday bo'ldi?
8. Birinchi jahon urushi arafasida Mag'rib arab mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli qanday edi?

Bu nomlarni yodda tuting: Muhammad Ahmad, mahdiylar, Abdul Qodir, general Xiks, Usmon Digna, Abdulloh, Yo'xonni, Menelik, Kitchener, Kirenaika, La-Mars, Abdul Aziz, Abdul Hafiz, Vilgelm II.

36- §. Tropik va Janubiy Afrika

Afrikada mustamlakachilik tizimining kuchayishi XIX asming oxirgi choragida Afrikada mustamlaka bosqini yanada kuchaydi. Janubdagi qazilma boyliklarga boy yerlarda 70- yillarda olmos va 80- yillarda oltin konlarining topilishi yevropaliklarning «oqib kelishlarini» yanada tezlashtirdi. Janubiy Afrikani mustamlaka qilishda Angliya asosiy rol o'ynadi. Ko'p o'tmay bu yerga Germaniya «kirib kela boshladi». Mozambik va Angola kabi yerlarni birlashtirishni portugallar o'z rejalariga kiritdilar. Asosiy mustamlaka «o'choq»laridan biri Burlar respublikasi bo'lib qoldi. 70- yillardan boshlab Angliya o'z mustamlakalarini birlashtirib, federatsiya tuzmoqchi bo'ldi. Burlar bu fikrga qo'shilmagach, Angliya 1877- yilda Transvaalni bosib oldi. Inglizlar u yerda metropoliyadagi qonun-qoidalarni joriy qilishga harakat qildilar. Masalan, qul savdosi bekor qilindi. Bu qonun golland-burlarning faqat qul mehnatiga asoslangan xo'jaligini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Yangi tartib-qoidalar inglizlarning Kap koloniyasidagi imtiyozlarini juda oshirib yubordi. Burlar mamlakatning shimoli-sharqi va shimoliga ko'cha boshladilar.

1877- yilda Angliya Zululendni o'ziga qarashli mustamlaka deb e'lon qildi.

Angliyaning G'arbiy Afrikadagi mustamlakachilik siyosati. G'arbiy Afrikada Germaniya ekspansiyasi

G'arbiy Sudan, Senegal va Nil daryosi havzasi XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Fransiya, Gollandiya, Angliya o'rtasida «talash» bo'ldi.

G'arbiy Sudanning Dagomeya qismida xorijiy monopolistlarning o'zaro urushlari 1868- yildan 1892- yilgacha davom etdi. So'nggi urushni Fransiya boshlab berdi (1890- yil fevral). Bu urush G'arbiy Sudanni mustamlaka qilish bilan tugadi. Xalq qarshiligi uzoq davom etdi. 1904- yili Gvineya ko'rfazi bo'ylari ham Fransiya qaram bo'ldi. Unga Fransuz Gvineyasi deb nom berildi. 1900- yili Chad ko'li atrofidagi bir qator qabilalar ham fransuzlar qo'lga o'tdi. Bu haqda 1913- yilda rasmiy hujjat tuzildi.

G'arbiy Afrikada Angliya ham bosqinchilik urushi olib bordi. Nups, Iyurin, Ibadan, Oyo kabi yerlar bosib olindi. Ba'zi davlatlar urushsiz Angliya protektoratini qabul qildi. Benin inglizlarga qat'iy qarshilik ko'rsatdi. Lekin 1897- yili taslim bo'ldi.

Germaniya 1904- yilgacha G'arbiy Afrikaning Togo, Kamerun va boshqa yerlarini bosib oldi.

Samori Ture

G'arbiy Sudandagi yirik davlatlardan birining hukmdori *Samori Ture* ham 1870- yilda fransuzlarga qarshi kurash boshladi. U atoqli lashkarboshi, siyosatchi edi. Samori fransuzlarga qarshi «zimdan» tayyorgarlik ko'ra boshladi. U Senegaldagi fransuz armiyasiga o'z qo'shinining harbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida yaqin kishilarini yubordi. Ular bu yerda Senegal o'qchi soldatlari ichida harbiy tayyorgarlik oldilar. Qaytib kelgach, Samorining jangchilariga harbiy jangning zamonaviy usullarini o'rgatdilar. Samori fransuz bosqinchilariga qarshi 18 yil davomida partizan urushi olib bordi.

Fransuz otryadlari har tomonlama qamal qilgan Samori qo'shini 1898- yildagina taslim bo'ldi. Xoinlar Samorini fransuzlarga tutib berib, ulardan katta miqdorda ehson oldilar. Asir olinganlar temir yo'l qurilishidagi og'ir ishlar uchun Shimolga olib ketildi. Samori esa Gabonga surgun qilindi va ko'p o'tmay, o'sha yerda vafot etdi.

Markaziy Afrikada Belgiya mustamlakachiligi

Angliya, Fransiyadan keyin Belgiya ham Afrika yerlari uchun kurash boshladi. 1876- yilda qirol *Leopold II* sayyoh

G. Stenlini Kongo havzasini tekshirishga yubordi. Bu katta hudud qul savdosidan jabr ko'rgan edi. Baluba, Balunda davlatlari kuchsizlanib qolgan edi. 1883- yili Kinshasada shartnoma tuzilib, katta maydonni egallagan Kongo havzasidagi yerlar Belgiya mustamlakasi deb tan olindi.

**Sharqiy Afrikaning ri-
vojlangan davlatlar to-
monidan bo'lib olinishi**

Afrikaning sharqiy qismida Bunoro, Toro, Ankole, Karogve, Kiziba (hozirgi Ugandaning g'arbida) kabi bir necha davlatlar bo'lgan. Tanganika ko'lining shimolida esa Ruanda va Urundi davlatlari bor edi. Sharqiy Afrikaning qirg'oq rayonlarida esa bir qator arab davlatlari bo'lib, ular portugallar qo'lida edi, keyinchalik arablar bu qaramlikdan qutilishgan va faqat Mozambik portugallar qo'lida qolgan edi.

Ko'p o'tmay, Sharqiy Afrikaga yevropaliklar kirib kela boshladilar. Nil daryosi boshlanish rayonlarini ilmiy o'rganish bahonasi bilan yevropaliklar Buganda mamlakatini «ochishdi». Bu boy va savdo-iqtisodiy munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan yurt Yevropa bosqinchilari o'rtasida qattiq kurashga sabab bo'ldi va unda Angliya ustun chiqdi.

1894- yili Buganda Angliya tomonidan tuzilgan Uganda protektorati tarkibiga kiritildi.

Zanzibar arab sultonligi ham qul savdosiga qarshi kurash bahonasi bilan nemislar, fransuzlar va inglizlar tomonidan bo'lib olindi. XIX asr oxirida Angliya kuch bilan Bunoro davlatini bosib oldi. Germaniya Ruanda va Urundi yerlarini bosib oldi. 1884- yili Germaniya qurol yordamida do'q-po'pisa qilib, Sharqiy Afrikadagi mustamlakalarini yana ham kengaytirdi. Bu zulmlarga qarshi 1888- yili *Butir Bin Salim Al-Xarti* rahbarligida qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon 1889- yil oktabr oyida bostirildi. Uning rahbari o'ldirildi.

XX asr boshlarida Gambiya, Serra-Leone, Oltin qirg'oq, Nigeriya, Senegal, Fransiya Gvineyasi, Fil Suyagi qirg'og'i, Dagomeya Fransiya, Togo, Kamerun Germaniya, Gvineyaning bir qismi Portugaliya mustamlakasi edi.

Yevropa mustamlakachilari turli boshqaruv tizimlari joriy qilishdi. Angliya mahalliy boshqaruv tizimlarini saqlab, ularni o'z manfaatlariga bo'ysundirdi. Fransiya esa o'z mustamlakalarida eski mahalliy boshqaruv o'rniga o'ziga mos, qulay bo'lgan tartiblarni joriy etdi.

G'arbiy Afrikadagi mustamlaka urushlari Kongo daryosi havzasida Gollandiya, Belgiya, Portugaliya, Angliya, Germaniya, Fransiya va nihoyat, AQSH ni o'zaro to'qnashtirdi. Belgiya qiroli Leopold II Kongoni ilmiy o'rganish assotsiatsiyasi tuzib, uning «soyasida» ustalik bilan ish olib bordi. Bu mamlakatning katta bo'lagini egallashga muvaffaq bo'ldi. Kongo erkin davlati tuzilib, uning «prezidenti» deb Belgiya qiroli Leopold II tan olindi. Kongoning bir qismi Fransiya, yana bir qismi Portugaliyaga tegdi.

Angliya-buriar urushi va Janubiy Afrika Ittifoqining tuzilishi 1870—1880- yillar orasida Janubiy Afrikaning basuto (suto) qabilasining siyosiy uyushmasi bilan Angliya va burlar orasidagi kurash alohida diqqatga sazovor. Basuto dohiysi *Moshesha* iqtidorli lashkarboshi, mohir diplomat va siyosatchi bo'lgan. Uning nomi Basuto davlatini tuzgan shaxs sifatida tarixda hurmat bilan eslanadi.

Bu davrda Janubiy Afrikaning dunyoda eng yirik olmos konlari mashhur edi. Ingliz korchaloni Sesil Rods «De Rods» kompaniyasini tuzib, olmos konlarini o'z qo'lga kiritdi.

1887- yilda Transvaal oltin konlari, yirik mis konlari ochildi. Sesil bu konlarni ham egalladi. Uning tashabbusi bilan «Britaniya-Janubiy Afrika imtiyozli kompaniyasi» tuzildi. Kompaniya «Keyptaundan Qohiragacha Angliya mustamlakasi bo'lishi kerak» degan ma'noda bosqinchilik harbiy harakatlariga ruxsat oldi. Tez orada ko'plab qabilalarni qirib tashlash, haydash hisobiga Zambezi-Limpopo daryolari orasida, Shimoliy Rodeziyada ingliz protektorati o'rnatildi. Inglizlar burlarga qarshi yangi urushga tayyorlanib, 1895- yilda Transvaalga harbiy otryad jo'natishdi. Bu bahona qidirish edi. Burlar sarmoyador Sesil Rodsning do'sti Tomson boshliq bu otryadni qirib tashladilar. Shundan keyin 1899- yilda Sesil Rods va Angliya mustamlaka vaziri J. Chamberlen tashabbusi bilan ingliz-bur urushi boshlandi. Bu urush ancha ilgari boshlangan mustamlakachilik urushlarining yangi, shafqatsiz kurashlar davrini boshlab berdi. Burlar mag'lubiyatga uchragach, 1902- yili Bur respublikasi Britaniya mulklari tarkibiga qo'shib olindi.

1910- yili Angliya va burlar o'rtasida kelishuv ro'y berdi. Yirik bur zodagonlariga ham Afrika xalqini ekspluatatsiya qilishda ishtirok etish imkonini berish uchun Transvaal, Oranj, Natal, Kap

mustamlakalari «Janubiy Afrika Ittifoqi» nomi ostida birlashtirildi.

Birinchi jahon urushi arafasida Janubiy Afrika yerlari «Janubiy Afrika Ittifoqi» qo'shini tomonidan butunlay bosib olindi.

Madagaskarning fransuzlar tomonidan egallanishi

Hind okeanining g'arbida, Afrikaning janubi-sharqiy qirg'og'i yaqinida joylashgan bu orol jahon kapitalizmining mustamlakachilik siyosatida

alohida o'rin tutdi.

1860- yillarda Fransiya Madagaskarni to'la egallash yo'lida yana kurash boshladi. Orolning bir qismini egallagan hokim bilan bitim tuzildi. Oyna, sovun, qog'oz, harbiy aslaha, pichoq, xanjar, qilich kabi narsalar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar quriladigan bo'ldi. Fransuz ishbilarmoni Jan Labordning ta'siri katta edi. 1868- yilda yosh qirol shahzoda *Radam II* nomi bilan taxtga o'tirdi. Fransuzlarga orol keng «ochib» qo'yildi. Eksploatatsiya, diniy targ'ib kuchaydi. Xalq qo'zg'olon boshladi. Yosh qirol Radam II o'ldirildi. O'rniga Bosh vazir davlatni boshqara boshladi. Uning lavozimi ham nasldan-naslga o'tadigan bo'ldi.

1864—1893- yillarda, Bosh vazir *Raynilona Rivoni* davrida Madagaskarda kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi boshlandi. Mamlakat sakkiz viloyatga bo'lindi. Vazirlar kengashi tuzildi. Viloyatlar gubernatorlar tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotida o'sish kuzatildi. Maktab ta'limi 8—16 yoshli bolalar uchun majburiy bo'ldi. Boylar bolalarini chet ellarga o'qishga jo'nata boshladilar. Bosh vazir imerin qabilasidan edi. U butun orolni «imerinlashtirish»ga kirishdi. Orolidagi boshqa qabilalarning bundan noroziligi mustamlakachilarga «qo'l» keldi. 1883- yili Fransiya Madagaskarga urush e'lon qildi. 1885- yili bu urush tomonlar uchun noteng bitim tuzilishi bilan yakunlandi. Fransiya Madagaskar ustidan protektorat o'rnatdi va uning tashqi siyosatini nazorat qiladigan bo'ldi. Lekin Madagaskar bu bitimga ko'pincha amal qilmadi.

1895- yilda fransuzlar Madagaskarga qarshi ikkinchi urushni boshlab yubordilar. Madagaskar hukumati tez taslim bo'ldi. 1896- yili Fransiya Madagaskarni o'z mustamlakasi deb e'lon qildi. Lekin malagash xalqi fransuzlarga qarshi 1897- yil oxirigacha kurashdi. Fransuzlar Madagaskar qirolichasi *Ranavavalone III* ni surgun

qilib, o'rniga fransuz gubernatorini tayinladilar. Shunday qilib, qabilalarni, diniy jamoalarni bir-biriga gij-gijlab, mustamlaka mulklarini talashda fransuzlar inglizlarning roziligiga erishdilar, Madagaskar orolida o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. XX asr boshlaridagi ijtimoiy harakatlar, ozodlik uchun kurashlar natija bermadi. Jamiyatni qabilaviy nizolardan qat'i nazar, birlashtira oladigan tashkiliy kuchlar hali yetilmagan edi. Faqat 1912- yildagina shunday tashkilot paydo bo'ldi (Temir, tosh va novda tashkiloti). Bu tashkilot hali kuchsiz va tajribasiz edi.

Zuluslarning Ketchvayo boshchiligidagi ozodlik urushi

Burlar Oranj hamda Limpopo daryolari bo'ylab ko'chishga majbur bo'ldilar. U yerdan Chaka zulus davlati davridayoq zuluslardan ajrab ketgan matabal qabilasini «siqib» chiqarib, burlar «Transvaal» va «Oranj mustaqil davlati» nomli davlatlar tuzishdi. Angliya bu davlatlarni tan oldi. Burlarning bu harakatlari «Buyuk trek» nomi bilan ataladi. Burlar inglizlar siquviga javoban amalga oshirgan bu ko'chish Janubiy Afrikadagi siyosiy vaziyatga katta ta'sir ko'rsatdi — inglizlarning tub aholiga nisbatan o'taketgan bosqinchilik harakatiga aylandi.

Zuluslar Natal yerlarining ozodligi uchun qattiq kurash olib bordilar. «Qirol» Umpanending vorisi *Ketchvayo* 1879- yilda uch to'qnashuv davomida inglizlarning 20 ming kishilik armiyasini yakson qilib tashladi. Lekin inglizlar to'plar yordamida ustun keldilar va Zululend yerlarini egallab, uni 13 ta mayda davlatga bo'lib tashladilar. Har birida o'zlariga qulay odamlarni hokimiyat tepasiga qo'ydilar. Zululend hokimliklarini o'zaro urishtirib, o'z foydasiga ish ko'rish inglizlar hukmronligiga xos xususiyatga aylandi.

Lobengulo boshchiligidagi mataballar va mashonlar bir necha yil davomida bir qancha qabilalarni birlashtirib, Angliya mustamlakachiligiga qarshi kurash olib bordilar.



Dala ishlari (bantu xalqlari)

Somali va Habashiston

Habashiston va Somali 1869- yili Suvaysh kanali ochilishi tufayli alohida savdo-iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Bu hol mustamlakachilarni befarq qoldirmadi. Bundan sal oldin, 1867- yili inglizlar Habashistonga qarshi urush qilib, podsho («negus» deb atalgan) *Feodor II* ning birlashtiruvchi siyosatini barbod qildi. Turli dinlar o'rtasida nizo tufayli Feodor II ga qarshi bo'lgan ruhoniylardan foydalanib, inglizlar habash qo'shinlarini tor-mor etdilar. Feodor II o'zini o'zi o'ldirdi. Taxtga inglizlarga tobe *Ioann IV* o'tirdi. Inglizlar qo'shinlarini olib chiqib ketishdi. Ioann IV 1889- yili Sudan mahdiylari bilan jangda halok bo'ldi. Uning vorisi *Shoa Menelik II* davrida (1889—1913) Qizil dengiz bo'yi va Somali yarimoroli Angliya, Fransiya, Italiya o'rtasida taqsimlab olindi.

Habashistonda Italiya o'z mustamlaka rejalarini yuzaga chiqarishga urindi.

1889- yili Menelik II bilan Italiya o'rtasida Uchchial bitimi tuzildi. Bu hujjat ataylab habash (kushit) va italyan tili nusxalari o'rtasida mazmuni mos kelmaydigan qilib tuzilgan edi. Natijada italyanlar mamlakatga mustamlaka da'vosi bilan zo'ra-vonlikka kirishdilar. Menelik II Habashiston kuchlarini birlashtirib,



Efiopiyalik otliq askar

1896- yil mart oyida Adua yonida italyanlarga zarba berdi. Habashiston o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

XX asr boshlarida Habashistonda musulmonlar faollashib, 1913- yili Menelik II vafotidan keyin davlat tepasiga kelishdi. Birinchi jahon urushi davomida Habashiston Germaniya va Turkiya bilan hamkorlik qilib turdi. Habashistonning Angliya — Misr Suda-

niga qarshi urush boshlashiga Germaniya «qo'l» urdi. Shu maqsadda Habashistonda davlat to'ntarishi ham qilindi. Natijada hokimiyat tepasiga *Tafari Makonnen* keldi. Keyinchalik u o'zini *Xayle Selasiya I* nomi bilan imperator deb e'lon qildi.

**Gerero va namalar
qo'zg'oloni. Xendrik
Vitboy**

Janubiy Afrikaning shimoli-g'arbiy qismi 1883- yildan Germaniya tomonidan bosib olina boshlandi. Mahalliy gottentot va gerero qabilalari rezervatsiyalar (xo'jalik uchun yaroqsiz yerlar)ga quvildi. Qolganlari nemis mustamlakachilariga qul bo'lib qoldi. Turli qabilalarning har biri uyushmagan holda nemislarga qarshi kurashdi. Nihoyat, 1904- yili barcha gerero qabilalari *Samiul Magarero* boshchiligida qo'zg'olon boshladilar. Ayovsiz janglarda nemislarning bir qancha otryadi qirib tashlandi. Biroq, Germaniyadan yordam kuchlari yetib keldi. Nemislar Krupp zavodida ishlab chiqarilgan to'plar va pulemyotlar bilan hujumga o'tib, qo'zg'olonchilarni tor-mor etishga muvaffaq bo'ldilar. Gererolardan tirik qolganlari mamlakat shimoliga qochib, jon saqlashga majbur bo'ldi. Juda ko'pchiligi yo'lda halok bo'ldi. Gerero xalqi besh baravar kamayib, aholisi 15—16 ming kishiga tushib qoldi. Kayzer Vilgelm II ga nemis soldatlarining harakatlari xristian axloqiga to'g'ri kelmasligini aytganlarida, Kayzer xristianlik ta'limot emas deb javob qildi.

Nama qabilalari qo'zg'olon ko'targanida gererolar tor-mor etilgan edi. Vitboy Janubi-G'arbiy Afrikada birinchi bo'lib nemis bosqinchilariga qarshi kurash boshladi. Namalarning qo'zg'oloniga ham *Xendrik Vitboy* boshchilik qildi. Vitboy nama qabilalarini birlashtirishga va ozodlik qo'zg'oloni ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Qo'zg'olon rahbarlari jangchilarning katta harbiy mahorat ko'rsatishlariga erishdilar.

Vitboy 1905- yilgi jangda halok bo'ldi. Uning o'limidan keyin ham namalar kurashni yana ikki yil davom ettirdilar, lekin zamonaviy nemis texnikasi ustunligi o'z kuchini ko'rsatdi. Bundan tashqari, bu vaqtda Angliya bilan Germaniya munosabatlari keskinlashishiga qaramay, ingliz qo'shinlari nemislarga katta yordam berdi. Chunki Angliya Afrikadagi o'z mustamlakalari qabilalari orasida qo'zg'olonning yoyilib ketishidan qo'rqardi. Qo'zg'olon shtabining boshlig'i Fon Shliffen namalarni (nemislar ularni gottentotlar deb atashardi) bitta qo'ymay qirib tashlash kerak,

Vitboy 1905- yilgi jangda halok bo'ldi. Uning o'limidan keyin ham namalar kurashni yana ikki yil davom ettirdilar, lekin zamonaviy nemis texnikasi ustunligi o'z kuchini ko'rsatdi. Bundan tashqari, bu vaqtda Angliya bilan Germaniya munosabatlari keskinlashishiga qaramay, ingliz qo'shinlari nemislarga katta yordam berdi. Chunki Angliya Afrikadagi o'z mustamlakalari qabilalari orasida qo'zg'olonning yoyilib ketishidan qo'rqardi. Qo'zg'olon shtabining boshlig'i Fon Shliffen namalarni (nemislar ularni gottentotlar deb atashardi) bitta qo'ymay qirib tashlash kerak,

degan edi. Natijada 200000 dan ortiq namalardan 60000 kishi qoldi. Germaniyaga qarshi Sharqiy Afrikaning janubi va markazida (Tanganika) 1905- yil avgustda boshlangan qo'zg'olon ikki yildan ortiq davom etdi. Nemis qo'shinlari 120 ming afrikalikni qirib tashlab, qo'zg'olonni bostirdilar. Bu hududda necha asrlardan buyon yashab kelgan qabilalar tamomila yo'q bo'lib ketdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. 1870- yilda Afrikada yevropaliklarning qanday mustamlakalari bor edi? Ularni Afrika qit'asi xaritasidan aniqlang.
 2. Bosqinchilarning Afrikada qo'llagan terrorchilik usullarini so'zlab bering.
 3. Shimoli-Sharqiy Afrika hududlarida yevropalik bosqinchilar nima sababdan o'zaro kurash boshlab yubordilar? Bu haqda faktlarga yondoshib so'zlab bering.
 4. Tropik, Janubiy va G'arbiy Afrika davlatlarida mustamlakachilik harakatlarining kuchayib ketishiga afrikaliklarning munosabati qanday edi?
 5. Nima sababdan Afrika xalqlarining ozodlik harakati mag'lubiyatga uchrangani, Habashiston esa 90- yillarda o'z mustaqilligini saqlab qolgani haqida so'zlab bering.
 6. Janubi-G'arbiy Afrikada mahalliy yo'l boshchi Vitboy kimlarga qarshi xalqni «oyoqqa turg'azdi»?
 7. Yevropaliklar Afrikada boylik orttirish yo'lida qanday usullar qo'lladilar?
 8. XX asr boshlarida Afrika xalqlarining mustamlakachilarga qarshi kurashida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
 9. Afrikaning 1870- va 1914- yillardagi hududini taqqoslang va yuz bergan siyosiy va hududiy o'zgarishlarni baholang.

Bu nomlarni yodda tuting: Kap koloniyasi, Zululend, Gvineya ko'rfazi, Chad ko'li, Benin, Togo, Kamerun, Samore Ture, G. Stenli, Tanganika, Mozambik, Zanzibar, Al-Xarti, Moshesha, Sesil Rods, Ranavavalone II, Ketchvayo, Lobengulo, Menelik II, Xayle Selassiya I, Xendrik Vitboy, Magarero.

Bahs yuriting: Yevropa davlatlari Afrikani bosib olishda qanday usullarni ishga soldi? Rossiya O'rta Osiyoni bosib olishda qanday usullar ishlatgan edi? Farqi bormi?

UCHINCHI BO'LIM. XALQARO MUNOSABATLAR

14- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA XALQARO MUNOSABATLAR

37- §. XIX asrning oxirida xalqaro munosabatlar

Dunyo miqyosida kuchlar nisbati

Monopolistik kapital hukmronlik qilayotgan mamlakatlar siyosati shu davlatlardagi badavlat guruhlar vakillari-ning manfaatlariga xizmat qilar edi.


Bu davlatlarning tashqi siyosati boshqa davlatlarni ko'proq talash va ularning xalqlarini ezish orqali olayotgan foydalarini oshirish, o'z mulklari va ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan edi.

Bundan tashqari, millatchilik, boshqa millatlarga nisbatan ishonchsizlik va dushmanlik avj oldirildi. Boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilishga intilish, ularni talash va ekspluatatsiya qilish, shovinizm va irqchilik, o'z millatining, o'z irqining boshqa millat va irqlardan ustunligi targ'ib qilindi.

Kapitalistlar xalq ommasini chalg'itar, hukmron doiralar olib borayotgan bosqinchilik siyosatidan mazlum xalqlarning ozodlik uchun kurashiga qarshi foydalanar edi.

Millionlab odamlarni qurbon qilgan va g'oyat katta vayronagar-chiliklar keltirgan jahon urushlari «ochko'z» monopolistlarning insoniyat boshiga solgan dahshatli fojialaridandir.

CHETGA KAPITAL CHIQARISHNING O'SISHI
(milliard rubl hisobida)



Chetga kapital chiqarishning o'sishi

Germaniyaning qaytadan birlashuvi va Germaniya imperiyasining 1871- yilda paydo bo'lishi hamda Italiya qirolligining vujudga kelishi (1861- y.) Yevropaning siyosiy xaritasini butkul o'zgartirib yubordi. Germaniyada ilgari 36 ta, Italiyada 7 ta kichik davlat mavjud edi. Endilikda ularning o'rnida ikkita yirik davlat paydo bo'ldi.

Bu davlatlarning kuchayishidan xavotirlangan Rossiya, Fransiya — Prussiya urushida betaraflik pozitsiyasida bo'lsa-da, Bismarkning Fransiya hujum uyushtirishiga to'sqinlik qildi. Bu hol Rossiya — Germaniya munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi.

Ikkinchidan, Rossiya Turkiya bilan bo'lgan urushda Bolqon mamlakatlarida o'z ta'sir doirasini kengaytirishni maqsad qilgan edi. Bolqon davlatlariga Avstriya-Vengriya ham da'vo qilar, u ham Bolqon yerlarida o'z hukmronligini kengaytirishni ko'zlar edi. Urush yakunida bir nechta Bolqon davlatlari o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritdilar. Rossiya urushda slavyan xalqlarining uni qo'llab-quvvatlashini bilar edi. Ammo o'z ta'sirini o'rnatish uchun Rossiya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasidagi bu kurashda Germaniya Avstriya-Vengriyani yoqlab chiqdi va Rossiyaning Bolqon yarimorolidagi muvaffaqiyatlarini to'la tan olmadi.

Germaniya Rossiya bilan Fransiya qarshi kurashish maqsadida agressiv harbiy bloklar tuzishni boshladi va 1879- yilda Avstriya-Vengriya bilan harbiy ittifoq tuzdi. 1882- yilda Germaniya, Italiya va Avstriya-Vengriya bilan yangi ittifoq bitimlarini imzoladi. Uch mamlakat o'rtasida tuzilgan bu ittifoq «Uchlar ittifoqi» deb nom oldi.

Bu ittifoqning tashkil topishi Fransiya bilan Rossiyani bir-biriga yaqinlashishga majbur etdi.

Ayni paytda Yevropada iqtisodiy, siyosiy jihatdan katta mavqega ega bo'lgan Angliya ham bu voqealarga befarq emas edi. Bu holni sezgirlik bilan kuzatayotgan Germaniya hukumati Angliya bilan Rossiyaning o'zaro yaqinlashishidan xavotir olar, shuning uchun Osiyo davlatlari uchun raqobatlashayotgan Rossiya — Angliya munosabatlarini keskinlashtirish uchun Angliyani Rossiyaga qarshi gij-gijlardi.

Yirik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar va ularning bosqinchilik harakatlari

Tazyiqlarning kuchayib borishidan cho'chigan Rossiya qudratli Germaniya bilan yaqinlashishga urinardi. Bu hol Fransiya — Rossiya munosabatlariga

salbiy ta'sir etmay qolmadi. Rossiya uchun bir vaqtning o'zida ikkita yirik davlatga qarshi kurashish og'ir edi. Shuning uchun u chekinishga majbur bo'ldi. Bu Germaniya diplomatiyasining yutug'i edi. Ammo Rossiya — Fransiya munosabatlari Rossiyaga to'xtovsiz kelayotgan fransuz kapitali tufayli 1883- yilda ittifoq tuzish bilan yaxshilandi.

Yevropa qit'asida harbiy kuch jihatidan bir-biriga teng ikkita guruh vujudga keldi. Bularning biri Rossiya va Fransiyadan, ikkinchisi Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiyadan iborat edi.

Dastlab Angliya ikkala guruhga ham qo'shilmadi. Lekin ikki guruh o'rtasidagi dushmanlikni kuchaytirishga va bundan foydalanib, mustamlakalar bosib olishga harakat qildi. Angliya G'arbiy Afrika, Tinch okean orollarini, Xitoy, O'rta Osiyo hamda Afg'onistonni o'ziga bo'ysundirmoqchi edi.

90- yillargacha Angliyaning asosiy raqiblari Osiyoda Rossiya, Afrikada Fransiya edi. XIX asr oxirida uning Germaniya bilan ham munosabatlari keskinlashdi.

Angliya «ajoyib yakkalik» tamoyilidan voz kechib, Fransiya va Rossiya bilan munosabatlarini yaxshilashga harakat qildi.

Germaniyaning gegemonlik uchun kurashi Germaniya Fransiyadan olgan 5 milliard frank o'iponni mamlakat iqtisodiyotining qoloq tarmoqlariga emas, asosan zamonaviy harbiy texnikaga sarfladi. Bu bilan Yevropa mamlakatlari orasida qurol kuchi bilan yetakchilikni egallamoqchi bo'ldi. Germaniya qaysi davlat bilan munosabatlarini yomonlashtirmasin, dushmani Fransiya bilan ittifoqdosh bo'lishidan xavfsirardi. Bismark buni e'tiborga olib, Fransiyaning Germaniyaga qo'shni bo'lgan birorta mamlakat bilan yaqinlashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida «uch imperator ittifoqi» (1873- yil) nomi bilan mashhur bitimni tuzishga erishdi. Germaniya, Avstriya-Vengriya va Rossiya birortalariga hujum bo'lish xavfi bo'lgan taqdirda birgalikda harakat qilish haqida kelishib oldilar. Bu bitim noaniqlik xususiyatiga ega bo'lib, bitim ishtirokchilarining birortasi ham o'ziga aniq majburiyatlar olishni xohlamas edi.

1875- yil ko'klamida Bismark nemis matbuotida Fransiyaga qarshi ig'vogarlikdan iborat tashviqotni boshlab yubordi. Bismark Peterburgga maxsus missiya yuborib, unga yangi Germaniya —

Fransiya urushida Rossiya betaraf bo'lishi evaziga Turkiya «hisobiga» nimalarni olishi mumkinligini aniqlashni topshirdi.

Biroq, rus hukumati Germaniyaning bu o'zboshimchaligiga yo'l qo'ymasligini bildirdi. Angliya ham xuddi shunday qildi. Nemis hukumati 1879- yilda chegara boji joriy qilib, rus chorvachilik mahsulotlarini Germaniyaga kiritilishini cheklab qo'ydi. Bu narsa Rossiya eksportiga, qishloq xo'jaligiga katta iqtisodiy zarba bo'ldi.

Bismark 1883- yilda Avstriya-Vengriya hamkorligida uch yil muddatga Rossiya bilan bitim tuzishga erishdi. Bitimga muvofiq, Germaniya bilan Fransiya o'rtasida nizo chiqsa Rossiya betaraf turadigan, Avstriya-Vengriya va Germaniyaning esa Rossiya bilan Angliya urushida betaraf turishiga kelishildi. 1884- yilda rus hukumati faqatgina Fransiya Germaniyaga hujum qilgan taqdirdagina betaraf qolishini aytdi.

Bitimning boshqa moddasiga binoan Avstriya-Vengriya va Germaniya Turkiya hukumatidan Bosfor va Dardanell bo'g'ozlarini «yopib» qo'yishni talab qildi va ingliz flotining Qora dengizga kirishini to'xtatdi, bu bilan Rossiyaga yordam berdi. Bismark ma'lum darajada Rossiya xavfsizligini ta'minlab, O'rta Osiyoda rus ekspansiyani kuchaytirishni rag'batlantirdi va Angliya — Rossiya munosabatlarini keskinlashtirdi. Germaniyaning asl maqsadi ham shu edi.


XIX asrning oxirida Germaniya bilan Amerika zamonaviy texnika bilan ta'minlanib, Fransiya va Angliyadan o'zib ketgan edi. Bu narsa jahon bozori uchun kurashni keskinlashtirib yubordi.

Dunyoni taqsimlashning tugallanishi. Dunyoni qayta taqsimlash uchun kurashning kuchayishi

70- yillarda mustamlakalar bosib olish siyosatida Angliyaning Dizraeli boshliq konservatorlar hukumati tashabbus ko'rsatdi. Angliya Kiprni (1878- yil) bosib oldi. Afg'onistonni o'z ta'siri ostiga olish uchun unga qarshi urush boshladi. Angliya Afrikada Transvaalni bosib olishga urinib ko'rdi, lekin burlarning qarshiligiga duch keldi.

Rus chorizmi O'rta Osiyoda mustamlaka ekspeditsiyasini davom ettirdi. U 1873- yilda Xiva xonligini bosib oldi. Bolqon uchun kurash chorizm kuchlarini bir necha yil mobaynida O'rta Osiyodan chetga tortib turdi. Biroq, Rossiya bilan Turkiya o'rtasidagi urush tamom

bo'lishi bilanoq chorizmning O'rta Osiyoga harbiy harakati qaytadan boshlandi. Turkmaniston zabt etilgach, 1881- yilda Ahaltekin vohasi ham egallandi. 1883- yili Marv shahri ishg'ol qilindi. 1885- yilda chegarada ruslar bilan afg'onlar o'rtasida to'qnashuv bo'ldi. Bu vaqtga kelib Angliya Afg'onistonni ingliz protektoratligini tan olishga majbur qildi. Ingliz hukumati rus-afg'on mojarosiga aralashdi. Bu inglizlar bilan ruslar o'rtasida urush bo'lish xavfini tug'dirdi.



Yirik davlatlar tomonidan bosib olingan mustamlakalar

1881- yilda Fransiya Tunisni bosib olib, u yerda o'z protektoratini o'rnatdi. Oqibatda Italiya — Fransiya munosabatlari keskinlashdi.

Italiya Fransiya qarshi 1882- yilda Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoq tuzdi. Bitimga ko'ra, agar Fransiya hujum qilsa, ittifoqchilar unga harbiy yordamga keladigan bo'ldilar.

1876- yilda nomigagina Turkiya vassali bo'lgan Misrda moliyaviy jihatdan ingliz-fransuz nazorati o'rnatilgan edi. Bu hol mamlakatni butunlay xonavayron qildi. 1882- yilda milliy ozodlik qo'zg'oloni boshlandi. Angliya bunday foydalanib, u yerdagi inglizlarni himoya qilish bahonasi bilan Misrga o'z harbiylarini yubordi. Ular qo'zg'olonchilarni tor-mor qildilar. Inglizlar kemalardan Aleksandriya shahrini to'pga tutishdi. Pirovardida Misr bo'ysundirildi.

Afrikani «bo'lib olish», ayniqsa keskin bo'ldi. Ingliz hukumati Kongo daryosining quyilish joyini Angliyaga moliyaviy va iqtisodiy jihatdan qaram bo'lgan Portugaliyaga berishni istardi. Fransiya bilan Germaniya esa bu joyni Belgiya qiroli Leopoldga bermoqchi edi. O'sha vaqtda deyarli butun Kongo havzasini Belgiya bosib olgandi. 1884—1885- yilgi Berlin konferensiyasida mustaqil Kongo davlatining chegaralari belgilandi.

70- yillarda inglizlar va fransuzlar Nigeriya va Niger daryosining irmoqlarini egallash uchun kurashni kuchaytirdilar. 1884- yili Angliya bu hududlarni zabt etdi. Ular o'rtasidagi nizo 1899- yilgacha cho'zilib, nihoyat bir bitimga kelindi.

80—90- yillarda Fransiya G'arbiy va Markaziy Afrikada juda katta mustamlaka imperiyasini vujudga keltirdi. Fransiya 1886- yilda Madagaskar orolini ham bosib oldi.

1874- yildan 1887- yilgacha o'tgan davr ichida Angliya Malayya yarimorolidagi davlatlar ustidan protektorat o'rnatdi. Angliya bu davlatlardan juda katta foyda olardi. 80- yillarning boshlarida Fransiya Hindistonning janubiy qismini bosib olishga kirishdi. 1883- yil Annamni egalladi, fransuz agressiyasi Vetnam xalqining qattiq qarshiligiga duch keldi. Xitoy ham fransuzlarga qarshi urushga kirdi, 1885- yil martida Long-Song yonida fransuzlarga zarba berdi. Lekin 1885- yilda fransuzlar Tonkinni bosib olishga erishdilar. Bu bilan fransuzlar Hindiston chegaralarigacha bo'lgan hududlarni o'z mustamlakalariga aylantirdilar. Fransiyani Hindistonga «yaqinlashtirmaslik» uchun 1885- yilda inglizlar Birmani bosib oldilar. Fransuz Hindixitoyi bilan Britaniya Hindistoni o'rtasida «oraliq» davlat sifatida Tailand qoldi. Keyinchalik u ham ingliz-fransuz «ta'sir doirasi»ga kirdi.

Germaniya 70- yillardan mustamlakalar egallashga urinsa-da, Bismark bunga jur'at eta olmadi. 80- yillarning boshlarida Angliya — Fransiya, Fransiya — Italiya o'rtasidagi, 70- yillarning ikkinchi yarmida Angliya — Rossiya munosabatlarining keskinlashishi natijasida, Germaniya Yevropada qat'iyatlik bilan o'zining mustamlakachilik siyosatini boshladi. 1884- yilda dastlab Janubi-G'arbiy Afrika yerlarini, so'ngra Togo va Kamerun hududlarini, 1885- yilda G'arbiy Afrika va Yangi Gvineyaning shimoli-sharqiy qismini bosib oldi.

1885—1887- yillarda Bolqonda vaziyat keskinlashdi. 1887- yil iyulida 1881- yildan amal qilib kelayotgan «betaraflik» haqidagi Avstriya-Vengriya va Germaniya — Rossiya bitimining muddati tugadi. Rossiya — Avstriya bilan bitim tuzishni istamadi, shuning uchun Rossiya — Germaniya bitimi tuzildi. Bu bitim «Hadixsirash bitimi» deb nom oldi. Chunki rus hukumati Germaniya Fransiyaga hujum qilganda betaraf qololmaganidek, Germaniya ham Rossiya Avstriyaga hujum qilsa betaraf qololmas edi. Fransiya — Rossiya munosabatlari Germaniyaning «g'ashiga» tegar edi. Shu tufayli 1887- yilda nemis hukumati Rossiyaga qarz berishni to'xtatdi. Rus qimmatbaho qog'ozlari Reyxsbank tomonidan rad etildi. Chor hukumati Parij bankiga murojaat qilib, Berlin rad etgan va o'ziga kerakli bo'lgan pulni oldi. Germaniya — Rossiya munosabatlari keskinlashgach, Germaniya Angliya bilan yaqinlashishga harakat qildi. Biroq, Angliya nemislarning ittifoqchilik haqidagi taklifini rad etdi. 1890- yilda Bismark iste'fo berishga majbur bo'ldi. Uning o'rniga hokimiyat tepasiga Kaprivi keldi. Kaprivi 1887- yildagi bitimning mustahkamligiga ishonmadi va uni bekor qildi.

Mustamlakalar egallashda, ayniqsa Tunis tufayli Italiya — Fransiya munosabatlari keskinlashdi. Tunisda fransuz kapitali hukmron edi. Yosh italyan burjuaziyasi bu hukmronlikni o'z qo'liga olmoqchi edi. Shunday qilib, Fransiya bilan Italiya o'rtasida «boj urushi» boshlandi. Bu urush 1886 yildan 1898 yilgacha davom etdi.

90- yillardagi kurash

Germaniyaning «hadixsirash bitimi»dan voz kechishi Rossiya — Fransiya ittifoqiga turtki berdi. 1891- yilda Rossiya bilan Fransiya o'rtasida bitim tuzildi. 1892- yilda harbiy konvensiya ishlab chiqildi. Konvensiyada qarshi kuchlar hujum qilganda Rossiya bilan Fransiya bir vaqtning o'zida safarbarlik e'lon qilishi lozim edi. 1893- yilda konvensiya ratifikatsiya qilindi.


XIX asr oxirida Xitoy tufayli kapitalistik davlatlar o'rtasida kurash kuchaydi. Bunga 70-yillardayoq Tayvan orolini bosib olgan yaponlar «asos solgan» edi. 1894- yilda Yaponiya urush e'lon qilmasdan Xitoy yerlariga hujum boshladi. Xitoy armiyasi tor-mor qilindi. 1895- yili Yaponiya hukumati Xitoyga sulh shartlarini majburan qabul qildirdi. Simonoseki sulh shartiga ko'ra Xitoy

OSIYO VA AFRIKANING RIVOJLANGAN



Tayvan orolini, Tyanszinni va Pekinga kirib boradigan dengiz yo'lida joylashgan Port-Artur hamda Lyaodun yarimorolini Yaponiyaga berdi. Xitoyga qaram bo'lgan Koreya «mustaqil» bo'ldi. Yaponiya Lyaodun yarimorolini va Koreyani bosib olgach, Rossiyaning Uzoq Sharqiga xavf sola boshladi. Fransiya Rossiya ittifoqchisi bo'lganligi sababli yapon agressiyasiga qarshi yordam

DAVLATLAR TOMONIDAN BO'LIB OLINISHI



berishni va'da qildi. Yaponiya — Xitoy munosabatlariga aralashish Uzoq Sharqda ta'sir o'tkazish imkonini beradi, deb hisoblagan Germaniya ham bu janjalga qo'shilgan edi. Rossiya, Fransiya va Germaniya Yaponiyadan bosib olingan yerlaridan voz kechishni talab qildilar, aks holda yapon suvlariga o'z harbiy dengiz kuchlarini yuborish bilan po'pisa qildilar. Uch davlatning tazyiqi

ostida Yaponiya chekinishga majbur bo'ldi. Ammo Tayvanni o'zida saqlab qoldi. Lyaodun yarimoroli Xitoyga qaytarildi, buning evaziga Xitoy Yaponiyaga to'laydigan tovon miqdori ko'paytirildi. Xitoyda mablag' yo'q edi. Shuning uchun Rossiya bilan Fransiyadan qarz oldi. Bu ularga o'z kapitallarini Xitoyga kiritish imkonini berdi. 1896- yilda Rossiya-Xitoy ittifoqi tuzildi, unga ko'ra, Yaponiya Xitoyga hujum qilgudek bo'lsa, Rossiya Xitoyni himoya qilish majburiyatini oldi.

Chor hukumatining uzoq Sharqda Yaponiya ustidan qozongan diplomatik g'alabasi 1896- yilda Sharqiy Xitoy temir yo'lini qurish va ekspulatsiya qilish imkoniyatini berdi. Bu Baykal bo'yidan Vladivostokka boruvchi yo'lni Xitoy hududidan o'tkazish, binobarin, qurilishni tezlashtirish imkonini berardi. 1897- yilda Germaniya Szyaochjouvan buxtasini bosib oldi va Xitoyni Szyaochjouvanni Germaniyaga «ijaraga» berish haqidagi shartnomani imzolashga majbur qildi. Rus hukumati bunga qarshilik qildi, lekin Port-Arturni olgach, ortiqcha monelik qilmadi. 1898-yil boshlarida Lyaodun yarimorolini Rossiyaga ijaraga berish haqida rus-xitoy bitimi tuzildi.

Uzoq Sharqda o'zini «xo'jayin» hisoblagan Angliya kapitali Xitoyda birinchi o'rinda edi. Chunki 60- yillarda Gonkong — Shanxay banki inglizlarning eng yirik mustamlaka banklaridan edi. Xitoy dengiz bojxonasi ustidan inglizlar nazorati o'rnatilgan edi. Angliya 90- yillarga qadar Xitoyda zamonaviy harbiy dengiz bazasi bo'lgan yagona davlat edi.

Angliya Rossiyani «Osiyo uchun kurash»da o'zining asosiy raqibi deb bilardi. 1896- yilda Angliya Yaponiyaga qarshi Germaniya, Rossiya va Fransiya talablariga qo'shilishdan bosh tortdi. Angliya Yaponiya bilan munosabatlarni buzishni istamas, chunki Rossiyaga qarshi kurashda Yaponiyadan foydalanishni nazarda tutardi.

Ingliz hukumati strategik ustunlikka erishish uchun Veyxey portini bosib oldi. Temir yo'l qurilishi Rossiya bilan Fransiya ta'siriga tushib qolmasligi uchun inglizlar Xitoy hukumatidan ko'proq temir yo'l konsessiyasi olishga intildilar. Janubda, Hindixitoy bilan qo'shni yerda temir yo'l konsessiyasini Fransiya qo'lga oldi. Shandunda temir yo'l qurilishi va kon sanoati Germaniya

ta'sirida edi. Angliya hissasiga Xitoyning eng boy Yanszi daryosi havzasi, Gonkongga yaqin materikda joylashgan Kanton bilan Guandun viloyati qoldi. Xitoy xorijiy davlatlar tomonidan shu tariqa «bo'lib olindi».

Fashoda inqirozi

1896- yilda Italiya Habashiston (Abisiniya)ni bosib olishga kirishdi. Biroq Italiyaning ekspedision korpusi Adua yonidagi jangda butunlay tormor qilindi. Habashiston bu kurashda o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

1896- yilda Angliya Sudanni bosib olishga kirishdi. 1898- yilda mahalliy aholining qarshiligiga qaramay Xartumni egalladi. Ingliz ekspedision korpusi Nil daryosining yuqori qismida, Fashoda qishlog'i yaqinida fransuz kapitani Marshan qo'mondonligidagi qo'shinga duch keldi. Marshanning maqsadi inglizlarga Nil daryosining yuqori qismini egallashga imkon bermaslik edi. Marshan bu yerda joylashib olib, Misrda fransuzlar ta'sirini kuchaytirishga yordam berishi lozim edi. Ingliz qo'shinlari qo'mondoni Kitchener Marshanga Nil havzasidan «ketishni» taklif qildi, taklif rad etilsa, urush boshlanadi, deb Fransiyaga po'pisa qildi. Marshan hukumat ko'rsatmasi bilan «yon berdi». Tez orada Sudanni bosib olish tugallandi.

70–90- yillar mobaynida Afrikaning markaziy va janubiy rayonlarini, Sharqiy Osiyo hamda Tinch okeandagi orollarni bo'lib olish tugallangan edi.

Lotin Amerikasi mamlakatlari XX asrning boshlariga qadar o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan bo'lsalar-da, ba'zan inglizlarga, ba'zan amerikaliklarga moliyaviy-iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib keldilar. Juda katta hududlar yirik kapitalistik davlatlar tomonidan mustamlakalarga aylantirildi. Umuman, XIX asr oxirlariga kelib, o'sha davrning qudratli davlatlari tomonidan dunyoni hududiy jihatdan bo'lib olish tugallangan edi.

Ko'p o'tmay rivojlangan davlatlar dunyoni qaytadan taqsimlash uchun o'zaro kurashni boshlab yubordilar.

Savol va topshiriqlar

- ?** 1. 1870- yilda Afrikada Yevropa davlatlarining qanday mustamlakalari bor edi?

2. «Dunyoni hududiy jihatdan taqsimlab olishning tugallanishi» degan tushunchaning mazmunini ochib bering.
3. Germaniya imperiyasi nima sababdan Yevropada yetakchi o'rinini egallashga urindi?
4. XIX asrning oxirida dunyo miqyosida kuchlar nisbati qanday edi?
5. «Uch imperator ittifoqi» haqida so'zlab bering. Nima sababdan bu «ittifoq» qisqa vaqt ichida tarqab ketdi?
6. «Uchlar ittifoqi» va «Antanta»ning bir-biridan farqli tomonlarini aniqlang.
7. XIX asr oxirida xalqaro munosabatlar nima uchun keskinlashib ketdi? Tomonlar qanday maqsadlarni ko'zlardilar?

Bu voqealarni yodda tuting: Germaniya imperiyasining tuzilishi (1871), Italiya qirolligining vujudga kelishi (1861), Uch imperator ittifoqi (1873), Uchlar ittifoqi (1882), Xiva xonligining bosib olinishi (1873), «boj urushi» (1886—1898), Rossiya — Xitoy bitimi (1896).

38- §. XX asrning boshlarida xalqaro munosabatlar

XX asr boshlarida davlatlar o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi. Angliya—Germaniya, Fransiya—Germaniya ziddiyatlari

XX asr boshlariga kelib dunyoning rivojlangan davlatlari o'rtasida bozor va hududlar masalasida o'zaro ziddiyatlar kuchayib ketdi. AQSH Ispaniyaga qarshi urush qilib, uning ustidan osongina g'alaba qozondi. Ispaniya-Filippin orollarini, Puerto-Riko va Kubani AQSH ga berishga majbur bo'ldi. Ispaniya — Amerika urushi dunyoni qayta bo'lib olish yo'lidagi birinchi talonchilik urushi edi.

AQSH hukmron doiralari Xitoyni Amerika kapitalining istiqbolidagi muhim bozor deb qarardilar. Ammo Xitoy boshqa yirik davlatlar tomonidan «ta'sir doiralariga» allaqachon bo'lib olingan edi. Shuning uchun AQSH 1899- yilda Davlat kotibi Xey orqali Xitoyda «ochiq eshiklar» doktrinasini, ya'ni Xitoyga iqtisodiy sohada erkin «kirib borish» va barcha davlatlar kapitalining faoliyati uchun teng imkoniyatlar yaratishni e'lon qildi. AQSH hukumati Rossiyani o'zining Xitoydagi asosiy raqibi deb hisoblardi. Shuning uchun AQSH ham ingliz hukumati kabi Rossiyaga qarshi Yaponiyani qo'llab-quvvatladi.

Ilgaridan mavjud bo'lgan xalqaro ziddiyatlar XX asrga ham o'tib keldi. Bu ziddiyatlar monopolistik kapital tufayli yanada keskinlashib ketdi.

Fransuz hukmron doiralari Elzas va Lotaringiyaning Germaniya bosib olgan qismini qaytarib olmoqchi bo'ldilar. Germaniya esa Fransiya qo'lida qolgan Bris va Longvi havzalarini bosib olmoqchi bo'ldi. Germaniyaning Fransiya qarshi kurashi o'z navbatida uning Yevropada gegemonlik qilish uchun kurashi ham bo'ldi. Angliya bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyatlar XX asr boshlaridagi xalqaro urushga sabab bo'ldi.

Angliyada yuz bergan inqiroz tufayli taraqqiyot birmuncha orqaga ketdi. Germaniya kapitali esa Yevropada ingliz kapitalini siqib chiqara boshladi. Natijada ingliz-german munosabatlari keskinlashdi. Germaniya imkoni boricha Angliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi harakat qila boshladi. Raqobatchilik Janubiy Afrikada kuchaydi. Bu yerda Germaniya Angliyaga va uning Bur respublikasiga qarshi kurash boshladi.

Vilgelm II ning Konstantinopolga bormagani, Turkiya sultonining nemis kapitalistlariga Bag'dod temir yo'lini konsessiyaga berishga va'da qilishi Angliya hukmron doiralarning u yerdagi manfaatlariga xavf soldi. Chunki Germaniyaning harbiy dengiz floti qurishga kirishganligi inglizlarning xavotirlanishiga asos edi. Uning ustiga ingliz dengiz flotining nemis flotidan «orqada» qolayotgani ma'lum bo'lib qoldi.

Uzoq Sharqda Rossiyaga qarshi kurash va Afrikada mustamlakachilik masalasida Fransiya bilan ziddiyatlarning mavjudligi Angliyani ma'lum vaqt Germaniya bilan murosqa qilib turishga majbur qildi. Hatto, Rossiya Port-Arturni egallagach, 1898- yilda Angliya Germaniya bilan ittifoq tuzish to'g'risida muzokaralar olib bordi. Chunki 1899—1902- yillarda ingliz qo'shinlari Bur respublikasida urush bilan band edi.

Rossiya — Yaponiya ziddiyatlari.
Uzoq Sharqdagi siyosat

1900- yili sakkizta kapitalistik davlatning Xitoyni asoratga solishiga qarshi xalq qo'zg'oloni boshlanib ketdi. Qo'zg'olonchilar Pekinni bosib oldilar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Angliya, Yaponiya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya va Italiya, Avstriya-Vengriya xalqaro jazo korpusi yubordilar. 1900- yil 15- avgustda bu xalqaro

korpus Pekinni ishg'ol qildi va qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi. Pekindagi saroy va ibodatxonalar ajnabiy bosqinchilar tomonidan talandi, shahar va qishloqlar to'pga tutildi. G'olib davlatlar Xitoyni yangi asoratli shartnomalar tuzishga majbur qildi.

Xitoy hukumati milliy manfaatlariga putur yetkazuvchi shartlarni qabul qilishga majbur etilib, G'arb davlatlariga «qo'zg'olon natijasida chet elliklar ko'rgan zarar evaziga» o'lpon to'lashga, Xitoyga qurol olib kirishni man qilishga rozilik berdi.

Bu davrda chor qo'shinlari Manjuriyaning bir qismini, Angliya chet el kapitali faollashgan Shanxayni bosib oldi va Yanszi daryosi atrofidagi yerlarda ustun mavqega ega bo'ldi. Angliya Rossiyani Manjuriyadan «siqib» chiqarishga urindi. Bunda u Germaniya madadiga «ko'z tikdi». Lekin Germaniya hukumati bilan Rossiyaga qarshi ittifoq tuzmadi. Biroq, Angliya ruslarga qarshi ittifoqchi sifatida Yaponiyani «topdi». 1902- yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra, ittifoqchilar ulardan biriga tashqaridan harbiy xavf yuzaga kelsa, o'zaro yordam berish haqida kelishib oldilar. Bundan tashqari, Yaponiya Angliyaning moliyaviy yordamini oldi, busiz Yaponiya Rossiyaga qarshi urush boshlay olmas edi. Rossiyaga qarshi Yaponiyani qo'llab, AQSH ham unga moliyaviy yordam berib turdi.

1904- yili Yaponiya to'satdan, urush e'lon qilmay rus harbiy-dengiz flotiga hujum qildi. Rus-yapon urushi boshlanib ketdi. Urushda chor Rossiyasi mag'lubiyatga uchradi. Buning sababi chorizmning harbiy-iqtisodiy zaifligi va urushga mutlaqo tayyorgarlik ko'rmaganligida edi. Aslida? Rossiya Yaponiyaning Mukden va Susimadagi mag'lubiyatidan keyin ham urushni davom ettirishi mumkin edi. Lekin chor hukumati Peterburgda va Rossiyaning boshqa shaharlarida boshlanib ketgan inqilobdan cho'chib, AQSH hukumati vositachiligida Yaponiya bilan sulh tuzishga shoshildi. Portsmutda tuzilgan sulh shartnomasiga binoan (1905- yil 23- avgust) chor hukumati Yaponiyaga Lyaodun yarimoroli va Port-Artturni ijaraga olish huquqini, Janubiy Manjuriya temir yo'liga va butun Manjuriyaga amalda hukmronlik qilish huquqini berdi. Rossiya Yaponiyaning Koreyada hukmronligini tan oldi va AQSH ning «siquvi» ostida Yaponiyaga Saxalin orolining janubiy qismini berishga majbur bo'ldi.

Italiyaning «Uchlar ittifoqi»dan amalda chetlanishi

Fransiya «Uchlar ittifoqi»ni zaiflashtirib, Italiya bilan yaqinlashish yoʻlini tutdi. Chunki Italiya Fransiya bilan olib borilayotgan savdo urushidan katta zarar koʻrayotgan edi. Bojxona janjallariga chek qoʻyish maqsadida Fransiya bilan Italiya oʻrtasida savdo shartnomasi tuzildi. 1900- yilda Italiyada iqtisodiy inqiroz yuz berib, u katta miqdorda Fransiyadan kredit oldi. 1902- yilgi bitimga muvofiq, Fransiya Tripolitaniyaga boʻlgan daʼvosidan, Italiya esa Marokashga boʻlgan daʼvosidan voz kechdi. Fransiya bilan Italiya shuningdek, harbiy nizolar paytida betaraflikni saqlash majburiyatini oldilar. Bu bitim imzolanishi bilan amalda Italiyaning «Uchlar ittifoqi»dan chetlanishi, yaʼni Italiyaning undagi ishtiroki bundan keyin foydasiz ekanligi maʼlum boʻlib qoldi.

1904- yildagi Angliya — Fransiya bitimi

1904- yil aprelda Angliya va Fransiya hukumatlari mustamlakachilik masalalari yuzasidan bitimga kelishdi. Fransiya «Angliyaning Misrdagi harakatlariga bundan buyon toʻsqinlik qilmasligini», Misrning inglizlar «taʼsir doirasida» ekanligini eʼtirof qildi. Bunga javoban ingliz hukumati Fransiyaning Marokashdagi harakatlariga toʻsqinlik qilmaslikka vaʼda berdi. Maxsus tuzilgan maxfiy bitimda Marokash sultoni «oʻz vazifasini bajara ololmasligi» ehtimoldan holi emasligi va shunday boʻlgan taqdirda Marokash hududining Gibraltar boʻgʻoziga bevosita tutashgan qismi Ispaniyaga berilishi, Marokashning qolgan qismini Fransiya oʻz qoʻliga olishi koʻzda tutilgan edi. Ingliz hukumati Gibraltar boʻgʻozi Fransiyaning emas, balki Angliya uchun «xavfsizroq» Ispaniya tasarrufida boʻlishini afzal bildi.

1905- yildagi Marokash inqirozi

Fransiya Germaniyaning agressiyasidan xavfsirardi. 1904- yil oxirida Germaniya hukumati Rossiyaning rus-yapon urushida magʻlubiyatga uchraganidan foydalanib, uni oʻzi uchun qulay boʻlgan savdo shartnomasini tuzishga majbur qildi.

Vilgelm II bu bilan cheklanmay, Nikolay II bilan Rossiya — Germaniya oʻrtasida ittifoq tuzish haqida ogʻzaki muzokaralar boshladi. Shartnoma tuzilgan taqdirda Fransiyaning Rossiyaga qarshi urush boshlashi uchun yoʻl ochilgan boʻlardi. Nikolay II Vilgelm II talablarini rad etdi.

Germaniya mavjud vaziyatni hisobga olib, ingliz-fransuz «Antanta»siga qarshi chiqdi. Vilgelm II Marokash mustaqilligini himoya qilish niqobi ostida 1905- yil 31- martda Marokashning Tanjer portiga bordi. U o'z nutqida Germaniya Marokashga boshqa davlatlar bilan bir qatorda «teng huquq» berishini ta'kidladi. Shundan so'ng Germaniya hukumati xalqaro konferensiya chaqirishni talab qildi. Germaniya konferensiyadan Marokash haqidagi ingliz-fransuz bitimini bekor qilish uchun foydalanishni nazarda tutardi. Fransiya Marokash masalasini xalqaro konferensiya muhokamasiga qo'yishga rozi bo'ldi. Fransiya Bosh vaziri Ruve esa Marokash masalasida Germaniya bilan muzokara boshladi.

Alxiseras konferensiyasi

1906- yil yanvarida Ispaniyaning Alxiseras shahrida Marokash masalasi bo'yicha xalqaro konferensiya boshlandi.

Konferensiyada Germaniya yakkalanib qoldi. Angliya, Rossiya va hatto, Germaniyaning rasman ittifoqchisi bo'lgan Italiya ham Fransiyani qo'llab-quvvatladi. AQSH ham Fransiyani quvvatlab chiqdi. Germaniya Marokashdan Fransiyani «siqib» chiqara olmadi. Marokash suveren davlat deb e'tirof qilingan bo'lsa-da, amalda uning mustaqilligi cheklandi. Marokash politsiyasini tashkil qilish Fransiya bilan Ispaniyaga (har biri o'z «ta'sir doirasida») topshirilgan edi. Bu avvalo, Fransiyaga «tartib saqlab turish» bahonasi bilan Marokashda o'z ta'sirini o'tkazib turish imkonini berdi.

Marokash davlat bankini tashkil qilish masalasida Germaniyaga «yon berildi». Bu bank german, ingliz, fransuz va ispan banklari ishtirokidagi konsorsium asosida tashkil qilinadigan bo'ldi. Marokashning bojxona daromadlari xalqaro nazorat ostiga olindi. Biroq, Germaniya Marokashdan «umidini uzmadi».

1907- yilgi Angliya — Rossiya bitimi

1904- yilda Fransiya — Rossiya ittifoqi Rossiyaning Angliya bilan yaqinlashuviga yordam berdi. Urush va inqilobdan

zaiflashgan Rossiyaga fransuz zayomlaridan tashqari, birinchi marta ingliz kapitali kirib kela boshladi.

Bu «yaqinlashuv»ning yana bir sababi, bu paytda Angliya mustamlakasi bo'lgan Hindistonda ham Rossiyadagidek inqilobiy harakatlar boshlanayotgan edi. Buning oldini olishda Angliya Rossiyani o'z ittifoqchisi deb bilardi. Eronda inqilob ko'tarilganida

chor Rossiyasi bilan Angliya birgalashib, bu inqilobga qarshi yurish qilishdi. O'zaro munosabatlardagi bu o'zgarishlar 1907-yilda Angliya bilan Rossiya o'rtasida bitim tuzilishiga olib keldi.

Bu bitimga ko'ra, Eron uch zonaga bo'lindi. Shimoliy Eron (eng boy va aholi ko'p qismi) Rossiyaning «ta'sir doirasida» ekanligi e'tirof qilindi. Markaziy Eron «betaraf zona» deb e'lon qilindi, neftga boy hamda Hindistonga o'tadigan yo'llar mavjud Janubi-Sharqiy Eron inglizlar «ta'sir doirasiga» o'tdi. Ingliz-rus bitimi Afg'onistonga ham taalluqli edi. Bu mamlakat Angliya «ta'sir doirasida» deb tanildi. Tibet Xitoyning suvereniteti ostida bo'lsa-da, amalda inglizlarning bosqinchilik niyatlari obyekt bo'lib qoldi. Shunday qilib, uch davlatning yaqinlashuvi 1907-yili Antantaning tarkib topishi bilan yakunlandi.

Italiya — Turkiya urushi (1911- yil)

Italiya Usmoniy turk imperiyasining bir viloyati bo'lgan Tripolitaniyani bosib olishga ko'pdan harakat qilib kelardi.

1900-yilgi Fransiya — Italiya shartnomasiga ko'ra, Italiya mustamlaka egallashga qaratilgan bu urushga Fransiyaning roziligini oldi.

Italiya qo'shinlari Tripolitaniyada joylashgan uncha kuchli bo'lmagan turk partizanlari ustidan osonlik bilan g'alaba qozondilar. Lekin Tripolitaniyadagi arab qabilalari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Turk hukumati Tripolitaniyaning bosib olinishiga qarshi norozilik bildirib keldi. Biroq, Bolqonda boshlanib ketgan urush tufayli Turkiya 1912-yilda sulh shartnomasini imzolashga va Tripolitaniyani Italiyaga berishga majbur bo'ldi.

Bolqondagi urush harakatlari

1912-yilda Bolgariya bilan Serbiya chor Rossiyasining, shuningdek Antantaga kirgan boshqa davlatlarning yordami

bilan o'zaro ittifoq bo'lish haqida shartnoma tuzdilar. Bolqon masalasi Yevropa davlatlarining aralashuvi bilan yanada murakkablashdi. Turkiyani o'ziga bo'ysundirmoqchi bo'lgan Germaniya va uning ittifoqchisi Avstriya-Vengriya Bolqon xalqlarining ozodlik kurashiga to'sqinlik qilmoqchi bo'ldilar. Rossiya Bolqon davlatlarini qo'llab-quvvatlardi.

Bolqon ittifoqi davlatlari Turkiyaga qarshi 1912-yil oktabrida urush boshladilar. Rossiya ularning bu xatti-harakatlarini

ma'qullamadi. Chunki Rossiyaga Bolqon ittifoqi Turkiyaga qarshi urush uchun emas, balki Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi kurashish uchun zarur edi.

Turkiya juda tez fursatda yengildi. Bolqon qo'shinlari Konstantinopol tomon yo'l oldilar, grek qo'shinlari Salonikini ishg'ol qildi. 1912- yil noyabrda Turkiya sulh tuzishni so'radi. Muzokaralar uzoq davom etdi. Kelishmovchilik tufayli vaziyat murakkablashdi.

Serbiya Albaniyani ololmaganidan so'ng buning evaziga Makedoniyani «bo'lishda» o'zining hissasini ko'paytirishga Bolgariya hukumatining rozilik berishini talab qildi. Gretsiya bu masalada Serbiyani quvvatladi. Serbiya bilan Gretsiya Bolgariyaga qarshi ittifoq tuzdilar. Bu janjalga buyuk davlatlarning aralashishi natijasida ahvol yanada murakkablashdi. Bolqon ittifoqini barbod etish maqsadida Germaniya bilan Avstriya-Vengriya Bolgariyani Serbiya va Gretsiyaga hujum qilishga undadi. 1913- yil 29- iyunda bolgar qo'shinlari serb armiyasiga qarshi urush boshladi. Shu tariqa Ikkinchi Bolqon urushi boshlandi.

Serbiya, Gretsiyaga Ruminiya va Turkiya ham qo'shildi. Bolgariya yengildi. 1913- yil 10- avgustda Buxarestda sulh shartnomasi imzolandi. Bolgariya Ruminiyaga Dobrujdani, Serbiyaga Makedoniyaning kattagina qismini, Turkiyaga Adrianopolni qaytarib berishga majbur bo'ldi. Gretsiya Bolqon urushlari natijasida Egey dengizidagi barcha orollarni, Janubiy Makedoniyani, Saloniki va Kiprni qo'lga kiritdi. Bolqon urushlari asosan, Bolqon slavyanlarining turklar zulmidan ozod bo'lishi bilan tugallandi.

Sarayevo voqeasi

O'sha davrdagi mavjud notinch vaziyatda har bir xalqaro nizo va janjal jahon urushiga olib kelishi mumkin edi. Avstriya-Vengriya va Serbiya o'rtasidagi ziddiyatlardan biri jahon urushi boshlanishiga bahona bo'ldi. Serbiyada Janubiy slavyanlarni Avstriya-Vengriya zulmidan ozod qilishni maqsad qilgan juda ko'p milliy tashkilotlar bor edi. Ularning ko'pchiligi yakka terrorchilik taktikasini qo'llar edi. Avstriya-Vengriya armiyasining Bosh qo'mondoni ers-gersog Frans Ferdinand Bosniyadagi harbiy mashqlarda qatnashayotgan edi. Milliy tashkilotlardan «Mladi Bosni» («Yosh Bosniya») Frans Ferdinandni o'lim jazosiga hukm qildi. Harbiy mashqlardan Sarayevoga qaytib kelgan shahzoda «Mladi Bosni» inqilobiy

vatanparvarlik tashkilotining a'zosi Navriko Prinsip tomonidan o'ldirildi. Frans Ferdinand Avstriya-Vengriya monarxiyasining taxt vorisi edi. Voqealarning bunday rivojidan foydalanmoqchi bo'lgan Avstriya-Vengriya 1914- yil 28- iyulda Serbiyaga qarshi urush e'lon qildi. Dunyo ikki tarafga bo'linib, jahon urushi boshlanib ketdi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XX asr boshlarida qanday sabablarga ko'ra rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ziddiyatlar keskinlashib ketdi?
 2. Monopolistlarning manfaatlari to'qnashgan hududlarni xaritadan ko'rsating.
 3. Italiyaning «Uchlar ittifoqi»dan chetlashishining asosiy sababi nima edi?
 4. Qanday sabablarga ko'ra Marokash inqirozi yuz berdi? Alxiseras konferensiyasi natijalari haqida gapirib bering.
 5. 1907- yildagi Angliya — Rossiya bitimidan bu davlatlarning o'zaro maqsadlari qanday edi?
 6. Bo'qon urushlari kelib chiqishiga nimalar sabab bo'ldi?
 7. Sarayevo voqeasi qanday yuz berdi? Buning sabablarini so'zlab bering.
 8. Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib kelgan voqealar nimadan iborat edi?

Bu voqea va hodisalar ustida bahs yuriting, mazmunini aniqlang: Xey doktrinası, ingliz-burlar urushi, rus-yapon urushi, Susima mag'lubiyati, «Antanta»ning tuzilishi, Marokash inqirozi, Alxiseras konferensiyasi, Sarayevo voqeasi.
Bu voqealar kimlarga kerak edi?

TO'RTINCHI BO'LIM. FAN VA MADANIYAT

15- b o b. XIX ASRNING OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA FAN VA MADANIYATNING RIVOJLANISHI

39- §. Moddiy ishlab chiqarishda texnika taraqqiyoti

XIX asrning 70- yillari – XX asr boshlarida texnika va tabiiyot ilmining taraqqiy etishiga monopolistik kapitalizmning yanada rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ta'sir ko'rsatdi.

Texnikaning taraqqiy etishiga ishlab chiqarishning tobora ko'proq konsentratsiyalashuvi ham g'oyat katta ta'sir qildi. Yirik korxonalarining vujudga kelishi texnikadan foydalanishni yangicha hal qilishni talab etdi. Texnikaning takomillashuvi hayotiy zaruriyat bo'lib qoldi, raqobat esa ishlab chiqarishning yangidan kashf etilgan texnika vositalarini tezda joriy etish zaruriyatini tug'dirdi.

Ayrim mamlakatlar taraqqiyotidagi notekislikning kuchayishi bir guruh mamlakatlarning texnika va tabiiyot ilmini rivojlantirishdagi mavqeiga ham ta'sir etdi.

Transport va temir yo'llar

XIX asrning so'nggi choragi va XX asrning boshlarida mustamlakalar bosib olish, ta'sir doiralari va mol sotiladigan

bozorlarni qo'lga kiritish uchun kurashda transport juda muhim rol o'ynay boshladi. Transport tizimini keng ko'lamda taraqqiy ettirmay va qudratli harbiy dengiz floti barpo etmay turib, dunyoni taqsimlash, qayta taqsimlash uchun kurashib bo'lmas edi.

XIX asrning 70- yillarida parovozsozlikni taraqqiy ettirishdagi boshlang'ich davr tugadi. Parovozni takomillashtirish, uning quvvatini va tortish kuchini oshirishda katta ishlar amalga oshirildi.

1875- yildan 1913- yilgacha bo'lgan davrda butun dunyoda asosan eng yirik kapitalistik mamlakatlar tomonidan qurilgan temir yo'llarning uzunligi deyarli 4 barobar oshdi. Shimoliy Amerika, Osiyo va Afrikani kesib o'tuvchi temir yo'llar qurildi.

Mustamlakalarda hamda Osiyo va Amerikadagi mustaqil, yarim

sentratsiyalashuvning o'sishiga ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatgan narsa 1900- yildagi inqiroz bo'ldi.

Vaqt o'tishi bilan yuqori darajada chidamli, mustahkam, kuchli va tez harakat qiladigan ko'plab mashina va muhandis-qurilish konstruksiyalarni yaratishga o'tildi. Ishlab chiqarish taraqqiyotining eng zarur tarmoqlari — yangi energiya bazalari yaratish zaruriyati va imkoniyati tug'ildi. XIX asrning oxirlariga borib sanoatning energetik imkoniyatlarini kengaytirish uchun sharoit yaratildi. Sanoatning rivojlanishi fabrika, zavod, savdo joylari va idoralarning sun'iy yoritgichlarga bo'lgan talabini yil sayin oshirib bordi.

Cho'g'lanish lampalarini takomillashtirish sohasida rus ixtirochisi *A. N. Lodigim* (1847—1923) ishlari muhim rol o'ynadi. Lodigin o'z lampalarini Peterburgda 1873- yilda birinchi marta namoyish qildi. 1876- yilda mashhur rus ixtirochisi *P. N. Yablochkov*ning (1847—1894) «elektr shami» deb atalgan lampasi—yorug'likning yangi manbai sifatida vujudga keldi. Yablochkov «shami» ikki soatcha yonib turardi.

XIX asrning oxirlarida yoy lampalar o'rniga tejamli va foydalanish birmuncha qulay lampalar — cho'g'lanish lampalari ishlatila boshlandi. Amerikalik mashhur texnik ixtirochi *T. Edison*



Tomas Edison

(1847—1931) bir necha yilgi izlanishlardan keyin, 1879- yilda havosi so'rib olingan, ko'mir tolali cho'g'lanish lampasining yangi turini yaratishga muvaffaq bo'ldi. U 1882- yilda Nyu-Yorkda birinchi issiqlik elektr stansiyasini qurdi.

Lekin elektroenergiya nafaqat yoritgichlar vazifasini bajarish, balki mexanik energiyaning asosi sifatida qo'llanishi dunyoda keng miqyosda elektr stansiyalar qurilishini taqozo qilar edi. Rus elektrotexnigi *D. A. Lachinov* (1842—1902) elektroenergiyani uzoq masofaga uzatishni isbotladi. Fransuz tadqiqotchisi *M. Dep-*

re 1882- yilgi Myunxen ko'rgazmasida 57 km uzunlikdagi elektr uzatish liniyasini tajribada ko'rsatib berdi.

Elektr vositasida yoritish bilan birga elektr energiyasidan sanoatda foydalanish muammosi ham hal etildi. O'zi belgiyalik bo'lib, Fransiyada ishlagan *Z. Gramm* (1826—1901) 1869- yilda yangi tipdagi generator ixtiro qildi. Bu generatorni 1873- yilda nemis elektrotexnigi *F. Xefner-Alteneck* (1845—1904) takomillashtirdi. 80—90- yillarda dunyoning barcha mamlakatlarida elektr stansiyalari qurilib takomillashtirilib borildi.

Ixtirochilar oldida elektr energiyasini olis masofaga uzatish va elektr dvigatellarni energiya bilan ta'minlash uchun o'zgaruvchan tokdan va o'zgaruvchan tok transformatorlaridan foydalanish masalasini hal qilish vazifasi turardi. Italian fizigi va elektrotexnigi *G. Ferraris* (1847—1897) tomonidan bu yo'lda dastlabki qadam qo'yildi.

Keyinchalik bu g'oyani mashhur yugoslav olimi, muhandis- elektrotexnik *N. Tesla* (1856—1943) ro'yobga chiqardi va amalda qo'lladi. *N. Tesla* ikki va ko'p fazali elektr dvigatellarining har xil konstruksiyalarini yaratdi.

Rus ixtirochi-muhandisi *M. O. Dolivo-Dobrovolskiy* (1862—1919) elektr energiyasini uzatish uchun ikki fazali o'zgaruvchan tokdan emas, balki uch fazali o'zgaruvchan tokdan foydalanishni taklif etdi.

1891- yilda Frankfurt-Maynda tashkil etilgan elektr ko'rgazmasida Dolivo-Dobrovolskiy elektr energiyasini qariyb 17 km masofaga uch fazali tok yordamida uzatishni amalga oshirdi. Xuddi shu ko'rgazmada Dolivo-Dobrovolskiyning uch fazali dvigateli ham namoyish qilindi, bu dvigatelning aniq chizmasi hozirgacha uncha o'zgargan emas.

To'rt taktli dvigatel prinsipini 1862- yildayoq fransuz muhandisi *A. Bode Rosh* «maydonga tashlagan» bo'lib, 1876- yilda nemis ixtirochisi *N. Otto* (1832—1891) amalda foydalanib ko'rdi. Ottoning gaz bilan ishlaydigan to'rt taktli dvigateliga 1878- yili tashkil qilingan Parij jahon ko'rgazmasida yuksak baho berildi.

1891- yilda Germaniyada 175 kmga cho'zilgan elektr liniya qurilib, ishga tushirildi.

Bu esa elektrotexnika tarixida yangi davrni ochib berdi. Sanoatda elektroenergiyaning keng qo'llanishi uning yangi soha-



«Luzitaniya» halokati

lari — elektr kimyo, elektrometallurgiyaning rivojlanishiga olib keldi.

Kemasozlik

XIX asrning ikkinchi yarmida paroxodlar takomillashtirila boshladi. Kemalar qurishda po'latni keng ko'lamda ishlatish yaxshi natijalar berdi. 1909- yilda misli ko'rilmagan darajada katta kemalar — suv sig'imi 20.000 tonna keladigan kemalar paydo bo'ldi. Passajir kemalarining tezligi 20 uzelga (qariyb 40 km) yetdi. Katta sig'imli kemalarning qurilishi yirik portlar shakllanishiga sabab bo'ldi. O'sha vaqtda to'g'on va dambalar qurila boshladi, sun'iy kanallardan suv yo'li sifatida tobora keng foydalanildi, kemalar qurish va ta'mirlash uchun ishlatiladigan texnika vositalari takomillashtirildi.

XIX asr oxirlarida bug' floti yelkanli flotni siqib chiqara boshladi, g'ildirakli paroxodlar esa ko'proq o'z o'mini vintli paroxodlarga bo'shatib berdi. Kemalarning soni, yuk ko'tarish qobiliyati va tezligi ancha oshdi. Kemachilikda kanallarning keng tarmoqlaridan, shu jumladan, Suvaysh va Panama kanallaridan foydalanilar edi.

Binokorlikda metall va oynadan foydalanish

Shaharlarning va fabrikalashgan sanoatning o'sishi bilan yangi xil binolar, ya'ni fabrikalar, banklar, zavodlar, xizmat binolari, savdo rastalari, bozorlar, universal do'konlar,

vokzallar, ijaraga qo'yiladigan uy-joylar, katta mehmonxonalar va boshqalar qurila boshlandi. O'ziga xos bo'lgan bu xilma-xil binolar yangi materiallarni, yangi konstruktiv qurilish loyihalarni talab etdi.

Qurilish ishida sement katta ahamiyatga ega edi. O'sha davrda yangi qurilish materiali temir-beton paydo bo'ldi, temir-betonni fransuz bog'boni *Mone* ixtiro etgan deb hisoblanadi. Germaniyada 1884- yildan boshlab bu yangi qurilish materialining xossalari mukammal o'rganila boshlandi. Shundan keyin temir-betondan binokorlikda keng foydalanish kuchayib ketdi.

Qurilishda temir-beton va ayniqsa, oynaning ishlatilishi binolarning konstruktiv shakllarini ham o'zgartirib yubordi. Turar joy binolarining arxitekturasi XVIII asrdagi va XIX asr boshlaridagi arxitekturaga qaraganda ancha oddiy bo'lib qoldi. Ammo zarur qulayliklar yaratish, kanalizatsiya, bug' bilan isitish nuqtai nazaridan olganda, XIX asr oxirlarida uy-joy qurilish texnikasi juda ilgarilab ketdi.

Bu vaqtda Yevropa va Amerikada binokorlik va muhandislik san'atining haqiqiy durdonalari hisoblangan ko'pgina binolar qurildi. 1889- yilda fransuz muhandisi *Eyfel* Parijdagi jahon ko'rgazmasi uchun o'sha davrda g'oyat katta, balandligi 312 metr



Eyfel minorasi

bo'lgan minora qurdi. Eyfel minorasi to'g'ridan-to'g'ri qurilish maydonchasida montaj qilish yo'li bilan tiklandi. Metallardan yasalgan bu inshootni montaj qilish usulidan Amerikada 400 metrgacha bo'lgan «osmono'par» binolarni qurishda foydalandilar. Bu usul keyinchalik yanada keng joriy qilina boshlandi.

Ko'priklar qurishda po'lat balkalar ishlatiladigan bo'ldi. Shotlandiyada XIX asrning oxirlarida qurilgan «Fort-Bridj» ko'prigi o'sha vaqtdagi eng katta ko'prikdir. Bu ko'prikning uzunligi 2133 metr, balandligi esa 47,5 metr bo'lib, kemalar harakatining to'xtovsizligini ta'minlar edi.

Ko'priksizlik asoslarini yaratishda rus olimlari va muhandislarining ishlari katta o'rin tutdi. *D. I. Juravskiy* (1821—1891) ko'priksizlik sohasidagi hisob-kitob nazariyasiga asos soldi. *N. A. Belebyskiy* (1845—1922) esa o'z zamonasining mashhur muhandisi, ko'priklar loyihachisi edi.

Atlantika okeani bilan Tinch okeanni bir-biriga tutashtiruvchi Panama kanali 1914- yilda qurib bitkazildi. Panama kanali boshqa dengiz kanallaridan ancha katta edi. Kanalning uzunligi 65,2 km bo'lib, eng tor joyi 91,5 metr keladi. Kanalning bir qancha joylarda eni 150 metrdan ortadi, bu esa qarama-qarshi kelayotgan katta kemalarning o'tishiga imkon beradi. Kanalning chuqurligi 12,5 metrdir.

Harbiy strategiya maqsadlarida 1887- yilda Germaniyada Kil kanali qurildi. Bu kanal Boltiq dengizini Shimoliy dengiz bilan tutashtirdi.

Savol va topshiriqlar

- ?**
1. XIX asrning 70- yillarida jahonning yirik rivojlangan davlatlarida texnikaning rivojlanish darajasi nimalarga asoslandi?
 2. Qaysi davlatlarda transport va temir yo'llar eng muhim, strategik ahamiyatga molik tarmoqlar sifatida qaraldi?
 3. Rivojlangan davlatlarning texnik taraqqiyotini taqqoslang.
 4. XIX asr oxirlarida qaysi sanoat tarmoqlari rivojlandi?
 5. Jahon tarixining bu davrida qanday yirik ilmiy kashfiyotlar qilindi?
 6. Rus ixtirochilaridan kimlarni bilasiz? Ular fan rivojiga qanday hissa qo'shganlar?
 7. Yoritgichlar bo'yicha qanday ilmiy izlanishlar olib borilgan? Ular haqida nimalar bilasiz?
 8. XIX asrning 70–90- yillarida metall va oynadan foydalanish keng

avj oldi. Qanday zaruriyat ulardan keng miqyosda foydalanishga majbur etdi?

9. O'z loyihalari bilan mashhur bo'lgan fransuz muhandisi Eyfel qanday tarixiy minorani qurib jahonga tanildi?

Bu nomlarni yodda saqlang: Simpton tunneli, G. Daymler, K. Bens, A. N. Lodigin, P. N. Yablochkov, T. Edison, M. Depre, Z. Gramm, F. Xefner-Altenek, N. Tesla, M. Dolivo-Dobrovolskiy, A. Bode Rosh, N. Otto, Eyfel, D. I. Juravskiy, N. A. Beleyubskiy.

40- §. Sanoat tarmoqlarida fan taraqqiyoti

Metallurgiya


Metallurgiya har qanday sanoatning «yuragi» hisoblanib, unga fan yutuqlarini joriy qilish yildan-yilga oshib bordi.

XIX asrning 70- yillari o'rtalarida «bessemer usuli» metallurgiyada mustahkam o'rin oldi. AQSH da 1880- yilda quyilgan hamma po'latning 86 foizga yaqini «bessemer usuli» bilan tayyorlandi. Konverterlarning tuzilishi takomillashib bordi, ularning ish unumi ancha oshdi. Amerikadagi yirik zavodda 1870-yili bitta konverterda haftasiga 126 tonna po'lat olingan bo'lsa, 1903-yilda 7852 tonna po'lat olindi.

Ayni paytda marten pechlari ham takomillashtirildi, dastlabki marten sig'imi 1,5 tonna edi. Lekin 1880- yildayoq sig'imi 10—15 tonna bo'lgan pechlar qurila boshlandi. XX asr boshlarida esa bir yo'la 100 tonnagacha va undan ham ortiq po'lat tayyorlaydigan martenlar paydo bo'ldi.

Bessemer konverterlari va marten pechlarida metallni fosforsizlantirish muammosi hal etildi. Bu vazifani ingliz muhandisi va metallurgi *Sidni Tomas* (1850—1885) muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirdi. Uning kashfiyoti fosforli temir rudalaridan eritib olingan cho'yanni po'latga aylantirish masalasini to'la hal qildi va metall ishlab chiqarishda tez tarqaldi.

Metallurgiya faniga asos solganlar orasida rus olimi *D. K. Chernov* (1839—1921) katta mavqega ega. 1886- yilda *P. Eru* (Fransiya), *Ch. Xoller* (AQSH) elektrolit yo'li bilan alyuminiy ajratib oldilar. 1907- yilda *A. Vilm* (Germaniya) samolyot uchun dyuralyuminiy ixtiro qildi. XX asr boshida *L. Bakelanda*



Donbass domna pechi

(Belgiya) plastmassa olish yo'lini topdi. 1890- yilda inglizlik *L. Mond* toza nikel, 1910- yilda amerikalik *Xanter* toza titan olish usulini yaratdilar.

Mashinasozlik

XIX asrning 70- yillaridan 1914- yilgacha jahon mashinasozligi katta sur'atlar bilan rivojlandi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida mashinasozlikning taraqqiy etishi mashinalar sifatini yaxshilash va ularning ish tezligini oshirish yo'lidan bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yangi soha — metallarni kesish nazariyasi vujudga keldi va rivojlandi. Bu soha stanoksozlikka ilmiy asos bo'ldi.

Metallarni kesish jarayonini ilmiy jihatdan tekshirishga Peterburg tog' institutining professori *I. A. Tim* asos soldi, u o'z asarlarida metall kesishning asosiy qonunlarini ta'riflab berdi.

1880—1900- yillarda rus olimi *K. A. Zvorikin* (1861—1928) asarlarida metall kesish jarayoni dinamikasi hamda mexanikasining asosiy masalalari maydonga tashlandi.

Amerika olimi *F. U. Teylor* (1856—1915) tokarlik ishlarida bo'ladigan kesish rejimlarini empirik yo'l bilan aniqladi.

Elektrotexnikaning taraqqiy etishi metallarni ishlatishning

yangi usulini — elektr bilan payvandlash usulini vujudga keltirdi. Elektr bilan payvandlash usulini dastlab 1867- yilda amerikalik elektrotexnik *Tomson* qoʻllagan edi.

Elektr bilan payvandlashning 1882- yilda rus olimi *N. N. Benardos* yaratgan usulidan temir yoʻllarda relslarni va poyezdlarni tuzatishda keng foydalanildi.

Elektr bilan payvandlashning *N. N. Benardos* yaratgan usulini rivojlantirgan va takomillashtirib borgan boshqa bir rus olimi *N. G. Slavyanov* 1888- yilda koʻmir elektrod bilan emas, balki metall elektrod bilan qizdirib payvandlash usulini topdi. Ingliz *Ch. Porson*, shved *K. G. Laval*, fransuz *O. Ratolar* turbinali dvigatellarga, nemis *G. Golvart* gaz turbinali, *M. Nikolskiy* samolyotlar uchun turbovintli dvigatellarga asos soldi. 1903- yili *aka-uka Raytlar* samolyotda uchdilar. Raqamli hisoblash mashinalarini ingliz *Ch. Bebbij*, tikuv mashinalarida dasturlashtirishni fransuz *J. Jakkard*, metallurgiyada avtomatlashtirishni *G. Kirxgof* (Germaniya), samolyotlarni avtomatik boshqarishni *L. Sperri* (AQSH), raketoplanni *N. I. Kibalchich* (Rossiya) yaratdilar.

Neftni qayta ishlash XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida xoʻjalikning muhim tarmoqlaridan neftni qayta ishlash sanoati vujudga keldi va ancha yuqori darajaga koʻtarildi.

Agar 1870- yilda 0,7 ming tonna neft qazib olingan boʻlsa, 1913- yilda bu raqam 52,3 ming tonnaga yetdi.

Neftni haydash apparatlaridan birini 1874- yilda rus muhandisi *A. Tavrizov* yaratdi. 1882- yilda *D. I. Mendeleev* uzluksiz ishlaydigan birinchi kub loyihasini tuzdi va uni Moskva yonidagi Kuskovo neft haydash zavodida oʻrnatdi, bu kubning konstruksiyasi murakkab boʻlmaganligi uchun tez orada undan zavodlarda foydalanish boshlandi.


1885- yilda Bokudagi zavodda kublardan iborat uzluksiz ishlaydigan birinchi batareya oʻrnatildi. Tez orada bu batareyani rus muhandislaridan *Shuxov—Inchik*, *Xoxlov* va *Kushilevskiy* ancha takomillashtirdilar. «Nobel kublar batareyasi» deb atalgan bu batareya keyinchalik butun dunyoda keng tarqaldi. 1900- yilga kelib, uzluksiz ishlaydigan kublar neftni qayta ishlash sanoatida asosiy oʻrinni egalladi.

Ichki yonuv dvigatelining taraqqiy etishi bilan XX asrning

boshlaridayoq, neftni qayta ishlash sanoati oldida benzin olish muammosi paydo bo'ldi, benzin esa o'sha vaqtga qadar neftni qayta ishlash chiqindisi deb kelinar edi. 1902- yildan 1912- yilgacha butun dunyoda ishlatiladigan benzin miqdori 3276 tonnadan 376,8 ming tonnaga etdi, ya'ni 11,5 barobar oshdi.

Yevropa va AQSH kimyogar olimlari va muhandislarining hamkorlikda qilgan harakatlari natijasida Birinchi jahon urushi boshlanishi oldida neftni kimyoviy qayta ishlash yo'li topildi, bu jarayonga D. I. Mendeleev 1876- yilda asos solgan edi. 1891- yilda V. G. Shuxov S. Gavrikov bilan hamkorlikda neftni termik krekinglash uchun sanoat qurilmasi ixtiro qilganliklari uchun patent olgan edilar. Kreking jarayoni sanoat miqyosida AQSH da 1916- yilda yo'lga qo'yildi.

Yonilg'ii sifatida benzindan foydalanish boshlangach, ichki yonuv dvigateli transportda yetakchi o'rin tutdi. XIX asrning 80-yillarida rus flotining dengizchisi O. S. Kostovich (1851–1916) benzin bilan ishlaydigan, karbyuratorli, yengil ichki yonuv dvigatelining loyihasini taqdim yetdi. Kostovich loyihasi asosida 8 silindrli dvigatel qurildi, bu dvigatel dirijablga o'rnatish uchun mo'ljallangan edi.



Ford zavodida avtomobillar yig'ish

Benzin bilan ishlaydigan yengil dvigatellar yaratish sohasida nemis olimi *Gotlib Daymler* (1834—1900) katta yutuqlarga erishdi.

U avtomobil, motorli qayiq, mototsiklga oʻrnatilgan oʻz dvigateli uchun 1885- yilda patent oldi. Daymler yaratgan ikki silindrli dastlabki dvigatelning quvvati 34 ot kuchiga teng boʻlib, vali minutiga 800 marta aylanar edi.

Ogʻir yonilgʻi bilan ishlaydigan dvigatel muhandisi, ixtirochi *R. Dizel* (1858—1913) «ratsional issiqlik dvigateli» yaratish gʻoyasini ilgari surdi. 1897- yilda Dizel yonilgʻi siqilganda oʻz-oʻzidan alanganib ketadigan yangi dvigatel yaratdi. Ichki yonuv dvigatellarining yanada taraqqiy etishi rus muhandisi *G. V. Trinkler* nomi bilan bogʻliq. Trinkler yonilgʻi yuqori darajada siqilib, oson alanganadigan, kompressorsiz dvigatel loyihasini tuzdi (1899). Dvigatel Putilov zavodida qurilib sinovdan oʻtkazildi. Birinchi aeroplanni ajoyib rus ixtirochisi *A. F. Mojayskiy* (1825—1890) yaratdi. 1876- yilda Peterburgda Mojayskiy modellarining uchishi xalq oldida namoyish qilindi. 1880- yilning iyulida Mojayskiy oʻzi ixtiro qilgan bugʻ dvigateli oʻrnatilgan samolyotiga patent olish uchun ariza yozdi, samolyot loyihasini arizaga ilova qildi.

1892- yilda ingliz ixtirochisi *G. Filipp*s jahonda birinchi boʻlib katta aeroplan yaratdi, bu aeroplan garchi odamsiz boʻlsa-da, havoga koʻtarildi. Shundan keyin Angliyada Xirom Maksim katta aeroplan qurdi, bu aeroplan 1898- yilda uchirib koʻrildi. Ichida uchta passajiri boʻlgan samolyot yugurib borib koʻtarildi, havoda barqaror ucholmagan-ligi tufayli yon tomonga ogʻib, sinib ketdi. Fransiyada *Klemma Ader* bir necha aeroplan qurdi. Aderning bir samolyoti bitta odam bilan 1887- yilda 300 metr masofaga uchdi. Ammo



Niagara elektrostansiyasining turбина zali

samolyot qo'nayotganda chilparchin bo'ldi. Shundan keyin Aderning samolyot qurilishlari to'xtatildi, chunki fransuz hukumati unga mablag' berishni rad etdi.

Dastlabki uchish apparatlarini yaratishda, ularni takomillashtirishda nemis muhandisi *Otto Lilientalning* (1848—1896) xizmatlari ham katta ahamiyatga ega. 1896- yilda kuchli shamolda uchish vaqtida Liliental planeri havoda barqarorligini yo'qotdi. Ixtirochi 25 metr balandlikdan yiqilib halok bo'ldi.

90-yillarning boshlarida Amerikada aka-uka Uilbur va Orvill Raytlar — janubiy karolinalik velosiped fabrikantlari, bu sohadagi o'z faoliyatlarini boshlashdi. 1902- yilda ular o'zlari yaratgan tajriba planeriga ichki yonuv dvigateli o'rnatdilar. Aka-uka Raytlar aeroplarda bir necha marta uchib ko'rdilar. Aeroplan ancha kuchli shamolda ham sekundiga 4—5 metr tezlik bilan uchdi. 1907—1908-yillarda aka-uka Raytlar ancha takomillashtirilgan bir necha aeroplan qurdilar.

Radio, telefon Texnika sohasida qilingan eng buyuk kashfiyotlardan biri radioning ixtiro qilinishi bo'ldi. 1886—1889- yillarda nemis olimi *G. Gers* (1857—1894) elektromagnit to'lqinlari tarqatish faktini jahonda birinchi bo'lib tajriba yo'li bilan isbotladi. G. Gers yonug'lik to'lqinlari ham xuddi shu qonunlarga bo'ysunishini aniqladi.

90- yillarning oxirida Tesla Amerika va Yevropada bir necha ma'ruza o'qib, bu ma'ruzalari davomida tajribalar ham ko'rsatdi. Tesla bu tajribalarida yuqori chastotali generatorlar yordamida uzun to'lqinlar hosil qildi, lampalarni yoqdi va uzoq masofaga signallar yubordi. Tesla bu to'lqinlardan telegrafiya va elektr energiyasini uzatishda foydalanish mumkinligini qat'iy ishonch bilan oldindan aytdi.

1895- yil 7- mayda rus olimi *A. S. Popov* (1859—1906) Rus fizika-matematika jamiyatining Peterburgda o'tkazilgan majlisida jahonda birinchi bo'lib radiopriyomnik namoyish qildi. Bu kun Radio kuni deb e'lon qilindi.

Popov shuningdek, chaqmoq razryadlarini (momaqaldi-roqlarini) qayd qiluvchi asbob yaratdi.

A. S. Popov 1896- yil 24- martda insoniyat tarixida birinchi marta 250 metr masofaga radiotelegraf uzatishni amalga oshirdi. Bunda uzatuvchi va qabul qiluvchi antennalardan foydalanildi.

1897- yilda *G. Markoni* (1874–1937) Angliyada simsiz telegraf uchun patent oldi. Markonining radiopriyomnigi *A. S. Popovning* chaqmoq razryadlarini qayd qilgichiga nihoyatda o'xshaydi.

Popov yaratgan radio- texnika Birinchi jahon urushi davrida ayniqsa tez rivojlandi, u armiya va flotda aloqaning eng muhim turi bo'lib qoldi.

XIX asr oxirida texnika- ning yangi tarmog'i — telefon tez rivojlandi. Shotlandiyada tug'ilib, Amerikada yashagan texnik *A. Bell* (1847—1922) 1876- yilda telefon apparatiga birinchi bo'lib patent oldi.

Telefonni takomillashtirish sohasida ko'plab ixtirochilar- ning, jumladan, ingliz *D. Yuz* va amerikalik *T. Edison*ning xizmat- lari katta. Barcha mamlakatlarda telefon juda tez rasm bo'ldi. Dast- labki shahar telefon stansiyasi AQSH da, Nyu-Gavanada 1878- yilda ishga tushirildi. 1879- yilda AQSHning 20 ta shahrida telefon tarmoqlari bor edi. Parijda 1879- yilda, Berlinda 1881- yilda bi- rinchi telefon tarmog'i ochildi.

Rossiyada muhandis *P. M. Golubiskiy* (1845—1911) telefonga ko'plab takomillashtirishlar kiritdi.

1878- yilda Golubiskiy ko'p kubli telefonlarning birinchi qismini qurdi. U telefonning olis masofada (350 km) ishlashi mumkinligini ham isbotladi. Rossiyada 1881- yilning o'zida beshta shaharda — Peterburg, Moskva, Varshava, Riga va Odessada telefon liniyalari qurildi.

1877- yilda *T. Edison* ovoz yozib olish va uni takror eshittirish apparati — fonograf yaratdi. Fonograf asosida grammafon va boshqa mexanik usulda ovoz yozib olish uchun ishlatiladigan asboblari vujudga keldi.

Fransuz aka-ukalar *L. J. Lyumyer* va *O. M. Lyumyer* kinematog- raf yaratdilar. 1895- yilning martida ana shu apparat yordamida kinoplyonkaga olingan film tajriba maqsadida ko'rsatildi, o'sha yilning dekabridan esa Parijda birinchi kinoteatr ishlay boshladi.



A. S. Popov

Harbiy soha

XIX asrning 70- yillaridan e'tiboran barcha mamlakatlarda dala qo'shinlari va dala artilleriyasi soni to'xtovsiz o'sa boshladi, bu hol piyoda va artilleriya qo'shinlari uchun qurol-yarog' ishlab chiqarishning son va sifat jihatidan tez o'sishiga sabab bo'ldi.

XIX asrning 70- yillarida o'qdonli tezotar miltiq ixtiro etildi. Ammo tutunli porox ishlatilishi bu miltiqning jangovar sifatlarini kamaytirar edi.

1884- yilda fransuz olimi *Vete* piroksilinli tutunsiz porox tayyorlashga muvaffaq bo'ldi. Rossiyada D. I. Mendeleev tutunsiz poroxning «sirini» topdi. 1891- yilda zavod sharoitida Mendeleev usulida tutunsiz porox tayyorlana boshlandi. Angliya, AQSH, Germaniyada ham XX asr boshlariga kelib tutunsiz porox ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

1893- yilda Fransiyada artilleriyaning yangi turi — ancha tezotar o'ziyurar to'p paydo bo'ldi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, parchalaydigan portlovchi moddalar paydo bo'ldi.

Yangi portlovchi modda tayyorlash sohasidagi bu ish bilan shvetsiyalik muhandis *A. Nobel* (1833—1896) shug'ullandi. 1888- yilda Nobel nitroglisirinli porox — ballietit taklif qildi. Nobelning Shvetsiya, Frantsiya, Germaniya va boshqa mamlakatlardagi yangi portlovchi modda ishlab chiqaradigan fabrikalari uni juda boyitib yubordi.

Uzoqqa otuvchi va qudratli artilleriyadan kemalarni himoya qilish uchun *tobora* ko'proq zirh ishlatila boshlandi. Yog'ochdan yasalgan kemalarning sirti po'lat listlar bilan qoplanadigan bo'ldi.

Birinchi jahon urushi arafasida o'q otar qurollar va artilleriya ancha takomillashtirildi. Stanokli pulemyot bilan bir qatorida urush davomida yengil qo'l pulemyotlari ham yaratildi. Ularning otish uzoqligi ancha oshirildi. O'ta uzoqqa (120 km gacha) otadigan to'plar paydo bo'ldi. Ichki yonuv dvigateli o'rnatilgan, zanjirli, zirhli, artilleriya bilan qurollangan tank *Somma* daryosi yonida 1916- yil 15- sentabrdagi jangda birinchi marta inglizlar tomonidan ishlatildi. Tank dahshatli jang quroliga aylandi.

XX asr boshlarida soatiga 220 km gacha tezlik bilan uchadigan, uchish balandligi 7000 metr gacha, uchish uzoqligi esa 900 km gacha bo'lgan samolyotlar qurildi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning 70- yillarida sanoatning qaysi tarmoqlari kengaytirildi?
 2. Metallurgiya faniga kim asos solgan? U fanda qanday ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'lgan?
 3. XIX asrning oxirida neftni qayta ishlash sanoatida qanday yangiliklar yaratildi? Neftdan qanday zarur narsalar olinadi?
 4. Qachondan boshlab transportni benzin yordamida harakatga keltirish boshlandi?
 5. Samolyotni kim ixtiro qilgan va nima maqsadda? Ilk samolyot nechanchi yilda samoga parvoz qildi?
 6. Uzoq masofalarni yaqin qilish maqsadida telefon apparatlari qachondan boshlab ishga tushirilgan?
 7. Radioni kashf qilgan ixtirochi kim? Hozirgi kunda radioning o'rnini qanday?

Bu nomlarni yodda tuting: Sidni Tomas, D. K. Chernov, I. A. Time, P. Eru, Ch. Xoller, A. Vilm, L. Bakelanda, K. A. Zvorikin, F. U. Teylor, Tomson, N. Benardos, N. G. Slavyanov, Ch. Parson, K. Laval, O. Rato, G. Golvart, J. Jakkard, G. Kirxgof, N. I. Kibalchich, L. Sperri, D. I. Mendeleev, O. S. Kostovich, R. Dizel, A. F. Mojayskiy, aka-uka Raytlar, G. Gers, A. S. Popov, T. Edison, A. Nobel.

41- §. Aniq va tabiiy fanlar rivoji

Matematika va astrono- miya

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida fan yanada ixtisoslashtirildi. Yangi kashfiyotlar olamning eski, mexanistik manzarasi asoslariga zarba berdi, tibbiyot ilmidagi evolyutsion g'oyalarning yanada taraqqiy etishiga yo'l ochib berdi.

Matematika taraqqiyotidagi yangi davrning boshlanishi *N. I. Lobachevskiy*, *Ya. Bolyay* va *B. Rimanning* noevklidcha geometriyaga oid xulosalarni yanada chuqurroq tekshirishi bilan bog'langandir. Ularning tadqiqotlarini italyan olimi *E. Beltrami* (1835—1900), nemis matematigi *F. Kleyn* (1849—1925) rivojlantirdilar.

Nemis matematigi *D. Gilbert* (1862—1943) jahonda birinchi bo'lib, aniq ta'riflab berilgan geometrik tizim tuzish masalasini

chuqur ilmiy tarzda hal qildi. Bu bilan matematik mantiqqa g'oyat katta hissa qo'shdi.

Nemis matematigi *G. Kantor* (1845—1918) matematika fanining bir qismi bo'lgan to'plamlar nazariyasiga asos soldi. To'plamlar nazariyasining g'oya va tushunchalari matematikaning barcha tarmoqlariga kirib bordi.

Italyan matematiklari *V. Voltera* (1887) va *S. Pinkerle* (1895), *D. Gilbert* (1904) hamda venger olimi *F. Ris* (1912) funksional fazolarni tekshirdilar.

XIX asrning 70—80- yillaridan yulduz kattaliklari aniq belgilandi, birmuncha mukammal fotometrik kataloglar tuzildi.

Ya. Kameteyn (1904), *K. Shvarshild* (1907) va boshqalar o'z tadqiqotlarida yulduzlarning xususiy harakati qonuniyatlarini isbotlab berdilar.

Mexanika

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida mexanikaning umumiy bo'limlari — qattiq jismlar dinamikasi, harakatning ustuvorligi nazariyasi hamda suyuqliklar va gazlar mexanikasi rivojlantirildi.

Snaryadning uchish vaqtida barqarorligini ta'minlash masalasini rus olimlari *N. V. Mayevskiy* (1823—1892), *N. A. Zabudskiy* (1853—1917) hal etdilar. Keyinroq bu muammo ustida *A. N. Krilov* (1863—1945) ishladi.

XIX asrning 70- yillarida va XX asrning boshlarida suyuqlik mexanikasi yanada rivojlantirildi. Nemis olimi *G. Gelmgols* (1821—1894) suyuqlikning uyurma harakati to'g'risidagi ta'limotni, rus olimi *N. P. Petrov* (1836—1920) ishqalanishning gidrodinamik nazariyasini yaratdi.

Aerodinamika asoslarini yaratishda rus olimi *N. E. Jukovskiy* (1847—1921) g'oyat muhim rol o'ynadi. Jukovskiy 1905- yil 15- noyabrda Moskva Matematika jamiyatida qilgan ma'ruzasida («Qo'shilgan girdoblar haqida») qanotni ko'tarish kuchini aniqlash formulasini berdi, bu formula samolyotlarning barcha aerodinamik hisoblari uchun asoslidir.

Mexanikaning yangi bo'limi — o'zgaruvchan massa dinamikasi raketaning uchishini tekshirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zgaruvchan massa dinamikasini *I. V. Meshcherskiy* (1859—1935) o'zining «O'zgaruvchan massa nuqtasining dinamikasi» (1897) va «O'zgaruvchan massa nuqtasi harakatining tenglamasi» (1904) degan asarlarida ishlab chiqdi.

Mashhur rus olimi *K. E. Stolkovskiy* (1857—1935) birinchi bo'lib, planetalararo uchishda raketalardan foydalanish mumkinligini matematik jihatdan isbotlab berdi.

Fizika XIX asrning so'nggi choragida materiya-ning tuzilishi to'g'risida ikkita kashfiyot qilindi: elektromagnit maydonning aniqligi tajribada isbotlandi va elektr zaryadlarning elektromagnit maydoni manbalarining atomistik tabiati kashf etildi. Ingliz olimi *D. Maksvell* nazariyasiga asosan 1887- yilda nemis fizigi *Genrix Gers* jahonda birinchi bo'lib elektromagnit to'lqinlari paydo bo'lishini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Gers bu to'lqinlarning, yorug'lik nurlari kabi aks etishini, sinishini va boshqa xossalari borligini isbotladi.

1895- yilda nemis fizigi *V. Rentgen* elektromagnit nurlarini kashf etib, ularni x-nurlar deb atadi. Ko'p o'tmay Rentgen nurlari uzunligi juda qisqa elektromagnit to'lqinlar ekanligi isbotlandi. Bu tibbiyotda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. A. S. Popovning tadqiqotlari elektromagnit to'lqinlardan simsiz aloqa uchun keng ko'lamda foydalanish imkonini berdi. *P. N. Lebedev* (1866—1912) ilmiy ishlari natijasida elektromagnit to'lqinlarning umumiy shkalasidagi bo'sh joy — odatdagi radioto'lqinlar bilan infraqizil nurlar orasidagi bo'shliq to'ldirildi. Lebedev yorug'likning elektromagnit nazariyasini isbotladi.

1870- yilda ingliz *U. Kruks* siyraklashtirilgan havoli razryad nayida katod nurlarini kashf etdi. 1897- yilda ingliz olimi *J. Tomson* (1856—1940) katod nurlari manfiy zaryadli zarrachalar — elektronlar oqimi ekanligini ko'rsatdi.

1888- yilda *Vilgelm Galvane*



Velgelm Rentgen

(1859—1922) manfiy zaryadlangan metall plastinka yoy lampa nuri bilan yoritilganda o'z zaryadini yo'qotishini isbotladi. Rus olimi *A. G. Stoletov* (1839—1896) paydo bo'ladigan tokning kuchi yoritish intensivligiga va yorug'lik to'lqinlarining uzunligiga bog'liq ekanligini aniqladi.

Elektr zaryadlarning atom tuzilishi 1911- yilda amerikalik olim *Milliken* (1868—1953) tajribalarida uzil-kesil isbotlandi.

XIX asrning 90- yillari oxirida *A. Bekkerel* (1852—1908) hamda *Pyer va Mariya Kyurilar* tabiiy radioaktivlikni kashf etdilar. Eng og'ir kimyoviy elementlarning atomlari barqaror bo'lmay, balki uzluksiz yemirilib turishi aniqlandi.

XX asrning boshlarida atom nazariyasi — hozirgi zamon fizikasining asosi yaratila boshlandi. Ingliz fizigi *E. Rezerford*, daniyalik *N. Bor* tadqiqotlari atom tuzilishi haqida tushunchani chuqurlashtirdi.

1905- yilda *A. Eynshteyn* (1879—1955) kvantlar nazariyasini rivojlantirib, fotonlar, ya'ni yorug'lik kvantlari molekuladan iborat, degan fikrni ilgari surdi. Eynshteyn fanga nurlanish maydonining kvant tuzilishi to'g'risidagi tushunchani kiritdi. Bu bir qator fizik hodisalarning — fotoeffekt, lyuminessensiya,

fotokimyoviy qonuniyatlarning sababini ochib berish imkoniyatini tug'dirdi. U 1905- yilda nisbiylikning xususiy, 1916- yilda esa nisbiylikning umumiy nazariyasini yaratdi.



Albert Eynshteyn

Kimyo Kimyo fani umumnazariy tushunchalarining rivojlanishiga *A. M. Butlerovning* organik birikmalar kimyoviy tuzilish nazariyasi va *D. I. Mendeleevning* kimyoviy elementlar davriy tizimi katta ta'sir ko'rsatdi.

V. Grinyar (1871—1935) 1900- yilda turli organik moddalar sintez qilish usulini kashf etdi. *P. Grissning* diazotlash

reaksiyasini kashf etishi azotli bo'yoqlarning katta bir sinfini yaratish imkonini berdi. 1874- yilda *A. Kolbe* salitsil kislotani sintez qildi.

Kimyoviy jarayonlarning 1840- yilda *G. I. Gess* kashf etgan issiqlik qonunini rivojlantira borib, bir qancha mamlakatlarning olimlari (*M. Berceo*, *Yu. Tomsen*, *N. N. Beketov*, *V. F. Luginin*) fizik-kimyoviy tadqiqotlarning mustaqil sohasi — termokimyoni yaratdilar.

Eritmalar to'g'risidagi ta'limot tez rivojlanib, 1887- yilda *S. Arrenius* elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasini taklif etdi. Shundan keyin elektrokimyoviy jarayonlarni o'rganish elektrolizni sanoatda ishqor, xlor, alyuminiy va boshqa moddalar olishning muhim usuliga aylantirdi.

1881- yilda *M. G. Kuchero*v atsetilen uglevodlarining simob oksidi tuzlari katalitik ta'siri ostida gidratlanish reaksiyasini kashf etdi. 1879- yilda *Guldberg* hamda *Vaage* ta'sir etuvchi massalar qonunini yaratishdi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida *Ya. G. Vant-Goff*, *A. Le Shatele*, *G. A. Tamman* va *N. S. Kurnakov* (1860—1911) ishlari tufayli fizik-kimyoviy analiz usullari yaratildi.

Biologiya

Biologiya fanida ham katta o'zgarishlar bo'ldi. Nemis tabiatshunosi *E. Gekkel* (1834—1919) o'z tajribalarida hayvonlar qardosh guruhlarining o'zaro tarixiy bog'lanishini aniqladi. *A. O. Kovalevskiy* (1840—1901) va *N. I. Mechnikov* (1845—1916) evolyutsion embriologiyaga asos soldilar. Bu olimlar umurtqasiz hayvonlarning bir qancha organlari tuzilishini va faoliyatini tekshirib, eksperimental va evolyutsion gistologiyaga asos soldilar. Rus zoologi *A. N. Seversov* (1866—1936) mikrobiologiya nazariyasini yaratdi, bu nazariya organizm tuzilishining evolyutsiya jarayonida o'zgarish qonuniyatlarini ochib berdi. *K. A. Timiryazev* (1843—1920) botanika sohasida tabiiy tanlanishning ijobiy roli to'g'risidagi, irsiyat tabiati va irsiyatning o'zgaruvchanlik qonuniyatlari to'g'risidagi ta'limotni chuqurlashtirdi, o'simliklarda bo'ladigan fotosintez jarayonini nazariy va eksperimental ravishda hal qildi. Organizmning faoliyati atrof muhitga bog'liq ekanligi to'g'risidagi qoidani ta'riflab bergan va determinizmni asab tizimining oliy funksiyalarini tushunishga tadbiq etgan *I. M. Sechenovning* (1829—1905) ishlariga

asoslanib, mashhur rus olimi *I. P. Pavlov* (1849—1936) shartli reflekslar va oliy asab faoliyati to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. Bu ta'limot tirik organizmlar asab tuzilishining evolyutsiya jarayonidagi rolini ochib berdi va hayvon organizmi bir butundir degan tushunchani tasdiqladi, *I. V. Michurin* (1855—1935) o'simliklar irsiyati to'g'risidagi fanga bebaho hissa qo'shdi. *I. V. Michurin* evolyutsion nazariyaning asosiy qonun-qoidalaridan foydalanib, organizmning rivojlanishini boshqarish to'g'risidagi ta'limotga asos soldi va yangi nav o'simliklar yetishtirish mumkinligini amalda isbot qildi.

XIX asr so'nggi choragida hujayralar sohasida — sitologiyada tadqiqotlar juda avj oldi, hujayra ichra doimiy tuzilmalar topildi (belgiyalik olim *E. van-Beneden*, nemis olimi *K. Benda*, italyan olimi *K. Golji* va boshqalar), hujayralardagi bo'linish mexanizmlari kashf etildi.

Tibbiyot

Tibbiyot taraqqiyoti biologiya va boshqa fanlarning taraqqiyoti bilan bog'liq holda bordi. Nemis olimi *R. Virxov* (1821—1902) hozirgi zamon patologik anatomiya asoslarini yaratdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida *S. P. Botkin* (1832—1889) organizm to'g'risida yangi tushuncha berdi. Botkin organizmni yax-



Robert Kox

lit bir butun, asab tizimi tomonidan boshqariladigan va tashqi muhit bilan chambarchas bog'liq holda yashaydigan narsa deb qaradi. Tibbiyotdagi bu yangi, keyinchalik *I. P. Pavlov* «nervizm» deb ta'riflagan yo'nalish Virxovning hujayra patologiyasi tarafdorlarining bir tomonlama va mexanistik qarashlarini yengdi.

1875- yilda rus olimi *F. A. Lesh* amyoba dizenteriyasini tug'diruvchi mikrobnı aniqladi va tekshirdi. 1880- yilda nemis olimi *K. Ebert* ich terlama, 1882—

1883- yillarda nemis olimi *R. Kox* sil hamda vabo tug'diruvchi mikroblarni, *F. Lyofler* (1884) bo'g'ma tug'diruvchi mikrobnl topdilar, shu davrda qoqshol (stolbnyak), zaxm (sifilis) va boshqa kasalliklar tug'diruvchi mikroblar ham topildi.

1881- yilda mashhur fransuz olimi *L. Paster* (1822—1895) kuydirigiga qarshi, 1885- yilda esa quturishga qarshi emlashni taklif etdi. Ko'p o'tmay boshqa kasalliklarga qarshi kurash usullari ham topildi.

Rus olimi *I. I. Mechnikov* tibbiyot fanining yangi tarmog'i — immunologiyaga asos soldi, ya'ni 1885- yilda immunitetning fagotsitar nazariyasini yaratdi.

XX asrda viruslar to'g'risidagi fan — virusologiya maydonga keldi, bu fanga 1882- yilda Rossiyada *D. I. Ivanovskiyning*, so'ngra esa 1898- yilda Germaniyada *F. Lyofler* bilan *P. Froshning* va Fransiyada *F. D. Erelning* ishlari asos bo'ldi. Nemis olimi *P. Erlix* yuqumli kasalliklarni davolash uchun kimyoviy sintez usuli bilan dori-darmon yaratishni o'z oldiga maqsad qilib, 1907- yilda zaxmga qarshi nihoyatda samarali vosita — salvarsanni topdi va bu bilan hozirgi zamon kimyo terapiyasiga asos soldi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. XIX asrning 70- yillarida qaysi fanlar shakllandi va rivojlandi?
 2. Aniq fanlar ustida kimlar ilmiy izlanish olib borib, kashfiyotlar yaratdi?
 3. Astronomiya fanida qanday ixtirolar kashf etildi?
 4. Mexanika fani taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
 5. Fizika fanida qaysi olimlar yangiliklar yaratishga erishdi?
 6. Kimyoviy elementlar davriy tizimini kim tartibga solgan? Kimyo fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan kimlarni bilasiz?
 7. Biologiyaga qanday nazariyalarga asos solindi? Irsiyat nima?
 8. XIX asr oxirida qanday kasalliklarga qarshi tibbiy kashfiyotlar qilindi?
 9. Fanlardagi yangiliklarni va turli davlatlarda yaratilgan kashfiyotlarni bir-biri bilan taqqoslang.

Bu nomlarni yodda tuting: N. I. Lobachevskiy, Ya. Bolyay, B. Rimani, F. Kleyn, E. Beltrami, D. Gilbert, K. Shvarshild, G. Gelmgols, N. E. Jukovskiy, K. E. Siolkovskiy, V. Rentgen, V. Galvane, A. Bekkerel, M. Kyuri, A. Eynshteyn, A. M. Butlerov, V. Grinyar, M. Bertole, E. Gekkel, N. I. Mechnikov, I. M. Sechenov, I. V. Michurin, L. Paster, P. Erlix.

42-§. Gumanitar fanlar, adabiyot va san'atning rivoji

Har bir jamiyat taraqqiy etar ekan, o'zining g'oyasi va mafkurasiga ega bo'ladi. Ushbu g'oya va mafkurani birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fanlar, adabiyot va san'at o'zida ifoda etadi.

XX asr boshlariga kelib, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada taraqqiyoti uchun hamda har qanday diniy xurofotlardan xoli bo'lgan ilmiy dunyoqarashning mavqei mustahkamlanishi uchun sharoit yaratildi. Gumanitar fanlarda, birinchi navbatda falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, adabiyot va sotsiologiyada realistik voqelikni aks ettiruvchi asarlar yuzaga keldi. Bir qator olim va yozuvchilar insonlarning yaxshi yashashi uchun, demokratiya, tenglikni ta'minlovchi jamiyatni barpo qilish maqsadini ulug'lovchi va shunga intiluvchi g'oyalarni ifodalovchi asarlarni yuzaga keltirdilar. Lekin bosqinchilikka, qanday qilib bo'lsa ham boylik to'plashga undovchi asarlar ham keng nashr qilindi.

Tarixchilar kishilik taraqqiyotining turli davrlari haqida juda katta faktik material to'pladilar. Bu davrda ham azaliy kurash — yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash mafkuraviy, g'oyaviy hayotning asosini tashkil qildi.

Gumanitar soha olimlari XX asr boshida ro'y berayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni kuchaytirdilar.

Xalq ta'limi

Monopolistik burjuaziya mehnatkashlar ommasi ma'lum darajada bilim olishidan manfaatdor edi, chunki texnika taraqqiyoti sharoitida texnik loyiha, chizmalarni tushunadigan, yo'riqnomalarni o'qiy oladigan, ma'lum hisob-kitoblarni amalga oshira oladigan malakali ishchilar zarur edi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda 12—

13 yoshgacha bo'lgan bolalarni umumiy majburiy va bepul o'qitish joriy qilindi. Bu hol mehnatkashlarning ham moddiy, ham ijtimoiy yutug'i edi.

Biroq, xalqning asosiy qismi qashshoq yashaganligi, yomon uy-joy sharoitlari, bolaligidan tirikchilik uchun pul topish zarurligi ko'plab bolalarni o'qishni oxiriga yetkazmasdan maktabni tashlab ketishga majbur qilardi.

Ko'pgina mamlakatlarda boshlang'ich maktabda mashg'ulotlar juda cheklab qo'yilgan o'quv rejasi va dasturlar asosida olib borilardi.

Bular o'rta maktablardan so'ng oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirish imkonini bermas edi. Biroq, mulkdorlarning bolalari uchun imtiyozli o'quv yurtlari ko'paytirildi.

Ba'zi mamlakatlarda yoshlarni millatchilik, irqchilik ruhida tarbiyalashga e'tibor qaratilar edi. Asosan nemis maktablarida shovinizm zo'r berib bolalar miyasiga «quyilar», haqqoniy tarixni buzib ko'rsatish bilan «German irqining» afzalliklarini, «German zakovati»ning beqiyos ulug'vorligini uqtirishga va buni isbotlashga urinar edilar.

Qiz bolalar uchun kam talab qo'yiladigan alohida maktablar tashkil etilgan bo'lib, ularning dasturi keng qamrovli emasdi. Ba'zi mamlakatlarda xotin-qizlarning oliy ta'lim olishi cheklangan edi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida xalq maorifi tizimi irqchilik ruhida edi. Negrlarning bolalari uchun alohida maktablar ochilgan bolib, bu maktablarda oq tanilarning bolalari uchun tashkil etilgan maktablardagiga qaraganda kam hajmda bilim berilar edi. Bu davrda Sharqda xalq ta'limi sohasida g'arbning yutug'i tashviq qilina boshladi. Yevropa ta'siri kuchaydi. Yapon maorifchilari *Yukio Fukuzava* (1834—1901), *Tokusuke Nakae* (1847—1901) bu sohada katta ishlar qildilar. Yaponiyada 6 yillik majburiy ta'lim joriy qilindi. 1879-yilda Fanlar akademiyasi tashkil etildi.

Falsafa va mustamlakachilik g'oyalari Bu davrda falsafa fani ham rivojlanib davrga moslashdi. Ilgari ma'rifatparvarlik kuchli bo'lsa, endi inson huquqlariga e'tibor kuchaydi. Fan taraqqiyoti natijasida uning jamiyat hayotida o'rini belgilash, barcha ijtimoiy muammolarni hal qilishda fanning ijobiy hodisa ekanligini asoslash kuchaydi.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlardan biri *Artur Shopenhauer* (1788—1860) bo'lib, u barcha maxluqotlarning xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir deb tushuntiradi.

Fridrix Nisshe (1844—1900) bu ta'limotni davom ettirib, «eng chuqur mohiyat — hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir» deydi. Inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini asoslashga harakat qildi. Uning diyorumizda bundan ikki yarim ming yil oldin shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan.

O. Shpengler (1880—1936) «yevrosentrizm»ga, ya'ni barcha madaniyatlarni «yevropalashtirish» g'oyasiga qarshi chiqadi.

Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutloqlashtiradi.

Endi ko'pgina faylasuflar jamiyat taraqqiyotining bosh mezon — sanoatning rivojlanish darajasi deb hisoblay boshladilar. Tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddaviylik, xristianlik, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi ilgari surildi.

Lekin bu davrda markscha-lenincha va fashistik g'oyalar ham shakllana boshladi. Boylik, dunyo bozorini talashish, hukmronlikka intilish mustamlakachilik g'oyasini ham rivojlantirdi.

Ingliz yozuvchisi *Redyard Kipling* o'z asarlarida dengiz va okeanlar «egasi», «quyoshi hech qachon so'nmaydigan» imperiya bo'lmish Buyuk Britaniya imperiyasini ko'klarga ko'tarib maqtadi.

Kipling «oq tanli kishi» go'yo boshqalardan ustun bo'lib, «rangdor» xalqlar orasiga madaniyat olib kirishga tayyor turadi deb kitobxonlarni ishonitirmoqchi bo'ladi. («Oq tanli kishining burch anduhi»). Shu tariqa Kipling o'z ijodi bilan mustamlakachilik g'oyalarini oddiy inglizning ongiga singdirishga ko'maklashdi. Rus yozuvchisi A. I. Kuprin ta'kidlaganidek, Kipling «yollangan ingliz soldatlarini talonchilik, qon to'kish va boshqalarni ezishga» ilhomlantirdi.

Fransiyada *Pyer Loti* va *Moris Barres* ulug' davlatlarning mustamlakachilik tizimini oqlovchi, asarlar yozdilar. Pruss baroni Detlev fon Lilienkronning she'r va hikoyalari shovinizm ruhi bilan

sugʻorilgan edi. Ingliz Rayder Xaggard mustamlakachilikni tashviq qildi. Ayniqsa, uning «Montesuma qizi», «Podsho Solomonning yoyi» asarlari shu ruh bilan sugʻorilgan. Italiyalik yozuvchi *Gabriela d'Annunsio* (1863—1938) kapitalistik jamiyatda «kuchli shaxs»ni ideallashtirishda, hech narsadan tap tortmay boylik toʻplagan nafs bandalarini tasvirlashda bir qator «yutuq»larga erishdi.

Dekadentlik

Fanni din bilan va idealistik falsafa bilan qoʻshishga urinish, zoʻrlikka «sigʻina boshlash», shovinizm va irqchilikka oʻtish bu davrda madaniyatda tushkunlik kayfiyatini keltirib chiqardi. Bu narsa XIX asrning oxirlarida «dekadentchilik» (fransuzcha *dekandanse* soʻzidan olingan boʻlib, «tushkunlik», «aynish», «botish» degan maʼnoni anglatadi) degan umumiy nom bilan maʼlum boʻlgan bir qancha oqimlarda yaqqol namoyon boʻldi.

Taraqqiyot va insonga ishonch realistik sanʼat namoyandalariga xos xususiyat edi, dekadentlar esa ulardan farq qilib, realizmga qarshi boʻlgan oqimning namoyandalari sifatida maydonga chiqdilar.

Dekadentlar ijodi zoʻrlik dunyosidagi voqelik, uning illatlari va ziddiyatlarining adabiyotdagi ifodasi edi. Dekadentlar oʻz asarlarida haqiqatdan yiroq boʻlgan xayoliy dunyoni tasvirladilar.

Fransiyada shoir *Pol Verlen*, (1844—1896), Angliyada yozuvchi *Oskar Uayld* (1854—1891) dekadentlarning namoyandalaridan edi.

Dekadentlikning bir yoʻnalishi simvolizm deb atalib, Fransiyada 80- yillarda tashkil topdi. 1886- yil 18- sentabrda Jan Moreas «Figaro» gazetasida eʼlon qilgan manifestida simvolistlarni «tushkunlik kuychilari» deb atadi. Ular voqelikni real tasvirlashdan uzoq boʻlib, mavjud turmushni «soyadagi teatr» deb nomladilar.

Fransuz simvolizmi namoyandalaridan biri shoir *Stefan Mallarme* (1842—1898), *Pol Verlen* va *Artur Rembo* (1854—1891) edilar. *Pol Verlen* sheʼriyati badiiy jihatdan mukammal boʻlsa-da, insonni tushkunlikka yetaklaydi. *Artur Rembo* oʻzining «Doʻzaxdagi yoz», «Ravshanlik» asarlari bilan mashhur boʻlsa-da, Afrikada qashshoqlikda vafot etdi.

Nemis simvolistlaridan *Rayner Mariya Rilke* (1875—1926) «Duolar yozilgan cherkov kitobi», Angliyada *Oskar Uayld* «Hikoyalar», «Doriana Grey portreti» asarlarida xudbin va axloqiy tubanlikka ketgan kishilar obrazini chizadi. *Oskar Uayld*ni 1895-

yili turmaga tashladilar. U turmada yozgan «Reding turmasi balladasi» asarida insonning xo'rlanishi, uning ozod his-tuyg'usining tahqirlanishi haqida yozadi.

Belgiyalik dramaturg *Moris Meterlink* (1862—1949) insonni o'rab turgan dunyodan alohida ajratib olib tabiat qonunlariga yuzma-yuz qo'yadi. Uning «Havorang qush» asariga dunyoning eng yaxshi rejissyorlari murojaat qilib, o'z teatrlarida namoyish qildilar.

Naturalizm

Dekadentlik maktabi, jumladan sim-volizm ham adabiyotning badiiy yan-gilanishida inqilob yasay olmadi. Bu vazifani naturalizm bajar-di. O'sha davr hayotini o'tkir badiiy bo'yoqlarda tasvirlagan bir guruh san'atkorlar o'zlarini naturalistlar deb atadilar. Ularning yirik namoyandalaridan biri fransuz yozuvchisi Emil Zolya Fransiyadagi barcha sinflar va ijtimoiy guruhlarning mavqeini, turmush tarzini va psixologiyasini ko'rsatishni oldiga maqsad qilib qo'ydi. Balzakdan so'ng u o'zining romanlar siklini yaratdi. Kitobxon ko'z o'ngida haqqoniy badiiy misralarda mayda do'kondorlar, ishchilar va bankirlar, dehqonlar hayoti to'la va ishonarli aks ettirildi. Emil Zolyaning 20 tomlik «Rugon-Makkari» seriyasi Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning biologik va ijtimoiy tarixiga bag'ishlanadi. «Jerminal» va «Tor-mor» romanlari uning ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Shu bilan birga uning asarlarida aniq fan usullari yaqqol ko'rinadi. Voqealar yorqin hisobotga o'xshab badiiy bezatiladi va ishonarli tasvirlanadi.

Italiyada naturalizm namoyandalaridan *Luidji Kapuana* (1839—1915) va *Jovanni Verga* (1840—1922) larni ko'rsatish mumkin. Ular o'z asarlarida Janubiy Italiyadagi qashshoqlikni, unga qarshi kurashuvchilarni badiiy aks ettirdilar. Amerika naturalistlaridan *Stiven Kreyn* (1871—1900) «Meggi—ko'cha qizi», «Jasoratning qonli belgisi», *Frenk Norris* (1870—1902) «Sakkizoyoq», «Girdob» asarlarida juda katta ijtimoiy masalalarni ko'tarib chiqdi.

Tanqidiy realizm

XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida Yevropa madaniy hayotida realistik oqim bilan dekadentlik oqimi o'rtasida kurash avj oldi. Bu davrda rus adabiyoti namoyandalari *L. N. Tolstoy*, *A. P. Chexov* chet ellardagi zamondoshlari uchun realistik ijodning yangi

imkoniyatlarini ochib berdilar. Xalq dekadentlik ruhida yozilgan asarlarni qabul qilmadi. Natijada turmushni aniq ifodalaydigan asarlarga ehtiyoj ortdi. Realist yozuvchilar atrofdagi voqelikni dadil va haqqoniy aks ettirishga intildilar. Shuning uchun bu davr realizmi tanqidiy realizm nomini oldi.

Gi de Mopassan, Anatol Frans, Romen Rollan, Genrix Mann, Jon Golsuorsi, Bernard Shou, Mark Tven, Teodor Drayzer, Rabindranat Tagor, Lu Sin va boshqalar tanqidiy realizmning yirik namoyandalari edilar.

Gi de Mopassan (1850—1893) o'zining «Hayot» (1883), «Azizim» (1885), «Mont-Oriol» (1886) va boshqa asarlari bilan fransuz badiiy dunyosida qator ijtimoiy masalalarni mahorat bilan rang-rang bo'yoqlarda tasvirlagan tengsiz ijodkordir.

Belgiyalik mashhur shoir *Emil Verxam* (1855—1916) «Halokat», «Qora mash'ala», «Oqshom», «Alahlagan dala», «Sakkizoyoq-shaharlar» kabi asarlarida qishloq va shaharlarda xalq hayoti, iztirobi, kechinmalarini ustalik bilan qalamga oladi. Germaniyalik *Gerxart Gaupman* (1862—1946) «Tong», «To'quvchilar» pyesalari, ingliziyalik *Gerbert Uels* (1866—1946) «Vaqt mashinasi», «Ko'rinmas odam» nomli fantastik asarlari, *Tomas Gardi* (1840—1928) «Tess d'Erbervillar zotidan», «Ko'rinmas Jud» asarlari bilan mashhur bo'ldi.

J. Londonning ijodi radikal intilishlar bilan ajralib turar edi. Uning «Temir tovon» romanida insoniyat oldida turgan halokat yoki dahshatli azoblar oldindan aytib berildi. Avtobiografik roman «Martin Iden» da yozuvchi halol san'atkorlarning soxta madaniyat bilan fojiali to'qnashuvini ochib bergan.

Amerikalik yozuvchi *T. Drayzerning* «Finansist», «Titan» va «Jenni Gerxard» romanlarida amerikalik monopolist,



F. M. Dostoevskiy

tojsiz qirol, puldor Kaupervudning umumlashgan obrazi berilgan. Kaupervud boyish uchun kurashda qalloblik usullaridan, odamlarni aldash, sotib olishdan foydalanib, o'z maqsadi sari intiladi.

R. Rollan o'zining ko'p tomli «Jan Kristof» romanida fransuz va german jamiyatlarining buzilishini ko'rsatadi. Uning qahramoni — kompozitor **Kristof** razillik, munofiqlik, amalparastlikni ko'rib azoblanadi. «Maydondagi yarmarka» kitobi g'oyat keskin fosh qilishi bilan ajralib turadi. Bunda muallif sotqin vazirlarni, «salon to'tilari»ni, amalparastlarni, san'at korchalonlarini fosh qilishda satirik usullardan foydalanadi.

J. Golsuorsi tanqidiy realizmning yirik ustasiga aylandi. U «Munofiqlar oroli»da hukmron doiralarning jaholati, ikkiyuzlamachiligi va o'ta cheklanganligini keskin tanqid qildi. U Angliya hukmron doiralariining turli qatlamlarini, ularning alohidaligini va o'z qobig'iga o'ralib qolganligini tanqidiy tasvirlovchi romanlarni mahorat bilan yozdi. «Mulkdor» romani tanqidiy realizm asosida yozilgan. «Forsaytlar haqida doston» 40 yil davomida yozilgan bo'lib, yirik mulkdorlarning jirkanch hayoti haqqoniy tasvirlangan.

Bu davrda satira katta ahamiyatga ega bo'ldi. Nemis yumorchi yozuvchisi *T. Manning* «Sodiq fuqaro» romani hamda «Imperiya» trilogiyasiga kirgan boshqa asarlari juda katta fosh etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Uning sahifalarida ko'plab qirol va kanslerlarni, zodagon va amaldorlarni, xalqqa xiyonat qilganlarni, imperator Vilgelm II ni, mayda izquvarlarni ko'rish mumkin.

Mavjud tuzumni hajv qilishning yirik ustasi atoqli fransuz *A. Frans* edi. «Uchinchi respublika»ning illatlari, hukmron doiralarning ma'naviy buzilishi, siyosat arboblariining sotqinligi, monarxlarning fitnalari uning asarlarida keskin, oshkora kulgi ostiga olindi. *A. Frans* satirasining «tig'i» «ruhoniy moliyaga va soldat triumviratiga» qarshi qaratildi. Uning «Silvester Bonkarning jinoyati» (1881), «Oq toshda» (1904), «Pingvinlar oroli» (1908) asarlari mashhurdir.

B. Shou dramalari, atoqli amerikalik satirik yozuvchi *M. Tvenning* romanlari, hikoyalari, maqolalari achchiq va kuchli satiraga boydir. «Olomon qiluvchi Qo'shma Shtatlar» maqolasining

nomi yoki «senator turmada o'tirmagan vaqtlarida qonun chiqaruvchi kishi», «xalq xizmatkorlari — porani taqsimlash uchun o'z lavozimlariga saylangan shaxslar» nomli o'tkir ta'riflarning o'zi juda qimmatlidir.

Bu davrda jahon demokratik madaniyati fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan boyidi. Atoqli yapon yozuvchisi *A. Ryunoske* novellalarida mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini o'zida anglash aksini topdi. Hind gumanist yozuvchisi *R. Tagor* (1861—1941) falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, pesalar, hikoya va she'rlari bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi. Uning butun ijodi milliy mustaqillikka otashin chaqiriqdan iborat edi. Ayniqsa, «Halokat va tubanlik» romani mashhur bo'ldi. Xitoylik *Lu Simning* ijodi kambag'allarning og'ir ahvoliga chuqur hamdardlik bilan sug'orilgan edi. U bir qator asarlarni xitoy tiliga tarjima qildi.

Lotin Amerikasida mavjud tuzumning illatlari qit'aning eng yirik shoirlaridan biri bo'lgan nikaragualik *R. Dario* ijodida o'z aksini topdi. Dario «Ruzveltga» nomli g'azabnok she'rida o'zining vatanparvarlik tuyg'ularini ifodaladi.

Demokratik madaniyat ijodkorlari tenglik va adolat tamoyillarining g'alaba qilishiga, insonning ijodiy kuchlariga, uning dunyoni o'zgartira olishiga ishonar edilar.

Demokratik madaniyatning eng yaxshi vakillari g'oyaviy-badiiy sohada olib borgan izlanishlar turli xil reaksiyon mafkuraga, insonning yaratuvchilik faoliyatiga zid bo'lgan tushkunlikni ifoda qiluvchi san'atga qarshi turdi. Bu mafkuraviy kurashga, demokratik kuchlarning muvaffaqiyatiga ko'p jihatdan yangilikka intiluvchi ilg'or ziyolilarning ta'siri yordam berdi.



Rabindranat Tagor



L. N. Tolstoy



A. P. Chexov

L. N. Tolstoy umrining so'nggi yillarida chor Rossiyasining davlat, cherkov, iqtisodiy va ijtimoiy tartibotlarini, axloqiy negizlarini tanqid qilishni davom ettirdi. *A. P. Chexov* «Uch opa-singil», «Olchazor bog'» pesalarida juda katta kuch bilan ijtimoiy masalalarni umumlashtirishga erishdi.

Bu davrga kelib atoqli rus shoiri *A. A. Blok* ijodida xalq ozodligi, insoniylik va jamiyat oldida javobgarlik mavzulari yetakchi o'rinni egalladi.

Xalqning og'ir qismati, uning tuyg'ulari va orzu-umidlari arman poeziyasining asoschisi *X. Abovyan*, fuqarolik lirikasining ustasi tatar *A. To'qay*, belorus shoiri *Ya. Kolas*, ukrain demokrat shoiri *M. M. Kotsyubinskiy*, o'zbek shoirlari *Muqimiy*, *Furqat*, osetin demokrati *K. Xetagurov* hamda chor Rossiyasi mazlum xalqlarining mehnatkashlarga yaqin turgan boshqa shoirlari ijodida o'z aksini topdi.

Bu davrda yaponiyalik mashhur yozuvchi *Simey Fatabeyning* «Suzayotgan bulutlar», *Roka Tokutomining* «Kurosivo», «Yashamagan yaxshi», *Naoc Kinositoning*

«Olovli ustun» romanlari feodal qoldiqlarga qarshi, milliy qadriyatlarini asrashga, xorijning ma'naviy ta'siriga qarshi qaratilgan edi. Xitoy shoiri *Xua Szunsyaniya* (1848—1905) o'z

she'rlarida xalqni xorijliklarga qarshi kurashga chaqirdi. Tanqidiy romanlar kuchaydi. *Li Baoszya* (1867—1906) «Bizning chinovniklar», *U Voyao* (1866—1910) «Yigirma yil ichida», *Lyu E* (1857—1909) «Lao San sayohati», *Szen Pu* (1871—1935) «Qahrli dengizdagi gullar» romanlari bilan mashhur bo'ldi. Bu asarlarda mamlakat hayotidagi turli yovuzliklar, qarama-qarshiliklar, xorijliklarning qilmishlari badiiy ifoda qilingan edi.

Hindistonda bengal yozuvchisi Shorotchandra Chhottopadxay, shoir Muhammad Iqbol asarlari shahar va qishloq hayotini yorqin tasvirladi, xalqni uyg'onishga undadi.

Teatr

XIX asr oxiriga kelib teatr sohasida zamonaviy dramaturgiya bilan hamkorlikda yangi-yangi asarlar paydo bo'ldi va tomoshabinlar qalbidan joy oldi. Teatr xalqning eng sevimli madaniy maskanlaridan biri bo'lib qoldi. Fransiyada «Komedi Fransez» teatri mashhur bo'lib ketdi. Bu teatrdan ulug' fransuz aktrisasi *Sara Bernar* (1844—1923) uzoq yillar faoliyat ko'rsatdi.

Emil Zolyaning «Tereza Raken» romani asosida ishlangan pyesasi Yevropa teatrlarida, ayniqsa italyan teatrlari sahnasida *Eleonora Duze* (1858—1924) singari buyuk aktyorlarning diqqatini o'ziga tortdi va xalqqa manzur bo'ldi.

Ingliz tanqidiy realizmining yirik namoyandasi B. Shou dramaturgiyasi Yevropa teatrlarini demokratlashtirishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. XIX asr oxirida u «Yoqimsiz pesalar» degan g'ayrioddiy, qochirimlarga boy pesani yaratdi. «Beva kishining o'ylari» pyesasida surbet korchalon Sartoriusga go'yo «halol aristokrat» Grench qarama-qarshi qo'yiladi. Muallif Sartoriusning kulbalarda ijara haqi to'lab yashaydigan kambag'allarning oxirgi chaqasini ham tortib olishidan nafratlanadi.



Vilgelm Libknext

Norvegiyalik mashhur dramaturg *G. Ibsenning* (1828—1906) pesalarida burjua nikohining soxtaligi, oilada xotin-qizlarning kamsitilishi, axloqiy qonunlar, dinning ikkiyuzlamaligi mavzulari dadil koʻtarib chiqildi. Katta shov-shuvga sabab boʻlgan «Qoʻgʻirchoq uy» pesasida uning qahramoni Noraning meshchanlar dunyosiga va oiladagi zulmga qarshi isyoni koʻrsatildi.

Parijdagi taniqli rejissyor va aktyor *A. Antuan* (1858—1943) rahbarlik qilgan «Erkin teatr», Londondagi «Mustaqil teatr», baʼzi nemis teatrlari realistik spektakllar yaratdilar. Ayniqsa, «Qorongʻulik hokimiyati», «Orleanlik qariqiz», «Yuliy Sezar», «Qish hikoyasi» kabi spektakllar butun Yevropada shuhrat qozondi va eng mashhur teatrlar repertuaridan uzoq vaqtlar tushmadi. Asosiy eʼtibor sahnada aktyorning harakatlari hayotiy, tabiiy boʻlishiga, barcha rollarni puxta tayyorlashga, shuningdek aktyorlar oʻrtasida yaqindan hamkorlik boʻlishiga qaratilar edi. Nemis aktyori va rejissyori *M. Reynxardning* (1873—1943) faoliyati katta badiiy jasorat va novatorligi bilan ajralib turdi. U sahnada kechinmalarning haqqoniyligiga va jonli chiqishiga erishar edi.

G. Gaupmanning mashhur «Toʻquvchilar» pesasi katta ijtimoiy voqeani koʻtargan edi. Uni senzura bir necha bor taqiqlab qoʻydi, lekin u baribir Germaniya va boshqa mamlakatlarning ilgʻor teatrlari sahnasiga chiqdi.

Rossiya teatrining rivojlanishi ilgʻor adabiyot yutuqlari bilan uzviy bogʻlangan edi. Kichik teatrning buyuk tragik aktrisasi *M. N. Yermolova* rus va chet el klassikasi obrazlariga demokratik maʼno baxsh etdi. Atoqli aktrisa *V. F. Komissarjevskaya* imperator Aleksandr teatrini tashlab, Peterburgda sunʼiylik va turgʻunlikdan xoli boʻlgan oʻz teatrini tashkil etishni maʼqul koʻrdi. *K. S. Stanislavskiy* bilan *V. I. Nemirovich-Danchen*ning badiiy teatrni tashkil etishi jahon teatr madaniyatida katta voqea boʻldi. Moskva Badiiy akademik teatri oʻz navbatida rus ziyolilari bir necha avlodining maʼnaviy dunyosiga katta taʼsir koʻrsatdi.

Yaponiyada 1909- yilda Erkin teatr paydo boʻldi va Shekspir, Ibsen asarlarini sahnalashtirish bilan birga anʼanaviy teatr janrlariga alohida eʼtibor berdi. Xitoyda yarimmustamlaka sharoitida Gʻarb dramatik asarlarini tarjima qilish, musiqali drama teatrining faoliyati

ancha kuchaydi. Yaponiyada ta'lim olayotgan yapon talabalari 1907-yilda «Bahor majnuntoli» teatrini tashkil etdilar va «Kameliyalı Xonim» spektaklini qo'ydilar.

Musiq

Musiqada simvolizmni olg'a surish bilan yangi davr boshlandi. Hali ommaga yetib bormagan Ispaniya, Uzoq Sharq, Skandinaviya xalqlari folklori o'zining yangi, o'ynoqi ritmlari, o'ziga mos rangin bo'yoqlari bilan xalqqa manzur bo'ldi. Bu sohada fransiyalik kompozitor *Klod Debyussi* (1862—1918), *Moris Ravel* (1875—1937) larning «Pelleas va Melisanda», «Ispan soati» operalari, «Dafnis va Xloya» baleti mashhur bo'ldi. Ularning asarlari xalqchilligi bilan ajralib turardi.

Nemis kompozitori *Rixard Shtraus* (1864—1949) «Salomeya», «Elektra», «Gullar oshig'i», Avstriya simfonisti *Gustav Maler* (1860—1911) «Qazo qilgan bolalar haqida qo'shiq», «Bolaning sehrgar shoxi» va boshqa asarlari bilan shuhrat qozondi.

Musiq san'atida realizm va xalqchillik dekadentlarcha noziklikka va shaklan murakkablikka qarshi kurashda rivojlandi. Xalqchillik negizi norvegiyalik kompozitor *E. Griq* va chex kompozitori *A. Dvorjak* ijodida yorqin namoyon bo'ldi. Kompozitor R. Shtraus mosartcha operani qaytadan tikladi. Betxoven an'analarini avstriyalik kompozitor G. Maler rivojlantirdi. Maler musiq asarlarining ijtimoiy ahamiyatini yuksaklikka ko'tardi. murakkab musiqaviy mavzular bilan sodda xalq kuylarining uyg'unlashib ketishiga erisha oldi.

Italiyada Malerning izdoshlari *Jakomo Puchchini* (1858—1924), *Petro Maskani* (1863—1945) va boshqalar «Bogema», «Toska», «Chio-Chio-San» operalarini dunyoga mashhur qildilar.

Rossiya musiqasi benihoya boy edi. Dovyurak kompozitor-novator *A. M. Skryabin* musiqada davrning g'oya va obrazlarini gavdalandirdi. Kompozitor, pianinochi va dirijyor *S. V. Raxmaninov* boy kuylar vositasida Vatan mavzusini romantik pafos va lirika bilan ochib berdi. *F. I. Shalyapin* va *V. B. Sobinov* vokal san'atida, *A. P. Pavlova* va *V. F. Nejinskiy* baletda mukammallik cho'qqilarini zabt etdilar. Ular yaratgan qahramonlarning ichki dunyosi, ishonarli qilib ifodalangan yorqin obrazlari o'z Vatani va undan uzoq-

larda gumanizmning, taraqqiyot g'oyalari qaror topishiga yordam berdi.

Arxitektura, tasviriy san'at

Bu davrda arxitekturada payvandlangan temir, beton, temir-beton va oyna o'z ta'sirini o'tkazdi. 1889- yilda 312 metrli Eyfel minorasining qurilishi yangi an'ananing boshlanishi bo'ldi. Vena arxitektorlari *Otto Vagner* (1841—1918), *Yozef Olbrix* (1867—1908), belgiyalik *van de Velde* (1863—1957), amerikalik *Luis Salliven* (1856—1924) lar binokorlikda yangi materiallar — keramika va qoplama materiallarni ko'plab ishlatdilar. Bu modern usuli deyiladi. Fransuz arxitektorlari *Sharl Garne* (1825—1898), *Ogyust Perre* (1874—1954) Liondagi stadionni, Elisey maydonini, golland arxitektori *Xendrik Berlage* (1856—1934) Amsterdam birjasini, nemis arxitektori *Peter Berens* (1868—1940) Berlin turbina kompleksini yangi usulda qurdilar. XIX asr oxirida Xitoyda jahon arxitekturasi yutuqlaridan keng foydalanilgan Imperatorning yozgi saroyi qurildi. XIX asrning uchinchi choragida rassomchilikdagi yangi oqimlarning biri impressionizm (taassurot) bo'lib, rassomlar voqelikni kuzatishdan olingan taassurotlarni sof holda aks ettirishga intildilar. *Eduar Mone* (1832—1883), *Klod Mone* (1840—1926), *Ogyust Renuar* (1841—1919) va *Kamil Pissarro* (1831—1903) impressionizmning eng iste'dodli namoyandalari edilar. Ularning nozik bo'yoqlar uyg'unligi ifodalangan asarlarida hayotga cheksiz muhabbat aks ettirilgan. Ular quyosh yog'dusini, fazo va teranlikni aks ettirishning yangi texnik vositalarini topdilar. Lekin ular insonning ichki dunyosini, uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'rsatib berishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ymagan edilar. Shu sababli Eduard Manening «Olimpiya» asari katta tortishuvlarga sabab bo'ldi.

1880- yillarda impressionizm tushkunlikka yuz tuta boshladi. *Pol Sezann* (1839—1906), *Pol Gogen* (1848—1903) va *Vinsent Van Gog* (1853—1890) o'sha davrdagi rassomlar orasida alohida o'rin oldilar. Ular ishchilarning azob-uqubatlaridan qattiq ta'sirlandilar, mehnat ahlining og'ir ahvoli ularni astoydil hayajonlantirdi.

XX asrning boshlarida tasviriy san'atdagi ko'plab oqimlar orasida rassomlarning «Foviylar» nomini olgan guruhi ajralib chiqdi. Ayiri Matiss foviylarning intilishlarini yorqin ifoda etdi.

U bezenlar ishlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi: bu vazifani u, ko'pincha jim-jimador bezenlarni yorqin bo'yoqlar berib ishlash yo'li bilan hal etardi. XX asr boshlarida rassomlikda kubistlar ajralib chiqdi. Kubizm namoyandalari obrazlarni talqin qilishda predmet tasvirini yo'qotishgacha borishdi. Buning o'rniga stereometrik figuralar majmuini ishlatdilar. Tasviriy san'atda realizmga qarshi yo'nalish shu tariqa kuchaya bordi. Lekin ijtimoiy mavzularga «qo'l urib», voqealarni real ko'rsatish hollari ham ko'plab uchradi.

Ijtimoiy mavzularni ko'tarishda atoqli nemis rassom ayoli *K. Kolvis* g'oyat katta muvaffaqiyatga erishdi. Uning «To'qimachilar qo'zg'oloni» asari tarixiy voqeani — sileziyalik to'quvchilarning 1844- yilgi qo'zg'olonini aks ettirgan edi. *I. E. Repin* o'zining ajoyib asarlarini yaratishni davom ettirdi. Rassom *V. A. Serov* 1905- yilda realizm namunasi bo'lgan Ermolova portretini yaratdi. *M. Vrubel* rasmlari dekorativligi va koloritning dramatik keskinligi, rasmning aniqligi va ramziylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Xitoy tasviriy san'atida milliy an'ana yanada rivojlandi. Mashhur rassom *Jen Bonyan* (1840—1896) ipak matoga rasm solishning qulay usulini yaratdi. Uning ishlarini *Si Bayish* (1861—1957) davom ettirdi. Ayniqsa, san'atning grav-yura (o'yma naqsh) turi keng rivojlandi.

Hindistonda mashhur rassom *Abanindranatx Tagor* (1875—1951) diniy-mifologik va tarixiy mavzulardagi qator rasmlari bilan shuhrat qozondi.

Buyuk fransuz haykaltaroshi *O. Rodenning* «Mutafakkir» degan asariga qarab hech kim insonning, dekadentlar ishon-tirmoqchi bo'lganidek, «oliy» kuchlar qo'lida o'yinchoq ekanligiga ishonmaydi.



**Mutafakkir. O. Roden.
Gips. 1889 yil**

Umuman xulosa qilib aytganda, gumanitar fanlar, adabiyot va san'at davrning ehtiyojiga aylandi hamda turli xil mafkuraning shakllanishiga xizmat qildi.

Savol va topshiriqlar

- ?
1. Jahon tarixining ikkinchi davrida qanday yirik ilmiy kashfiyotlar qilindi?
 2. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi madaniyat taraqqiyotining asosiy jihatlarini ochib bering.
 3. Shu davrda tabiatshunoslikdagi inqilob nimadan iborat edi?
 4. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridagi mafkuraviy qarashlarning muhim jihatlarini ko'rsating.
 5. Falsafa va mustamlakachilik g'oyasi haqida o'z munosabatingizni bildiring.
 6. Nima sababdan XX asrda madaniyatda ba'zi yo'nalishlarning inqirozi muqarrar bo'lib qoldi?
 7. Bu davrning eng yirik san'at namoyandalari haqida so'zlab bering.
 8. San'atda realizm nima?
 9. Tanqidiy realizmning mohiyati nimadan iborat?
 10. XX asr boshlarida Rossiyada Sharqa ilg'or madaniyatning rivojlanish xususiyatlarini ochib bering.

Bu nomlarni yodda tuting: Yukiti Fukudzava, F. Nisse, R. Kipling, P. Loti, M. Barres, P. Verlen, O. Uayld, S. Mallarme, A. Rembo, M. Rilke, M. Meterlink, E. Zolya, L. Kapuana, J. Verga, S. Kreyn, F. Norris, Mopassan, E. Verxarn, G. Gaupzman, G. Uells, T. Gardi, J. London, R. Rollan, J. Golsuorsi, T. Mann, A. Frans, M. Tven, R. Tagor, Li Sin, L. Tolstoy, Li Baoszya, M. Iqbol, B. Shou, G. Ibsen, A. Antuan, M. Reynxard, M. N. Yermolova, R. Shtraus, J. Puchhini, S. V. Raxmaninov, K. Mone, O. Renuar, P. Gogen, van Gog. Bular yaratgan asarlar, musiqalar, suratlar haqida bahs yuriting. Siz ham ularday bo'lishga intilasizmi?

Biz Volter va Russoning o'lmas merosini, Fransiya adiblari Balzak, Zolya asarlarini o'zbek tilida o'qib tahsin aytamiz... Fransuz rassomlari Renuar, Gogen chizgan suratlarini ko'rib zavqlanamiz.

ISLOM KARIMOV

TARIXIY SANALAR

FRANSIYA

- 1870- y. 19- iyul — Fransiya — Prussiya urushi.
 1871- y. 28- yanvar
 1870- y. 1- sentabr
 1870- y. 4- sentabr Fransiya armiyasining Sedan yonida magʻlubiyatga uchrashi.
 1870- y. 19- sentabr Fransiyaning respublika deb eʼlon qilinishi.
 1870- y. 27- oktabr «Milliy mudofaa» hukumatining tuzilishi.
 1871- y. 26- fevral Parijning pruss qoʻshinlari tomonidan qurshab olina boshlashi.
 1871- y. 18- mart Metsda marshal Bazan qoʻmondonligidagi fransuz armiyasining taslim boʻlishi.
 1871- y. 10- may Versalda Fransiya va Prussiya oʻrtasida dastlabki sulh bitimining imzolanishi.
 1871- y. 28- may Parijda davlat toʻntarishi.
 1871—1873- y.y. Frankfurt Maynda Germaniya bilan Fransiya oʻrtasida sulh shartnomasining imzolanishi.
 1872- y. 27- iyul Parij Kommunasining qulashi.
 1873—1879- y.y. Fransiyada Ter prezidentligi.
 1875- y. Fransiyada uch yillik majburiy harbiy xizmat toʻgʻrisidagi qonunning qabul qilinishi.
 1880—1881- y. Fransiyada Mak-Magon prezidentligi.
 1881- y. 18- iyun Fransiyada Uchinchi respublika konstitutsiyasining qabul qilinishi.
 1881- y. avgust Fransiyada majlislar qilish va matbuot erkinligi toʻgʻrisida, majburiy dunyoviy maʼlumot olish haqida qonunlarning qabul qilinishi.
 1882- y. mart Tunisda Fransiya protektoratining oʻrnatilishi.
 1884—1885- y.y. «Uch imperator ittifoqi»ning tiklanishi.
 Fransiyada boshlangʻich taʼlim islohoti.
 Fransiyaning Hindixitoyda olib borgan harbiy harakatlari. Fransiya — Xitoy urushi, Vetonamning zabt etilishi.

- 1886—1898- y.y. Fransiya — Italiya «boj» urushi.
 1887—1889- y.y. Fransiyada bulanjislari harakati.
 1891- y. avgust Fransiya — Rossiya bitimi.
 1891- y. Fransiyaning Gvineyani bosib olishi.
 1893- y. 27- dekabr Fransiya — Rossiya ittifoq shartnomasining imzolanishi.
 1893- y. Laos ustidan Fransiya protektoratining o'rnatilishi.
 1899- y. iyul Fransiyada Valdek-Russo hukumatining tuzilishi.
 1901- y. Fransiya Sotsialistik partiyasining tashkil etilishi.
 1901- y. Fransiyada Radikal partiyaning tarkibi topilishi.
 1902—1905- y.y. Fransiyada Komb radikal hukumati.
 1905- y. iyul—dekabr Fransiyada cherkovni davlatdan ajratish to'g'risida qonun chiqarilishi.
 1905—1906- y.y. Fransiyada Ruve hukumati.
 1906- y. oktabr Am'enda Fransiya sindikatlarining kongressi. «Am'en xartiyasi»ning qabul qilinishi.
 1906—1909- y. Fransiyada Klemanso hukumati.
 1909—1911- y. Fransiyada Brian hukumati.
 1911- y. Marokash masalasida Fransiya — Germaniya bitimi.
 1913—1920- y.y. Fransiyada Puanqare prezidentligi.
 1914- y. 3- avgust Germaniyaning Fransiyaga urush e'lon qilishi.

ANGLIYA

- 1871- y. 9- may Angliyada tred-yunionlarni «qonunlashtirish» to'g'risidagi qonunning chiqarilishi.
 1874—1880- y.y. Angliyada Dizraeli konservativ hukumati.
 1875- y. 13- avgust Angliyada «Xo'jayinlar va xizmatchilar to'g'risidagi qonun»ning bekor qilinishi.
 1875- y. 4- noyabr Angliya hukumatining Suvaysh kanali aksiyasini sotib olishi.
 1876- y. may Ingliz qirolichasi Viktoriyaning Hindiston imperatori deb e'lon qilinishi.
 1878- y. 4- iyul Angliya — Turkiya ittifoq shartnomasining imzolanishi. Angliya tomonidan Gretsiyadagi Kipr orolining bosib olinishi.
 1878- y. may Sharq masalasida Angliya — Rossiya bitimi.
 1878—1883- y.y. Angliyaning Afg'onistonga qarshi urushi.
 1880—1885- y.y. Angliyada Gladstonning ikkinchi hukumati.

- 1882- y.** Angliya tomonidan Misrni okkupatsiya qilishning boshlanishi.
- 1884- y.** Angliyada fabriyachilar jamiyatining tashkil topishi.
- 1884—1885 y.y.** Sudanda ingliz ekspeditsiyasi. Gordon qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi.
- 1885- y.** Angliyaning Birmani okkupatsiya qilishi.
- 1886- y. 3 mart** Angliyada Solsberi hukumati.
- 1886- y. fevral-iyul** Gladstonning uchinchi hukumati.
- 1886—1892- y.y.** Solsberining birinchi hukumati.
- 1895- y. dekabr** Jekson boshchiligidagi ingliz otryadining Transvaalga qilgan hujumi.
- 1895—1902 y.y.** Angliyada Solsberining uchinchi hukumati.
- 1896—1898- y.y.** Angliyaning Sudanni bosib olishi.
- 1899—1902- y.y.** Ingliz-burlar urushi.
- 1902- y.** Angliyada Balfur hukumati.
- 1905—1908- y.y.** Angliyada Kempbell-Bannerman hukumati.
- 1906- y.** Angliyada ishchi vakillik qo'mitasining leyboristlar partiyasiga aylantirilishi.
- 1908- y. dekabr** Angliyada «Osborn ishi».
- 1908—1915 y.y.** Angliyada Askvit hukumati.
- 1911- y.** Angliyada parlament islohotlarining o'tkazilishi.
- 3- sentabr** Britaniya sotsialistik partiyasining tashkil topishi.
- 1913- y. yanvar** Angliya umumiy palatasi tomonidan Irlandiya uchun gomrul to'g'risida qonun qabul qilinishi.

GERMANIYA

- 1871- y. 18- yanvar** Germaniyani qayta birlashtirishning tugallanishi, Germaniya imperiyasining tashkil topishi.
- 1871—1873- y.y.** Germaniyada oltin valyuta va yagona pul tizimining joriy qilinishi.
- 1871—1873- y.y.** Germaniyada gryunderchilik davri.
- 1871—1890- y.y.** Otto fon Bismark kanslerligi.
- 1875- y. may** Germaniya Sotsialistik ishchi partiyasining tashkil topishi.
- 1878—1890- y.y.** Germaniyada sotsialistlarga qarshi favqulodda qonun.
- 1879- y. iyul** Germaniyada proteksionistik boj tarifining qabul qilinishi.

- 879- y. sentabr** Germaniya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasida ittifoq shartnomasining imzolanishi.
- 1882- y.** Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya o'rtasida ittifoq shartnomasi — «Uchlar ittifoqi»ning imzolanishi.
- 1884- y. aprel** Janubi-G'arbiy Afrika ustidan Germaniya protektoratining o'rnatilishi.
- 1885- y.** Sharqiy Afrika ustidan Germaniya protektoratining o'rnatilishi.
- 1887- y. 18- iyun** «Uch imperator ittifoqi»ning qulashi. Germaniya bilan Rossiya o'rtasida «Ehtiyot shart shartnomasi».
- 1894- y.** Germaniyada Gogenloe kanslerligi.
- 1897- y. noyabr** Germaniyaning Szyao-Chjouni bosib olishi.
- 1898- y. mart** Reyxstag tomonidan harbiy flot qurilishi yetti yillik dasturining qabul qilinishi.
- 1899- y. iyun** Germaniyaning Ispaniyadan Mariana va Karolina orollarini sotib olishi.
- 1899- y. dekabr** Germaniyada Byulov kanslerligi.
- 1902- y. dekabr** Germaniya Reyxstagi tomonidan yangi proteksionistik bojxona tarifining qabul qilinishi.
- 1908- y.** Germaniyada polyak yer-mulklarini majburiy sur'atda tortib olish to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi.
- 1908- y.** Harbiy flotni ko'paytirish to'g'risidagi qonunning Germaniya Reyxstagi tomonidan qabul qilinishi. Byulov blokining barbod bo'lishi.
- 1913- y. iyun** Germaniyada armiya va flotni yangidan ko'paytirish to'g'risidagi qonun.

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

- 1877- y. dekabr** Ishchi partiyasining AQSH sotsialistik ishchi partiyasi deb nomlanishi.
- 1878- y. fevral** AQSH Milliy ishchi-fermer partiyasi (Grinbek-ishchi partiyasining tashkil topishi)
- 1878- y.** AQSH da «Mehnat ritarlari» ordenining legal faoliyatining boshlanishi.
- 1881- y.** AQSH va Kanada tred-yunionlar va ishchilar ittifoqi uyushgan federasiyasining qayta tiklanishi.
- 1890- y.** AQSH da trestlarga qarshi Sherman qonunining qabul qilinishi.
- 1890 y.** AQSH Kongressida Mak-Kinli tarifining qabul qilinishi.

- 1893—1896- y.y.** Gavayi orollarining Qo'shma Shtatlar tomonidan qo'shib olinishi.
- 1898- y. 21- aprel—12- avgust** Ispaniya — Amerika urushi.
- 1899- y. 6- sentabr** AQSHning Xitoyda «ochiq eshiklar» doktrinasini e'lon qilishi.
- 1899—1906- y.y.** Qo'shma Shtatlar tomonidan Filippin orollarining bosib olinishi.
- 1901—1909- y. y.** AQSH da T. Ruzvelt prezidentligi.
- 1903- y.** Panama Respublikasining e'lon qilinishi. AQSH ning Panama kanalini qurish uchun konsessiya olishi.
- 1905- y. iyul** AQSH «Jahon industrial ishchilari» (JII) tashkilotining tashkil topishi.
- 1909—1913- y.y.** AQSH da Taft prezidentligi.
- 1913—1921- y.y.** AQSH da Vilson prezidentligi.

LOTIN AMERIKASI

- 1879—1894- y.y.** Bir tomondan Chili, ikkinchi tomondan Peru va Boliviya o'rtasida Tinch Okean urushi.
- 1889- y.** Birinchi Panamerika konferensiyasi.
- 1889- y. 15- noyabr** Braziliyaning respublika deb e'lon qilinishi.
- 1892—1897- y.y.** Braziliyada dehqonlar qo'zg'oloni.
- 1895—1898- y.y.** Kuba orolida qo'zg'olon.
- 1896- y. iyul** Argentina Sotsialistik partiyasining tashkil topishi.
- 1903- y.** Panama Respublikasining e'lon qilinishi.
- 1909—1916- y.y.** AQSHning Lotin Amerikasiga qilgan intervensiyasi.
- 1910—1917- y.y.** Meksikada inqilob.
- 1914- y. 15- avgust** Panama kanalining ochilishi.

ROSSIYA

- 1876—1879- y.y.** «Yer va erk» tashkiloti faoliyati.
- 1877—1878- y.y.** Rus-turk urushi.
- 1878- y.** Berlin kongressi.
- 1881- y. mart** Aleksandr II ning o'ldirilishi.
- 1881—1894- y.y.** Aleksandr III podsholigi.
- 1883- y.** «Mehnatni ozod qilish» guruhining tuzilishi.
- 1891—1908- y.y.** Sibir temir yo'lining qurilishi.
- 1891—1894- y.y.** Fransuz-rus ittifoqining tashkil etilishi.
- 1894—1917- y.y.** Nikolay II podsholigi.
- 1895- y.** A. S. Popov tomonidan radio aloqaning kashf etilishi.

1897- y.	Ishchilarning ish kunini 11,5 soat qilib cheklash haqida qonun.
1897- y.	Rossiyada aholining birinchi marta ro'yxatga olinishi.
1898- y.	Moskvada badiiy teatrning ochilishi.
1904—1905- y.y.	Rus-yapon urushi.
1904- y. 17- iyul — 20- dekabr	Port-Artur mudofaasi.
1905- y. 9- yanvar	«Qonli yakshanba».
1905- y. 14—24- iyun	«Potemkin» bronenosetsidagi qo'zgo'lon.
1906- y. aprel	I Davlat Dumasi.
1906- y. 9- noyabr	Dehqonlarning jamoalardan chiqishi haqida farmon. Agrar islohotning boshlanishi.
1907- y.	II Davlat Dumasi.
1907—1912- y.y.	III Davlat Dumasi.
1912- y. 4- aprel	Lenadagi otishlar.
1912- y. noyabr	IV Davlat Dumasi.
1914- y.	Birinchi jahon urushining boshlanishi.

AVSTRIYA-VENGRIYA

1873- y. aprel	Avstriyada saylov islohoti to'g'risidagi qonunning e'lon qilinishi.
1877- y. 15- yanvar	Bolqon masalasida Avstriya-Vengriya bilan Rossiya o'rtasida Budapesht konvensiyasining imzolanishi.
1878- y. iyul	Avstriya-Vengriyaning Bosniya bilan Ger-tsegovinani okkupatsiya qilishni boshlashi.
1879- y. oktabr	Germaniya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasida ittifoq shartnomasining imzolanishi.
1879—1893- y.y.	Avstriya-Vengriyada Taaffe vazirligi.
1882- y.	Avstriya-Vengriya, Germaniya va Italiya o'rtasida ittifoq shartnomasining («Uchlar ittifoqi») imzolanishi.
1884- y.	Avstriya-Vengriyada favqulodda qonunning joriy qilinishi.
1888- y.	Gaynfelddagi syezdda Avstriya Sotsial-demokratik partiyasining tashkil topishi.
1890- y.	Vengriya Sotsial-demokratik partiyasining tashkil topishi.
1895—1897- y.y.	Avstriya-Vengriyada Badeni vazirligi.
1907- y. yanvar	Avstriyada umumiy saylov huquqi to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi.
1908- y. oktabr	Avstriya-Vengriyaning Bosniya bilan Ger-tsegovinani bosib olishi.

- 1911- y. Venada oziq-ovqat narxlarining oshib ketishi.
- 1914- y. 28- iyun Avstriyaning taxt vorisi Frans Ferdinandning o'ldirilishi.
- ITALIYA**
- 1870- y. sentabr — 1871- y. yanvar Italiyani qayta birlashtirishning tugallanishi. Rimning Italiya qirolligi markazi deb e'lon qilinishi.
- 1870—1880- y.y. Mon-Sen va Sen-Gotard tunnellari qurilishi.
- 1879- y. Majburiy boshlang'ich (uch yillik) ta'lim to'g'risida Dekret chiqarilishi.
- 1882- y. Italiyaning «Uchlar ittifoqi»ga kirishi.
- 1886—1898- y.y. Italiyaning Fransiya bilan «boj urushi».
- 1887—1896- y.y. Italiyada Krispi hukumati (1892-1893- yillarda hukumat tepasida boshchilik qilmadi).
- 1889- y. Somali ustidan Italiya protektoratining o'rnatilishi.
- 1890- y. Efiopiya hududi bir qismining Italiya tomonidan bosib olinishi. «Eriteriya» nomi bilan mustamlaka tashkil topishi.
- 1895—1896- y.y. Italiya-Abissiniya urushi. Adua yonida italyan qo'shinlarining mag'lubiyatga uchrashi.
- 1903—1914- y.y. Italiyada Jolitti vazirligi (Jolitti bu vazirlikka faqat 3 yil, ya'ni 1905—1906 y.y., 1909—1911 yillarda boshchilik qilmadi).
- 1906- y. Italiyada Umumiy mehnat konfederatsiyasining tashkil topishi.
- 1911—1913- y.y. Italiya — Turkiya urushi. Tripolitaniya, Kirinaika va Dodekanes orollarining Italiya tomonidan anneksiya qilinishi.

BOLQON DAVLATLARI

- 1875- y. Bosniya va Gersegovinada Turkiya hukmronligiga qarshi qo'zg'olon.
- 1876- y. 30- iyun Serbiya bilan Chernogoriyaning Turkiyaga qarshi urush e'lon qilishi.
- 1876- y. iyul Rossiya bilan Avstriya-Vengriya o'rtasida Reyxstag bitimi.
- 1877- y. 21- may Rossiya — Ruminiya harbiy konvensiyasining imzolanishi.
- 1878- y. Serbiya bilan Chernogoriyaning mustaqil deb e'lon qilinishi.

1879- y. aprel	Bolgariyada Tirnovo Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
1885- y. 13- noyabr	Serbiya — Bolgariya urushi.
1887- y. 25- iyun	Ferdinand Koburgskiyning Bolgariya knazi qilib saylanishi.
1887—1894- y.y.	Bolgariyada S. Stambolov hukumati.
1897- y. aprel — sentabr	Gretsiya — Turkiya urushi.
1899- y. dekabr	Bolgariya dehqonchilik xalq uyushmasining tashkil topishi.
1901- y.	Serbiyada yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi.
1903- y. 23- mart	Belgradda siyosiy namoyish. 1901- yilgi konstitutsiyaning bekor qilinishi.
1903- y. fevral — aprel	Serbiya qiroli Obrenovichning o'ldirilishi. 1888- yilgi Konstitutsiyaning tiklanishi.
1908- y. oktabr	Bolgariyaning mustaqil deb e'lon qilinishi.
1909—1911- y.y.	Knaz Ferdinandning podsho unvonini olishi. Albaniyada Turkiya hukmronligiga qarshi qurolli qo'zg'olon.
1910- y. avgust	Chernogoriyaning qirollik deb e'lon qilinishi.
1911- y.	Ruminiya Sotsial-demokratik partiyasining tashkil topishi.
1912- y. 13- mart	Turkiyaga qarshi Bolgariya — Serbiya ittifoq shartnomasi.
1912- y. may	Bolgariya — Serbiya ittifoqiga Gretsiya bilan Chernogoriyaning qo'shilishi.
1912- y. oktabr —	Birinchi Bolqon urushi.
1913- y. may	Albaniyaning mustaqil deb e'lon qilinishi.
1912- y. 28- noyabr	Ikkinchi Bolqon urushi.
1913- y. iyul — avgust	

OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

1868—1873- y.y.	Yaponiyada mulkdorlar tomonidan «Meydzi islohotlari»ning amalga oshirilishi.
1875- y.	Rus-yapon kelishuvi.
1876- y.	Birinchi turk konstitutsiyasining qabul qilinishi.
1876- y.	Noteng «koreys-yapon do'stligi haqida»gi kelishuvning Kanxvada imzolanishi.
1877- y.	Birinchi turk parlamentining ochilishi.
1877—1878- y.	Rus-turk urushi.
1878—1879- y.y.	Ingliz mustamlakachilarining zuluslarga qarshi urushi.
1878—1890- y.y.	Ikkinchi ingliz-afg'on urushi.
1879- y.	Afg'oniston va Angliya o'rtasida Gandamak kelishuvi.

- 1880- y. Afg'on xalqining Kobulda inglizlarga qarshi qo'zg'oloni.
- 1881- y. Peterburgda rus-xitoy kelishuvi.
- 1881- y. Sudanda mahdiylar harakatining boshlanishi.
- 1881- y. Fransuzlarning Tunis ustidan hukmronligining o'rnatilishi.
- 1881- y. Orabibey boshchiligidagi qo'zg'olonning boshlanishi. Misr Konstitutsiyasining qabul qilinishi.
- 1882- y. Seulda soldat va shahar kambag'allarining qo'zg'oloni.
- 1882- y. Misrning inglizlar tomonidan ishg'ol qilinishi.
- 1882—1898- y. Fransuz mustamlakachilariga qarshi Samori Ture boshchiligidagi ozodlik kurashi.
- 1883- y. Nemis mustamlakachilari tomonidan Namibiyaning istilo qilinishi.
- 1884—1885- y.y. Berlin konferensiyasida «Kongoga erkinlik berish».
- 1884—1885- y.y. Fransiya — Xitoy urushi, Vetnam ustidan fransuz hukmronligining o'rnatilishi.
- 1885- y. Hindiston Milliy Kongressining tuzilishi.
- 1885- y. Ingliz mustamlakachilari tomonidan Birmani istilo qilinishining tugallanishi.
- 1885- y. Koreya haqida Yaponiya — Xitoy shartnomasining imzolanishi.
- 1887- y. Fransiya rahnamoligida Hindixitoy ittifoqining tuzilishi.
- 1889- y. Turkiyada «Birlik va taraqqiyot» harakatining tuzilishi.
- 1893- y. Yaponiyada konstitutsiyaning qabul qilinishi.
- 1893- y. Laos xalqining fransuz mustamlakachilari tomonidan bo'ysundirilishi.
- 1893—1894- y.y. Koreyada «Tonxak» diniy jamoasi boshchiligidagi dehqonlar qo'zg'oloni.
- 1894—1895- y.y. Yaponiya-Xitoy urushi.
- 1895- y. Gonkongda Sun Yat Sen boshchiligidagi «Xitoy jamiyati»ning tashkil topishi.
- 1896- y. Xitoy qirolichasi Minning yaponlar tomonidan o'ldirilishi.
- 1896- y. Siam haqida ingliz-fransuz bitimi. (Tailand)
- 1896- y. Rus-Xitoy bitimi.
- 1896- y. Italian istilochilarining Efiopiyaga hujumi.
- 1898- y. Xitoyda «Yuz kunlik islohot».
- 1899- y. Sudanda ingliz-Misr kelishuvining imzolanishi (shartnoma).

1889—1902- y.y.	Angliz-burlar urushi.
1900- y.	Xitoydagi ixtuanlar qo'zg'oloni va unga qarshi 8 yirik davlatning intervensiyasi.
1901- y.	Eronda neft ishlab chiqarish bo'yicha ingliz konvensiyasi.
1902- y.	Angliya bilan Yaponiya o'rtasidagi ittifoq.
1904—1905- y.	Rus-yapon urushi.
1905- y.	Yaponiyaning Koreya ustidan hukmronlik o'rnatishi.
1905—1908- y.y.	Hindistonda inqilobning o'sishi.
1905—1911- y.y.	Eron inqilobi.
1907- y.	Hindiston Milliy Kongressining tarqatilishi. Tilak va uning tarafdorlarining bu tashkilot tarkibidan chiqishi.
1908- y.	«Yosh turklar» inqilobi.
1908- y.	Tilakning sud qilinishi, Bombayda ish tashlash.
1908—1909- y.y.	Tabrizda qo'zg'olon.
1909- y.	Istanbuldagi inqilobga qarshi ko'tarilishning bostirilishi va Sulton Abdulhamid II ning taxtdan ag'darilishi.
1909- y.	Eron, Afg'oniston va Tibetda ta'sir doiralari cheklash haqida ingliz-rus kelishuvi.
1909- y.	Tehronga inqilobiy kuchlarning kirishi.
1909- y.	Ingliz-Eron neft kompaniyasining tashkil etilishi.
1910- y.	Koreyaning Yaponiya tomonidan anneksiya qilinishi.
1910- y.	Janubiy Afrika Ittifoqining tuzilishi.
1911- y.	Uchan qo'zg'olonining boshlanishi.
1911- y.	Xitoyning respublika deb e'lon qilinishi va Sun Yat Senning vaqtincha Prezident etib saylanishi.
1911- y.	Tehronda reaksiyon davlat to'ntarishi.
1912- y.	Sun Yat Senning vaqtinchalik o'rmini Yuan Shikayga bo'shatib berishi.
1912- y.	Xitoyda Gomindan milliy partiyasining tuzilishi.
1912- y.	Marokash ustidan Fransiya hukmronligining o'rnatilishi.
1912- y.	Janubiy Afrikada Afrika Milliy Kongressining tuzilishi.
1912—1913- y.y.	Bolqon urushlari.
1913- y.	Parijda I Arab kongressining o'tkazilishi.
1913- y.	Xitoydagi «Ikkinchi inqilob».

TARIXIY ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

- Absolyutizm** (*lot.*) — mutloq hokimlik, cheklanmagan hokimiyat.
- Avantyurizm** (*fr.*) — osongina muvaffaqiyatga erishish, foyda olishni ko'zlab, tavakkalchilik bilan qilingan xatti-harakat.
- Agressiya** (*lot.*) — tajovuzkorlik, bosqinchilik, urush va hujum qilish, hostirib kirish.
- Anarxiya** (*yunon.*) — hokimiyatsizlik, boshboshdoqlik, har qanday davlat hokimiyatini inkor etish.
- Anarxo-sindikalizm** — beboshlik, tartibsizlik, xalqaro ishchilar harakatidagi anarxizm ta'sirida bo'lgan kasaba uyushma og'machi oqimi.
- Anneksiya** (*lot.*) — bir davlatni zo'rlik bilan qo'shib olish.
- Antanta** (*fr.*) — «Yurakdan kelishuv», bu Angliya, Fransiya va Rossiyaning harbiy ittifoqi bo'lib, 1904—1907- yillarda Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya ittifoqiga qarshi tuzilgan.
- Antimilitarizm** (*lot.*) — militarizmga qarshi ijtimoiy oqim.
- Barrikada** (*fr.*) — ko'chani to'sish, band qilish, ko'prik va tog' yo'llariga yog'och, qum, tuproq, qulatilgan darraxtlar bilan sun'iy to'siq qurish.
- Blankizm** — XIX asr fransuz ijtimoiy harakatidagi oqim. Fransuz siyosiy arbobi sotsialist Lui Ogyust Blanki (1805—1881) faoliyati bilan bog'liq.
- Blokada** (*ingl.*) — qamal qilmoq, ajratib qo'yish, yakkalash. Siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan bir mamlakatning boshqa davlatlar bilan aloqa bog'lashiga imkon bermaslik.
- Boykot** (*ingl.*) — norozilik e'lon qilish, ijtimoiy kurash uchun biror shaxs, tashkilot yoki davlat bilan aloqani tamoman yoki qisman uzish, inkor qilish.
- Burjuaziya** (*fr.*) — mulkdorlar, savdogarlar.
- Burmistr** (*nem.*) — qishloqlarda tartib saqlovchi, dehqonlarning majburiyatini nazorat qiluvchi.
- Versalchilar** — Parij Kommunasi tashkil topgach Versalga qochib ketgan Ter boshchiligidagi inqilobga qarshi hukumat rahbarlari va tarafdorlari.

Gayduklar (<i>veng.</i>)	— Bolqon va Vengriya xalqlarining Turkiya hukmronligiga qarshi kurashgan qo'zg'olonchi partizanlari.
Garnizon (<i>fr.</i>)	— shahar yoki qal'ada doimiy yoki vaqtincha joylashgan harbiy qismlar, shtablar, harbiy o'quv yurtlari birlashmasi.
Gedchilar	— fransuz ishchilar harakatidagi siyosiy oqim bo'lib, opportunizm, anarxizm va ijtimoiy shovinizmga qarshi kurashganlar.
General-gubernator (<i>lot.</i>)	— podsho noibi, oliy bosh qo'mondon, rasman dominionda ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i.
Gomindan (<i>xit.</i>)	— Xitoy milliy partiyasi.
Diktatura (<i>lot.</i>)	— huquqi cheklanmagan hokimiyat.
Doktrina (<i>lot.</i>)	— o'rganish, ta'limot, ilmiy yoki falsafiy nazariya, siyosiy tizim.
Dominion (<i>lot.</i>)	— mulk, hokimiyat, egalik qilish, XX asr o'rtalarigacha Buyuk Britaniya imperiyasi tarkibiga kirgan barcha hududlarga nisbatan qo'llanilgan atama.
Depressiya (<i>lot.</i>)	— tushkunlik.
Deputat (<i>lot.</i>)	— hokimiyat organlariga saylab qo'yilgan vakil.
Diskriminatsiya (<i>lot.</i>)	— kamsitish, xo'rlash, past nazar bilan qarash.
Dogmatizm (<i>yunon.</i>)	— fikr, qaror, aqidaparastlik, 1889- yilda tashkil etilgan turk burjua-pomeshchik millatchilik partiyasi.
Jandarmeriya (<i>fr.</i>)	— mamlakat va armiyada ichki xavfsizlikni ta'minlovchi politsiyaning harbiy otryadlari.
Zabastovka, stachka	— ish tashlash.
Imperiya (<i>lot.</i>)	— hokimiyat, davlat, imperator boshliq monarxiya davlati.
Imperator (<i>lot.</i>)	— hukmdor.
Immigratsiya (<i>lot.</i>)	— ko'chirib yuborilgan muhojirlar. Bir mamlakatga boshqa mamlakat fuqarosining vaqtincha yoki doimiy yashash uchun kelib joylashishi.
Immigrant (<i>lot.</i>)	— muhojir, o'z mamlakatidan boshqa mamlakatga ketib yashovchi shaxs.
Intervensiya (<i>lot.</i>)	— aralashish, bostirib kirish, tajovuz, bir davlatning ikkinchi bir davlat ichki ishlariga yoki uning uchinchi mamlakat bilan o'zaro munosabatlariga aralashuvi.
Istilo (<i>arab.</i>)	— bo'ysundirish, zabt etish.
Kartel (<i>fr.</i>)	— kapitalistik monopoliyalarning asosiy shakllaridan bo'lib, bir turli yoki bir-biriga


Kongress (<i>lot.</i>)	o'xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi bir necha korxonaga egalarning ittifoqi.
Koalitsiya (<i>lot.</i>)	— uchrashuv, yig'ilish.
Koloniya (<i>lot.</i>)	— birlashgan, uyushgan ittifoq.
Konvensiya (<i>lot.</i>)	— ko'chib kelish, mustamlaka.
Konservator (<i>lot.</i>)	— bitim, shartnoma.
Konstitutsiya (<i>lot.</i>)	— bitim, shartnoma.
Kontributsiya (<i>lot.</i>)	— saqlovchi
Konsern (<i>ingl.</i>)	— tuzum, qoida, qonun.
	— tovon puli, tovon to'lash.
Konsessiya (<i>lot.</i>)	— aralash-tirmoq, qorishtirmoq, monopoliya bo'lib birlashmoq.
Korporasiya (<i>lot.</i>)	— yon berish, ijozat berish, ijara.
	— birlashma, jamiyat va tashkilot, uyushma, sex.
Kortes (<i>isp.</i>)	— Ispaniya va Portugaliyada 1911- yilgacha parlament nomi.
Korrupsiya (<i>lot.</i>)	— sotib olish, qonunsiz harakat qiluvchi amaldorlar ittifoqi.
Ku-kluks-klan (<i>ingl.</i>)	— AQSH da reaksiyon burjuaziya mablag' bilan ta'minlab turadigan fashistik terrorchi tashkilot.
Landtag (<i>nem.</i>)	— Yer, mamlakat, yig'in.
Leyboristlar (<i>ingl.</i>)	— Angliyadagi ishchilar partiyasi.
Liberalizm (<i>lot.</i>)	— siyosiy va g'oyaviy oqim.
Lokaut (<i>ing.</i>)	— kapitalistlarning ishchilarga qarshi kurash usuli.
Lordlar palatasi (<i>ingl. - lot.</i>)	— Angliya parlamenti yuqori palatasi nomi.
Magistrat (<i>lot.</i>)	— boshqarma, hokimiyat.
Manifest (<i>lot.</i>)	— Oliy hokimiyat tomonidan biror muhim masala yuzasidan xalqqa qarata qilingan tantanali yozma murojaat.
Memorandum (<i>lot.</i>)	— eslab turish lozim bo'lgan narsa, davlatlar o'rtasidagi yozishmalardan biri.
Migratsiya (<i>lot.</i>)	— ko'chuvchi, joyini o'zgartiruvchi.
Milliy gvardiya (<i>ital.</i>)	— fransuz inqilobi davrida tuzilgan, saylab qo'yilgan, qo'mondonligi bo'lgan qurolli fuqarolar qo'shini.
Missiya (<i>lot.</i>)	— topshiriq, yuksak burch, mas'uliyatli vazifa.
Moliya oligarxiyasi (<i>yunon.</i>)	— moliya kapitali korxonalarini guruhining mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi hukmronligi.
Monarxiya (<i>yunon.</i>)	— yakka hukmronlik.
Monopoliya (<i>yunon.</i>)	— davlat, tashkilot yoki firmaning muayyan sohada yagona huquqi.
Mustamlaka (<i>arab.</i>)	— siyosiy va iqtisodiy mustaqillikdan mahrum

	etilgan, maxsus tartib-qoida asosida idora qilinadigan mamlakat.
Okkupatsiya (<i>lot.</i>)	— bosib olish, ishg'ol qilish.
Oligarxiya (<i>yunon.</i>)	— ozchilikning hokimiyati.
Opportunizm (<i>fr.-lot.</i>)	— qulay, manfaatli murosa qilish, og'machilik.
Panamerikanizm	— Lotin Amerikasi mamlakatlarini asoratga solish va G'arbiy yarimsharda AQSH boshchiligida tajovuzkor harbiy ittifoq tuzish uchun AQSH monopolistlari foydalangan reaksiyon siyosat.
Pangermanizm	— nemis millatchilarining siyosiy harakati.
Panislomizm	— Islom dinida barcha xalqlarni bir davlat qilib birlashtirishni targ'ib qilgan reaksiyon diniy-siyosiy mafkura.
Panturkizm	— XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkiyaning burjua-pomeschchik doiralari orasida tashkil topgan oqim.
Parlament (<i>ing.-fr.</i>)	— kapitalistik davlatlarda butunlay yoki qisman saylov asosida qonun chiqaruvchi oliy davlat organi.
Plantator (<i>lot.</i>)	— plantatsiyaga egalik qiluvchi shaxs.
Platsdarm (<i>fr.</i>)	— qo'shin to'planadigan maydon, hujum qilish uchun mo'ljallangan hudud.
Politsiya (<i>nem.</i>)	— ichki jamoat va davlat tartibini saqlash uchun tashkil etilgan qurolli kuch.
Pravoslaviye (<i>rus.</i>)	— xristian dinidagi asosiy mazhablardan biri hisoblanadi.
Prezident (<i>lot.</i>)	— oldinda o'tiruvchi, belgilangan muddatda davlat boshqaruvchisi.
Provinsiya (<i>lot.</i>)	— poytaxtdan uzoq joy, o'lka, viloyat.
Proteksionizm (<i>fr.</i>)	— ajnabiy raqobatdan saqlab qolish uchun iqtisodiy tadbirlar tizimi.
Protektorat (<i>lot.</i>)	— kuchsiz davlatlarni bo'ysundirish, mustamlakashilik shakllaridan biri.
Ratifikatsiya (<i>lot.</i>)	— davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomaning hukumat tomonidan tasdiqlanishi.
Regent (<i>lot.</i>)	— monarxiya davlatlarida muvaqqat hukmdor, vaqtincha podsho.
Rezidensiya (<i>lot.</i>)	— davlat boshlig'i yoki oliy mansab egalarining doimiy yoki vaqtincha turadigan joyi.
Reyxskansler (<i>nem.</i>)	— Germaniyada hukumat boshlig'ining unvoni.
Reyxstrat (<i>nem.</i>)	— Avstriya-Vengriyadagi ikki palatali parlament.
Reyxstag (<i>nem.</i>)	— Germaniyada markaziy hokimiyat organlaridan biri, parlament.


Rekrut (<i>nem.</i>)	— rus, fransuz, nemis armiyalarida xizmat o'tovchi yollanma soldat.
Remilitarizatsiya (<i>lot.</i>)	— ilgari qurolsizlantirilgan hudud yoki mamlakatni qurollantirish.
Repressiya (<i>lot.</i>)	— davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan qamoq, surgun kabi jazo turlari.
Reparatsiya (<i>lot.</i>)	— urush aybdori bo'lgan davlatdan undiriladigan tovon puli.
Respublika (<i>lot.</i>)	— davlat tuzumi shakllaridan biri. Saylab qo'yiladigan vakolatli oliy davlat hokimiyati.
Reforma (<i>fr.</i>)	— isloh qilish, o'zgarish.
Reformizm	— ijtimoiy harakatga qarshilik qiluvchi og'machi oqim.
Samoderjaviye	— Rossiyada monarxiyaning cheklanmagan davlat tuzumi, mustabid hokimiyat.
Separatizm (<i>lot.</i>)	— Markaziy davlatdan ajralib chiqishga intilish.
Separat sulh (<i>lot.</i>)	— alohida sulh, o'z ittifoqchilari bilan kelishmay tuzilgan bir tomonlama sulh.
Sindikalizm (<i>fr.</i>)	— kasaba uyushma harakatidagi mayda mulkdor, og'machi oqim.
Sindikatsiya (<i>lot.</i>)	— Kapitalistik mamlakatlarda raqobatni yo'qotish, bozorlarga tanho ega bo'lish, narxlarni oshirish, ko'p foyda olish maqsadida tuziladigan monopolistik birlashma.
Sionizm	— Quddusda joylashgan Sion tepaligi nomidan olingan reaksiyon millatchilik harakati. Yahudiy mulkdorlarning mafkurasi.
Stixiya (<i>yunon.</i>)	— uyushtirilmagan, qovushmagan harakat.
Strategiya (<i>yunon.</i>)	— yirik harbiy operatsiyalar va umuman urush olib borish san'ati.
Suverenitet (<i>fr.</i>)	— davlatning tashqi siyosatda mustaqilligi.
Terror (<i>lot.</i>)	— dahshat, qo'rqituv, zo'rvonlik siyosati.
Tred-yunionizm (<i>ing.</i>)	— siyosiy kurashdan bosh tortuvchi ijtimoiy harakat rahbarlarining mulkdorlar bilan hamkorlik qilishiga olib kelgan oqim, kasaba uyushmalari.
Trest (<i>ing.</i>)	— kapitalistik monopoliyalarning bir turi.
Ultimatum (<i>lot.</i>)	— Xalqaro munosabatlarda bir mamlakatning ikkinchi mamlakatga muayyan muddat ichida munozara va e'tirozsiz bajarilishi shart bo'lgan qat'iy talabi.
«Uchlar ittifoqi»	— Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiya ittifoqi.
Fraksiya (<i>fr.-lot.</i>)	— parchalanish, bo'linish.
Shovinizm (<i>fr.</i>)	— ashaddiy millatchilik, boshqa xalqlarni ta'qib etish va xo'rlash, turli irq va millatlar o'rtasida adovatni kuchaytirish.

- Shtat** (*nem.*) — ma'lum darajada o'z-o'zini idora etuvchi davlat-hududiy birlik.
- Evakuatsiya** (*lot.*) — xavfli joydan aholini, korxonalar va muassasalarni, moddiy va madaniy boyliklarni olib chiqish.
- Ekspansiya** (*lot.*) — Yirik davlatlarning iqtisodiy, diplomatik va harbiy usullar bilan boshqa mamlakatlarda o'z ta'sir doirasini kengaytirishi.
- Ekstremizm** (*fr.-lot.*) — Keskin fikr va choralarni yoqlash, keskin choralarga tarafdorlik.
- Emigrant** (*lot.*) — muhojir.
- Emigratsiya** (*lot.*) — Siyosiy yoki boshqa sabablarga ko'ra majburiy yoki ixtiyoriy ravishda o'z mamlakatidan boshqa mamlakatga ko'chib borib yashash.


HINDIXITOIDA FRANSIYA BOSIB OLGAN YERLAR




RUS-YAPON URUSHI




1875—1885- YILLARDA BOLQON YARIMOROLI




1912 — 1913- YILLARDA BOLQON YARIMOROLI



XIX ASRNING OHIRI — XX ASR BOSHLARIDA AFRIKA



XIX ASRNING OXIRI — XX ASR BOSHLARIDA JANYBI-SHARQIY OSIYO



MUNDARIJA

Kirish	3
<i>BIRINCHI BO'LIM. YEVIROPA VA AMERIKA DAVLATLARI</i>	
1- bob. Fransiya XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida	9
1- §. Fransiya — Prussiya urushi va uning yakunlari	9
2- §. Fransiya davlat to'ntarishi va uning oqibatlari	14
3- §. XIX asrning oxirida Fransiyaning iqtisodiy taraqqi- yoti	23
4- §. Fransiyaning tashqi siyosati va ijtimoiy harakat	28
5- §. XX asr boshlarida Fransiya	34
2- bob. Germaniya XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida	40
6- §. Germaniyaning birlashtirilishi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti	40
7- §. Germaniyaning tashqi siyosati	47
8- §. XX asr boshlarida Germaniyadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat	52
3- bob. Angliya XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida	59
9- §. XIX asr oxirida Angliyaning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti	59
10- §. Irlandiya masalasi va ijtimoiy harakat	65
11- §. XX asr boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	71
4- bob. AQSH XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida	80
12- §. XIX asrning oxirida AQSHning iqtisodiy ahvoli	80
13- §. Ijtimoiy harakat va tashqi siyosat	86
14- §. XX asr boshlarida AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	92
5- bob. Lotin Amerikasi mamlakatlari XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida	101
15- §. Lotin Amerikasi mamlakatlarning ijtimoiy- iqtisodiy taraqqiyoti.....	101
16- §. Braziliya, Argentina va Markaziy Amerika davlatlari	108
	349

6- bob. Rossiya XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida	114
17- §. XIX asrning oxirida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti	114
18- §. Rossiyaning tashqi siyosati. Rus-yapon urushi	122
19- §. XX asr boshlarida Rossiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	131
7- bob. Janubi-Sharqiy va Markaziy Yevropa xalqlari XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida	140
20- §. XIX asrning oxirida Avstriya-Vengriya	140
21- §. XX asrning boshlarida Avstriya-Vengriya	149
22- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Italiya	156
23- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Bolqon davlatlari	165
<i>IKKINCHI BO'LIM. OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI</i>	
8- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Yaponiya	179
24- §. XIX asrning oxirida Yaponiya	179
25- §. XX asrning boshlarida Yaponiya	187
9- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Xitoy	192
26- §. XIX asrning oxirida Xitoyning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	192
27- §. XX asrning boshlarida Xitoy	201
10- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Hindiston	208
28- §. XIX asrning oxirida Hindiston	208
29- §. XX asr boshlarida Hindistonning ijtimoiy-iqtiso- diy ahvoli	213
11- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Eron va Afg'oni- ston	219
30- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Eronning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	219
31- §. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Afg'oniston	228
12- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiya	234
32- §. XIX asrning oxirida Turkiya	234
33- §. XX asr boshlarida Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	240

13- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Afrika mamlakatlari	244
34- §. Arab mamlakatlari	244
35- §. Mahdiylar qo'zg'oloni va Sudanning Angliya tomonidan egallanishi	252
36- §. Tropik va Janubiy Afrika	260

UCHINCHI BO'LIM. XALQARO MUNOSABATLAR

14- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida xalqaro munosabatlar	269
37- §. XIX asrning oxirida xalqaro munosabatlar	269
38- §. XX asrning boshlarida xalqaro munosabatlar	280

TO'RTINCHI BO'LIM. FAN VA MADANIYAT

15- bob. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida fan va madaniyatning rivojlanishi	288
39- §. Moddiy ishlab chiqarishda texnika taraqqiyoti	288
40- §. Sanoat tarmoqlarida fan taraqqiyoti	295
41- §. Aniq va tabiiy fanlar rivoji	303
42- §. Gumanitar fanlar, adabiyot va san'atning rivoji	310
Tarixiy sanalar	325
Tarixiy atamalarning izohli lug'ati	335

MOYLI FOZILOVICH LAFASOV
ESHQOBIL XOLIQOVICH XOLIQOV
DILOROM QODIROVA

JAHON TARIXI
(1870—1914- yillar)

9-sinf uchun o'quv qo'llanma

Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004

Muharrirlar: Sh. To'laganov, A. Mo'minov, A. Ibrohimov
Badiiy muharrirlar: M. Kaliain, T. Sa'dulla
Texnik muharrir V. Veremeyuk
Musahhihlar: Ziyoda Latifxon qizi, I. Fayzullayeva

IB № 512

Bosishga ruxsat etildi 20.05.2004. Bichimi 60x90¹/₁₆. Garn. tayms. Kegli 11,5, 10 shponli.
Ofset usulida bosildi. Shartli b.t. 22,0. Shartli kr-ott. 19,6. Nashr. t. 19,0. 32100 nusxada
bosildi. Buyurtma № 14. Bahosi 2017 so'm.

Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30.
Shartnoma № 5-04.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «YANGIYUL POLIGRAPH
SERVICE» OAJda bosildi.
702801, Yangiyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44.

2017 с.

